

**Qunduzxon HUSANBOYEVA, Faxriddin SHODIYEV,  
Mutallib HAZRATQULOV**

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA  
ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI**

**Oliy o‘quv yurtlarining pedagogika fakultetlari  
(boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari) talabalari uchun  
d a r s l i k**

**SAMARQAND – 2019**

UDK:371.3

BBK:74.268.5

H84

Mazkur “Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi” darsligi uzluksiz ta‘limning dastlabki bosqichidagi adabiy ta‘lim bo‘yicha amaldagi o‘quv rejasi asosida tuzilgan dastur mazmuniga muvofiq yaratilgan. Unda boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarini tayyorlashda quyi sinflar o‘qish darslari misolida adabiyot o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va eng dolzarb muammolari bugungi kun talablari nuqtai nazaridan yoritib berilgan. Darslik oliy o‘quv yurtlari pedagogika fakultetlari boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari tayyorlash bo‘limining talabalariga mo‘ljallangan. Samarqand davlat universiteti Ilmiy-uslubiy kengashining 2019-yil 5 sentabrdagi 1-sonli qaroriga asosan Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalarini uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

**Maxsus muharrir:**

**Qozoqboy YO‘LDOSHEV,  
pedagogika fanlari  
doktori, professor.**

**Taqrizchilar:**

**A.Azimov**  
filologiya fanlari nomzodi

**A.Toshpo‘latov**  
filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori

Husanboyeva Q va boshq. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. –samarqand: SamDU nashriyoti 2019. 390 bet.

ISBN: 978-9943-5376-7-5

## MUNDARIJA

1-mavzu. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida.....	4
2-mavzu. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limining umumnazariy masalalari. Boshlang'ich adabiy ta'limga xos bo'lgan tamoyillar va yondashuvlar.....	15
3-mavzu. Talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirishda adabiyot o'qitish metodikasi o'quv fanining o'rni va roli .....	35
4-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda badiiy asarlar ustida ishlash t exnologiyalari. O'qish darslarini tashkil etishda hamkorlik texnologiyasining zarurati .....	56
5-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchi ma'naviyatini kamol toptirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni .....	71
6-mavzu. Modulli ta'lim texnologiyasi xususiyatlari va undan boshlang'ich adabiy ta'limda foydalanishning ahamiyati .....	97
7-mavzu. Didaktik o'yinlar texnologiyasi va uning boshlang'ich adabiy ta'limdagi o'rni.....	114
8-mavzu. O'qitish metodlari va boshlang'ich adabiy ta'limda ulardan foydalanish.....	134
9-mavzu. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida ta'lim usullari va dars shakllari. Ularning o'zaro aloqadorligi .....	156
10-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning o'rni va zarurati .....	178
11-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'qish turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	196
12-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda badiiy asarlarning didaktik tahlili haqida tushuncha .....	216
13-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda nasriy va she'riy asarlar ustida ishlashdagi o'ziga xosliklar .....	231
14-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda topishmoqlar va tez aytishlarning ahamiyati. Ular ustida ishlash yo'llari .....	252
15-mavzu. Adabiy ta'limning dastlabki bo'g'inida tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish amaliyoti .....	269
16-mavzu. Adabiy ta'limning dastlabki bosqichida insho va uning turlari. Insholarni baholash me'zonlari .....	286
17-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarni asar qahramonlarini baholashga o'rgatish .....	307
18-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda uy vazifalari berishga qo'yiladigan talablar va uni tashkil etish yo'llari .....	323
19-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda ko'rsatmalilik. Texnik vositalar va internet ma'lumotlaridan foydalanish .....	345
20-mavzu. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish yo'llari .....	359
21-mavzu. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida mustaqil ishlar va ularni tashkil etish yo'llari.....	378

## KIRISH

Hurmatli talabalar! Mazkur o'quv qo'llanmadagi mavzular bo'yicha tuzilgan savol-topshiriqlar Sizlardan o'qiganlaringizni so'zma-so'z takrorlashni emas, balki barcha o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirgan bilimlaringizga tayangan holda o'ylab ko'rib, o'z mustaqil fikringizni aytishni nazarda tutgan holda tuzilgan. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, mavzular bo'yicha taqdim etilgan savol va topshiriqlar zimmasiga matn mazmunida siz bilishingiz, nafaqat bilishingiz, balki bo'lajak o'qituvchi sifatida ongingiz hamda ruhiyatingizga joylab olishingiz shart bo'lgan jamiki muhimlarga sizning e'tiboringizni qaratish yuki ortilgan.

Taqdim etilgan dars ishlanmalari va badiiy matnlar tahlili namunalari ham Sizning amaliy faoliyatingizni to'g'ri tashkil qilishga yo'naltirilgan. Ertangi ish jarayonida Sizga suv bilan havodek zarur bo'ladigan muhim jihatlar nazaringizdan chetda qolib ketishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilingan. Bu talablarning barchasiga, hamma birdek javob bera olmasligi ham mumkin, albatta. Chunki Xudoning har bir yaratig'i o'z qobiliyati va qiziqishlari, o'z iqtidori va intellektual imkoniyatlariga ega. Hammadan bir xil bilim talab qilish ham aqlli ish emas. Har kim aqli yetganicha ish tutadi. Gap shundaki, bilimli, o'z yurti va millatining kelajagi uchun og'riydigan, O'zining ham shaxs, ham o'qituvchi sifatida ma'naviy kamolotini ta'minlashga yuz tutgan talabalar o'rtachalarning qurboni bo'lib qolmasligi uchun shu murakkab yo'l tanlandi. Mukammallik sari intilgan talabalar ularning barchasiga javob berishga urinishlari, o'zlarini sinab ko'rishlari tabiiy, albatta. Bo'lajak hamkasb! O'zingizni kuzating-a, oldingizga qo'yilgan vazifalarning mohiyatiga kirib ularga o'z bilimingiz, saviyangiz va dunyoqarashingizdan kelib chiqib yondashsangiz, ma'nan ko'tarilayotganingizni o'zingiz ham his qilasiz. Bu jarayonda sizga Oq yo'l! To'g'ri tushunganingiz uchun rahmat!

## 1-mavzu. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida

### Reja:

1. "O'qish kitobi" darsliklarining umumiy tahlili.
2. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitishning vazifalari.
3. Boshlang'ich sinflar tarbiyalanuvchilarida shaxslik sifatlarini shakllantirish.
4. Badiiy matn tahlili.

**Tayanch so'zlar:** *konsepsiya, ta'lim standartlari, dastur, darslik, erkin faoliyat, didaktik tahlil metodi.*

Pedagogika ilmi va amaliyotida ko'p zamonlardan beri ta'lim tarbiyadan ustuvor sanalib kelinayotganini bo'lajak o'qituvchilar talabalik yillarida o'zlashtirayotgan bilimlari asnosida payqagan bo'lishsa kerak. Mustaqillikka erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta'lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Endilikda ta'lim amaliyotida tarbiyalanuvchilarga bilimlarni tayyor holda berishdan voz kechilib, shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatini sog'lomlashtirish, ularni mute ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko'tarishning yangi-yangi yo'llari qidirilmoqda. O'qitishning asosiy ashyolari bo'lmish konsepsiya, ta'lim standartlari, dastur, darslik, metodik hamda o'quv qo'llanmalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga ruhan sog'lom, aqlan barkamol, o'z fikri hamda qarashlariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ustuvorlik kasb etmoqda. Yoshlar tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirishdan voz kechilib, o'rniga ma'naviy sifatlarning yetakchiligi, tuyg'ularning injaligi, ko'ngil istaklari ustuvorligiga milliy an'analarga tayangan holda erishishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Afsuski, mustaqillikning dastlabki bosqichida paydo bo'lgan ayrim muammolar egamanlikning chorak asri davomida ham to'laligicha echimini topa olmayapti. O'tmish tuzumning qator illatlaridan qutulish uchun ruhiyati mustaqillik davrida shakllangan avlod etilishi kerak edi. To'g'ri, mustaqillik davrida tug'ilgan avlodning oldi bugun yigirma beshdan oshdi. Lekin ularning barchasi shaxs sifatida erkinmi? Ular ruhan ozodmi? Ma'naviyati sog'lommi?

Mana shu savollar kishini o‘ylantiradi. Ruhan mustaqil bo‘lgan, o‘z haq-huquqini tanigan, ichida «Men»i bor kishilar tomonidan tarbiyalangan bolalargina tom ma’noda Shaxs bo‘lib shakllanishlari mumkin. Chunki o‘zi ma’nan noto‘kis, umuminsoniy va milliy qadriyatlardan yiroq, fikran qashshoq o‘qituvchi o‘quvchilarini aqlan ham, ruhan ham sog‘lom qilib tarbiyalay olmaydi. Ya’ni har qanday tarbiya avval tarbiyachini tarbiyalashdan boshlanishi kerak.

Talabalarga psixologiya ilmidan ma’lumki, bola umrining turli bosqichlarida jisman ham, ruhan ham, aqlan ham turlicha taraqqiy topadi, har bir tarbiyalanuvchi o‘ziga xos tarzda rivojlanadi. Jumladan, o‘qituvchisini daxlsiz va eng bilog‘on shaxs hisoblab uning aytganlariga so‘zsiz quloq osish, ishonish, unga intilish – boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos bo‘lgan umumiy xususiyat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun o‘qituvchi – eng buyuk shaxs. U o‘qituvchisi talablariga ixtiyoriy ravishda astoydil bo‘ysunadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning ko‘pchiligi o‘qituvchisi aytganlarini quloq qoqmay bajaradi va doimiy ravishda uning ko‘rsatmalarini kutishga moyil bo‘ladi. O‘qituvchi qanday va nimani o‘qitishidan qat’i nazar, uni bilib olish kerak deb hisoblaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nazarida o‘qish – ko‘r-ko‘rona ijrochilik, o‘qituvchisiga taqlid, ustozni aytganlarini takrorlashdan iboratday tuyuladi. Mazkur davr pedagogik jihatdan bolada insoniy sifatlarni shakllantirishda o‘qituvchi uchun eng qulay bosqich sanaladi. Bu o‘rinda o‘qituvchi oqil, dono bo‘lsa xo‘p-xo‘p, aksi bo‘lsa...

Inson ichida erkin “men”i, mustaqil fikri bo‘lgandagina o‘z so‘zini aytadi. Fikr – ichki “men” faoliyatining mahsuli. Shakllanib kelayotgan shaxsda o‘zlikni anglash, uning o‘z so‘zi va mustaqil fikri bo‘lishini ta’minlash, bunga sharoit yaratish maktabda o‘qituvchining vazifasi hisoblanadi. Bu undan professional bilimdonlikni talab qiladi. Chunki o‘quvchining aniq maqsad asosida oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish yo‘lida mantiqiy mulohaza yuritish, qo‘yilgan masalani muayyan zo‘riqishlar orqali mustaqil ravishda hal qilishday faoliyatini tashkil etish oson ish emas.

Boshlang‘ich sinflar tarbiyalanuvchilarida shaxslik sifatlarini shakllantirish o‘rta va yuqori sinflardagiga nisbatan ancha farqli kechadi. Bu yoshdagi bolaning hayotiy tajribasi kam va u xulosa

chiqarishni bilmaydi. U ko‘proq taqlid qiladi. Boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladigan ta‘lim va tarbiya jarayoni bolalarning yoshi, intellektual imkoniyatlariga mos holda xulosa chiqarishga emas, fikr aytishga, munosabat bildirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shu sabab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining vazifasi darsda masalani to‘g‘ri qo‘ya bilish, o‘quvchini qiziqтира olish, uning tuyg‘ularini bezovta qila bilishdan iborat.

Bola o‘z bilimi va tajribasida ko‘rilmagan vaziyat bilan to‘qnashganda hamda bu vaziyat uni qiziqtirib qolganda g‘ayriixtiyoriy ravishda mustaqil fikrlay boshlaydi, erkin faoliyatga kirishadi. Ma‘lumki, qiziqqan bola masalaning mohiyatiga kirmay, o‘z istaklarini, bilish ehtiyojini qondirmay qo‘ymaydi. Faqat bolani bunday holatga solishdan avval uni asta-sekinlik bilan taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, aniqlik kiritish, tizimga sola bilish kabi ko‘nikmalarni egallashiga erishish lozim. Shundagina uning bilish faoliyati muayyan samara keltirib, shaxsi to‘g‘ri shakllana boradi.

Kichik o‘quvchilar ma‘naviyatini sog‘lomlashtirishda o‘qish darslarining, ya‘ni boshlang‘ich adabiy ta‘limning o‘rni beqiyos. O‘qituvchi tomonidan o‘qish kitobidagi asarlarni to‘g‘ri idrok etishga yo‘naltirilgan o‘quvchi mustaqil ishlashga, uqib o‘qishga, o‘zgalarning fikrlarini ilg‘ashga, o‘zi va boshqalarning tuyg‘ular olamini kuzatishga, o‘zgani tuyishga o‘rgana boradi. Olamni, Odamni va O‘zligini kashf qiladi. O‘z ichki “men”ning shakllanishida o‘zi bevosita ishtirok etadi.

Darsliklar bunday pedagogik vazifalarning bajarilishida eng katta ko‘makchi sanaladi. Darsliklarda taqdim etilgan o‘quv materiallari mazmunan ta‘lim-tarbiya jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsadlarga mutanosib bo‘lishi kerak. Kuzatishlar asnosida ma‘lum bo‘ldiki, boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitobi” darsliklarining ko‘pchiligi yuqoridagi talablarga yetarli javob bera olmaydi. Bu darsliklarni tuzishdan oldin kichik o‘quvchilarning ruhiyati, intellektual saviyasi etarli darajada o‘rganilmagan. Aytish kerakki, bugungi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darsliklar mualliflari tasavvur qilganlaridan, ularning bu yoshdagi darajasidan ko‘ra bilimlir oq va aqllir oq.

“O‘qish kitobi” darsliklarining umumiy tahliliga tayanib shuni aytish mukinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniy sifatlarni shakllantirishda bolalarning kuchi, aqli va imkoniyatlaridan unumli

foydalanilmayapti. Darsliklarda o'rganish uchun taqdim etilgan o'quv materiallarining katta ko'pchiligi mantiqsiz, jo'n, hayotiy haqiqatdan uzoq. Bir qismi nasihatgo'ylikka qurilgan. Ular mavzudan kelib chiqib, mualliflar tomonidan shunchaki "to'qib" tashlanganday tasavvur uyg'otadi kishida. Asarlar matni yuzasidan tuzilgan: "Nima uchun ona Yer deymiz? Javobni matndan topib o'qing va o'qiganingizni yod oling", "Navoiyning istagi ifodalangan misralarni o'qing", "Yakshanba kuni qanday voqea yuz berdi?", "Ota-ona o'z farzandiga nisbatan qanday iborani ishlatadi?" kabi mantiqsiz savol-topshiriqlar matn mazmunini takrorlashiga xizmat qiladi xolos.

Darslik o'z mazmun-mohiyati bilan sinfdagi eng ilg'or o'quvchidan ham bir pog'ona balandda turishi, ya'ni a'lochi o'quvchilar ham darliklardan o'zlari uchun qiziqarli ma'lumotlarni olishi, ma'lum maqsadlarga erishishda darsliklar tayanch vazifasini o'tashi kerak. 1–4-sinflar uchun yozilgan "O'qish kitobi" darliklarida: "Asar sizda qanday taassurot qoldirdi?", "Do'stlik deganda nimani tushunasiz?", "Nima deb o'ylaysiz, Shiroq nega qo'yini boqib yuravermay qabila boshliqlarining oldiga keldi? Uni bunga undagan narsa nima ekanini ayta olasizmi?", "Uning dili og'ridi" tarzidagi tasvirni o'z so'zlaringiz bilan ifodalashga urinib ko'ring. Uni siz qanday tushundingiz?" singari kichik o'quvchilarni o'z fikrini aytishga va matn mohiyatiga kirishga yo'naltiradigan, badiiy asardan zavq va ma'naviy ozuqa olishga undaydigan, o'z munosabatini asoslashga, xulosasini o'ziga yarasha himoya qilishga qaratilgan savol-topshiriqlar taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki darsliklarda o'rganishga taqdim etilgan o'quv materiallarining mazmun-mohiyatini ochishga yo'naltirilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarni ma'naviy kamolotga etaklovchi asosiy didaktik ashyolardan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, matn yuzasidan tuzilgan mantiqli, o'ylantiradigan, mustaqil fikr talab qiladigan savollarga sinfdagi o'quvchilarning barchasi javob berishi shart emas. Har bir bola o'z intellektual imkoniyati darajasida fikr yuritadi, rivojlanadi. Muhimi – bolalarning har birini savol yoki topshiriq bilan bezovta qilish, ruhiy muvozanatdan chiqarish. O'qituvchilar boshlang'ich sinflardan oq bolalarning ruhiyatini uyg'otish maqsadida ularni badiiyatning yuksak namunalari bilan tanishtirib borsalar, asarlardagi shaxs shakllanishi



uchun muhim bo'lgan jihatlarga ularning diqqatini qarata bilsalar, tarbiyalanuvchilarning ma'nan ham, aqlan ham, ahloqan ham boridan yuqoriga ko'tarilishlariga, barkamollik sari yuz burishlariga sharoit yaratgan bo'ladilar.

Ma'lumki, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida ma'nan sog'lom qilib tarbiyalashda, Shaxsni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Lekin badiiy asardagi kitobxon shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihatlarni, matnda aks etgan hayotiy va badiiy haqiqatlarni ilg'ash, ularning ko'ngilni tozalashga xizmat qiladiganlarini topib, o'z tabiatiga singdirish shakllanayotgan shaxsda osonlik bilan kechadigan jarayon emas. Ta'lim-tarbiya tizimida bu kabi murakkab va mas'uliyatli ishlarni amalga oshirishda «Adabiyot o'qitish metodikasi» deb nomlanuvchi fan va o'z kasbini yaxshi ko'radigan, yaxshi biladigan o'qituvchiga ehtiyoj seziladi.

«Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi» nomli mazkur darslik oliy o'quv yurtlari pedagogika fakultetlari talabalari, ya'ni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'qish darslari misolida adabiyot o'qitishning ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatlarni ko'rsatib beruvchi bir mayoq darajasidagi yo'lko'rsatkichdir. Unda majburiy ta'limning dastlabki bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich sinflar tizimida o'qish darslarini maqsadga muvofiq tarzda, imkon qadar samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilimlarni qamrab olishga harakat qilingan.

Shu maqsaddan kelib chiqib darslikda bolalar adabiyotining taniqli vakillari qalamiga mansub bir qator badiiy to'kis asarlar ustida ishlash namunalarini taqdim etishga qaror qilindi. Toki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari amaliy faoliyatlarida o'z tarbiyalanuvchilariga nimani, qanday o'qitishlari zarurligi haqida bilim va tasavvurga ega bo'lsinlar, amaliy faoliyatda ularni tashkil etish yo'llarini o'rgansinlar.

Agar har bir o'qituvchi kichik o'quvchilarni matn ustida uzluksiz ravishda namunadagidek ishlata bilsa, bolalar ham bunga asta-sekinlik bilan o'rganib boradilar va ularda badiiy asarlar bilan ishlash borasida istalgan ko'nikma hosil bo'ladi. Natijada bola shaxsida fikr kishisi shakllanadi. Fikr kishisi hech qachon o'zgalarga ko'r-ko'rona ergashmaydi, munosabat bildirish kerak bo'lganda jim turmaydi. O'qituvchi bolalarda shunday sifatlarni shakllantirishga da'vat etilgan

shaxsdir. Buning uchun, avval, uning o'zi shunday sifatlarni egallagan bo'lishi lozim. O'qituvchi o'zida yo'q narsani o'quvchisiga berolmaydi.

«Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi» darsligining yutuqlari o'zi bilan, albatta, lekin uning kamchiliklarini bartaraf etib, yanada takomillashtirishda mutaxassis va amaliyotchilarning xolis fikr-mulohazalari katta yordam beradi. Darslik yanada mukammallashib, o'quv jarayonidagi barcha nozik jihatlarni imkon qadar hisobga oladigan holatga keltirilishi maqsadga muvofiq, albatta. Chunki u respublika ta'lim muassasalarida ish yuritadigan minglab bo'lajak o'qituvchilar faoliyatini tashkil etishga asos bo'ladigan manbadir. U qanchalar to'kis bo'lsa, millatning ma'naviy kamolotini ta'minlash ishi shuncha badastir bo'ladi. Shu boisdan, bu borada aytilgan har qanday fikr, taklif va mulohazalar o'ylab ko'riladi, lozim topilganlari, albatta inobatga olinadi.

Hurmatli talabalar! Mazkur o'quv qo'llanmadagi mavzular bo'yicha tuzilgan savol-topshiriqlar Sizlardan o'qiganlaringizni so'zma-so'z takrorlashni emas, balki barcha o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirgan bilimlaringizga tayangan holda o'ylab ko'rib, o'z mustaqil fikringizni aytishni nazarda tutgan holda tuzilgan. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, mavzular bo'yicha taqdim etilgan savol va topshiriqlar zimmasiga matn mazmunida siz bilishingiz, nafaqat bilishingiz, balki bo'lajak o'qituvchi sifatida ongingiz hamda ruhiyatingizga joylab olishingiz shart bo'lgan jamiki muhimlarga sizning e'tiboringizni qaratish yuki ortilgan.

Taqdim etilgan dars ishlanmalari va badiiy matnlar tahlili namunalari ham Sizning amaliy faoliyatingizni to'g'ri tashkil qilishga yo'naltirilgan. Ertangi ish jarayonida Sizga suv bilan havodek zarur bo'ladigan muhim jihatlarni nazaringizdan chetda qolib ketishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilingan. Bu talablarning barchasiga, hamma birdek javob bera olmasligi ham mumkin, albatta. Chunki Xudoning har bir yaratig'i o'z qobiliyati va qiziqishlari, o'z iqtidori va intellektual imkoniyatlariga ega. Hammadan bir xil bilim talab qilish ham aqlli ish emas. Har kim aqli etganicha ish tutadi. Gap shundaki, bilimli, o'z yurti va millatining kelajagi uchun og'riydigan, O'zining ham shaxs, ham o'qituvchi sifatida ma'naviy kamolotini ta'minlashga yuz tutgan talabalar o'rtachalarning qurboni bo'lib qolmasligi uchun

shu murakkab yo‘l tanlandi. Mukammallik sari intilgan talabalar ularning barchasiga javob berishga urinishlari, o‘zlarini sinab ko‘rishlari tabiiy, albatta. Bo‘lajak hamkasb! O‘zingizni kuzating-a, oldingizga qo‘yilgan vazifalarning mohiyatiga kirib ularga o‘z bilimingiz, saviyangiz va dunyoqarashingizdan kelib chiqib yondashsangiz, ma‘nan ko‘tarilayotganingizni o‘zingiz ham his qilasiz. Bu jarayonda sizga Oq yo‘l! To‘g‘ri tushunganingiz uchun rahmat!

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

A. Obidjon. Ajoyibxona qoploni

Taniqli o‘zbek bolalar shoiri Anvar Obidjonning “Ajoyibxona qoploni” nomli she‘ri bolalarda odamlikka xos bir qator ijobiy sifatlarni shakllantirish va mustaqil mulohaza yuritishga undovchi asardir. Unda hayvonot bog‘ida yashovchi qoplonning tilidan unga xos bo‘lgan fazilatlar ochib berilgan. Darsga tayyorlanish asnosida o‘qituvchi hayvonot bog‘ida qafasda turgan qoplonning suratini topib tasvirini ekranda namoyish etadi yoki darstaxtagi qo‘yib qo‘yadi<sup>1</sup>. Mazkur asarni o‘rganishga rejalashtirilgan dars boshlanganda, avval o‘qituvchining o‘zi she‘rni ifodali qilib o‘qib beradi. So‘ng o‘quvchilar bilan birgalikda uning tahliliga kirishiladi.

Bobom tutqun o‘tmagan,  
Tug‘ilganman men ozod.  
Sendan yiroq yursam ham,  
Tinch qo‘ymading, odamzod.  
Meni zo‘rlab qafasga  
Sola olding sen faqat.  
Biroq ruhan o‘lmadim,  
So‘ramadim hech shafqat.  
G‘ururimga sodiqman,  
Orzumandman erkimga.  
To‘qlik va’da qilsang ham,  
Tuflagayman sirkingga.  
Dunyoda ko‘p yuvosh It,  
Nasab-nasli past Ayiq.  
O‘shalarni o‘ynatsin  
Ermaktalab xaloyiq.

---

<sup>1</sup> <https://ru.dreamstime.com/стоковое-фото-тигр-в-к-етке-image57189520>

Men zotimni faxr-la  
Eslarman har nafasda...  
Zo‘rdirmanki, xavfsirab –  
Saqlashyapti qafasda<sup>2</sup>.

Ma’lumki, har qanday badiiy asar, u qaysi janrda bo‘lishidan qat’i nazar, tahlilga, muhokamaga tortilmas, matnning mohiyatiga kirilmas ekan, u tarbiyalanuvchining ma’naviyatiga hech narsa bermaydi. Shu ma’noda mazkur she’r matni ustida ishlash uchun ta’limning **didaktik tahlil metodidan** foydalanish maqsadga muvofiqdir.

She’r o‘qib berilgach, bolalarning tuyg‘ulari sovimasdan uning muhokamasiga o‘tilib, tarbiyalanuvchilarning e’tibori asarning dastlabki ikki misrasiga qaratiladi va qaytadan o‘qib beriladi: «*Bobom tutqun o‘tmagan, Tug‘ilganman men ozod*». Bolalardan bu ikki misrada ilgari surilgan fikrning mazmuni, unda nima deyilayotgani so‘raladi. Ma’lumki yovvoyi hayvonlar uy hayvonlaridan farqlanadi. Ular o‘rmonlarda, tog‘larda tug‘ilishadi va o‘sha erlarda erkin yashashadi. Qafasdagi qoplon ham qachonlardar xuddi ota-bobolari singari erkin bo‘lib o‘rmonda tug‘ilgan, ozodlikda yashagan. U, garchi bugun tutqunda bo‘lsada, erk va ozodlikning nima ekanini yaxshi biladi. O‘qituvchi va o‘quvchilar suhbat, taxminan shu yo‘nalishda boradi.

“*Sendan yiroq yursam ham, Tinch qo‘ymading, odamzod*” misralarida vaziyatga ikki xil nazar bilan qarash mumkin. Biri – qoplonning, ikkinchisi odamzodning nazari. Qoplon inson zotidan norozi. Odam uning erkiga, mustaqilligiga daxl qildi. Uni qafasga soldi. Tutqunga aylantirdi: “Qoplonning vaziyatiga va ko‘zlaridagi mungga tayanib aytingchi, u nimadan norozi?” Odamzodning qoplonni o‘z maskanida tinch qo‘ymaganining sababi haqida ham bolalarni o‘ylab ko‘riga undash lozim: “Nima deb o‘ylaysiz, odamlar nima uchun qoplonni tutib keltirib qafasga solib qo‘yishgan? Bu kimga yaxshiyu kimga yomon? Nimasi bilan yaxshiyu nimasi bilan yomon?”

So‘ngra she’rdagi: «*Biroq ruhan o‘lmadim, So‘ramadim hech shafqat*» misralariga o‘quvchilarning diqqati tortiladi: «Bu nima degani?» Tarbiyalanuvchilar bilganlaricha javob berishadi, fikrlarining yo‘nalishi yovvoyi hayvonlar bir umr qafasda saqlansa

---

<sup>2</sup> [ijod.uz/?cat=17](http://ijod.uz/?cat=17)

ham o‘z fe‘l-atvoriga hiyonat qilmasligi, qoplon ham o‘z erki va qudratiga putur etkizmay yashab kelayotgani atrofida bo‘lsa, ularni rag‘batlantirib qo‘yish o‘rinli bo‘ladi. Shu o‘rinda o‘quvchilarning diqqatini qoplonning ko‘zlariga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ko‘z ko‘ngil kaliti. Bolalar qoplonning ko‘zlaridagi rostni ko‘rishga urinib ko‘rganlari ma‘qul. Kim nima ko‘radi, bolalar biror ruhiy holatni ilg‘aydilar, yo‘qmi, buni vaziyat ko‘rsatadi. Agar hech kim hech narsa ilg‘amagan, topshiriq javobsiz qolgan taqdirda ham tarbiyalanuvchilarning bunga yo‘naltirilganligi adabiy ta‘limning katta yutug‘idir. Bu keyinchalik o‘z samarasini berishi aniq.

Shundan so‘ng kichik she‘rxonlarning diqqati matndagi: «*G‘ururimga sodiqman, Orzumandman erkimga. To‘qlik va‘da qilsang ham, Tuflagayman sirkingga*» degan satrlarga qaratiladi: «Bu gaplar kimning tilidan aytilyapti? Siz qoplonning: “*G‘ururimga sodiqman*” degan e‘tirofini qanday angladingiz? Bu fikr zamirida, sizningcha, qoplonga xos qanday fazilat yashiringan? O‘ylab ko‘ringchi, Qoplonning mag‘rurligi nimada ko‘rinyapti? “*Orzumandman*” so‘zini qanday tushundingiz? Nima deb o‘ylaysiz, nega qoplon sirkda o‘ynashni yoqtirmayapti? Axir, qafasda o‘tirgandan sirkda tomosha ko‘rsatgan yaxshi emasmi?»

Satrlardan ma‘lum bo‘ladiki, qoplon mag‘rur, yovvoyi hayvon. U o‘z erkinligini, mustaqilligini hamma narsadan ustun qo‘yadi, jamiki qoplonlarga xos bo‘lgan mag‘rurlik uning ham qonida bor va u hamisha qonidagi mana shu hisga sodiq qoladi. To‘g‘ri, u sirkda o‘yin-tomosha ko‘rsatsa qorni to‘q bo‘ladi, issiq joyda yashaydi. Lekin u odamzodning qo‘lida o‘yinchoqqa aylanadi. Bu hayot qoplon uchun hayvonot bog‘idagi qafasdan battar. Bunday turmush tarziga uning tabiati yo‘l qo‘ymaydi. O‘quvchilar shu atrofda gapirishar, lekin o‘qituvchi misralarning mohiyatini shu tarzda ochib o‘quvchilarga tushuntirib bergani, so‘ngra shu to‘rtlikni qayta o‘qib bergani tuzuk. Bu bolalarning ruhiyatidan o‘rin olishi lozim bo‘lgan tuyg‘u. Muallim buni unutmasligi maqsadga muvofiqdir.

She‘rdagi tarbiyalanuvchilarning diqqatini qaratish kerak bo‘lgan yana bir to‘rtlik bu uning oxirgi satrlaridir: «*Men zotimni faxr-la Eslarman har nafasda... Zo‘rdirmanki, xavfsirab – Saqlashyapti qafasda*». O‘qituvchi bu satrlarni alohida ajratib yana bir marta o‘qib bergani durust. So‘ng bolalardan uni qanday tushunganliklarini

so'raydi. Chug'ur-chug'ur qilib aytilgan javoblar orasidan haqiqatga yaqinini ajratib olishni unutmazligi kerak muallim. Ya'ni qoplon hech qachon zodiga, qoplonligiga hiyonat qilmaydi. Ayiq yoki maymun bo'lolmaydi. O'zligini, kimlarning avlodi ekanini hech qachon unutmaydi. Oxirgi ikki misra kimga qaratilgani haqida ham bolalar o'ylab ko'rishlari kerak: bu dahshatli fikr. Bolalar bilganlaricha sharhlashsin avval, keyin o'qituvchi: zo'r, qudratli, yovvoyi hayvonlar bo'ysunmas bo'lganliklari uchun ham odamlar ulardan xavfsirashi, qafasda saqlashini ma'lum qiladi. Odamzod ruhiyatida zo'rdan qo'rqish hissi bor. Bu tabiiy tuyg'u. Lekin qanchalik tutqunlikda saqlanishidan qat'i nazar, zo'r baribir zo'r. Bundan hech kim ko'z yumolmaydi. O'qituvchi bolalarning ko'ngliga mana shu haqiqatlarni – aqli va bilimi bilan zo'r bo'lishni joylab qo'ygani boshlang'ich sinflar adabiy ta'limining maqsadi amalga oshdi, degani. Qolganini katta bo'lganda bolalarning o'zlari anglab olaverishadi.

Uy vazifasi sifatida o'quvchilarga hayvonot bog'ida qafasda turgan yoki o'rmonda erkin yurgan qoplonning suratini chizib kelishni topshirish mumkin. O'quvchilarning surat chizishlari bir taraf, lekin chizgan suratlarini o'qib berishlari ularning ma'naviy kamolotlari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois keyingi darsda o'qituvchi o'quvchilarining chizib kelgan suratlarini sharhlab berishini talab qilishi shart. Bu faoliyatga o'qituvchining: "Chizgan qoploningizning ko'zlarida nima aks etgan? U nima uchun qafasga solib qo'yilgan? U xafami xursandmi? Nimadan xafa yoki xursand? Uning xafaligi yoki xursandligini siz nimalarda ko'ryapsiz? U kimga qarab turibdi? Qafasdagi qoplon kuchlimi yoki erkinlikdagisimi? Nega bunday deb o'ylaysiz?" va hk. yo'naltiruvchi yordamchi savollar bilan murojaat qilgani o'quvchiga asarini o'qib berishga ko'maklashadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Nima deb o'ylaysiz, Siz ruhan millat ertasini ta'minlaydigan yosh avlodni tarbiyalashga qodirmisiz? Shunday mas'uliyatni zimmangizga ola bilasizmi? Fikringizni asoslang.

2. Ruhiyatingizga bir nazar tashlab ko'ring-chi, tabiyingizda tanlaganingiz kasbga, bo'lajak o'quvchilaringizga muhabbat mavjudmikin? Xulosangizni kursdoshlaringiz bilan bo'lishing.

3. O'zingizning o'quvchilik davringizni xotirlang: nimalardan qoniqmagansiz: shaxs sifatida o'qituvchingizdanmi, o'quv ashyosi

sifatida darsliklardanmi? Fikringizni asoslang. Siz boshlang'ich adabiy ta'limda qanday o'zgarishlar qilgan bo'lardingiz?

4. Matndagi: *"... o'zi ma'nan noto'kis, umuminsoniy va milliy qadriyatlardan yiroq, fikran qashshoq o'qituvchi o'quvchilarini aqlan ham, ruhan ham sog'lom qilib tarbiyalay olmaydi. Ya'ni har qanday tarbiya avval tarbiyachini tarbiyalashdan boshlanishi kerak"*, tarzidagi fikrlarni qayta o'qing. Ularning mag'zini chaqing. O'z munosabatingizni bildiring.

5. Yuqoridagi: *"Darslik o'z mazmun-mohiyati bilan sinfdagi eng ilg'or o'quvchidan ham bir pog'ona balandda turishi, ya'ni a'lochi o'quvchilar ham darliklardan o'zlari uchun qiziqarli ma'lumotlarni olishi, ma'lum maqsadlarga erishishda darsliklar tayanch vazifasini o'tashi kerak"*, degan fikrga o'z munosabatingizni bildiring. Qarashlaringizni asoslang.

6. Matn mazmunidagi: *"O'qituvchilar boshlang'ich sinflardan oq bolalarning ruhiyatini uyg'otish maqsadida ularni badiiyatning yuksak namunalari bilan tanishtirib borsalar, asarlardagi shaxs shakllanishi uchun muhim bo'lgan jihatlarga ularning diqqatini qarata bilsalar, tarbiyalanuvchilarning ma'nan ham, aqlan ham, ahloqan ham boridan yuqoriga ko'tarilishlariga, barkamollik sari yuz burishlariga sharoit yaratgan bo'ladilar"*, degan fikrga diqqat qiling. Uni o'z so'zlaringiz bilan sharhlab bering. Bu ko'chirma mohiyatiga singdirilgan haqiqatni ochishga urinib ko'ring.

7. Anvar Obidjon qalamiga mansub "Ajoyibxona qoploni" nomli she'r tahliliga bag'ishlangan matn asosida savol va topshiriqlar tuzing. Tuzilgan savol va topshiriqlarga o'zingiz javob bering. Javoblarni birgalikda muhokama qiling, munosabat bildirng.

8. She'rdagi yetakchi g'oyani aniqlang. Unga o'z munosabatingizni bildiring. She'rni yod oling.

9. Mazkur o'quv qo'llanmani shakllanayotgan bir o'qituvchi sifatida kuzatib boring. Yutuq va kamchiliklarini kashf etgan joyingizda, qalam bilan kitobning hoshiyasiga yozib boring. Bir kun bu haqda alohida fikrlashamiz.

## 2-mavzu. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limining umumnazariy masalalari. Boshlang'ich adabiy ta'limga xos bo'lgan tamoyillar va yondashuvlar

### Reja:

1. Adabiyot o'qitish metodikasi fani o'ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlari
2. O'quv fanining mazmuni.
3. Ta'lim tamoyillari.
4. Badiiy matn tahlili namunasi.

**Tayanch so'zlar:** *Adabiyot o'qitish metodikasi, o'quv fanining ob'ekti, fanning predmeti, fanining maqsadi, ilmiy-tadqiqot metodlari, ta'lim tamoyillari.*

Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi pedagogik fanlar tizimiga mansub o'laroq, ilmning alohida turi bo'lish uchun qo'yiladigan uch talabning barchasiga<sup>3</sup> javob bera oladi. Birinchidan, adabiyot o'qitish metodikasi o'rganadigan soha ilmdagi boshqa biror o'quv fani tomonidan o'rganilmaydi. Ikkinchidan, mazkur fan ishlaydigan soha, ya'ni adabiyot darslarida badiiy asarlar ustida ishlashining optimal va samarali yo'llarini tadqiq etish, adabiy ta'limning nazariy asoslarini ishlab chiqish ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, adabiyot o'qitish metodikasi fani o'ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" ham xuddi "Adabiyot o'qitish metodikasi" singari o'quv fani sifatida ilmning barcha metodologik talablariga javob beradi va u oliy o'quv yurtlari pedagogika fakultetlarining boshlang'ich sinflar o'qituvchilari tayyorlash yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

"Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" o'quv fani ham badiiy adabiyot o'qitilish jarayoniga bog'liq qonuniyatlarni o'rganadi. Unda ham adabiyotshunoslik bilan pedagogikaning ayrim xususiyatlari uyg'unlashgan. Ya'ni adabiyotshunoslik alohida fan sifatida adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy jarayon muammolari bilan shug'ullansa, pedagogika bola tarbiyasi qonuniyatlari bilan mashg'ulligi ma'lum. Ammo bu ikkala fan ham uzluksiz ta'lim

---

3Адабиёт ўқитиш методикаси. (Педагогика институтлари ва университетларнинг филология факультетлари учун дастурий қўлланма). Тузувчилар: Қ. Йўлдошев, О. Мадаев, А. Абдураззоқов. – Т.: 1994. 11–12-бетлар.



jarayonida adabiyotdan nimani va qanday o'qitilishi kerakligi masalasini hal qilib bera olmaydi. Shu ma'noda adabiyot o'qitish metodikasi alohida fan sifatida filologik ta'lim uchun zarur hisoblansa, "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" o'quv fani boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida badiiy asarlar ustida ishlash yo'llarini tadqiq etishga yo'naltirilgan. Uning o'z ob'ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, mazmuni va metodlari mavjud. Adabiyot o'qitish metodikasi sohasida yaratilgan bir qator darsliklarga<sup>4</sup> tayanilgan holda undan fan sifatida alohida ajralib chiqqan "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" o'quv fanining **ob'ektini uzluksiz adabiy ta'limning dastlabki bo'g'inidagi "O'qish kitobi" darsliklaridan o'rin olgan badiiy asarlar, tarzida ko'rsatish** mumkin.

Mazkur fanning **predmeti** esa *uzluksiz adabiy ta'limning dastlabki bosqichida badiiy adabiyotning o'qitilishiga doir didaktik ashyolar va qonuniyatlar hamda darsliklardan o'rin olgan badiiy asarlarni o'rganishda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari jarayonidir.*

«Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi» fanining **maqsadi** *bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy kompetentligining asosi sifatida kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar ma'naviyatini sog'lomlashtirishda badiiy asarning ta'sir kuchidan oqilona va samarali foydalanish yo'llarini o'rgatishdan iborat.*

Belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" fani: *o'qish darslarining boshlang'ich ta'limda o'rganiladigan boshqa o'quv fanlaridan farqli tomonlarini ko'rsatish; boshlang'ich adabiy ta'limga innovatsion yondashuvlarni olib kirish; bo'lajak pedagoglarni adabiy ta'limning ilk bosqichi uchun optimal variantlarni belgilashda zarur bo'lgan bilimlarni egallash va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish; badiiy asarlar ustida ishlash jarayonida ta'limning samarali metod va usullaridan bolalarning yoshi va intellektual imkoniyatlariga mos holda foydalanish yo'llarini o'rgatish; o'qish darslarida badiiy matndagi kichik o'quvchi ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan*

---

4 С. Долимов, Х. Убайдуллаев, Қ. Аҳмедов. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: "Ўқитувчи", 1967. А. Зуннунов, Н. Ҳотамов, Ж. Эсонов, А. Иброҳимов. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: "Ўқитувчи", 1992. Б. Тўхлиев. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: "Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси", 2010.

*jihatlarni ochish hamda undan maqsadga muvofiq tarzda foydalanishni bildiriish; o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati hamda ularning o‘zaro munosabatidagi o‘ziga xosliklar bilan tanishtirish singari **vazifalarni** o‘z ichiga oladi.*

“Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi” o‘quv fanining **mazmuni** *boshlang‘ich adabiy ta’limda qo‘l keladidigan o‘qitish metodlari, usullari, shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy asar bilan bog‘liq nazariy va didaktik tushunchalar, adabiy matn bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tashkil etish yo‘llari bilan bog‘liq bilimlarni o‘z ichiga oladi.*

Mazkur o‘quv fanining **ilmiy-tadqiqot metodlari** qatoriga *fanga doir ma’lumot yig‘ishning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi; ilg‘or tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va ommalashtirish, ta’lim hujjatlarini tahlil qilish, o‘qituvchi hamda o‘quvchilar bilan individual suhbatlar tashkil etish kabilarni o‘z ichiga oladigan kuzatish; sinalmagan pedagogik hodisalarni har xil sharoitlarda o‘rganish maqsadida qo‘yilgan ilmiy tajriba ko‘rinishidagi eksperiment; ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan, aniq sharoit va tartibda o‘tkaziladigan, o‘quvchilarning ta’limiy hamda rivojlanish darajasini aniq o‘lchaydigan tekshiruv tizimi bo‘lmish test; ma’lumotlarni oldindan maxsus tayyorlangan savollar va anketalar ko‘magida yalpi tarzda yig‘ish shaklidagi anketa so‘rovnomalari; ta’lim jarayonining son ko‘rsatkichlari aniqlanishiga yo‘naltirilgan statistik tahlil; metodik merosni tanqidiy o‘rganish; o‘quvchi ijodi namunalarni o‘rganish va hk.larni kiritish mumkin.*

Pedagogika fakultetlari talabalari «Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi» kursini to‘la o‘zlashtirsalar:

- adabiyot o‘qitishning dastlabki bosqichiga xos bo‘lgan ta’limning hamkorlik, modulli, muammoli va didaktik o‘yinlar singari tomoyillarining mazmun-mohiyatini anglaydilar;

- adabiy ta’limning ilk bosqichiga xos bo‘lgan o‘qitish metod, usul va shakllari, ularning xususiyatlari hamda foydalanish yo‘llari haqida to‘liq bilimga ega bo‘ladilar;

- har qanday badiiy matnni ham ilmiy, ham didaktik, ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tahlil eta olish ko‘nikmalarini egallaydilar;

- o‘qish darslarini samarali tashkil etish maqsadida o‘zlarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va faoliyatga yo‘naltirish borasida ma’lum ko‘nikmalarni shakllantiradilar;

- boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limi uchun zarur bo‘lgan o‘qish turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda tashkil etish borasida maxsus bilimga ega bo‘ladilar;

- boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitobi” darsliklaridan o‘rin olgan nasriy va she’riy asarlar, topishmoqlar va tez aytishlar ustida ishlashning o‘ziga xos jihatlari bilib oladilar;

- boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida olinishi lozim bo‘lgan insho turlari, ularni tashkil etish va baholash yo‘llari haqidagi bilimlarni egallaydilar;

- o‘qish darslarida tasviriy san’at namunalari ustida ishlash yo‘llarini, tasviriy san’at namunalari o‘qish ishlarini o‘zlashtiradilar;

- adabiy ta’limning dastlabki bosqichida o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga yo‘naltirishning nazariy va amaliy yo‘llarini o‘rganadilar;

- boshlang‘ich adabiy ta’limda o‘quvchilarga uy vazifalari berish me’yori va ularni tashkil etishning nazariy asoslari haqida bilimga ega bo‘ladilar;

- adabiyot o‘qitishning dastlabki bosqichida texnika vositalaridan foydalanish va adabiy materiallar ustida ishlash jarayonida internet materiallaridan foydalanish yo‘llarini o‘zlashtiradilar;

- har qanday badiiy matnga xos bo‘lgan yetakchi g‘oyalarni ilg‘ash va ularni savol yoki topshiriqqa aylantirish ko‘nikmasini egallaydilar;

- o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning nazariy-metodik va amaliy xususiyatlarini bilib oladilar;

- o‘quvchilar bilan professional muloqotga kirisha olish ko‘nikmasini egallaydilar;

- jamoa bilan ishlashda ularga xos bo‘lgan ijtimoiy, etnik, madaniy va diniy tafovutlarga bag‘rikenglik bilan yondasha olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar;

- boshlang‘ich sinflar yoki boshqa ta’lim muassasalarida adabiyotdan sinfda va sinfdan tashqari ishlarni tashkil eta bilishni

o‘rganadilar;

- mashg‘ulotlarni mavjud ilg‘or metodlar asosida tashkil qilishda zarur bo‘ladigan o‘quv-metodik materiallar va dars ishlanmalarini tayyorlash ko‘nikmasini egallaydilar;

- o‘quvchilarga adabiy ta‘lim berish bilan birga ma‘naviy-tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish malakasiga ega bo‘ladilar;

- professional faoliyatlarida har bir o‘quvchi shaxsiga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni bilish va ta‘lim amaliyotida bunga asoslanish yo‘llarini o‘rganadilar va hk.

Adabiy ta‘limni boshlang‘ich sinflar o‘qish darslari misolida tashkil etishning o‘ziga xos bir qator tamoyillari mavjudki, ularni o‘zlashtirmay turib har qanday ta‘lim bosqichida adabiyot o‘qitish ishlarida samaradorlikka erishish amri mahol. Avval “ta‘lim tamoyili” tushunchasining mohiyatiga kirib olish lozim. **Ta‘lim tamoyillari** (prinsiplari – lotincha *principum* – negiz, boshlang‘ich) – ta‘lim kechimini tashkil etishda tayaniladigan eng muhim qoida va qarashlar tizimi. Tamoyillar pedagogik amaliyotni to‘g‘ri tashkil etish ehtiyoji natijasida vujudga kelgan. Tamoyillar o‘qitish jarayoniga qo‘yiladigan talablar majmuasidir. Ta‘limning o‘qitish kechimidagi asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta‘limning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy tamoyili;
- ta‘limning hayot bilan bog‘liqligi tamoyili;
- ta‘limning ilmiyligi tamoyili;
- ta‘limning tizimlili va izchilligi tamoyili;
- ta‘limning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi tamoyili;
- ta‘limning ko‘rsatmalilik tamoyili;
- ta‘limning o‘quvchilar shaxsiga tayangan jamoaviylik tamoyili;
- beriladigan bilimlarning tushunarlilik tamoyili;
- o‘zlashtirilgan bilimlarning puxtaligi tamoyili;
- o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchi ongliligi va ijodiy faolligi tamoyili;
- o‘quvchilarning nazariy fikrlash qobiliyatini o‘stirish tamoyili;
- tarbiyalanuvchining mustahkam bilimga ega bo‘lishi tamoyili va hk.

Ta‘lim kechiminining har bir bosqichida mana shu tamoyillarga rioya qilinishi shart. Ammo predmetlarning mazmuniga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko‘rsatmali qo‘llanmalar

mavjudligiga bog‘liq holda tamoyillarning nisbati hamda mazmuni ma‘lum darajada o‘zgarib boradi. Masalan, ko‘rsatmalilik tamoyili tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida tabiat hodisalari, o‘simlik va hayvonot olamini kuzatish ishlarini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lsa, ona tili yoki birorta chet tilni o‘qitishda grammatik jadvallar ko‘rsatish, darstaxtaga yozish, chizmalar chizish va hk.lardan iborat bo‘ladi. Lekin har qanday o‘quv fanini o‘qitishda jonli mushohada, ya‘ni narsa va hodisalarni muayyan idrok etish, fikrlash tamoyillariga amal qilish, nazariy xulosalarni tushunish va bilish, ularni tajribada, hayotda qo‘llay olish zarur<sup>5</sup>.

Ta‘limning har qanday bosqichida badiiy asarlar ustida ishlash jarayonida o‘quvchini ezgu ma‘naviy sifatlar sohibi qilib tarbiyalash, bu yo‘nalishdagi darslarni to‘g‘ri tashkil etishda adabiy ta‘limning o‘ziga xos bo‘lgan quyidagi alohida tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi:

**1. Dars tartibini o‘zgartirish tamoyili.** Bunga ko‘ra darslar an’anaviy yo‘sinda, ya‘ni tashkiliy qism, uy vazifasini so‘rash va uni mustahkamlash, yangi dars bayoni va uni mustahkamlash, uyga vazifa berish tarzida amalga oshirilmaydi. Dars jarayoni dasturda taqdim etilgan biror badiiy asar ustida ishlanayotganda, o‘quvchilarning avvalgi bilimlari, hayotiy tajribalariga tayangan holda bahsli-munozarali savollar berish, muammoli vaziyatlar yaratish va o‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini ta‘minlash asosida tashkil etiladi. Bu jarayonda bir xillikdan, takrorlardan qochgan holda har xil ta‘lim metodlaridan foydalaniladi. O‘quvchilar asarni tahlil qilishdagi ishtiroklariga qarab baholanadi. Uy vazifalari o‘quvchilardan mustaqil fikrlashni va ijodiy ishlashni talab qiladigan tarzda beriladi.

**2. Badiiy asarlar tahlilining hayot bilan aloqadorligi tamoyili.** An’anaviy ta‘limda darslarning hayot bilan aloqadorligini ta‘minlash o‘qituvchining vazifasi hisoblanadi. O‘quvchi ma‘naviy kamolotini ta‘minlashga yo‘naltirilgan darslarda esa hayotiy hodisalar talqini badiiy asarlar tahlili asnosida o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan o‘zlashtiriladi. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi savol-topshiriqlari va vazifalari bilan bu jarayonga rahbarlik qiladi. Nazariy tushunchalar mavjud borliqni anglash yo‘li bilan tiniqlashadi va chuqurlashadi.

---

<sup>5</sup> Ўзбек педагогик энциклопедик сўзлиги. (Қ. Йўлдош, У. Долимов, Қ. Хусанбоева, А. Сулаймонов, М. Йўлдошева, О. Сафаров.) – Т.: Chashma print, 2014.

O'quvchilar adabiy qahramonlar shaxsi va asarda ifodalangan narsa-hodisalarni tahlil qilish bilan o'zlari hayotda duch kelishlari mumkin bo'lgan har xil hodisalarning asosini topishga o'rganadilar. O'zlari topgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarga hurmat bilan qaraydilar.

Har qanday adabiy ta'limning hayot bilan to'laqonli aloqasi o'qitishning tashkiliy jihatlari va tanlangan metodlar o'rtasida uzviylikni talab qiladi. Ta'lim tizimi amaliyotiga har xil sun'iy metod va usullarni olib kiravermay, ularning hayot hamda mavjud tabiiy qonuniyatlar bilan bog'liq bo'lishiga erishish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi darsda o'rgangan bilimlarini hayotda qo'llasin yoki hayotda ko'rganlari asosida darsda o'z kuchi bilan ilmiy xulosa chiqarsin. Shundagina berilgan bilimlar o'quvchining xotirasigagina emas, tafakkur va ruhiyatiga o'rnashib, uning ko'ngil mulkiga aylanadi. Maktabda bir narsani eshitib, hayotda boshqa narsani ko'rgan o'quvchida darslarda singdirilgan haqiqatlarga ishonch yo'qoladi. Eng to'g'ri yo'l – hayotiy haqiqatlar asosida tarbiyalash. Haqiqat qanchalik achchiq, murakkab va yoqimsiz bo'lmasin, foydalidir. U oxir-oqibat shakllanayotgan shaxsga hayotning asl mohiyatini ochib beradi. Unga hayot qiyinchiliklarini engishning to'g'ri yo'lini tanlash imkonini beradi.

**3. Adabiy ta'limda o'quvchini mustaqil faoliyatga undash tamoyili.** O'qitishning har bir bosqichida adabiy ta'limni to'g'ri uyushtirishning bu tamoyili darslarda badiiy matnlar ustida ishlash, uy vazifalarini so'rash, har xil mustaqil ishlarni yalpi yoki guruh tarzida bajartirishda qo'l keladi. Yangi mavzuni o'zlashtirishga ham o'quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarish asnosida, ya'ni o'zi mehnat qilgan holda erishishlari lozim. Mustaqil ishlar ijodiy yoki yarim ijodiy tarzda taqdim etiladi. 3 – 4 daqiqada bajariladigan qisqa muddatli mustaqil ishlar ham o'quvchilarni faollashtiradi. Tabiatida mustaqil fikrlash va erkin faoliyat sifatlarini shakllantiradi.

**4. Adabiyot o'qitishni individuallashtirish tamoyili.** Maktab adabiyot darslari jarayonini, u ta'limning qaysi bosqichda bo'lishidan qat'i nazar individuallashtirish bilimlarni o'zlashtirishda bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslikni keltirib chiqaradi. Ma'lumki, Allohning har bir yaratig'i o'z intellektual imkoniyati, qobiliyati va iqtidori bilan bir-biridan ma'lum darajada farqlanadi. Sinfdagi har bir o'quvchining fe'l-atvori har xil. Bu tamoyilning asosini o'quvchilarning har biri

bilan maksimal darajada alohida ishlash tashkil etadi. O'quvchi bilan alohida ishlashda uning individual xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishdagi o'ziga xosligi, xotirasi, o'zlashtirish darajasi, xarakteri va qiziqishlari albatta inobatga olinishi shart.

**5. Oldinni ko'ra bilish tamoyili.** Bu tamoyil mohiyatan o'qituvchining o'quvchi faoliyati natijalarini oldindan ko'ra bilishida namoyon bo'ladi. O'qituvchining bunday fazilati o'quv materialini tanlashi va darsga tayyorlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Adabiy ta'limning har bosqichida o'quvchilar ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning yangi bilimlarni o'zlari uchun o'zlari kashf etib o'zlashtirishlari muhim sanaladi. O'quvchilarning bu jarayondagi faoliyati ob'ektiv-sub'yektiv o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Ob'ektiv o'ziga xosligi shuki, o'quvchi bilimlarni kashf qilib o'zlashtirar ekan, fanga ham, o'quv predmetiga ham, ta'lim metodlariga ham hech qanday yangilik kiritmaydi. U bilimlarni o'zi uchun qayta yaratadi, mavjud ilmiy va hayotiy haqiqatlarni o'zi uchun o'zi yangidan kashf qiladi. Sub'yektiv xususiyati esa o'quvchi ta'lim jarayonida o'zi avval duch kelmagan, bilmagan narsalarni shu vaqtgacha foydalanmagan yangi metodlar yordamida o'zlashtirishini nazarda tutadi. Ta'lim olishning bunday yo'llari o'rganilgan bilimlarning yangi jihatlarini ko'rish, ularni mustaqil tarzda o'rganish va chuqurlashtirish nuqtai nazaridan diqqatga loyiqdir.

Bilim olish jarayonida hayratlanarli, kutilmagan hodisalar bilan to'qnashish o'quvchi shaxsida o'ziga ishonch hissini paydo qiladi. Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda ikki narsa hisobga olinishi zarur: birinchidan, o'quvchilar ongida fanga doir qonuniyatlardan va ularning o'zaro aloqasi nechog'lik mukammal aks etganligini aniqlash; ikkinchidan, shu asnoda bilimlarni o'zlashtirishga intilish – motivatsiya uyg'otib, uni qo'llab-quvvatlash, mustahkamlash.

Muallimning o'quvchi intellektual kuchiga ishonchi tarbiyalanuvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otuvchi motivdir. O'quvchining imkoniyatini ocha bilish – o'z vaqtida, ishonarli ravishda, uning yoshiga xos xususiyatlari, ehtiyoj va qiziqishlarini bilgan holda, uni hayotiy tajribasi, aqliy hamda jismoniy kuchi, qobiliyatini namoyish qilishga unday bilishdir.

O'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashsa, bu, albatta, o'quvchilar

faoliyatida o'z aksini topadi va ularning etuk shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. O'qituvchining loqaydlik bilan majburiyat ostida qilayotgan mehnati o'quvchida salbiy hislarni qo'zg'otishi, uning bilim olishga bo'lgan intilishini so'ndirishi tayin. O'quvchining bilim olishga intilishini susaytiradigan holatlardan yana biri dars jarayonidagi bir xillikdir. Bir xil harakatlar, tuyg'ular, fikrlar inson ongini dangasa qilib qo'yadi. Inson asablari tizimi va tafakkuri sheriklikda faoliyat ko'rsatadi. Faoliyatsiz insonning asab tizimi ham zarur darajada rivojlanmaydi. Asab tizimining taraqqiyoti faqat uning tinimsiz harakati bilan amalga oshadi. Intellect esa uning tarkibiy qismlari ishlab turgandagina rivojlanadi. Afsuski, bugun ham ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining faol ishlashi, bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishini ta'minlash borasida etarlicha harakat qilinmayapti. Ko'p hollarda bunday ishlar bolalar va o'smirlarning mustaqil fikrlashlari, ijodiy ishlashlari uchun emas, balki ularning xotirasiga, ya'ni tayyor holda olingan bilimlarni eslab qolishlariga qaratilmoqda. O'qituvchilarda bundan qutilish va bugungi pedagogik talablarga moslashish jarayoni juda sekin kechmoqda.

Mana shu jihatlarni oldindan ko'ra bilgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qish darslarini tashkil etishga tayyorlanganda mas'uliyatni his qiladi. Ertangi faoliyatini shunga qarab yo'naltiradi.

**6. Adabiy ta'limda o'quvchi shaxsining ustuvorligi tamoyili.** Bugungi milliy pedagogika uchun tarbiyalanuvchilarning toza ko'ngilli, ruhan yaxshiliklarga moyil shaxs bo'lib etishishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, ularning yaxshi mutaxassis bo'lib shakllanishlari garovi hamdir. O'sib kelayotgan avlodning bilimli va malakali mutaxassis bo'lishi bilan birga sog'lom ma'naviyat egasi bo'lishi ham davr talabidir. Ma'lumki, sinfdagi har bir o'quvchi o'z tabiati, iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari va imkoniyatlari bilan betakror yaratiqdir. Ularning hech biri ikkinchisini aynan takrorlamaydi. Shuning uchun adabiy ta'limni tashkil etishda har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar berish hamda bilimlarni ham individual tarzda so'rashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Toki, qaysidir bir o'quvchiga berilgan ulkan qobiliyat behuda qurbon bo'lmasin, o'rtacha iqtidorli ikkinchi o'quvchi esa o'z imkoniyatidan tashqari vazifani bajarolmay, o'ziga ishonchini yo'qotmasin.



**7. Adabiyot o‘qitishda ma’naviyat ustuvorligini ta’minlash tamoyili.** Ma’lumki, maktabda yigirmadan ortiq o‘quv fani o‘qitiladi. Ularning ko‘pchiligi bolaga bilim beradi (til, matematika, fizika va hk.). Bir qismi kasb-hunarga yo‘naltiradi (mehnat, rasm, chizmachilik darslari), ayrimlari o‘quvchining jismi rivojiga (jismoniy tarbiya darslari) xizmat etsa, ba’zilari o‘quvchilarda toza ko‘ngil shakllantirilishi uchun (adabiyot, tasviriy san’at, musiqa darslari) o‘rgatiladi. Bu o‘quv fanlarining barchasi oldida milliy pedagogikaning bosh maqsadiga – o‘quvchida ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirishga erishish vazifasi turadi. Adabiyot darslarida badiiy so‘z yordamida o‘quvchini so‘zdan ta’sirlanish, uni tuyish va undan bahra olishga o‘rgatish orqali inson shaxsiyatida go‘zal sifatlar, ijobiy fazilatlarni tarbiyalash mumkin. Go‘zal xulqli, sog‘lom ma’naviyatli kishilarning so‘zlari ham, ishlari ham o‘zlariga munosib ekani, toza ko‘ngil sahibi hamisha rag‘bat va marhamatlarga munosibligi faqat adabiyot orqali anglashiladi. Bu ishlar bevosita badiiy asarlarni o‘rganish, matnlarni tahlil qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

**8. Tarbiyalanish va bilim olishda o‘quvchi ishtirokini ta’minlash tamoyili.** O‘quvchi ma’naviy kamolotini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan badiiy asarlar tahlili jarayonida ular matnda aks etgan voqea-hodisalar, qahramon shaxsi, xatti-harakati, iztiroblari, xursandchiligi borasidagi muhokamalarda fikr aytishga, biror qarash yoki faoliyatni yoqlash yoxud qoralashga undaladi. Bu ish asar matni yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ko‘magida, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan muammoli vaziyatlarda amalga oshiriladi. Savollarga javob berish asnosida o‘quvchi asar matniga murojaat qiladi, izlanadi, o‘rtoqlarini eshitadi, o‘z qarashlarini aytadi, uni boshqalarniki bilan solishtiradi, nazorat qiladi, xulosalar chiqaradi. Mana shu faoliyat jarayonida o‘quvchi o‘z ma’naviyatini shakllantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash yo‘lida mehnat qiladi.

Adabiyot odoblar xazinasidir va bu xazinaga o‘quvchining o‘z ixtiyori bilan kirishiga erishish orqali uning o‘z-o‘zini tarbiyalashini amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

**9. O‘quvchiga kashf etish lazzatini tuydirish tamoyili.** Badiiy asarga uning muallifi tomonidan singdirilgan, darslik yaratuvchilar tomonidan ilg‘angan badiiy va hayotiy haqiqatlarni o‘quvchi o‘zi

uchun o'zi kashf etishi kerak. O'quvchiga asar qahramonlariga xos ma'naviy sifatlarni matn yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ko'magida kashf etish imkoni yaratilishi lozim. Kashf etish hamisha lazzatli, o'quvchilarga ham ana shu lazzatni tuyish imkonini berish kerak. Kashf etish lazzati o'quvchini asar mohiyatiga chuqurroq kirishga, yangi-yangi topilmalar qilishga undaydi. Odam o'ziga huzur bergan ishni yana va yana qilgisi, uni chuqurlashtirib, o'sha huzurni qayta tuygisi keladi. Adabiyot darslarining insonga xos bo'lgan mana shunday tabiiy sifatlarni bilan hamohang kechishi o'quvchi shaxsiyatida sog'lom ma'naviyat kishisini tarbiyalaydi.

**10. Adabiyot darslarida o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi tamoyili.** Adabiyot darslarida, u boshlang'ich ta'limda bo'ladimi, yuqori sinflarda yoki oliy maktabda bo'ladimi, o'qituvchi hokim emas, balki sherik bo'lishi kerak. Bilimlarni o'zlashtirish va tarbiyalanish o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida o'quvchining o'zi tomonidan amala oshiriladi. O'qituvchining darsdagi asosiy vazifalari asarni ifodali, ta'sirli qilib o'qib berish va asar matni yuzasidan darslikda berilgan yoki o'zi tuzgan savol-topshiriqlar, muammoli vaziyatlar yaratish asnosida o'quvchilarni ishlashga yo'naltirib, javoblarni, bildirilayotgan fikrlarning mantig'i, mustaqilligi, asoslanganligi, tanqidiyligi, chuqurligi darajasini nazorat qilishdan iborat. O'qituvchi o'z bikri yoki munosabatini faqat zarur bo'lib qolgandagina katta yoshli va tajribali hamkor sifatida bildirishi, asosan, o'quvchilarning fikr aytishiga imkon berishi, ularda har qanday vaziyat yoki holatga munosabat uyg'otishi kerak. Dars jarayoni sub'yektlarning birgalikdagi faoliyatiga aylanishi lozim.

**11. Asar qahramonlariga obraz emas, inson deb qarash tamoyili.** Ma'naviyatning sog'lomlashuviga yo'naltirilgan adabiyot darslarida, u boshlang'ich sinflarda bo'ladimi yoki yuqori bosqichda, har bir adabiy qahramonni ijobiy yoki salbiy obraz deb emas, jonli inson sifatida o'rganish, uning ichki olami, kechinmalari, shodlik va iztiroblari, xatti-harakati zamirida shaxs mavjudligini anglash hamda uni tuyishga o'rganish ustuvorlik qiladi. Badiiy timsolga o'z shodligu iztiroblari bilan o'quvchiga bevosita daxldor shaxs deb qarash talab qilinadi. Badiiy asarda tasvirlangan o'ta yomon odamning ham yaxshi sifatlari va juda yaxshi insonning ham o'ziga xos kamchiliklari borligi ko'zda tutiladi. Tom ma'noda yomon odam bo'lmagani singari, ideal

darajada yaxshi odam ham yo‘q. Asar qahramonini anglash yo‘lida berilgan savol-topshiriqlar, ijodiy insholar, mustaqil ishlar ko‘magida o‘quvchi insonni o‘rgana boradi. U orqali o‘zini taniydi.

**12. Badiiy asarda adib shaxsining aks etishini anglatish tamoyili.** Ma’lumki, har bir asar – bir insonning ijodi mahsuli. Hatto, xalq og‘zaki ijodi namunasini ham kimdir, qachondir yaratgan. O‘sha asar botiniga inson o‘z dardini to‘kadi, unga orzu-istaklari, o‘zini bezovta qilgan muammolar, hayotining iztirobli yoki quvonchli lahzalarini joylaydi. Asar yaratuvchisi ruhiyatini his etish, uning shodlik va iztiroblarini tuyish ma’naviyatni poklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Matn ustida ishlashda asar qahramonlari kechinmalari va shaxsini baholash o‘quvchiga insonni o‘rganish, tanish orqali o‘zligini shakllantirish imkonini beradi. O‘quvchini o‘z shodligi, qayg‘u va iztiroblariga sherik qila olgan, uni loqaydlikdan chiqarib hamdardligiga sabab bo‘lgan adibni tushunish, yozganlarini o‘rganish orqali uning shaxsini bilish bugungi adabiy ta’limning muhim jihatlaridandir. Har qanday badiiy asar qahramonlarini baholash o‘quvchilarda qilgan amallariga qarab atrofidagi odamlarga baho berish qobiliyatini shakllantiradi.

**13. Adabiyot darslarida o‘quvchini baholash tamoyili.** Hamonki adabiyot darslari ko‘ngil tarbiyalar, ma’naviyat shakllantirar ekan, ko‘ngilga “yomon” baho qo‘yish, ma’naviyatni salbiy baholash unchalar to‘g‘ri bo‘lmasligi adabiyot o‘qitish metodikasi ilmida alohida ta’kidlanadi. Asarlar ustida ishlash mobaynida o‘z imkoniyati doirasida uning mohiyatiga kirib borayotgan, o‘z fikri va munosabatlarini asardan misollar keltirib asoslayotgan, mustaqil fikr bildirayotgan yoki bunga intilayotgan o‘quvchiga yomon baho qo‘yib bo‘lmaydi. Umuman, adabiy ta’lim jarayonida salbiy baholardan imkon qadar tiyilish, o‘quvchilarni bilimlari uchun emas, ma’naviy qiyofalari uchun baholash lozimligi yodda tutilishi joiz. Zero, adabiyot maktab ta’lim tizimidagi o‘zga predmetlarga o‘xshamaydi, u shakllanib kelayotgan shaxsning ruhiyatiga, ma’naviyatiga ishlaydi. Shu bois nazariy bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasiga qo‘yiladigan baho adabiy ta’lim uchun yetakchilik qilolmaydi. Adabiyot darslarida o‘quvchi ma’naviyati baholanishi lozim. Ma’naviyatga yomon baho qo‘yish huquqi hech kimga berilmagan. Chunki u odamdagi Allohning mulki.

O‘qituvchi adabiyot darslarida o‘quvchiga topshiriqlar berib, bilimni tekshirar ekan, yo‘l qo‘yilgan xatolarni ko‘rsatish bilan birgalikda uning sabablarini aniqlashga ham e‘tibor qaratishi va o‘quvchini ulardan qutulishga yo‘naltirishi lozim. Masalan, “Menga yoqqan tasvir” mavzusida insho yozish topshirig‘ini olgan o‘quvchi ijodiy ishni boshlashdan oldin asar matnidan o‘ziga yoqib qolgan, mazmunan boy va qiziqarli tasvirni ajratib oladi. Inshoda tasvirga mos sarlavha qo‘yiladi, tasvirning asar umumiy mazmuniga ta’siri, uning badiiy qiymati, bu tasvirni tanlash sabablari, u o‘quvchida qanday fikr va tuyg‘ular uyg‘otgani kabi masalalar yoritiladi.

O‘quvchi asardagi biror tasvirni ajratib olish uchun uni qayta-qayta o‘qiydi, o‘ylanadi, izlanadi. Tanlangan tasvir tahlil qilinadi. Tasvirni o‘rganishdan olingan taassurotlar, fikr va tuyg‘ular inshoda ifodalanadi. Bunday ishlarning darajasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ularga yomon baho qo‘yish aslo mumkin emas. Imlo xatolari, uslubiy illatlar ona tili darsida yozilgan ishlarda ustuvor ahamiyat kasb etadi.


Odatda, o‘quvchilar yozgan ishlarida darslik mualliflari yoki o‘qituvchining timsollar haqidagi fikrlariga yopishib olishadi. Ularning yozma ishni qanday bajarishni bilmagani, o‘z fikrini ifodalashga o‘rganmagani, asar timsollari haqida o‘z qarashlarining yo‘qligi, matn mazmuni yoki timsollarning qaysi o‘rni va jihati unga ta’sir etganini ajrata olmaganliklari bu holning asosiy sabablaridir. Bunday ishlarni tekshirib baholashdan oldin o‘qituvchi tarbiyalanuvchilar asarni qanday o‘qiganlari va qanchalik anglaganlarini aniqlaydi. O‘quvchi bilan suhbat asnosida tushunilmagan o‘rinlar va uning sabablari oydinlashadi. Shu tariqa, o‘quvchi shaxsiyatida tafakkur mustaqilligi va ma’naviyatning sog‘lomlashuvi amalga oshiriladi.

O‘quvchi ma’naviyatining sog‘lomlashuvi esa: *“...o‘z manfaatini o‘zgalar manfaatiga qarshi qo‘ymaslik, o‘zinikini afzal bilmaslikdir. Boshqalarning ham o‘zi singari inson ekanini his qilish va ularga daxl qilmagan, halal bermagan holda birgalikda yashay bilish san’atidir. Sog‘lom ma’naviyat – o‘zni engmoq, o‘zning istagu mayillarini jilovlay bilmoq, ayni vaqtda o‘zlikni tanimoqdir. Sog‘lom ma’naviyat xudbinlikni eng bilmoqdir, makonda turib makoniy manfaatlardan, zamonda yashab zamoniylardan tuslanaverishlardan*

*balandroq tura olmoq demakdir*”<sup>6</sup>.

Xulosa qilib aytganda, har bir adabiyot darsida o‘quvchi shaxsi bosh qadriyat bo‘lib tursa, uning ma‘naviy dunyosini sog‘lomlashtirish ustuvor ahamiyat kasb etsa, o‘quvchi shaxsiyatidagi asosiy ko‘rsatkich bo‘lgan to‘kistik, barkamollik sari intilish jarayoni ham tabiiy ravishda tezlashadi.

### **Pedagogika fakultetlari talabalari «Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi» kursini to‘la o‘zlashtirsalar:**



### **Badiiy matn tahlili namunasi: Do‘stlik sinovda chiniqadi (o‘zbek xalq ertagi)**

6 Йўлдошев Қ. Ўзликни таниш – Аллоҳни танишдир. // “Тафаккур” журнали, 1996 йил 4-сон. 22 –27-бетлар.

Dastlab o‘quvchilar mazkur ertak matni bilan tanishtiriladi:

*«Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, Barg bilan Kesak bo‘lgan ekan. Ular qalin do‘st bo‘lishib, bir-biridan ajralmaslikka, og‘ir kunlarda bir-birlariga yordam berishga va‘dalashishibdi. Ular do‘st bo‘lib yashay boshlabdilar. Kunlardan bir kun qattiq shamol turibdi.*

*Shamolning g‘uvillashidan qo‘rqib ketgan Barg Kesakning oldiga yugurib kelib qo‘rqayotganini aytibdi. Shunda Kesak:*

*– Hech narsadan qo‘rqma, men seni bu balodan asrayman, – deb Bargni shamoldan pana qilib to‘sibdi.*

*Shamol qanchalik kuchli bo‘lmasin, Bargni uchirib keta olmabdi. Bundan uning jahli chiqib, Yomg‘irni yuboribdi. Bu bilan shamol Kesakdan o‘ch olmoqchi bo‘libdi. Lekin Yomg‘ir ham ularni qo‘rqita olmabdi. Yomg‘irning yog‘ishini ko‘rgan kesak Bargga nolish qilibdi. O‘zini yomg‘irdan qutqarishini so‘rabdi.*

*Shunda Barg Kesakni yomg‘irdan pana qila boshlabdi. Qanchalik ko‘p sel yog‘masin, Kesak nam bo‘lmabdi. Yomg‘ir tingach, Kesak bilan Barg xursand bo‘lishibdi. Ularning bir-birlariga mehr-oqibatlari yanada ortib, inoqlashib ketibdilar<sup>7</sup>.*

Bu ertakni ta‘limning **tadqiqot metodi** asosida o‘rganish masadga muvofiqdir. O‘quvchilar ertak matni ustida ishlash asnosida undagi Barg, Kesak, Shamol va Yomg‘ir singari qahramonlarning xususiyatlarini o‘zlaricha tadqiq qiladilar. Tabiat hodisalarining sirlarini anglaydilar.

Ertaklar, ular xalq ertaklari bo‘ladimi, adabiy ertaklarmi, inson fantaziyasining mahsuli. Mazkur ertakdagi Barg bilan Kesakning do‘stligi sog‘lom aqlga sig‘maydi, lekin bu fantaziyada katta mantiq bor. Har ikkala qahramonning xatti-harakatida, zimmasiga ortilgan yukda ularga xos bo‘lgan haqiqat bor.

Odatda o‘qituvchilar o‘quvchilarni asar matni bilan tanishtirganlaridan so‘ng dastlab: «Qani aytinglarchi, ertak nima haqda ekan?» savolini berishadi. Bu savol bolalarni hozirgina eshitganlarining mohiyatiga kirishga, unda ilgari surilgan yetakchi fikrni ajratib olishga, ertakning sarlavhasiga asoslangan holda javob berishga undaydi. Unga o‘quvchilar hech zo‘riqmay, tezgina javob beradilar. O‘qituvchi mazkur ertak matni asosida bergan navbatdagi

---

<sup>7</sup> [ertak.uz/tale/taleuz](http://ertak.uz/tale/taleuz)

savollari: «Tabiatda hech kuzatganmisiz, shamol bo‘lganda daraxtlardagi va erdagi barglar qanday ahvolga tushadilar? Nima deb o‘ylaysiz, nega ertakning qahramoni Barg shamoldan qo‘rqib ketdi?» o‘quvchilarni ma’lum darajada o‘ylashga yo‘naltiradi.

Muallim tomonidan berilgan bu savollar bolalarning xotirasini «qitiqlaydi», birgalikda sayrga chiqqan paytlarida, maktabga kelishketish jarayonida yuz bergan hodisalarni eslashadi, barglarning shamoldagi holatini tasavvur qilishadi, ayni zamonda barglarning o‘shandagi holatini ham his qilishadi. Shamol bo‘lganda barglarning «qo‘rquv»dan titrashi sabablarini ertak qahramoni misolida tushunishadi. «Tabiatda hech kuzatganmisiz, shamolning «jahli chiqqan»ini nimalardan bilsa bo‘ladi? Shamolning yomg‘ir yuboishiga ishonish mumkinmi? Nima deb o‘ylaysiz, shamol va yomg‘irni aslida kim yuboradi?» tarzidagi savollar ham o‘quvchilarni o‘ylashga, tabiat hodisalarini tadqiq qilishga majburlaydi. Bolalar tabiatda shamolning avval asta-sekin, mayinlik bilan boshlanishini, keyin tezlashishi va bo‘ronga aylanishini «jahli chiqqan» holati sifatida talqin qilishlari mumkin. Odatda qattiq shamoldan so‘ng yomg‘ir yog‘adi. Bu tabiat hodisasi ham o‘quvchilar tomonidan shamolning nimalarnidir uchirib ketolmagani uchun alam bilan qilgan ishi deb tushunilishiga ertakning g‘oyasi sabab bo‘ladi. Tabiatdagi hodisalarning bir ertak misolidagi bunday talqini bolalar tasavvur olamining kengayishiga, dunyoqarashining boyishiga turtki bo‘ladi.

«Nima deb o‘ylaysiz, nega Barg Yomg‘irdan qo‘rqmaydiyu Shamoldan qo‘rqadi? Kesak nega Shamoldan qo‘rqmaydiyu Yomg‘irdan qo‘rqadi?» tarzidagi navbatdagi savollar bolalarni bilishga, bilganlarini amaliy vaziyatlarda ishlatishga yo‘naltiradi. O‘quvchilar ertakdagi har ikkala qahramonning o‘zlariga xos bo‘lgan xususiyatlarini qiynalmay ochib beradilar. Shamol o‘z qudrati bilan salmog‘i yo‘q bargni istagan tomoniga uchirib ketishi, uni do‘stidan judo qilishi mumkin. Shuning uchun barg shamoldan qo‘rqadi. Yomg‘ir esa bargning ustidan bosib tushadi, u erga yopishib qoladi va do‘stining yonida qoladi.

Kesakni esa shamol uchirib ketolmaydi, chunki u og‘ir. Yomg‘ir uni ivitib, loyga aylantirib yuborishi, irmoqlarga qo‘shib

oqizib ketishi, do'stidan ayro tushirishi mumkin. Shuning uchun kesak yomg'irdan qo'rqadi. Ularning har ikkisi xos bo'lgan bu sifatlar – bilim. O'quvchilar shu bilimni o'z imkoniyatlari doirasida tadqiq qiladilar va tushuntirib beradilar. Shu tariqa ham bilim, ham mustaqil fikr, ham bir olam tuyg'ular sohibi bo'ladilar.

Uy vazifasi sifatida o'quvchilarga Barg yoki Kesak ishtirokida yangi bir ertak yaratib kelishni ixtiyoriy ravishda topshirish mumkin. Ularga ozgina yo'nalish berib yuborish maqsadida kuzgi, bahorgi, yozgi yoki qishgi barglarni (topshiriqning berilgan faslga mos davri asosida) yoki kesaklarni kuzatishni, shu kuzatishlari asosida ijod qilishni aytish mumkin. Keyingi darsda bolalarning ijod mahsuli eshitiladi, mazmun-mohiyati sharhlanadi va baholanadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida ilmning alohida turi bo'lish uchun qo'yiladigan talablarga javob bera olishini bildingiz va bu talablar bilan tanishdingiz. Aytingchi, o'qiganlaringizni qanday tushundingiz? Anglaganlaringizni o'z so'zlaringiz bilan, misollar keltirgan holda ifodalab bering.

2. Adabiyot o'qitish metodikasi fanining adabiyotshunoslik va pedagogika fanlaridan farqli jihatlarini bir asar misolida tushuntirib bering.

3. Mazkur fanning predmetini qayta o'qing. Undagi: *“badiiy adabiyotning o'qitilishiga doir didaktik ashyolar va qonuniyatlar”*ni qanday tushundingiz? Fikringizni asoslang.

4. «Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi» fanining maqsadiga e'tibor qiling: *“...bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi”* deganda nimalarni angladingiz? “Umumiy pedagogika” kursidan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering. Bu gap sizga qanchalik daxldor deb o'ylaysiz?

5. Boshlang'ich adabiy ta'limda: *“yoshlar ma'naviyatini qaror toptirishda badiiy asarning ta'sir kuchidan oqilona va samarali foydalanish”*ning ahamiyatini qanday tushundingiz? Fikringizni kursdoshlaringiz bilan bo'lishing.

6. Ushbu fanning zimmasiga ortilgan vazifalarga e'tibor qiling: *“...badiiy asar tahlilida o'quvchi ma'naviyatiga ijobiy ta'sir*



*ko'rsatadigan jihatlar*”, Sizningcha, nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Fikringizni bir asar misolida asoslashga urinib ko'ring.

7. O'qish darslarida badiiy bitiklardan: “...*maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilish*”, Sizningcha nimani anglatadi? Qanday maqsad nazarda tutilayotgani haqida o'ylab ko'ring.

8. “Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi” o'quv fanining mazmunida aks etgan: “...*matn bilan ishlash jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish*” masalasini qanday angladingiz? Bu faoliyatning bir qismi bevosita Sizga daxldor ekaniga diqqat qilgan holda “sub'yekt-ob'ekt” va “sub'yekt-sub'yekt” munosabatlarini pedagogik bilimlaringiz asosida sharhlang. Fikrlaringiz borasida kursdoshlaringiz bilan maslahatlashing.

9. Adabiy ta'limning o'zigagina xos bo'lgan o'n uch tamoyilning har biriga monand ustuvor jihatlarni aniqlang. Ularning boshlang'ich adabiy ta'lim uchun ahamiyati nimalardan iborat ekani haqida fikrlashing. Ta'limning umumiy tamoyillari bilan bevosita adabiy ta'lim tamoyillarini taqqoslang. Ulardagi umumiy va farqli jihatlarni sanab ko'rsating.

10. Hamma pedagoglar amal qilishi shart bo'lgan tamoyillarni boshlang'ich adabiy ta'lim bilan bog'lagan hola biro badiiy asarni o'rganish misolida tahlilga torting. Xulosalaringizni asardan misollar keltirgan holda asoslang.

11. Yuqorida ta'kidlangan quyidagi fikrga e'tibor qiling: “*Muallimning o'quvchi intellektual kuchiga ishonchi tarbiyalanuvchining mustaqil fikrlash va bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otuvchi motivdir*”. Bu qanoatning mohiyatiga kiring, bo'lajak o'qituvchi sifatida uni izohlang.

12. Quyidagi: “*O'qituvchining loqaydlik bilan, majburiyat ostida qilayotgan mehnati o'quvchida salbiy hislarni qo'zg'otishi, uning bilim olishga bo'lgan intilishini so'ndirishi tayin*” degan fikrga qanday qaraysiz? Zimmangizga olayotganingiz mas'uliyatning salmog'ini chamalab ko'ring. Bu xulosaning mag'zini chaqing, qarashlaringizni asoslang.

13. “*Go'zal xulqli, sog'lom ma'naviyatli kishilarning so'zlari ham, ishlari ham o'zlariga munosib ekani, toza ko'ngil sohibi*”

*hamisha rag'bat va marhamatlarga munosibliigi adabiyot orqali anglashiladi*". Bu xulosada ilgari surilgan fikrlarni izohlashga urinib ko'ring. Fikringizni asoslang.

14. O'quvchilarning "o'z-o'zini tarbiyalash"ni qanday izohlash mumkin? Siz, bo'lajak o'qituvchi sifatida buni qanday tasavvur qilasiz? Fikrlaringizni biror badiiy asar misolida dalillang.

15. Mana bu qanoatning mohiyatiga kirishga harakat qiling: *"Hamonki adabiyot darslari ko'ngil tarbiyalar, ma'naviyat shakllantirar ekan, ko'ngilga "yomon" baho qo'yish, ma'naviyatni salbiy baholash unchalar to'g'ri bo'lmasligi adabiyot o'qitish metodikasi ilmida alohida ta'kidlanadi*". Bu, Sizningcha, nima degani? Adabiyot darslari uchun yetakchi o'rinda turadigan *"inson ko'ngli"*, *"tarbiyalanuvchining ma'naviyati"* singari tushunchalarni izohlang. Ularning mag'zini chaqing.

16. Adabiyot darslarida o'quvchilarni *"ma'naviy qiyofalari uchun"* baholash masalasiga qanday qaraysiz? Siz bu fikrga qo'shilasizmi yo'qmi? Nima uchun? O'quvchini baholashning yana qanday shakllari mavjud? Bu qaysi darslarda amalga oshiriladi? Nazaringizda, mazkur baholashlar orasida qanday farq bor? qarashlaringizni asoslang.

17. Adabiyot darslariga xos bo'lgan *"o'quvchiga kashf etish lazzatini tuydirish"* tamoyiliga e'tibor qiling. Sizningcha, uni qanday tushunish mumkin?

18. O'quvchi ma'naviyatining sog'lomlashuvi bilan bog'liq quyidagi fikrga e'tibor qiling: *"Sog'lom ma'naviyat o'z manfaatini o'zgalar manfaatiga qarshi qo'ymaslik, o'zinikini afzal bilmaslikdir. Boshqalarning ham o'zi singari inson ekanini his qilish va ularga daxl qilmagan, halal bermagan holda birgalikda yashay bilish san'atidir. Sog'lom ma'naviyat – o'zni engmoq, o'zning istagu mayillarini jilovlay bilmoq, ayni vaqtda o'zlikni tanimoqdir. Sog'lom ma'naviyat xudbinlikni eng bilmoqdir, makonda turib makoniy manfaatlardan, zamonda yashab zamoniylar tuslanaverishlardan balandroq tura olmoq demakdir*". Inson ma'naviyatining sog'lomligi darajasini aks ettiradigan har bir belgini alohida yozib chiqing. Ularning har biriga izoh bering. Qarashlaringizni xulosalang. So'ngra o'zingizning "Men"ingizga

nazar soling. Yashirin holda o‘zingizga o‘zingiz baho bering.

19. Talabaga, ya’ni Siz – bo‘lajak o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablarga diqqat qiling. Ular orasida sizning qo‘lingizdan kelmaydiganlari bormi? O‘zingizda ularning barchasini egallashga moyillikni his qilyapsizmi? Aks holda nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?

### **3-mavzu. Talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirishda adabiyot o‘qitish metodikasi o‘quv fanining o‘rni va roli.**

#### **Reja:**

1. Shaxs kompetentligi
2. Kompetentlik tarmoqlari
3. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi darajasi
4. Boshlang‘ich ta’lim mutaxassislariga qo‘yiladigan talablar
5. Badiiy matn tahlili namunasi: Muhammad Yusuf she’rlari ta’limoti

**Tayanch so‘zlar:** *Kompetentlik, mustaqil bilish faoliyati kompetentligi, ijtimoiy-fuqarolik kompetentligi, ijtimoiy-mehnat kompetentligi, maishiy kompetentlik, madaniy va dam olish kompetentligi, kasbiy kompetentlik.*

Bugungi iqtisodiyot sharoitining har qanday yo‘nalishdagi mehnat bozorida o‘ziga munosib o‘rinni egallab turish uchun har bir mutaxassisdan raqobatbardoshlik talab qilinmoqada. Bu barcha sohalar xodimlaridan kasbiy kompetentlikni taqozo etsa, o‘qituvchidan ma’naviy mukammallikni ham talab qiladi. O‘qituvchining o‘quvchilar oldida obro‘-e’tibori baland bo‘lishi uchun uning shaxsiyatida har ikki xususiyat uyg‘unlashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki o‘qituvchi inson ko‘ngli bilan ishlaydi. Adabiyot darslari, ular ta’limning qaysi bosqichida bo‘lishidan qat’i nazar ko‘ngil tarbiyalash darslaridir. Faqat bilim bilan qalbga kirib bo‘lmaydi.

Milliy tarbiyashunoslik taraqqiyotidagi bu o‘zgarishlar har qanday pedagogdan o‘z kasbiy mahoratini tinimsiz oshirib borishni taqozo etmoqda. Bugun davlat, jamiyat va davr ta’lim tizimidan ma’naviy barkamol, har tomonlama kamolotga intilgan, har qanday jamiyatda ijtimoiy moslashuv qobiliyatiga ega bo‘lgan, mehnat faoliyatini

boshlashga, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantira borishga qodir shaxslarni tarbiyalab berishni talab etmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham "Umumiy pedagogika" kursida kompetensiya va kompetentlilik haqida batafsil bilimga ega bo'lganlar. Shu bilimlarni qisqacha takrorlash va umumlashtirish maqsadida aytish mumkinki, shaxs kompetentliligini ta'minlashda mazkur darslikning ham o'z hissasi bor. Unda bevosita bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi quyi sinflar adabiy ta'limini maqsadga muvofiq tarzda tashkil eta bilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil mulohaza yuritadigan, o'z faoliyati va uning natijalarini tahlil qila oladigan, ta'lim jarayonini modellashtira biladigan o'qituvchi qo'yilgan bu talablarning garovi hisoblanadi. Aynan shu ma'noda bugun o'z sohasini yaxshi biladigan, erkin-ijodiy fikrlay oladigan, raqobatbardosh, shaxs tarbiyalashga qodir pedagogga, kompetentli o'qituvchiga talab oshib bormoqda.

Avval millat va mamlakat taqdiri uchun mas'ul bo'lgan shaxslarga, xususan, boshlang'ich sinflar o'qituvchilariga xos bo'lgan bu tushunchaning mohiyatiga kirish, uni yaxshilab tushunib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur mavzuning o'rganilishiga bog'ishlangan adabiyotlarda ta'kidlanishicha **kompetensiya** (ingl. competence – qobiliyat) – har qanday faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakaga, mahorat va iqtidorga egalik demakdir<sup>8</sup>.

**Kompetentlilik** – ya'ni kompetensiyaga egalik har qanday shaxsning, xususan, boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining o'zi faoliyat olib borayotgan sohada samarali ish yuritishi uchun zarur bo'ladigan *bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga* egaligi, ayni zamonda bu sifatlarning *shaxslik fazilat* (yuksak madaniyatlilik, keng dunyoqarash, baland saviya, mustaqil faoliyat va hk.)lar bilan uyg'unligini anglatuvchi tushunchadir.

"Kompetentlilik" atamasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Bu tushuncha ruhshunoslar nazdida har qanday mutaxassisning noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda vaziyatga mos muloqot yo'llarini topa bilishi, raqiblar bilan o'zaro

---

8 Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфулов Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. –Т.: Sano-standart, 2015. –5-бет.

munosabatlarda yangi usullarni qo‘llay olishi, murakkab topshiriqlarni bajarishda zarur ma‘lumotlardan bilgichlik bilan foydalanishi, uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlashi, bilim, ko‘nikma va malakalarini izchil ravishda takomillashtirib borishini anglatadi.

Shaxs kompetentligi odamning kundalik tirikchilik o‘tkazish, kasbi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatish yoxud ijtimoiy turmushda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga doir hayotiy muammolarni echishga yaroqli bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalarni egallaganlik holatiga ko‘ra muayyan tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi. Bu tushuncha shaxsning mustaqil bilish faoliyatidagi, ijtimoiy-fuqarolik sohasidagi, ijtimoiy-mehnat tarmog‘idagi, maishiy turmushdagi va madaniy hamda dam olish sohasidagi kompetentligi singari tarmoqlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi:

– *mustaqil bilish faoliyati kompetentligi* (kognitiv tarmoq). Unda mutaxassisning turli yo‘llar bilan, jumladan, ta‘lim muassasalaridan tashqari manbalardan bilim olish malakasini egallashi;

– *ijtimoiy-fuqarolik kompetentligi* (ijtimoiy tarmoq). Shaxsning fuqarolik, saylovchilik, iste‘molchilik va boshqa bir qator vazifalarni bajarishi;

– *ijtimoiy-mehnat kompetentligi* (mehnat tarmog‘i). Odamning o‘z kasbiga doir mehnat bozori ma‘lumotlaridan xabardor bo‘lishi, undagi vaziyatni tahlil qila olishi, o‘zining professional imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay bilishi, o‘zaro munosabatlardagi axloqiy qoidalarni hisobga olishi va amal qilishi;

– *maishiy kompetentlik* (oila tarmog‘i). Shaxsning o‘zi va oila a‘zolarining salomatligi, oiladagi turmush tarzi, burchlari va vazifalari hamda boshqa oilaviy masalalarni bilishi;

– *madaniy va dam olish kompetentligi* (madaniy tarmoq). Odamning bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanish, o‘z shaxsini madaniy-ma‘naviy jihatdan rivojlantirishiga doir faoliyati nazarda tutiladi.

Bugungi o‘qitish tizimi o‘z ishini har bir o‘quvchining maktab davridayoq yuqorida sanab o‘tilgan kompetentlik xususiyatlariga ega bo‘lishini ko‘zda tutgan holda faoliyat ko‘rsatishini tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Har qanday soha mutaxassislariga xos bo‘lgan ***kasbiy kompetentlik*** esa – shaxs tomonidan o‘z kasbiy faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning

egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini anglatadi. Kasbiy kompetentlilik mutaxassis tomonidan faqat alohida bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlarning egallanishinigina emas, balki o'ziga zarur yo'nalishlar bo'yicha integrativ bilimlar hamda harakatlarning o'zlashtirilishini ham qamrab oladi.

Har qanday odamda, u tarbiyachimi – tarbiyalanuvchimi, o'qituvchimi – o'quvchimi yoxud boshqa sohalarning xodimimi, unda uyg'otiladigan va mahsuldor imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanadigan mutaxassislarga monand kasbiy kompetentlilik tarbiyalanuvchi shaxsiga xos bo'lgan mana shu *uyg'otiladigan* imkoniyatlarni muvozanatdan chiqarib *mahsuldor* imkoniyatga aylantira olishni, odamga xos bo'lgan bor imkoniyatdan uning o'zi uchun oqilona foydalana bilishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kasbiy kompetentlilik shaxsning biror ishni qilishga yaraydigan yashirin, ichki, ya'ni uyg'otiladigan imkoniyatining voqelikka aylantirilishi, amaliy faoliyatga tatbiq etilishi demakdir. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, sodda qilib aytganda, o'quvchilardagi mana shu uyg'otiladigan imkoniyatlarni har xil yo'llar bilan harakatga keltira olish va ulardan bolalarning shaxsi shakllanishi yo'lida oqilona foydalana bilishidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi darajasi quyidagi:

- murakkab vaziyatlar vujudga kelganda;
- favqulodda vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan o'rni bilan oqilona foydalanish kabi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'z kasbiy kompetentligiga erishishga intilgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Keyingi paytlarda jahon ta'lim amaliyotida o'quvchilarni kompetentli qilib tayyorlash asosiy vazifalardan biriga aylandi. Negaki, komponentlilik o'zida:

– ta’limning intellektual va amaliy jihatlarini uyg’unlashtiradi;  
– o’qitish kechimida ta’lim mazmunini o’zlashtirishning standart bo’yicha qanday natijaga olib kelishini bildiruvchi ko’rsatkichlarni aks ettiradi;

– shaxs faoliyati va madaniyatining bir yoki bir-biriga yaqin qator sohalarni qanchalik umumlashtirganligini namoyish etadi.

Bulardan tashqari, dunyoning globallasuvi mutaxassislarining endi birgina mamlakat hududida emas, balki dunyoning istalgan mamlakatida yashab, faoliyat ko’rsatishi, raqobatbardosh bo’lishi uchun har jihatdan kompetentli bo’lishini taqozo etmoqda.

Boshlang’ich sinflar o’qituvchilari ham ta’limning dunyo miqyosidagi talablariga moslashgan holda professional kompetentlikka ega bo’lishlari zamirida pedagogik faoliyat va bolalar bilan muloqotda, ta’lim-tarbiya jarayonida muntazam ravishda yuqori natijalarga erishishlari maqsadga muvofiqdir. Kichik yoshdagi o’quvchilar bilan shug’ullanadigan o’qituvchining kasbiy kompetentligi – ijodiy intellektning ortib borishi, o’z sohasidagi innovatsiyalarni o’zlashtirishga moyilligi, o’zgaruvchan pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Muallimning kasbiy kompetentlik darajasi to’g’ridan-to’g’ri jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyotiga o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Umumiy o’rta ta’limning dastlabki bo’g’inida faoliyat olib boradigan o’qituvchilarning kasbiy kompetentligiga xos bo’lgan asosiy belgilarni boshqa soha mutaxassislariga qo’yiladigan talablarga tayanilgan holda quyidagicha sanab ko’rsatish mumkin:

1. Har xil (1 – 4-sinflar) yoshdagi o’quvchilar bilan ularning yoshi va intellektual imkoniyatlariga tayangan holda ishlay olish.

2. O’z sohasi bo’yicha o’quvchilarning yosh psixologiyasi, pedagogik imkoniyatlarini anglagan holda tadqiqot ishlarini olib borish.

3. Amaliy faoliyatida innovatsion g’oyalardan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni o’zlashtirish.

4. Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik qo’llab-quvvatlashning har xil shakllaridan foydalana bilish.

5. O’qituvchilar faoliyati bilan bog’liq tashkil etilgan har xil tanlov, festival va musobaqalarda ishtirok etish.

6. Har qanday pedagogik shart-sharoitlarda o’zining o’qituvchilik mahoratini namoyish eta bilish.

7. Mamlakat davriy matbuotida hamkasblari bilan o‘z tajribalarini o‘rtoqlashish va hk.

Bu sifatlarning birortasi o‘qituvchida o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun u kasbiy mahoratini oshirishga ehtiyoj sezishi, bunga intilishi lozim. Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini quyidagicha ajratib ko‘rsatish mumkin:

- kasbiy mahoratini oshirishning o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinishi va anglanishi;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish (maqsad, vazifa va hal etish yo‘llarini)ning rejalashtirilishi;
- o‘z-o‘zini namoyish qila bilish, faoliyatini tahlil va tahrir qila olishi.

Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining shakllanishi va rivojlanishi uzoq hamda uzluksiz tarzda amalga oshadigan jarayondir. Ya’ni o‘qituvchi pedagogik faoliyatda tinimsiz ravishda o‘z ustida ishlashi, soha yangiliklaridan xabardor bo‘lishi, darsdan-darsga o‘zida yangi sifatlarni shakllantira borishi lozim.

Quyida sinflar o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanilishinigina emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini ham nazarda tutadi. Shuningdek, kasbiy kompetensiya muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni ham taqozo etadi.

O‘z kasbiy kompetentligiga intilgan boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi: bilimlarini izchil ravishda boyitib boradi; sohasi bo‘yicha yangi axborotlarni o‘zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni qayta ishlaydi va amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi; murakkab jarayonlarda, noaniq vaziyatlarda bir-biriga zid ma’lumotlardan oqilona foydalanadi; kutilmagan vaziyatlarda ham harakat rejasiga ega bo‘la oladi.

N. Muslimov va boshqalar tomonidan ta’kidlangan kompetentlik<sup>9</sup> ka ijodiy yondashgan holda boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari o‘zlarida mujassamlashtirishlari nazarda tutilgan

---

9 Muslimov N., Usmonбоева M., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. –Т.: Sano-standart, 2015. –7-бет.



kompetensiyani quyidagicha aks ettirish mumkin:

- psixologik kompetentlilik – pedagogik amaliyotida sog‘lom muhit yarata olish, tarbiyalanuvchilar bilan ijobiy muloqotni yo‘lga qo‘ya bilish, turli ziddiyatli holatlarni vaqtida payqash va ularni bartaraf eta bilish;

- metodik kompetentlilik – boshlang‘ich ta‘lim jarayonini metodik jihatdan bilimli tashkil etish, ta‘limiy yoki tarbiyaviy faoliyat uchun zarur metod va vositalarni maqsadga muvofiq tarzda tanlay olish;

- informatsion kompetentlilik – minglab axborotlar oqimi orasidan sohasi uchun zarur, muhim va samarali ma‘lumotlarni topib saralay olish, ularni qayta ishlab o‘qitish amaliyotida oqilona foydalana bilish;

- kreativ kompetentlilik – o‘z o‘qituvchilik amaliyotiga tanqidiy va ijodiy yondosha bilish, ish faoliyatida ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

- innovatsion kompetentlilik – o‘qituvchilik faoliyatini vaziyatga moslashgan holda takomillashtira borish, ta‘lim-tarbiya sifatini yaxshilash, bu jarayon samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq eta olish;

- kommunikativ kompetentlilik – darslar jarayonida har bir tarbiyalanuvchi bilan samimiy muloqotda bo‘lish, uni tinglay bilish, unga ijobiy ta‘sir ko‘rsata olish, har biriga xos bo‘lgan xarakter-xususiyatlarga mos muomalani, yondashuvni topa bilish;

- shaxsiy kompetentlilik – o‘zining kiyinish, muomala madaniyatini kuzatib borish, dunyoqarashini, badiiy didini, ma‘naviy fazilatlarini boyitib, yuksaltirib borish;

- texnologik kompetentlilik – tarbiyachilik sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni izchil o‘zlashtirib borish, zamonaviy texnika vositalaridan, texnologiyalardan foydalana olish;

- ekstremal kompetentlilik – o‘quvchilar orasida, o‘zi bilan tarbiyalanuvchilar o‘rtasida yuz berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda, tabiiy ofatlar yuz bergan holatlarda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda tez va oqilona qarorlar qabul qilish, to‘g‘ri xulosa chiqarish hamda shu asosda harakatlanish malakasiga ega bo‘lish;

- baholash kompetentligi – aytilgan fikrlardagi o‘ziga xoslik, betakrorlik, sodda, qisqa, lekin ma‘lum asoslarga ega bo‘lgan pishiq-puxta javob, munosabatning tanqidiyligi darajasidan kelib chiqib

munosib baholay bilish va hk.

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinflarda faoliyat olib boradigan o‘qituvchining bunday sifatlarga ega bo‘lishi uchun bugungi talabalar oldiga yuqori sinflar o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablarni qo‘yish ta’limdagi uzluksizlik va uzviylikning ta’minlanishiga asos bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari kompetentligiga xos xususiyatlarni quyidagi modulda ko‘rish mumkin:

### **Kompetensiyani quyidagicha aks ettirish mumkin:**

<b>ПСИХОЛОГИК КОМПЕТЕНТЛИЛИК</b>	• педагогик амалиётида соғлом муҳит ярата олиш, тарбияланувчилар билан ижобий мулоқотни йўлга қўя билиш, турли зиддиятли ҳолатларни вақтида пайқаш ва уларни бартараф эта билиш;
<b>МЕТОДИК КОМПЕТЕНТЛИЛИК</b>	• бошланғич таълим жараёнини методик жиҳатдан билимли ташкил этиш, таълимий ёки тарбиявий фаолият учун зарур метод ва воситаларни мақсадга мувофиқ тарзда танлай олиш;
<b>ИНФОРМАЦИОН КОМПЕТЕНТЛИЛИК</b>	• минглаб ахборотлар оқими орасидан соҳаси учун зарур, муҳим ва самарали маълумотларни топиб саралай олиш, уларни қайта ишлаб ўқитиш амалиётида оқилона фойдалана билиш;
<b>КРЕАТИВ КОМПЕТЕНТЛИЛИК</b>	• ўз ўқитувчилик амалиётига танқидий ва ижодий ёндоша билиш, иш фаолиятида ижодкорлик малакаларига эгаллигини намойиш эта олиш;
<b>ИННОВАЦИОН КОМПЕТЕНТЛИЛИК</b>	• минглаб ахборотлар оқими орасидан соҳаси учун зарур, муҳим ва самарали маълумотларни топиб саралай олиш, уларни қайта ишлаб ўқитиш амалиётида оқилона фойдалана билиш;
<b>КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИЛИК</b>	• дарслар жараёнида ҳар бир тарбияланувчи билан самимий мулоқотда бўлиш, уни тинглай билиш, унга ижобий таъсир кўрсата олиш, ҳар бирига хос бўлган характер-хусусиятларга мос муомалани, ёндашувни топа билиш;

### шахсий компетентлилик

- ўзининг кийиниш, муомала маданиятини кузатиб бориш, дунёқарашини, бадий дидини, маънавий фазилатларини бойитиб, юксалтириб бориш;

### технологик компетентлилик

- тарбиячилик соҳасидаги билим, кўникма ва малакаларни бойитадиган илғор технологияларни изчил ўзлаштириб бориш, замонавий техника воситаларидан, технологиялардан фойдалана олиш;

### экстремал компетентлилик

- ўқувчилар орасида, ўзи билан тарбияланувчилар ўртасида юз бериши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларда, табиий офатлар юз берган ҳолатларда, технологик жараён ишдан чиққанда тез ва оқилона қарорлар қабул қилиш, тўғри хулоса чиқариш ҳамда шу асосда ҳаракатланиш малакасига эга бўлиш;

### баҳолаш компетентлиги

- айтилган фикрлардаги ўзиг хослик, бетакрорлик, содда, қисқа, лекин маълум асосларга эга бўлган пишиқ-пuxта жавоб, муносабатнинг танқидийлиги даражасидан келиб чиқиб муносиб баҳолай билиш ва ҳқ.

Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga xos bo'lgan «bolalarning bilimni to'g'ri baholay olish, ularni uzluksiz ravishda mustaqil faoliyatga yo'naltira borish va ayni zamonda, o'quvchilar tafakkurining mustaqillik darajasini aniqlab, baholay bilish» bolalarning ma'naviy kamolot yo'lini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu mezonni sharhlab shuni aytish mumkinki, boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarning har qanday badiiy asar, tasviriy san'at namunalari tahlili asnosida aytgan fikrlaridagi o'ziga xoslik, o'zgalarning qarashlaridan xoli betakrorlik, soddagina, qisqagina bo'lsada ma'lum asoslarga ega bo'lgan pishiq-puxta javobini munosabatining tanqidiyligi darajasidan kelib chiqib to'g'ri baholay bilish o'qituvchi kompetentligi darajasiga bog'liqdir.

Shu ma'noda aytish mumkinki, o'quvchilarning tafakkuri va faoliyati mustaqilligi darajasini aniqlash hamda uni munosib baholay bilish o'qituvchining o'zi mustaqil fikr sohibi bo'lishini taqozo etadi. Chunki o'zi mustaqil fikr egasi bo'lmagan o'qituvchi tarbiyalanuvchilarini mustaqil faoliyatga yo'naltira olmaydi, ularni munosib baholashga ham qodir bo'lolmaydi. O'zining mustaqil nazari bo'lmagan muallim o'rganilayotgan ob'ektdagi o'quvchilardan mustaqil mulohaza yuritishni talab etadigan detallarni ilg'amaydi. Natijada o'quvchilar badiiy asarning mazmunini qayta hikoyalab berish, tasviriy san'at asarlari bo'yicha ko'rinib turgan asosiy

jihozlarni sanash bilan chegaralanadilar va ularning aqliy, ma'naviy taraqqiyoti ham shu atrofda bo'laveradi.

To'g'ri, boshlang'ich sinflar o'quvchilarining har ikkala janrdagi asarlarning yuzaki jihatlarini ajratib aytib berishlari ham etarli, deydiganlar ham topiladi. Amaldagi DTS va dasturlarning asosiy talablari ham shu. Lekin har sinfda ommaga o'xshamaydigan, o'z intellektual imkoniyatlari bilan atrofdagilardan ajralib turadigan o'quvchilar bo'ladi. Gap shu o'quvchilarning o'rtachalar qurboni bo'lib ketmasligida. O'qituvchi boshlang'ich adabiy ta'limni imkon qadar yuqori saviyada tashkil eta olishi, uni tarbiyalanuvchilarning har biri o'z imkoniyatlari darajasida qabul qilishlari uchun zaruriy shart-sharoitni yarata bilishi uning kompetentligi darajasini namoyon etadi.

Xullas, boshlang'ich adabiy ta'limni uning maqsadiga muvofiq tashkil etishda quyi sinflar o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi uning saviyasi, dunyoqarashi, bilimi, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishini, ayni zamonda, o'zining ma'naviy sog'lomligi uchun qayg'urishini ham taqozo etadi.

---

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

Muhammad Yusuf she'rlari ta'limoti

Muhammad Yusuf ijodidan namunalar nafaqat umumiy o'rta ta'lim maktablari, balki oliy ta'limning adabiyot darslarida ham o'rganiladi.

Har qanday adib asarini o'rganishdan oldin uning shaxsi haqida imkon qadar mukammal ma'lumotga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir. Shunda uning ijodini to'laroq anglash imkoniyati ortadi. Darsda shoir shaxsi bilan bog'liq yangi ma'lumotlarning taqdim etilishi asarlarning chuqurroq tahlil etilishi imkonini ham beradi. Shoir M. Yusuf shaxsini ochib beruvchi bunday qo'shimcha ma'lumotlar uchun talabalar «Kiyikso'qmoqdagi yo'lovchi» kitobiga murojaat qilishlari maqsadga muvofiqdir<sup>10</sup>. Milliy tarbiyashunoslikda: *“Millatning ulug'lari o'z shaxsi bilan o'sib kelayotgan avlod ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi”* degan qarash mavjud. Yosh avlod ulug'lar shaxsi ko'magida o'z-

---

10. Қ. Йўлдош, Қ. Хусанбоева, М. Йўлдошева. Кийиксўқмоқдаги йўловчи. Монография. – Т.: ЎзМЭ, 2014. 192 б.

o'zini tarbiyalashi uchun ularning shaxsiga xos sifatlarni bilishi, ulardan ta'sirlanishi, hayratlanishi va bahra olishi kerak.

Ulug'lardagi o'quvchini hayratga solgan, uni ta'sirlantirgan, havasini uyg'otgan sifatlar unga asta-sekinlik bilan "yuqa" boshlaydi. Hayrat va havas ta'sirida shoir yoki yozuvchi shaxsidagi o'quvchi tuyg'ularini junbushga keltirgan fazilatlar hech qanday tashqi zo'riqishlarsiz, pand-nasihatlarsiz o'quvchi shuuridan, ruhiyatidan joy ola boshlaydi. Adiblarning bunday fazilatlarini o'quvchilarga ochib berish o'qituvchining vazifasi hisoblanadi.

Shoir Muhammad Yusufning shaxsi ham, avvalo, uning asarlarida o'z ifodasini topgan. Muallifning «men»i bilan bog'liq sifatlarni uning yozganlaridan topa bilish adabiy ta'lim uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining o'z topildiqlarini o'quvchilari bilan bo'lishmay, ularni o'quvchilarning o'zlari kashf etishlariga imkon yaratishi uning o'qituvchilik mahorati namunasi. Shu ma'noda, bugungi talabalar avval shoirning shaxsi berkitilgan asarlari mohiyatiga avval o'zlari kirishlari o'rinlidir:

*Osoyishta o'tmadi biror kunim,  
Talashib, tortishib tolmadim.  
"Og'irroq bo'l inim, siporoq bo'l inim..."  
Men o'z bilganimdan qolmadim.*

*Quvroq bo'l deyishdi, yolg'on ham kerak,  
Jindek xushomad ham. Quloq solmadim.  
Oqni oppoq ko'rdim, qorani qora,  
Men o'z bilganimdan qolmadim.*

*Ko'nglim sezar, endi bu yog'i ayon,  
Do'stlarim... do'stlarim, baxtli bolaman:  
Yo Toshkentda eng zo'r shoir bo'laman,  
Yo uyimga ketib, ariq bo'yida  
Yalpizga suyanib o'lib qolaman!*

“Mehrimga qattiq bo'ldi...”

She'rxon shoir shaxsiyatidagi fazilatlarini to'laroq his qilishi, uning misralar mohiyatiga berkitilgan o'zligini anglash uchun quyidagi savol-topshiriqlar ustida ishlashi talab etiladi: «Birinchi to'rtlikka e'tibor qarating: undan shoirning shaxsiga xos qanday

sifatlarni ilg‘ash mumkin? “*Og‘irroq bo‘l inim, siporoq bo‘l inim...*”, “*Quvroq bo‘l, yolg‘on ham kerak. Jindek xushomad ham*” degan gaplar kimga tegishli deb o‘ylaysiz? Siz bu fikrga qo‘shilasizmi yoki yo‘qmi? Nega? Nima deb o‘ylaysiz, shoir “...o‘z bilganidan qolma”ganida nimalar nazarda tutilgan? U to‘g‘ri qilganmi, yo‘qmi? Sizning nazaringizda, uning o‘zi bilganlari nimalardan iborat bo‘lishi mumkin? She‘rdagi «*Oqni oppoq ko‘rdim, qorani qora*» satrlarini qanday tushinish mumkin? Bu, sizningcha fazilatmi yoki illatmi? “*Ko‘nglim sezar, endi bu yog‘i ayon*” deganda shoir nima demoqchi deb o‘ylaysiz? Shu misralar zamirida shoir shaxsiga xos bo‘lgan qanday sifatlarni ilg‘adingiz? O‘zingizni u bilan taqqoslang. Aytingchi, Muhammad Yusuf o‘zi aytmoqchi: “*Toshkentda eng zo‘r shoir*” bo‘loldimi, yo‘qmi? Buni siz nimalarda ko‘rasiz?» va hokazo. Bu savol-topshiriqlar bilan ishlash jarayonida talaba hayotiy haqiqatlarni, shoirning xarakterini kashf etadi. She‘rdagi muallif shaxsini ochib beruvchi jihatlar umumlashtirilib alohida sanalgani va adabiyot daftariga yozib olingani maqsadga muvofiqdir.

So‘ngra shoirning “O‘g‘il bo‘lsang...” she‘ridagi quyidagi ikki misraga e‘tibor qaratiladi:

*Shamoldek el, suvdek tosh,  
Hech kimsaga bukma bosh...*

O‘g‘il bolaga shunday talab qo‘ya bilishga ruhan o‘g‘il bola bo‘lgan odamgina qodir. Chin shoir ilohiy holatga tushganda, faqat ko‘nglidagi rost tuyg‘ular qog‘ozga to‘kiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z adabiy saviyalarini ko‘tarish maqsadida kuzatsinlar-chi, o‘zlari yoki atrofdagi o‘g‘il bolalar bu talabga qanchalik javob berisha olarkin? Ularning qo‘llaridan «shamoldek elib, suvdek toshib» yashash kelarmikin? Boshqalarga bosh egmay yashashning nima ekanligini bilisharmikin? O‘zlari bunga qodirmikin? Bu sifatlarning o‘zlari va muallifga qanchalik daxldor ekanligi haqida o‘ylab ko‘rishsin. Birgalikda fikr almashishsin.

She‘rning keyingi satrlarida shoir ichki “Men”ining dardlari ifodalangan:

*Tug‘ildingmi demak yon,  
Shoh qo‘lida zanglagan  
Qilich bo‘lma hech qachon.  
Undan ko‘ra bitta mard*

*Qul qo'lida xanjar bo'l!..*

*O'g'il bo'lsang o'jar bo'l,*

*Qolgan bari safsata.*

*Erking uchun, el uchun*

*Nomusingga navkar bo'l.*

Bu misralar – shoir o'zligining ifodasi. Talabalar, bo'lajak o'qituvchilar o'ylab ko'rsinlarchi, bunday gaplarni odam shunchaki aytishi mumkinmi? Tabiatan shunday xarakterga ega bo'lgan odamgina bu kabi sifatlarni ilg'aydi, ularga nom topadi va so'z bilan ifodalay biladi. Talabalar quyidagi savol-topshiriqlarga javob berish asnosida o'zlarini odam sifatida kashf qiladilar. Faqat bu haqiqat ularning ichlarida, yashirin holda qoladi: "O'g'il bola"ning sizga qo'yayotgan talabiga qanday qaraysiz? Talab sizga ma'qulmi, yo'qmi? Nega? «O'jar»lik, sizningcha fazilatmi yoki illatmi? Fikringizni asoslang. Shoirning «*Nomusingga navkar bo'l*» degan talabini qanday tushundingiz?» Bu satrlar zamiridan topilgan shoirga xos bo'lgan sifatlar ham ajratib olinib yozib qo'yiladi.

Muhammad Yusufning ilohiy tuyg'u – muhabbatga ham munosabati o'zgacha: "*Sevdingmi, yuz yil kut, Sevmasang unut!*"- deydi "Sevgi sadosi" she'rida. Sevish va muhabbat hissi haqida ayuhannos solish, bizning yigitlarimizdek jamoat transporti yoki bog'lardagi o'rindiqlarga, ko'cha-ko'ylarda devorlarga sevgilisining ismini yozib qo'yish o'g'il bolaning ishi emas. Shoirning nazarida hatto buni ma'shuqaga aytish ham shart emas. Chunki uningcha: "*Suymoq bu – gulxanda kuymoq azali*". Ma'lumki, inson, ko'pincha, o'zida yo'q hisning nima ekanligini ham bilmaydi. Shoir yozyaptimi, demak u bu tushunchalarning hammasidan xabardor, hammasi uning o'zida u yoki bu darajada mavjud. Talabalar satrlardagi shoirning xarakteriga xos bo'lgan katta haqiqatlarni topishlari va daftarlariga qayd etib borishlari maqsadga muvofiqdir.

*Men beun sevarman, men jim sevarman,*

*Qiyomatgacha shul sukutdadirman*

“Men bittadurman”.

Talabalar shu ikki satrga tayangan xolda shoir shaxsiga xos bo'lgan yana bir sifatni ochishga urinib ko'rsinlar: "Nima deb o'ylaysiz, Qiyomatgacha ichda saqlanadigan muhabbat kimga tegishli

bo‘lishi mumkin? Bu misralardan shoirga xos bo‘lgan qanday fe‘l-atvorni ilg‘adingiz? Sizningcha, muhabbatini ichda saqlashdan oshiqqa nima naf?» Fikrlar yana qayd etib boriladi. So‘ngra quyidagi satrlar ifodali o‘qiladi:

*Men ham o‘sha-o‘shaman, nodon,  
Goh pand berib, gohida pand eb.  
Mashhur qil deb so‘rab Xudodan,  
Tilamabman baxtli bo‘lay deb...*

“Muddao”

Shoirlar, bir qaraganda hamma qatori oddiy odamday, bir qarasa, ilohiy yaratiqday. Ba‘zan, jayronlarga tug‘ishgan og‘a bo‘lishni, kapalaklar bilan oshno tutinishni, momoqaymoqlarga jo‘ralikni-yu, qizg‘aldoqlarga himoyachilikni istab qolishadi, goh qarasangiz, oddiy insoniy baxtga tashna. Talabalar yuqoridagi misralardan shoir shaxsini qidirishga urinib ko‘rishsin. Buyuklik va oddiylikni ularning o‘zlari, o‘z darajalarida farqlaganlari durust.

*Yo‘ling kesib o‘tsam – o‘zim xijolat  
Uzoqdan bir seni ko‘rsam kifoyat,  
Bir nigohing o‘zi menga inoyat,  
Seni hech kim sevolmaydi meningdek*

“Suvpari”.

Talabalar bu misralarga tayanib “yo‘lini kesib o‘tish” tushunchasi haqida mulohaza yuritsinlar. Bu qanday tushuncha? U xalqimizda qanday vaziyatlarda qo‘llanadi? Shunga asoslangan holda shoirning milliy qadriyatlarga munosabati haqida ham o‘ylab ko‘rsinlar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning qaysidir qismi yaxshi bilsa kerak, o‘zbek ayollarida erkakning oldidan kesib o‘tmaslik odati bor. Bu erkakka hurmatsizlik sanaladi. Lekin bu odatning muhabbatga qanday daxli bo‘lishi mumkin? Muhabbat tuyg‘usini har kim o‘zicha tushunadi. Oshiqning ma‘shuqasiga hurmati shunchalarki, uning oldiga chiqishga, u bilan yuzma-yuz bo‘lishga ichki qudrati etmaydi. Mobodo, chiqqan taqdirida ham hayajon, xijolat qurshovida qoladi. Talabalar oshiq ma‘shuqasini shunday seva olishiga ishonisharmikin? Bugungi she‘rxon ham shundoq seva olarmikin? Shular haqida o‘ylab ko‘rish, unga munosabat bildirish zimdan talabaning saviyasini ko‘taradi.

*Muhabbat, ey go‘zal iztirob,*



*Ey ko 'hna dard, ey ko 'hna tuyg 'u.  
Ko 'kragimga qo 'lingni tirab,  
Yuragimni to 'kib qo 'yding-ku*

“Muhabbat”.

Bo'lajak o'qituvchilar yuqoridagi to'rtlikni ifodali o'qib, e'tiborni shoirning so'z qo'llashdagi, fikr ifodalashdagi mahoratiga qaratganlari, bu borada fikr yuritib, mulohazalarini o'rtoqlashganlari tuzuk. Muhabbat atalmish qadim tuyg'uning shoir qalbiga kirib kelishi ifodasi tasviri ham ularning nazaridan chetda qolmagani ma'qul. Bu M. Yusufning she'riyatdagi, shoir sifatidagi o'ziga xos xususiyatidir.

*So 'rsang, sevinchimdanda o 'kinchim ko 'proq,  
Sendan-da kumushroq sochimdagi oq.  
Yilim kelmay turib, yilim ketmoqda,  
Ko 'zda tabassum-u kiprikda titroq...*

“Yangi yil kechasi” she'ridan olingan bu misralar shoir hayoti, turmush tarzining tasviri. Talabalar bu misralarni o'zlari sharhlasinlar. Ulardan shoirning shaxsini qidirsinlar. Buning uchun ularga quyidagi savol-topshiriqlar yordam beradi: “*Sendan-da kumushroq sochimdagi oq*” deb shoir nimaga murojaat qilayotir deb o'ylaysiz? “*Ko 'zda tabassum-u kiprikda titroq...*”ni qanday tushunish mumkin? O'ylab ko'ringchi, ko'zda nima ifodalanayotir-u kiprikda nimaning tasviri? Bu satrlardan muallif xarakteriga xas bo'lgan xususiyatlarni toping» va hk.

Shoir qalamiga mansub navbatdagi satrlar ham uning shaxslik sifatlarini ochib beradi:

*Mening kimligimni bilmaydi hech kim,  
Men bir g'alatiman, men – alohida.  
Ko 'zimning yoshini keladi ichkim,  
Tilimni chaynagim kelar gohida.*

*Mening kimligimni bilmaydi hech kim,  
Men bir g'alatiman, men – alohida.  
Kiyiklar qonini keladi ichgim,  
Chayonni chaynagim kelar gohida*

“Surat”.

Shoirning alohidaligini nimalarda ko'rish mumkin? Ko'pchilik

sinchi- adabiyotshunoslar “asl tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi” deyishadi. Shoirning shaxsi bilan bog‘liq yuqoridagi misralar uning o‘zi ham o‘zligini to‘liq anglay olmaganidan dalolatdir, balki. Bu o‘zni anglash – Allohni anglashdir degan g‘oya bilan bog‘liqmikin? Bo‘lajak o‘qituvchilar shular haqida ham o‘ylab ko‘rishsin. Shoirning alohidaligini ta’kidlab ko‘rsatuvchi: “*Ko‘zimning yoshini keladi ichkim, Tilimni chaynagim kelar gohida*” satrlariga insonga xos bo‘lgan qanday sifatlar singdirilgan deb o‘ylaysiz? «*Kiyiklar qonini keladi ichgim, Chayonni chaynagim kelar gohida*» satrlari zamirida qanday haqiqat yashiringan bo‘lishi mumkin? Ular shoir xarakteridagi qanday sifatlardan dalolat berayotir, Sizingcha?” Ertaga ma’naviy barkamol shaxs shakllantirishga bel bog‘lagan talabalar shular haqida o‘yga tolarkan, muallifni o‘zining darajasida tushunishga harakat qilsinlar, shoir yordamida o‘z shaxsini anglashga, aniqlashga intilsinlar. Bu shoirning ham, bo‘lajak o‘qituvchining ham, adabiy ta’limning ham katta yutug‘idir.

*Osmon cho‘kib qoldi bu oqshom,  
Yulduz bo‘lib yog‘ildi bir sas.  
Bir mahalla nigohni ko‘rdim:  
Yashash kerak, sevish shart emas.*

*Yoqa ushlab qolsin ko‘rganlar,  
Olovlarga otgum uni, bas.  
Yonib ketsin charsillab qalbim,  
Sevish kerak... Yashash shart emas!*

“Osmon cho‘kib qoldi bu oqshom...”

«Yuqoridagi misralarda shoirning alohidaligi qaysi misralarda o‘z aksini topgan? Bo‘lajak o‘qituvchi “*bir mahalla nigoh*”ning fikriga qo‘shiladimi yoki shoirning gapigami? Nega? Shoir: “*Olovlarga otgum uni, bas*” deganda nimani nazarda tutayotir deb o‘ylaysiz? «*Sevish kerak... Yashash shart emas*»ni birgalikda tahlilga torting. Inson uchun, ayniqsa, shoir uchun nimalar muhim ekanini aniqlang. Shu muhimlar shoirning shaxsini belgilaydi. Ular shu muhimlarni anglagan bo‘lajak o‘qituvchining ham shaxsini shakllantiradi.

Shoir qalamiga mansub quyidagi misralar ham bo‘lajak

o‘qituvchilarni o‘ylantirishi aniq:

*Toshkanda... tog‘larni sog‘indim,  
Yashil o‘tloqlarni sog‘indim.  
Suv bo‘yiga chordona qurgan  
Momoqaymoqlarni sog‘indim.*

*...O‘zim tashna, menga tashnalar –  
Yalangoyoqlarni sog‘indim.  
...To‘ydim tillabarmoq qizlardan,  
Qo‘li qadoqlarni sog‘indim*

“Sog‘indim”.

Yuqoridagi misralarda ifodalangan shoir sog‘ingan timsollarga tayanib uning shaxsiga baho berishga urinib ko‘ring: «U qanday odam? «...*O‘zim tashna, menga tashnalar – Yalangoyoqlarni sog‘indim*»ni qanday tushunish mumkin? «Yalangoyoqlar» deganda kimlar nazarda tutilayotir deb o‘ylaysiz?» Talabalar «*qo‘li qadoqlar*» deganda kimlar nazarda tutilayotganini bilarmikinlar? Shoir ularning nimasini sog‘ingan? «*Suv bo‘yiga chordona qurgan Momoqaymoqlar*»ni qanday tasavvur qilish mumkin? Bu tasvirda shoirning qanday sifati namoyon bo‘lgan?» singari masalalar ustida ishlash bo‘lajak o‘qituvchilarni mustaqil fikrlashga, munosabat bildirish va xulosalar chiqarishga, ayni zamonda odamni kashf qilish, shu asnoda o‘zligini anglashga o‘rgatadi.

So‘ngra keyingi she‘rdan olingan parchaga talabalarning diqqati qaratiladi:

*...Menimcha, dunyoda eng katta gunoh –  
Sog‘inmay yashamoq...  
...Menimcha, dunyoda eng katta gunoh –  
Hiringlab she‘r o‘qimoq!*

“Yolg‘on yomon derlar...”

Bo‘lajak o‘qituvchilar savob va gunoh kabi tushunchalarni yaxshi farqlaydilar. M. Yusufning nazaridagi gunohlarga e’tibor qilishsin. «Ular “*sog‘inmay yashash*” va “*hiringlab she‘r o‘qish*”ni qanday tushunisharkin? Siz ham bu hislarni gunoh hisoblaysizmi yoki bu noaniq, tushunarsiz tuyg‘umi? O‘zi she‘r qanday o‘qiladi?» Agar talabalar tushunisholmayotgan bo‘lishsa, shoir bilan o‘zlari

oralaridagi masofani chamalab ko‘rishsin. Shu tariqa shaxsiyatlarini o‘rganishadi.

*Tunlari charog‘on shunday shaharda,  
Hech kimga ko‘nglimni yora olmayman.  
Men siz aytgandayin hammani sevdim,  
Hammaga ishondim, mana oqibat...*

“Onamga xat”

Yuqoridagi misralar o‘qib bo‘lingach, bo‘lajak o‘qituvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilgan ma‘qul: «Shoir yozganidek onasining gapiga kirib hammani yaxshi ko‘rgani, hammaga yaxshilik qilgani, hammaga ishongani qanday oqibatlarga olib keldi deb o‘ylaysiz? Bu yaxshimi, yomonmi? Nega? Onaning bolasiga o‘rgatganlari to‘g‘rimi yoki noto‘g‘ri? Bunday fazilatlarining rag‘batini shoir kimdan olishi mumkin deb o‘ylaysiz? Siz qandaysiz?» Satrlar zamiridan muallifga xos fazilatlarining talabalar tomonidan tadqiq etilishi va tahlil-muhokamaga tortilishi ularning ma‘naviy kamolotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniq.

Talabalar “Oqibat” she‘ridan olingan quyidagi misralarni ham avval ifodali o‘qishsin. Odamlar orasida oqibat yo‘qolib borayotganidan yozg‘irgan shoir:

*Bo‘ldi. She‘rim tamom. Axir siz chidab  
Yuribsiz-ku, nima qipti men yursam.  
Tomog‘imda jonim turibdi yig‘lab,  
Jondan ayrilaman endi gapirsam!..*

deydi. Yo‘qolib borayotgan bir qator fazilatlardan shoir shunchalar qiynalgan, millatga xos bo‘lgan bu illatlar uni ruhan ado qilyapti. «U aytmoqchi, biz, hech narsani bilmaganday chidab yuribmiz. Nega? Buning sabablari nimada? Nega shoir chiday olmayapti? Bu uning shaxsidagi qanday sifatlardan dalolat beradi? “Tomog‘imda jonim turibdi yig‘lab”ni qanday tushunish mumkin, sizningcha?» kabi savollar haqida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘ylab ko‘rsalar, ruhiyatlarida shaxslik sifatlari shakllanishida foydadan holi bo‘lmasdi.

Shoir bir she‘rida yozadi: “Men yorug‘ dunyoda ko‘nglim quliman...” «Xo‘sh, buni qanday tushunish mumkin? Inson aqlining, manfaatlarning etovida yurgani ma‘qulmi yoki ko‘ngilning boshqaruviga bo‘ysungani tuzukmi? Qay holatda yashash to‘g‘ri bo‘ladi, Sizingcha? Nega? Ko‘ngliga qul bo‘lgan shoir bo‘lajak

o‘qituvchilarga yoqyaptimikin yoki yo‘q? Sababi nimada?» Shular ustida birgalikda fikrlash jarayonida talabalar o‘zlarini ham taftish qilib boradilar. Bu bo‘lajak o‘qituvchini jiddiy o‘yga toldirishi aniq.

Keyingi satrlar ifodali o‘qilgach:

*Bo‘ldi. She‘r yozmayman. Men endi odam  
Oddiy odam bo‘lib yashay boshlayman.  
Ko‘nglimga achinib agar yozsam ham,  
Tunda yozib, tongda o‘tga tashlayman!*

“Iqror”

«M. Yusuf faqat she‘r yozgani uchun oddiy odamlardan farq qiladimi yoki buning boshqa asoslari ham bormi? She‘r yozadigan hamma odamlar “murakkab”mi? «Ko‘ngilga achinib yoz»ishni qanday tushunasiz? Bu tushunchaning mohiyatida qanday fikr mavjud, sizningcha?» va hk.

Talabalar o‘zlarining Muhammad Yusuf shaxsi haqida asarlari tahlili asnosida chiqargan xulosalari, qarashlarini millatning boshqa ulug‘lari fikrlari bilan solishtirib ko‘rishlari ham maqsadga muvofiqdir:

*“Muhammadjonning she‘rlari bir qarashda juda sodda, jo‘n yozilganga o‘xshaydi. Ammo unga o‘xshatib yozib ko‘ring-chi! Qo‘lingizdan kelmaydi! Uning oson yoziladiganga o‘xshab ko‘ringan misralari muxlislarini yig‘latadi, kuldiradi, o‘z og‘ushiga tortadi. Odamlar uning she‘rlarini hayajonsiz o‘qimaydigan, kitoblarini do‘konlardan qidirib yuradigan bo‘ldilar. ...Muhammadjon kamdan-kam tug‘iladigan iste‘dod egasi bo‘lish bilan birga, kamdan-kam shoirida uchraydigan xislat egasi – shuhratdan qochadigan kamsuqum inson edi. U shuhratni emas, shuhrat uning ortidan quvib yurardi...”*

Ozod Sharafiddinov,  
O‘zbekiston qahramoni.

*“Muhammad Yusuf odamlarning esini og‘dirgan, o‘ylatgan, kuldirgan, yig‘latgan, topgan-tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi. Qo‘lida borini do‘stlariga tarqatmaguncha, cho‘ntagi bo‘shab qolmaguncha ko‘ngli to‘lmasdi. U hammani o‘ziga do‘st deb bilardi. ...Aslini olganda, asl shoirlar uzoq yashamaydi. Endi shoirning o‘zi yo‘q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish She‘riyat bor...”*

Said Ahmad,  
O‘zbekiston qahramoni,  
O‘zbekiston xalq yozuvchisi.

*“Chinakam shoirning qalbida sohir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko‘p bor eshitgandik. O‘sha qush aynan Muhammadjonning ko‘nglida oshiyon qurganiga men astoydil ishonaman. Uning chehrasi ham, ko‘zlari ham hamisha latif bir kuyni xonish qilganday edi... Birinchi navbatda Muhammadjon yaxshi inson edi. Yaxshi insonlarga boshqalar hamisha talpinadilar... U obro‘ talashmas, izzatini so‘roqlab yugurib yurishdan or qilardi. Xuddi shundoq yaxshi insongina yaxshi ijodkor bo‘lishi tabiiy va qonuniydir...”*

Abdulla Oripov,  
O‘zbekiston qahramoni,  
O‘zbekiston xalq shoiri.

*“...Inson umrining oxirigacha ilm o‘rganadi. Ammo she‘r yozish ilmi shunday ilmki, uni o‘rganib bo‘lmaydi. U tug‘ma bo‘lishi kerak. Muhammadjon tug‘ma iste‘dod sohibi edi... U juda tez og‘izga tushdi. Uning tanqidiy yo‘nalishdagi luqmalari, kichik-kichik qatralari, bir qator maqolalari Maqsad Yaxshiev nomi bilan gazetalar sahifalarida tez-tez ko‘zga tashlanadigan bo‘ldi. Sal keyinroq Muhammad Yusuf nomi bilan elga tanildi. U omadli yigit edi... Muhammadjon ustozlari, yaqinlari, farzandlari xotirasida yaxshi ishlari, xokisorligi, mehrliligi bilan muhrlanib qolsa, muxlislari tasavvurida yig‘latadigan, o‘ylatadigan, ezgulikka etaklaydigan she‘ru qo‘shiqlari bilan yashab qoladi”.*

Erkin Vohidov,  
O‘zbekiston qahramoni,  
O‘zbekiston xalq shoiri.

*“Muhammad! Men agar Sizdan Vatanni sevishni, yorni suyishni, ardoqlashni asrashni o‘rgandik, desam bu so‘zimda qilcha mubolag‘a yo‘q... Siz atrofingizdagi bor mavjudotni jondan sevdiniz, qarqarali, nash‘u namoli sevdiniz. O‘pay desangiz “peshonasi yo‘q qizg‘aldoq”dan tortib, “ko‘zi to‘la yosh jayron”gacha... Aytganlaringizning har satriga ko‘zmunchoq taqib*

*yashadik. Oriyat, g'urur, tiklik haqida har birimiz imkonimiz qadar nimalardir deganmiz, lekin birortamiz: "Bo'ynim egilguncha ketsin uzulib!" demaganmiz. Bunday baland pardalarga shu qadar osonlik bilan chiqish hammaga ham nasib qilavermaydi..."*

Halima Xudoyberdieva,  
O'zbekiston xalq shoiri.

*"U kishining she'rlarida dard bor edi. Muhammad Yusuf xalq dardini tushunardi. Xalq uchun, Vatan uchun, Mustaqillik uchun yonib yozdi. Shu bilan birga inson qalbining tub-tubidagi dardini topib yozdi. U kishining yuragi xalq yuragi bilan hamohang urardi..."*

Yulduz Usmonova,  
O'zbekiston xalq artisti.

Talabalar shoirning she'riyatidan kashf etgan haqiqatlarini millatning ulug'lari aytganlari bilan solishtirib ko'rishsin. Keyin qanday sifatlar shoir shaxsida ustuvor ekanini ajratib chiqsinlar va shu fazilatlarining qaysi biri o'zlarida mavjud ekani haqida o'ylab ko'rsinlar. Bu masalada javobni ovoz chiqarib aytish shart emas. O'ylab ko'rishning o'zi kifoya. Javobni bo'lajak o'qituvchilar o'zlari uchun bilib qo'yganlari bas. Agar o'zaro o'xshashlik topa olsalar, bundan faxrlansalar arziydi.

---

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Siz "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarini qanday angladingiz? Uni o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib berishga harakat qiling.

2. Nima deb o'ylaysiz, "kompetentlilik" bilan "ma'naviy barkamollik" tushunchalari o'rtasida farq bormi? Bo'lsa, u, sizningcha, nimalarda ko'rinadi?

3. Shaxs kompetentliligiga xos bo'lgan "*bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga egalik hamda shaxslik sifatlar*"ga alohida to'xtaling: ilm nima-yu bilim nima? "Ko'nikma" va "malaka" singari tushunchalarni izohlang. "Shaxslik sifatlar" deganda nimalarni tushunasiz?

4. Avvalo, "*uyg'otiladigan*" va "*mahsuldor*" imkoniyat nima ekani haqida o'qiganlaringizni xotrlang. So'ngra "*Har qanday mutaxassisga xos bo'lgan uyg'otiladigan imkoniyatning mahsuldor imkoniyatga aylanishi*"ni izohlashga harakat qiling. Har ikkala

imkoniyat orasida, sizningcha, qanday farq bor?

5. Kompetentlikning tarmoqlariga diqqat qiling. Ularning qaysi biri sizda qay darajada shakllanganligi haqida o‘ylab ko‘ring, o‘zingizga o‘zingiz baho bering.

6. Har qanday mutaxassisga xos bo‘lgan kompetentlikning tarmoqlarini alohida tahlilga torting. O‘zlashtirganlaringizni tushunchangiz doirasida izohlang. Qarashlaringizni misollar bilan asoslang.

7. Umumiy kompetentlik bilan boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari kompetentligiga xos bo‘lgan tafovutni aniqlang. Ularni tahlilga torting. Mohiyatini oching.

8. Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi qamrab olgan tushunchalarni ajratib daftaringizga yozib oling. Ularni izohlab bering.

9. Shoir M. Yusuf shaxsiga xos sifatlarni ochishga yo‘naltirilgan maqola ustida darsda birgalikda ishleng. Fikrlashing. Qarashlaringizni, chiqargan xulosalaringizni asoslang.

#### **4-mavzu. Boshlang‘ich adabiy ta’limda badiiy asarlar ustida ishlash texnologiyalari. O‘qish darslarini tashkil etishda hamkorlik texnologiyasining zarurati**

##### **Reja:**

1. Ta’lim texnologiyalari
2. Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarini tashkil etish texnologiyalari
3. Pedagogik sinergetika
4. Ta’limiy ishlarni hamkorlikda tashkil etish o‘quvchilar imkoniyatidan samarali foydalanish zaruriyati.
6. Badiiy matn tahlili namunasi: “Maymun va duradgor” ertagi

**Tayanch so‘zlar:** *pedagogik sinergetika, Xopkins universiteti, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, sub’yekt-sub’yekt, sub’yekt-ob’ekt, ijodkorlik muhiti*

Pedagogika ilmida ta’limning bir qator texnologiyalari mavjud bo‘lib, boshlang‘ich adabiy ta’limda ulardan hamkorlik, modulli va didaktik o‘yinlar texnologiyalari yetakchilik qiladi. Talabalarga pedagogika kursidan ma’lumki, texnologiya so‘zi yunoncha “texne” – mahorat, san’at; “logos” – ta’limot ma’nolarini bildiradi. Bu so‘z dastlab sanoatda yoki qishloq xo‘jaligida tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanadigan usul va metodlar yig‘indisini



anglatgan. Ta'lim jarayoniga nisbatan qo'llanilganda, ya'ni "pedagogik texnologiya" deyilganda o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligini, bosqichlararo aloqadorlikni, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan barcha ishlarni muvofiqlashtirish, rejalashtirilgan barcha ishlarni talab darajasida bajarishni nazarda tutadi. Ya'ni, ta'lim texnologiyasi tushunchasi o'zida ta'lim berish san'ati, o'qitish mahorati ma'nolarini mujassamlashtiradi. Shundan kelib chiqqan «yangi pedagogik texnologiya» atamasi esa ta'lim berishning biz o'rganib qolgan an'anaviy yo'llaridan voz kechilib o'qitishning yangicha, jahon andozalari darajasiga ko'tarish usullarini ishga solib uni samarali tashkil etishni ifodalaydi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarini tashkil etish amaliyotida yetakchilik qiluvchi ta'lim texnologiyalaridan asosiysi o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyatiga tayangan hamkorlik texnologiyasidir. Ta'limning har qanday bosqichida, u boshlang'ich sinflarda bo'ladimi, yuqori yoki oliy maktabda bo'ladimi, o'qituvchi bilan ta'lim oluvchi orasidagi munosabatni tashkil etish muammosi barcha davrlarda ham o'ta dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Mazkur munosabatlarni hamkorlik darajasiga ko'tarishning nazariy asoslari dunyo miqyosida **pedagogik sinergetika** doirasida tadqiq etiladi. Bu ta'lim beruvchi uchun ham, ta'lim oluvchi uchun ham o'z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etishga oid nazariy yondashuv bo'lib, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini davr talablari darajasida to'g'ri tashkil etish bilan bog'liq yangicha dunyoqarashdir. Sinergetika (yunoncha *sunergeia* – hamkorlik, hamjihatlik) – tizimlarning o'z-o'zini mustaqil tarzda tashkil etish nazariyasi, o'z-o'zini boshqarish, dunyoviy hodisalarni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini mustaqil tarzda bilishga qaratilgan ilmiy yo'nalish, tafakkur usulidir<sup>11</sup>.

Pedagogik sinergetika, ya'ni ta'lim jarayonidagi o'zaro hamkorlik ilmiy yo'nalish sifatida o'tgan asrning 60 – 70-yillarida shakllangan. XXI asdagi pedagogik sinergetikani esa ta'lim-tarbiya jarayonining sub'yektlari (o'qituvchi va o'quvchi) hamkorligini anglashga ko'maklashadigan nazariy-amaliy yondashuv sifatida talqin etish

---

11Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: "ИКАР", 2009. С. 247.

o‘rinlidir.

Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi dastlab Amerikadagi Xopkins universiteti professori R. Slavin, Minnesot universiteti professorlari R. Jonson, D. Jonsonlar, Kaliforniya universiteti professori Sh. Sharonlar tomonidan ishlab chiqilgan<sup>12</sup>. Mazkur hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi, asosan o‘quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilimlarni egallash, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o‘qitish nazariyasi esa o‘quv materialini barcha o‘quvchilar tomonidan qayta ishlash, loyihalashtirishni bahsmunozara asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Mazkur g‘oyalar bir-birini to‘ldirgan holda milliy tarbiyashunoslikni didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi Amerika qo‘shma shtatlari, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta‘lim muassasalarida keng qo‘llaniladi. Tom ma‘noda, pedagogik hamkorlik masalasi hamisha dunyo didaktlari va pedagoglarini qiziqtirib kelgan. Jumladan, rus olimi V. M. Myasishevning qarashlarida shaxs – o‘zaro hamkorlik va boshqalar bilan munosabat asnosida o‘zligini namoyon etishi ta‘kidlanadi. O‘tgan asrning 80 – 90-yillarida B. F. Lomov: “insonning individual xususiyatlari jamoa bilan hamkorlikdagi faoliyati asnosida namoyon bo‘ladi”, deya ta‘kidlagan edi<sup>13</sup>.

A. V. Petrovskiy esa shaxslararo munosabatlar jamoadagi faoliyatdan kelib chiqishini o‘rgangan holda, ta‘lim jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamkorligini tashkil etish faqat ularning muloqot, muomalaga nisbatan ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o‘quv materialini o‘zlashtirishning ham muhim sharti ekanligini alohida qayd etib o‘tgan<sup>14</sup>.

Ta‘lim jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligi yoki o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi masalasining kechagi jamiyat pedagogika ilmida chuqur o‘rganilmaganligi sababini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

---

12 Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – 448 с. С. 133.

13 <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

14 Ўша асар.

1)pedagogik hamkorlik hodisasi milliy pedagogika va didaktika uchun yangi fenomen ekanligi;

2)ta'lim jarayonini sub'yekt-sub'yekt asosida tashkil etish kechagi jamiyatda shakllangan talablar maqsadiga monand emasligi;

3)o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida sub'yekt-ob'ekt munosabatlari barqarorlashib qolganligi;

4)ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra soha mutaxassislarining e'tiborini jalb qilmaganligi;

5)bu tushunchaning o'qituvchi o'rganib qolgan hokimlik faoliyatiga mos tushmasligi;

6)pedagogik faoliyatning tezkorligi, bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchi erkinligining ustuvorligini "hazm" qila olmaslik va hk.lardir.

O'tgan asr oxirlarida boshlangan hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonida o'qitish metod va usullari, o'quv topshiriqlari variantlari ishlab chiqilgan, tajriba-sinovdan o'tkazilgan hamda bu borada jahon pedagogikasi amaliyotida foydalanishga arzigulik yutuqlar qo'lga kiritilgan. Ta'limiy ishlarni hamkorlikda tashkil etishda quyidagi asosiy holatlar mujassamlashgan:

1) ta'limiy muammoning o'quvchi muhokamasiga dastlabki ko'rinishda qo'yilishi;

2) shakllantirilgan muammo echimining qulay variantlarini tanlay olish imkoniyatiga ega bo'linishi;

3) o'quvchining ta'limiy muammoning tahlili va buning uchun zarur bilimlar haqida tasavvurga ega bo'lishi;

4) ta'limiy muammoni echish imkoniyatlarining aniqlanishi va chegaralanishi;

5) o'quvchi ongida uning shaxsiy dunyoqarashi va ilmiy-amaliy tushunchasi doirasida muammoni qayta shakllantirishga erisha olinishi;

6) hamkorlikdagi faoliyatning asosiy bosqichlaridan o'tilishi;

7) qo'yilgan muammo echimi talablariga asoslangan holda yondashuvlar yoki tayyor javoblarning bayon qilinishi<sup>15</sup> va hk.

Ta'lim jarayoniga kirib kelgan bu yangicha yondashuvning ahamiyati shundaki, unda shaxslararo munosabatlar o'zaro hamkorlik jarayonida yangi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Mazkur yondashuvlarda o'qitish kechimidagi o'qituvchi hokimligiga chek qo'yiladi. O'quvchi ta'lim jarayonida o'qitilishi kerak bo'lgan, o'zi

---

15 <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

o'rganib qolgan ob'ektlik maqomidan chiqib sub'yekt darajasiga ko'tariladi. Ya'ni u o'qituvchisi bergan bilimlarni mute tinglovchi bo'lib o'zlashtirishdan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zi izlanib, o'ylanib, mehnat qilib o'zlashtiradigan sub'yekt darajasiga erishadi. Boshlang'ich adabiy ta'lim misolida qaraladigan bo'lsa, o'qituvchi bilan o'quvchilarning, o'quvchilarning bir maqsad yo'lida o'zaro birgalikdagi, sheriklikdagi harakati nazarda tutiladi.

Kuzatishlar ko'rsatmoqdaki, nafaqat turg'unlik, balki mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan pedagogikaga oid darslik va ilmiy manbalarda ham «pedagogik hamkorlik» tushunchasi muammo sifatida ko'tarilmagan. Maktab o'qituvchilari hozir ham pedagogik hamkorlik, uning dialektik tabiati, o'ziga xos xususiyatlari, samaradorligi, bunday hamkorlikni tashkil etish yo'llari haqida etarlicha tasavvur, bilim va tajribaga ega emaslar. Bularning barchasi mazkur hodisani har tomonlama tadqiq etish ehtiyoji mavjudligidan dalolat beradi. Vaholanki, pedagogik hamkorlik va uni o'qitish kechimida qo'llash zamonaviy ta'limda hal etilishi zarur bo'lgan eng dolzarb muammolardan biridir.

Pedagogik hamkorlik jarayon sub'yektlari uchun o'zligini namoyon qilish imkoniyatidirki, unda o'qituvchi bilan o'quvchining yoki o'quvchilarning o'zaro hamkorligi: o'qituvchi hukumronligiga chek qo'yish; o'quvchining erkinligi; ijodkorligi; mustaqil tafakkuri va faoliyati singari jihatlarni yuzaga keltiradi.

Pedagogik hamkorlik jarayonida o'qituvchi-o'quvchi yoki o'quvchilarning o'zaro faoliyati uyg'unlashib, ijodiy xarakter kasb etadi. U ta'lim jarayoni sub'yektlaridagi har bir o'ziga xos jihatni hisobga olishni, namoyon bo'lishini taqozo qiladi. Pedagogik hamkorlikning yuzaga kelishi uchun o'qituvchi va o'quvchi bu jarayonning o'zaro aloqador sub'yektlariga aylanishlari kerak. Ya'ni o'quv-biluv jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi markazida o'quvchining ko'r-ko'rona ijrochilikdan teng huquqli ishtirokchi darajasiga ko'tarilishi nazarda tutiladi. O'qituvchi va o'quvchi timsolidagi sub'yektlarning yangicha munosabatlari, teng huquqli hamkorligi yotadi. O'quv-tarbiya jarayonidagi hamkorlik sub'yektlarning birgalikda yangi bilimlarni o'zlashtirishlari va ularni o'z faoliyatida ijodiy qo'llashlariga ko'maklashadi.

Ma'lumki, uzoq yillar davomida ta'lim tizimida ham turg'unlikka

yo‘l qo‘yildi. O‘qitish kechimidagi bu bir xillik o‘quvchini itoatkor tinglovchiga aylantirib qo‘ydi. O‘quvchi faoliyatining o‘qituvchi tomonidan boshqarilishi ta‘lim jarayonini bir tizim va bir qolipga soldi. Endilikda o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlariga bunday yondashuv ta‘limning yangilangan maqsadiga javob bera olmasligi ayon bo‘lib qoldi.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limdagi pedagogik hamkorlik ham bilimlarni jamoa bo‘lib o‘zlashtirishni nazarda tutadi va uning asosiy maqsadi – ishtirokchilarning his-tuyg‘uga asoslangan mustaqil, obrazli tafakkurini shakllantirish, bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta‘minlashdir. Bu serqirra usuldan murakkab didaktik-ijodiy masalalarni echish, o‘quv-biluv muammolarini hal etish yo‘li sifatida foydalaniladi. Bu texnologiya o‘quvchi tomonidan o‘qish darslarida o‘zlashtirilishi mo‘ljallangan o‘quv materialiga ijodiy yondashish imkoniyatini kengaytiradi.

Pedagogik hamkorlik jarayonida jamoa bo‘lib ishlash boshlang‘ich sinflar tarbiyalanuvchilarida mavzu doirasida yangi, mushtarak g‘oyalar tug‘ilishiga zamin hozirlaydi. Tabiiyki, bu texnologiya ta‘lim jarayonida samaradorligi sinalgan ilg‘or metodlardan foydalanishni taqozo etadi. O‘qish darslari jarayonida ulardan vaqti va o‘rnida foydalanilsa, o‘quvchining izlanuvchanlik qobiliyati muntazam rivojlanib borayotganini payqash mumkin. Hamkorlikda ishlaganda qo‘yilgan muammoning echimiga yo‘naltirilgan savol va topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarni yangi farazlar, his-tuyg‘uga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi va bunga ma‘lum miqdorda erishiladi ham. O‘quvchilar asta-sekinlik bilan o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishga odatlanib boradilar.

Boshlang‘ich adabiy ta‘lim hamkorlikda tashkil etilganda bilimlarni o‘rganish (o‘rgatish emas!)da e‘tibor sub‘yekt sifatida nafaqat muayyan bir o‘quvchiga, balki o‘quvchilar – sub‘yektlar guruhiga ham qaratiladi. Bu o‘rinda o‘qituvchi bilan o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi o‘zaro sub‘yekt-sub‘yekt munosabatiga kirishadilar. Bu jarayonda o‘qituvchi timsolida yo‘naltiruvchilik, o‘quvchilar faoliyatida esa izlanuvchanlik birgalikda amalga oshiriladi. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam birgalikdagi harakat vujudga keladi, hamkorlikka oid ishlab chiqilgan qat‘iy talablar uni o‘quv jarayonida to‘g‘ri amalga oshirilishiga asos bo‘ladi. Mazkur murakkab va serqirra texnologiyadan boshlang‘ich

sinflar o'qish darslarini tashkil etishda ko'zlangan maqsad yo'lida foydalanish o'qituvchidan yuksak darajadagi bilim, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, mahorat va fidoyilikni talab qiladi. Agar ta'lim beruvchida shu jihatlarning birortasi etishmasa yoki qaysidir jihatida «kemtik»lik sezilsa, mazkur jarayon o'rganish faoliyatiga aks ta'sir ko'rsatishi ham hech gap emas.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini pedagogik hamkorlik asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlaridan yana biri turlicha tabiatga, dunyoqarash, iqtidor va imkoniyatga ega bo'lgan sub'yektlarning barcha xususiyatlarini ro'yobga chiqara olishdir. Bu sohadagi dastlabki yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik hamkorlik ochiq didaktik vaziyatlar, uning tarkibiy qismlari va murakkab tarbiya jarayonini qamrab oladi. Bugungi kunga kelib boshlang'ich sinflar o'qish darslari jarayonidagi hamkorlik ta'limni rivojlantiruvchi ilg'or g'oya sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, pedagogik hamkorlik tushunchasi ostida mustahkam nuqtai nazarga ega bo'lgan pedagogik yondashuvlar, nazariyalar, qonuniyatlar hamda pedagogik tizimlar birlashadi, mushtaraklik kasb etadi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslari jarayoniga pedagogik hamkorlik g'oyasining tatbiq etilishi, an'anaviy pedagogik tafakkurdagi bir tomonlama qotib qolishga barham beradi. Bu nazariyani milliy tarbiyashunoslikning har bosqichi amaliyotiga joriy etish bugun alohida dolzarflik kasb etmoqda. Maktab o'quvchisida pedagogik hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatish ko'nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni boshlang'ich sinflar davridayoq tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki ta'limning mazkur bosqichida o'quvchida ijodiy faoliyatning ilk ko'rinishlari shakllanadi va o'zining rivojlanish bosqichiga kiradi. Bolada ijodkorlik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va o'z-o'zini namoyon qilish ko'nikmalari tarkib topadi. O'qituvchi bilan teng muloqotga kirishish, sinfdoshlari bilan hamkorlik, hamjihatlik ko'nikmalarini ta'limning ushbu bosqichida shakllantirish nihoyatda zarurligini amaliy tajribalar yaqqol ko'rsatmoqda.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki birgalikda o'qish-o'rganish hamdir. Hamkorlikda o'qitish har bir boshlang'ich sinf o'quvchisini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga yo'naltirish,

uning shaxsida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashni, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich adabiy ta'limni hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etish har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyati ma'lum bir guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq hamda sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga sherik bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilariga topshiriqni birgalikda bajarish uchun ko'rsatma berilishining o'zi etarli emas. Kichik o'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlikda ishlashlari, har bir o'quvchi qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonishi, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissini tuyishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga keltirilishi zarur. Mazkur texnologiyada boshlang'ich sinflar o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining jamoadagi kundalik yutug'i avval qo'lga kiritilgan bilimlari bilan taqqoslanadi. Shunda har bir o'quvchi o'zining dars davomida erishgan natijasi o'z jamoasiga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi. Albatta, buning uchun o'quvchilar jamoasi bilimi, dunyoqarashi va saviyasi jihatidan bir-biriga yaqin a'zoldan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

O'quv jarayonida o'zaro hamkorlikka asoslangan do'stona muhitni vujudga keltirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich adabiy ta'limdagi o'quv-biluv jarayoni o'quvchining huquqlari va erkinliklarini himoya qilish asosida tashkil qilinishi lozim. O'qituvchi bilan o'quvchi orasida o'zaro hamkorlik muhiti yaratilayotganda barcha o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinishi juda muhimdir. Bu jarayonda o'zaro tenglik muhiti hukmron bo'ladi, o'quvchilarning aksariyat muammolarini hal etishga ko'maklashadigan ta'lim-tarbiyaviy muhit tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiya maktab, ota-onalar, mahalla va o'quvchilar jamoasi

hamkorligida, demokratik va tolerantlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Hamkorlikda faoliyat olib borish jarayonda o'quvchilar oddiy ta'lim oluvchilar emas, ta'lim-tarbiya jarayonining teng huquqli, sheriklik asosida jipslashgan ishtirokchilari bo'lishlariga erishiladi. Sinfdagi barcha o'quvchiga bir xil muomala va munosabat, o'quvchi, o'qituvchi va ma'muriyat orasida do'stona muhit ustuvorligi asosida sifatli ta'lim berish sharoiti vujudga keladi. Kichik o'quvchilarga nisbatan do'stona munosabat o'zaro adolatli muhit zamirida yaratiladi. Adolat bor joyda haqiqat, haqiqat bor joyda o'zaro hurmat hukm suradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi o'zi tashkil qilayotgan o'quv-biluv jarayoni samaradorligi har bir o'quvchining betakror yaratilgan ekanligiga, uning ta'lim-tarbiyasi va oilaviy muhitiga, sinfdagi mavqei va ustoz munosabatiga, ruhiy kechinmalari va kayfiyatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lishini unutmazligi maqsadga muvofiqdir. Har bir pedagog o'z bilimi va mahorati bilan kichik o'quvchilar qalbidan chuqur joy o'lib bilishi, tarbiyalanuvchilarning muhabbati, hurmat-ehtiromiga sazovor bo'lishi, ularning eng yaqin kishilaridan biriga aylanishi, quvonch va tashvishiga sherik bo'lishi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l ko'rsata olishi zarur. Shunda ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

- o'quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish;
- o'quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish;
- o'quvchilar orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirish va hk.lar.

O'zaro hamkorlik va do'stona muhitni vujudga keltirish uchun o'quv-tarbiya jarayonining ochiq xarakter kasb etishi va o'zaro axborotlar almashinuvi uchun qulay bo'lishini ta'minlash muhimdir. Boshlang'ich sinflar o'qish darslari jarayonida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun o'quvchilarda ongli faoliyat ko'rsatish ko'nikmasini tarkib toptirish, ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish alohida ahamiyatga ega.

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'qituvchi o'quvchilarning o'zaro faoliyatini hamkorlikda tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning bor



imkoniyatlarini ularning o'zlari uchun maksimal darajada yuzaga chiqara bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni muallim o'quvchilarning jamiki imkoniyatidan oqilona va samarali foydalana bilishi zarur. Jumladan:

1) o'quvchilar o'zlarining yosh va intellektual imkoniyatlari darajasidagi muammolarni echishga maksimal darajada jalb etilishi, bu jarayonda ularda muayyan qiziqishlar hosil qila olishi;

2) mantiqiy mulohaza talab qilinadigan topshiriqlarni echish yo'llarini to'g'ri tashkil eta bilishi va natijalarni tekshirishning adolatli tutumini vujudga keltirishi;

3) qo'lga kiritilgan natijalar, aksariyat hollarda, og'zaki shaklda ifodalanishini unutmazligi lozim.

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilar faoliyatini, dunyoqarashini har tomonlama o'zgartirish tamoman yangi ilmiy-pedagogik asoslarga tayanishni taqozo etadi. Boshlang'ich sinflar o'qish darslari oldidagi maqsad va vazifalar, ularga erishish yo'lida qo'l keladigan texnologiyalarni amalga oshirish nafaqat ta'lim mazmunini o'zgartirishni talab qilmoqda, balki uning shakllari, metodlarini takomillashtirish, ayni zamonda o'qituvchi faoliyatini tubdan yangilashni taqozo etmoqda.

Boshlang'ich adabiy ta'limni kichik jamoalar hamkorligi shaklida tashkil etishda guruhlar sinfdagi o'quvchilarning umumiy sonidan kelib chiqib to'rt, olti yoki sakkiz a'zodan iborat etib tuziladi. O'qituvchi avval mavzudagi yetakchi qarashlarni muammo tarzida shakllantiradi. So'ngra muammoli savol yoki topshirqning har birini alohida-alohida vazifa holda o'quvchilar guruhiga mustaqil ishlashlari uchun taqdim etadi. O'quvchilar esa berilgan topshiriqni o'zaro kelishilgan holda bajaradilar. Topshiriq bajarish jarayonida guruhdagi har bir o'quvchi o'z fikrini guruhdoshlari bilan o'rtoqlashadi, muhokama, munozara va fikrlar to'qnashuvi asnosida masalaning echimi topiladi, umumiy xulosalar chiqariladi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarini tashkil etishdagi hamkorlikning muhim omili va o'quvchilarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan o'quvchi sherikligining shakllaridir. Mazkur o'quv faoliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'ektini, bilish faoliyatining barcha qismlarini qayta

qurishni taqozo etadi.

Pedagogika-psixologiya fanida hamkorlikdagi faoliyatning quyidagi bosqichlari alohida ajratib ko'rsatiladi:

- 1) faoliyatga kirishish;
- 2) o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradigan mustaqil harakatlar;
- 3) o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi faoliyati;
- 4) o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi;
- 5) taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi);
- 6) madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi);
- 7) o'z-o'zini boshqarish harakatlari (o'qituvchi faqat umumiy maqsadni ko'rsatishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
- 8) o'z-o'zini namoyish etuvchi va bilimlarni uyushtiruvchi harakatlar<sup>16</sup>.

Hamkorlik faoliyatining takomili kichik sub'yektlarda o'zaro ta'sir o'tkazish harakatini baholashdan o'z-o'zini baholash darajasiga ko'tarilishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omil vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich adabiy ta'limga xos bo'lgan hamkorlik pedagogikasi pedagogik jarayon ishtirokchilari – o'qituvchi va o'quvchilar, o'quvchilarning o'zaro insonparvarlik tamoyiliga asoslangan munosabatlardan iboratdir.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

Birinchi sinf o'quvchilari uchun chop etilgan "O'qish kitobi"da "Maymun va duradgor" nomli ertak taqdim etilgan<sup>17</sup>. Bu ertakning matni quyidagicha: *"Bir maymun duradgorning yog'och ustida o'tirib pona bilan uni yorayotganini ko'rib qoldi. Duradgor bir ponani qoqib ikkinchisini chiqarib olar edi. Uni boshqa erga qoqib yog'ochni yorib borar edi.*

---

16 Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: "ИКАР", 2009. – С. 134.

17 O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. /Muallif-tuzuvchilar: T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. — T.: «Sharq», 2017. – 60–61-betlar.

*Duradgor zarur ish bilan bir yoqqa ketdi. Buni ko'rgan maymun duradgorning ishini davom ettirmoqchi bo'ldi. U yog'ochning ustiga minib oldi. Maymunning dumi yog'ochning yorig'iga tushib turgan edi. U ponani sug'ura boshladi. Maymun ponani sug'urgan ham ediki, yog'och dumini qisib qoldi. Maymun hushidan ketdi”.*

Mazkur matn mazmuni yuzasidan darslikda o'quvchilarga: *“Duradgor nima ish qilayotgan edi? Maymun nima qildi? O'ziga aloqador bo'lmagan ishga aralashishning oqibati nima bilan tugaydi?”* tarzidagi uchta savol bilan murojaat qilingan.

Hurmatli talaba! Matnni bo'lajak o'qituvchi sifatida diqqat bilan qayta o'qing. “Ertak”ning tuzilishiga diqqat qiling. O'ylab ko'ringchi, birinchi sinf o'quvchisiga taqdim etilayotgan bu o'quv material, sizningcha, darslikka nima maqsadda kiritilgan bo'lishi mumkin? Undagi yetakchi fikr nima? Bu o'quv materialida o'quvchi ma'naviyatining sog'lomlashuviga hissa qo'shadigan nima bor? “Ertak” matni yuzasidan taqdim etilgan didaktik ashyolar o'quvchilarni nimaga yo'naltiradi? “Ertak” matni va didaktik ashyolarda qanday kamchiliklar mavjud? Matn “Xalq o'giti – baxt kaliti” rukniga nimasi bilan monand keladi? Darsliklardan o'rin olgan barcha o'quv materiallari boshlang'ich adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq keladi deb o'ylaysizmi? Shular haqida o'z qarashlaringizni belgilab olganingizdan so'ng sizga taqdim etilayotgan quyidagi ma'lumotlarga diqqat qiling.

Hamon shu o'quv material darslikdan o'rin olishi, unda yetakchilik qilayotgan: “hayotda har kim o'ziga buyurilganini qilgani ma'qul” degan qarashni tarbiyalanuvchilar ruhiyatiga singdirilishi nazarda tutilgan ekan, avvalo, uning mazmuni va ifodasini “ertak” deb atalmish janrga ma'lum darajada yaqinlashtirish, voqealar bayonini mantiqli bir tizimga solish o'rinli bo'ladi. To'g'ri, darsliklar hajmiga yuqori tashkilotlar tomonidan belgilab qo'yilgan mezon bor. Bu hajmdan chiqmaslik uchun o'quvchilarni badiiy asarlar haqidagi tasaavurlarini qashshoqlashtirmay, badiiy matnlarni “pati yulingan tovuq” shakliga solmay ularning sonini kamaytirib mazmunini tozalash, o'rganish uchun badiiy yuksak asarlarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalar kichik yoshidan badiiyati yuksak bitiklar bilan tanishib borsa, o'qib-o'rgansa saviyasi ham shunga moslashib, yuqorilab boradi. Jo'n, badiiy qashshoq asarlar bilan tanishsa, yana

ular ustida ishlash ham matnning mazmunini takrorlashdan iborat bo'lsa, tarbiyalanuvchilarning taraqqiyoti ham shunga yarasha bo'ladi.

Badiiy matnlarni, hatto xalq og'zaki ijodi namunalarini ham, istalgan joyidan, istalgan qisqartirish mumkin emas. Qisqartirishlarning ham o'z qonun-qoidalari, talablari bor. Mazkur matn qisqartirish va jo'nlashtirish asnosida o'z badiiyati hamda ta'sir qudratini yo'qotgan. Uni o'qituvchi hech bo'lmaganda:

*“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonlarda bir duradgor bo‘lgan ekan. U o‘rmonga borib daraxt kesib kelar, yog‘ochdan o‘yinchoqlar, har xil ro‘zg‘or buyumlari yasalar ekan. Bir kuni u o‘rmonda yog‘och ustida o‘tira bolib uni pona bilan yorayotganini maymun ko‘rib qolibdi. Duradgor bir ponani qoqib ikkinchisini chiqarib olar edi. Uni boshqa erga qoqib yog‘ochni yorib borar edi.*

*Duradgor qilayotgan ishini qoldirib zarurat yuzasidan nari ketibdi. Buni ko‘rgan maymun duradgorning ishini davom ettirmoqchi bo‘libdi. U darrov durodgorga o‘qshab yog‘ochning ustiga minib olibdi. Shunda maymunning dumi yog‘ochning yorig‘iga tushib qolibdi. Buni sezmay qolgan maymun ponani sug‘ura boshladi. Maymun ponani sug‘urishi bilan dumi yog‘ochning orasida qisilib qolibdi. Dumining og‘rig‘iga chidolmagan maymun hushidan ketibdi”,* tarzida o'zgartirishi, shundan so'nggina uni tarbiyalanuvchilarga taqdim etishi – o'qib berishi o'rinli bo'ladi.

Darslikda taqdim etilgan bor-yo'g'i uchtagina savolning ikkitasi bolalarni bevosita hozir eshitganlarini – matn mazmunini qaytarib aytib berishga yo'naltiradi. Bunday takrorlar o'quvchini o'ylamaslikka, asardagi muhimni farqlamaslikka, badiiy matndan zavqlanmaslikka o'rgatib qo'yadi. Bu boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan darsliklar mazmuniga juda yengil-yelpi, yuzaki, nopedagogik yondashilganligini, ta'lim-tarbiyaning bugungi maqsad va vazifalari mohiyatiga kirilmaganlikni ko'rsatadi. Boshlang'ich sinflar “O'qish kitobi” darsliklaridan o'rin olgan har qanday badiiy matnning mohiyatiga kirilmas, undagi yetakchi g'oyalarga tarbiyalanuvchilarning diqqati qaratilmas va muhokamaga tortilmas ekan, ko'rkam yaratilgan o'quvchiga hech qanday ijobiy ta'siri bo'lmaydi. Uni shunchaki o'qib qo'ya qolish yoki mazmunini qayta hikoyalash o'quvchi ma'naviy taraqqiyotida kutilgan samarani bermaydi.

Matnning yangilangan varianti ustida ishlash, uni tahlilga tortish o'quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar bilan murojaat qilish asnosida amalga oshiriladi:

1. Duradgorlik kasbi haqida nimalarni bilasiz? Sinfimizdagi qaysi jihozlar duradgorlik mahsuli deb o'ylaysiz?

2. Yog'ochdan yasalgan o'yinchoqlarni ko'rganmisiz? Ularning boshqa o'yinchoqlardan farqi va foydali tomonlari nimada ekani haqida o'ylab ko'ring.

3. Yog'ochni "pona bilan yorish"ni, sizningcha qanday tushunish mumkin? Darslikdagi suratga qarab javob berishga urinib ko'ring.

4. Pona nima ekanligi, uning vazifasi nimadan ibortligi haqida mulohaza yuriting. Bilganlaringizni bir-biringiz bilan o'rtoqlashing.

5. O'ylab ko'ringchi, duradgor nima uchun yog'ochning ustiga o'tirib olib pona qoqyapti? Duradgorning ishlashini o'z harakatlaringiz misolida ko'rsatib bering.

6. Duradgorning ish uslubini ko'rganda maymun nimalarni payqamay qoldi deb o'ylaysiz?

7. Maymunning yog'ochni yorishga kirishishi undagi qanday sifatdan dalolat beradi? U dangasami, tutumsoqmi, qiziquvchanmi, ziyrakmi yoki bee'tibormi? Bu, sizningcha, uning fazilatimi yoki illatimi?

8. Nima deb o'ylaysiz, maymun aqlimi yoki ahmoqmi? U aqli bo'lganda nima qilgan bo'lardi? Uning aqli zaifligini siz nimalarda ko'rdingiz?

9. Maymun ponani nima maqsadda sug'urib oldi deb o'ylaysiz? Sizningcha, u ponani sug'urib olishdan oldin nima qilishi kerak edi?

10. Maymunning holatiga achinyapsizmi, unga rahmingiz kelyaptimi yoki qilig'idan jahlingiz chiqyaptimi? Nima uchun?

11. Mazkur ertakning mazmuniga mos maqollar topishga urinib ko'ring.

O'quvchilar javob topa olmagan savol yoki bajara bilmagan topshiriqlar ularga uy vazifasi sifatida berilgani ma'qul. Ular uyda aka-opalari yoki ota-onalari ko'magida bu vazifalar haqida gaplashadilar, kitoblar qaraydilar, birgalashib bilim oladilar. Yoki bo'lmasa, mazkur asar mazmuni yuzasidan har xil vaziyatlar aks etgan suratlarni chizib kelish vazifasi ham o'ta samarali uy ishidir. Keyingi darsda albatta chizilgan suratlar o'quvchilar tomonidan

sharhlab, tahlillab berilishi shart.

Darsliklarda taqdim etilgan badiiy matnlar mazmuni ustida shunday ishlanganda bolalarning bilimi, dunyoqarashi va saviyasi ko'tarilib boradi. Ular badiiy asrdagi muhim va nomuhimni farqlab boradilar. Badiiy va hayotiy haqiqatlarni o'qituvchisining savol-topshiriqlari ko'magida o'zlari anglaydilar, o'zlashtiradilar.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ta'lim tizimiga xos bo'lgan "pedagogik texnologiya" atamasi va "yangi pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib bering. Har ikkalasiga xos bo'lgan yetakchi jihatlarni ajratib ko'rsating. Bilganlaringizni misollar asosida tushuntirib bering.

2. "*Sinergetika*" atamasiga berilgan ta'rifni qayta o'qing. Uning mohiyatiga kiring. Tushunganlaringizni o'z so'zlaringiz bilan ifodalab bering.

3. Hamkorlikda o'qitish masalasining pedagogika ilmi va amaliyotida shu kunga qadar chuqur o'rganilmaganligi sabablarini alohida-alohida tahlilga torting. Har birining mohiyatiga kiring. Bu sabablarning oqibatlarini haqida birgalikda mulohaza yuriting.

4. "*Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim*"ni qanday tushundingiz? Bu boradagi qarashlaringizni asoslashga urinib ko'ring.

5. Ta'lim amaliyotiga xos bo'lgan sub'yekt va ob'ekt, "sub'yekt-ob'ekt munosabatlari" va "sub'yekt-sub'et munosabatlari" tushunchalari haqida o'ylab ko'ring. Sizingcha, "sub'yekt" kimu "ob'ekt" kim? O'ylab ko'ringchi, "sub'yekt-sub'et munosabatlari"da ob'ekt kim yoki nima bo'ladi? Fikringizni asoslang.

6. Hamkorlik pedagogikasining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanini aniqlang. Ularni o'z tushunchangiz doirasida sharhlang. Bugungi milliy tarbiyashunoslik, xususan, boshlang'ich adabiy ta'lim uchun bu texnologiyaning nega va qanchalar zarurligi borasida mulohaza yuriting.

7. Hamkorlik pedagogikasining amerikaliklar yaratgan varianti bilan isroilliklar va evropaliklar yaratgan turiga xos bo'lgan yetakchi xususiyatlarni aniqlang. Milliy tarbiyashunoslik amaliyotiga ularning qay biri mos keladi, sizningcha? Fikringizni asoslang.

8. "*Pedagogik hamkorlikning yuzaga kelishi uchun o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning o'zaro aloqador sub'yektlari*

*darajasiga ko'tarilishlari kerak*" degan fikrni qanday tushundingiz? Vaziyatga o'qituvchining darsdagi hokimligi va o'quvchining ustozini aytganlarini so'zsiz bajarishi lozim bo'lgan ob'ektligi nazaridan qarang. Kimni, qaysi darajaga va qanday qilib ko'tarish kerak deb o'ylaysiz?

9. "*O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish uchun amalga oshiriladigan: o'quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish; o'quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish; o'quvchilar orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirish*" kabilarni qanday tushundingiz? Ularning har biriga o'zingizning alohida munosabatingizni bildiring va amalda qanday tashkil etish borasida fikrlashing.

10. Pedagogik hamkorlik va hamjihatlikning o'ziga xos xususiyatlarini qayta o'qing. Ularning har biriga o'z tushunchangiz doirasida izoh bering.

11. Bo'lajak o'qituvchi sifatida 1-sinf "O'qish kitobi" darsligidan o'rin olgan didaktik ashyolarni – ertak matni yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlarni taqqoslang. Yutuq va kamchiliklarni muhokamaga torting.

## **5-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchi ma'naviyatini kamol toptirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni**

### **Reja:**

1. Milliy pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayoni
2. Muammoli ta'limda bilim berishga yo'naltirish masalalari
3. Muammoli ta'limda o'qituvchining asosiy vazifalari
4. Ta'lim jarayonini muammoli tashkil etish imkoniytlari.
5. Badiiy matn tahlili namunasi: Adabiy qahramon – tarbiyachi

**Tayanch so'zlar:** *muammoli ta'lim, mantiqiy usullar, ijodiy faoliyat, maxsus yo'llar, bilimlarni ijodiy o'zlashtirish, hayotiy vaziyatga ko'ra mavjud bilimlardan ijodiy foydalanish ko'nikmasini tarbiyalash, ijodiy faoliyat.*

O'quv jarayonida o'quvchilarni o'qituvchi aytganlarini bajaradigan ishtirokchilikdan ta'lim-tarbiya kechimining ijrochilari

darajasiga ko'tarish maqsadida o'zlashtiriladigan bilimlarni bolalar oldiga muammo shaklida qo'yish masalasi jahon pedagogikasida o'tgan asrning oltmishinchi, sho'rolar pedagogikasida etmishinchi yillarda ko'tarilgan. Ta'limning bu yo'nalishi bilan dunyo pedagogikasida V. Okon, M. Maxmutov, V. Kudryavsev, V. Maransman, N. Mochalova, A. Matyushkin, I. Initskaya, o'zbek tarbiyashunosligida A. Abdurazzoqov, Q. Husanboevalar alohida shug'ullanganlar va o'quvchini intellektual faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj muammoli vaziyatlarda paydo bo'lishini, bu ehtiyoj uning oldiga qo'yilgan murakkab masala mohiyatini bilishga bo'lgan qiziqishdan tug'ilishini asoslaganlar. Olimlar o'quvchi muammoli vaziyatda butun qobiliyati, bor imkoniyati va hayotiy tajribasini to'liq safarbar etgan holda faoliyat yuritishini ilmiy-amaliy jihatidan isbotlab berganlar. Ularning ko'pchiligi amalga oshirgan tadqiqotlarda o'quvchi faolligini oshirish orqali bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini ko'tarish maqsadi yetakchilik qilgan. Q. Husanboevaning tadqiqotlarida esa adabiyot o'qitish jarayonida muammoli ta'limdan o'quvchida shaxslik sifatlarini shakllantirish, ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida foydalanish, bu yo'lda mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatish masalalari yetakchilik qilgan.

Ma'lumki, har qanday inson o'z oldida ko'ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o'ylanadi, izlanadi, bilganlarini taftish qiladi, zo'riqadi, mashaqqat chekadi. Bu ruhan sog'lom odamga xos bo'lgan tabiiy xususiyat. Ta'lim jarayonida shunday vaziyatga solingan o'quvchi ham ta'limiy muammoni hal qilish orqali bilim olish yo'lida shunday hislarni kechiradi.

Milliy pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayoniga bugun butunlay yangicha talablar asosida yondashilmoqda. Zamonaviy tarbiyashunoslikda ta'lim-tarbiyaning oldiga o'quvchini zarur bilimlar yig'indisi bilan ta'minlash doirasidan chiqib, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish, unda bilishga ichki ehtiyoj paydo qilish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish kabi sifat jihatidan yangi talablar qo'yilyapti. Maktabdan o'quvchi o'z ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun mustaqil ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish, bilim olish yo'lida bor imkoniyatlarini qo'llagan holda ijodkorlik ko'nikmalarini qaror toptirish talab qilinyapti. Ta'limga bunday yondashuv, o'z navbatida, o'quvchini



taqlidchilik, ko'chirmachilik, tayyor andozalar, belgilangan qoliplar asosida faoliyat yuritishdan qutqaradi.

Shu ma'noda muammoli ta'lim mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish, bu yo'lda uchragan to'siqlarni mustaqil ravishda, unga ijodiy yondashgan holda bartaraf etish garovidir. Bu ta'lim o'quv materialini o'zlashtirilganligini tezgina namoyish etadi, mustahkamlaydi, bilimlarni qat'iylashtiradi. O'quvchida o'qishga ijobiy hissiy munosabat uyg'otadi, bilim olishga ehtiyoj paydo qiladi. Ta'lim amaliyotida muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanilganda tarbiyashunoslikning bosh maqsadi – o'quvchida shaxslik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga erishish osonlashadi.

Muammoli ta'limga o'qitish jarayonidagi barcha kamchiliklarni bartaraf etadigan universal vosita deb qarash ham unchalik to'g'ri emas, albatta. Muammoli ta'lim hamisha ham yuqori darajada samara beraveradigan hodisa emas. O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar, ayrim hollarda kamroq kuch va vaqt sarflangani holda, an'anaviy metodlar orqali ham maksimal darajada hal etilishi mumkin. Bunda hamma narsani o'zlashtiriladigan materialning tabiati, o'qituvchining bilimdonligi va mahorati hal qiladi. O'qituvchining rahbarlik roli muammoli ta'limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quv materialiga o'quvchilarning umumiy va individual taraqqiyoti, egallagan bilim, ko'nikma, malakalari darajasi, qo'yilgan muammoning umumiy maqsadga qanchalik mosligidan kelib chiqib ish tutadi.

Muammoli ta'limda o'quvchi oldiga bilim berishga yo'naltiriladigan masalalarni qo'yish ham, uning ma'naviyatini shakllantirish yo'lidagi muammoli savol yoki topshiriqlar ham muhim o'rin egallaydi. Ular muammoli vaziyat hosil qilishning asosiy sharti sanaladi. Bilim berish yoki ma'naviyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan muammoli savol yoki topshiriqlar o'quvchi uchun ma'lum qiyinchilik tug'diradigan darajada bo'lishi, avval egallagan bilimlariga mos kelishi, shu bilan birga, uning imkoniyatlari doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Ya'ni muammoli vaziyatlar bolaning hayotiy tajribasi va nazariy bilimini hisobga olgan holda yaratilishi kerak.

Muammoning qo'yilishi va uni echish jarayoni uzilmas bir

zanjirdir. Muammo ko‘tarilishi bilanoq uning echimi ustida o‘ylanadi va bu, o‘z navbatida, yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu tariqa, uzluksiz tarzda yangi bilimlarni o‘zlashtirish amalga oshadi. Ta’lim amaliyotida o‘qituvchining sinfga olib kiradigan ma’lumotlari o‘quvchilar tayyor bilim sifatida qabul qiladigan yoki o‘zlari mehnat qilib o‘zlashtiradigan shaklda bo‘ladi. Ta’limning dastlabki bosqichlarida, ya’ni boshlang‘ich sinflarda birinchisi ko‘proq qo‘llanilishi tabiiy. Lekin o‘qitish kechimidagi bilimlarni mehnat qilib o‘zlashtirish shakli ham o‘rni bilan qo‘llanilishi va uni tashkil etishda quyidagi me’yorlarga amal qilinishi masadga muvofiqdir:

a) o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilimlar ularning imkoniyatlariga mos murakkablikda bo‘lishi;

b) berilajak materialning echimi dasturda belgilangan vaqt oralig‘ida amalga oshirilishi;

v) ijodiy yo‘l bilan o‘zlashtirilgan bilimlar mustahkamligi va darajasi reproduktiv yo‘l bilan olinadigan bilimlardan baland bo‘lishi.

Muammoli ta’lim muammoni hal etish jarayonini butun sinf jamoasining faol aqliy ishiga aylantiradi. Bu sinfdagi har bir bola shaxsining individual xususiyatlarini maksimal darajada inobatga olinishini taqozo etadi. Faqat shundagina sinfdagi jamoaning barcha a’zosi butun o‘quv jarayoni davomida tom ma’nodagi ijod kishisiga, fikr odamiga aylana boradi.

Muammoli ta’limda o‘quvchilar qiyinchiliklarga duch kelishlari, tabiiy. Muammoli vaziyatda qiyinchilik o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan noma’lum narsaning yangiligi va umumlashtirilishi zarurligi hamda o‘quvchi intellektual imkoniyatlari darajasi bilan xarakterlanadi. O‘quvchining intellektual imkoniyati qancha kichik bo‘lsa, biror masalani hal qilishda muammoli vaziyatning murakkabligi shuncha katta bo‘ladi.

O‘qituvchi dars boshida muammoni qo‘yish bilan birga butun dars davomida uning muammolilik darajasini uzluksiz tarzda saqlab tura olsagina, biror mavzuni muammoli tarzda o‘rganish mumkin bo‘ladi. Shundagina o‘quvchining bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi to‘liq ta’minlanadi. Aslida muammoli o‘qitish kechimi uchun masalaning echimi maqsad emas, balki o‘quv materialini ongli ravishda o‘zlashtirish va o‘quvchi qobiliyatlarini o‘stirish yo‘lidagi vositadir.

Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchilar bilan individual ishlaydi. Bu undan kasbiy mahoratni talab qiladi. Gap shundaki, u yoki bu o'quv topshirig'i bir bola uchun qiyin, ikkinchisi uchun oson. O'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun har bir o'quvchi dars jarayonida o'zining kuchi darajasidagi masalani hal qilish bilan shug'ullanishiga erishish lozim. Shundagina har bir o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish mumkin. Buning uchun o'qituvchilarning oldida hamisha qiyin didaktik masala ko'ndalang turadi. U dars mavzusida nafaqat o'quv-biluv muammosini echishi, balki qanday yo'llar bilan bu mavzu mazkur sinfdagi o'quvchilarning barchasi tomonidan o'zlashtirilishi mumkinligini oldindan ko'ra olishi kerak.

Muammoli ta'limda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda intellektual zo'riqishga ehtiyoj va qiziqish uyg'otishdir. Buning uchun avval qiyinchiliklar chamalanadi. O'quvchiga hamma muammoli masalalar ham qiziq bo'lavermaydi. Tarbiyalanuvchini masalaning shunchaki echimi emas, balki undan intellektual zo'riqish, zehn, onglilik talab qiladigan masalani hal etish jarayoni qiziqtiradi. Qiyinchiliklarni chamalaganda, o'qituvchi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini ham hisobga olishi shart. Ayrim o'quvchilar uchun masala qancha qiyin bo'lsa shuncha qiziqarli bo'ladi. Boshqalarning esa "tarvuzi qo'ltig'idan tushadi". Shuning uchun masalaning ob'ektiv qiyinligidan tashqari, echuvchining sub'yektiv imkoniyatlari ham hisobga olinishi zarur. Gap faqat o'quvchilarning har xil tayyorgarlik darajasi haqida emas, ular aqliy faoliyatining individual xususiyatlari haqida ketyapti. Sekin-sekin o'quvchi mustaqil ravishda muammoni o'zi shakllantira olishiga erishish muammoli ta'limning maqsadlaridan biridir. Bu o'quvchining shunday ishlarni bajarishga bo'lgan ehtiyoji darajasi bilan asoslanadi.

Ta'lim jarayonini muammoli tashkil etish o'qitishni tarbiyaviy, ta'limiy, qiziqtiruvchi, rivojlantiruvchi imkoniyatlar bilan ta'minlaydi. Muammoli ta'limning uchta maxsus vazifasi mavjud:

1. Mantiqiy usullar yoki ijodiy faoliyatning maxsus yo'llaridan foydalanib o'quvchilarda bilimlarni ijodiy o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish.

2. Hayotiy vaziyatga ko'ra mavjud bilimlardan ijodiy foydalanish ko'nikmasini tarbiyalash.

### 3. Ijodiy faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bundan tashqari, muammoli ta'limning quyidagi vazifalari ham mavjudki, bu jarayonni tashkil etishda ularni ham nazardan qochirmaslik maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilarning bilim olish faoliyatini mustaqil va ijodiy yo'nalishga chiqarish.

2. O'quvchining yangi bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirishini ta'minlash.

3. Ta'limning ilmiyligi darajasini oshirish.

4. O'quvchida ilmiy dunyoqarash shakllanishini ta'minlash.

5. Shakllanib kelayotgan shaxsda hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish, uning ko'nglidagi odam va olam sirlarini bilishga bo'lgan ichki ehtiyojini qondirish.

Yuqoridagi vazifalarning har biri alohida o'quvchining amaliy va nazariy-intellektual faoliyatida namoyon bo'ladi hamda ular muammoli ta'limning quyidagi xususiyatlari bilan bog'liq:

1) o'quvchining yangi tushunchalarni muammo yo'li bilan mustaqil o'zlashtirishdagi xususiy faoliyati bo'lib, u bilimlarning ongli, chuqur va mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

2) muammoli ta'lim shaxs dunyoqarashi shakllanishida eng samarali usullardan biri sanaladi. Chunki muammoli ta'lim jarayonida to'plangan bilimlar mustaqil, tanqidiy, ijodiy tafakkur ko'magida amaliy faoliyatda qo'llanib, qat'iy ishonchga aylanadi;

3) o'quv va amaliy muammolar o'rtasidagi qonuniy aloqadorlik yuzaga keladi. Hayot bilan aloqadorlik o'zlashtirilgan bilimlarni har xil amaliy faoliyatda qo'llanilishiga xizmat qiladi;

4) o'quvchilarning har xil mustaqil ishlarini tizimli ravishda va samarali qo'llash imkoniyati yaratiladi;

5) muammoli ta'limning individualligi o'quv fanini o'zlashtirish uchun o'quvchida bilim, ko'nikma va malakalarning ma'lum darajasi oldindan mavjud bo'lishini taqozo etadi. Muammoning har xil shaklda bo'lishi farazlar xilma-xilligini tizimga soladi va natijalarga har xil yo'llar bilan erishilishini ta'minlaydi;

6) muammoli ta'limning navbatdagi xususiyati uning jo'shqinligidir. Bu jo'shqinlik muammo har bir bolaga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqadi;

7) muammoli ta'lim o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligiga

asoslanadi. Chunki muammoli vaziyatning o‘zi aqliy zo‘riqishning asosiy manbai hisoblanadi. O‘quvchining fikrlashi uzluksiz tarzda, uning ruhiy-hissiy faoliyati bilan tabiiy aloqada bo‘ladi. Tadqiqot shaklida bo‘lgan har qanday fikrlash o‘quv muammosining individual qabul qilinishini, shaxsiy tuyg‘ularni, emotsional faollikni oshiradi;

8) muammoli ta‘lim bilimlarni sermahsul va ijodiy o‘zlashtirishni ta‘minlaydi, o‘quvchi ijodiy faoliyatini kuchaytiradi. Tarbiyalanuvchida o‘ziga ishonchi hissini orttiradi<sup>18</sup>.

Ko‘pincha ilmiy adabiyotlarda muammo bilan murakkab savollar aralashtirib yuboriladi. Bir qator olimlar muammoni har qanday savoldan ajratib turadigan belgi hal etilishi kerak bo‘lgan masalaning muhimligi yoki qiyinligida, deb biladilar. Ammo muhimlik ham, qiyinlik ham muammoning asosiy xususiyati emas. Chunki o‘ta muhim va murakkab savollar ham muammo darajasiga ko‘tarila olmasligi mumkin. “Savol” so‘zining xususiyatlari va ahamiyati lug‘atlarda: *«javob talab qiladigan murojaat; o‘rganiladigan, muhokama qilinadigan predmet, echimini talab qiladigan masala»*<sup>19</sup> deb ko‘rsatilgan. Savolda ifodalangan bilmaslik ilmiy izlanish natijasida ma‘lumga, o‘rganilgan narsaga aylansa, bunday savol muammo bo‘lolmaydi. Savolda, odatda, javob uchun zarur bo‘lgan deyarli barcha ma‘lumotlar mavjud bo‘ladi. Savol uni so‘rayotgan odam javobini biladigan, soddaroq fikrlashni talab qiladigan, butun vaziyatning etishmayotgan qismlarini to‘ldirishdan iborat bo‘lgan hodisa. Buni o‘quvchi savolni tushunib, unga javob berish uchun kerak bo‘ladigan faktlar orasida shunday aloqa o‘rnatadi, deb tushunish mumkin. Ba‘zan savolga javob berish uchun qandaydir bir faktni eslashning o‘zi kifoya. O‘quvchi yo‘naltirilgan fikrlash usullari, odatda, avvallari foydalanilgan bo‘ladi va u shu andaza bo‘yicha harakat qiladi.

Agar savol yangi qonuniyatlarni kashf etish imkoniyatlari haqidagi tahminlar bilan uyg‘unlashtirilsa, muammoga aylanishi mumkin. Muammo bir necha echimga egaligi bilan savoldan farqlanadi. Echimlarning har biri salmoqli asosga ega bo‘ladi. Ko‘p muammolarni qisqalik maqsadidan kelib chiqib savol yoki topshiriq tariqasida qo‘yish ham mumkin.

---

18 Махмутов М. Теория и практика проблемного обучения. – Казан: ТКИ, 1972. С. 191.

19 [www.ziyo.comkutubxonasi](http://www.ziyo.comkutubxonasi). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – S.pdf (SECURED) 407-бет.

Polyak pedagogi V. Okon muammoli ta'limga xos vaziyatni muammoni biror masala yuzasidan tashkil qilish, uni shakllantirish bilan birga hal etish jarayonida o'quvchilarga zarur ko'mak berish, bu jarayonning izchilligini ta'minlash va boshqarish, olingan natijalarni tekshirish hamda bilimlarni mustahkamlash kabi faoliyatlar yig'indisi sifatida baholaydi<sup>20</sup>. I. A. Initskaya mazkur ta'limni o'quvchining maktab ta'lim-tarbiya maqsadlariga mos muammolarni o'qituvchi rahbarligida o'zi uchun yangi bo'lgan ilmiy-amaliy bir tizimda hal etishda ishtirok qilishidan iborat faoliyati, deb qaraydi<sup>21</sup>. V. T. Kudryavsev muammoli ta'limning mohiyatini o'quvchining oldiga didaktik muammo qo'yish, o'quvchilar ularni echish asnosida bilimlarini umumlashtirishi va muammoli masalalarni hal qilish tamoyillarini o'zlashtirishida, deb hisoblaydi<sup>22</sup>. A. M. Matyushkinning fikricha, esa muammoli ta'lim – o'qitishning bilimlarni qiziqarli yo'llar bilan berishga tayanadigan turidir<sup>23</sup>.

Muammoli ta'lim masalasi bilan maxsus shug'ullangan rus pedagogi M. Maxmutovning fikricha, muammoli ta'lim bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va faoliyatning maxsus qonuniyatlariga asoslangan, ilmiy izlanishning asosiy jihatlarini o'zida jamlagan, o'qitish hamda o'qish metodlari, usullarini uyg'unlikda qamrab olgan didaktik tizimni o'zida aks ettiradi. U bilimlar asosini chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydi, o'quvchining bilim olishdagi mustaqilligini, ijodiy qobiliyatini oshiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, kengaytiradi<sup>24</sup>.

Olimlarning fikriga qo'shimcha qilib yana shuni aytish mumkinki, muammoli ta'lim o'quvchilarda shaxslik sifatlarining shakllanishiga, ma'naviyatining boyishiga ham sharoit yaratadi. U bilimlarni, yangi tushunchalarni o'qituvchi rahbarligida, o'quvchilarning o'zlari tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini ta'minlash va faollashtirishga xizmat qiladi.

---

20 Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва: «Просвещение», 1968.

21 Ильницкая И. А. Проблемные ситуации и пути их создания на уроке. – Москва: «Знание», 1985.

22 Кудрявцев В.Т. Внедрение принципа проблемности в обучении. – Москва: «Высшая школа», 1968.

23 Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – Москва: «Педагогика», 1972.

24 Махмутов М. Теория и практика проблемного обучения. – Казан: ТКИ, 1972.

Muammoning, muammoli vaziyatning vujudga kelganini o'quvchi hodisa bilan u haqdagi tasavvur orasida qarama-qarshilik paydo bo'lganda his qiladi. Bu qarama-qarshilikni bartaraf qilish uchun unga avval o'zlashtirgan bilimlari va tajribasining o'zi kamlik qiladi. Muammoni anglab etishning o'zi har qanday fikrlash jarayonining boshlanishidir.

Muammoda esa uning echim uchun tayyor javob yoki ma'lumot yo'q. Eng avvalo, muammoni hal eta oladigan darajada tiniqlashtirish uchun fikrlash jarayoni yordamida unga mos keladigan ma'lumotlarni topish talab qilinadi. Muammoni echmoqchi bo'lgan odam, avval unda nimalar etishmayotganini aniqlashi va o'sha faktlarni qanday topishni belgilab olishi kerak bo'ladi. Shunday ekan, muammoda echim to'liq shakllantirilmaydi. O'qituvchining vazifasi ma'lum muammoli vaziyatni tashkil etish ekan, buning uchun u, avvalo, o'quvchiga muammo nimadan iborat ekanini to'g'ri anglatishi, unda shu masalani hal etishga xohish-qiziqish paydo qilishi, ichki ehtiyoj uyg'otishi zarur hisoblanadi.

Muammoli ta'limdagi keyingi masala bevosita muammoning echilishidan iboratdir. Bu jarayonni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Muammoning tahlili va asoslovini ilgari surish. Muammo ma'lum qiyinchiliklar bor joyda paydo bo'ladi va uning echimi uchun o'quvchida mavjud bo'lgan bilimlarning o'zi etarli bo'lmay qoladi.

2. Masalaning yechimini qidirish va uni hal etish. Muammoni tekshirishda uning yangi aloqalari va ilgari ma'lum bo'lmagan sifatlari aniqlanadi. Shu tariqa asta-sekinlik bilan ob'ektga doir yangi bilim to'planadi. Har safar uning yangi jihatlari va xususiyatlari ochila boradi. Bu bosqichni masalani hal etish yuzasidan farazlarning shakllanish bosqichi deb atash mumkin. Unda urinishlar va xatolar, avvalgi tajribalarga tayanish, yechimning taxminiy yo'llarini belgilash, echish tamoyillarining isboti va fikrlarni asoslash ishlari amalga oshiriladi.

3. Ychish yo'llarining to'g'riligini tekshirish va olingan natijani baholash<sup>25</sup>.

Har bir bosqich ma'lum umumiy jihatlar, o'quvchining

---

25 Скалкова Я. От теории к практике обучения в средней общеобразовательной школе. – Москва: «Педагогика», 1983. – С. 49 – 50.

muammoni echish yo'llarini qidirishi va topishidan iborat faoliyati bilan xarakterlanadi. O'quvchi xato qilishdan cho'chimay, o'z izlanishlari asosida masalani hal etishning rejasini tuzadi. Bu jarayonda muqobil yo'llarni ham ko'zda tutadi. Masalani anglash bilan uning yechimigacha bo'lgan yo'l qiyin va uzoq bo'lishi ham mumkin. Masalaning hal etilishida o'quvchi uchun eng muhim jihat uning yechimi haqida o'z tasavvuriga ega bo'lishdir. Bu tasavvurga asta-sekinlik bilan samarasiz urinishlardan keyin, kutilmaganda erishish ham mumkin.

Muammoli ta'limdan adabiyot o'qitishning har bosqichida o'quvchilarning yoshi va intellektual imkoniyatlariga tayangan holda, tanlangan mavzuga mos tarzda foydalanish mumkin. Adabiyotning inson shaxsi shakllanishiga ta'siri bebaho ekanini alohida ta'kidlash shart emas. Gap shundaki, badiiy asarlarning mazmuni bevosita inson hayotining mohiyati bo'lmish o'zaro ijtimoiy munosabatlar, faoliyatning yutuq va mag'lubiyatlari, parvoz va qulashlari bilan bog'liq. Har bir tarbiyalanuvchi hayotdan o'z o'rnini izlar ekan, adabiyot darslaridan o'ziga kerakli ma'naviy saboqni oladi. Adabiyot darslarida, xususan, boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitishda muammoli ta'limdan foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u yangilangan pedagogik tafakkur sharoitida sog'lom ma'naviyatli odam tarbiyalashga yo'naltirilgan. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida qo'yilgan muammoni hal etish asnosida badiiy asarlar tahlil qilinadi, adabiy qahramonlarning shaxsi, xatti-harakatlari muhokamaga tortilar, o'quvchi odam va olam sirlarini o'rganar, asar muallifi hamda adabiy qahramonlar timsolida insonni kashf etar ekan, bu bilan bola o'zligini anglashga yuz tutadi. Allohning go'zal va betakror yaratig'i bo'lmish o'z shaxsini, siyratini o'rgana boradi.

Sog'lom ma'naviyatga ega shaxsni tarbiyalashda asosiy yuk maktab adabiy ta'limi zimmasiga tushadi. To'g'ri, ma'naviyatni shakllantirish vazifasi maktabdagi barcha o'quv fanlari zimmasida ham u yoki bu darajada mavjud. Lekin adabiy ta'lim, ayniqsa boshlang'ich sinflarda, bu borada karvonboshilik qiladi. Chunki uning asosiy diqqati inson va uning ruhiyatini aks ettirishga qaratilgan.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida odamga xos tuyg'u, kechinma, quvonch va iztiroblar adabiy qahramonlar timsoli misolida o'rganilib, tahlil qilinadi. O'quvchilar asar qahramonlari bilan birga



xursand bo'lishadi, yig'lashadi, iztirob chekishadi, xulosalar chiqarishadi. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchining butun e'tibori asar qahramonlari timsolida insonni o'rganishga qaratiladi. Bugungi adabiyot o'qitish kyechimida, u ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar o'quvchida shaxslik sifatlarini tarbiyalashga, uyg'oq ruhiyat kishisini shakllantirishga, shu bilan birga, san'at asarlarining har qanday turini tushunish, uni tahlil qila bilish hamda o'zlashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Adabiyot darslarida, birinchi navbatda, adabiy asarlarning o'quvchi shaxsiga qanday ta'sir etishiga e'tibor qaratiladi. Asar ustida ishlagan o'quvchi undan o'z oldida turgan ijtimoiy, axloqiy, estetik savollarga javob topishi kerak.

Boshlang'ich sinflardagi o'qish darslarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'rganiladigan asar matni bilan tanishishning istisnosiz tarzda majburiy ekanligidadir. Muammoli vaziyatlarni yaratishdan oldin o'quv materiali bilan bevosita tanishish, ayrimlari parcha holida bo'lsa-da, muammoning yechimini topishda, ayni zamonda inson ma'naviyati shakllanishida favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarni birinchi marta o'qish yoki mohir mutaxassis ijrosida tinglash o'quvchi aqligagina emas, balki ruhiyatiga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qish darslarida asar bilan ilk uchrashuv o'quvchida unutilmas taassurotlar qoldiradi. Uning o'quvchi shuuriga nechog'lik chuqur o'rnashib qolishini ham hal qiladi. Ayni zamonda, tarbiyalanuvchining kitobxonlik biografiyasida, uning axloqiy-ma'naviy rivojlanishida alohida hodisaga aylanadi. O'qish darslarida o'qituvchining mutolaasida hamisha poeziyaning nafasi va badiiy so'zning jozibasini sezilib turishi kerak. O'qituvchining o'zi tabiatan shu xususiyatlarga moyil bo'lishi, muallifning o'rganilayotgan asarda aks etgan fikri va undagi timsollar bilan shaxsan qiziqishi maqsadga muvofiqdir. Badiiy asarda ko'tarilgan muammolar, ularning o'quvchilar tomonidan anglanishi va yechimini topishi ham o'qituvchining diqqat markazida turmog'i lozim. Tasvirdagi o'ziga xoslik, avvalo, uni bezovta qilgan bo'lishi, badiiy go'zalliklar haqida gapirganda ko'nglidagi dard, muhabbat yoki nafrat, iztirob yoki xursandchilik samimiyligi bilan o'quvchilarni ishontirishi, ularda fikr uyg'otadigan, ko'zqarashlar shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida muammoli o'qitish

texnologiyasidan foydalanilganda uning o'quvchi ma'naviy kamoloti yo'lidagi samaradorligini ta'minlash uchun bolalarning faolligi, individual rivojlanish darajasi va yosh xususiyatlarini inobatga olish zarur. Muammoli darsda o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi ularning shaxsi, qobiliyati, imkoniyati, qiziqishlari, aqliy va ruhiy faollik darajasini puxta bilishi taqozo etiladi. O'quvchilar ta'limning har bosqichida asar matnidan yaratilgan muammolar yechimi ustida o'ziga xos tarzda ishlashga o'rgatilsa, timsollar badiiyati, so'zning qudrati chuqurroq his etiladi. Muammoning yechimini topish jarayonida o'quvchi qahramonning ichki dunyosi, shaxsi va xarakteri uning xatti-harakatlari, fikrlari, nutqida namoyon bo'lishini o'rgana boradi. Shunday belgilarga qarab odamni baholashga odatlanadi. Odamning odamlilik darajasi uning so'zidan ko'ra tutumlarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Badiiy matndagi o'zgalarning xatti-harakatlarini tahlil qilish asnosida o'quvchi o'zligini anglab, shakllantirib boradi. Badiiy asarlar tahlilidagi bunday faoliyat boshlang'ich adabiy ta'limda belgilangan maqsadni amalga oshirish yo'lida asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiy ta'limning har bosqichida badiiy san'at namunalaridan zavq olish uchun badiiy bilimdonlik zarur, albatta. Lekin, bu bilimdonlikning o'zi maqsad emas. Badiiy bilim so'z san'atidan zavq olish bilan axloqiy barkamollik, o'z-o'zini tarbiyalash, ma'naviy kamolotni ta'minlash maqsadiga erishish yo'lidir. Bu yo'lda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish milliy adabiy ta'lim metodikasi ilmida ham o'z nazariy asoslarini topishga intilmoqda. Muammoli adabiy ta'lim yaratilgan konsepsiya va standart, dastur va darsliklar yordamida ta'lim-tarbiya amaliyotiga asta-sekinlik bilan kirib bormoqda.

Lekin boshlang'ich sinflar amaliyotida ko'pchilik o'qituvchilar, hatto "O'qish kitobi" darsliklari ham ochiq nasihatgo'ylikni ustuvor qo'yib kelmoqda. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limining chinakam maqsadi o'quvchiga go'zallikni his ettirish, uni badiiy asardan, so'zdan zavq ola bilishga yo'naltirish orqali ma'naviyatini sog'lomlashtirishdan, uni ijobiy sifatlar bilan to'yintirish, toza qalb egasi qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bunday sifatga ega odam faqat yaxshilikka, tashabbusga, yaratishga moyil bo'ladi. "O'qish kitobi" darsliklari mazmuniga ham shu maqsadga xizmat qiladigan badiiy

yuksak asarlarni kiritish ustuvorlik kasb etishi lozim. Nasihatlar asosida o'quvchilarga singdirilishi istalgan sifatlar badiiy asar qatiga berkitilgan bo'lishi, o'quvchi bu haqiqatlarni o'zi izlanib, muammolarni echib o'zi o'zlashtirgani yoqimliroq bo'ladi. Yoqimli narsa, albatta yuqumli bo'ladi.

Badiiy so'z san'atini puxta o'zlashtirish, undan to'liq va chinakam zavq ola bilish uchun o'rni bilan muammoli ta'limdan foydalanish insonga tabiatan berilgan ruhiy hisni, o'qilgan asarlar tahlili asnosida, intellektual rivojlanish jarayonida etilgan tuyg'uni badiiy did darajasiga ko'taradi. Ma'lumki, to'liq anglash bo'lmagan joyda zavqlanish ham bo'lmaydi. San'at asarini tushunish oddiygina muloqot ehtiyojidan boshlanadi. Bu o'zгани tushunish istagi, uning dunyosini ochish bilan o'z dunyosini boyitish ehtiyoji hisoblanadi. Badiiy so'z san'atida bu muloqot ehtiyoji g'oyat kuchli. San'at asari nafaqat uni yaratuvchi insondan, balki iste'molchidan ham to'liq ruhiy berilishni talab qiladi. Bularning amalga oshirilishida muammoli ta'limga tayanish boshlang'ich sinflar o'qish darslari samaradorligi garovi hamdir.

Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitishning vazifalaridan biri asar ustida ishlash mobaynida, uni o'zlashtirish va his etishda o'quvchida bilim hamda hissiyot birligini ta'minlashdan iborat. Badiiy asarlarni o'rganish samaradorligi o'quvchi tuyg'ularining samimiyligiga bevosita bog'liq. Asar ustida muammoli ishlash yuqoridagilarni ta'minlash bilan bir vaqtning o'zida o'quvchini badiiy va hayotiy tushunchalari rivojini ham ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini muammoli tashkil etish, adabiy asarlar ustida ishlash o'qituvchidan yuksak adabiy va pedagogik bilimdonlik, ijodiy mustaqillik, topqirlik, yosh kitobxon ruhiyatini yaxshi bilish, uni o'ziga xos inson sifatida chuqur his etishni talab qiladi.

O'quvchi ruhiyati – murakkab dunyo. Jamiyatning bugungi taraqqiyot shiddati tufayli hayotdagi o'zgarishlar, bolalar ruhiyatining boyishi va shaxsining rivojlanishi o'ta darajada tez kechmoqda. O'quvchining zamon bilan hamnafas faollashuvi, ruhiy olamining murakkablashuvi metodika ilmi oldiga badiiy asar ustida ishlash yo'llarini boyitish va kengaytirish talabini qo'yyapti. So'z san'atining o'quvchi rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi usullarini topishni taqozo qilyapti. Chinakam badiiy asarda hamisha o'quvchiga qiziqarli

bo'lgan, uning ma'naviy tozarishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadigan hayotiy va badiiy haqiqatlar singdirilgan bo'ladi. Mana shu qiziq jihatlarni muammoga aylantirib o'quvchi oldiga qo'yilganda u masalaning yechimini topish bilan birga asarda tasvirlangan qahramonlar ruhiyatini anglab, ularga o'z munosabatini bildirib boradi. Buning uchun, eng muhimi, o'quvchini asar matnining muammoli tahliliga tortishdir. Asar ustida ishlashning har qanday usuli matndan uzoqlashmasligi kerak. Buningsiz kitob o'qishga doimiy ehtiyoj sezadigan va badiiy asar bilan oshno bo'lishdan zavqlanadigan kitobxonni tarbiyalash mumkin emas.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida badiiy asar loqaydlik bilan o'qilmasligi va befarq tinglanmasligi kerak. O'qituvchi o'quvchilarni asar bilan tanishtirish jarayonida ulardagi loqaydlikni yo'qotishga bor kuchini sarflamog'i lozim. San'at asari bilan muloqotga kirishganda bevosita estetik zavqning yo'qligi boshqa barcha tadbirlarning samarasizligiga sabab bo'ladi. O'quvchilar o'qish asnosida badiiy asardagi boshqachalikni, g'ayrioddiylikni his qilib borishlari lozim. Buning uchun o'qituvchining qiziqarli, ilmiy va hayotiy asoslarga boy, o'quvchi diqqatini o'ziga tortadigan kirish so'zi kerak bo'ladi. Shu bilan birga matnni o'qishga kirishish ko'p vaqtni olmasligi ham kerak. Har bir asarni o'rganishda qat'iy maqsadni belgilash va aniq yo'nalishga tayanish lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish vazifalaridan biri o'quvchini asarning takrorlanmas badiiy olamiga olib kirish, bu ijodiy olamni imkon qadar kengroq va chuqurroq anglatish uchun sharoit yaratish, uni bugunning ruhi bilan o'zlashtirishga ko'maklashishdir. O'qish darslaridagi bunday tadbirlar muammoli ta'lim texnologiyasidan oqilona foydalanilganda yanada samarali bo'ladi.

Badiiy asar yozuvchining tafakkuri mahsuligina bo'lib qolmay, uning hayot haqidagi xulosasi hamdir. Asar syujetining rivoji, xarakteri, tili, qismlari o'zaro aloqadorlikda o'quvchiga muallif fikrlari rivoji, tafakkur yo'sinini ochib beradi. Asarni uqib o'qish kitobxonning muallif badiiy fikrlarini o'zlashtirish bilan o'z ichki dunyosini boyitadigan ijodiy faoliyatidir. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limining har bosqichida o'quvchilarni asar muallifi badiiy tafakkurini tushunish va his qilishga o'rgatish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanadi. Har xil adiblarning asarlarini o'qish, ular haqida

mulohaza qilish o'quvchining badiiy tafakkuri rivojlanishiga ko'maklashadi, tasavvurini so'z san'ati namunalari hamda hayot hodisalari bilan boyitadi. Bu jarayonda muammoli ta'limdan foydalanish uning samaradorligini ikki barobar orttiradi.

Muammoli tahlilga tortilgan badiiy matnni o'qish uning tahlili va o'zlashtirilishi uchun birinchi bosqich sanaladi. O'qish davomida kitobxon ko'nglida u yoki bu qahramonga nisbatan muayyan hissiyot – munosabat tug'iladi, o'quvchi ularning xarakteri va asar voqealari rivoji o'rtasidagi munosabat to'g'risida o'ylaydi. Asarga o'zining dastlabki bahosini beradi. O'qituvchi matn ustida ish boshlashdan oldin o'quvchilar uni qanchalik o'zlashtirganliklarini, nima etib bordi-yu nealar anglashilmay qolgani, nima noto'g'ri tushunilgani-yu qay bir jihatlar umuman ilg'anmaganini kichik suhbat asnosida aniqlab olishi lozim. Bu o'qituvchiga asar ustida muammoli ishlashni qiziqarli tashkil etish, vaqtni tejash, busiz ham tushunarli bo'lgan narsalarga vaqt sarflamaslik imkonini beradi.

Tushunarsiz qolgan yoki o'quvchilar e'tibor qilmay o'tkazib yuborgan jihatlariga ko'proq to'xtalish va ularni qiziqtirish uchun o'sha o'rinlar bilan bog'liq jumboqli savollarni o'rtaga tashlash o'quvchilarning e'tiborini tortadi. Asar qanchalik qiziqarli ekanligini, o'quvchilarning asar syujeti, muallifning hayotga munosabatdagi o'ziga xoslikni ilg'ash darajasini, timsollar va hodisalar orasidagi aloqa qanchalik anglanganligini o'quvchilarning javoblaridan bilish mumkin. Shundan so'nggina ularning oldiga qo'yilgan muammoning samarali yechimiga erishish mumkin bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarning o'zgani his qilish, tushunish, tuyish, hamdard bo'lishiga asar qahramonlari kechirgan hislarni ularga "yuqtirish" orqali erishadi. Buning uchun o'qituvchining asarlarga munosabati, xatti-harakatlari, o'ylari, kechinmalari rost va samimiy, badiiy adabiyotga muhabbati baland bo'lishi shart. Muammoli masalalar yechimi asnosida bunday tuyg'ular uyg'unligiga erishish bilan o'quvchining hissiyot olamiga ta'sir ko'rsatiladi.

O'qituvchilarning ko'pchiligi darsda o'quv materialini imkon qadar keng va chuqur bayon etishga urinadilar. Buning uchun qo'shimcha materiallardan foydalanadilar, bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda imkon qadar yaxshiroq va kengroq tarzda etkazib berishga harakat qiladilar. Uy vazifasini so'rash jarayonida ham

o'quvchilarning o'zi aytganlarini qayta aytib berishlari bilan cheklanadilar. Afsuski, bu usul haligacha o'qituvchilar ruhiyati va ish tutumidan chiqib ketganicha yo'q. Bunday bir xillikka asoslangan mashg'ulotlarda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlilga, muhokamaga, xulosalar chiqarishga yo'naltiruvchi topshiriqlar, muammoli savollar berilmaydi. Bilimlarni muammo shaklida o'zlashtirish tashkil etilmaydi. Ko'pchilik o'qituvchilar yangicha ishlashning mohiyatiga kirolmayapti, buning yo'llarini ham bilmaydi. Mazkur ta'limda o'quvchi ruhiyatiga xos xususiyatlar inobatga olinmaydi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar mustaqil ishlashni xush ko'radilar. O'quv ishlarining faol turlari ularga yoqadi. Ular murakkab muammolarni hal etish, imkoniyatlaridan balandroq vazifalarni bajarishni yoqtiradilar. Bu ularning tezroq katta bo'lishga moyilliklari belgisidir. O'qituvchilar o'quvchilarga xos bo'lgan bu tabiiy xususiyatlarni anglashlari, ta'lim amaliyotida shunga tayanishlari, o'quvchilarni ijodga undaydigan, ularning aqlini muvozanatdan chiqaradigan muammoli topshiriqlar bera bilishlari kerak. Faqat bunday topshiriqlar o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari doirasida bo'lmog'i lozim.

Umuman, shuni aytish mumkinki, inson ma'naviyatining sog'lomlashuvi uning fikrlari va xatti-harakati tozarishida aks etadi.

### **Muammoli ta'limning asosiy xususiyatlari**

Ўқувчининг янги тушунчаларни муаммо йўли билан мустақил ўзлаштиришдаги хусусий фаолияти бўлиб, у билимларнинг онгли, чуқур ва мустаҳкам ўзлаштирилишини таъминлайди;

муаммоли таълим шахс дунёқараши шаклланишида энг самарали усуллардан бири саналади. Чунки муаммоли таълим жараёнида тўпланган билимлар мустақил, танқидий, ижодий тафаккур кўмагида амалий фаолиятда қўлланиб, қатъий ишончга айланади;

Ўқув ва амалий муаммолар ўртасидаги қонуний алоқадорлик юзага келади. Ҳаёт билан алоқадорлик ўзлаштирилган билимларни ҳар хил амалий фаолиятда қўлланилишига хизмат қилади;

Ўқувчиларнинг ҳар хил мустақил ишларини тизимли равишда ва самарали қўллаш имконияти яратилади;

муаммоли таълимнинг индивидуаллиги ўқув фанини ўзлаштириш учун ўқувчида билим, кўникма ва малакаларнинг маълум даражаси олдиндан мавжуд бўлишини тақозо этади. Муаммонинг ҳар хил шаклда бўлиши фарзлар хилма-хиллигини тизимга солади ва натижаларга ҳар хил йўллар билан эришилишини таъминлайди;

муаммоли таълимнинг навбатдаги хусусияти унинг жўшқинлигидир. Бу жўшқинлик муаммо ҳар бир болага ўзига хос тарзда таъсир кўрсатишидан келиб чиқади;

муаммоли таълим ўқувчиларнинг юқори даражадаги фаоллигига асосланади. Чунки муаммоли вазиятнинг ўзи ақлий зўриқишнинг асосий манбаи ҳисобланади. Ўқувчининг фикрлаши ўзлуксиз тарзда, унинг руҳий-ҳиссий фаолияти билан табиий алоқада бўлади. Тадқиқот шаклида бўлган ҳар қандай фикрлаш ўқув муаммосининг индивидуал қабул қилинишини, шахсий туйғуларни, эмоционал фаолликни оширади;

муаммоли таълим билимларни сермаҳсул ва ижодий ўзлаштиришни таъминлайди, ўқувчи ижодий фаолиятини кучайтиради. Тарбияланувчида ўзига ишончи ҳиссини орттиради.

Ўқувчининг янги тушунчаларни муаммо йўли билан мустақил ўзлаштиришдаги хусусий фаолияти бўлиб, у билимларнинг онгли, чуқур ва мустақам ўзлаштирилишини таъминлайди;

муаммоли таълим шахс дунёқараши шаклланишида энг самарали усуллардан бири саналади. Чунки муаммоли таълим жараёнида тўпланган билимлар мустақил, танқидий, ижодий тафаккур кўмагида амалий фаолиятда қўлланиб, қатъий ишончга айланади;

Ўқув ва амалий муаммолар ўртасидаги қонуний алоқадорлик юзага келади. Ҳаёт билан алоқадорлик ўзлаштирилган билимларни ҳар хил амалий фаолиятда қўлланилишига хизмат қилади;

Ўқувчиларнинг ҳар хил мустақил ишларини тизимли равишда ва самарали қўллаш имконияти яратилади;

муаммоли таълимнинг индивидуаллиги ўқув фанини ўзлаштириш учун ўқувчида билим, кўникма ва малакаларнинг маълум даражаси олдиндан мавжуд бўлишини тақозо этади. Муаммонинг ҳар хил шаклда бўлиши фаразлар хилма-хиллигини тизимга солади ва натижаларга ҳар хил йўллар билан эришилишини таъминлайди;

муаммоли таълимнинг навбатдаги хусусияти унинг жўшқинлигидир. Бу жўшқинлик муаммо ҳар бир болага ўзига хос тарзда таъсир кўрсатишидан келиб чиқади;

муаммоли таълим ўқувчиларнинг юқори даражадаги фаоллигига асосланади. Чунки муаммоли вазиятнинг ўзи ақлий зўриқишнинг асосий манбаи ҳисобланади. Ўқувчининг фикрлаши узлуксиз тарзда, унинг руҳий-ҳиссий фаолияти билан табиий алоқада бўлади. Тадқиқот шаклида бўлган ҳар қандай фикрлаш ўқув муаммосининг индивидуал қабул қилинишини, шахсий туйғуларни, эмоционал фаолликни оширади;

муаммоли таълим билимларни сермаҳсул ва ижодий ўзлаштиришни таъминлайди, ўқувчи ижодий фаолиятини кучайтиради. Тарбияланувчида ўзига ишончи ҳиссини ортттиради.



## **Muammoli ta'limning uchta maxsus vazifasi mavjud**

Мантиқий усуллар ёки ижодий фаолиятнинг махсус йўлларидадан фойдаланиб ўқувчиларда билимларни ижодий ўзлаштириш кўникмасини шакллантириш.

Ҳаётий вазиятга кўра мавжуд билимлардан ижодий фойдаланиш кўникмасини тарбиялаш.

Ижодий фаолият кўрсатиш кўникмаларини шакллантириш.

## **Muammoli ta'limning quyidagi vazifalari mavjud**

Ўқувчиларнинг билим олиш фаолиятини мустақил ва ижодий йўналишга чиқариш.

Ўқувчининг янги билим ва фаолият усулларини ўзлаштиришини таъминлаш.

Тарбияланувчиларнинг билим олишдаги мустақиллиги ва ижодий қобилиятларини ўстириш.

Таълимнинг илмийлиги даражасини ошириш.

Ўқувчида илмий дунёқараш шаклланишини таъминлаш.

Шаклланиб келаётган шахсда ҳиссий-иродавий сифатларни ривожлантириш, унинг кўнглидаги одам ва олам сирларини билишга бўлган ички эҳтиёжини қондириш.

Shuni anglagan holda o'quvchilarni ta'limning dastlabki bosqichidan to'g'ri tarbiyalashga erishmoq lozim. To'g'ri tarbiya – tarbiyalanuvchida tabiatan mavjud bo'lgan sifatlarni uyg'otish va ularning rivojlanishi, ma'lum maqsad sari yo'nalishiga

ko‘maklashish, shu jarayonga monand ravishda bilim berishdan iborat. Adabiyot o‘qitish jarayonida beriladigan tarbiyada hissiyot, badiiylik va samimiylik o‘zaro uyg‘unlikda bo‘ladi. Badiiylik o‘quvchida bilim, ko‘nikma, malaka shakllantirish bilan birga unga hayotning rangi, ohangi, mohiyatini ochib beradi. Tarbiya jarayonidagi hissiyot va samimiyat esa, tarbiyaviy tadbirlarning ta’sirchanligini ta’minlaydi. Bolalarga beriladigan bilimlar ham hissiyot bilan sug‘orilgandagina ularning ruhiyatiga kirib, chuqur o‘rnashadi.

Nimanidir yoqlash yoki unga qarshi kurashish uchun kishi ko‘ngilda unga nisbatan munosabat bo‘lishi kerak. Mana shu munosabat hissiyot hisoblanadi. Buning uchun yaratilajak yangilikni sevish kerak. Bu ham hissiyot sanaladi. Xullas, hissiyotga qorishgan faoliyatgina kishini kurashga, intilishga, izlanishga undaydi.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

#### Adabiy qahramon – tarbiyachi

Muammoli vaziyat – psixologiya ilmida insonning intellektual qiyin holatga tushib qolishi, deb baholanadi. Bunday vaziyatga tushib qolgan bola hodisa yoki holatni qanday izohlashni bilmaydi. O‘z navbatida u vaziyatdan chiqishning yangi yo‘llarini qidirishga majbur bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni o‘rganishda an’anaviy yo‘llar bilan kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydigan holatlarda muammoli ta’limdan foydalanilgani tuzuk. Muammoli vaziyatda o‘quvchi beixtiyor aqlini zo‘riqtirib, oldingi bilimlarini xotirasida qayta tiklaydi, ichki imkoniyatlarini maksimal darajada ishga soladi. Vaziyat undan shuni talab qiladi. Muammoli holat, avvalo, qiziqarli ekani bilan o‘quvchini o‘ziga tortadi. Psixologlarning fikricha, bola uchun qiziqarliligi, demak uning rivojlanishi uchun ham foydali. Muammo bilan to‘qnashgan bolaning so‘nggi bosqichga, yechimga mustaqil ravishda etganda tuygan lazzati, his qilingan g‘alaba nashidasi tayyor bilimlarni o‘zlashtirishdan tuyganlaridan totliroq, balandroq, yoqimliroq va foydalirokdir.

Aytilgan fikrlarni 3-sinf «O‘qish kitobi»da o‘rganilishi ko‘zda tutilgan «Cho‘pon yigit Shiroq» afsonasi<sup>26</sup> misolida «Muammoli

---

26 O‘qish kitobi. 3- sinf uchun darslik. /M. Umarova, X. Hamroqulova, R. Tojiboyeva. – T.: „O‘qituvchi“, 2016. – 79-b.

dars» shaklida quyidagicha ko‘rish mumkin. Avvalo, aytish joizki, darslikdagi matn ancha jo‘nlashtirib yuborilgan. Bundan tashqari, matn mazmuni yuzasidan taqdim etilgan *“Eron shohi Doroning maqsadi nima edi? Shiroq kim? U nima uchun jonidan kechishga rozi bo‘ldi? Doroning aldanishini so‘zlab bering. Shoh savoliga Shiroqning bergan javobini yod oling”* tarzidagi savollar va topshiriq o‘quvchilarni hissiz, quruqdan-quruq matn mazmuniga mos mantiqsiz javoblar berishga undaydi.

Mazkur afsona darslikka o‘quvchilardagi vatanparvarlik hissini uyg‘otish maqsadida kiritilgani aniq, albatta. Lekin vatanga muhabbat hissi bunday axborot tarzidagi badiiyati qashshoq matnlar asosida shakllanmaydi. Vatanni sevishga, uning uchun jondan kechishga qaratilgan chaqiriqlar, shu yo‘nalishdagi chiroyli so‘zlar yoki she‘rlarni yodlash bilan ham o‘quvchi vatanni sevib qolmaydi. Bu tuyg‘u inson tiynatida tabiatan mavjud bo‘ladi. Adabiyot darslari o‘quvchi ruhiyatidagi mana shu hisni uning o‘zi tomonidan kashf etilishi va takomilini zimmasiga olgan o‘quv fanidir. Ma’lumki, har qanday inson ongli-ongsiz ravishda kindik qoni to‘kilgan tuproqni ota-onasi, jigarlari, qondosh-qarindoshlari bilan qo‘shib suyadi. Boshpanasi – uyini ham kichik bir vatan fahmlaydi. O‘quvchilarga xos bo‘lgan bunday tabiiy tuyg‘ularning ko‘zini ochish, ularni yuzaga chiqarish va sohibiga buni anglatishga badiiy etuk asarlar, ularning mazmun-mohiyati yuzasidan bolalar oldiga muammolar qo‘yish yoki maxsus yo‘naltiruvchi savol-topshiriqlar berish asnosida erishiladi. Muammo yoki savol va topshiriqlarni to‘g‘ri tuzish o‘qituvchidan ham, darslik muallifidan ham anchagina aqliy zo‘riqishni taqozo etadi. Lekin odamning ruhiyatida mavjud bo‘lmagan tuyg‘ularni hech qanday ta’lim yoki tarbiya, muammo yoxud savol bilan bor qilib bo‘lmassligi ham haqiqat.

O‘qituvchi afsonaning nisbatan shiraliroq, qahramon fazilatlarini yaqqolroq ifodalangan matnini, masalan, M. Osim talqinidagi varianti<sup>27</sup> ni topib o‘qib bergani ma’qul bo‘ladi. Gap shundaki, 3-sinf o‘quvchisi to‘qqiz yoshli bola. U o‘zidagi tuyg‘ularni farqlay biladi. Biror voqea-hodisaga, hatto insonga munosabat ham bildira oladi. O‘z fikrini o‘zining darajasida asoslay ham biladi. Faqat uni tuyganlari va bilganlarini ifodalashga yo‘naltira bilish kerak.

O'qituvchi badiiy matnni o'qishdan oldin Markaziy Osiyo, Eron, so'g'd va shak qabilalari, Yaksart (Sirdaryo), O'kuz (Amudaryo) haqida bolalarning bilganlarini so'rab olishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular orasidan kimdir, albatta, biron fikr aytadi. Aksi bo'lsa, o'qituvchi o'zi tushuncha beradi, qadimda O'rta Osiyoda yashagan qabilalar bizning ajdodlar ekani haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bundan tashqari, matnni o'qishdan oldin o'qituvchi har bir timsolga xos ovozni tanlab olishi ham foydadan holi bo'lmaydi. Masalan, Shiroqning ovozini og'ir-bosiq, dadil, oqilona, Doroning ovozini dag'alroq va qo'polroq, oqsoqollarning ovozini salobat bilan ifodalash asarning ta'sir kuchini oshiradi. Matn ifodali o'qib bo'lingach, bolalarni ozgina o'z ixtiyorlariga qo'ygan ma'qul. Toki, ular tuyg'ulari bilan holi qolib, eshitganlari haqida o'ylab ko'rsinlar.

Bolalar bezovta bo'la boshlagach, o'qituvchi asar matni haqida bolalarni o'ylantiradigan, fikr aytishga, mulohaza yuritishga chorlaydigan, bilishga ishtiyoqini qo'zg'aydigan muammoli savollarni o'rta tashlashi masadga muvofiq bo'ladi: **“Shiroqni muqarrar o'linga o'z ixtiyori bilan borishga undagan tuyg'u nima: irodami, vatanga, ona tuproqqa muhabbatmi yoki farzandlarga mehrmi yoxud erkka sohiblikmi? Nima deb o'ylaysiz, qabilada Shiroqdan boshqa mard yo'qmidi? Nega vatan himoyasiga u bir o'zi chiqdi?”** Dastlab bolalar o'ylab-o'ylamay, tuyib-tuymay og'zilariga kelgan javobni berib yuboraverishlari mumkin. Shunda o'qituvchi o'quvchilarini Shiroqning fidoyiligi mohiyatini chuqurroq his qilishga yo'naltirish maqsadida ular betob bo'lib qolib ukol olganlarida yoki bexosdan biror joylarini kesib olishganda yoxud kutilmaganda biror falokatga uchrab jarohat olganda tuyganlari og'riqlarni eslashga undashi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar bir-birlariga so'z bermay, shunday hodisalarni eslab, sanab ketadilar, albatta. Shunda ularga: **“O'z xohishingiz bilan o'zingizni ana shunday og'riqqa, azobga sola olasizmi? Shu og'riqni o'zingiz ixtiyoriy ravishda qayta tuyishni istaysizmi?”** singari yo'naltiruvchi savollar bilan murojaat qilish kerak bo'ladi. Bu savollar o'quvchilarni ziyrak torttirishi aniq. Ularga ham birov o'ylab, birov o'ylamay, tavakkaliga javob beraverishi mumkin, albatta.

Shundan so'ng qo'yilgan muammoli savolning birinchi: **“Shiroqni muqarrar o'linga o'z ixtiyori bilan borishga undagan**

**tuyg‘u nima: irodami, vatanga, ona tuproqqa muhabbatmi yoki farzandlarga mehrmi yoxud erkka sohiblikmi?”**ning mohtyatini ochishga yo‘naltiruvchi: “O‘ylab ko‘ringchi, Shiroq oqsoqollar oldiga kelishdan oldin nimalar haqida mulohaza qilgan bo‘lishi mumkin? U tinchgina qo‘yini boqib yuraversa bo‘lmasmidi? Nega bunday o‘y oqsoqollarning yoki qabiladagi boshqa yigitlarning xayoliga kelmadi, sizningcha? Shiroqning oqsoqollar oldiga qo‘ygan shartiga munosabat bildiring. Uni o‘z quloq-burnini kesib dushmanning oldiga borish g‘oyasi to‘g‘rimi, sizningcha? Buning to‘g‘riligini nima bilan asoslaysiz? Doroning Shiroqqa ishonishi, sizningcha, asoslimi? O‘ylab ko‘ringchi, Shiroqning irodaliligini nimalardan payqash mumkin? Uning farzand va nabiralariga muhabbatini qaysi xatti-harakatida ko‘rdingiz? Afsona nima haqida yozilgan? “Vatanga muhabbat”, “erkka sohiblik” deganda nimani tushunasiz?” va hk. tarzidagi yordamchi savollar ketma-ket o‘rtaga tashlanib boriladi. Bu bilan bolalar matnga qayta-qayta murojaat qiladilarlar, asar qahramoni hissiyotlarini tuyalar, uning timsolida chin insonni ko‘radilar, fazilatlarini tahlil qiladilar. Asar qahramoni tuyg‘ularini ko‘ngillaridan o‘tkazadilar.

Bu savollarning barchasiga hamma bolalarning javob berishi shart emas. Ular “bo‘ladigan” bolalarning o‘rtachalar qurboni bo‘lib qolmasliklari uchun zarur. Agar o‘qituvchi bolalar bilan avvallari shunday ishlab yurgan va ularda ko‘nikma hosil qilingan bo‘lsa, o‘quvchilarning ko‘pchiligi javob berishi aniq. Aksi bo‘lgan taqdirda ham bundan cho‘chimaslik, bolalarning har birini o‘z imkoniyati darajasida javob berishga undash va ularni bunday suhbatlarga tayyorlab borish kerak bo‘ladi. Shu tariqa o‘quvchilar kichikligidan jiddiy tahlillarga, mazmunli suhbatga o‘rganib borishadi. Bu, o‘z navbatida, ularni o‘qiganlarini tushunish, tushunganlari haqida o‘ylash, o‘ylaganlarini gapirish, o‘zgalarni his qilish, ularga munosabat bildirishga o‘rgatadi. O‘qituvchi – bolalarda shunday sifatlarni shakllantirishga mas’ul shaxs.

O‘quvchilar oldiga qo‘yilgan ikkinchi muammoli masala: **“Nima deb o‘ylaysiz, qabilada Shiroqdan boshqa mard yo‘qmi? Nega vatan himoyasiga u bir o‘zi chiqdi?”** savoli ham o‘quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga undaydi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning ko‘pchiligi, hatto maktabgacha yoshdagi

tarbiyalanuvchilar ham yomon va yaxshi sifatlarning farqiga borishadi. Qilib qo‘ygani yomon ishning oqibatlarini ham, yaxshi ishi uchun kattalardan rag‘bat olishini ham juda yaxshi his etishadi. Shu bois yomon xatti-harakatlarini uyda ota-onasi, maktabda ustozidan yashirishadi. Odamzodda, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ham bir xususiyat – o‘zini boridan yaxshiroq ko‘rsatishga harakat qilish hissi mavjud. Ko‘pchilik hamisha ruhiyatidagi salbiy hislarni atrofdagilardan pardalaydi va o‘zida mavjud bo‘lmagan fazilatlarni bor qilib ko‘rsatishga tirishadi. Ayni fazilatni xatti-harakatda ko‘rsatish vaqti kelganda esa sekingina orqaga chekinadi. Shunday tuyg‘ulari rost bo‘lgan odamgini murakkab vaziyatlarda borini boridek namoyish qiladi. Uning fazilati tutumlarida aks etadi. O‘qituvchi muammoli savol ustida ishlanayotganda o‘quvchilarga Shiroqqa xos bo‘lgan mana shu sifatni alohida anglata bilishi kerak. Uning timsolida odam hamisha boriday bo‘lishga, ya’ni xatti-harakatida ko‘nglidagi rost tuyg‘ularga monand ish tutishi kerakligi borasidagi haqiqatni tarbiyalanuvchilar ruhiyatiga singdirib borish boshlang‘ich adabiy ta’limning maqsadiga muvofiq bo‘ladi. Buni amalga oshirish o‘qituvchining oliy vazifasidir.

Qabila oqsoqollarini bezovta qilgan narsa shuki, agar Doro yurti bosib olsa, xalq o‘z erkidan, mustaqilligidan mahrum, qullikka mahkum bo‘ladi. Bu – erkin yashashga o‘rgangan ko‘chmanchi qabila ahli uchun o‘limdan battar. Buni hamma qatori Shiroq ham yaxshi tushunadi. Doroning bostirib kelayotgani xabarini eshitgan Shiroq qalbidagi qullikka qarshi isyon tuyg‘usi bosh ko‘tardi. U o‘zining, ayniqsa, farzandlarining qullikda yashashini tasavvur ham qilolmasdi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi zamirida farzandlarga muhabbat hissi yotadi. Erk uchun kurashish hissi ustuvor kelgan paytda, agar u inson ruhiyatida mavjud bo‘lsa, albatta, har qanday kasb-kor yoki amal, martaba yoki lavozim orqaga chekinadi. U chin insonning ruhiyatida top-toza holda mavjud bo‘ladi. Qalbida vataniga chinakam muhabbat hissi bo‘lgan odam “men vatanni sevaman” deb hayqirmaydi. Chiroyli chaqiriqlar qilmaydi. Muhabbatini xatti-harakatida, tutumlarida namoyish etadi. Shiroqni – oddiy cho‘pon yigitni – qabila boshliqlari oldiga etaklab kelgan tuyg‘u mana shu – o‘z erki, farzandlari mustaqilligi, qolaversa, xalqi hamda yurtiga bo‘lgan muhabbat

hissidir. Qo'yilgan muammoli savollarning yechimi jarayonida bolalar masha shu haqiqatni his qilishlari kerak.

Shuni ta'kidlash joizki, cho'ponning quloq-burnini kesdirish bilan bog'liq og'riqni, uning ortidan keladigan muqarrar o'limni o'z ixtiyori bilan tanlashiga sabab bo'lgan narsa farzandlariga bo'lgan otalik, yurtiga bo'lgan farzandlik burchi edi. Cho'pon bolalari faqat o'z xalqi orasidagina ozod yashashi mumkinligini juda yaxshi bilardi.

Dars so'ngida o'quvchilarga afsona matni asosida surat chizib kelishni uy vazifasi sifatida topshirish mumkin. Chizilgan suratlar go'zal yoki professional asarlarga yaqin bo'lishi shart emas. Buning hojati ham yo'q. Ulardan hech kim yalpi rassom bo'lishni talab ham qilmaydi. Muhimi bolalarning asar matnidagi ma'lum vaziyatni tasavvur qilishlari va uni qog'ozga tushirishi. Keyingi darsda tasavvuri asosida yaratgan bitigini o'qib berishi boshlang'ich adabiy ta'limning maqsadi amalga oshishi garovidir.

Badiiy matn ustida ishlash shu kabi tahlillar bilan uning mohiyatiga kirish, asarning mantiqiy va badiiy-estetik mazmunini anglash hamda muhokama qilish, asosiy yoki ikkinchi darajali fikrlarni ajrata bilish, ular orasidagi aloqani ilg'ay olish, shu bilan birga, bu jarayonda o'z fikr-mulohazasiga, o'z qarashlariga ega bo'lish demakdir. Adabiy qahramonlar timsoli ko'magida o'quvchi inson hayotining mohiyatini anglash bilan birga o'zini o'zi tarbiyalaydi ham.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Muammoli ta'limning maqsadi va vazifalari, uning o'zigagina xos bo'lgan jamiki yetakchi jihatlarni ajrating va yozib oling. So'ngra ularning har birini alohida sharhlang. Yutuq va kamchiliklarini farqlang.

2. Ta'limning bu turi bilan maxsus shug'ullangan olim (V. Okon, M. Maxmutov, I. Ilnitskaya, T. Kudryavsev, A. Matyushkin)larning muammoli ta'lim bilan bog'liq qarashlaridagi alohida jihatlarni ajratib yozing va taqqoslang. O'xshash va farqli tomonlarini aniqlab ularni tahlilga torting.

3. Muamoli ta'limda "*...o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda intellektual zo'riqishga ehtiyoj va qiziqish uyg'otishdir*", degan qarash mavjud. Siz, bo'lajak o'qituvchi, bunga

qanday qaraysiz? Nima deb o‘ylaysiz, inson biror masalani hal etishda o‘zini ixtiyoriy ravishda zo‘riqtirishi, yana bunga qiziqishi mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa, o‘qituvchi buni qanday amalga oshiradi?

4. Oddiy savol bilan muammoli savol orasida qanday tafovut bor? Biror badiiy asar matni yuzasidan oddiy va muammoli savol tuzing. Oradagi farqni misollar asosida sharhlab ko‘rsatib bering.

5. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini muammoli ta‘lim asosida tashkil etish yo‘llariga e‘tibor qarating. Bu jarayondagi muhimlarni ajrating. Har biriga alohida to‘xtalib sharlang.

6. O‘qish darslarida muammoli ta‘limdan foydalanishning o‘ziga xos jihatlarini ajratib yozing va izohlang. Topildiqlaringizga tayangan holda o‘zingiz tanlagan biror asar ustida muammoli ishlash yo‘lini ishlab chiqing.

7. “Cho‘pon yigit Shiroq” afsonasi mazmuni yuzasidan taqdim etilgan muammoli savollar ustida o‘ylab ko‘ring. Ularning yechimini toping.

8. Asar tahliliga bag‘ishlangan maqoladagi: *“Odamzodda, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ham, albatta, bir xususiyat – o‘zini boridan yaxshiroq ko‘rsatishga harakat qilish hissi mavjud. Ko‘pchilik hamisha ruhiyatidagi salbiy hislarni atrofdagilardan pardalaydi va o‘zida mavjud bo‘lmagan fazilatlarni bor qilib ko‘rsatishga tirishadi. Ayni fazilatni xatti-harakatda ko‘rsatish vaqti kelganda esa sekingina orqaga chekinadi”* tarzidagi iqrorni qayta o‘qing. Uning mog‘iyatiga kirishga urining. Undagi yetakchi haqiqatlarni ajratib ko‘rsating.

9. Kichik yoshdagi o‘quvchilar haqida aytilgan: *“Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning ko‘pchiligi, hatto maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar ham yomon va yaxshi sifatlarning farqiga borishadi. Qilib qo‘ygani yomon ishning oqibatlarini ham, yaxshi ishi uchun kattalardan rag‘bat olishini ham juda yaxshi his etishadi. Shu bois yomon xatti-harakatlarini uyda ota-onasi, maktabda ustozidan yashirishadi”*, degan fikrga qo‘shilasizmi? Buning, ya‘ni bolalar qilgan xatolarini yashirishning sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

10. Matndagi: *“Vatanga muhabbat tuyg‘usi zamirida farzandlarga muhabbat hissi yotadi. Erk uchun kurashish hissi ustuvor kelgan paytda, agar u inson ruhiyatida mavjud bo‘lsa,*



*albatta, har qanday kasb-kor yoki amal, martaba yoki lavozim orqaga chekinadi. U chin insonning ruhiyatida top-toza holda mavjud bo‘ladi”* degan haqiqatni tahlilga torting. Unga o‘z munosabatingizni bildiring. Har qanday holatda ham qarashlaringizni asoslang.

11.“*Odam hamsha o‘zini qanday ko‘rsatayotgan bo‘lsa, shunday bo‘lishga intilishi kerak*” degan qarashni tahlilga torting. Unga o‘z munosabatingizni bildiring. Shu qarash asnosida o‘zingizni taftish qiling.

12.“*Abdulla Oripov ijodida erk va mustaqillik tarannumi*” mavzusida insho yozing. Bir-biringizning inshoyingizni tekshiring. Xatolar ustida suhbatlashing.

## 6-mavzu. Modulli ta'lim texnologiyasi xususiyatlari va undan boshlang'ich adabiy ta'limda foydalanishning ahamiyati.

### Reja:

1. Tarbiyashunoslik ilmida modul tushunchasi
2. Modulli o'qitishning mohiyati
3. O'qitish amaliyotida modulli ta'lim texnologiyasi
4. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitishning modulli texnologiyasi
5. Badiiy matn tahlili namunasi: "Toshbaqa bilan chayon" masali moduli

**Tayanch so'zlar:** *modulli ta'lim texnologiyasi, ta'limiy modul, Modulli o'qitish, dinamik (o'zgaruvchan)lik, moslashuvchanlik, tenglilik.*

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilar ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladigan texnologiyalar orasida modulli ta'lim texnologiyasi ham o'z samaradorligi bilan alohida ajralib turadi. Modul lotincha *modulus* so'zidan olingan bo'lib qism, bo'lak, blok ma'nolarini anglatadi <sup>28</sup> va u biror mavzuni o'zlashtirishda undagi yetakchi qarashlarni alohida tarkibiy bo'laklarga ajratib o'rganishni nazarda tutadi. Modulli ta'lim dars jarayonini tashkil etishdagi eng kichik ish turlaridan tortib ularning turli miqdordagi to'plamlarini ham qamrab oladi. Bunda eng kichik faoliyat turi eng kichik modul sanalib, boshqalari qancha modulni qamrab olishiga qarab o'ziga mos darajadagi modullar tizimini tashkil etadi.

"Umumiy pedagogika" kursidan mazkur yo'nalishda o'zlashtirilgan bilimlarni eslatib shuni aytish mumkinki, modul ma'lum pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi, uning tarkibiy bo'laklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo'laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to'plami, modullar darajasi va modullar majmuyi kabi turlardan iborat bo'ladi. Modullar o'z ko'lamiga ko'ra mayda, o'rtacha va yirik bo'lishi ham mumkin.

Tarbiyashunoslik ilmida modul tushunchasi nafaqat ma'lumot va axborot birligi, balki o'quv faoliyatini bosqichli ketma-ketlikda tizimlashtirib o'rganishni ham qamrab oladi. Ya'ni modul

---

<sup>28</sup> <https://ru.wikipedia.org>

tushunchasiga o'quvchi tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malalalar integratsiyasining doimiy harakatdagi mexanizmi sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Modulning har bir bosqichi muayyan o'quv topshiriqlari tizimidan iborat bo'ladi.

Modulli ta'lim texnologiyasi tushunchasiga dunyo va milliy pedagogika ilmida turli mutaxassislar o'z tadqiqotlari maqsadidan kelib chiqqan holda turfa ta'riflar berishgan:

Modul – o'quv materialining o'quvchi bilim va ko'nikmalarini nazorat qiluvchi mantiqiy tugallangan bir qismi<sup>29</sup>.

Modul – bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega... mantiqiy belgilangan qism<sup>30</sup>.

Modul deganda, ma'lum o'quv predmeti bo'yicha aniq maqsadni ko'zda tutib, ob'ektlarning muhim jihatlarini mantiqan tugal va mukammal holda erituvchi o'quv materialining didaktik birligini tushunamiz<sup>31</sup>.

Modulli ta'lim – bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qism<sup>32</sup>.

Ta'limiy modul – unga tegishli metodik materiallar bilan birgalikdagi o'quv kursining mazmunli qismi<sup>33</sup>.

Modulli o'qitish nazariyasida modul tushunchasi bir tizimning aniq funksional vazifani bajaradigan mustaqil qismini anglatadi. O'quv moduli – har bir o'quv topshirig'ining bajarilish vaqti, uning nazorati va natijalarini tekshiruv usullari, o'quv materiallari (paragraf, mavzu, bo'lim, fan, integrallashgan kurs)ni o'rganish bo'yicha ko'rsatmalarni qamrab oladi<sup>34</sup> va hk.

---

29 Калдибекова А. С. Модулли таълим технологияси ва унинг ўзига хосликлари. //Сб. научно-методических статей. 24 частях. Ч. 6. – С. 45.

30 Эгамбердиева Н. М. Маданий-инсонпарварлик ёндашуви асосида бўлажак ўқитувчиларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2009. – 97-б.

31 Нуриддинов Б. С. Касб таълими ўқитувчилари малакасини оширишда фаол ўқитиш методларидан фойдаланиш: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. автореф. – Т., 2002. – 13-б.

32 Столеренко Л. Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – С. 96.

33 Селевко Г. К. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования. – М.: НИИ школьных технологий, 2005. – С. 58.

34 Подласый И. П. Педагогика. – М.: Высшее образование, 2006. – С. 379.

Modulli o'qitishning mohiyati shundani iboratki, ta'lim oluvchi o'ziga taqdim etilgan individual o'quv dasturi asosida mustaqil ishlaydi. Bu o'quv dasturida xarakterlar rejasi, axborotlar blogi, o'qitish natijalariga erishish bo'yicha metodik tavsiyanomalar bo'lishi kerak. O'qituvchi bu sharoitda kuzatish, maslahat berish, axborotlarni o'zlashtirishda o'quvchining xarakterlarini muvofiqlashtirish singari vazifalarni bajaradi.

Modulli ta'limda eng kichik bo'lak ham mazkur texnologiyaning o'ziga xos qismi bo'lib, bunday kichik modullar zimmasiga ham o'ziga yarasha "yuk" oriladi. Bunday modullar to'plami o'qitish jarayonining sifati va samarasini ta'minlashga xizmat qiladi. Modullarning o'zgaruvchan, tinimsiz yangilanib turadigan tabiati tufayli ulardan dinamik ravishda foydalaniladi. Modulli o'qitish – tartibli o'qitish demakdir. Modulli ta'lim texnologiyasidan bitta o'quv mashg'uloti doirasida, o'quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo'limi darajasida, ba'zan esa o'quv fanining yirik tarkibiy qismida, ya'ni bloklar tarzida ham foydalanish mumkin. Oliy ta'limda bir necha turdosh o'quv fanlarining tarkibiy bo'laklarini hamda ayrim fanlarni o'qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar – bloklar tarzida o'qitish keng yo'lga qo'yilgan.

O'quv rejasi va dasturlarning tarkibiy bo'laklarini hamda ularning bajarilishini ta'minlaydigan texnologiyaga xizmat qiluvchi modullar ham mavjud. Ta'lim usullari, metodlari va vositalari uchun qo'llaniladigan modullar ham yaratilmoqda. Modullar, birinchi navbatda, ta'lim mazmuniga daxldor tushuncha, qoida, nazariya va qonunlar hamda ular orasidagi umumiy bog'lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Bilim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatida ularning o'zlashtirish darajasini nazorat qilishda ham modullardan foydalanish mumkin.

Modulli o'qitishning nazariy asoslari o'tgan asrning 60 – 70-yillarida amerikalik mutaxassis Kurch Goldshmidt va Rassellar tomonidan yaratilgan. Bu ilmiy izlanishlarga ta'lim jarayonining ilmiy-texnik taraqqiyotdan orqada qolayotgani, o'quv dasturlari fan-texnika yutuqlari va ishlab chiqarishni tashkil etish taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib borolmayotganligi sabab bo'lgan. Bundan tashqari, o'quv-dasturiy hujjatlarni modul qoidalar asosida tuzish ham

ta'lim jarayonini jadallashtirishning muhim omillaridan biri deb qaralgan.

Halqaro Mehnat Tashkiloti mutaxassisleri ham o'tgan asrning yetmishinchi yillari bolalarida ishlab chiqarishning doimo o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga mos keluvchi ishchi kadrlar tayyorlash maqsadida modulli o'qitishni joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblashgan. Modulli o'qitish asosan ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar ta'lim tizimining barcha yo'nalishlariga tatbiq etilgan.

O'qitish davrida o'rganilayotgan mavzu mazmuniga qarab bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash hamda ularni takomillashtirish har xil didaktik maqsadlarga ega bo'lishi mumkin. O'qitishning har bosqichida tavsiya etilgan har qanday mavzuni o'rganish, mustahkamlash va takomillashtirish reproduktiv (xotira hisobidan ishlaydigan faoliyat) harakatga ega bo'lishi mumkin. Bunda tarbiyalanuvchi topshiriqni o'qituvchi bergan namuna asosida bajaradi, bilimlarni dastlab qanday idrok etgan bo'lsa, o'sha holda xotirasi hisobidan qayta tiklab o'z faoliyatiga tatbiq etadi.

Lekin bunday bilish foaliyati o'quvchidan muayyan bilimlar va ularni amalda qo'llashda ma'lum tajribani, sabab-natija bog'lanishlarini chuqur tushunishni, bilganlarini mustahkamlash hamda takomillashtirishni, asosan, ularning mustaqil ishlashini taqozo etmaydi. O'quvchilar maqsadga ongli va faol intilmaydilar, paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni o'zgarar yordamisiz bartaraf eta olmaydilar.

Modulli ta'lim texnologiyasida mana shu ta'lim turiga alternativ tarzda mustaqil ishlash uchun topshiriqlar tuzish va ularning bajarilish tartibi rejalashtiriladi, vaqti-vaqti bilan topshiriqlarning murakkablik darajasi o'zgartirib turiladi, ish vaqtida o'quvchilarni kuzatib, zarur hollarda ularga yordam beriladi. Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash hamda takomillashtirishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi o'quvchilarda mehnat madaniyatini, darsga ma'suliyatli munosabatni tarkib toptiradi, har birining o'ziga xos mustaqil, badiiy-estetik fikrlashini rivojlantiradi.

Modulli o'qitishning umumiy yo'nalishi, maqsadi, mazmuni va tashkil etish metodikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) modullilik – o'qitish mazmunidan alohida elementlarni ajratib olish;

2) dinamik (o'zgaruvchan)lik – bilimning xarakatchanligi (amaliyligiga) va tezkorligiga erishish;

3) moslashuvchanlik – ta'lim mazmunini va unga erishish yo'llarini ta'lim oluvchining individual ehtiëjiga moslashtirish;

4) metodik maslahatning xar tomonlamaligi – ta'lim oluvchining bilish faoliyatida va pedagog faoliyatida professionallikni ta'minlash;

5) tenglilik – ta'lim oluvchi va pedagog o'rtasida teng huquqli xamkorlikni ta'minlash.

Modul mazmunni invariantda tashkil etish va axborot almashinuvini amalga oshirishga imkon beradi. U insonda yuzaga kelgan ehtiëjlarning qondirilishini kafolatlaydi, yangi yo'nalishda yuzaga keluvchi qiziqishlarni aniqlaydi. Modulning asosiy ahamiyatli tomoni – inson ongi va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modulli ta'lim texnologiyasi quyidagi maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir:

- ta'lim amaliyotida o'qituvchini to'liq axborot berish vazifasidan ozod etish;

- o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda ta'limning qulay yo'llarini tanlab olishlariga sharoit yaratish;

- mustaqil o'rganish, ishlash, o'z-o'ziga ta'lim berish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quvchilarning refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

- ta'lim oluvchilar uchun moslashuvchan rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;

- tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirish;

- bilimlarni umumlashtirish;

- olam va odam sirlarini idrok etish, voqea-hodisalarni yaxlit qamrab olish ko'nikmasini shakllantirish;

- tizimli ravishda bilimlarga ichki ehtiëjni rivojlantirish;

- bilish va his etishning assotsiativ mexanizmlarini boyitish.

Ta'lim amaliyotida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda quyidagi konseptual qoidalarga amal qilinadi:

- o'quv faoliyatini algoritmlashtirish;

- ta'lim mazmunini alohida tugallangan qismlarga joylashtirish;

- bilish bosqichlarining o'zaro uyg'unligi va tugallanganligi;

- nazariy materiallarni bloklarga birlashtirish;
- differensiallashtirish va individuallashtirish;
- faoliyatning barcha tarkibiy qismlari (maqsad qo'yish, rejalashtirish, tashkil etish, ish jara'eni, nazorati, natijalarni baholash)ni amalga oshirish;
- sinergetik ëndashuvni tashkil etish va rivojlantirish;
- o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligiga tayanish;
- o'quvchilarning o'zaro hamkorligini tashkil etish;
- umumiylikdan xususiylikka – alohidalikka o'tish;
- xususiylikdan umumiylikka o'tish;
- nazariy materiallarni yo'naltirish asnosida o'rganish;
- o'quv axborotlarini umumlashtirish, yiriklashtirish, tizimlashtirish, umumiyashtirish;
- o'z munosabatini bildirish va ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitning tez o'zgaruvchanligiga moslasha olish;
- jadallashuvning individual sur'atni tanlab olish va o'z-o'zini bunga yo'naltira olish va hk.

O'qitish amaliyotida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda mavzu mazmuni yuzasidan modullarni shakllantirish uchun asosning mavjudligi faoliyat dasturini tuzib olishga imkon yaratadi. Mavzuning mazmuni bilan tuzilajak o'quv moduli o'zaro chambarchas bog'liq, ya'ni mazmunga modullar shaklida mantiqiy izchillikda tartib beriladi.

Mavzudagi asosiy tushunchalar – o'quv fani mohiyatini tashkil etuvchi mazmuniy birlik, atamalar, tushunchalar ma'lum qoidalarga asoslangan holda modullashtiriladi, barcha turdagi ishlarni qamrab oluvchi savol va topshiriqlar tuziladi hamda modul o'rganilganidan so'ng nazorat (odatda test shaklida) o'tkazildi.

Biror o'quv materialini modulli o'rganish uning vazifalari, ta'lim oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimini belgilab olish imkonini beradi. Modulli ta'limda butun faoliyat: o'quv materialini o'rganishning ketma-ketligi, asosiy tushunchalar, egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, o'zlashtirish darajasi va o'zlashtirish sifatini nazorat qilish ishlari oldindan dasturlashtiriladi. Modullarning soni ham mavzuning o'ziga xosliklari ta'limdagi nazoratning istalgan chastotalari bilan bog'liqlikda olinadi.

Modul o'quvchilarga dastlab umumiy faoliyatga kirishish, so'ng qismlar bo'yicha umumiy maqsad doirasida anglangan o'zaro harakatni ishlab chiqishga imkon beradi. Modul tufayli o'quvchi mazmunni o'zlashtiradi, qanday axborot qanday maqsadda muhokama qilinaётganligini tushunib etadi, bu bilimlarning nima uchun zarurligini anglab boradi. Modul doirasida o'quv axborotlarini tizimlashtirish pedagog va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini ajratib olish hamda aniqlashni talab etadi.

O'qitish amaliyotida qo'llaniladigan modulli ta'lim texnologiyasining tasnifiy belgilari quyidagilardan iborat:

Qo'llanilish darajasi va tavsifi: umumpedagogik.

Falsafiy asosi: moslashuvchan.

Individ xususiyatlariga yo'nalganligi: bilim, ko'nikma va malakalar.

Mazmuni va tuzilish tavsifi: tushunarli, moslashuvchan-variativ.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi: ta'limiy.

Qo'llaniladigan metodlari: muammoli, evristik.

Aniq shakllantirilgan o'quv maqsadi: dastur asosida ishlash.

Axborotlar jamg'armasi: dastur, o'quv material, metodik rahbarlik.

Zarur ko'nikmalarni shakllantirish: o'quv material, ko'rgazmali qurollar majmuasi; qo'yilgan maqsad bilan mustahkam bog'liq bo'lgan tashhisli topshiriqlar.

O'quv materialini alohida-alohida modullarga ajratishda quyidagi xususiyatlarga e'tibor berish talab etiladi:

birinchidan, xar bir modul o'rganilayotgan o'quv materialini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan bo'lishi;

ikkinchidan, modul bir va bir necha didaktik maqsadga erishishni ta'minlashi;

uchinchidan, modullar avtonom bo'lishi va vaqti-vaqti bilan yangilanib, to'ldirilib turilishi;

to'rtinchidan, modullar mazmuni tavakkur mantig'iga va amaliy faoliyatga bo'ysinishi;

beshinchidan, mantiqiy-ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulning o'quv material mazmunini muammoli tarzda berilishi.

Modulli o'qitishni qo'llashda har bir ta'lim oluvchining individual



xususiyatlarini xisobga olish imkoniyati kengayadi. Bu ta'lim shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida o'qitishni ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida modul texnologiya – o'qish darslarida o'rganiladigan badiiy bitiklarni katta-kichik modullar asosida loyihalashtirishni nazarda tutadi. Ajratilgan har bir modul bo'yicha uning o'zigagina xos bo'lgan faoliyat mazmuni va ta'sir doirasi mavjud bo'ladi.

O'qish darslarida adabiy matnlarni o'zlashtirish jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda o'rganiladigan mavzu bir nechta mantiqiy tugallangan bo'laklarga, ya'ni modullarga ajratiladi. Har bir modul o'quvchilar mustaqil ishlashlari uchun maxsus topshiriqqa aylantiriladi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limidagi modulli o'qitishda o'quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday faoliyatga *o'quv elementi* deb qaraladi. O'quv elementi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- o'quvchi faoliyatining aniq elementlarini o'rgatish bilan bog'liq nazariy va amaliy ma'lumot;
- o'quvchining o'quv faoliyatini ta'minlovchi ma'lumotlar;
- aynan o'xshash maqsadlar yig'indisi;
- o'quvchi ishlashi lozim bo'lgan zaruriy materiallar to'plami;
- o'quvchining ish faoliyati, nazarda tutgan farazlari, buning uchun zarur bo'lgan shart-sharoit va topshiriqning bajarilganlik darajasini nazorat qiluvchi materiallar.

Adabiy ta'limning dastlabki bosqichi jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish uchun avval quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mazkur yo'nalishning xususiyatlarini ochib beradigan metodik majmualar yaratish;
- ta'lim jarayonini tashkil etish uchun uni zaruriy didaktik ashyolar bilan ta'minlash;
- o'qitish amaliyotini nazariy-metodik va amaliy-tashkiliy jihatdan to'g'ri uyushtira bilish.

Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitishning modulli texnologiyasi – ta'limning belgilangan tamoyillariga muvofiq tarzda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Bunda motivasiya (o'quvchining bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji), modullilik, muommalilik,

hamkorlikka asoslanish, sub'yekt-sub'yekt munosabati, didaktik o'yinlar, audio-vizual texnika va hk.lar nazarda tutiladi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarini modulli ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etishda quyidagi izchillikka amal qilinadi:

- modulli ta'lim uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- modulning maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilash;
- nazariy va amaliy ma'lumotlarni ajratish;
- amaliy jarayonni rejalashtirish;
- o'quv hamda didaktik materiallar, texnik vositalarni tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;
- zaruriy bilimlarni mustahkamlash;
- o'quvchilarning bilimlarini aniqlash;
- o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash.

O'qish darslarini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, avvalo, o'quvchilarni ham aqlan, ham ruhan mazkur darsga tayyorlashni nazarda tutadi. Qolaversa, darsni tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit va o'quv materialini vaziyat taqozosiga mos tarzda tizimlashtirish ishlariga ham e'tibor qaratiladi.

Biror badiiy asar yuzasidan tayyorlanadigan modullarning mazmunini belgilashda, dastlab adabiy ta'limning bosh maqsadi – ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish va bu yo'lda xizmat qiladigan o'quv materiallari (mazmun)ni tayyorlashga e'tibor qaratiladi. Modullar bilan ishlash yakunidagi natija esa, ya'ni o'quvchi egallagan bilim, ko'nikma, malaka va shaxslik sifatlari mazkur maqsadga qanchalik erishilganligi darajasini ko'rsatadi. Modulli adabiy ta'limning maqsadi ham barcha ta'lim texnologiyalari singari boshlang'ich sinflarda o'qish bo'yicha davlat standartiga tayanadi. Modulli ta'lim texnologiyasining maqsadi qancha aniq bo'lsa, unda muvaffaqiyatga erishish shuncha oson bo'ladi. Mazkur bosqichdagi eng muhim ishlar: o'quv materialini mazmuni va undagi muhimni nomuhimdan ajratish; badiiy asardagi o'quvchi ko'nglidan o'tsa, ma'lum ijobiy iz qoldiradigan jihatlarni umumlashtirish; ularni o'quvchi hayoti bilan bog'lashga yo'naltirish; o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari tabiatini belgilab olishdan iboratdir.

## Badiiy matn tahlili namunasi:

“Toshbaqa bilan chayon” masali<sup>35</sup> moduli

Toshbaqa fazilatlari:	og‘ir-bosiq; o‘ziga ishongan; ziyrak; dono; chayonning fe’lini biladi; hammani o‘zidek yaxshi deb biladi; hammaga birdek yaxshilik qiladi; do‘stga sodiq; erda ham yura oladi, suvda ham suza oladi.
Chayon fazilatlari:	do‘st tanlashni biladi; o‘zining zaif tomonlarini biladi; do‘stini yo‘qotishni istamaydi; o‘zining tabiiy xususiyatiga hiyonat qilmaydi.
Toshbaqaning illatlari:	do‘st tanlashni bilmaydi; hammani o‘zidek yaxshi deb biladi; hammaga birdek yaxshilik qilaveradi.
Chayonning illatlari:	maqtanchoq; engiltabiat; do‘stlikni asrashni bilmaydi; qilmishlari oqibatini o‘ylamaydi; suzishni bilmaydi; ayyor; tor doirada fikrlaydi; vaziyatga qarab ish tutishni bilmaydi.
Ikkala qahramon uchun umumiy bo‘lgan sifatlar:	do‘sti bo‘lishini istaydi; safarni xush ko‘radi.

Umuman, adabiyot o‘qitishda, xususan boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarini tashkil etishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish – o‘quvchilarni ma’naviy kamolot yo‘liga solishda, buning uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxslik

35 <http://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/6-mart-hamza-hakimzoda-niyoziy-1889-1929-tugilgan-kun.html>

sifatlarni egallashida, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishida, mustaqil fikrlashga odatlanishida, didaktik tahlil malakasini egallashida, o‘z bilimi, qobiliyati va imkoniyatlarini baholay bilishida, o‘zining xato-kamchiliklarini anglashi hamda ularni bartaraf qila bilishida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1	Masalning har ikkala qahramoni fazilatlarini qayta o‘qing. Siz bilan biz yomon deb bilgan chayonda ham qandaydir fazilatlar mavjudligi haqida o‘ylab ko‘ring.
2	Toshbaqa bilan chayon timsollariga xos bo‘lgan sifatlarni odamlarga ko‘chiring. Ideal darajada yaxshi odam bo‘lmagani singari tom ma’noda yomon odam bo‘lmasligi haqida o‘ylab ko‘ring. Fikringizni masaldagi har ikkala obraz misolida asoslang.
3	Toshbaqaning ziyrakligi, oqilligi va donoligini uning qaysi xatti-harakatida ko‘rish mumkin, sizningcha?
4	Toshbaqaning qaysi tutumlarida uning o‘ziga ishonchi namoyon bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
5	Toshbaqaning qaysi tutumlarida uning o‘ziga ishonchi namoyon bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
6	Toshbaqaning qaysi iborasi uning chayon fe‘lidan xabardorligini ko‘rsatadi?
7	Toshbaqaning do‘stga sadoqati uning qaysi xatti-harakatlarida namoyon bo‘lgan, sizningcha?
8	Chayonning do‘st tanlashni bilishini nimalardan anglash mumkin deb o‘ylaysiz?
9	Chayonning o‘z zaifliklarini bilishi masalning qasi o‘rinlarida aks etgan?
10	Chayonga xos bo‘lgan “do‘stni yo‘qotishni istamaslik” fazilatini uning qaysi gaplarida anglash mumkin, sizningcha?
11	Chayonga xos bo‘lgan “do‘stni yo‘qotishni istamaslik” fazilatini uning qaysi gaplarida anglash mumkin, sizningcha?
12	Nima deb o‘ylaysiz, chayonga xos bo‘lgan tabiiy xususiyat nima? O‘ylab ko‘ringchi, Alloh tomonidan chayonga berilgan bu sifatning foydali tomonlari ham bormi?

13	Masaldagi: “ <i>Dedi chiyon: «Bo‘lmasa o‘z xohishim, Boshqa nasihatga meni yo‘q ishim»</i> ” satrlarni qayta o‘qing. Unda chayonga xos bo‘lgan qanday fazilat aks etgan?
14	Chayonga xos bo‘lgan chaqish va zaharlash sifatining illatlik jihatlari ham bormi? Bor bo‘lsa u nimalarda o‘z aksini topgan?
15	E’tibor qildingizmi, toshbaqaga xos bo‘lgan: “ <i>hammani o‘zidek yaxshi deb biladi; hammaga birdek yaxshilik qilaveradi</i> ” tarzidagi ikki sifat unga xos bo‘lgan fazilatlarda ham, illatlarda ham ko‘rsatilgan? Bu haqda o‘ylab ko‘ring. Bu ikki sifatning fazilatligi nimada-yu illatligi nimadan iborat?
16	Toshbaqaga xos bo‘lgan yana qanday illatni angladingiz? Tabiatidagi bu kamchiligidan toshbaqa jabr ko‘rdimi yo‘qmi? Nima uchun shunday deb o‘ylaysiz? Fikringizni matn mazmunidan kelib chiqib asoslang.
17	Chayonga xos bo‘lgan maqtanchoqlik masaldagi qaysi satrlarda o‘z aksini topgan?
18	Chayonning: “tor doirada” fikrlashi, “qilmishlarining oqibatini o‘ylamas”ligi va “vaziyatga qarab ish tutish”ni bilmasligi uning qaysi xatti-harakatlarida o‘z aksini topgan? Unga xos bo‘lgan bu sifatlar nima uchun “illatlar” moduliga kiritilgan, sizningcha?
19	Nima deb o‘ylaysiz, masaldagi har ikkala obrazga xos bo‘lgan umumiy sifatlar: “do‘sti bo‘lishini istash” va “safarni xush ko‘rish” fazilatmi yoki illatmi? Fikringizni asoslang.
20	“Do‘stlik sinovda chiniqadi” ertagi qahramonlari Barg va Kesak do‘stligi bilan Toshbaqa va Chayon do‘stligi o‘rtasida qanday farq bor deb o‘ylaysiz? Xulosalaringizni isbotlang.
21	Mazkur masalda qissadan chiqarilgan hissani tahlilga torting: “ <i>Hissa: kimi g‘ayrni ulfat etar. O‘z-o‘zicha boshiga kulfat etar</i> ”. O‘ylab ko‘ringchi, bu o‘rinda “g‘ayr” kim? Chayonning qaysi illatlari uning boshiga kulfat keltirdi? G‘ayrni oshno etgan toshbaqaning boshiga qanday kulfat etdi, sizningcha?
22	Toshbaqa bilan chayonning har xil holatlardagi suratlarini chizing. Chizgan suratingizni sharhlab bering.

Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub mazkur “Toshbaqa bilan chayon” masalining yuqoridagi moduli asosida ish olib borish uchun avval masalning o‘zi o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limi jarayonida o‘quvchilarni badiiy asar matni bilan tanishtirganda har bir timsolga uning xarakter xususiyatidan kelib chiqqan holda ovoz tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalni o‘qib berish uchun ham o‘qituvchi toshbaqaning ovozini og‘ir-bosiq, salobatli chiqishini, chayonning esa engil, qalbaki ohangda gapirishini ta’minlashni avvaldan mashq qilishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilarga ikki og‘iz masallarga xos bo‘lgan xususiyatlar haqida qisqacha ma’lumot ham beriladi: “Masal (arabcha – namuna, misol) – didaktik adabiyot janri. Ta’limiy xarakterdagi, aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklik va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivlarining ustunligi masalga hajviy ruh bag‘ishlaydi. Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarga yaqin bo‘lib, xotimasi, ta’limiy xulosasi maqol, hikmatli so‘z va iboralar tarzida bo‘ladi. Masal materiallari aksariyat ertak, novella, latifa va boshqalarda ham qo‘llanilishi mumkin. Ramzli hikoyadan farqli ravishda masalning o‘z an’anaviy obrazlar va motivlar doirasi mavjud bo‘ladi (hayvonlar, o‘simliklar, qushlar, muayyan tizimdagi odamlar va hk.). Masal janri unsurlari juda qadimdan ma’lum. Uning namunalari "Kalila va Dimna" (Panshatantra, 3 asr) tarkibida uchraydi. Masallar Farididdin Attor, Rumi, Navoiy asarlarida tamsil uchun ishlatilgan. Gulxaniy "Zarbulmasal" asarida masaldan mohirlik bilan foydalangan. Qadimgi yunon adabiyotida Ezop (milodiy 6 – 5 asrlar), Rim adabiyotida Fedr (miloddan avvalgi 1 asr), fransuz adabiyotida Lafonten (17 asr), rus adabiyotida I.A.Krilov bu janrning etuk namoyandalari sifatida shuhrat qozonganlar. Rus adabiyotida D. Bedniy, S. Marshak, S. Mixalkov masalning ajoyib namunalari yaratdilar. O‘zbek adabiyotida Hamza Hakimzoda Niyoziy, S. Abduqahhor, O. Qo‘chqorbekov, Y.Qurbonov va boshqalar masal janrini rivojlantirdilar”<sup>36</sup>.

---

36 <https://uz.wikipedia.org/wiki/Masal>

Shundan so‘ng yuqoridagi modul ekranga tushiriladi. O‘quvchilar bilan birgalikda masaldagi yetakchi fikr aniqlab olinadi: “O‘ylab ko‘ringlarchi, masal nima haqda ekan?” Bolalar asarning do‘stlik va do‘st tanlash haqida ekanini aytadilar, albatta. So‘ngra o‘qituvchi toshbaqa va chayon timsolida odamlarga xos bo‘lgan xususiyatlar aks ettirilganini bayon qiladi. Har bir odamning o‘ziga xos fazilatlari va illatlari mavjudligini, oqil odam hamisha mukammallik sari intilishi lozimligini, bu masal ham o‘z mazmuni bilan shu maqsadga xizmat qilishini aytib o‘tadi. So‘ngra bolalar bilan birgalikda toshbaqa va chayonga xos bo‘lgan avval fazilatlar, keyin illatlar modullarga tayanilgan holda tanishtiriladi. Har bir sifatning mohiyatiga kiriladi. Ya’ni: “og‘ir-bosiq” deganini qanday tushunish mumkin? “Ziyrak” so‘zi nimani anglatadi? “Ayyor”likni qanday tushunasiz?” va hk. Fazilat nima, illat nima ekani haqida ham o‘quvchilarning fikrlari so‘raladi. Toshbaqa va chayon obrazlari misolida fazilatlari ko‘p odam – yaxshi odam, tabiatida illatlar ustuvor bo‘lgan kishilar esa unchalik ham yaxshi odam emasligi anglatiladi.

Odamzodga xos bo‘lgan shunday sifatlar borki, ular barcha uchun umumiy bo‘lishi ham mumkin. Toshbaqa bilan chayonga xos bo‘lgan umumiy sifatlarga ham o‘quvchilar diqqati qaratiladi. Shundan so‘ng masal matni yuzasidan taqdim etilgan savol va topshiriqlar moduliga murojaat qilinadi. Ularni o‘qituvchi birma-bir o‘qib beradi va o‘quvchilarning javoblarini eshitadi. Javoblardagi yetakchi, original fikrlar, asosli, mustaqil qarashlar sohibini rag‘batlantirib boraveradi. Bolalarga nasihat qilishni esa masalning o‘ziga qoldirgan ma’qul. Ya’ni o‘qituvchi: “Yaxshi odam bo‘lish kerak. Chayonga o‘xshab o‘rtog‘iga yomonlik qilish kerak emas” va hk. singari “aqlli” gaplarni aytishi tabiiy tarbiyaviy jarayonga halaqit beradi. Ular bolalarning masal tahlili asnosida olayotgan zavqi va o‘z-o‘zini tarbiyalash ishiga putur etkazadi. Bolalar savol va topshiriqlarga javob berish uchun bu masalalar haqida o‘ylashganda, har ikkala qahramonning xatti-harakatiga munosabat bildirishganda o‘zlarini o‘zlari tarbiyalab boradilar. O‘qituvchi bu tabiiy jarayonni o‘z holiga qo‘yishi, badiiy asrning o‘z ishini bajarishiga imkon berishi shart.

Masal mazmunidan, timsollarning o‘zaro munosabatidan anglash mumkinki, toshbaqa qari, hayotiy tajribasi katta, hech nimadan qo‘rqmaydi. Uzoq umri davomida orttirgan tajribasi, Alloh tomonidan

berilgan xususiyatlarini yaxshi bilishi uning o'zini tutishdagi og'ir-bosiqliqi, donoligi, har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmasligida ko'rinib turadi. Toshbaqa o'zining chayondan kuchli ekanini, uning qalqoni oldida chayonning nishi va zahari hech ekanini juda yaxshi biladi. Hech qachon ortiqcha hayajonlanmaydi. Shuning uchun chayonning "fe'li yomon" ekanini bilsa ham unga do'st sifatida o'z sadoqatini ko'rsatib ustiga minishni taklif etadi.

Chayon esa yosh, hayotiy tajribasi kam, kalta o'ylaydi. Ikki og'iz shirin so'zi: «*Boqsam agar o'ylab turib, Mancha sanga suyguli yo'q mehribon, Sen tanu go'yo anga men misli jon*» bilan dono "toshbaqani laqillatdim" deb xayol qiladi. Atrofidagilarni o'zidek befarosat deb o'ylaydi. Toshbaqaning oqil va dono ekanini bilmaydi. O'zini ustiga chiqarganini toshbaqaning ahmoqligi deb biladi. Chayon o'zini aqlli fahmlaydi va hech qachon, hech kimni ustiga chiqarmaydi. Chunki u boshqalarga o'zidan kelib chiqib munosabatda bo'ladi. Chayonning befarosatligi, bilimsizligi shundaki, u o'zining suzish borasida uquvsizligini bila turib (*Suzmoqa yo'q odatim, Qolmoqa ajrab yana yo'q toqatim*) ham toshbaqaga nishini uradi. Ko'rib turibdi, toshbaqa suvda suzib ketyapti, mobodo uni zaharlay olgan taqdirda ham nafaqat toshbaqa, balki o'zi ham halok bo'lishi mumkinligiga farosati etmaydi. Hayajonlanib toshbaqaning: "*Bu na fosid xayol Qayt bu ishingdan, bali, nishingni ol. Do'st debon, dushmanning qilma ishin! O'yla senam, oqibating kelmishin!*" tarzidagi ogohlantirishiga qaramay ishini davom ettiradi. Chayon ozgina mulohaza qila olganda, toshbaqaning oqilona fikriga quloq solishga farosati etganda bu ko'rgilik boshiga tushmagan bo'lardi. Shu holatni "Agar chayon aqlli-farosatli bo'lganda nima qilgan bo'lardi?" tarzida savolga aylantirib bolalarning e'tiboriga havola qilish o'rinli bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarni qissadan masaldagidan boshqacharoq, o'z tushunchasi doirasida hissa chiqarishga yo'naltirishi maqsadga muvofiqdir. Qissadan muallif: "*Hissa: kimi g'ayrni ulfat etar, O'z-o'zicha boshiga kulfat etar*" tarzida xulosa chiqargan. Bu xulosa, mantiqan masal mazmuniga to'liq mos kelmaydi. U badiiyat taqozosidan chiqarilgan hissa. G'ayrni oshno etgani uchun toshbaqaning boshiga hech qanday kulfat etgani yo'q. Chayonning kulfati esa g'ayr toshbaqani oshno etgani uchun emas, balki o'z befarosatligi, bilimsizligi, kalta o'ylashi, engiltakligi tufayli keldi.



O'quvchilar mana shu didaktik va hayotiy haqiqatlarni anglagan holda shu yo'nalishda o'z xulosalarini chiqara bilsalar, masal ham, adabiy ta'lim ham o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Sinfda shunday xulosa chiqara olgan bitta o'quvchi bo'lsa, boshlang'ich adabiy ta'lim o'sha bola uchun ishlashi, qolganlarni uning ortidan o'z imkoniyatlari darajasida ergashishini ta'minlashga xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda, umuman, ta'lim tizimida adabiyotning bu tarzda o'qitilishi J. Rodari aytmoqchi: *"...co'zga erkin egalik qilish barchaning san'atkor bo'lishi uchun emas, balki hech kim qul bo'lmasligi uchun zarur"*dir.

Uyga vazifa sifatida moduldagi 20-topshiriqni berish yoki masalning ikkinchi tugashini ertak shaklida yozib kelishni topshirish mumkin. Ertak yozadigan bolalar masal matnining qaysi o'rnidan kesib olib yangi ertak yaratganlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi bunga alohida e'tibor qaratmog'i maqsadga muvofiqdir. Bu uy vazifalari ixtiyoriy bo'lib uni har kim o'z iqtidori, qobiliyati va imkoniyatidan kelib chiqib bajaradi. Keyingi darsda chizilgan suratlar ham, yaratilgan ertaklar ham mualliflari tomonidan "o'qib" beriladi. Suratlar sharhlanishiga, ertaklar esa mazmun-mohiyatiga va asl matnning qaeridan kesib olib davom ettirilganiga qarab baholanadi, rag'batlantiriladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'ylab ko'ringchi, modulli ta'lim texnologiyasi mantiqan ta'limning qaysi metodi xususiyatlariga monand keladi? Xulosalaringizni misollar bilan asoslang.

2. Modulli ta'lim texnologiyasiga xos bo'lgan "o'quv elementi" haqida bilimga ega bo'ldingiz. Aytingchi, o'quv elementi o'z ichiga qamrab oladigan jihatlarni qanday tushundingiz? Fikringizni biror asar misolida asoslab bering. Ularning o'quvchi faoliyatidagi samaradorligi haqida o'ylab ko'ring.

3. Asar ustida ishlashda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanganda amal qilinadigan izchillikni "O'qish kitobi" darsliklaridan olingan biror asar misolida ko'rsatib bering. Fikringizni asoslang.

4. Modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishdagi izchillikka doir o'zlashtirilgan bilimlaringizga tayangan holda kompyuter

yordamida biror badiiy asar ustida ishlash modulini yarating. Istang bir guruh bo‘lib, xohlasangiz, individual holda. Bu sizning pedagogik amaliyotingizda qo‘l keladi.

5. Adabiy ta’limning dastlabki bosqichi jarayonida modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirishni bir asar misolida ishlab ko‘rsating.

6. Avval “Toshbaqa bilan chayon” masalini o‘qing. So‘ngra uning mazmunini kompyuter yordamida modullashtiring. Bu o‘qituvchilik faoliyatingizni zamonaviy tarzda tashkil etishingizda asqotadi.

7. “Adabiyot darslari – ko‘ngil darslari” mavzusida insho yozing. Bir-biringizning ishingizni tekshiring. Xato va kamchiliklarini birgalikda bartaraf qilishga kirishing.

## 7-mavzu. Didaktik o‘yinlar texnologiyasi va uning boshlang‘ich adabiy ta‘limdagi o‘rni

### Reja:

1. Ijodiy o‘yinlarning mazmuni
2. Didaktik o‘yinlarga xos bo‘lgan qonun-qoidalar
3. O‘yin – ta‘lim-tarbiyaning qudratli quroli.
4. Boshlang‘ich sinflar ta‘limi amaliyotida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar

**Tayanch so‘zlar:** *passiv o‘quvchilarni jamoaga aralashtirish, sofdillik, rostgo‘ylik, harakatchanlik, badiiy asarda ko‘tarilgan hayotiy muammoni aniqlash, dars ssenariysi, rollar va vazifalarni o‘quvchilar o‘rtasida oqilona taqsimlash, kasb topqirligi.*

Dunyo tarbiyashunoslik ilmida bolalarning yetakchi faoliyati o‘yin ekani va o‘yinlarning maktabgacha yoshdagi davrda muhim sanalishi har jihatdan asoslab berilgan. O‘yinlarning didaktik shakli boshlang‘ich ta‘lim amaliyotida ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Didaktik o‘yinlar jarayoni zamirida o‘quvchilarga ta‘lim berish, olam va odam sirlarini anglatish, mustaqil mulohaza yuritishga undash hamda shular asnosida ma‘naviy to‘kislik sari yuz burgan shaxsni shakllantirish maqsadi yotadi. Boshlang‘ich sinflar ta‘lim jarayonini o‘yinlar ko‘magida tashkil etish masalasi ham pedagogika ilmida alohida o‘rganilgan<sup>37</sup>. Bevosita bolalarning o‘yinlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ta‘kidlanishicha, o‘yinlar nafaqat maktabgacha yoshidagi bolalarning, balki boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining ham asosiy ish faoliyatlaridan biri bo‘lib, ularning shaxs sifatida shakllanishlariga o‘z ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinflarda tashkil etilgan o‘yinlar o‘quvchilarda bir qator fazilatlarining tarkib topishi garovidir.

Bolalarning yoshlari ulg‘ayib mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari ularning atrofdagi narsa va hodisalar ko‘magida dunyoqarashi ham kengayib boradi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita

---

37 Аксенова А. К., Якубовская Э. В. Дидактические игры на уроках русского языка в 1 – 4 классах вспомогательной школы. –Москва: Просвещение, 1991.; Макаревич А. С. Та‘лим-тарбия жараёнида дидактик ўйинлар роли. –Т.: Ўқитувчи, 1970.; Мирзажонова Д. М. Миллий ўйинларда бола шахсини шакллантиришнинг психологик асослари. Пед-псих. фан. номз ...дисс. –Т., 1996.

amaliy munosobatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining qo'lidan keladigan ishlar bilangina emas, balki kattalarga mansub bo'lgan, o'zining kuchi etmaydigan, haddi sig'maydigan voqea-hodisalar bilan ham amaliy munosobatda bo'lishga intiladi. Bu tezroq katta bo'lish istagining tashqi ko'rinishidir.

O'yinlar bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyasida, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. O'yinlar bog'cha va boshlang'ich sinflar ta'limida amalga oshiriladigan mashg'ulotlar, darslar ularning kundalik haetidagi kuzatishlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi. O'yinlarning rang-barangligi, har birining o'z mazmuni va tashkil etish yo'siniga, bu jarayonda foydalaniladigan jihozlarning turlari hamda o'rniga ko'ra ham xilmaxillik kasb etadi. Bular, o'z navbatida, o'yinlarni turkumlashtirishni taqozo etadi. Didaktik adabiyotlarda o'yinlarni ikki katta guruhga bo'linishi ta'kidlanadi: ijodiy va qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarning mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar va ularda o'z taassurotlari, borliq haqidagi tushunchalari, bilimlari hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar. Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ularda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to'raligicha namoën bo'ladi. Bunday o'yinlar, asosan, bolalarning maktabgacha yoshdagi faoliyatiga xosdir.

Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar haetiga tatbiq etiladi. Bunday o'yinlar o'z mazmuni va qoidalarining sodda yoki murakkabligi darajasiga asoslangan holda bolalarning eshlariga qarab taqdim etiladi. Kattalar tomonidan belgilab qo'yilgan qoidalar asosidagi o'yinlarning ko'pchiligini xalq o'yinlari tashkil etadi. Ya'ni avloddan-avlodga o'tib, bugungacha etib kelgan ko'cha o'yinlaridir. Qoidali o'yinlarning bir qismi didaktik ahamiyat kasb etadi va ular boshlang'ich sinflar amaliyotida alohida o'rinni egallaydi.

Boshlang'ich sinflar ta'limi amaliyotida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarning har birida o'ziga xos jihatlari, bajarilish shartlari bo'lgani holda, hammasi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar ham bor: maqsad, vazifa va xulosaning mavjudligi hamda rejali harakatlar.

Bolalarning rivojlanishi, yosh xususiyatlari, ta'lim turiga qarab o'yinlar oldiga qo'yilgan maqsadlar ham o'zgarib boradi. Didaktik o'yinlarda o'quvchilar maqsadga erishish uchun sheriklar tanlaydilar, zarur jihozlar topadilar, o'yin davomida o'ylanadilar, izlanadilar, ilmiy yoki hayotiy haqiqatlarni kashf etadilar, muayyan harakat va qiliqlar qiladilar. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani singari o'yin jaraënida ham bolalarning shaxsiyati, psixik bilish jaraënlari, irodasi, hissiëti, ta'sirchanligi, ehtiëj va qiziqishlari jalb etiladi, o'yinda bolalar faol harakat qiladilar, muloqotda bo'ladilar, o'z bilimlaridan o'rni bilan foydalanadilar ham.

Inson tabiatan shundayki, unga nima qiziq bo'lsa o'sha narsa uning ruhiyati, ongi va jismi uchun ham foydalidir. Shu bois ham odamzod o'ziga yoqqan faoliyat turi bilan shug'ullanishdan charchamaydi. Jumladan bolalar ham o'zlari yaxshi ko'rgan faoliyati bilan uzoq shug'ullana oladilar. Bu ularga hech malol kelmaydi.

Boshlang'ich sinflar ta'limi amaliyotida keng foydalaniladigan didaktik o'yinlar bevosita bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ta'limning takomilga etishiga ërdam beradi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ësh va intellektual imkoniyatiga mos ta'lim texnologiyalaridan biri sifatida:

– passiv o'quvchilarni jamoaga aralashtirish, ularning har xil vazifalarni qo'rqmasdan bajara olishlariga xizmat qiladi;

– o'quvchilarning birgalikda o'ynab, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishlari, bir-biriga ko'maklashish, muvaffaqiyatidan xursand bo'lish kabi yaxshi sifatlarni tarkib toptirishga ërdam beradi;

– shaxsga xos bo'lgan sofdillik, rostgo'ylik, harakatchanlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanishiga ko'maklashadi;

– darsda o'quvchilarning imkon qadar erkin va o'zaro do'stona faoliyat yuritishlariga sharoit yaratadi;

– tarbiyalanuvchilarni tevarak-atrof, odam va olam sirlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yo'naltiradi;

– o'z shaxsiy tajribalaridan, hayotda ko'rgan-bilganlaridan, badiiy asarlar mutolaasidan o'zlashtirganlarini amalda foydalanishga o'rgatadi;

– ijodiy imkoniyatlarini, kashf etish qobiliyatlarini, yaratuvchanlik iqtidorlarini rivojlantiradi;

– bilim olish jarayonining engilroq, qiziqarliroq kechishiga, aqliy zo‘riqlashlarning yoqimli kechishiga turtki beradi;

– aqliy imkoniyatlarining takomillashishiga asos bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlar mutaxassislar tomonidan bolalarning aqliy rivojlanishi, bilimlarni puxta o‘zlashtirishi va ularda shaxsiy sifatlarning shakllanishi hamda rivojlanishini ta‘minlash maqsadida yaratiladi. Unda o‘yin elementlari qancha ko‘p bo‘lsa, bolalarga shuncha ko‘p quvonch bag‘ishlaydi. Didaktik o‘yinlarning eng muhim jihati uni o‘tkazishdan ko‘zda tutiladigan maqsaddir. O‘yin o‘z mazmun-mohiyati bilan bolalarda qiziqish uyg‘otadi, ko‘pincha o‘yindagi yetakchi fikr didaktik o‘yinining bosh sababi bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinining o‘z mazmunidan kelib chiqqan qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalar harakat yo‘nalishi, o‘yinining borishini belgilaydi, o‘quvchilarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini, o‘zaro munosabatlarini boshqarib, kerakli tomonga yo‘naltirib turadi.

Didaktik o‘yinlarga xos bo‘lgan qonun-qoidalar o‘quvchilarning harakatini baholovchi mezon hamdir. Didaktik o‘yinlarning qoidalari ishtirokchilar harakatlari yo‘nalishini boshqarib turish bilan birga faoliyatning o‘quvchilarga ma‘naviy va axloqiy ta‘sirini ham aniqlaydi. O‘quvchilarning fahm-farosati, topog‘onligi, diqqati, harakatchanligi va xotirasini namoyish qilish imkonini yaratadi. Tarbiyalanuvchilarning o‘z kuchiga ishonchini oshiradi, to‘ldiradi, ularda ma‘naviy qoniqlash hissini paydo qiladi.

O‘quvchilarning bergan savollari, takliflari va tashabbuslariga qarab o‘yin jara‘nini kutilmaganda kengaytirish, mazmunini boyitish ham mumkin. O‘yinni belgilangan vaqtda boshlash va tugatish ham katta mahoratdir. O‘qituvchi o‘yinni o‘quvchilarning qiziqishlari so‘nmay turib tugatishi, bolalar ruhiyatida uni davom ettirish istagi saqlanib qolishi muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o‘yinlar nafaqat sinf xonasi, balki maktab hovlisi, sport maydonchasida, dala va bog‘larda ham o‘tkazilishi mumkin. Bu o‘yinlarning o‘quvchilarda har xil taassurotlarni uyg‘otishi ularning faolligini oshiradi, aqlini peshlaydi, tafakkrini charxlaydi. Shunday qilib, didaktik o‘yinlar o‘quvilarga nafaqat ta‘lim berish vositasi, balki dunyoqrashini kengaytirish, tafakkurining mustaqilligini ta‘minlash, g‘alaba nashidasini tuydirish singari ijobiy fazilatlarining ortishiga ham yordam beradi.

O'quvchilar o'yin faoliyatining yana bir ajoyib xususiyati shundan iboratki, bu jarayonda ularning hatti-xarakatlari va bajaradigan ishlari, ko'pincha, umumiy xarakter kasb etadi. Ya'ni o'quvchi turli-tuman o'yinlarda umumning faoliyatini aks ettiradi. Albatta, hayotiy tajribasi va faoliyati cheklangan kichik maktab yoshidagi bolalar didaktik o'yinlarda ma'lum shaxslar va ularning xarakatlarini aks ettiradilar. Bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning didaktik o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lish bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.

Boshqacha aytganda, o'yin ham ta'lim-tarbiyaning qudratli qurolidir. O'quvchilarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'yin faoliyati tashqaridan kuzatilsa, bu jarayonda ularning barcha shaxsiy hislatlari (kimning nimaga ko'prok qiziqishi, qobiliyati, irodasi, iqtidori, imkoniyati, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ham kuzatish mumkin. Ko'rinadiki, o'quvchilarning o'yin faoliyati ularni individual ravishda o'rganish uchun ham juda qulay vositadir.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarning o'z ma'naviy kamolotlarini ta'minlashda bevosita ishtirok etishlari, ularning ijodiy fikrlash, bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, mavjud bilim, ko'nikma, malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llay bilishlarida syujetli-rolli o'yinlar ham muhim sanaladi.

O'quvchilarning jamoa shaklidagi syujetli-rolli o'yinlari artistlar faoliyatiga o'xshaydi. Bunday o'yinlarda qatnashayotgan har bir o'quvchi o'z rolini yaxshi ado etishga intilish bilan birga o'yinning umumiy mazmuni va qoidasidan chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Ma'lum rollarga bo'lingan o'yinlar o'quvchilardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishni, o'z vazifalarini o'xshatib bajarishni, butun qobiliyatini ishga solishni taqozo etadi. O'quvchilarning birgalikdagi o'yinlari psixologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bunday jamoa o'yinlari o'quvchilarda irodalilik, belgilangan qoidalarga, tartib-intizomga bo'ysunish kabi ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" darsliklaridan o'rin olgan adabiy asarlar mazmuni misolida tashkil etiladigan syujetli-rolli o'yinlar badiiy asarlarda ilgari surilgan hayotiy-ijtimoiy masalalarni, inson va tabiat hamda kishilar orasidagi munosabatlarni badiiy ko'rinish tarzida yoritish asosida vujudga kelgan muammolarni o'quvchilarning o'zlaridagi bilim zahiralariga tayangan holda, hamkorlikda, bosqichma-bosqich hal etishida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan didaktik ish turi hisoblanadi. Bunda o'yinlar syujeti badiiy asarlarda aks etgan jamiyat yoki tabiat tasviridan olinadi. Ba'zan jamiyat va tabiatdagi muammolar uyg'unlashtiriladi. O'qituvchi bu kabi syujetli-rolli didaktik o'yinlarni tashkil etish uchun quyidagilarni amalga oshirishi nazarda tutiladi:

- badiiy asarda ko'tarilgan hayotiy muammoni aniqlash;
- dars ssenariysini o'quvchilar bilan hamkorlikda tuzish;
- rollar va vazifalarni o'quvchilar o'rtasida oqilona taqsimlash;
- qo'yilgan muammoni hal etish yo'llarini belgilash.

O'quvchilarning ijodiy izlanishi, tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligi, mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishda, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ham didaktik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ta'lim jarayonida sun'iy ravishda vujudga keltirilgan muammolarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy qo'llash asnosida hal etishlariga zamin yaratadi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarining didaktik o'yinlarini tashkil etishda o'yinlarning sensor (his qilish, tuyish orqali o'zlashtirish) – faoliyatni rivojlantiruvchi va mantiqiy-didaktik (matematik) qobiliyatni oshiruvchi turlaridan oqilona foydalanish lozim. O'yinlarning birinchi (sensor) tipi xususiyatlarni ajratish, ya'ni narsa va hodisalarning o'xshash yoki farqli jihatlariga asoslanish hamda mavjud voqea-hodisalardan yaxlit narsa yasash – o'ylab ko'rib, tasavvur qilib parchalardan o'rni bilan foydalanish yaxlit bir butunlik yaratish, umumiy xulosalar chiqarishga asos bo'ladi.

Ta'lim tizimida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda yoki o'rta maktablarda, balki o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi, xatto oliy o'quv yurtlari ta'limi amaliyotida ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar asosida tashkil etiladigan darslar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy,



tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadini hal qilishga qaratilganligi, ta'lim amaliyotidagi muhim muammolarni echishga yo'naltirilganligi, tarbiyalanuvchini ham aqlan, ham jisman, ham ruhan toliqishdan asrashga intilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Didaktik o'yinlarning birinchi sinf o'quvchilari og'zaki nutqini rivojlantirishga, tafakkrini tiniqlashtirishga yo'naltirilganlaridan biri «**Bo'lishi mumkin emas**»dir<sup>38</sup>. Bu o'yinning maqsadi: kichik o'quvchilarda yil fasllariga xos bo'lgan bilimlarni mustahkamlash, notabiiy hodisalarni payqash ko'nikmasini shakllantirish, fikrni to'g'ri yo'naltirish va ifodalashga, ziyraklik qobiliyatini o'stirishga qaratilgan. O'yin o'qituvchining yil fasllaridan biri xususiyatlarini sanashi bilan boshlanadi. O'quvchilar esa bu hikoyadagi haqiqiy yoki sun'iy kiritilgan hodisalarni payqashlari hamda «Bunday bo'lmaydi» deya ilg'agan narsa-hodisalarini ajratib ko'rsatib berishlari, nima bo'lishi mumkinligi yoxud nima bo'lishi mumkin emasligini va nima uchun bo'lishi mumkin emasligini asoslab berishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi hikoyasini boshlashdan oldin o'yinning bu qoidalari bilan o'quvchilarni tanishtiradi. O'qituvchi hikoyasi, tahminan, quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin: *«Jazirama yoz kunlaridan birida maktabga kelsam maktabimizdagi basseynning suvi muzlab qolibdi. Bolalar unda konki uchishayotgan ekan. Ular bilan salomlashib sinfga kirsam u erda yomg'ir yog'ayotgan ekan. Men darhol soyabonimni ochib oldim. Sinfimizdagi akvariumning yoniga borib baliqlarga ovqat bermoqchi edim, qarasam suvda maymunlar, quyonlar, tulkilar baliqlar bilan birga o'ynashayotgan ekan. Men akvariumga katta go'sht bo'lagini tashladim. Keyin o'qituvchilar xonasiga bordim. U erda o'quv bo'limi mudiri Shaxlo opa ayiqpolvon bilan dars jadvali haqida gaplashib o'tirgan ekan. Ayiqpolvon mudirga dars jadvalini qanday tuzishni tushuntirayotgan ekan. Men ular bilan xayrlashib oldilariga bordim va hk.»*

O'quvchilar ilg'ashlari va e'tiroz bildirishlari kerak bo'lgan masalalar: maktabda basseyn yo'q; yozda konki uchilmaydi; xonada yomg'ir yog'maydi; sinfdan akvarium yo'q; maymun, quyon va tulkilar akvariumda emas, o'rmonda yashashadi; baliqlarga go'sht berilmaydi; maymun bilan quyon go'sht emaydi; ayiqpolvon gaplashmaydi; u dars

---

38 Аксенова А. К., Якубовская Э. В. Дидактические игры на уроках русского языка в 1 – 4 классах вспомогательной школы. –Москва: Просвещение, 1991.

va dars jadvali haqida hech narsa bilmaydi; xonaga kirilganda xayrlashilmaydi balki salomlashiladi va hk. Mazkur didaktik o'yinda o'quvchilarning har bir kashfiyoti savol yoki topshiriq ko'magida o'z asosini topishi kerak. Ya'ni o'qituvchi o'quvchilar topgan bo'lishi mumkin bo'lmagan narsalarni nima uchun bo'lishi mumkin emasligini asoslashga qaratilgan savol-topshiriqlar berishi kerak bo'ladi.

So'ngra o'quvchilardan hikoya matnidagi bo'lishi mumkin bo'lgan narsa-hodisalarni topishni talab qilish kerak bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'qituvchi ta'limning dastlabki oylarida o'z hikoyasida faqat bitta yoki ikkita bo'lishi mumkin bo'lmagan hodisani kiritishi, keyinchalik ularni ko'paytirishi, qiyinlashtira borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday didaktik o'yinlarning mutaxassislar tomonidan belgilab berilgan tartib-qoidalari ma'lum maqsadni – o'quvchilarning zehni o'tkirlash, ziyrakligini oshirish, mustaqil tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish, og'zaki nutqini rivojlantirish, fikrini izchillikda bayon etish va qarashlarini asoslay bilishlarini nazarda tutgan.

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning adabiy tafakkurini o'stirishga yo'naltirilgan navbatdagi didaktik o'yin «**Uyushma**» deb nomlanadi. Bu o'yinning maqsadi sabzavotlarni har xil belgilari bo'yicha saralashga yo'naltirish orqali o'quvchilar bilimini oshirish, tafakkuri mustaqilligini ta'minlashdan iborat. Sabzavotlar yoki ularning rangli suratlari mazkur o'yinning ko'rgazmali materiali bo'la oladi. O'yin quyidagi tartibda amalga oshiriladi: o'quvchilarga har xil sabzavotlar yoki ularning rangli rasmlari tarqatiladi. Dastlab o'qituvchining o'zi boshlovchi bo'ladi. U pomidorni ko'rsatadi va uning sharbati (suvi) borligini aytadi. Pomidor o'z jamoasini «tuzadi». Ya'ni uning safiga sharbati bo'lgan barcha sabzavoti bor o'quvchilar kelib qo'shiladilar. Har bir qo'shilgan o'quvchi qo'lidagi sabzavotning nomini va uning xususiyatlarini aytadi: menda tarvuz bor, uning ham suvi-sharbati bor; menda qovoq bor. Qovoqning ham sharbati bor. U juda foydali va hk.

Keyingi navbatda boshqa bir o'quvchi boshqaruvchilik qiladi: «Menda lavlagi bor. U qizil». Endi o'quvchilar qo'llaridagi qizil sabzavotlar bilan alohida jamoa hosil qiladilar va o'zlaridagi sabzavotning nomi va rangini aytib uyushmaga qo'shiladilar. Navbatdagi boshlovchi: «Menda kartoshka bor. Uni ovqatga

soladilar», deydi. Kimning qo‘lida ovqatga ishlatiladigan sabzavotlar bo‘lsa, bu uyushmaga sabzavotining nomi va u ovqatga solinishini aytib qo‘shilaveradi. Boshqa uyushmalar ham «u shirin», «u achchiq», «uni pishirmasdan esa bo‘ladi», «uni albatta pishirib eyish kerak» singari belgilari bilan sabzavotlarni ajratadilar va hk. Bu o‘yin o‘quvchilarning sabzavotlar va ularning xususiyatlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi, mustaqil tafakkuri bilan birga sinchkovligini orttiradi. Sabzavotlarni mevalar bilan almashtirib yangi bir o‘yin yaratish ham mumkin.

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini mustahkamlash, ijodiy tafakkurini shakllantirish, tasavvurini kengaytirishga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlardan biri «**Nima qilyapti?**» deb nomlanadi. Bu o‘yin jihozi uy hayvonlarining harakatdagi suratlaridir. O‘qituvchi o‘quvchilarga harakatdagi birorta uy hayvoni suratini ko‘rsatadi. Ular uy hayvonining nomi va harakatini topib aytishadi. Masalan, bu ot. U chopyapti. Bu it. U huryapti. Bu mushuk. U yotibdi va hk. So‘ngra o‘quvchilar shu surat mazmuni asosida ot qayoqdan kelayotgani, qayoqqa chopayotgani, nega chopayotgani, u chopyaptimi yoki yo‘rg‘alab ketyaptimi va hk.larni, it kimga, nima uchun hurayotgani, ya‘ni tasvirdagi holatdan oldingi va keyingi hodisalarni tasavvur qilgan holda kichik hikoyachalar tuzishga yo‘naltirilishi talab qilinadi. Kichik hikoyachalarda suratdagi hayvonlarning bir-biri bilan suhbatini ham tashkil etish mumkin. Suhbatlarning mazmunini o‘quvchilarning o‘zlari belgilashadi. Shu tariqa ularda tafakkur mustaqilligi, ijodkorlik va yaratuvchanlik hissi shakllana boradi.

Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limi jarayonida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish yoki badiiy asarlar mohiyatiga kirishni ta‘milash, o‘quvchilarga bilim berish, dunyoqarashini kengaytirish, ularning aqliy faoliyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirish maqsadiga qo‘l keladigan didaktik o‘yinlardan yana biri «**Inson va hayvonlar**» deb nomlanadi. Bu o‘yin o‘quvchilarning dialogik nutqini, suhbat uchun mazmun tanlash imkoniyati taraqqiyotini ham ta‘minlaydi. Bu o‘yinda uy hayvonlarining odamlarga keltiradigan foydasi kashf etiladi. O‘qituvchi avval o‘quvchilarning har biriga uy hayvonlari va parrandalarining suratini tarqatib chiqadi. So‘ngra quyidagi hikoyani boshlaydi: «*Qadim-qadim zamonda odam yolg‘iz o‘zi yasharkan.*

*Tabiatda qattiq qurg‘oqchilik bo‘libdi va hayvonlarning ko‘pi qirilib ketibdi. Shunda tirik qolgan hayvonlar va qushlarning bir qismi odamning oldiga kelishibdi va:*

*- Bizni boq. Bizni boqsang sening barcha ishlaringni engillatamiz, senga yordam beramiz, - deyishibdi.*

*- Sizlar nima qilishni bilasizlar? – deb so‘rabdi Odam...».*

Shundan keyin o‘qituvchi o‘quvchilardan birma-bir javob berishni talab qiladi. Ular qo‘llaridagi suratda aks etgan uy hayvonining nomini va u bajarishi, foyda keltirishi mumkin bo‘lgan jihatlarini gapirib beradilar. Qaysi o‘quvchi qo‘lidagi uy hayvonining xususiyatlarini to‘liq ochib bera olmasa, o‘qituvchi boshqalarni ko‘makka chaqiradi. Shu tariqa ularda bilganlaridan amalda foydalanish, bilmaganlarini o‘rtoqlari ko‘magida bilib olish, ayni zamonda, ularda mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalari shakllanadi.

Shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi, o‘quvchida ijodiy izlanish ko‘nikmasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan navbatdagi didaktik o‘yin «**Tug‘ilgan kun**» deb nomlanadi. Bu o‘yinda dars jihozlari yovvoyi hayvonlar, ularning uyalari va eydigan taomlari tasviri tushirilgan kartochkalar bo‘ladi. O‘qituvchi bugun quyoning tug‘ilgan kuni ekanini, u o‘rmon hayvonlarini mehmonga chaqirmoqchiligini aytadi. Mehmon kutish uchun ko‘pgina taomlar pishirganini ta‘kidlab dars taxtaga har xil oziq-ovqatlar rasmini qo‘yadi. So‘ngra o‘quvchilarga murojaat qilib deydi: «Qani shu taomlarga qarab topinglarchi, quyon o‘z tug‘ilgan kuniga kimlarni taklif qilibdi?» O‘quvchilar bochkachadagi asal, likopchadagi yong‘oq, ko‘zachadagi sut, savatchadagi pichan, kosachadagi qurt-qumirsqalar va hk. taomlarga asoslangan holda ularni iste‘mol qiladigan hayvonlarning nomlarini aytadilar. So‘ngra o‘quvchilarga o‘sha ovqatlarning oldiga hayvonlar suratini yopishtirishni taklif qiladi. Keyin so‘raydi: «O‘ylab ko‘ringlarchi, quyon kimlarni tug‘ilgan kuniga chaqirmabdi? Nima uchun?» O‘quvchilar qarashsa, quyon bo‘ri bilan tulkini tug‘ilgan kuniga chaqirmagani ayon bo‘ladi. O‘quvchilar buning sabablarini bilganlaricha aytadilar. Fikrlar tugagach o‘qituvchi hikoyasini davom ettirib: «Hayvonlar tug‘ilgan kunda maza qilib ovqatlanishibdi, o‘ynashibdi va kech bo‘lganda uylariga qaytishibdi», deydi va har xil uyalarning suratini darstaxtaga

yopishtirib, o'quvchilarga topshiriq beradi: «Har bir hayvonning suratini o'z uyasi oldiga yopishtiring». O'quvchilar birma-bir chiqib ayiqni o'z uyasiga, olmaxonni daraxtga, quyonni butalar ostiga, qushlarni daraxt shoxlariga joylashtirishadi. Shundan so'ngra hikoya davom ettiriladi: «Ertalab turib barcha hayvonlar quyonning tug'ilgan kuni qanday o'tganini gapirib berishibdi». O'qituvchi shu o'rinda o'quvchilarga savol bilan murojaat qiladi: «Qani, o'ylab ko'ringlarchi, qaysi hayvon qanday hayvonchalarga quyonning tug'ilgan kuni haqida gapirib beribdi?» va barcha hayvonlarning bolalari suratlari tushirilgan ko'pgina kartochkalarni chiqaradi. O'quvchilar har bir hayvon bolasining nomini aytib kichik jonivorlarni o'z onalari atrofiga yopishtirib chiqadilar. To'g'ri javoblar oldiga o'qituvchi har xil baholarni aks ettiruvchi belgilarni yopishtirib qo'yadi. To'g'ri bajarilgan topshiriqlarning yulduzcha yoki «smayli»lari ko'payaveradi. Shu tariqa o'quvchilar ham bilim oladilar, ham mustaqil mulohaza yuritib kashfiyotlar qiladilar.

Boshlang'ich sinflar o'quvchilarini bilimlarni o'zlashtirishga, mustaqil fikrlashga, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirisha yo'naltiruvchi bunday didaktik o'yinlarning barcha jihozlari avvaldan tayyorlab qo'yilishi, o'yinlarning chegarasi belgilab olinishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda o'quvchilar charchab qolishlari yoki ularning imkoniyatlaridan tashqari topshiriqlar bo'lsa, qiziqmay qolishlari mumkin. Shu bois o'quvchilarni bilimlarni engil va qiziqarli o'zlashtirishlariga yo'naltiruvchi bunday didaktik o'yinlarning dastlab bir yoki ikkitasi bilan cheklanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'rinadiki, mazkur o'yinlarda o'qituvchining roli juda chegaralangan va u o'quvchilarni faqat yo'naltirib turishi o'rinli bo'ladi. Didaktik o'yinlarning samaradorligi, natijalarning ijobiyligi butun o'yin davomida o'qituvchining emotsional munosabatiga bog'liq. Bunday didaktik o'yinlar o'quvchilarning bilish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga, bilimlarini amaliyotga tatbiq etishlariga ko'mak beradi. Boshlang'ich sinflarda barcha o'yinlarning nafaqat qiziqarli, balki ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi ham maqsadga muvofiqdir.

Navbatdagi didaktik o'yin o'quvchilarda tez fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. U «**Tez javob berish**» deb nomlanadi. Bunda o'qituvchi har xil mavzularni o'rta tashlaydi. Bolalar shu mavzuga

doir soʻzlarni sanab beradilar. Oʻyinning sharti shundayki, har yoʻnalish boʻyicha kim koʻp soʻz topsa u yulduzcha olaveradi. Oxirida yulduzchalari koʻp boʻlgan oʻquvchi gʻolib boʻladi. Masalan, oʻqituvchi: «Uy hayvonlari» deydi. Bolalar: «Sigir, echki, buzoq...» va hk. Oʻqituvchi: «Multifilmlar» deydi. Bolalar: «Maugli», «Alisa ajoyibotlar mamlakatida», «Masha va ayiq», ...» va hk. Oʻqituvchi: «Oʻquv qurollari» deydi. Bolalar: «Ruchka, qalam, sirkul...» va hk. Oʻqituvchi qushlar, yovvoyi hayvonlar, multiklarning qahramonlari, osmon jismlari va hk.larni navbat bilan oʻrtaga tashlayveradi. Bolalar javob topaveradilar. Bu jarayonda oʻquvchilarning fikrlashi tezlashadi, soʻz boyligi koʻpayadi, xotirasi charxlanadi, bilimi ortadi.

Bundan tashqari, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining adabiy savodxonligini orttiruvchi soʻz oʻyinlaridan: oʻqituvchi aytgan soʻzning oxirgi harfi bilan boshlanadigan soʻzlardan topib aytish: kitob – bahor – rasm – mashina – anjir ... va hk.; bir mavzu doirasida jamlangan soʻzlarni topish (masalan, baliq – oʻquvchilar boshqa suv hayvonlarini sanaydilar); boʻri – oʻquvchilar boshqa yovvoyi hayvonlarning nomlarini sanaydilar; laylak – oʻquvchilar boshqa qushlarning nomlarini xotirlab aytib beradilar; tovuq – oʻquvchilar uy parrandalarini sanaydilar; it – uy hayvonlari sanaladi va hk. Mazkur soʻz oʻyinlari ham oʻquvchilarning tafakkuri mustaqilligini taʼminlash bilan birga ularni topqirlikka, vaziyatga va savolga mos yoʻnalishda tez fikrlashga oʻrgatadi. Ayni zamonda bilim ham beradi. Yaʼni bilimlarni oʻquvchilar oʻqituvchidan tayyor holda olmay oʻzlari kashf etadilar. Mehnat qilib oʻzlashtirilgan bu bilimlar bolalarning ruhiyatiga oʻrnashib boradi.

Boshlangʻich sinflar adabiy taʼlimi amaliyotida foydalaniladigan didaktik oʻyinlardan biri **“Kasb topqirligi”**da har bir “mutaxassis”ning oʻz ijodiy izlanish yoʻnalishi boʻlib, fanga oʻziga xos yangilik kiritadi, yaʼni oʻzicha kashfiyot qiladi. Masalan, biror asar yuzasidan: «Siyosatshunos» – asardagi siyosiy hodisalarning berilishi, mazmun-mohiyati va hk.larni oʻrganadi; «Adabiyotshunos» – badiiy asarning tili, uslubi, janr xususiyatlarini aniqlaydi, matnga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashadi; «Tilshunos» – badiiy asrda til vositalarining qoʻllanilishi, shevaga xos soʻzlar, ularning xususiyatlarini tadqiq qiladi. “Zoolog” matnda mavjud boʻlgan hayvonlarning oʻziga xos jihatlari tadqiqini amalga oshiradi.

“Botanik” asarda tasvirlangan o‘simliklar ustida tadqiqot olib boradi va hk.

O‘quvchilar hayotiy tajribalari va darslarda o‘zlashtirgan bilimlariga tayangan holda o‘z fikrlarini aytadilar, xulosalarini asoslaydilar. Bu kabi didaktik o‘yinli darslarda hamma o‘quvchilar hamkorlikda ishlaydilar, avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llab yangi bilimlarni egallaydilar. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchi ruhiyatida bilimi va iqtidoriga ishonch uyg‘otadi, har bir o‘quvchini mas’uliyatga undaydi, javobgarlik hissini shakllantiradi.

O‘qish darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanilganda darsning maqsadi, vazifalari, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tizimini aniq rejalashtirib olish talab qilinadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan o‘quv-biluv xarakteridagi topshiriqlar ko‘magida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish yo‘llarini aniq bilish va oldindan loyihalashtirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarni didaktik o‘yinning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish, o‘yin taqozo etadigan vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash, o‘quvchilarga aniq yo‘llanma, ko‘rsatmalar berish uning samarali natijasini ta‘minlaydi. Didaktik o‘yin asosiga qurilgan o‘quv-biluv xarakteridagi muammolarni hal etishda o‘quvchilardagi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlari shakllanadi, asta-cekinlik bilan qat‘iylasha boradi.

Boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan adabiy darslarda o‘quvchilarni ijodga undovchi didaktik o‘yinlarning turlari juda ko‘p. Masalan, 3-sinf “O‘qish kitobi” darsligidan o‘rin olgan “Donishmand yigit”<sup>39</sup> ertagi matni o‘rganilganidan bir oz vaqt o‘tgach uning nomini aytmasdan o‘quvchilarga asardagi beshta tanish so‘z va iboralar: “to‘ng‘ich o‘g‘il”, “o‘rtancha o‘g‘il”, “kenja o‘g‘il”, “do‘stlar”, “uyalar” hamda begona oltinchi so‘z “vertolyot” ko‘magida yangi ertak tuzish vazifasini topshirish mumkin. Yoki 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligidan o‘rin olgan “Ochko‘z boy” ertagi<sup>40</sup> matnidan olingan “o‘tinchi chol”, “o‘rdak”, “savobi tegar”, “ochko‘z boy”, “tarvuz

---

39 O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. /M. Umarova, X. Hamroqulova, R. Tojiboyeva.–T.: „O‘qituvchi“ NMIU, 2016. – 28 – 29-b.

40 O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sin uchun darslik. /S. Matchonov va bq. – T.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. – 53 – 55-b.

urug‘i” va oltinchisi begona so‘z “uchar gilam” ko‘magida yangi asar yaratishga undash mumkin. O‘qituvchi bunday o‘yin-topshiriqlar yordamida shakllanayotgan shaxsning yangi narsaga munosabatini o‘rganadi, o‘quvchi shaxsida tanish so‘z va iboralardan o‘rinli foydalanib yangi badiiy matn yaratish qobiliyatini shakllantiradi. O‘quvchi ijodkorlikka yo‘naltiriladi.

O‘quvchilardan tugagan ertakni davom ettirishni talab qilish ham didaktik o‘yinlarning bir turidir. Masalan, “Qimmat bilan uning onasini ajdar eb ketdi. Zumrad otasi bilan hayotini davom ettiryapti. Xo‘sh, uning hayoti qanday davom etishi mumkin?” Ertak qahramonlarining keyingi hayotini tasavvur qilishga qaratilgan bunday o‘yin tarzidagi didaktik topshiriqlar o‘quvchilar uchun o‘ta foydali ijod turi hisoblanadi.

Ertak qahramonlari xarakterini o‘zgartirish bilan bog‘liq didaktik o‘yinlar ham bolalarni ham aqlan, ham ruhan yoqimli zo‘riqishga undaydi. Masalan: Zumrad bilan cholni salbiy, Qimmat bilan o‘gay onani ijobiy obraz sifatida tasavvur qilib yangi asar yaratishni talab qilish ham o‘quvchilarni ziyraklika o‘rgatadi. Ertaklar, ularni kim to‘qishidan qat‘i nazar, ko‘pincha inson mantiqiy fikri emas, xayolotining mahsuli bo‘ladi. Bolalarning esa fantaziyasi o‘ta kuchli. Bundan boshlang‘ich adabiy ta‘limni oqilona tashkil etishda foydalana bilish kerak, xolos.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida: tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratish, ya‘ni o‘sha qahramonlar ishtirokida boshqa ertak to‘qish; mavjud qahramonlarning nomlarini almashtirib yangi matn yaratish; xotira bilan o‘ynash – badiiy matnlardagi kalit so‘zlar va hodisalarni eslash va ular ko‘magida yangi asar yaratish; sinfda hikoyachi rolini bajarish – o‘ylab topilgan voqealarni aytib berish; ko‘zlarini yumib tush ko‘rish va ko‘rgan “tush”ini gapirib berish singari didaktik o‘yinlar ham mazkur bosqich adabiy ta‘limining maqsadiga muvofiq keladi.

Bunday ertak to‘qish, hikoyachi o‘rnini egallash singari mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilarning ijodini, u qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, yozib borishi katta samara beradi. Bola ustozining biror narsani o‘zgartirib yozmaganligi, tushirib qoldirmaganini nazorat qiladi. Bu unga o‘z so‘zi, yaratig‘i e‘tiborsiz qolmaganini anglatadi. Bolalarning yaratishlarini ota-onalar



majlislarida o‘qib berish, bu jarayonga kattalarni ham jalb etish o‘quvchilarning adabiy savodxonligi ortishi garovi hamdir.

Bulardan tashqari, darstaxtaga birini ko‘rsatib, ikkinchisini ko‘rsatmay ikki so‘z yozish yoki suratlar qo‘yish va shu so‘zu suratlar asosida hikoya tuzishni talab qiluvchi **“Topqirlar”** o‘yinidir. O‘qituvchi o‘qish darslarini samarali tashkil etish uchun bu o‘yindan foydalanganda o‘quvchilardan: yorug‘lik-(qalam), shkaf-(it), yomg‘ir-(mushuk), jo‘ja-(kalxat), shar-(qizcha) va hk. so‘z yoki suratlar juftligi ishtirokida hikoya tuzishni talab qiladi. Bunday topshiriqni olgan yosh ijodkorlar so‘zlar juftligidagi ikkinchi (qavs ichidagi) so‘z yoki suratning nimaligini bilmaydilar. O‘quvchilar shu yashirin so‘zni qidirib dunyo-dunyo voqealarni aytib yuborganliklarini o‘zlari ham sezmay qoladilar. Kimning ertagida mana shu ikkinchi yashirin so‘z ham ishtirok etgan bo‘lsa, o‘qituvchi belgilab boradi va o‘yinning oxirida buni yuzaga chiqaradi. Bu o‘yindan maqsad berkitilgan so‘zni topish emas, bolalarni ijodga, uning uchun o‘ta foydali bo‘lgan mashg‘ulotga undashdan iboratdir.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limda o‘quvchilarni xayolparastlikka yo‘naltiruvchi didaktik o‘yinlardan biri **“Siz nima qilgan bo‘lardingiz?”** ijodiy o‘yinidir. Unda o‘qituvchi o‘quvchilarga: “dunyoda pul bo‘lmasa; dunyoni pul bosib ketsa; Toshkent boshqa planetaga tushib qolsa; dinovavr bilan to‘qnashib qolsangiz; suv osti shaharchasiga tushib qolsangiz; parilar mamlakatiga borib qolsangiz; sehrGAR bo‘lib qolsangiz; maktab direktori bo‘lib qolsangiz; prezident bo‘lib qolsangiz nima qilgan bo‘lardingiz?” va hokazo g‘ayrioddiy, xayolparastlikka undaydigan savollar bilan murojaat qiladi va bolalarni ijodga, yangi badiiy matn yaratishga yo‘naltiradi.

Boshlang‘ich adabiy ta‘lim amaliyotini maqsadga muvofiq tashkil etishda o‘qituvchining biror ertak mazmunini o‘zgartirib qayta aytib berishni tashkil eta bilishi ham ancha jiddiy didaktik o‘yin hisoblanadi. Bu o‘yinda minbar o‘qituvchiniki bo‘ladi. Faqat buning uchun o‘qituvchidan avval zarur vaziyat, ijodiy muhitni yaratib olish talab qilinadi. Ma‘lumki, bolalar tabiatan ertaklar aslining tarafdori bo‘ladilar. Ular ertaklarning ayni o‘sha birinchi marta eshitgan so‘zlar bilan aytilishni istaydilar. O‘sha tanish so‘zlarni, ular dastlabki holatida eslab qolgan iboralarni, o‘sha hayajonni qaytadan tuyish, voqea-hodisalar rivojidan qayta hayratlanish, shodlanish ularga xush

yoqadi.

Psixologlarning aytishicha, har qanday bola dunyoning o'zi o'zlashtirib olgan holatidan tez-tez o'zgarib turishini xushlamaydi. Uning boshqacha yo'nalishga qo'yilishi, ya'ni tanish ertakni o'zgacharoq shaklda eshitish bolaga yoqmaydi. U tinimsiz ravishda so'zlarni tuzatishga, ertakchiga voqealarning aslini eslatishga urinadi. Bu jarayon o'quvchini o'ylantiradi, bezovta qiladi, ziyraklantiradi, izlantiradi, xushyorlikka undaydi, aqli va xotirasini peshlaydi. Bola o'sha lazzat, hayajon, qo'rquvni qayta his qilgisi keladi. O'sha tuyg'ularni qidiradi. Agar u ertakning o'zgargan holati bilan kelishgan taqdirda ham, undagi o'zgarishlar bolani yangi tuyg'ularni his qilishga majbur qiladi. Ular endi ertak bilan emas, o'z-o'zlari bilan o'ynaydilar. O'zlariga javobgarlikni oladilar. Bu hol bolani yomon kuchlardan qo'rqmaslikka, yaxshiliklardan zavqlanishga, go'zallikdan hayratlanishga o'rgatadi. Umuman, bolaning qahramonlarga munosabatida o'zgarish bo'ladi.

Bunday yangilangan ertaklar ko'magida o'quvchilar haqiqiy hayot bilan o'ylab topilgan hodisalar orasidagi farqni anglab boradilar. Bu didaktik o'yinning ikkinchi jihati shundaki, ular yangi ertakni o'zlaricha tahlil qiladilar. Uning dastlabki varianti bilan yangisini taqqoslaydilar. Bir vaqtning o'zida ertakning har ikkala shakliga o'ziga yarasha munosabat bildiradilar. O'qituvchi o'quvchisi xayolidagi mana shu munosabatni, tahlilni, taqqoslashni so'zga aylantira olishi, yuzaga – tilga chiqara bilishi kerak. Uning o'qituvchilik vazifasi mana shuni taqozo qiladi. Bu ijodkorlikning yozma ko'rinishi keyinchalik insholarda o'z aksini topadi.

Ertak to'qish bolaga inson uchun o'ta zarur bo'lgan ko'p haqiqatlarni taqdim etadigan vositadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ertak eshitishga, aytishga, o'ylab topilgan har xil hodisalarni tizimli hikoya qilishga o'rgatish adabiy ta'limning keyingi bosqichlarida katta samara beradi. Masalan, bolalar bilan “**Ertakchi bobo (momo)**” didaktik o'yinini tashil qilish mumkin. Odatda, bolalar nazarida, bobo-buvilari ertaklar xazinasiga o'xshaydi. O'qituvchi bolakaylarga ertakchi bolani bobo yoki buvi kiyimida ko'rish kuchliroq ta'sir qilishini yaxshi biladi. O'qish darslarida tashkil etilgan bunday didaktik o'yinlarda bolalar navbat bilan ertakchi momo yoki bobo kiyimida o'rtoqlariga o'zlari o'ylab topgan

voqealarni, eshitgan yoki to‘qigan ertaklarini hikoya qiladilar. O‘zining o‘rtog‘i, tengdoshi aytayotgan ertak, u to‘qigan hikoya atrofdagilarga ham qiziqarli bo‘ladi. O‘qituvchi esa “ertakchi”ning “asar”ini so‘zma-so‘z yozib borishi kerak. Bu narsa o‘quvchilarni ertak to‘qishga jiddiy yondashishga, ertagini qiziqarli qilish uchun harakatga undaydi. O‘qituvchi bolalarga to‘qilajak ertak mavzularini tavsiya qilishi ham mumkin. O‘quvchilarning yaratishlarini sinfdagi “Ijodkorlar burchagi”ga yopishtirib qo‘yish, uni ota-onalarga ham ko‘rsatib turish o‘quvchilarda faxr hissini shakllantiradi. Bu tuyg‘u uni ruhiy kamolot sari etaklashi tayin.

O‘qish darslarini adabiy ta’limning maqsadiga muvofiq tarzda tashkil etishda o‘quvchilarga “assalomu alaykum”, “rahmat”, “marhamat”, “iltimos”, “kechirasiz” singari “sehrli” so‘zlar ko‘magida ertaklar yaratish bilan bog‘liq topshiriqlarni berishi ham kutilgan natijani ta’minlaydi. Albatta, bolalar aytgan ertaklarda chuqur ma’no, puxta mantiq bo‘lmasligi tabiiy. Bu yoshda ma’no-mantiq muhim emas. Eng muhimi – jarayon. O‘quvchi bu jarayonda mustaqil ravishda o‘ylanadi, izlanadi. Aqlini, xotirasini o‘z ixtiyori bilan zo‘riqtiradi. Chunki bu o‘yin uning uchun qiziq, unga yoqadi. Odamning ruhiyatiga yoqimli bo‘lgan har qanday narsa o‘zi uchun foydalidir.

Boshlang‘ich adabiy ta’limni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishda o‘qituvchining ertak qahramonlari o‘rniga bolalarning o‘zlari, ularning ota-onalari va qarindoshlari nomini qo‘yib aytib berishi ham o‘quvchilarda shaxslik belgilarining paydo bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ertak qahramonlari o‘rnida ajdar bilan olishish, dushmanlarga qarshi kurashish, o‘g‘rilarni engish, zaiflarni himoya qilish uning ruhiyatiga o‘ziga ishonch hissini soladi. Ichidagi tushunarsiz va sirli qo‘rquvni engishga ko‘maklashadi. Faqat hammasi real bo‘lishi, rostakam, jiddiy ifodalanishi kerak. Voqealar markazida esa real bola bo‘lishi kerak. Shunda o‘quvchilarning ayrimlari o‘zlarini qorong‘ilik yoki hayvonlardan qo‘rqmaydigandek his qiladilar. Bu bilan o‘qituvchi o‘quvchilarning hayotdagi o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashgan bo‘ladi. O‘zini voqealar markazida tasavvur qilish o‘quvchiga o‘zligini anglash uchun yordam beradi. Faqat o‘qituvchi bu o‘yinga jiddiy tayyorgarlik ko‘rishi, har bir

ertakka sinfdagi bir bolani qahramon qilib kiritishi va ertakning matnini oldindan tayyyorlab qo'yishi kerak bo'ladi.

Odatda bolalar o'z imkoniyatlaridan baland masalalarni hal etishni xush ko'radilar. Qo'llaridan kelmaydigan ishlarni qilishga tirishadilar. O'qituvchi o'quvchilariga xos bo'lgan mana shu tabiiy xususiyatdan ularning o'zlari uchun oqilona foydalana bilishi shart. Chunki ta'lim jarayonidagi har qanday tarbiya boladagi tabiiylik bilan uyg'un bo'lgandagina unga "yuqadi". "Bu bolaga og'irlik qiladi" degan qarashni birinchi planga chiqarmaslik kerak. Ayni zamonda, beriladigan topshiriq o'quvchining intellektual imkoniyatlaridan o'ta baland bo'lishi ham mumkin emas. Bu uning shashtini qaytarib qo'yishi mumkin. Topshiriq shunday tanlanishi kerakki, o'quvchi bir oz qiynalib, izlanib, aqli, xotirasini zo'riqtirib, vazifani bajarsin. Bolalarni bunday ishlata bilish o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Shu bilan birga, didaktik o'yinlar jarayonida o'yin qoidasidan tashqari taqiqlar bo'lmasligi kerak. Ijod paytida, ertakchilik minutlarida hamma xohlaganday o'tirsin. Kim eshitadi, kim eshitmaydi, buning ham unchalik ahamiyati yo'q. Bordiyu, tanbeh berilsa ham uni o'qituvchi emas, o'quvchilarning o'zlari qilganlari ma'qul.

Bundan tashqari, o'qish darslarida bir necha kishi bo'lib "O'qish kitobi" darsligidan o'rin olgan biror badiiy asardagi ma'lum narsa-hodisa va timsollar rasmini chizish ham o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar ixtiyoriy ravishda 3 – 4 kishilik guruhlariga bo'linishadi. Rasmni biri boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi – ularning har biri rasmni o'z tasavvuri bilan davom ettiradi. Chizgilar biri birini to'ldirishi ham, uchinchisi rasmga butunlay boshqa, begona narsani yopishtirishi ham mumkin. Natijada tushunarsiz bir shakl paydo bo'ladi. Oxirida bu chizilgan "yaratiq"ni o'qish, ya'ni tasvirni ta'riflab, sharhlab berish so'raladi. Har bir bola o'zidan oldin chizilgan narsani qanday tasavvur qilgani va o'zi qo'shgan tasvir nimani ifodalashini aytib beradi. Shu tariqa ma'nosiz narsadan mantiq sari boriladi. Bolalar bir-birlarining suratlarini ko'rib kulishari, undan mantiq topishga intilishari, nom qo'yishga tirishishlari mumkin. Bu jarayonda kechilgan tuyg'ular samimiy va tabiiydir. O'qituvchining vazifasi o'qish darslarida o'quvchilarni shunday holatlarga sola bilishdan iborat. Bolalar bu didaktik

o‘yinning havosini bir qadar olganlaridan keyin o‘ylab chiza boshlashadi.

O‘quvchilar tabiatan ertaklarning qahramoni bo‘lishni, hech qursa, ertakda nomi tilga olinishini juda-juda xush ko‘rishadi. Ertak aytish jarayonida asardagi geografik nomlarni bolalarga tanish joylar bilan o‘zgartirish ham ularning diqqatini o‘ziga tortadi. Bolaning qiziqish va e‘tiborini kuchaytiradi, unga tegishli nom bolaning ruhiy shakllanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Mana shu tanish narsa yoki hodisa bola o‘qiyotganda, biror kino yoki sahna asarini ko‘rayotganda ham alohida vazifani bajaradi. Bu jarayon «men»ning shakllanishiga, farzandlik burchi, vatan tuyg‘usi, daxldorlik hissi singari insoniy fazilatlar rivojlanishiga bevosita o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bolalikda kattalar shaxsiyatidagi insoniy sifat-fazilatlar hech qanday zo‘riqishlarsiz ular tomonidan aytilayotgan hikoya yoki ertakning ifoda ohangi, aytuvchining munosabatlaridan tabiiy ravishda bola ruhiyatiga o‘tadi, o‘rnashadi. Bu jarayonga hech qanday tashqi kuch aralashmaydi.

Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limi ham mana shu tabiiylikka hamohang ravishda oqilona tashkil etilishi, o‘qituvchidagi otalik, onalik mehri, insonlik sifatleri uning xatti-harakatlarida, gap-so‘zida aks etib turishi kerak. O‘quvchilar o‘qituvchilarning har bir narsa-hodisaga, o‘zlariga munosabatdagi qirralarni, ustozga xos samimiylikni, rostlikni ichki bir tuyg‘u bilan ilg‘ab oladilar. Ular o‘zlari anglamagan holda katta psixolog. Shunga tayanib o‘qituvchilariga o‘z munosabatini bildiradilar. Qaysidir o‘qituvchini hurmat qiladilar, kimnidir o‘z idealiga aylantiradilar, qay biriga laqab qo‘yadilar yoki ortidan mazax qiladilar va hk. Ularda bu jarayon faqat aql bilan boshqarilmaydi. Bu ma‘lum darajada aqlning, asosan, tuyg‘uning, hissiyotning ishi. Hech bir o‘qituvchisi buni unutmasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limini samarali va maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishda didaktik o‘yinlarning ham ahamiyati beqiyosdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining bu bilimlardan xabardor bo‘lishi nafaqat uning yutug‘i, balki millat va mamlakat kelajagi taqdirini belgilash garovi hamdir.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O‘qiganlaringiz asosida didaktik o‘yinlar bilan ijodiy o‘yinlar orasidagi tafovutni aniqlang. Har ikkisiga tegishli xulosalaringizni biror badiiy asar misolida isbotlang. Bolalarga xos bo‘lgan ijodiy va didaktik o‘yinlarni sanang.

2. O‘qish darslarini didaktik o‘yinlardan foydalangan holda tashkil etish uchun amalga oshiriladigan ishlar sirasida “*rollar va vazifalarni o‘quvchilar o‘rtasida oqilona taqsimlash*” degan tushuncha mavjud. Sizningcha, bu muhim ishni qanday mezonlarga tayangan holda amalga oshirish boshlang‘ich adabiy ta’limning maqsadiga muvofiq bo‘ladi? Fikringizni asoslang.

3. Yuqoridagi o‘qish darslarida foydalanish uchun tavsiya etilgan didaktik o‘yinlarning har biridan o‘qituvchining ustozlik mahorati bilan bog‘liq fikrlarni ko‘chirib yozing. Bu o‘yinlarni qanday tashkil etish mumkinligini tasavvur qiling. Ulardan amalda foydalanish yo‘llarini tavsiya eting.

4. Bolalarning o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘ring: biror ertakning mazmunini o‘zgartirib yangi ertak yarating; ertak qahramonlari xarakterini o‘zgartirib o‘zgacha bir asar biting; biror ertakdagi tanish so‘zlar va bitta begona so‘z ko‘magida ijod qiling. Ijodingiz mahsulini asrab qo‘ying. Amaliy faoliyatingizda asqotishi mumkin.

5. “O‘qish kitobi” darsliklaridan o‘rin olgan ertaklarning kitobdagidan tashqari ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi hatto beshinchi tugashini o‘ylab toping. Yaratilganingiz dars o‘tish faoliyatingizda foyda keltirishi aniq.

6. Kursdoshlar birgalashib “O‘qish kitobi” darsligidagi birorta asar mazmuni yuzasidan birgalikda rasm chizing. Chizilgan rasmni birgalikda o‘qing.

7. “Sehri” so‘zlar ko‘magida badiiy matn yarating. Unga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nazari bilan yondashing.

8. Narsa va hodisalarning xususiyatlari asosida kichik she’r va hikoyachalar yarating. Ularni bir-biringizga taqrizga bering, birgalikda muhokamaga torting. Shu tariqa yaratish mashaqqatini tuyasiz, ertangi o‘quvchilaringizni ham his qilasiz. Bularning barchasi sizni pedagogik hayotga tayyorlaydi.

9. “Adabiyot mening taqdirimda” mavzusida insho yozing. Tekshirish uchun ishingizni bir-biringizga bering. Xato va

kamchiliklarini darsda o'qituvchingiz bilan birgalikda muhokamaga torting, birgalashib ishleng.

## **8-mavzu. O'qitish metodlari va boshlang'ich adabiy ta'limda ulardan foydalanish**

### **Reja:**

1. Ta'lim metodlari va ularning yetakchi xususiyatlari
2. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida metodlar
3. Badiiy matn tahlili namunasi: Anvar Obidjon qalamiga mansub "Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak" asari.

**Tayanch so'zlar:** *suhbat metodi, evristik metod, taqqoslash metodi, induktiv va deduktiv metodlar, fikriy hujum, 6x6" metodi.*

Ta'lim metodlari va ularning har biriga xos bo'lgan yetakchi xususiyatlar bilan "Umumiy pedagogika" kursida batafsil tanishiladi. Shu bois mazkur darslikda, talabalarni takrorlardan qo'rg'ash maqsadida faqat boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan mantiqiy metodlar va ulardan foydalanish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilar ma'naviyati sog'lomlashuviga xizmat qiladigan mantiqiy – suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv metodlar bilan birga "fikriy hujum", "6x6" nomli interfaol metodlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich adabiy ta'limni to'g'ri tashkil etish bu jarayonning o'quvchilar ishtirokida o'qituvchi tomonidan emas, balki o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'qituvchi ishtirokida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu asosga qurilgan zamonaviy **suhbat metodi** o'quvchi ma'naviyatini sog'lomlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni o'zlashtirish, mantiqiy va mustaqil tafakkurini ta'minlashda qo'l keladigan metodlardan biridir. A. Tojievning "Adabiyot darslarida suhbat" kitobida bu metodning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan<sup>41</sup>.

O'qish darslaridagi suhbatlarda ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z fikrlarini muhokama qiladi, qarashlarini so'z bilan ifodalashga tayyorlanadi. U fikrning aniq va muayyan maqsadga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Suhbat jarayonida o'quvchida o'z fikrini

---

41 Тожиев А. Адабиёт дарсларида суҳбат. –Т.: «Ўқитувчи», 1997.

aytish, uning to'g'riligiga hamsuhbatlarini ishontirish ehtiyoji tug'iladi. O'quvchini o'z fikrini isbotlash uchun asar matnidan dalillar topa bilish, misollar keltirish ko'nikmasini egallashga yo'naltirish, uni e'tiroz bildirishga, qarshi fikrlar ayta olishga odatlantira borish suhbat metodining talablaridan biridir. Bu metod kichik o'quvchilarni hamsuhbatni eshitish, munozarada ishtirok etishga o'rgatadi, o'z bilimni chuqurlashtirishga ehtiyoj paydo qiladi, qiziqishlari doirasini kengaytiradi.

“O'qish kitobi” darsliklaridan o'rin olgan adabiy asarlar tahliliga yo'naltirilgan suhbatlar o'quvchiga nafaqat bilimlar beradi yoki tarbiyalaydi, balki uni aqliy faoliyatga ham yo'naltiradi. To'g'ri tashkil etilgan suhbatlar xotirani, kuzatuvchanlikni, tasavvur va hissiyotni faollashtirishga sharoit yaratadi. Oqilona tashkil etilgan suhbatlar davomida har bir o'quvchining individual jihati namoyon bo'ladi. O'qish darslarida tashkil etilgan bunday suhbatlarda bitta masala bo'yicha bir nechta o'quvchi, ba'zan butun sinf fikr aytishi mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi barcha o'quvchilarning faoliyatini kuzatib boradi, suhbatni maqsad sari yo'naltiradi, bu bilan o'quvchilarning o'zlari ishlashlari uchun sharoit yaratadi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishda qo'llaniladigan suhbat metodining asosiy talablaridan biri – savollarning shakl tomonidan ham, mazmun jihatidan ham har xil bo'lishi. Kichik o'quvchiga bir xil narsa bilan uzoq shug'ullanish o'ta salbiy ta'sir qiladi. Suhbat uchun savollar tayyorlayotganda o'qituvchi o'quvchilarni o'ylantiradigan, mustaqil ravishda mulohaza yuritishga undaydigan jihatlar yetakchilik qilishini, sinfdagi barcha o'quvchilarning rivojlanganlik darajasini nazardan qochirmasligi lozim bo'ladi. Bundan tashqari, suhbat uchun tuzilgan savollar o'quvchi ruhiy faoliyatining xilma-xilligini ham ta'minlashi kerak. O'quvchining savolga javob berish uchun o'ylanishi, eslashi, tasavvur qilishi, izlanishi unda shaxslik sifatleri shakllanishida juda foydalidir. Suhbat uchun tuzilgan savollar orasida o'zaro kuchli mantiqiy aloqa bo'lishi kerak. Savol ko'magida asardan o'quvchi tomonidan kashf qilingan mantiq bilan asar muallifi fikrlari murakkab yaxlitlikni tashkil etishiga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich adabiy ta'limda tashkil etilgan suhbatlar davomida kichik o'quvchi asar haqidagi dalillarni aniq bilgandagina o'z



qarashlarini aytishi mumkin. Lekin ko‘pincha, bunday vaziyatlarda bilimning, dalilning o‘zi kamlik qiladi. O‘quvchi asarni o‘qituvchisi ko‘magida mustaqil tahlil qila bilishi, xulosalar chiqara olishi kerak bo‘ladi. Asar matni yuzasidan izlanishga undaydigan savol-topshiriqlar ham shunga qaratilishi lozim. Yaxshi savol ahamiyatli, keng qamrovli, o‘ylashga, his qilishga, izlanishga majbur etadigan, kashfiyotlar qiladigan, tasavvur uyg‘otadigan bo‘ladi. Jaloliddin Rumiylarning hazratlari: “Yaxshi savol yarim bilimdir”,- deb bejiz aytmagan.

Quyi sinflar adabiy ta‘limida tashkil etiladigan suhbatlarda bilim berish ustuvorlik qilmaydi. Balki kichik o‘quvchilarda olingan bilimlar, o‘zlashtirilgan fazilatlarni mustahkamlash, munosabat bildirish, tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalash, uni asoslash, o‘z fikrida tura bilish xususiyatlari tarbiyalanadi. O‘qituvchidan birinchi savoldan keyin o‘quvchilar kayfiyatini ilg‘ab olish, savol tushunarli bo‘lganini his qilgan holda suhbatni yangi-yangi yo‘nalishlarga burish talab qilinadi. Suhbat metodi asosida tashkil qilingan darsning ichki tartibi shu tariqa yaratiladi.

Badiiy bitiklar tahliliga qaratilgan suhbatni muvaffaqiyatli tashkil etishning shartlaridan yana biri – o‘quvchilarning javoblariga e‘tibor va hurmat bilan yondashishdir. Javob berayotgan o‘quvchining fikrlari ba‘zan chalkashib ketishi yoki noaniq bo‘lishi tabiiy. O‘qituvchining vazifasi uni butun sinfga tushunarli qilib aytib berish emas. Bu adabiy ta‘lim metodikasida mutlaqo noto‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. O‘quvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini qiynalib, izlanib, munosib so‘zlarni topib, o‘zi ifodalashi kerak. Uni boshidan shunga o‘rgatish lozim. O‘quvchining fikrini aytishga o‘rinsiz ko‘maklashish uni o‘ylamaslikka o‘rgatib qo‘yadi. Agar yordam berish kerak bo‘lsa, qo‘shimcha savollar bilan o‘quvchining o‘z fikrini aniqroq ifodalashiga ko‘maklashish mumkin.

O‘qish darslarida tashkil etilgan suhbat jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari samaradorligi nafaqat savolning to‘g‘ri qo‘yilishi, balki o‘qituvchining har xil xarakterdagi javoblar orasida o‘zini yo‘qotmay suhbatni boshqara bilishiga ham bog‘liq. Yaxshi tashkil qilingan suhbatlarda o‘qituvchi-o‘quvchilar fikr va qarashlari bilan hisoblashadigan teng huquqli suhbatdoshlarga aylanadilar. O‘qituvchi o‘quvchi javoblaridagi silliqlikni birinchi o‘ringa

ko'tarmasligi kerak. O'qituvchining o'quvchi javoblarini muntazam ravishda tuzatib, to'ldirib borishi ham noto'g'ri. Albatta, o'quvchining xulosasi o'qituvchining fikridek to'kis bo'lmaydi. U to'mtoq, jo'n, jaydari, tarqoq bo'lsa ham adabiy ta'lim amaliyoti uchun olimnikidan qadrliroq, o'qituvchinikidan qimmatliroqdir. Chunki o'quvchi hech kimni – muallifni ham, muallimni ham takrorlayotgani yo'q. Bu o'quvchining o'z mustaqil fikri, o'z xulosasi. O'qituvchining vazifasi o'quvchining fikr ifodalashida mantiq, madaniyat va bilimni ta'minlash, boshqalarning fikriga munosabatda aytganlari uchun javob bera olish hissini tarbiyalashdan iboratdir.

Boshlang'ich adabiy ta'limga olib kirilayotgan zamonaviy suhbatlar – bu ovoz chiqarib mulohaza yuritish, bir savol atorfida birgalikda o'ylash, ovoz chiqarib his etishdir. O'quvchilar hamisha ham tuyg'ularini so'z vositasida ochiq ifodalayvermaydilar. Asl tuyg'ularning tabiati shunaqa, ularni hamisha ham so'zga ko'chirib bo'lmaydi. Tortishuvlar uchun vaziyat yaratish suhbat jarayonida o'quvchilarni faollashtirishning muhim shartlaridan biridir.

Badiiy matnlar mazmuni yuzasidan tashkil etiladigan suhbat jarayonida o'qituvchining diqqati faqat bir nechta o'quvchiga qaratilib qolsa, jamoa suhbatlari buziladi. Qolgan o'quvchilar tezgina "tinglovchi"lik mavqeiga o'tib oladilar. Sinfda "suhbatda faqat a'lochi o'quvchilar qatnashadi" degan qarash shakllanib qoladi. Chinakam suhbat o'qituvchi savol berib, birinchi bo'lib javob bergan o'quvchining fikri bilan chegaralanib qolmay, boshqa o'quvchilarning mulohazalari bilan ham qiziqish, barcha o'quvchilarning fikrlarini eshitib bo'lgachgina javoblar sifatini baholash bo'lgan joyda amalga oshadi. Suhbatlarda o'quvchilar o'zlarini teng huquqli suhbatdoshlar darajasida his qilgandagina boshlang'ich adabiy ta'limning maqsadiga erishish mumkin bo'ladi. Suhbatdagi tenglik, shu bilan birga undagi tabiiylik, samimiylilik, erkinlikni o'qituvchi tashkil etadi. Matndagi muhimlarni anglashga yo'naltirilgan umumiy savol ba'zan ayrim yo'naltiruvchi qo'shimcha savollarni ham taqozo etadi. Buni o'qituvchi vaziyatga qarab ilg'ab olishi va yo'naltiruvchi qo'shimcha savollarni tashkil eta bilishi lozim bo'ladi.

Asarlar tahliliga bag'ishlangan suhbatlarning yakunlangani savolning kun tartibidan tushib qolishi degani emas. Aksincha, o'qituvchi tomonidan yaxshi tashkil qilingan suhbatning yakunlanishi

sinfda muhokama qilinadigan yangi-yangi savollarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Suhbat o'zining tabiiy kuchi, samimiy insoniy muloqotga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarini adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq tashkil etishda suhbat metodini qo'llash o'quvchi tafakkuri va bilim olishdagi mustaqilligining nisbatan baland darajasini ta'minlashi lozim. Mazkur metodda o'qituvchining vazifasi o'zlashtirilgan axborotlarni yodga soladigan, ma'lum maqsadga xizmat qiladigan, ayni zamonda qiziqarli, bilimlarni yangi vaziyatga muvofiqlashtirish va qayta ishlashga yo'llaydigan, xulosa chiqarishga undaydigan, chiqarilgan xulosalarni asoslashni talab qiladigan tarzda savol va topshiriqlarni tuzishdan iborat. O'quvchining faoliyati esa vaziyatni tahlil etish, o'zlashtirilgan axborotlarni yodga soladigan savollarni qayd etish, ularga javob izlash, javob berish, yarim mustaqil va mustaqil xulosalar chiqarish, fikrlarini asoslashdan iborat bo'ladi.

“O'qish kitobi” darsliklaridan o'rin olgan badiiy matnlarni o'rganishda qo'llanadigan suhbat metodi nafaqat o'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan, balki o'quvchilarning o'zaro dialogik hamkorligini ham nazarda tutadi. Bu metodning mohiyati o'qituvchi tomonidan o'quv materialidagi yetakchi, o'quvchi ko'nglidan o'tsa u erda o'zidan ijobiy iz qoldirishi mumkin bo'lgan qarashlarni qiziqarli tarzda savol yoki topshiriqqa aylantira bilish, o'quvchilarni javob topish yo'llarini izlashga, bilim va ma'naviy sifatlar, xulosa, qonuniyat va qoidalarning bolalar tomonidan qayta kashf etilishiga, tarbiyalanuvchilarini yaratish lazzatini tuyishga jalb qilishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchi ma'naviyatini tozartirishga xizmat qiladigan metodlardan yana biri **evristik metod**dir. Bu metodning nomi yunoncha *izlayman*, *topaman* degan ma'nolarni anglatadigan “*heurisko*” so'zidan olingan bo'lib, mahsuldor ijodiy fikrlash jarayonini, hayotiy va badiiy haqiqatlarni o'quvchilar mustaqil kashf etishlarini tashkil qila bilishni nazarda tutadi. Kichik o'quvchilar ma'naviy kamolotini ta'minlashda qo'l keladigan evristik metod tarbiyalanuvchilarning oldiga yo'naltiruvchi masalalar qo'yish, tekshirish, hal etish, aks savollar vositasida o'qitish usuli hisoblanadi. O'qish darslarida evristik metoddan foydalanganda

o'qituvchi o'quv materialining suhbat metodida foydalangan tizimini to'liq qo'llashi mumkin. Faqat uning tarkibi qo'shimcha bilim olishga yo'naltiradigan savollar bilan to'ldiriladi.

Evristik metod suhbat metodida bo'lgan barcha usullarning birgalikda qo'llanilishini taqozo etadi. Bu metodda yetakchilik qiladigan savol va topshiriqlar qo'zg'otuvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday asosdagi suhbat tizimi jarayonni kuzatish, savollarga javob berish, ma'lumot olish, topshiriqni bajarish, xulosa chiqarish va xulosalarni taqqoslash yo'lga qo'yilganda o'quvchilarning fikrlash hamda bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmasi rivojlanib boradi. O'quvchilar taqqoslash, tahlil qilish, dalillar keltirish bilan birga ma'lum umumlashmalar qiladilar, farazlarni ilgari suradilar, zarur ashyolar, materiallar to'playdilar, xulosalar chiqaradilar, o'z faoliyatini rejalashtiradilar. Bu o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishdagi faolligini oshiradi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda evristik metoddan foydalanib belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilardan xabardorlikni talab qiluvchi savol va topshiriqlar qo'yishi;
- taqqoslab o'zlashtirish uchun materiallar taqdim etishi;
- belgilangan maqsadga yo'naltiruvchi farazlarni ilgari surishi;
- ularni tasdiqlovchi tajribalar qilishi;
- kuzatishga yo'naltirilgan savol va topshiriqlar berishi;
- badiiy asrning didaktik tahliliga yo'naltirishi;
- muammoli savol yoki topshiriqlar qo'yishi;
- savol va topshiriqlar ko'magida muammoli vaziyatlar hosil qilishi kerak bo'ladi.

Bu metodda tashkil qilingan o'qish darslarida o'quvchilarning faoliyati bilimlarni vaziyatga muvofiq qo'llash, taqqoslash, farazlarni ilgari surish va asoslash, kuzatish, farazning to'g'riligini tekshirish, tajriba tahlili, bilimlarni o'zgargan vaziyatlarda qo'llash, dalillar keltirish, umumlashtirish, mustaqil amaliy ishlar tahlilini amalga oshirish, muammoli masalani hal etish kabilarni o'z ichiga oladi.

Evristik metodda tashkil etilgan o'qish darslarida kichik o'quvchilarga taqdim etilgan savol, topshiriq va ko'rsatmalar ogohlantiruvchi xususiyat kasb etishi ham maqsadga muvofiqdir. Ya'ni bunday savol va topshiriqlarning bajarilishi oldindan mazkur

bosqichga moslab qo'yiladi yoki uning yechimi davomida o'rtaga tashlanadi. Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida qo'llanilgan evristik metod o'quvchilarda mustaqil mulohaza yuritish, muhokama qilish, xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan **tadqiqot metodi** ham o'quv jarayonida bir muncha qiyin bo'lgan badiiy va hayotiy masalalarni hal qishini nazarda tutadi. Bu metoddan boshlang'ich sinflarning yuqori bosqichida ta'limning samarali izlanish yo'llarini mustaqil ravishda tashkil etish maqsadida foydalaniladi. Bunda kichik o'quvchilar dalil to'plash va ularni tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish va qat'iy xulosalar chiqarish kabi amaliy ishlarni bajaradilar. Tadqiqot metodining evristik metoddan farqi shundaki, unda "kashfiyot" avvaldan ajratilgan materiallar tahlil qilinib, faktik materiallar umumlashtirilganidan so'ng, amaliy ish jarayonida o'quvchilarning o'zlari tomonidan sodir etiladi. Bunda o'quv-biluv faoliyatining to'liq turkumini o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'zlari bajaradilar. Ya'ni ma'lumot to'plashdan tortib, uni tahlil qilish va yangi bilimlarni amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan ishlarning barchasini o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan badiiy yoki hayotiy faktik materiallarni to'plash tadqiqot metodining zaruriy qismidir. Mustaqil ravishda tajribalar o'tkazish o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qituvchi o'quvchilar ixtiyoriga dalillarni topish, ularni taqqoslash, tizimga solish, umumlashtirishni topshirgani bilan uning muammolik darajasi kamaymaydi. Tadqiqot metodini qo'llashda topshiriqlarning o'quvchilar tomonidan bajarilishi muhim hisoblanadi. Topshiriqlarni bajarishda ularning biror bosqichi tushib qolsa, topshiriq o'z tadqiqiyiligini yo'qotadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning rivojlanganlik darajasi mustaqil ravishda tadqiqot ishlarini olib boradigan darajaga etganda, ya'ni yuqoriroq bosqichiga ko'tilganda tadqiqot metodidan foydalanish mumkin. Bunda o'quv materiali evristik metoddagiday tuzilishi kerak bo'ladi. Savollar, ko'rsatmalar, topshiriqlar tartibi ham shunday bo'ladi. Tadqiqot metodini qo'llaganda savol-topshiriqlar bosqichning so'ngida, o'quvchilarning ko'pchiligi muammoni hal qilib bo'lgandan keyin qo'yiladi. Bu kuchli o'quvchilar uchun mo'ljallangan metod

bo'lib, muammolarni hal etishda o'z-o'zini nazorat qilish va tekshirish usuli sanaladi. Rivojlanishi nisbatan sustroq bo'lgan o'quvchilarga ularning o'zlari darajasidagi topshiriqlar beriladi. Topshiriqlar har bir o'quvchining individual imkoniyatlariga qarab taqsimlanadi. Tadqiqot metodidan nafaqat yangi asarni o'rganish, balki uni mustahkamlash va badiiy tahlil bosqichida ham foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash uchun o'quv ishlarining asosiy usullarini tahlilga tortilgan matnni o'zlashtirish imkoniyatlari darajasiga qarab aniq belgilash zarur. O'qish darslarida tadqiqot metodidan foydalanilganda ham o'quvchi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida qo'llaniladigan tahlil, sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash, taqqoslash, birlashtirish, o'z farazlarini keltirish, isbotlash, rejalashtirish singari usullarni istifoda etish mumkin. Tahlil va sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash usuli boshlang'ich adabiy ta'limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijodiy jarayonda, bilmaslikdan bilishga o'tish yo'lidagi qiyinchiliklarga yo'liqqan o'quvchilarning analiz-sintez faoliyatida ruhiy holatning ahamiyati ko'zda tutilmog'i zarur.

Adabiy ta'limning dastlabki bosqichida o'quvchilarning ma'naviy sog'lomligini ta'minlash, ularga olam va odamga xos bo'lgan fazilatlarining mohiyatiga kirish sirlarini o'rgatishda ta'limning **taqqoslash metodi** qo'l keladi. Bu metoddan yangi bilim va tushunchalarni o'zlashtirishda keng foydalaniladi. Boshlang'ich adabiy ta'limda yangi o'zlashtiriladigan bilimlar va axloqiy sifatlarni avval o'zlashtirilganlari bilan taqqoslash usuli, o'z navbatida, yangi tushunchalarni mustaqil ravishda tadqiq qilishning bir ko'rinishidir. Taqqoslash metodi asosida kichik o'quvchilarda sinfdoshlarining isbot va dalillariga o'zlarining mantiqiy qarashlarini qarshi qo'yishga intilishlari yotadi.

Mavzularni taqqoslash asosida isbotlashning o'qituvchi tomonidan o'quv materialini tanlash ham, uning o'quvchilar tomonidan egallanishi ham nisbatan qiyin kechadi. Bu metoddan hamisha har xil vaziyatlarda, holatlarda foydalanish mumkin emas. Qiyin mavzularni taqqoslab o'zlashtirish bilim egallashda unchalar qiynalmaydigan o'quvchidan ham anchagina fikriy zo'riqishni talab

qiladi. Boshlang'ich adabiy ta'limda bu metoddan foydalanilganda o'qituvchi o'quvchilardan matnda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni taqqoslash bilan isbotlab ko'rsatishni talab qilishi mumkin. O'qituvchi tomonidan shunday savol yoki masalaning qo'yilishi, farazlarning ilgari surilishi, ulardan birining to'g'riligini isbotlash fikrlar to'qnashuvi asnosida amalga oshiriladi.

Adabiy ta'limning ilk bosqida kutilgan samaraga erishishda qo'l keladigan metodlardan biri bu **induktiv va deduktiv metodlardir**. O'qish darslarini maqsadga muvofiq tashkil etishda induktiv, deduktiv metodlarning ham o'ziga xos o'rni bor. So'nggi yillarda deduktiv ta'limga e'tibor kuchaydi. Lekin tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib ta'limda muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo'llash o'rganilayotgan o'quv materialining mantig'ini ajratishda, ya'ni xususiyan umumiyga yoki umumiydan xususiyan o'tishda ahamiyat kasb etadi.

Yu. Babanskiy induktiv metodni qo'llaganda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining quyidagi ikki varianti mavjudligini ko'rsatadi: birinchi variantda o'qituvchi avval faktlarni keltiradi, tajribani, ko'rgazma materialini namoyish etadi, topshiriqlarni bajarishni tashkil etadi, o'quvchilarni asta-sekinlik bilan tushunchalarni aniqlashga, qonuniyatlarni o'zlashtirish va fikrlarni umumlashtirishga olib boradi. O'quvchilar xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, so'ngra o'quv xarakteridagi umumlashma xulosalarni chiqaradilar. Ikkinchi variantda o'qituvchi o'quvchilarning oldiga xususiy jihatlardan umumiy holatlarga etaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masalalar qo'yadi<sup>42</sup>.

Bugungi adabiy ta'limda, u o'qitishning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida erkin faoliyatga undash yetakchilik qilayotgan ekan, induktiv metodning birinchi varianti istalgan samarani bermaydi. Ikkinchi variant, ya'ni o'qituvchining xususiy jihatlardan umumiy holatlarga etaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masalalarni qo'yishi va o'quvchilarning haqiqatlar ustida mustaqil ravishda mulohaza yuritib, xulosalar chiqarib, umumlashmalar qilishi

---

42Бабанский Ю.К. Методы обучения современной общеобразовательной школе. – Москва: «Просвещение», 1985. С. 150-153.

– ko‘proq foydalidir.

Induktiv metodning zaif tomonlari shundan iboratki, unda yangi mavzuni o‘zlashtirishda ko‘proq vaqt talab qilinadi. Bu metod o‘quvchining mavhum tafakkurini o‘stirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limida o‘quvchi ma‘naviyatini sog‘lomlashtirish yo‘lida quyi bosqichda induktiv metodidan foydalanib, sinflar yuqorilab borgani sari asta-sekinlik bilan deduktivga o‘tish o‘rinliroq bo‘ladi. Chunki quyi sinflarda narsa, hodisa va bilimlarning ko‘proq xususiy tomonlari o‘rganiladi.

Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi» darsliklarida tavsiya etilgan uy hayvonlari, qushlar, baliqlar bilan bog‘liq mavzularni induktiv metoddan foydalangan holda o‘tish mumkin. Masalan, uy hayvonlari bilan o‘quvchilarni tanishtirish uchun ularga tayyor ma‘lumotlar berilmay, mavzu va manbalar uy vazifasi sifatida topshiriladi. Darsda ko‘plab uy hayvonlarining rasmi darstaxtaga qo‘yiladi. So‘ng o‘quvchilardan ular to‘plagan bilimlar asosida hayvonlarning har biriga xos bo‘lgan individual xususiyatlar so‘raladi. “Otning o‘zigagina xos xususiyatlari nimalardan iborat?” savoli bolalardan ot haqida bilganlarini aytishni talab qiladi. Ma‘lumki, biya sutidan qimiz olinadi, tuyog‘iga taqa qoqiladi, uning go‘shidan qazi qilinadi, ot kishnaydi, otdan sportda, uloqda, urushlarda foydalaniladi va hk. “Eshakning faqat o‘ziga xos xususiyatlaridan nimalarni bilasiz?” savoli o‘quvchini eshakni tasavvur qilishga, u haqida o‘qiganlari-bilganlarini aytishga yo‘naltiradi. Boshqa barcha uy hayvonlarining shunday individual xususiyatlari o‘quvchilar tomonidan to‘liq ochib bo‘lingach, ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan jihatlar haqida so‘raladi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar uy hayvonlarining hammasi odam uchun xizmat qilishini, hammasi tirik tug‘ishi, hammasi odamlar tomonidan boqilishi, hammasi o‘t-em bilan ozuqlanishi, hammasining oyog‘i to‘rttaligi, hammasining tuyog‘i borligi va hk.larni bilganlaricha sanaydilar. Bu jarayonda bilim bilan xotira birgalikda faoliyat ko‘rsatadi. O‘quvchilar bilimlarni o‘qituvchidan tayyor holda olmaydilar, o‘zlari bilganlarini namoyish etadilar. Bilmaganlarini esa o‘rtoqlari va muallimlari ma‘lumotlaridan o‘zlashtirib boradilar.

Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarini samarali tashkil etish maqsadida ta‘limning deduktiv metodini qo‘llaganda o‘qituvchi va



o'quvchilarning faoliyati quyidagi tarzda bo'ladi: o'qituvchi avval qoida yoki qonunning umumiy jihatini so'raydi, asta-sekinlik bilan uning xususiy tomonlariga o'tadi, so'ng birgalikda ma'lum masalani echishga kirishiladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida avval umumiy holatni o'zlashtiradilar, so'ng ulardan kelib chiqadigan xususiy jihatlarni o'zlari kashf etib o'rganadilar.

O'qituvchi boshlang'ich adabiy ta'limda deduktiv metodni qo'llaganda o'quvchilarga yo'nalish berishi, yo'l-yo'riqlarni taqdim etishi maqsadga ko'proq muvofiq keladi. Ko'rsatilgan yo'ldan o'quvchilarning o'zlari umumiylikdan xususiy jihatlarni ajratishi, ularni farqlashi, asoslashi va xulosalar chiqarishi lozim bo'ladi.

Deduktiv metod o'quv materialini nisbatan tez o'tish imkonini beradi. O'quvchini tez fikrlashga o'rgatadi. Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida sharoitdan kelib chiqib, induktiv va deduktiv metodlarni birgalikda qo'llash ham katta samara beradi. Bir darsning o'zida bir masala yuzasidan avval xususiyni aniqlab, undan umumiyga o'tish va ikkinchi bir muammo bo'yicha avval umumiyini ajratib, so'ng xususiyligiga, mayda tafsillarga o'tish jarayoni ham o'quvchilar tasavvuri tiniqlashuvi, xulosalari qat'iylashuviga ko'mak beradi.

Bugun milliy pedagogikada keng qo'llanilayotgan metodlar o'quvchi-o'qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutmoqda. Qisqa vaqt mobaynida zarur bilimlarni o'quvchiga etkazish, unda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab qiladi. Bugun qator rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan "Fikriy hujum", "6x6x6", "Klaster", "Qarorlar shajarasi" singari metodlarning ayrimlaridan boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonidagi badiiy asar tahlilida ham foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdagi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas. Ularning barchasi zamirida muammoli metodning unsurlari mavjud.

Masalan, "**Fikriy hujum**" metodining maqsadi o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan qutqarish,

ma'lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to'plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Bu metoddan boshlang'ich adabiy ta'limda foydalanilganda favqulodda, kutilmagan savol yoki topshiriqlar bilan o'quvchilar loqaydlikdan, muvozanatdan chiqariladi va ular bezovta ruhiyat bilan badiiy muammoga, o'quv topshirig'iga "hujum" qiladilar. Ya'ni har bir o'quvchi o'z bilimi, qobiliyati, iqtidori, dunyoqarashi va imkoniyatlari darajasida uni hal etishga kirishadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z imkoniyatlari doirasida oldilariga qo'yilgan muayyan masala bo'yicha mulohaza yuritadilar. Bu metoddan foydalanilganda o'qituvchidan masala atrofida ishlayotgan, mulohaza yuritayotgan har bir o'quvchi tomonidan aytilgan fikrni qayd etib borish, har bir ishtirokchining erkinligini ta'minlash, aytilgan fikrlarning asoslanishini talab qilish, toki fikrlar tugamaguncha bahsni davom ettirish talab qilinadi. O'quvchilar tomonidan aytilayotgan fikrlarni alohida baholash, ularni tanqid qilish yoki fikrlardan kulish ta'qiqlanadi.

"Fikriy hujum" – o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi. Boshlang'ich adabiy ta'limni samarli tashkil etish maqsadida "Fikriy hujum"dan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. Har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan o'ta xilma-xil mulohazalar aytishiga yo'l qo'yiladi. O'quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.

2. G'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatni keltirib chiqaradi. Qatnashchilarga tasavvurga erk berish imkoniyati yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi.

3. Har bir o'quvchi o'z g'alar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug'iladi. Oldin taklif etilgan g'oyalarni o'zgartirish, ko'pincha, birlamchi fikrdan kuchliroq, yaxshiroq qarashlarni keltirib chiqaradi.

4. Bu usulni qo'llash jarayonida baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar jarayonning o'zida g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar

o‘z fikrlarini himoya qilishga berilib ketib, yangi fir aytishdan chalg‘iydilar<sup>43</sup>.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limda “Fikriy hujum” metodidan foydalanish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar erkin tartibda joylashtiriladi;
- g‘oya va fikrlarni yozish uchun darstaxta yoki varaqlar tayyorlab qo‘yiladi;
- hal etilishi lozim bo‘lgan muammo aniqlanadi;
- ish jarayoni belgilab olinadi: a) g‘oyalar baholanmaydi; b) fikrlashga to‘liq erk beriladi; v) fikrlar ko‘p bo‘lishiga (miqdorga) intilinadi; g) o‘quvchilar faoliyati “ilg‘ab oling”, “bilib oling”, “g‘oyalarga asoslaning”, “qo‘shing”, “kengaytiring”, “o‘zgartiring” singari chaqiriqlarga asosan uyushtiriladi;
- qo‘yilgan muammo yuzasidan fikrlar so‘raladi va yozib boriladi;
- o‘zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlar va mayna qilishlarga aslo yo‘l qo‘yilmaydi;
- varaqlar g‘oya va fikrlar bilan to‘lganda ular ko‘rinarli erga osib qo‘yiladi;
- g‘oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi;
- shundan so‘ng yangi, kuchli, asosli va original g‘oyalar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi, baholanadi<sup>44</sup>.

Bu kabi ish jarayoni o‘quvchilarni ruhiy loqaydlikdan chiqaradi, ularning har birini o‘zicha o‘ylashga, o‘z munosabatini bildirishga majbur qiladi. Yana shu narsa haqiqatki, bu metoddan foydalanilganda qo‘llaniladigan savol-topshiriqlarning hammasiga sinfdagi barcha o‘quvchi javob berishi shart emas. Aqli etgan, fikri bor bolalar javob beraveradilar, qolganlar ular haqida mulohaza yuritadilar, javob berolmagan taqdirda ham, fikriy loqaydlikdan chiqadilarki, bu boshlang‘ich adabiy ta‘lim uchun bu katta hodisadir.

Boshlang‘ich adabiy ta‘lim jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan metodlarning yana biri **“6x6” metodidir**. Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi” darsliklaridan o‘rin olgan adabiy asarlar tahlili jarayonida mazkur metoddan foydalanishda o‘qituvchidan

---

43. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

44. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi. Jami 36 o'quvchi ishtirok etadi. O'qituvchi istasa guruhlarga muayyan nomlar berishi ham mumkin. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. O'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruhlarning a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinadi. Boshlang'ich adabiy ta'limda mazkur metodning qoidalariga to'liq amal qilish ancha murakkab kechadi. Shuning uchun vaziyatga qarab undan ma'lum darajada jo'nlashtirilgan holda foydalanish masadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinflardagi o'quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi: 1. Guruhlar o'qituvchi tomonidan belgilanadi. 2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi va guruh a'zolari oldindan aniq belgilab olinadi. 3. Har bir guruhga zehnli va qobiliyatli hamda bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi. 4. Guruh rahbari va a'zolariga vazifalari tushuntiriladi. 5. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart. 6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi<sup>45</sup>.

Bunday guruhlarni tashkil etishdan avval kichik o'quvchilarning shu ishni bajarishga bilim va malakalari etarliligiga ishonch hosil qilish; guruhlarga aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish; vazifaning bajarilishi uchun etarli vaqt ajratish; o'z vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini ta'minlashga tayyor bo'lish; qo'yiladigan masala murakkab bo'lganda guruh a'zolari sonini kengaytirish; baholash va mukofotlash jarayonining guruh a'zolariga ta'siriga tayyorlanish; kuchli guruhlarni mukofotlash; bajarilgan ish natijasini qanday

---

<sup>45</sup><https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

topshirish yo'llarini ma'lum qilish; jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

Bu metoddan boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini tashkil etishda foydalanilganda o'quvchilar guruhini bunday aralash tarzda tashkil etishning salbiy tomonlari ham mavjud. Ma'lumki, aralash guruhlarda ko'proq kuchli o'quvchilar ishlaydi. O'rtacha va bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar ularning oldida "yumilib" qoladilar. Chunki vaqt tig'iz bo'ladi. Demak, hamma o'quvchilar darsda faol qatnashmaydilar.

Shuning uchun sinfdagi tez fikrlab, tez ishlaydigan, mazkur o'quv fanini yaxshi ko'radigan o'quvchilarni alohida, yaxshilarni alohida, o'rtachalarni alohida va sekin fikrlaydiganlarni alohida guruhlantirib, har bir guruhga o'zining imkoniyati doirasidagi vazifani berish ham mumkin. Ma'lumki, o'quvchilar o'zlariga o'xshagan, bilim darajasi bir xil bo'lgan sinfdoshlari bilan yaqin bo'ladilar. O'z davralarida "ochiladi"lar. Bu ochilish ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga ko'maklashadi. Guruhlarning bilimi baholanayotganda urg'u berilgan topshiriqning qiyinlik darajasiga qaratiladi. Hamma uchun ajratilgan vaqt bir xil, lekin topshiriqlarning darajasi har xil. Gap shundaki, hamma o'quvchilar belgilangan vaqt oralig'ida o'z imkoniyatlari doirasidagi vazifani muvaffaqiyatli uddalaydilar va g'alaba nashidasini suradilar. Bu nashida insonning ruhiy kamolotini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida badiiy asarlarni har xil metodlar ko'magida o'quv tahliliga tortishda, ular bilan ishlashda o'quvchilarning tasavvurlarini uyg'otadigan, mantiqiy mulohaza yuritishga undaydigan, faqat o'z fikri va xulosasini aytishda qo'l keladigan savol-topshiriqlar yetakchilik qiladi. Ular shaklan muammo ko'rinishida bo'ladimi, birgalikda ishlashga undovchi vazifalar bo'ladimi, yakka ishlash tartibiga qaratilganmi ekanidan qat'i nazar, barchasi zamirida o'quvchining ma'nan sog'lomlashuvi, ruhiy erkinligi, fikr mustaqilligini ta'minlash yotishi maqsadga muvofiqdir.

Kitobxonda tuyg'ularning junbushga kelishi aqlning jim turishi degani emas. O'qituvchi o'quvchining tafakkuri faoliyatsizligiga yo'l qo'ymasligi kerak. Tahlil qilmay, mohiyatiga kirmay, o'ylamay badiiy asarni o'zlashtirib bo'lmaydi. Aynan shunday vaziyatda, aql va tuyg'ular hamkorligida bola tafakkurining mustaqilligi, dunyoqarashining kengligi, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish jarayoni kechadi. Mustaqil ishlash asnosida mantiqiy va obrazli tafakkur ham

rivojlanadi. Ta’limning mantiqiy metodlari ham, interfaol metodlari ham o‘quvchilar mustaqil fikrini o‘stirish, shu asnoda ma’naviy komillik yo‘lini tutish maqsadiga xizmat qiladi.

### **“BOSHLANG‘ICH ADABIY TA’LIMGA XOS BO‘LGAN O‘QITISH METODLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI”**

**Boshlang‘ich adabiy ta’limda evristik metoddan foydalanib belgilangan maqsadga erishish uchun o‘qituvchi:**



**Boshlang‘ich adabiy ta’limni samarli tashkil etish maqsadida “Fikriy hujum”dan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:**


Ҳар бир ўқувчи битта масала юзасидан ўта хилма-хил мулоҳазалар айтишига йўл қўйилади. Ўқувчиларда кутилмаган фикр, фавқулодда ғоялар туғилмаса, қатнашчилар бир-бирларини такрорлашга мажбур бўладилар.

- Ғоя ва фикрларнинг миқдори рағбатлантирилади. Маълумки, миқдор одатда ўсиб сифатни келтириб чиқаради. Қатнашчиларга тасаввурга эрк бериш имконияти яратилиши керак. Бу эркинлик натижасида бетакрор ва кучли ғоялар туғилади.

Ҳар бир ўқувчи ўзгалар ғоясига асосланиши ва уларни ўзгартириши мумкин. Чунки фикрдан фикр туғилади. Олдин таклиф этилган ғояларни ўзгартириш, кўпинча, бирламчи фикрдан кучлироқ, яхшироқ қарашларни келтириб чиқаради.

- Бу усулни қўллаш жараёнида баҳолашларга йўл қўйилмайди. Агар жараённинг ўзида ғоялар баҳоланадиган бўлса, қатнашчилар ўз фикрларини ҳимоя қилишга берилиб кетиб, янги фикр айтишдан чалғийдилар

### **Boshlang‘ich adabiy ta‘limda “Fikriy hujum” metodidan foydalanish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**



### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

To‘rtinchi sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan “O‘qish kitobi” darsligida Anvar Obidjon qalamiga mansub “Bo‘rining tabib bo‘lgani

haqida ertak” taqdim etilgan<sup>46</sup>. Mazkur adabiy ertak mazmuniga diqqat bilan yondashilsa, unda bugungi chinakam hayotiy haqiqatlar aks etganini ko‘rish mumkin. Ertak o‘z mazmun-mohiyati bilan nafaqat bolalar, balki kattalarni ham hayratga soladi. Jamiyatdagi illatlar ertak shaklida, hayvonlar timsolida yoritilgan. Darslikda taqdim etilgan: *“Matnni ifodali o‘qing va bo‘riga xos xislatlarni aniqlang. Quyon bilan To‘ng‘izchaning qochib qolishi sababini izohlang. Bo‘rining shum taqdirini «qilmish-qidirmish» deb baholash mumkinmi? Ertakka yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin?”* tarzidagi yuzaki savol va topshiriqlar bilan asarda ilgari surilgan haqiqatlarning mohiyatiga kirib bo‘lmaydi.

Adabiy ertakni “6x6” metodidan foydalangan holda, undagi yetakchi fikrlarni o‘quvchilar oldiga murakkab, mustaqil mulohaza va munosabat talab qiladigan savol-topshiriqlar shaklida qo‘yish, o‘quvchilarni umumlashgan holda bu haqiqatlarning mohiyatiga o‘zlari kirishlariga yo‘naltirish ishlarini quyidagicha amalga oshirish mumkin. Avval o‘quvchilar oltita-oltitadan to‘rt guruhga taqsimlanadi. Bir guruhga eng kuchli, saviyasi nisbatan baland, badiiy so‘zga moyilligi bor bolalar, ikkinchisiga o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan, barcha fanlardan a‘lo va yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilar, uchinchi guruhga o‘rtacha bilimga ega bo‘lgan o‘g‘il-qizlar va to‘rtinchisiga o‘yingaroq tarbiyalanuvchilar jamlanadi. So‘ngra o‘qituvchi matnni ifodali qilib o‘qib beradi. O‘qituvchi darsga tayyorlanish asnosida har bir obrazning gapirish ohangini uning tabiati, adabiy ertakdagi holatidan kelib chiqib belgilab olgani ma‘qul. Har bir timsolni o‘z ovozi bilan ifodalash asarning ta‘sir kuchini oshirishini o‘qituvchi bilishi kerak.

Birinchi kuchli guruhga: “Har bir obraz: bo‘ri, quyon, to‘ng‘iz va sherga xos bo‘lgan xarakter-xususiyatlarni odamlarga ko‘chiring. Ular qanday odamlar timsoli ekani va har birining tabiatini tahlilga torting. O‘zingizni kuzating. Tabiatingizdagi yetakchi sifatlarni aniqlang”.

Ikkinchi guruhga: “Quyon bilan to‘ng‘izchaning bo‘ri changalidan qutulib qolishlari sababi haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni bo‘ridan qutqarib qolgan sifatini topishga urinib ko‘ring. Har ikkala hayvonga xos bo‘lgan bu sifat nima? U fazilatmi yoki illatmi?”

---

46 O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sin uchun darslik. /S. Matchonov va bq. – T.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. – 71–75-b.



Fikringizni asoslang”.

Uchinchi guruh a’zolariga: “Shuncha ayyorligi bilan tulkining bo’riga em bo’lgani sabablari haqida matnga tayanib mulohaza qiling. U doktor bo’riga em bo’lishdan qutulib qolishi mumkinmidi? Qanday qilib va qaysi holatda?”

To’rtinchi, o’yingaroq bolakaylar guruhiga: “Sher bilan Bo’ri suhbatidagi boshqalardan farqli jihatlarni toping. Buning sabablarini ochib bering” singari murakkab, avvaldan tayyorlab qo’yilgan savol va topshiriqlar tarqatiladi.

Birinchi, kuchli o’quvchilar guruhiga berilgan topshiriqlar umumlashgan holda o’quvchilardan ham aqliy, ham ruhiy zo’riqishni talab qiladi. Bu topshiriq ustida ish boshlashdan avval bolalar har bir obrazga xos bo’lgan xarakter-xususiyatlarni aniqlab, yozib olishlari kerak bo’ladi. Buning uchun ular matnga qayta murojaat qiladilar: Bo’ri – *“Er go’yo ters aylandi Tabiblikka o’rmonda Yirtqich Bo’ri saylandi. Ana qarang tish qayrab O’tirar shum shifokor. Yo’lga boqar jovdirab, Tezroq kelsa deb bemor”* satrlari, hamda har bir bemor bilan suhbatdagi bilimsizligi bilan bog’liq xulosalari, ayniqsa, tulkining kasallik varaqasiga: *«Qo’lin tirnab bo’ztkan, Tulki keldi notetik. Ahvoli og’ir ekan, chora topmadik... Edik!»* deb yozib qo’yganlari zamiriga kasbiy “savodxon”ligi sifatleri berkitilganini; Quyonga xos bo’lgan sifatlar – *“Keldi ingrab Quyonvoy, Shalvirab ding qulog’i. Qadamlari poyma-poy, (Balki, tortmas oyog’i)”, “Dikkaytirib dumini, Qochib qoldi tez Quyon”* satrlarida aks etganini; To’ng’izcha tabiatiga singdirilgan sifatlar – *“Keyin og’rib tomog’i, Keldi yig’lab yosh To’ng’iz”* va *“Fursat poylab To’ng’izcha Rostlab qoldi juftagin”* satrlarida ifodalanganini; va nihoyat Sherga xos bo’lgan so’zlashuv ohangi hamda buning zamirida aks etgan xarakter-sifatlar kashf etiladi va odamlarga ko’chiriladi. Guruh a’zolari mana shu masalalar atrofida o’z saviyalari doirasida o’zaro mulohaza yuritadilar, fikr-munosabatlarini aytib o’zlariga topshirilgan loyihani o’qituvchisi va o’rtoqlariga namoyish qiladilar. O’qituvchi guruh a’zolarining faoliyatini muhim nuqtalarga yo’naltirish maqsadida: “O’ylab qo’ringlarchi, Bo’rining tabib bo’lishiga erning teskari aylanishining nima aloqasi bo’lishi mumkin? Bo’rining bemor kutib javdirab o’tirishini, sizningcha, nimalarga o’xshatish mumkin? Bo’rining bilimsiz shifokor ekanini uning qaysi gaplaridan anlash

mumkin, sizningcha? Har biringiz o‘z tabiatingizni taftish qiling: kimga o‘xshaysiz? Nimangiz bilan?” va hk. yordamchi savol yoki topshiriqlarni o‘rtaga tashlab turadi.

Ikkinchi guruh a‘zolari *Keldi ingrab Quyonvoy, Shalvirab ding qulog‘i. Qadamlari poyma-poy, (Balki, tortmas oyog‘i)*”, “*Dikkaytirib dumini, Qochib qoldi tez Quyon*” satrlaridan Quyonning xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlarni aniqlaydilar. So‘ngra bilimsiz Bo‘rining: “*Biqin qolib, tekshirdi Quyonning chap ko‘zini. – Kechikamiz dingquloq, Ko‘rmasak tez chora gar. Oshqozoning sal chatoq, Buni... «tumor» deydi. Biz tabiblar bu dardni Juda yaxshi bilamiz. Qorning yorib, sen mardni – Muolaja qilamiz*” tarzidagi tibbiy xulosalari Quyonni qo‘rqitib yuborganini, yoki tomog‘i og‘rib kelgan To‘ng‘izchanning: “*Ushlab ko‘rib oyog‘in, Bo‘ri dedi: – Voh, essiz!.. Tomoq og‘riq boshlanar O‘ng oyoqning payidan. Kesib olsak soz bo‘lar, Go‘shlikkina joyidan*” tarzidagi “muolaja”lari asosida paydo bo‘lgan qo‘rquv Quyon va To‘ng‘izchani Bo‘rining changalidan qutqarib qolganligini aytadilar. O‘qituvchi guruh a‘zolarini maqsad sari yo‘naltirish uchun ularga: “Qo‘rqoqlik fazilatmi yoki illatmi? Quyon va To‘ng‘izchanning holatida har ikkalasiga xos bo‘lgan qo‘rqoqlik kimga foydali bo‘ldiyu kimga zarar bo‘ldi? Nima uchun? Sizning tabiatingizda qo‘rqoqlik bormi? Siz ham doktorlardan qo‘rqasizmi?” singari qo‘shimcha savol va topshiriqlarni o‘rtaga tashlaydi.

Uchinchi guruhdagi sheriklar Tulkining ayyor bo‘lishiga qaramay Bo‘riga yem bo‘lganining sabablari haqida birgalashib mulohaza yuritadilar. Asarni qayta o‘qib Bo‘rining: “*Shoshmay turgin, muttaham!*” *Der Bo‘rivoy ichida. – Ko‘z tegmasin, O‘zing ham etilibsan-da juda... Dardingni bilay tishlab, Beri kel-chi, jon inim*” tarzidagi fikrlari, “*...Shunday qilib, dil xushlab, Bo‘ri edi Tulkini*” shaklidagi axborot-xabar aks etgan satrlar mazmunidan kelib chiqib o‘z oldilariga qo‘yilgan masalani hal etish ustida birgalikda izlanadilar. O‘qituvchi: “O‘ylab ko‘ringchi, nega Bo‘ri Tulkini “muttaham” deb atadi? Uning muttahamligini nimalarda ko‘rish mumkin? Nima deb o‘ylaysiz, nega Tulki Quyon yoki To‘ng‘izchaga o‘xshab qochib qolmadi? U botirmidi yoki buning boshqa sabablari bormidi? Nima deb o‘ylaysiz, nega tulki har doimgi ayyorligini ishga solib o‘zini qutqarmadi?” singari yordamchi savollar bilan guruh

a'zolarini asosiy masaladan chalg'ib ketmaslikka yo'naltirib turadi.

To'rtinchi guruhdagi o'yinqaroq bolakaylar Sher timsolida o'zlarini ko'radilar. Ularning mana shu o'yinqaroqliklari zamirida Sherga xos sifatlarning ma'lum belgilari yashiringan bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari, asardagi eng kuchli qahramonni kashf etish vazifasining ularga topshirilganligi guruh a'zolarining g'ururini uyg'otadi. Ular o'zlarini boshqalardan ortiqroq his qiladilar. Mana shu tuyg'ular ularni masalaning yechimini topishga undaydi. Ular barchasi birgalikda Bo'ri bilan Sher o'rtasidagi suhbatni qayta o'qiydilar. Bo'rining laganbardorlik bilan qilgan tutumlari va muomalasi, Sherning: *“– Yaxshi emas, har holda, Quvvatdorni izlasam. Shoh bo'lsam-u, Shoqolday o'rmonda giz-gizlasam. Qo'ldan berib imkonni, So'ng yurarman armonda Sendan semiz hayvonni Topish mushkul o'rmonda. Qadrlayman men har choq Tabiblarning so'zini, Totmoqchiman hoziroq Quvvatdori tuzini”* shaklidagi iqrori asosida har ikkala qahramonning fazilat va illatlarini, Bo'rining asl basharasini kashf etadilar. O'qituvchi: *“O'ylab ko'ringchi, nega Bo'ri Quyon, To'ng'izcha va Tulkiga boshqacha, Sherga boshqacha muomala qildi? Sher Bo'rini eb qo'ygani haqida ertak matnida hech narsa deyilmagan. Buni nimadan payqash mumkin, sizningcha?”* singari yordamchi savollar bilan bolalarga yo'nalish berib yuborishi mumkin.

Har bir guruh a'zolari o'z oldilariga qo'yilgan masalalarni o'z saviyalari darajasida ochishga harakat qiladilar, chiqarganlari xulosalarini, kashf etgan haqiqatlarini o'qituvchisi va o'rtoqlari oldida birgalikda namoyish etadilar. Har bir guruhning asar matnidan topganlari haqiqatlar o'zlarining yutuqlari. Ular o'z topildiqlariga o'zaro hamkorlikda, o'zlarini ham aqlan, ham ruhan zo'riqtirib erishdilar. Bu har bir guruh a'zolarining hamkorlikda topgan o'z haqiqati, o'z kashfiyoti. O'qituvchidan tayyor holda eshitgandan ko'ra o'zlari izlanib, mehnat qilib topgan badiiy haqiqatlari, hayotiy xulosalari samarasi yuqori bo'lishi, o'zlariga yuqumli bo'lishi aniq. Bundan tashqari, o'quvchilarning har biri o'zlarini ertakdagi qahramonlar bilan taqqoslab ko'radilar, doktorlardan, ayniqsa, tish doktordan qo'rqishlarini tan oladilar, ruhiyatlarini qa'rida Sherga o'xshashga, doktorlardan qo'rqmaslikka havas qiladilar. Bu havas ularni yuqoriga etaklashi aniq.

Dars soʻngida bolalarga uy vazifasi sifatida har bir guruh aʼzosi oʻzlari tahlil qilgan adabiy ertak qahramoni suratini chizishni, qoʻllaridan kelsa ertakdagi epizodlarni tasvirlashni topshirish mumkin. Keyingi darsda surat chizib kelgan bolalarni oʻz yaratishlarini oʻqib berishga undash lozim.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Suhbat metodiga xos boʻlgan zamonaviy talab va talqinni ajratib yozing. Ularni avvalgi xususiyatlari bilan taqqoslang. Oʻxshash va farli tomonlarini koʻrsating.

2. Suhbat metodining asosiy ashyosi boʻlgan savollar haqida aytilgan: *“Yaxshi savol ahamiyatli, keng qamrovli, oʻylashga, his qilishga, izlanishga majbur etadigan, kashfiyotlar qiladigan, tasavvur uygʻotadigan”* singari sifatlarning har birini alohida tahlilga torting. Badiiy asarlar misolida ularni ifodalab beradigan savol-topshiriqlar tuzing. Yaratishlaringizni kursdoshlar bilan baham koʻring.

3. Jaloliddin Rumi hazratlarining: *“Yaxshi savol yarim bilimdir”*, - degan hikmatini sharhlang. Yaxshi savolning bilimga qanday ahamiyati bor deb oʻylaysiz?

4. Suhbat metodiga xos boʻlgan quyidagi: *“Asar ustida ishlash jarayonida boʻladigan suhbatlar nafaqat ovoz chiqarib fikrlash, balki ovoz chiqarib his etish hamdir”*, degan fikrga diqqat qiling. Oʻylab koʻringchi, *“ovoz chiqarib his etish”*ni qanday tushinish mumkin, Sizningcha?

5. Matndan suhbat metodidan foydalanganda oʻqituvchi qoʻllaydigan amallarni ajratib yozing. Ularning har birini izohlang.

6. Suhbat metodidan foydalanganda oʻqituvchi yoʻl qoʻyishi mumkin boʻlmagan jihatlarni ajratib yozing. Ularning nima uchun taʼqiqlanganligi sabablarini aniqlang, izohlashga urinib koʻring.

7. Matndagi: *“Albatta, oʻquvchining xulosasi oʻqituvchining fikridek toʻkis boʻlmaydi. U toʻmtoq, joʻn, jaydari, tarqoq boʻlsa ham adabiy taʼlim amaliyoti uchun olimnikidan qadrliroq, oʻqituvchilikidan qimmatliroqdir”* degan fikrga munosabat bildiring.

8. Evristik metodning suhbat metodidan farq qiladigan asosiy jihatlarni topib ajratib yozing. Bu farqlarni qanday anglaganingizni biror badiiy asar misolida savol-topshiriqlar tuzib tushintirib bering.

9. Tadqiqot va evristik metodlarning oʻxshash hamda farqli

tomonlarini aniqlang. Metodlarga xos bo'lgan umumiylik va xususiylikni bittama-bitta izohlang. Xulosalaringizni biror asar misolida asoslay bilsangiz, go'zal ish bo'lardi.

10. Istalgan bir badiiy asar misolida induktiv va deduktiv metodlarning xususiyatlarini butun kurs birgalikda aniqlashga urinib ko'ring. Bu sizning pedagogik amaliyotingizga zamin tayyorlaydi.

11. "Fikriy hujum" metodidagi yetakchi g'oyalarni, ya'ni "hujum" qilinishi kerak bo'lgan muhimlarni ajrating. Har bir savol va topshiriqqa o'z munosabatingizni bildiring.

12. Sizga taqdim etilayotgan "6x6x6" metodi har ikkala variantining afzalliklari va kamchiliklari haqida o'ylab ko'ring.

13. Taniqli bolalar shoiri Anvar Obidjon qalamiga mansub "Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak" asari tahlili va uning ustida ishlash namunasini tahlilga torting. Qarashlaringizni asoslang.

14. Adabiy ertak muallifi ilgari surgan haqiqatlarni bugungi meditsina va ayrim shifokorlarning faoliyati bilan bog'lab tahlilga torting. Shoirning mahoratiga o'z munosabatingizni bildiring.

### **9-mavzu. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida ta'lim usullari va dars shakllari. Ularning o'zaro aloqadorligi**

#### **Reja:**

1. Maktab amaliyotida usul va metodlar.
2. O'quvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltiruvchi usullar.
3. Savollar tuzish, savol bilan o'quvchilarga murojaat qilish usullari
4. O'qitish amaliyotida dars shakllari
5. Ilmiy konferensiya darslarini tashkil etish

**Tayanch so'zlar:** *Mantiqiy metodlar, o'zlashtiriladigan axborotni mantiqiy bo'laklarga bo'lish, taqqoslash, materialni saralash, tayanch so'z va tushunchalarni topish, asosiy fikrni aniqlash, o'quv materialini guruhlarga ajratish, asosiy fikr haqida xulosa berish.*

Maktab amaliyotida usul, ko'pincha, metod bilan almashtirib yuboriladi. Usullar farqlanib-farqlanmay metod deb ketilaveriladi. Aslida usullar metodlarni yuzaga keltiruvchi, uni tashkil qiluvchi unsurlardir. Masalan, ta'limning muammoli metodi *muammoli vaziyat yaratish, o'quv farazlarini shakllantirish, ularni isbotlash* singari

usullarni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltiruvchi muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari ta'limning mantiqiy metodlarida ham *o'rganilayotgan o'quv materialidan muhimni ajratish, o'rganilayotgan hodisaning umumiy yoki xususiy jihatlarini topib tasnif qilish, tizimga solish, aniqliklar kiritish, isbotlash* singari usullardan foydalaniladi.

Mantiqiy metodlar qo'llanilganda *o'zlashtiriladigan axborotni mantiqiy bo'laklarga bo'lish, ularni taqqoslash, materialni saralash, tayanch so'z va tushunchalarni topish, asosiy fikrni aniqlash, o'quv materialini guruhlariga ajratish, asosiy fikr haqida xulosa berish* singari ishlar ham usullar hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida asarlarning didaktik tahlilini ongli ravishda amalga oshirishda timsollardagi muhim jihatlarni ajratishda matnni qismlarga bo'lish yoki undagi muhim tizimli belgilarni topish, sintez aloqalarni anglash va tushuntirib berish ishlari ham samarali usullardandir. *Aniqlik kiritish* usuliga umumnazariy fikrdan xususiysiga o'tish, uni qo'llash yoki mavhumlikdan aniqlikka, ko'pshakllilikka o'tish ishlari kiradi.

*Isbotlash* usuliga esa tezislarni aniqlab olish, isbotlashning yo'llarini belgilash, zarur dalillarni to'plash, xulosalarni bir tizimga solish, sababiy aloqalarni aniqlash ishlari kiradi. Dars jarayonida ta'lim usullari qo'llanilganda o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlarning ma'lum qismi takrorlanadi. Bu hol o'z navbatida, bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Keyingi vaqtlarda umumiy o'rta ta'limning har bosqichida darsning: uy vazifasini so'rash, uni mustahkamlash, yangi darsni tushuntirish va uni mustahkamlash, uyga topshiriq berish singari an'anaviy tizimiga qat'iy amal qilishdan voz kechilgan. Ayni holat adabiyot o'qitish kyechimiga ham yangicha yondashuvni taqozo etib, muallimlarni o'quvchilar faolligini oshiradigan saboq turlaridan foydalanishga undamoqda. Tashabbuskor o'qituvchilar bugungi kunda darsning bir qator yangi shakllari bilan ish olib bormoqdalar.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarini o'quvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltirishda qo'l keladigan yuqorida sanalgan mantiqiy metodlarning barchasida u yoki bu darajada ishtirok etuvchi usullarning barchasi mazmunini belgilovchi didaktik ashyo *savollar*

hisoblanadi.

Darslikdagi materiallarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi matndan tashqari materiallardan biri shu asar mazmun-mohiyati yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlardir. Professor A. Zunnunov "Adabiyot" darsliklaridan o'rin olgan bu didaktik ashyolarni uch guruhga bo'ladi:

- bilimlarni mustahkamlash vazifasini bajaruvchi;
- mantiqiy fikrlash usullarini egallashga imkoniyat beruvchi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash imkonini beruvchi<sup>47</sup>.

Bunga qo'shimcha qilib boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini samarali tashkil etishda "O'qish kitobi" darsliklaridan o'rin olgan savol-topshiriqlar qaratilgan:

- o'rganilajak asar mazmunining mohiyatini ochishga;
- uning badiiy jozibasini, qimmatini, ta'sirchanlik jihatlarini topishga;
- matnda aks etgan milliy ruhni ilg'ashga;
- mustaqil va mantiqli fikrlashga;
- shaxsiy munosabatni bildirishga yo'naltiruvchi mazmundagi savol va topshiriqlarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Savollar tuzish, savol bilan o'quvchilarga murojaat qilish usullari tarbiyalanuvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltiruvchi evristik, taqqoslash-qiyoslash, tadqiqot, induktiv, deduktiv metodlarning asosini tashkil etadi. Murabbiy-pedagogning o'rtaga tashlagan har qanday savoli, u ritorik bo'ladimi yoki bolalardan bevosita javob talab qiladimi yoxud biror muammoning yechimiga yo'naltiriladimi, tarbiyalanuvchining aqliy faolligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Savollar ritorik tarzda qo'llanilganda ular ko'magida o'rganilayotgan ob'ektning muhim jihatlariga urg'u berish, o'quvchilarning diqqatini shunga qaratish nazarda tutiladi. Ritorik savollar o'quvchilarni mana shu muhimni yaxshiroq ko'rishga va xayolan avval o'rganilganlari bilan yangi o'zlashtirilayotgan bilimlar orasidagi aloqani tiklashga yo'naltiradi va shu tarzda keyingi ma'lumotlarni diqqat bilan chuqurroq egallashga e'tibor qaratiladi.

Darslar davomida o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar ishtirokini talab qiladigan savollar o'rtaga tashlanmasa, ularning

---

47. Зуннунов А. Ўзбек тили ва адабиёти дарсликлари мезони. – Т.: ЎзПФТИ, 1994. 13-б.

mavzuga ijodiy yondashishlariga erishib bo'lmaydi. Agar tarbiyachi ritorik savollar bilan birga javob talab qiladigan savollarni qo'llasa, ritorik savol, bolalarning aqlini zo'riqtirib, e'tiborini kuchaytira borib, ularni nisbatan kuchliroq aqliy faoliyat – mustaqil fikrlash asosida umumlashmalar qilishga, xulosalar chiqarishga tayyorlaydi. Javob talab qilinadigan savollar esa bolada zaruriy faktlarni aniqlab, isbotlab berish bilan birga o'z mulohazalarini mustaqil ravishda bayon etish ko'nikmasini ham tarbiyalab boradi.

Tarbiyalanuvchilar ularning oldiga mustaqil ravishda mulohaza yuritish va baholash talab qilinadigan savollar qo'yilganda faollashadilar. Masalaning bunday yechimiga izchil va uncha murakkab bo'lmagan muhokamalar bilan erishiladi. Demak, asosiy masala muhokamasida o'quvchilarga ma'lum talablar qo'yadigan har qanday qo'shimcha savollar ham ularning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Diqqatini ma'lum nuqtaga yo'naltiradi. Tarbiyalanuvchilarni u yoki bu dalillarni to'ldirishga yoki tuzatishga undaydigan savollar, albatta, ularning mustaqil fikrlashi va faoliyatini ta'minlamaydi. Bu masala o'quvchi o'zlashtirayotgan yangi bilimlarning o'ziga xos jihatlarini ochishga yo'naltirilgan, aqliy zo'riqishlar talab qilinadigan qo'shimcha savollar berish orqali hal etiladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar, odatda, biror hodisani xotirlashga qaratilgan savollarga engil va erkin javob beradilar, chunki bu xotiraning hisobidan bajariladi. Bolalarda esa xotra juda kuchli. Lekin ularning oldiga nisbatan murakkab, mustaqil munosabat talab qilinadigan savollar qo'yilganda esa ma'lum qiyinchilik his qilinadi. Bu qiyinchilik masalani hal etishning dastlabki bosqichida kuzatiladi. Keyinchalik, o'qituvchining ko'magida bunday vaziyatlarni o'zlaricha hal etadigan bo'lishadi. Demak, murakkab o'quv topshiriqlarini qo'yish o'quvchini aqliy va ruhiy muvozanatdan chiqaradi. Tafakkur va xotirani faol ishlashga undaydi. Savollardan ular bilan o'quvchini murakkab vaziyatga solib qo'yishda, u yoki bu yangilikni kashf etish yoxud topish nazarda tutilganda foydalaniladi. O'qituvchining savoliga mustaqil ravishda javob izlab topish jarayonida o'quvchilar ma'lum murakkabliklarni boshdan kechirishadi, bir qadar qiynalishadi.

Savollar ko'magida murakkab vaziyatlarni tashkil etish bilan



o'qituvchi tarbiyalanuvchilarining bilimi, fikriy faolligini oshiradi, hodisaning chuqur o'zlashtirilishiga ko'maklashadi, ularning tajribasini boyitadi, murakkab masalalar yechimiga mustaqil ravishda erishishlariga yordamlashadi. Bunday favqulodda ta'limiy vaziyat yaratish, savol bilan bolani hayratga solish usuli unda mavjud avvalgi tasavvurlarga qarama-qarshi bo'lganidan kuchli hissiyot uyg'otadi. Hayrat tushunishning boshlanishi va bilishga olib boradigan yo'ldir. Savollarga javob berishda o'quvchilar ko'pincha umumiy qonuniyatni to'g'ri topadilar, biroq buni o'zlari asoslab berolmaydilar. Ulardan nega shundayligini tushuntirish yoki aytganlarini isbotlash talab qilinganda, mazkur holatga tegishli ko'pgina faktlarni bilsalar ham, o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. O'quvchi o'zi bilgan dalillarni, bilimlarni yangi tizimga, o'qituvchisining savoli talab qilayotgan yangi yo'nalishga solishi kerak bo'ladi. Dastlab uni ayni shu narsa qiynaydi, keyinchalik, faktlar aniqlangach va berilgan topshiriq uning aqliy imkoniyatlari darajasidan uncha uzoq emasligi ma'lum bo'lgach, tafakkuri faollashadi, qiyinchiliklarni o'zi bartaraf etib, masalaning yechimini mustaqil topishga undaydi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarini mustaqil faoliyatga yo'naltirishga intilgan o'qituvchi savollarni mavzuga mos tarzda shakllantiradi. Shuning o'zi o'quvchining aqliy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. Bu bilan muallim tarbiyalanuvchini kichik yoshidan tayyor qoliplardan qochishga, materialni shunchaki qayta bayon qilmay, qarashlarini ma'lum tayanch fikr atrofiga umumlashtirishga, undan javob uchun zarurini ajratib olishga, fikrini qolipdagi siyqa iboralar orqali emas, o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatib boradi. Bunday faoliyat o'quvchilardan ma'lum hodisaning sabablarini tushuntirish, fikrlarini qat'iy asoslarga qurish, voqea-hodisalarni xolis baholash, kuzatganlarini umumlashtirishni talab qiladi. Bunday vaziyatlarda qo'shimcha savollar juda qo'l keladi.

Qo'shimcha savollarning kuchi shundaki, ular avval o'rganilgan bilimlarga tayanadi, bolalarning aqliy faoliyatini ma'lum darajada engillashtiradi va ish faoliyatining yo'nalishini eslatib turadi. Qo'shimcha savollar avval o'zlashtirilganlarni takrorlash emas, balki o'rganilgan bilmdan yangi vaziyatda, o'zgacha yo'nalishda foydalanishni talab etadi. Bu o'quvchilarni yangilik qidirishga,

noma'lumni aniqlashga yo'naltiradi. O'z bilganlaridan unumli foydalana olish va umumlashmalar talab qiluvchi savollarga javob berish tarbiyalanuvchilarni aqlini ishlatishga majbur qiladi.

Milliy tarbiyashunoslikda savolga aqliy faoliyat ko'rinishi tarzida yondashuv S. Matjonov, Q. Husanboeva va H. Suyunovlarning tadqiqotlarida bo'y ko'rsatgan. S. Matjonov tadqiqotida ham darsliklardagi savol-topshiriqlar misolida ochib berishga harakat qilingan. Unda savollar ma'lum guruhlariga ajratilgan, savollarning o'quvchi faoliyatini tashkil etishdagi, ijodiy tafakkurini o'stirishdagi o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritilgan<sup>48</sup>. Q. Husanboeva va H. Suyunovlar savollar tafakkurning mantiqiy shakliga daxldorligi, ularning bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi o'rni va roli, bu borada savollarning vazifalari tadqiq qilingan. Savollarning bilimlarni orttirish borasidagi vazifalari nimalardan iborat ekanini ochib berishga harakat qilingan<sup>49</sup>.

Savollar tuzish va ulardan o'rni bilan foydalanishning ta'lim usullaridan biri sifatidagi vazifasini ularning aqliy hodisa sifatidagi talqinisiz belgilab bo'lmaydi. Shu narsa ayonki, savol individual tafakkurning bilganlari bilan bilmaganlari orasida turgan, ayni vaqtda, yangi tushuncha hamda bilimlarni o'zlashtirishga yo'llaydigan maxsus shaklidir. Pedagogning savol berishdan maqsadi uning o'zi uchun noma'lum bo'lgan narsani aniqlash emas. Muallim o'z savoli bilan o'quvchining tafakkurini qitiqlaydi, uni yangi bilimlarni o'zlashtirishga undaydi. Savol tafakkurning bilmaslikdan bilishga, bilishning chalaligi yoki noaniqligidan to'liq va mukammal shakliga o'tkazadigan samarali vositasi hisoblanadi.

O'quvchi tafakkuri mustaqilligi darajasi uning bilim olishga qiziqishi, bilimlarning mohiyatiga kirishga intilishi, biror hodisa bo'yicha hosil qilingan yuzaki bilimdan qoniqmaganidan bergan savollarida ham namoyon bo'ladi. Tarbiyalanuvchining bilmaganlari yuzasidan o'ylari, savollari qancha ko'p bo'lsa, mazkur masalaga bo'lgan qiziqishi shuncha baland ekanidan dalolat beradi. Shunday

---

48 Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. доктори ... дисс. автореф. – Т., 1998.

49 Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2009.; Суюнов Х. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол-топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари. Пед. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Т., 2005.

qilib savollar qiziqishning chuqurligi o'lchovi hamdir.

Har qanday yoshdagi o'quvchining bilmaganini bilishga, yangi ma'lumot olishga qaratilgan savollari uning dunyoqarashini kengaytiradi, bilimlarini boyitadi. Bunday savollar, ko'pincha, o'z ortidan faol harakatlarni etaklab keladi. Yangi axborot olgan o'quvchi faol amaliy ishga o'tadi, javobda ko'rsatilganlarga o'zicha murojaat qiladi. Bolalarni bir-biriga o'xshamagan savollar tuzishga, o'z fikrlarini savol shaklida to'g'ri shakllantirishga yo'naltirish ham ularni mustaqil faoliyatga yo'naltirishning bir ko'rinishidir. Bolalarning savollari o'quv materialidagi asosiy g'oyalar, yangi bilimlar va muammolar qay darajada chuqur o'zlashtirilganligini ham ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida rasmlar asosida o'ziga xos, yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar tuzish ham bolalarga materialni ko'z bilan ko'rish orqali chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Bunday topshiriqlar hamisha muvaffaqiyatli bajariladi, muvaffaqiyat esa o'z navbatida keyingi bilimlarni egallash omili bo'ladi.

O'qituvchi savollarining o'rganilgan shakllardan boshqacha, o'zgargan holda qo'yilishi ham tafakkur va faoliyat mustaqilligining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatlarda bolaning tafakkuri mustaqil tarzda ishlay boshlaydi. Negaki, uning oldiga javob berishni talab qiladigan vazifa qo'yilgan. O'z navbatida, bu usul fikrlarni o'z so'zlari bilan ifodalashni ham talab qiladi. Bu holat nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi. Asosiy savollarga berilgan javoblar hamisha ham etarli darajada to'liq va o'zlashtirilayotgan hodisaning barcha jihatlarini aniq, tizimli, umumlashgan tarzda qamrab olmasligi mumkin. Shunda qo'shimcha savollar kerak bo'ladi. Ular eslashga qaratilgan, o'ylashga undaydigan savollar bo'lib, ma'lum maqsad uchun xizmat qiladi va shuning uchun aniq qo'yiladi.


Eslashga qaratilgan savollar bolaning javobini ma'lum izchillikda, o'rganilgan materialni to'liq va aniq ifodalash maqsadida bo'lishini ta'minlaydi. Bunday qo'shimcha savollarning qo'yilishi har qanday holatda aqliy faollikni oshiradi. Bu faollik bolalarning qo'yilgan savolga javob berishga intilishida ko'rinadi. Qo'shimcha savollar tarbiyalanuvchilarni materialning unutilib qoldirilgan jihatlarini tiklashga yoki xatoliklarni to'g'rilashga yo'naltirilganda ham ahamiyat kasb etadi. Ammo bu qo'shimcha savollarning o'quvchi

tafakkuri va faoliyati mustaqilligini ta'minlashdagi roli cheklangan bo'ladi.

Qiyin vaziyatlarni vujudga keltiradigan savollar nafaqat o'quvchilar tomonidan ularga to'g'ri yechim topilganida, balki yechim topilmagan taqdirda ham foydali bo'ladi. Murakkab masala yechimini o'quvchilarning o'zlari topishlari hodisaning qonuniy aloqalari ular tomonidan anglashilganidan dalolat beradi. Darslar davomida istalgan natijaga erishilmagan taqdirda ham, bu masala o'rganilgan bilimlar doirasida ekanligi anglansa, bolalar o'rganilayotgan material ustida ongli va faol ishlay boshlaydilar. Eng muhimi, bu jarayonda mustaqil va tanqidiy fikrlash, erkin faoliyat ko'nikmalari shakllana boradi. Agar uzoq muddat davomida tarbiyalanuvchilarga tafakkur va faoliyati tezkorligini talab qiluvchi pedagogik ta'sir ko'rsatib borilsa, unda mustaqillik shakllanishiga erishiladi. Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltirishda foydalaniladigan metodlar zamiridagi bir qator usullar quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan:

## BOSHLANG'ICH ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILALARNI MUSTAQIL FAOLIYATGA YO'NALTIRUVCHI USULLAR





Boshlang'ich adabiy ta'lim amaliyolida tarbiyalanuvchilar faoliyatida o'zgarish qilishga erishish etarli darajada uzoq muddatni va bu xususiyatlarni o'zgartirishga qaratilgan qator maxsus pedagogik ishlar, zarur shart-sharoitlarni talab qiladi, albatta. Bu jarayonda o'quvchiga yordam berish ta'limning har qanday bosqichida pedagogning muhim vazifasi. Bu vazifa o'qituvchi-tarbiyachidan katta kuzatuvchanlik, ziyraklik va o'quvchining tafakkuri darajasini bilishni talab qiladi. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchining qobiliyatiga, mustaqilligiga daxl qilmaydigan yordam darajasini aniqlay olish, unga qiyinchiliklarni mustaqil ravishda bartaraf qilishni o'rgatadigan yo'llarni bilish taqozo etiladi. O'qituvchi-tarbiyachi bolalarga yordam berar ekan, ular ta'lim jarayonining har bir bosqichida mustaqil ishlash tajribasini o'rganib borishlari lozimligini nazardan qochirmagani ma'qul. Agar bu talab nomiga bajarilsa, o'quvchi o'zi hal etish tajribasiga ega bo'lmagan holda qiyin muammo bilan uzoq vaqt yolg'iz qolsa, uning qobiliyati va tafakkurining mustaqilligitarqqiyotiga putur etadi. Shuningdek, o'qituvchi-tarbiyachining qiyinchilikni tamomila bartaraf qiladigan yordami ham tarbiyalanuvchining faoliyat mustaqilligi rivojiga halaqit berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich adabiy ta'limda tarbiyalanuvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltirishda ta'limning: evristik, tadqiqot, taqqoslash-qiyoslash, induktiv, deduktiv metodlaridan; ularning zahirida aks etgan: savollar berish, namoyish etish, ko'rgazmali, tajriba, amaliy, aqliy harakatlar, masalani o'rganish, topshiriq berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, xulosa chiqarish singari bir qator usullaridan o'rni bilan foydalanish, bu jarayonda samaradorlikka erishish garovidir.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini maqsadga muvofiq tarzda to'g'ri tashkil eta bilishda o'qituvchining **dars shakllari** (turlari)dan to'liq xabardor bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy adabiy saboqlarga tegishli dars turlari haqida fikrlashishdan oldin darsning o'zi nima ekanini aniqlab olish va bu tushunchani yana bir marta mustahkamlab olish zarar qilmaydi. **Dars** – ta'limning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, shakllantirilishi zarur bo'lgan ko'nikma, malaka, dunyoqarash va axloqiy-estetik sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan shakli. Ta'limning bunday shakli doimiy shug'ullanadigan o'quvchilar jamoasi uchun mo'ljallangan bo'lib sinf-dars tizimida qo'llaniladi<sup>50</sup>. Dars maktabda o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib, bir xil guruh yoki sinfdagi o'quvchilar bilan qat'iy jadval asosida o'tkaziladi. Unda ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlar amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf-dars tizimi jamoaviy o'qitish shakli sifatida alohida ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki u maktab yoshidagi bolalarga ommaviy ta'lim berishga, o'quvchilarni jamoaviy va ijtimoiy faollik, milliy qarashlarga uyg'un, vatansavarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Darsdan maqsad o'quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo'llay oladigan darajaga etkazishga erishish, har bir o'quvchida komil shaxsga xos fazilatlarni shakllantirishdir.

Darsning **maqsadiga** ko'ra turlari quyidagicha:

- 1) mavzuni o'rganish, umumiy ma'lumotlar bilan tanishish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash darsi;
- 2) o'tilgan mavzuni mustahkamlash darsi;

---

50 <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

3) o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini tekshirishga qaratilgan nazorat darsi;

4) ikki yoki undan ortiq dars turlarining birga qo'llanilishidan yuzaga kelgan aralash dars.

Darslar tuzilmasini uning maqsadi va mazmuni belgilaydi. Har bir o'quv fani yuzasidan tashkil etiladigan darslar o'quv dasturiga mos tarzda o'tiladi. Dars davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

O'qitish amaliyotida darsning **shakliga** ko'ra quyidagi turlari mavjud:

*1. Darslik bilan ishlash.* Yangi mavzu bir necha qismlarga bo'linadi. O'quvchi o'qituvchining matnga tayangan holda munosabat bildirishga yo'naltiruvchi savollariga javobni darslikka qayta-qayta murojaat qilgan holda topadi. Javoblar tahlil qilinib, baholanadi. Dars oxirida o'qituvchi mavzuni qisqacha umumlashtirib, yakunlaydi. Bu ish turi o'quvchilarni darslik va qo'shimcha manbalardan foydalanib, mustaqil bilim olishga o'rgatadi.

*2. Va'zxonlik darslari.* Bunday darslar, asosan, yuqori sinflarda amalga oshirilib, o'qituvchi ma'ruzasidan iborat bo'ladi. O'quvchilar ko'proq tinglovchiga aylanadilar. Va'zxonlik darslarida o'qituvchi nutqining izchilligi va ravonligi, aniq reja asosiga qurilish va ko'rgazmalilikka asoslanishi muhim sanaladi.

*3. Mustaqil fikr yuritish darslari.* O'quvchilarga yangi materialning ayrim qismlari beriladi. Berilgan voqea, hodisaning kelib chiqish sabablarini izlab topish o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday darslar o'quvchilarni mustaqil tafakkur qilishga o'rgatadi, o'qituvchi material tanlashda uni qiziqarli va o'quvchilarning hissiy-intellektual ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan bo'lishi talab qilinadi.

*4. Seminar darslari.* Adabiyot darsliklaridagi katta mavzular, xususan, bir ruknga jamlangan mavzular to'liq o'tib bo'lingandan so'ng mavzular o'quvchilarga qayta bo'lib beriladi. O'qituvchi yordamida reja tuzilib, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi. Har bir o'quvchi o'z mavzusining mohiyatini ochib berganidan so'ng sinfdagi boshqa o'quvchilar so'zga chiqib mavzuni to'ldirishi mumkin bo'ladi. Dars oxirida har bir so'zga chiqqan, munosabat bildirgan, fikrlarni to'ldirgan ishtirokchilarning faoliyati

tahlil qilinadi, har biri haqida alohida fikr aytilib baholanadi. Seminar darslari o'quvchilarda mustaqil izlanish va javobgarlik hissini tarbiyalaydi.

*5. Sinov darsi.* Bu tipdagi saboqlar ikki turli bo'ladi. Sinov darslarining birinchi shaklida o'qituvchi yirik boblarni ma'ruza tarzida o'tadi. O'quvchilarga materiallarni umumiy tarzda qamrab oluvchi savollar beradi. Keyingi soatlarda shu savollarga javob oladi. Darsning bu turi tarbiyalanuvchilarni barcha savollarga javob topish uchun izlanishga chorlaydi. Yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlash va past o'zlashtirganlarga yordam berish uchun sharoit yaratiladi. Sinov darslarining ikkinchi turi o'quv yili va chorak davomida o'tilgan materiallar mazmunidan kelib chiqqan holda savollar berish, yozma ishlar o'tkazish bilan farqlanadi. O'quvchilar tayyor bo'lgan paytlarida yoki ro'yxat asosida javob berishlari mumkin. Sinov darslari o'quvchilarning o'tilgan materiallarni to'liq bilishiga qaratiladi.

*6. Muloqot darsi.* Bunday darslarda sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib, yumaloq stol atrofida davra suhbatini tashkil etiladi. Muloqot darslarida oldindan hech qanday vazifa berilmay, o'tilgan mavzularni qaytarib kelish topshiriladi. Darsda o'qituvchi har ikkala guruh a'zolariga turli shakllarda vazifa beradi va javoblarga qarab ball qo'yadi. Ball qo'yishda 2 – 3 o'quvchidan ekspert sifatida foydalanishi ham mumkin. Ekspertlar dars davomida qo'yilayotgan ballarni umumlashtirib boradi hamda o'zlarining taklif-mulohazalarini aytadilar. Bunday dars usullari o'quvchilarni tashabbuskorlik, ijodkorlikka yo'naltiradi.

*7. Muammoli dars.* Darsda muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. O'quvchilar muammo yechimini yakka holda yoki guruh bo'lib izlashlari mumkin. Dars davomida bir necha muammoli savollar o'rta tashlanadi va umumiy xulosa chiqariladi. Muammoli vaziyat o'quvchilarda aqliy izlanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

*8. Ko'rgazma darsi.* Bunday darslarda o'quvchilar ilgaridan berilgan vazifalar bo'yicha albom, referat yoki o'zlari (internet orqali) tayyorlagan mahsulot, materiallaridan ko'rgazmalar tayyorlaydilar. Ko'rgazma materiallaridan foydalangan holda o'tilgan mavzu mazmuni yoritiladi. Ko'rgazma darsi o'quvchilarda o'z mehnatini



namoyish qilish, hikoya qila bilish, qarashlarini himoya qila olish va emotsional holatlarini boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

*9. Ma'ruza darsi.* O'qituvchi ma'ruza tayyorlash uchun bir necha mavzuni o'quvchilarga taqsimlab beradi. Muhim o'rinlarni ko'chirma qilish, kerak joylarga ko'rgazmalar, kartochkalar tayyorlashni topshiradi. Tayyor bo'lgan o'quvchi o'z mavzusi yuzasidan ma'ruza qiladi. Qolgan o'quvchilar ma'ruzachiga savollar berishadi. Ma'ruza darslarida o'quvchi hajmi katta materialni qisqa muddatda o'rganish, o'zlashtirish, bayon qilish va uni mustahkamlash ko'nikmasini egallab boradi.

*10. Muxbirlar darsi.* Bunday darslarda mavzuni o'lkashunoslik materiallari bilan bog'lab o'tish yaxshi samara beradi. O'quvchi-muxbir uy vazifalarini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilarga o'zining mavzusiga mos savollar berib, javob oladi hamda muxbir sifatida javoblarni sinfdoshlari bilan birgalikda tahlil qilib, yutuq-kamchiliklarini ko'rsatadi. Bunday vazifalar muxbir bo'lishni orzu qilgan o'quvchilarga topshirilsa, u bor mahoratini ishga soladi. Bu kabi darslarda o'quvchida ijodkorlik, tashabbuskorlik xislatlari uyg'onadi.

*11. Matbuot konferensiyasi* darslari uchun bir hafta-o'n kun avval o'quvchilar ikki guruhga taqsimlanadi. Ularning taxminan 30 foyizi adabiyotshunoslar, yozuvchi va shoirlar, ya'ni so'z bilan ishlaydigan mutaxassislar, qolganlari esa respublika miqyosida chop etiladigan gazeta va jurnallarning muxbirlari etib tayinlanishi mumkin. Albatta, bu jarayonda barcha soha "mutaxassis"lari o'z kasblarini o'zlari tanlaydilar. Muxbirlar o'z nashrlarining yo'nalishini ham yaxshi o'zlashtirib olishlari taqozo etiladi. Har qaysi gazeta yoki jurnal muxbirining matbuot konferensiyasida beradigan savollari o'quvchilarning o'zlari tomonidan tuziladi. Tayyorlanadigan savollar muhokama qilinayotgan muammoni har tomonlama qamrab olishi lozimligi nazarda tutiladi. Barcha sohalarning mutaxassislari o'zi tanlagan sohaning o'ziga xos jihatlarini o'rganib chiqishi lozim ekanligi tayinlanadi. Ya'ni adabiyotshunoslar o'z sohasidagi muammolarni, yozuvchi, shoirlar ijod jarayoni va uning o'ziga xos tomonlarini, har bir gazeta yoki jurnalning muxbiri o'z nashri talablarini o'zlashtirib olishi ta'kidlanadi. Bu jarayon o'qituvchi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Adabiyotshunoslar ham, yozuvchi, shoirlar ham, muxbirlar ham o'z rollari, savollari va javoblarini bir-birlariga bildirmagan holda o'qituvchi bilan muhokama qiladilar. Har ikkala taraf ham mutaxassislar bilan muloqotga kirishi uchun etarli darajaga erishganlaridan so'ng matbuot darsi amalga oshiriladi. Qatnashchilarning savollari va javoblarning mantig'iga, pishiqligi va asoslanganligiga qarab bilimlar baholanadi.

*12.Ssenariyli dars.* Ta'lim amaliyotiga kirib kelgan bu dars turi ham o'quvchilarni bevosita ijodga undashi bilan ahamiyatlidir. O'rganilgan asarlar matni yuzasidan ssenariy tuzish – o'ziga xos ijod jarayoni. O'qituvchi avval o'quvchilarga asar mazmuni yuzasidan ssenariy tuzish yo'llarini o'rgatadi. Keyingi darsda o'quvchilar tomonidan tuzilgan ssenariylarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu jarayonda o'quvchilar mustaqil fikrlash va ijod qilishga yo'naltiriladilar.

*13.Multimediya darslari.* Bunday saboqlar asosan kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. O'quvchilar o'tilgan mavzuga doir materiallarni internet orqali topishlari ham mumkin. Yoki ma'lum mavzu, timsollarning xarakteristikasi, asar qahramonlarining umumiy va farqli jihatlari bo'yicha jadvallar, sayohatnomalarning xaritalarini tuzishlari, ruknlarning modullarini yaratishlari mumkin va hk. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishlariga hamohang bo'lganidan ular topshiriqlarni sidqidildan bajaradilar.

*14.Sayohat darslari.* O'lkashunoslik maqsadida tashkil etiladigan darslar sayohat darslari sanaladi. Bunday darslar mahalliy shoir yoki yozuvchilarning uy muzeylariga, adabiyot va tarix bilan bog'liq tarixiy joylarga sayohat asosida tashkil etiladi. Sayohatdan so'ng taassurotlar asosida yozma ishlar yoziladi. Sayohat darslari tabiatni kuzatish asnosida ham tashkil etiladi. Sayohatdan so'ng o'quvchilar peyzaj tasvirining yozma ifodasi bilan shug'ullanadilar.

*15.Musobaqa darslar.* Musobaqa darslari adabiyot o'qitishning har bosqichida samarali darslardan biri hisoblanadi. Bunday darslarda har bir alohida shaxslar yoki o'quvchilar guruhleri bir-biri bilan musobaqalashadilar. "Bahru bayt" musobaqalarida ham o'quvchilar ikki guruhga bo'linib ish yuritadilar. Ma'lumki, har qanday bola bellashishni, bellashuvda g'olib bo'lib g'alaba nashidasini tuyishni istaydi. Mazkur musobaqa darslari o'quvchilarni topqirlikka, tez

fikrlashga yo'naltiradi, musobaqa jarayonida ular o'zlarini ixtiyoriy ravishda ham aqlan, ham ruhan zo'riqtiradilar. Bu o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Musobaqa so'nggida mag'lub bo'lingan taqdirda ham mag'lubiyat alami o'zining qilishi kerak bo'lgan ishini bajaradi. O'quvchini hayotga tayyorlaydi.

*16. Konferensiya darslari.* Darslarning mazkur shakli ta'limning yuqori bosqichida xronologik tartibda tashkil etiladi. Unda o'quvchilar o'rganilgan rukn mazmuniga doir materiallarni o'zlari tanlaydilar va shu asosda ma'ruza matnlari tayyorlaydilar. Buning uchun qo'shimcha adabiyotlarga murojaat etiladi, ma'ruzalarning ilmiylik kasb etishi taqozo qilinadi. Konferensiya darslarini dars turlariga ham, didaktik o'yinli darslar sirasiga ham kiritish mumkin. Konferensiya darslari o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni qo'shimcha materiallar bilan tanishtirish, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, lug'atlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi konferensiya darslarini tashkil etishdan avval dars mavzusi, maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishi, mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini tayyorlashi talab etiladi. Mazkur darsni o'tkazishdan o'n-o'n ikki kun oldin o'quvchilarga dars yo'nalishi, mavzusi e'lon qilinadi, unga tayyorgarlik ko'rish uchun zaruriy adabiyotlar tavsiya etiladi. Didaktik o'yinlar asosiga quriladigan darslarda har soha bo'yicha belgilangan "mutaxassislar" o'z "rol"larini o'z imkoniyatlari va bilimlariga tayangan holda o'zlari tanlaydilar. Bu har bir o'quvchini o'z qiziqishi, qobiliyati, iqtidori va imkoniyatini chamalashga o'rgatadi. Darsga tayyorgarlik davrida ham, bevosita dars jarayonida ham o'qituvchining rag'batlari o'quvchilarni muvaffaqiyatga yo'llovchi omil ekanligi unutilmagani ma'qul. Bu jarayonda o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordami juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi o'zining yordamlari faqat va faqat yo'naltirish asosga qurilishi lozimligini unutmasligi kerak.

Ilmiy konferensiya darslarini tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi:

– o‘qituvchining kirish so‘zi. Bunda o‘qituvchi dars mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi “mutaxassislar” bilan tanishtiradi;

– ilmiy ma’ruzalarni tinglash. “Mutaxassislar”ning mazkur mavzu yuzasidan tayyorlagan ma’ruzalarini ko‘rgazmali qurollar asosida bayon etadilar;

– ma’ruzalar muhokamasi. “Mutaxassislar” bilan “opponentlar” (sinfdagi boshqa o‘quvchilar) o‘rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara, savol-javoblar o‘tkaziladi;

– ilmiy konferensiya yakuni. O‘qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g‘oyalarni ta’kidlaydi, konferensiyani yakunlaydi;

– o‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan “mutaxassis” va “opponent”lar rag‘batlantiriladi, yutuq va kamchiliklar tahlilga tortiladi, qatnashchilar baholanadi.


Konferensiya darslari sinfdagi barcha o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishidagi faolligini ta’minlaydi.

17. *Nazm darslari.* Bunday darslar o‘quvchilarda she’riy asarlarni tushunish, ularni ifodali o‘qiy bilish ko‘nikmalarini shakllantirish, badiiy so‘zga, she’riyatga muhabbat uyg‘otish maqsadida tashkil etiladi. Nazm darslarida ham o‘quvchilar she’riy asarlar tahlili ustida u yoki bu darajada ish olib boradilar. She’riyatning sir-sinoatlari bilan tanishadilar. Badiiy so‘zga moyilligi bor o‘quvchilar o‘zlarining ish namunalaridan o‘qib berishadi.

## **DARS SHAKLLARI MODULI**



**Boshlang‘ich adabiy ta’limda o‘qishning quyidagi turlari ustuvor ahamiyat kab etadi:**



Muhimi shundaki, ushbu dars shakllarining barchasi zamirida asarlarning didaktik tahlili yotadi. O‘quvchiga o‘rganish uchun taqdim etilgan badiiy asarlar tahlilga tortilmas ekan, ular hech qanday samara bermaydi. Shu ma’noda badiiy asarlarga yondashishning o‘ziga xos xususiyatlari, ulardagi muhimni nomuhimdan farqlash, matn mohiyatidagi o‘quvchining e’tibori qaratilsa uning ma’naviyatida albatta ijobiy iz qoldirishi mumkin bo‘lgan jihatlar ajratib tavsiya etilsa, o‘qituvchilar adabiy ta’lim amaliyotini tashkil etishda ularga tayansalar, maktab adabiy ta’limi oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishida muayyan samaraga erishadilar.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

#### Nazm darsi namunasi

O‘qituvchi uchinchi sinf o‘quvchilariga bugun “Nazm darsi” bo‘lishini e’lon qiladi va uning mohiyatini ochib beradi. Ma’lumki, o‘quvchilar 1-, 2-sinflarda ham, uchinchi sinfda ham shu kungacha bir qator she’rlar bilan tanishishgan, ko‘pchiligini yod olishgan. Shularni ma’lum qilgandan keyin: “Adabiyotda hikoyalar, ertaklar va she’rlar bor. She’rlar hikoya va ertaklardan nimasi bilan farq qiladi?” degan ritorik savolni o‘rtaga tashlaydi va unga o‘zi javob beradi. O‘qituvchiga talabalikda o‘zlashtirgani adabiyotshunoslik kursidan ma’lumki, “She’r ohang jihatidan ma’lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She’riy nutqni ohang jihatidan ma’lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me’yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi”<sup>51</sup>. O‘qituvchi mana shu nazariy ma’lumotni o‘quvchilarga jo‘n, tushunarli yo‘sinda ma’lum qiladi. Hamma badiiy asarlar so‘zlar ko‘magida yaratilishini, she’rda shu so‘zlar ma’lum tartibga, qoidaga solinishini va belgilangan ohangda o‘qilishini tushuntiradi. Shu tartibga solingan so‘zlar yig‘indisida ham xuddi ertak va hikoyalarga, rivoyatlarga o‘xshab shoirning fikri, hayotda muhim deb bilgan qarashlari aks etishini anglatadi. She’rning mazmunidan u nima haqida ekanini bilish mumkinligini ham aytadi. So‘zni tartibga solib yozadigan odam Shoir deyilishini, hikoya, ertak

---

51 Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1997. 92-бет.

va rivoyatlar bituvchi esa Yozuvchi deyilishini ham eslatib o'tadi. Shundan so'ng Erkin Vohidov qalamiga mansub "Kamtarlik haqida" she'rining tartibi ustida birgalikda ishlashlarini xabar qilib, bolalarning diqqatini kitoblaridagi asar matniga qaratadi. She'rni ifodali qilib o'qib beradi. Barcha o'quvchilarini she'rni o'zi bilan birga ichdan ifodali o'qishlarini tayinlaydi. Hamma tayyor bo'lgan she'r o'qishga kirishiladi:

*Garchi shuncha mag'rur bo'lsa ham  
Piyolaga egilar choynak.  
Shunday ekan, manmanlik nechun,  
Kibru havo nimaga kerak.*

*Kamtarin bo'l, hatto bir qadam  
O'tma g'urur ostonasidan  
Piyolani inson shuning chun  
O'par doim peshonasidan*<sup>52</sup>.

So'ngra o'qituvchi mazkur she'rdagi so'zlar tartibini buzib, uning mazmunini oddiy hikoya shaklida aytib beradi: "*Choynak shuncha mag'rur bo'lsa ham piyolaga egiladi. Shunday ekan, mag'rurlik, kibru havo nimaga kerak. Kamtarin bo'l, g'urur ostonasidan hech qachon o'tma. Inson shuning uchun har doim piyolaning peshonasidan o'padi*". Va o'quvchilaridan quloqlariga, ruhiyatlariga qaysi matn yoqimli eshitilganini, xush tuyilganini ularga tushunarli yo'sinda so'raydi. O'quvchilar albatta she'r yoqimli eshitilganini, she'r eshitish ruhiyatlariga xush yoqqanini o'z so'zlari bilan, o'zlari darajasida aytib berishadi. Shundan so'ng ma'lum qoidalarga bo'ysundirilib, tartibga solingan so'z tinglovchiga yoqishini, uning kayfiyatini ko'tarishini, tuyg'ulantirishini ma'lum qiladi. Odam mana shu yoqimli hislarni tuyish uchun hamisha she'r o'qiydi. She'r eshitadi. Yoqimli bo'lgan har qanday yaratiq inson ma'naviyati tozarishi va sog'lomlashishi garovidir. O'quvchilarga mana shu haqiqatlarni ochib berganidan so'ng o'qituvchi she'rni yana bir marta qayta o'qib beradi. So'ngra o'quvchilarini she'rdagi so'zlarning tartibi, uning o'qilish ohangi ustida kichkinagina, kamtargina kashfiyotga yo'naltiradi.

---

52. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. /M. Umarova, X. Hamroqulova, R. Tojiboyeva. – T.: „O'qituvchi“, 2016. – 73 – 74-b.

Gap shundaki, she'rxon qancha bilimsiz bo'lmasin, tartibga solingan so'zlar tizimini oddiy jumla tarzida o'qiy olmaydi. She'rni ko'rishi bilan ongida uni boshqacha o'qish kerakligi haqidagi uchqun "yalt" etadi va o'quvchi tabiiy ravishda o'qish ohangini qidiradi. O'quvchilar ham o'qituvchisining she'r o'qishi asnosida quloqlariga o'rnashib qolgan ohangni topadilar. She'rning dastlabki bandini ifodali o'qiydilar. O'qituvchi tarbiyalanuvchilarining diqqatini bir xil ohangda ifodalanayotgan so'zlarni topishga yo'naltiradi. Ziyrak o'quvchilar "choynak" va "kerak" so'zlarini topadilar. Mabodo, hech kim topolmasa, o'qituvchi o'quvchilarni diqqat bilan tinglashga chaqirib to'rtlikni qofiyadosh so'zlarga alohida urg'u bergan holda qayta o'qib beradi. Aslo o'zi ko'rsatib bermaydi. Qofiyadosh so'zlarni topgan o'quvchini rag'batlantiradi va mana shu ohangdosh so'zlar she'r yozish qoidalaridan biri ekanligi ta'kidlab o'tiladi. So'ngra ikkinchi band qayta o'qib eshittiriladi. O'quvchilar bu safar qofiyadosh so'zlarni osongina topadilar: "ostonasidan", "peshonasidan". O'quvchilarning o'zlari uchun qilgan bu kichik kashfiyotlari ko'ngillarini ko'taradi. Shu ko'tarinki kayfiyat bilan asarning mohiyatiga kirish boshlanadi.

Darslikda she'rni o'rganishga qaratilgan: "*She'rni ifodali o'qing. Shoir bu she'rda nima demoqchi?*" tarzidagi ikkitagina savol-topshiriq taqdim etilgan. Bu bilan asarning mohiyatiga kirish, undagi yetakchi qarashlarni anglash aslo mumkin emas. Shu bois o'qituvchi matn yuzasidan alohida savol va topshiriqlar tuzishga majbur bo'ladi. O'qituvchining o'quvchilariga taqdim etadigan dastlabki savollari taxminan: "O'ylab ko'ring! Mag'rurlik nima, sizningcha? U qanday bo'ladi?" tarzida aks etadi. Ular o'quvchilarni anchagina aqliy zo'riqtiradi, albatta. Bolalar javob aytolmasliklari ham mumkin. Shunda o'qituvchi darhol tushuntirib berishga, savollariga o'zi javob berishga shoshilmay, choynakni stol ustiga qo'yadi va: "Qarang! Choynakni egish yoki bukish mumkinmi? Nima uchun choynakni egib yoki bukib bo'lmaydi?" singari qo'shimcha savollari bilan bolalarni mantiqiy mulohaza yuritishga majbur qiladi. Bolalardan biri bo'lmasa biri choynak qattiq jismdan yaratilganini, shuning uchun uni egib yoki bukib bo'lmashligini, u hamisha tik turishini, o'z saviyasi va so'z boyligi ko'magida aytadi. Bu haqiqatni kashf etgan va javob aytgan bola juda katta rag'batga munosib ekanini o'qituvchi unutmashligi



kerak. Shundan so‘nggina bunday sifatga ega bo‘lgan yaratilgan qanday atalishini qayta so‘rash mumkin bo‘ladi. Bolalar mana shu sifat mag‘rurlik ekanini albatta anglaydilar va aytadilar. O‘qituvchisidan rag‘bat oladilar.

Shu o‘rinda kichkinagina chekinish qilinib, asar matni yuzasidan tug‘ilgan: “Mag‘rurlik qanday sifat? U odamga xos bo‘lgan illatmi yoki fazilatmi?” tarzidagi muammoli savollar bilan ertangi o‘qituvchilar – talabalarga murojaat qilish o‘rinli bo‘ladi. To‘rtlikda “manmanlik” va “kibru havo” “mag‘rurlik”ning sinonimlari tarzida keltirilgan. Bu to‘g‘rimi? Odamga xos bo‘lgan har uchala sifat bir-biriga sinonim bo‘la oladimi? Talabalar shular haqida ham o‘ylab ko‘rishgani masadga muvofiq bo‘ladi. Ko‘rinadiki, mazkur she‘rda mag‘rurlik illat sifatida taqdim etilgan. Shoir Muhammad Yusufning “O‘g‘il bo‘lsang...” she‘rida esa: “*Shamoldek el, suvdek tosh, Hech kimsaga bukma bosh...*” tarzida fazilat shaklida ulug‘langan. Demak, bu sifat o‘rniga qarab fazilat, o‘rni kelganda illat ko‘rinishida talqin etilishi mumkin ekan. Insoniy fazilatlar sirasida ham mag‘rurlik ijobiy xarakter kasb etadi. Talabalar, avvalo, o‘zlari odamga xos bo‘lgan bu sifatning mohiyatiga kirib olishlari, uning fazilat yoki illat ekanini o‘z ruhiyatlariga “mo‘ralab” aniqlab olishlari shart. Aks holda amaliy faoliyatda qiyinchiliklarga duch kelib qolishlari mumkin.

“Nazm darsi”ni davom ettirib o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini she‘rning ikkinchi bandiga qaratadi:

*Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam*

*O‘tma g‘urur ostonasidan.*

*Piyolani inson shuning chun*

*O‘par doim peshonasidan.*

O‘quvchilar to‘rtlikning birinchi misrasidagi “kamtarlik” tushunchasining mohiyatiga kirishlari uchun ularga: “To‘rtlikni qayta o‘qing. Uning mazmunidan kelib chiqib “kamtarlik”ning fazilat yoki illatligini aniqlang” topshirig‘i beriladi. Albatta, o‘quvchilar yoshlariga xos ziyraklik bilan kamtarlik yaxshi ekanini payqaydilar va fikrlarini aytadilar. So‘ngra o‘qituvchi choynakning yoniga piyolani qo‘yadi va navbati bilan: “Piyolaga xos bo‘lgan fazilat nima? Nima uchun odamlar uning “peshonasidan o‘p”ishadi? Piyolaning “peshonasidan o‘p”ishni qanday tasavvur qilasiz? “Shuning chun” deganda nima nazarda tutilgan deb o‘ylaysiz? Piyolaning kamtarligini

siz nimada ko‘ryapsiz?” tarzidagi savollarla o‘quvchilariga murojaat qiladi. O‘quvchilar bu savollarga ham o‘z imkoniyatlari doirasida, o‘zlarini ortiqcha zo‘riqtirmay javob berishlari aniq. Barcha o‘quvchilarning javoblari eshitilgach, batafsil va asosli javob bergan o‘quvchilar o‘z rag‘batlarini oladilar. So‘ngra ulardan “mag‘rurlik” va “g‘urur” tushunchalari anglatgan manolarni ochib berish so‘raladi. O‘quvchilar bilganlaricha javob berishsin. Agar mantiqli javob chiqmasa, bu masalani uyda ota-onalari, aka-opalari bilan maslahatlashib mohiyatiga kirish topshiriladi. Bolalar kun bo‘yi bu ikki so‘z anglatgan tushuncha haqida o‘ylab yuradilar. Uyga borib kattalarni bezovta qiladilar. Bu izlanish va xatti-harakatlar bolalar tabiatida shaxs shakllanishi jarayoniga albatta o‘z ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

“Nazm darsi” shu tariq yakunlanadi. O‘quvchilarga uy vazifasi sifatida she‘rni yod olish yoxud “choynak va kerak” so‘zlariga alohida, “ostonasidan va peshonasidan” so‘zlariga alohida ohangdosh (qofiya) bo‘la oladigan so‘zlarni topib yozishni yoki o‘z bilganicha biror mavzuda she‘r bitishni ixtiyoriy tarzda topshirish mumkin. Keyingi darsda bolalarning she‘rxonligi, topqirligi va ijodkorligi namunalarini o‘rganishga alohida vaqt ajratilishi ular uchun foydadan holi bo‘lmaydi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ta‘lim metodlari va usullari orasidagi tafovutni ajratib yozing. Ta‘lim usullarining o‘qitish metodlaridagi o‘rni va ahamiyatini aniq bir metod timsolida sanab bering. Qarashlaringizni bir asar ustida ishlash misolida asoslang.

2. Nima deb o‘ylaysiz, darslarning an‘anaviy kyechimi nimasi bilan bugungi talablarga javob bera olmay qoldi, Sizningcha?

3. Taqdim etilgan har bir dars turining o‘zigagina xos bo‘lgan yetakchi jihatlarini ajratib yozing. Ularni izohlang.

4. Har bir dars turini avval o‘zlashtirgan bilimlaringiz asosida kengroq tavsiflashga urinib ko‘ring.

5. Tavsiya etilgan dars turlarini biror asar misolida amalda ko‘rsatib bering. Yutuq va kamchiliklarni birgalikda muhokama qiling.

6. Bir o‘qituvchi sifatida “Konferensiya darsi” va “Muhbirlar

darsi”ni birgalikda tashkil eting. Ulardan amalda foydalanish ko‘nikmalarini egallang.

7. “Va’zxonlik” va “Ma’ruza” darslarini bir-biri bilan taqqoslang. Alohida farqli jihatlari nimalardan iborat ekanligini aniqlang.

8. Mazkur dars turlarining qaysi biri sizga ma’qul keldi? Buning sabablari nimalardan iborat ekanini asoslang.

9. Mavzuga taqdim etilgan maqoladagi “kichkina chekinish”ga diqqat qiling. Undagi qarashlarni tahlilga torting. “Mag‘rurlik” sifatining qaysi talqini sizning ruhiyatingizga ma’qul keldi? Buni asoslashga urinib ko‘ring.

10. “Men tanlagan kasb: unga muhabbatim, uning mashaqqatlari va mas’uliyati” mavzusida insho yozing. Ijod mahsulini auditoriyada birgalikda muhokama qiling.

## 10-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning o'rni va zarurati

### Reja:

1. Kishi fikri mustaqilligining belgilari
2. Fikrning mustaqilligi uning sermahsulligiga bog'liqligi
3. Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish
4. O'quvchilarda o'z fikrini ifodalash ko'nikmasini shakllantirish
5. Badiiy matn tahlili namunasi: "Qish" she'ri ustida ish

**Tayanch so'zlar:** *mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, pishiqlik, tanqidiylik.*

Har qanday jamiyatning taqdiri unda yashaydigan insonlar tomonidan belgilanadi. Jamiyatni nurli kelajak sari yetaklash ham, tubanlik qa'riga tortish ham odamning qo'lida. Shuning uchun ham jamiyat a'zolari, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamoloti bugungi kunda o'ta dolzarb masalaga aylangan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyolash milliy dasturi"ning qabul qilinishi ham odam omilining hal qiluvchi ahamiyat kasb etganidan dalolatdir.

Bu hujjatlarda o'quvchi shaxsining aqliy va ma'naviy kamoloti birinchi o'ringa chiqarildi. Ta'lim konsepsiyasi, standarti, dastur, darslik hamda metodik qo'llanmalar insonparvarlik yo'nalishiga solindi. Ular mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog'lom ma'naviyatli odam shakllantirishga xizmat qila boshladi. Milliy pedagogika ilmi ham ma'naviy barkamol avlod tarbiyalash yo'llarini tadqiq etmoqda. Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, avvalo, «mustaqil fikrlash» tushunchasi nima ekanligi hamda uning barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyati qandayligini aniqlab olish muhimdir. Tafakkur jarayoni, xususan, uning mustaqil fikrlash turi haqida psixologlar, pedagoglar turli daraja va miqyosda o'z qarashlarini bayon etganlar.

Psixologlarning ta'biricha, fikrlash, ya'ni tafakkur – odam miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Sezgi organlari etarli bo'lmay qoladigan o'rinlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o'rganiladi. Tafakkur – aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning

majmui. U tevarak-atrof, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to‘g‘ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash jarayonida o‘zi ko‘rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, haqiqiyliigi hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi<sup>53</sup>.

Tafakkur orqali kishi odam va olam sirlarini o‘rganishda o‘zidan oldingi qarashlar, tushunchalar, farazlar, chiqarilgan xulosalar hamda qabul qilingan qarorlarning qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilab oladi. Mulohaza yuritib, narsa-hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar, xossalar, xususiyatlar, ularni bir-biri bilan bog‘lab yoki ajratib turuvchi jihatlar hamda ularning faoliyati mexanizmlarini anglab etadi. Bu haqiqatni hazrati Navoiy bundan necha yuz yillar ilgari: *“Har ishniki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod”*<sup>54</sup>, - deya ifodalagan.

Tafakkur jarayoni insonning ruhiyati bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi. Fikrlayotgan odamning ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog‘lik keng, bilimi qay darajada chuqur bo‘lsa, fikrlari, xulosalarining saviyasi ham shuncha baland bo‘ladi. Teranlik, tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiiylik, ijodiylik inson tafakkuri darajasini ko‘rsatuvchi ijobiy xususiyatlardir. Odam dunyoni tafakkur orqali anglaydi, fikr va ruhiyat yordamida undan o‘ziga xos tarzda ta’sirlanadi, xulosalar chiqaradi.

Ruhiyat bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarining dalolat berishlaricha, inson fikrlash jarayonini yuzaga keltirishning asosiy sharti undagi borliq sirlarini bilishga bo‘lgan intilish, ichki ehtiyoj, ya’ni motivdir. Usiz insonda fikrlash paydo bo‘lmaydi<sup>55</sup>.

---

53. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1990; Богоявлинский Д. Н., Менчинская Н. А. Психология усвоения знаний в школе. – Москва: АПН РСФСР 1999; Богоявлинский Д. Н. Развитие самостоятельности мышления школьников как основа активных методов обучения. //Сб. “Пути повышения качества усвоения знаний в начальных классах”. – Москва, АПН РСФСР, 1992; Психология мышления. /Под ред. Матюшкина А. М. –Москва: “Прогресс”, 1985; Тихомиров О. К. Психология мышления. – Москва: МГУ, 1984.

54. Алишер Навоий. Танланган асарлар. 20 жилдлик. 8-жилд. Хамса: Фарҳод ва Ширин. – Т.: “Фан”, 1991. 122-бет.

55. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1991; Выготский Л. С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1991; Выготский Л. С. Психология искусства. – Москва: Педагогика, 1987.

Fransuz faylasufi Dekart: “*Men fikrlayapman, demak men mavjudman*”<sup>56</sup>, - degan g‘oyani ilgari surgan. Bu fikr inson hayotida tafakkurni odamning odamligi belgisi sifatida yetakchi o‘ringa chiqaradi. Uning fikricha, hech narsa insonning odam ekanligini fikrlashchalik asoslab berolmaydi. Demak, mustaqil ravishda muhokama qilish, tahlil etish, ijodiy-mantiqiy fikrlash asosiy insoniy xususiyatdir. Fikrlash insonning aqlan va ruhan sog‘lomligining asosiy belgilaridir. Uning mustaqilligi tushunchalar, mantiqiy birikmalar, mavjud til vositalaridan oqilona foydalanish bilan tavsiflanadi.

“*Fikrlash jarayoni, - deb yozadi L. Vigotskiy, - bolaning ota-onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola “yutib”, o‘zicha “hazm qila” boshlaganidan so‘ng shakllanadi*”<sup>57</sup>. Bu qarashga tayanib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, fikrlash bevosita o‘z yo‘naltiruvchi kuchi, maqsadi, usullariga ega bo‘lganda, bola 5–6 yoshlarga etganda mustaqil faoliyatga aylanadi. Fikrlashning mustaqilligi uning yuqorida sanalgan shakllaridan biri sifatida kishi shaxsiyati va siyrati, ichki “men”i bilan bog‘liqdir.

Demak, umuman, fikrlanganda narsa-hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlari bilib olinadi. Mustaqil fikrlanganda esa, odam olam hodisalari va hayotiy vaziyatlar mohiyatini o‘zgalarnikiga o‘xshamagan yo‘sinda, o‘ziga xos yo‘l bilan bilib oladi. Olib borilgan kuzatishlarga tayanib, mustaqil fikrlash tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: **mustaqil fikrlash** – *insonning o‘z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, o‘z intellektual imkoniyati darajasida turli yo‘l, usul, vositalar yordamida, mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir.*

Ma’lum bo‘lishicha, fikr mustaqilligi darajasi inson aqliy faoliyatining tashabbuskorligi, pishiqligi va tanqidiyligida aks etadi. Kishi fikri mustaqilligining belgilaridan biri – **tashabbuskorlik**

---

56. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. 242-бет.

57. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1991. 90-бет.

insonning o‘z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo‘yishi, ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan usul hamda vositalarni qo‘llashida namoyon bo‘ladi. Bu faoliyatning *pishiqligi* vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo‘l keladigan usul va vositalarni tezkorlik bilan izlab topish, ularni farqlashda ko‘rinadi. Aqliy faoliyat *tanqidiyligi* esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo‘ladi.

Ma‘lumki, tafakkur faqat ta‘lim jarayonida shakllantirilmaydi. Inson faqat ta‘lim-tarbiya muassasalarida fikrlashga o‘rgatilmaydi. U har bir ruhan sog‘lom insonda tabiatan mavjud bo‘lgan aqliy-jismoniy hosiladir. U har kimda o‘ziga xos tarzda, o‘z intellektual darajasida mavjud. Ta‘lim-tarbiya jarayonida tafakkurning shakli, sifati, darajasini tarbiyalash, ma‘lum yo‘nalishini belgilash, uni sayqallash va rivojlantirish mumkin. O‘quvchi fikrining ta‘sirchanligi, ehtiyotkorligi, harakatchanligi yoki faoliyatsizligi, o‘shir-rivojlanishi uning ta‘lim jarayonida shakllantiriladigan sur‘ati va sifatiga ham bog‘liq. Inson fikrlashining hissiy, obrazli, mantiqiy salmog‘i tafakkur jarayonining rivojlanish sur‘ati bilan qanchalik aloqador bo‘lsa, uning sifat yo‘nalishlari bilan ham shunchalik bog‘liq.

*“Maqsad, vazifalari o‘zga shaxslar tomonidan belgilab qo‘yilgan, tayyor usul va vositalarga tayangan holda boshqalarning bevosita yordami bilan amalga oshiriladigan jarayonda ishtirok etgan tafakkur fikr qaramligini anglatadi. Mustaqil tafakkurga ega bo‘lmagan kishilar tayyor qarashlar quliga aylanadilar. Ularning tafakkuri ...o‘shir-rivojlanishdan orqada qoladi. Mustaqil fikrlash rivojlanmagan hollarda kaltabin, aqlan erinchoq, behafsala, loqayd odam shakllanadi. Tafakkurning qaramligi, muteligi jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga to‘siq bo‘lib, alohida odam uchun fojidadir”*<sup>58</sup>, - deydi psixolog E. G‘oziev.

Fikrning mustaqilligi uning sermahsulligi, samaradorligi bilan uzviy bog‘liq. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma‘lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g‘oyalar, tavsiyalar yaratilgan, nazariy hamda amaliy vazifalar hal qilingan bo‘lsa, bunday fikr sermahsul, samarali hisoblanadi. *Ma‘lum vaqt oralig‘ida mustaqil ravishda bajarilgan aqliy ish ko‘lami va sifati (ishning pishiqligi, asoslarning kuchliligi) – tafakkur mustaqilligi darajasini o‘lchash*

---

58. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: «Ўқитувчи», 1990. 60-бет.

**mezoni** bo‘lib xizmat qiladi.

Ish jarayonida inson aqlining faoliyati uning o‘zi tomonidan kuzatilmaydi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarda ham fikrlashning mustaqilligi darajasini nazorat qilish, uni farqlash hamda rivojlantirish o‘qituvchining vazifasidir. Buning uchun o‘qituvchidan ziyraklik, ta‘lim jarayonining har bosqichida har bir o‘quvchi shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilish va qiziqishlarini bilish talab qilinadi.

Har bir o‘quvchi yosh bosqichlariga ko‘ra turfa qiziqishga ega bo‘ladi, o‘ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Har yoshida turlicha faoliyat ko‘rsatadi, borliqqa munosabati ham har xil bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslari jarayonida darsga tegishli bo‘lmagan biror qiziqarli hayotiy mavzu va hodisalar, kino yoki futbol o‘yinlari kabilar muhokama qilinganda o‘quvchilarning ko‘p narsa bilishlari ayon bo‘ladi. Bu mazkur hodisalar o‘quvchilarning o‘zlari uchun bevosita qiziqarli bo‘lganidan dalolatdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, “O‘qish kitobi” darsliklaridagi o‘quv materiallari bolalarning tabiati, yosh xususiyatlariga mos va qiziqarli bo‘lishi, matnlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar biri ikkinchisiga o‘xshamaydigan tarzda tuzilishi, ularning mantiq asosiga qurilishi, o‘quvchilardan mustaqil fikr-mulohazalar talab qilishi o‘quvchilarni faollashtiradi.

Maktab davrining bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tish jarayonida bolalarda shunchaki evolyusion o‘zgarish emas, balki sifat jihatidan bir yangilanish yuz beradi. Bu jarayonda o‘quvchi taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi jihatlarni umumlashtirgan holda quyidagicha ko‘rsatish mumkin: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aqliy rivojlanishi bilan beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning nomutanosibligi; bilimlarning hamisha ham mantiqqa asoslanmagani; oila bilan maktab tarbiyasi o‘rtasidagi tafovut yuqori sinf o‘quvchilariga xos bo‘lgan harakatchanlik bilan intizom tizimining nomutanosibligi; ishtiyoqning zo‘rligi, mustaqillikka moyillik, erkinlik, mustaqillik sari intilishning balandligi bilan ta‘lim-tarbiya jarayonidagi bir xillik, sustlik; odamlarga, atrof-muhitga tanqidiy nazar bilan qarashning kuchayishi bilan ta‘lim jarayonida bunday intilishlarni qondirish imkoniyatining etishmasligi; tabiiy taraqqiyot bilan ta‘limiy-tarbiyaviy jarayon orasidagi nomutanosiblik singari jihatlar ko‘zga tashlanadi.



Ma'lumki, bolalar maktabgacha bo'lgan davrida favqulodda ijodkorlik xususiyatiga ega bo'ladilar. 5–6 yoshda ona tilini to'liq o'zlashtirib oladilar, o'zlarining amaliy faoliyatlari va borliqni anglashlari uchun zarur bo'lgan har xil ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ularning bu davrdagi taraqqiyoti, odatda, muntazam o'qitish ishlarisiz, kattalar va tengdoshlari bilan tabiiy muloqoti jarayonida amalga oshadi. Bolalar maktab hayotiga kirib kelganlarida, ularning faoliyati dasturlar asosida tizimli bilim olishga o'tganda, bir qadar o'zgaradi. Bu o'qish-o'rganish jarayonida tabiiylikning buzilgani, unga sun'iylik aralashuvi tufayli sodir bo'ladi. Bola maktabga kirgach, uning mustaqilligi, o'z intellektual darajasidagi fikrlashi va ixtiyoriy faoliyati ma'lum darajada cheklanadi. U maktab talablariga muvofiq ravishda ish yuritishga majbur etiladi.

Boshlang'ich sinflarda bu tarzda singdirilgan bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatlar bolalarni doimiy ma'rifiy xizmat ko'rsatilishga muhtoj iste'molchiga aylantirib qo'yadi. Bunday ta'lim o'quvchidan bilimlarni mustaqil ravishda ijodiy o'rganishni talab qilmaydi. Bir necha yillik shunday o'qitish natijasida bola mustaqil fikrlamaydigan kimsaga aylanadi. U har qanday aqliy zo'riqishdan o'zini tortib, bunday yumushlarni yaqinlari bo'lmish o'qituvchi, ota-ona, o'rtoqlarining zimmasiga orta boshlaydi. Bunday bolalar, tabiiyki, biror ishni bajarishdan zavq, lazzat yoki qoniqish tuymaydilar.

Maktab davrida, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda adabiy ta'lim o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ma'lumki, boshqa o'quv fanlari bo'yicha o'tiladigan darslardagi izlanishlar natijasida o'quvchilar avvaldan ayon bo'lgan yagona xulosaga kelishadi. Masalan: to'qqiz karra to'qqiz dunyoning hamma burchagida, qaysi tilda, qanday yo'llar bilan echilishidan qat'i nazar, natija, to'g'ri javob bitta – sakson bir. Bu mutaxassislar tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan ilmiy haqiqat-xulosa. Yoki ona tili darslarida “kim?”, “nima?” so'roqlariga javob bo'ladigan so'z turkumi hamisha ot deyilishi qabul qilingan. O'quvchilar gapning morfologik tahlili jarayonida qanday topshiriq berilishidan qat'i nazar, bu so'roqlarga javob bergan so'zlarni ot ekanligini aniqlaydilar. Bu ham avvaldan aniqlab qo'yilgan yagona ilmiy haqiqat. Ammo adabiy ta'limning o'ziga xosligi shundaki, u

ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, unda har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarini belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilib, faqat o'zining badiiy haqiqatini chiqarishi mumkin.

O'rganilayotgan badiiy matn, undagi qahramonlar, tasvirlangan biror hodisa yoki vaziyat borasida har bir o'quvchining asar va darslik mualliflarinikidan, o'qituvchisidan farq qiluvchi o'z xulosasi bo'lishi mumkin va bu mantiqqa zid bo'lmaydi.

Boshlang'ich adabiy talim metodikasi ilmida adabiy qahramonning shaxs sifatidagi o'ziga xos ruhiy olami va axloqiy sifatlarini anglash o'quvchi oldiga qo'yilgan muhim didaktik talablardan hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday bilimni o'zlashtirish ma'lum darajada fikriy zo'riqish asosida kechadi. Darsda asar ustida ishlash mobaynida adabiy qahramon shaxsi va hayoti tahlili asnosida o'quvchining o'zi ham hayotga faol kirib boradi. O'zgalarni o'rganish orqali o'z shaxsiyatiga xos sifatlarni shakllantiradi. Asar qahramonlariga munosabatiga qarab, o'quvchi shaxsini belgilash mumkinligi ham haqiqatdan yiroq emas.

Bshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziquvchanligi, bilishga intilishi so'nmagan davrida ulardagi mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib shaxsiyatida ijobiy fazilatlar shakllantirishga, mustaqil fikr egasini tarbiyalashga erishish maktab ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. *“Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to'qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish – fikrning dushmanidir”*<sup>59</sup>, - degan edi italiyalik ertakchi J. Rodari.

Ko'pincha, ta'lim amaliyotida o'quvchiga tayyor bilimlarni “yig'ib oluvchi”lik roli topshiriladi. Ta'limning bunday bir yoqlama tashkil etilishi xotiraning mexanik faoliyatiga tayangan bo'lib unda tuyg'ular, fikrlar ishtirok etmaydi, binobarin, bunday ta'lim o'quvchini faol ijodiy ishlashga o'rgatmaydi.

Inson psixologiyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, o'quvchi bir narsani ikki marta eshitishni xushlamaydi.

---

59. Родари Ж. Грамматика фантазий. Перевод с итальян. Ю.А. Добровоцкий. –Москва: “Прогресс”, 1978. С. 190.

Vaholanki, ta'lim tizimida, hatto, bugun ham o'quvchi bitta ma'lumotga kamida to'rt marta – o'quv materiali yangi mavzu sifatida tushuntirilganda, u mustahkamlanganda, uy vazifasini bajarish mobaynida va keyingi darsda javob berish jarayonida to'qnashadi. Hamma darslarning uy vazifasini so'rash, yangi mavzu bayoni, uni mustahkamlash va uyga topshiriq berish tarzida bir xil tizimda olib borilishi boladagi qiziquvchanlikni susaytirib, ta'lim-tarbiya jarayonini zerikarli qilib qo'yadi. Darslar o'quvchining qiziqish va istaklariga muvofiq tashkil qilingandagina samarali bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish maqsadida tashkil qilingan o'qish darslarida ularga ma'lum vaqt ichida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar oldiga har xil adabiy timsollarni mustaqil taqqoslash talabini qo'yish ularda qat'iy qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida bunday ko'nikmani hosil qilish uchun, avvalo, ularni konkret shaxs yoki hodisani kuzatish, taqqoslab o'xshash va farqli tomonlarini ko'ra bilish, umumiy va xususiy jihatlarni, ikkinchi darajali narsalarni ajrata bilishga yo'naltirish talab qilinadi.

Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni narsa-hodisalarni taqqoslashga o'rgatish – tafakkurning oddiy, shu bilan birga favqulodda ahamiyatli turi hisoblanadi. U muayyan umumiylikka ega bo'lgan har xil hodisalarni qiyoslashdan yuzaga keladi. Umumiy belgilarga ega bo'lgan predmetlar solishtirilganda ularning farqli tomonlari ham ko'rinadi. Ikki yoki bir nechta timsol tabiatidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash uchun inson fikran ularning o'ziga xos xususiyatlarini ajratadi, belgilarini aniqlaydi (analiz qiladi) va ularni taqqoslagan holda umumiy tomonlarini tayin etadi (sintez qiladi). Shundan so'nggina o'z mustaqil fikrini aytadi.

Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish uchun o'qituvchidan o'quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning to'g'riligini tekshirish va dalillashga, bu yo'lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishga, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlariga, hattoki o'qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar, o'z fikrini aytishga o'rgatish talab qilinadi.

Muallim tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi; qolipda fikrlashiga yo‘l qo‘ymasligi; nafaqat darslik muallifi yoki o‘qituvchisining, balki o‘rtoqlari fikr-mulohazalarini ham takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga etaklashi; o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi; har bir o‘quvchi oldiga o‘ziga xos muammo, savol yoki topshiriq qo‘ya olishi va uni echishga yo‘naltirishi; uchraydigan qiyinchiliklarni engishga odatlantirishi zarur.

Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida: o‘quv topshiriqlarining noto‘g‘ri qo‘yilishi; o‘quvchilarni muntazam ravishda erkin faoliyatga undamaslik; mustaqil faoliyatning rivojlanganlik darajasiga e‘tibor bermaslik o‘quvchi fikrlashidagi mustaqillikning rivojlanishga to‘siq bo‘ladigan asosiy sabablardandir. O‘quvchilardagi tanqidiy tafakkur va mulohazaning etarli darajada taraqqiy etmaganligi, estetik did hamda madaniy saviyaning pastligi badiiy asar qimmatini yuzaki baholashga olib keladi. Asar to‘g‘risida chuqur fikr yuritmasdan turib unga baho berishga shoshilish hollari asl turmush bilan badiiy asar o‘rtasidagi farqni anglay olmaslikka olib keladi.

Bugungi boshlang‘ich adabiy ta‘lim metodikasi o‘quvchining u yoki bu badiiy asarni o‘qib, tushunishining o‘zini etarli emas deb hisoblaydi. O‘quvchi asarga yangicha yondasha bilishi kerak. Bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining saviyasi va bilimdonlik darajasiga bog‘liqdir. Shunda o‘quvchining kichik yoshidan narsa va hodisalar, odamlar haqida mustaqil nuqtai nazari shakllana boradi. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bu fazilat o‘zgalarning tashqaridan bergan ko‘rsatmalari mahsuli emas, kichik o‘quvchining shaxsiy fikri, mustaqil o‘ylashi va bir qarorga kelishining natijasi bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi o‘quvchilarining tortinchoq bo‘lishiga, fikrini ochiq aytmay, dilida saqlab qolishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchini faqat o‘zi yaxshi bilgan, uni qiziqtiradigan masalalar haqida fikrlashga, yozishga undash kerak bo‘ladi. O‘quvchi uchun o‘zi yaxshi bilmagan, o‘ylamagan mavzu haqida yozishdan azobliroq yumush yo‘q. Bunday topshiriq uning shaxsida yuzakilikni keltirib chiqaradi, ko‘chirmachilikka majbur qiladi. O‘quvchida bezovta, uyg‘oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va

nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg‘otish, har bir narsaning mohiyatiga kirishga yo‘naltirish lozim bo‘ladi.

L. Tolstoyning fikricha, bolalarda tafakkur erkinligini o‘stirish uchun ularni ijodga undovchi hayotiy omil va kerakli material bilan ta‘minlash zarur. Bolaga erkinlik berish, “uni o‘qitishni bas qilish” shaxs shakllantirishda juda katta samara beradi. *“Agar mening bolalarga berganlarimni usul deb atash mumkin bo‘lsa,- degan ekan L. Tolstoy, - u usullar quyidagilardan iborat: a) ularga eng katta va xilma-xil mavzularni taklif etish va tanlash ixtiyorini berish. Bu mavzular bolalar uchun maxsus tanlangan bo‘lmay, o‘qituvchining o‘zi uchun ham o‘ta jiddiy va qiziq bo‘lishi; b) bolalarga namuna sifatida faqat tengdoshlarining ishlarini berish; v) eng muhimi, bolalarning ishlarini tekshirayotganda daftarining ahvoliga, xatining sifatiga, xatolariga va ayniqsa, uning ifoda tarziga, aytish joiz bo‘lsa, uslubiga hech qachon tanbeh bermaslik kerak”*<sup>60</sup>. Ana shunda boshlang‘ich adabiy ta‘lim oldiga qo‘yilgan maqsad amalga oshishi bir muncha tezlashishi mumkin.

O‘quvchining mehnati oson bo‘lishi kerak emasligi, ularni mustaqil bilim olish, ko‘nikma shakllantirish, malaka hosil qilish, mehnatga qiziqtirish, o‘zida muayyan axloqiy sifatlarni qaror toptirishga odatlantirish zarurligi, bu esa qiyinchiliksiz amalga oshmasligi taniqli pedagoglar tomonidan ko‘p bor ta‘kidlangan. Faqat qiyinchiliklarning me‘yorini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Toki, bu mehnat o‘quvchining yosh xususiyatlariga mos, o‘zlashtiriladigan bo‘lishi, uni bajarish huzur va zavq bag‘ishlashi lozim. Insonga nisbatan bo‘lgan talabchanlik uni kamolot sari etaklashi va o‘zini rivojlantirishga undashi kerak.

O‘quvchilarda o‘z fikrini ifodalash ko‘nikmasini shakllantirishga boshlang‘ich sinflardan boshlab katta e‘tibor berish lozim. Ma‘lumki, boshlang‘ich sinf va kichik o‘smirlik davrida diktant yoki bayon yozishda yaxshigina natijalarga erishgan o‘quvchilar yuqori sinflarga borganda adabiy yoki erkin mavzularda ijodiy ishlar yozishga qiynalib qoladilar. O‘zgalarning fikrini juda chiroyli qilib takrorlab beradigan “savodli” o‘quvchilar ko‘pincha o‘z fikrlarini ifodalab berolmaydilar. Ular yo asar mazmunini qayta hikoya qiladilar yoki

---

60. Стоюнин В. Я. Избранные педагогические сочинения. –Москва, «Педагогика», 1991. С. 361.

darslik mualliflari yoxud o'qituvchisining darsda aytganlarini takrorlaydilar. Ko'pchilik o'quvchilar maktabni o'z fikr va qarashlaridagi originallikni keraksiz deb bilgan holda bitirib ketadilar. Shuning uchun ham fikrni ifodalash ishini fikr aytishga uyalmaydigan davrdan, ya'ni boshlang'ich sinflardan, xatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qish darslarida badiiy asarlar bilan ishlash ijodkorlarning asarlari zamiriga singdirgan yuksak insoniy g'oyalarni o'quvchining ko'ngil mulkiga aylantirish demakdir. Bu o'quvchilar ularni faqat o'qishi bilan emas, balki tom ma'noda uqishi, o'rganishi va bilganlarini yozma yoki og'zaki ravishda ifodalashi orqali amalga oshiriladi. O'qish darslarida asosiy ish asarni o'qish, matn haqida o'quvchilar bilan suhbatlashish, uni tahlil qilishdan iborat. Badiiy asarlar orqali o'quvchining hayotga yaqin, qiziqarli masalalar bilan doim band bo'lgan aqli o'quv materialini o'zlashtiradi. Kuzatishga, mantiqiy asoslar va xulosalarga o'rgangan o'quvchi asta-sekinlik bilan qachonlardir o'zi uchun mavhum bo'lgan fikrlarni ham ilg'aydi, ularda ham qiziqarli narsalarni ko'ra biladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qilgan badiiy asarni o'rtoqlari bilan birgalikda tahlil qilishlari, asar matnidagi hayotiy muammolarga munosabat bildirishlari ularda tanqidiy nuqtai nazarni shakllantiradi. Bu hol tarbiyalanuvchilarni biror ishga yuzaki yondashmaslikka, puxta o'rganmay, asoslar topmay turib fikr aytmaslikka o'rgatadi. Aslida tanqid to'plangan qator ma'lumotlar asosida tahliliy muhokama qilishdir. O'quvchini shunday belgilarni qidirishga va ularni tahlil qilishga o'rgatish uni jiddiy fikrlashga, ehtiyotkorlik bilan mulohaza yuritishga moyil qiladi.

O'qish darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ular bilan asar haqida suhbatlashish, asar matnidan javob izlashga (matnni aynan takrorlashga emas) majbur etadigan savollar berish, savollar yordamida o'quvchini asar mohiyatiga olib kirish, undagi tasvir haqida ongli ravishda, to'la ishonch bilan ma'lum xulosalarga kelishga ko'maklashish juda muhim. Badiiy asar tahlili jarayonida asarning mazmun va shakli orasidagi aloqani nazardan qochirmaslik, unda aks etgan shaxs bilan jamiyat orasidagi munosabatga e'tibor qaratish ham o'qish darslarining samaradorligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida badiiy asarlarni ijodiy

o'rganish o'quvchilardan ko'p tomonlama, murakkab faoliyatni talab etadi. O'quvchi o'z tasavvur, tuyg'u va tafakkur kuchi bilan asar timsollarini o'rganadi, muallifning axloqiy-estetik qarashlarini anglaydi, bularning barchasini o'z hayotiy olami bilan taqqoslaydi. Shu yo'l bilan matn mohiyatiga imkon qadar kirib boradi. Badiiy asarlar va ular haqidagi qarashlarni o'zlashtirish jarayoni o'quvchining tushuncha-yu tuyg'ulari hamda dunyoqarashining shakllana borishi bilan tabiiy ravishda bog'liq bo'ladi. Badiiy asar tahlili muallif obrazli tafakkurining mohiyatini anglatadi. Bu jarayondagi bilish inson tafakkurining olamni anglashga bir umr, to'xtovsiz intilishi demakdir.

O'qish darslarida badiiy asarni to'laqonli o'zlashtirish tuyish va fikrlashning birligi orqali amalga oshadi. O'zlashtirish uchun esa fikrlash lozim. Har qanday asar zamirida uning tahliliga asos bo'ladigan jihatlar ifodalangan bo'ladi. Hamma gap tahlil jarayonida hayotiy va badiiy mantiq asosida mana shu jihatni ilg'ay olishdadir.

Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosida bilim olishlarini ta'minlashda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich adabiy ta'lim metodikasi ilmi har bir o'qish darsi oldiga tarbiyaviy, ta'limiy, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi maqsadlar qo'yilishi lozimligini ko'zda tutadi. Bu xil maqsadlar to'g'ri belgilab olinsa, dars jarayoni shu asosda tashkil etilsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi. Afsuski, hozir ham dars jarayonida o'qituvchining diqqat markazida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini ta'minlash emas, balki o'z faoliyatini tashkillashtirish masalasi ustuvorlik qilib kelmoqda. Ya'ni o'qituvchi darsga tayyorlanishda o'quvchilar emas, o'zi qilishi kerak bo'lgan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni birinchi o'ringa qo'yadi. Butun diqqat-e'tiborini ana shunga qaratadi. O'quvchilar ikkinchi planga tushib qoladi.

Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda dars shaklini oldindan aniqlab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda: o'quv materialining mazmuni, hajmi, darsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va qiyinlik darajasini belgilash; materialning o'quvchi hayotiy tajribasi, ilgari o'zlashtirgan bilimi va aqliy-amaliy faoliyati bilan aloqasini o'rnatish; o'quvchining mustaqil ishlari va o'quv topshiriqlari tizimini aniqlash;

darsning jihozlarini, axborotlarning asosiy va qo‘shimcha manbalarini o‘rnatish ko‘zda tutiladi.

O‘qish darslari sinfdagi o‘quvchilar bilan yalpi ishlash, ayni vaqtda har bir bolaning mustaqil faoliyatini birgalikda qo‘shib olib borish ko‘zda tutilgan holda, o‘qitishning jamoa, guruh yoki individual shakllarida tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari, o‘qish darslarining maqsad va vazifalariga, mazmun va metodlariga mos keladigan tizim ham zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarini badiiy asarlar o‘qishga o‘rgatish, shu asosda ularni mustaqil fikrlashga odatlantirish uchun ota-onalarini bolalariga kitob o‘qib berishga majbur qilishi lozim. Buning uchun maktabda bolalar va ota-onalarning kitob o‘qishiga bag‘ishlangan birgalikdagi majlislarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday majlislarda ota-onalarga farzandlariga o‘qib berishi lozim bo‘lgan badiiy asarlar ro‘yxatini yozdirish, avvalo, maktab kutubxonasini zaruriy adabiyotlar bilan boyitish, sotib yoki ijaraga olish mumkin bo‘lgan kutubxonalar yoxud internet sahifalari haqida ma’lumot berish kerak bo‘ladi. Kitoblarning o‘qilish muddatini belgilash va ota-onalarni bundan xabardor qilish zarur. Bolasining ertasi uchun qayg‘uradigan ota-onalar bu ishlarni bajarishadi. O‘qituvchi belgilangan muddatda o‘qilgan badiiy asarlar ustida ishlash darslarini tashkil qilishi, suhbat asnosida o‘quvchilariga matn mazmunini qayta hikoyalashni emas, balki munosabat bildirishni talab qiluvchi savol-topshiriqlar bilan murojaat qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompyuterga qiziqishlari baland ekani ayon. O‘qituvchi o‘quvchilardagi shu tabiiy xususiyatdan oqilona foydalana bilishi kerak. Ya’ni ular o‘qishlari lozim bo‘lgan badiiy asarlarni elektron kutubxonalardan topib o‘qishni tavsiya qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yoki kompyuter orqali ko‘rilgan multfilm, kinolar bilan ularning kitob variantini solishtirish borasida ham suhbatlar tashkil etish mumkin. Bunday taqqoslash darslarida o‘quvchilar kitobda ifodalangan, kino yoki multfilmda aks ettirish aslo mumkin bo‘lmagan muhim jihatlarni topishga yo‘naltirilishi, buning sabablari haqida o‘ylab ko‘rishga undalishi, qahramonlar shaxsini ochishda kitobda aks ettirilgan baland



tuyg‘ular tasviri, iztiroblar ifodasining qanchalar muhim ekanini anglashga yo‘naltirilishi zarur.

Boshlang‘ich sinf yoshidan o‘quvchilarni kitob o‘qishga yo‘naltirishning yana bir yo‘li ularni rag‘batlantirishdir. O‘quvchilar ma‘lum bir sinfni tamomlasalar ularga maqtoov yorliqlari beriladi. Ana shu yorliqlar o‘rniga taniqli shoir yoki yozuvchilarning kitoblari sovg‘a qilinsa, foydaliroq bo‘ladi. Qolaversa, taniqli bolalar shoirlari yoki yozuvchilari bilan o‘quvchilar uchrashuvlarini tashkil etish, ular bilan yosh kitobxonlar o‘qigan asarlar yuzasidan suhbatlar uyushtirish ham o‘quvchilarning badiiy so‘zga muhabbatini oshirishi tabiiy.

Xullas, yosh avlod ma‘naviy takomilini ta‘minlashda, ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda kitobdan oqilona foydalanish, buni to‘g‘ri tashkil eta bilish oilada ota-onaning, ta‘lim muassasalarida o‘qituvchilarning burchidir.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

“Qish” ustida ish

E’tibor qilinsa, taqdim etilayotgan barcha dars ishlanmalari yoki badiiy matnlarning tahlili, asosan, o‘quvchilarning mustaqil faoliyati va tafakkuri taraqqiyotiga yo‘naltirilganligini payqash mumkin. Bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishni maktabgacha tarbiya muassasalari mashg‘ulotlaridan boshlab amalga oshirish maqsadga muvofiq ekani ayon. Ta‘lim-tarbiyaning dastlabki bosqichida bu yo‘nalishda erishilgan muvaffaqiyatlar boshlang‘ich sinflarning dastlabki bo‘g‘inidan izchillikda davom ettirilishi bu boradagi samaradorlik garovidir. Shu ma‘noda Tursunboy Adashboevning birinchi sinf “O‘qish kitobi” darsligidan o‘rin olgan “Qish” she‘rini kichik o‘quvchilarning mustaqil tafakkuri va faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirilishini ta‘minlashni quyidagicha tashkil etish mumkin. Avval o‘qituvchi she‘rni ifodali qilib o‘qib beradi:

*Shudgor uzra uvullar*

*Ayoz bobo bo‘roni.*

*Mehmon bo‘ldi qish fasli*

*Oq choyshabga o‘ranib.*

*Bundan buyon ko‘cha-ko‘yda*

*Piyma, etik g‘archillar.*

*Tinim bermas chanalarga*  
*Shokir, Ra'no, Barchinlar*<sup>61</sup>.

So'ngra o'quvchilarini matn mohiyatiga olib kirishga, ularni mustaqil mulohaza yuritib fikr aytishga undash maqsadida asar tahliliga kirishiladi. Darslikda mazkur mavzuni o'rganishga qaratilgan birgina: “*Qish fasli sizga nimasi bilan yoqadi?*” degan savol kiritilgan. Bu savol o'quvchilarni asar mazmuniga mutlaqo murojaat qildirmaydi. Bu bo'yicha ish tutilsa, she'r o'qilgan joyida qolib ketaveradi. Uning o'quvchi shaxsiga hech qanday ta'siri bo'lmaydi. Axir bu she'r ma'lum maqsad asosida yozilgan va darslikka material sifatida kiritilgan. U shu maqsadga xizmat qilmog'i uchun o'qituvchi va o'quvchilar uning mohitiga kirmoqlari lozim. Buning uchun o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilariga quyidagi savol va topshiriqlar bilan murojaat qilishi masadga muvofiq bo'ladi:

1. Shudgor nima ekani haqida o'ylab ko'ring. Uni qachon va qaerda ko'rgansiz?

2. “Ayoz bobo” kimligini bilasizmi? Uning bo'roni nimadan boshlanadi, sizningcha?

3. Ayoz boboning bo'roni shudgorda uvillashini qanday tasavvur qilasiz? Fikringizni tushuntirib bering.

4. Nima deb o'ylaysiz, nega she'rda qish fasli “mehmon” deyilyapti? Sizningcha, uning mehmonligi nimalardan iborat?

5. Qishning “oq choyshabga o'ranib” kelishini siz qanday tushundingiz? “Oq choyshab” sizningcha nimani anglatadi?

6. She'rdagi: “*Piyma, etik g'archillar*” degan gapni, sizningcha, qanday tushinish mumkin? Piyma nima ekanini bilasizmi? Bilganlaringizni o'rtoqlaringizga ham aytib bering.

7. Yaxshilab o'ylab ko'ringchi, qishda piyma va etiklar nima uchun g'archillaydi? Bu g'archillagan narsa oyoq kiyimlarimi yoki boshqa narsami?

8. Shokir, Ra'no va Barchinlar nima uchun chanalarga tinim bermasligining sabablarini tushuntirib bering.

9. She'rga nima uchun “Qish” deb sarlavha qo'yilganini bilasizmi? Bilganlaringizni bizga ham aytib bering.

---

61. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. /Muallif-tuzuvchilar: T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. — T.: «Sharq», 2017. — 11-bet.

Ko‘rinib turibdiki, “Qish” she‘ri mazmuni yuzasidan bolalarga taqdim etilgan savol va topshiriqlarning birortasiga matnda tayyor javob yo‘q. O‘quvchilar o‘zlari mustaqil mulohaza yuritib fikr aytadilar. Shu tariqa badiiy asarning mohiyatiga kiradilar. Undagi go‘zalliklarni ilg‘aydilar, tasavvur qiladilar. Mustaqil mulohaza yuritib munosabat bildiradilar. Shu tariqa badiiy matnlarning mohiyatiga kirib so‘zdan, tabiat tasviridan zavq oladilar. Bu zavq ularning ma‘naviy kamolotiga o‘z ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Uyga vazifa sifatida she‘rni yod olishni topshirish mumkin. Sinfdagi chizishga qobiliyati bor bolalarga qish bilan bog‘liq suratlar chizib kelishni torshirish ham o‘rinli bo‘ladi. Keyingi darsda suratkashlar chizganlarini o‘rtoqlariga o‘qib berishlarini talab qilish shart. Bu bilan o‘qituvchi qobiliyat egalarini rag‘batlantirgan bo‘ladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Mustaqil fikrlash tushunchasiga berilgan quyidagi ta‘rifga diqqat qiling: *“insonning o‘z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, o‘z intellektual imkoniyati darajasida turli yo‘l, usul, vositalar yordamida, mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir”*. Uni qanday tushunganingizni birorta badiiy matnga tayangan holda asoslab bering. O‘qish darslarida o‘quvchilarni mustaqil mulohaza yuritiga yo‘naltirish borasida mulohaza yuriting.

2. Inson tafakkuri mustaqilligi darajasining belgilari – **tashabbuskorlik**, **pishiqlik** va **tanqidiylik** haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni o‘z qarashlaringiz asosida, hayotiy yoki badiiy haqiqatlar misolida tahlil qiling.

3. Quyidagi fikrni o‘qing: *“Maqsad, vazifalari o‘zga shaxslar tomonidan belgilab qo‘yilgan, tayyor usul va vositalarga tayangan holda boshqalarning bevosita yordami bilan amalga oshiriladigan jarayonda ishtirok etgan tafakkur fikr qaramligini anglatadi. Mustaqil tafakkurga ega bo‘lmagan kishilar tayyor qarashlar quliga aylanadilar. Ularning tafakkuri ...o‘shish-rivojlanishdan orqada qoladi. Mustaqil fikrlash rivojlanmagan hollarda kaltabin, aqlan erinchoq, behafsala, loqayd odam shakllanadi. Tafakkurning*

*qaramligi, muteligi jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga to'siq bo'lib, alohida odam uchun fojidadir*". Undagi kalit so'zlarni alohida ajratib yozing. Har bir so'zning mazmun-mohiyatini ochib bering. Olingan ko'chirmadagi har bir jumlaning alohida-alohida tahliliga torting. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan fuqarolar jamiyatining, alohida shaxsning fojiasi darajasi haqida birgalashib mulohaza yuriting.

4. Inson tafakkurining mustaqilligi darajasini o'lchash **mezoniga** e'tibor qiling: *"Ma'lum vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajarilgan aqliy ish ko'lami va sifati"*. Siz buni qanday tushundingiz? Bo'lajak o'qituvchi sifatida o'quvchilar bilimining mustaqilligi darajasini nimalarga asoslanib baholash to'g'risida o'ylab ko'ring. Kursdoshlar o'zaro muhokama qilib, bir asar misolida qarashlaringizni asoslang.

5. Quyidagi fikrga diqqatingizni qarating: *"Ammo adabiy ta'limning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarini belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilib, faqat o'zining badiiy haqiqatini chiqarishi mumkin"*. Bunga nima deysiz? Ona tili yoki matematika darslarida kelinadigan yagona haqiqat-xulosa bilan adabiyot darslarida qabul qilinadigan turfa haqiqatlar bir-biridan mazmunan qanday farq qiladi? Ularning mohiyatida, Sizningcha, nima yotadi? Ko'chirmaning mazmunini sharhlang.

6. Italiyalik mutaxassis J. Rodarining: *"Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to'qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish – fikrning dushmani"*, degan qarashlariga asoslanib buni amaliyotga tatbiq etish yo'llari haqida o'ylab ko'ring. Siz, bo'lajak o'qituvchi, mazkur holatni qanday tashkil etgan bo'lardingiz?

7. Yuqorida: *"Muallim tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi; qolipda fikrlashga yo'l qo'ymasligi, nafaqat darslik mualliflari, balki o'rtoqlarining fikr-mulohazalarini takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga etaklashi; o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi; har bir o'quvchi oldiga o'ziga xos muammo qo'ya olishi va uni echishga yo'naltirishi; uchraydigan qiyinchiliklarni*

*engishga odatlantirishi zarur*”, degan fikr bor. Siz buni, bo‘lajak o‘qituvchi sifatida, qanday tasavvur qilasiz? Muallim zimmasiga qo‘yilayotgan har bir talabni alohida ajratib yozing. So‘ngra ularni tahlilga torting. Amalda qanday bajarish kerakligi haqida birgalashib mulohaza yuriting.

8. Lev Tolstoyning *“bolani o‘qitishni bas qilish kerak”*ligi haqidagi fikriga qanday qaraysiz? Unda o‘qituvchi, ya’ni Siz, darsda nima qilasiz? Bu haqda mazkur darslikdan o‘qib o‘rganganlaringiz bilimlarga tayanib mantiqli mulohaza yuriting. Tolstoyning qanchalar haq ekaniga o‘zingiz qanoat qiling. Xulosalaringizni kursdoshlar bilan o‘rtoqlashing.

9. Bo‘limda alohida ta’kidlangan: *“O‘quvchining mehnati oson bo‘lishi kerak emas”* degan fikrga o‘z munosabatingizni bildiring. Bu haqiqatga qo‘shilasizmi, yo‘qmi? Har ikkala holatda ham fikringizni asoslang.

10. Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimiga xos bo‘lgan: *“o‘quvchidagi ichki imkoniyatlarni uyg‘otib, uni o‘zi o‘qiydigan va o‘zini o‘zi tarbiyalaydigan qilish, bu jarayonda o‘zi tashabbuskor, ehtiyojmand bo‘lishiga erishish lozimligi hamda butun kuchni shunga yo‘naltirish”* tarzidagi vazifalarning mohiyatiga kirishga urinib ko‘ring. Bularni boshlang‘ich adabiy ta’lim amaliyotida qanday tashkil etish mumkin deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni o‘rtoqlashing.

11. O‘quvchilarni kitob o‘qishga jalb qilish borasidagi taklif va mulohazalarga diqqat qiling. Ularni yana qanday tavsiyalar bilan boyitgan bo‘lardingiz?

12. T. Adashboevning 1-sinf *“O‘qish kitobi”* darsligidan o‘rin olgan *“Qish”* she’ri mazmuni yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlarga diqqat qiling. Ularni tahlilga torting. Munosabat bildiring.

13. *“Mashrab g‘azallarida ilohiy ishq tavsifi”* mavzusida tahlil-insho yozing. Insholarni birgalikda muhokama qiling. Xatolar ustida suhbatlashing.

## 11-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'qish turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

### Reja:

1. "O'qish" tushunchasining mohiyati.
2. O'qish asnosida uqishga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar.
3. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'qish turlari.
4. Sinfдан tashqari o'qish darslarining asosiy vazifalari.
5. Badiiy matn tahlili namunasi: N. Norqobil. "Xarita" hikoyasi.

• **Tayanch so'zlar:** *O'qish – yozilgan matn bilan tanishish, ma'lum axborotga ega bo'lish, matnning kompozitsion tuzulishini ilg'ash, matnga xos til xususiyatlarini farqlash, mantiqiy va emotsional ifodalarni tushunish.*

Boshlang'ich sinflar ta'limida o'qish o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra alohida o'rinni egallaydi. O'qish asnosida nafaqat savodxonlik yoki axloqiy tarbiya, balki bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish, tasavvurni boyitish, mustaqil faoliyatga intilishning dastlabki belgilari ham shakllana boshlaydi. Boshlang'ich sinflardagi boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishda samaradorlikka erishish o'qish darslarining qanchalik to'g'ri, savodli, oqilona va maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilishi bilan uzviy bog'liqdir.

O'quvchilar matn mutolaasining to'g'riligi, tezligi, ongliligi va mazmunini o'zlashtirish kabi xususiyatlari bilan ilk bor o'qish darslarida tanishishadi. O'qish orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan bilim, egallanishi lozim bo'lgan ko'nikma, malakalarning shakllantirilishi va takomillashtirilishiga imkon yaratiladi. Bundan tashqari, aynan o'qish asnosida insonni kashf etish, shu jarayonda o'zligini anglash, qolaversa, olam sirlarini bilishga ham erishiladi.

O'quvchiga bilim berish, uning dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviyatini sog'lomlashtirish, shaxsiyatida ijobiy tuyg'ularni tarkib toptirish maqsadidan kelib chiqib boshlang'ich sinflar «O'qish kitobi» darsliklarida ona tabiat, atrof-olam, vatan tarixi va bugungi qiyofasi, millatning ulug'lari, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular qamrab olingan. Darsliklarda bu yo'nalishlar bo'yicha

batafsil tushuncha berishga mo'ljallangan yuksak badiiy bitiklar, axloqiy-t'limiy, ilmiy-ommabop asarlar imkon qadar qamrab olinishi maqsadga muvofiqdir. 1 – 4-sinflar uchun tuzilgan amaldagi “O‘qish kitobi” darsliklarining barchasida bunga erishishga harakat qilingan.

Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarining dastlabki savod o‘rgatish bosqichida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish, ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilishga yo‘naltirishlar misolida o‘qish texnikasi egallanganidan so‘ng bu jarayon muayyan badiiy matnlar ustida ishlash asosida murakkablashtirib boriladi. «O‘qish kitobi» darsliklaridagi mavzular ko‘magida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga, ularning so‘z boyligini orttirish, og‘zaki, yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirish, nutq madaniyatini o‘stirish, ma’lum izchillikda dunyoqarashini boyitib borish, badiiy savodxonligini shakllantirish, mustaqil faoliyatga yo‘naltirish ishlarini ham amalga oshirish nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi” darsliklarida taqdim etilgan har bir rukn uchun tanlangan materiallarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o‘quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e’tibor qaratilmog‘i ham o‘ta muhimdir. O‘quvchilar darsliklar yordamida o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo‘lishini tushunib etishlariga erishish o‘qituvchi oldidagi muhim vazifalardandir. Bundan tashqari, o‘qituvchi har bir ta’limiy vazifani bajarishni aniq metod va usullardan foydalangan holda amalga oshirishni nazarda tutgan holda ularni zamonaviy-mantiqiy metod va usullar bilan boyitib borilishiga erishishi ham davr talabidir.

Sinfidagi har bir o‘quvchining o‘qish bo‘yicha Davlat ta’lim standarti talablariga javob berishi uchun, birinchi navbatda, o‘qish ko‘nikmalarini to‘g‘ri, puxta egallash va uni takomillashtirib borish zarur. O‘qish ko‘nikmalari savod o‘rgatish jarayonida shakllanadi, o‘qitishning keyingi bosqichlarida, badiiy matnlar ustida ishlash asnosida takomillashadi. O‘qish malakasining sifati, asosan, badiiy matnni to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qishni nazarda tutadi. O‘qish darslarida bu kabi ko‘nikmalarning puxta egallanishiga erishish uchun matn mazmuni yuzasidan mantiqli, o‘quvchini mustaqil mulohaza yuritishga, mustaqil faoliyatga undaydigan, unda o‘z qarashlari shakllanishiga imkon yaratadigan savol va topshiriqlar tuza bilish,

asarlar tahlilini ulardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Afsuski, amaldagi “O‘qish kitobi” darsliklarida aynan mana shu didaktik ish turi oqsayotgani ko‘zga tashlanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar “Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi” darsligi asosida bu ko‘nikmalarni egallashlari va asarlar ustida ishlashni boshlang‘ich adabiy ta‘lim maqsadiga muvofiq tarzda tashkil eta bilishlari ma‘naviy komillik sari yuz burgan avlodni shakllantirish garovidir.

Buning uchun avval “o‘qish” tushunchasining mohiyatiga kirib olish maqsadga muvofiqdir. **O‘qish** – yozilgan matn bilan tanishish, uni tushunish va o‘zlashtirishga qaratilgan nutqiy faoliyatning bir turi bo‘lib, shaxslararo kommunikativ faoliyat sohasiga daxldor. O‘qish muloqot shakllaridan biridir. O‘qish til o‘rganish jarayonining asosi hisoblanib, matnda ifodalangan ma‘lumotlarni o‘zlashtirish ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Bu, o‘z navbatida, inson faoliyatining har qanday turida tildan erkin va samarali foydalanish imkoniyatini beradi<sup>62</sup>.

Psixologik adabiyotlarda “o‘qish” tushunchasi zamirida mutolaa jarayonidagi “o‘qish texnikasi” va “o‘qish asnosida uqish” anglashiladi. O‘qish jarayonida o‘qilganlarni tushunish o‘qish texnikasi bilan bog‘liq bo‘lib, inson tafakkurining bir ko‘rinishi sifatida mutolaa jarayonida matn mazmuniga xos bo‘lgan elementlarni o‘zaro bir-biri bilan bog‘lagan holda mohiyatiga kirish, mazmunni anglash demakdir. Kitobxon nafaqat tayyor ma‘lumotlarni o‘zlashtiradi, balki o‘qiganlarini o‘z tajribasi, bilimi va mavjud ma‘lumotlari bilan taqqoslaydi. O‘qish asnosida uqishga ta‘sir ko‘rsatuvchi faktorlar quyidagilardan iborat:

- ma‘lum axborotga ega bo‘lish;
- matnning kompozitsion tuzulishini ilg‘ash;
- matnga xos til xususiyatlarini farqlash;
- mantiqiy va emotsional ifodalarni tushunish;
- matndagi ma‘lumotlarning leksik va grammatik xususiyatlari, ifoda uslubining o‘quvchi nutq uslubiga, leksik va grammatik bilimdonlik darajasiga yaqinligi;

---

62 Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – 448 с. С. 347.



- matni o‘zlashtirish asnosida o‘quvchi diqqatining uni anglashga yo‘naltirilganligi;

- o‘quvchining matni o‘qish va mazmunini o‘zlashtirishdagi individual psixologik xususiyatlari.

Metodik adabiyotlarda o‘qish quyidagi umumlashtirilgan turlarga ajratilishi ta’kidlanadi:

- 1) analitik va sintetik o‘qish (psixologik xususiyatlarga tayanish);

- 2) tarjimali va tarjimasiz o‘qish (o‘qilayotgan matni anglashda ona tilning ishtiroki darajasi);

- 3) lug‘at bilan yoki lug‘atsiz o‘qish (o‘quvchilarga yordami darajasi oldindan belgilab qo‘yilgan);

- 4) individual, frontal, sinfda va uyda o‘qish (o‘quv ishlarini tashkil etish shakliga ko‘ra);

- 5) ko‘rish, kuzatish, izlanish, tanishuv (ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiqligi va jarayonning borishiga ko‘ra).

O‘qishning barcha turlari o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi va hamisha bir-birini to‘ldirib boradi. Nutq faoliyatining bu turidan foydalanilganda o‘quvchilarning o‘qishdan maqsadini anglashi bu jarayonning muhim shartlaridan biri sanaladi.

O‘qish ta’lim bilan bog‘langanda o‘quvchi oldiga qo‘yiladigan topshiriqlar o‘qishdan oldingi va o‘qishdan keyingi ish turlariga ajratiladi. Ta’limda o‘qish mutolaa texnikasini o‘zlashtirish (harflar, so‘z, so‘z birikmalari, jumlar va ularning tovush turlariga e’tibor) nazarda tutiladi va to‘g‘ri o‘qish, ya’ni tajribali kitobxon tarbiyalashni nazarda tutadi. Tajribali kitobxon bilan tajribasiz kitobxon o‘qish asnosida har xil jihatlari bilan ajralib turadi. O‘qish tajribasi kam kitobxon sekin va bir xil tezlikda o‘qiydi. Bu hol o‘qilgan materialning anglanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sekin o‘qish o‘qilganlarni aytib berishga tenglashtiriladi. Ko‘pincha diqqat matnning mohiyatiga emas, uning shakliga qaratiladi. Tajribali o‘qirmanda maqsad o‘qish tezligi bilan birga matn mazmuni ham muhim hisoblanadi. Ya’ni tajribali o‘qishda o‘qilgan narsaning mohiyatiga kirish va uni o‘zlashtirish bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi. Tez o‘qiganda ko‘zlarning fiksasiya (astoydil tikilib qarash, zo‘riqish)si uncha katta bo‘lmaydi. Tez o‘qilganda diqqat matnning mazmuniga qaratiladi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'qishning quyidagi turlari ustuvor ahamiyat kas etadi:

1)*sinfda o'qish* o'quv ishlarini tashkil etish shaklining ma'lum joyga asoslangan turidir. Biror matnni sinfda o'qish ishlari darsda o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Matn ustida ishlash, ya'ni uning tahlili o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligida amalga oshiriladi;

2)*to'g'ri o'qish* xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qishni nazarda tutadi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarni buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, boshqa tovushni qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, leksik ma'nosining qanchalik o'zlashtirilganligiga, bo'g'in hamda morfemik tarkibi bilan birga o'quvchining so'z boyligiga ham bog'liq. O'qituvchining tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni oldindan xattaxtaga yozib qo'yishi, har xil texnika vositalar ko'magida jadval ko'rinishida ekranda namoyish qilishi, ularni o'quvchilarga ovoz chiqarib birgalikda o'qitishi yaxshi natija beradi.

O'qish jarayonida o'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qiganda, -ning va -ni qo'shimchalarini aralashtirib yuborganda uni o'qishdan to'xtatmasdan xatosini yo'l-yo'lakay aytib to'g'rilab ketish mumkin. Lekin xato o'qish asnosida gap mazmuniga putur etganda esa qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matnning xatoga yo'l qo'yilgan o'rni yuzasidan savol berilib diqqati qaratilsa, o'quvchi o'z xatosini payqaydi va e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi;

3)*tez o'qish* me'yoriy tezlikdagi o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi lozim. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish tez o'qish deyiladi.

O'qish tezligi to'rt yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning xarakterini, ya'ni g'oyaviy-mavzuviy murakkabligini, so'z va gaplarning tuzilishini, ularning

bolalar nutqida qay darajada ishlatilishini, o‘qishning to‘g‘ri va ongli bo‘lishini hisobga oladi. O‘quvchilarning o‘qish tezligi har xil bo‘ladi, albatta. O‘qituvchining vazifasi boshlang‘is sinflardagi har bir o‘quvchining o‘qish tezligini standart talablarga moslashtirishdan iboratdir. O‘qish sur‘atini oshirishda tez aytishlar, she’rlar, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o‘qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi;

4)**ifodali o‘qish** badiiy-obrazli matnning xususiyatlarini anglagan holda adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilib o‘qishni nazarda tutadi. Ifodali o‘qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g‘oyasi va jozibasini to‘g‘ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ohang og‘zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg‘u, nutq tezligi, to‘xtam (pauza), ovoz past-balandligining yig‘indisidir.

Asarlarning, ayniqsa nazmiy bitiklarning badiiy-didaktik tahlili ularni ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan bog‘lab olib boriladi. Ifodali o‘qishga o‘rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o‘z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O‘quvchilarda ifodali o‘qish malakasini shakllantirish uchun asarni o‘qituvchining o‘zi ifodali o‘qishi muhim ahamiyatga ega;

5)**ongli o‘qish** yaxshi o‘qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o‘qish o‘qilgan matnning mazmunini anglash, asardagi yetakchi qarashlarni ajratish, undagi muhim bilan nomuhimni farqlash, obrazlar va badiiy vositalarning asardagi o‘rni hamda ahamiyatini tushunib etish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini ifodalay olish demakdir;

6)**ovoz chiqarib o‘qish** o‘qilayotgan har qanday matnni baland ovozda, talaffuz me‘yorlariga, ifoda qoidalariga rioya qilgan holda, til xususiyatlari, o‘qish ritmi, to‘xtamlar va bq.larga amal qilgan holda o‘zi yoki boshqalar uchun o‘qishni nazarda tutadi. Bunga boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining darslarda biror matnni o‘quvchilar uchun ifodali o‘qib berishi yoki o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun amalga oshirgan mutolaasini kiritish mumkin;

7)**jamo bo‘lib o‘qish** asosan, boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida matnlarni o‘qituvchi bilan birgalikda barcha

o'quvchilarning ovoz chiqarib mutolaa qilishlari nazarda tutiladi. Bunda o'qituvchi har qanday matnni avval o'zi ifodali o'qib beradi. O'quvchilar eshitish orqali badiiy bitikning ifodali o'qilish ohangini o'zlashtirib olganlaridan so'ng birgalikda amalga oshiriladi;

8) **individual o'qish** har qanday matnning bir kishi tomonidan o'qilishini nazarda tutadi. Bunday o'qish sinfda, mustaqil tarzda, sinfdan tashqari o'qishlarda amalga oshiriladi. Individual o'qishning ovoz chiqarib o'qish, ichdan o'qish singari turlari mavjud. O'qirman ichdan o'qiganda asarning mohiyatiga kirishi engil kechadi. Ovoz chiqarib o'qiganda o'quvchining diqqatining bir qismi ifodali o'qish talablariga rioya qilishga qaratiladi. Individual o'qishga xos bo'lgan har ikkala sifat ham o'quvchi uchun foydalidir;

9) **mustaqil o'qish** o'quvchining o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladigan o'qish turidir. O'qishning bu turi o'qish texnikasining avtomatlashganligi, leksik-grammatik ko'nikmalarning yuqori darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar mustaqil o'qishda diqqatning shaklga emas mazmunga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi. Zamonaviy metodik adabiyotlarda mustaqil o'qish ma'lumotni tanlab o'qish, asl mazmuni tushunib o'qish hamda matn mazmunini to'liq anglagan holda o'qish singari turlari keng tarqalgan. Mustaqil o'qishning sanalgan birinchi varianti zamirida izlanuvchi o'qish, ikkinchisida tanishuv o'qish va uchinchisida esa tadqiqiy-tahliliy o'qish nazarda tutiladi. Mustaqil o'qishning bu turlari o'qish maqsadidan kelib chiqqan holda ta'limiy o'qishlarning har xil variantlari sifatida xarakterlanadi;

10) **uyda o'qish** ham o'qish shakllarining bir turi bo'lib, o'quvchilar tavsiya etilgan yoki o'zlari ixtiyor etgan matnlarni uyda, xohlagan vaqtlarida o'qiydilar. O'quvchilarning bunday o'qishlarining natijalariga o'qituvchi darsda yoki sinfdan tashqari vaqtlarda e'tibor qilgan maqsadga muvofiqdir. Uyda o'qish uchun maxsus xrestomatiyalar, sinfdan tashqari o'qish uchun mo'ljallangan qo'llanmalar tavsiya etiladi.

O'qishning yana bir qator turlari mavjudki, ular ta'limning boshqa bosqichlari uchun bevosita ahamiyatlidir:

1) **analitik o'qish** ham o'qishning ta'limiy turlaridan biri hisoblanib o'qirman faoliyati matnning mohiyati, mazmuni va tuzilishini ochishga yo'naltiriladi. Analitik o'qishda o'quvchining

diqqati matnning til xususiyatlari, tuzilishi va nutq komponentlarini aniqlashga qaratilgan holda jo'ngina qabul qilinishini nazarda tutadi. O'qishning bu turi sintetik o'qishga qarama-qarshi qo'yiladi. Kommunikativ ta'limda o'qishning har ikkala (analitik va sintetik) turi bir-birini to'ldirib keladi;

2)*sintetik o'qish* tez, yugirik o'qish demakdir. Sintetik o'qish tez o'qish bilan birga leksik va grammatik bilimlarning puxta egallanganligini, matndagi notanish so'zlarning mazmunini yo'l-yo'lakay anglab olinishini, har xil mayda tushunchalardan yaxlit bir fikr chiqara bilishni taqozo etadi. Analitik va sintetik o'qish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi. O'qilganlarni o'qish sintetik o'qishning har bosqichida muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim amaliyotida sintetik o'qishdan foydalanish uchun o'quvchilar grammatik materiallarni, o'qish ko'nikmasini, notanish so'zlarni matnning umumiy mazmunidan kelib anglab olish ko'nikmalarini yaxshi egallagan bo'lishlari lozim. O'quvchilarda sintetik o'qish ko'nikmalarini shakllantirish uchun hamisha uyga o'qishga berilgan matnning ma'lum qismi sinfda tahlilga tortilgan bo'lishi va uzluksiz ravishda ularning mustaqil o'qishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Sintetik o'qish samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri matndir. Matn o'zlashtiriluvchan, ma'lumotlarga boy va mazmundor bo'lishi shart. Sintetik o'qish uchun taqdim etilgan matn analitik o'qishga berilgan matndan engilroq, grammatik qoidalarga to'liq amal qilingan va o'zida kam miqdordagi yangi leksikaga ega bo'lishi kerak va hk. O'quvchilarning sintetik o'qishlari nazorat qilinganda asosiy e'tiborni matnning o'qilishi va o'qilganlarning tushinilganlik darajasiga qaratish masadga muvofiqdir;

3)*tanlab o'qish* ma'lum maqsad yo'nalishiga qaratilgan o'qish turidir. Bu o'qishda nazarda tutilgan biror masala yuzasidan zarur ma'lumotlarni aniqlash, bu borada umumiy tasavvur olish maqsadida o'qish tushuniladi. Olingan ma'lumotlarga tayangan xolda o'qirman shu matn unga kerak-kerakmasligini aniqlaydi. Bunda o'quvchi matnning sarlavhasiga, ichki sarlavhalarga, alohida xatboshilar yoki ayrim jumalarni o'qish bilan kifoyalanaadi. Tanishuv o'qishi, izlanuvchi o'qish va tadqiqiy o'qishlar ham shu maqsad va faoliyatga asoslanadi;

4)**diskursiv o‘qish** ham analitik o‘qishga xos xususiyatlar asosida amalga oshiriladi. Diskursiv o‘qishda ham xuddi analitik o‘qishdagidek o‘quvchining diqqati matnni til shakli, tuzilishi va nutq komponentlarini aniqlashga qaratilgan holda qabul qilinishini nazarda tutadi. O‘qishning bu turi ham sintetik o‘qishga qarama-qarshi qo‘yiladi. Kommunikativ ta’limda o‘qishning har ikkala turi bir-birini to‘ldirib keladi;

5)**tanqidiy o‘qish** ham kommunikativ o‘qishning bir turi bo‘lib, matn mazmunidagi qarashlar bilan o‘qirmanning shaxsiy qarashlari, bilimi va hayotiy tajribalariga tayangan holda baholashi nazarda tutiladi.

O‘qishning bunday turi matnni to‘liq va aniq tushunilishi asnosida amalga oshiriladi. O‘qishning bu turi o‘qish malakasining yuqori darajada shakllanganligi, matn mazmuni, uslubi, til shakllarini tahlil qila bilish, o‘qilganlarga tanqidiy nazar bilan qarash ko‘nikmalarining shakllanganligini taqozo etadi. Tanqidiy o‘qish filolog talabalarning adabiyotshunoslik va matnshunoslik darslaridagi amaliy faoliyati hisoblanadi;

6)**lug‘at bilan o‘qish** begona tilda yaratilgan matnlarni lug‘atlar yordamida o‘qish va mazmun-mohiyatiga kirishni nazarda tutadi. O‘qishning bunday turi tarjimonlar, chet tilni o‘rganayotgan qiziquvchilarga xosdir. Bunday o‘qishda o‘qirman o‘rganilayotgan tilga xos bo‘lgan izohli lug‘atlardan, ba’zan ikki yoki uch tillik lug‘atlardan foydalanadi;

7)**filologik o‘qish** esa filologik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari talabalarining, adabiyotshunos-sinchilarning filologik yoki pedagogik yo‘nalishdagi bilimlarni o‘zlashtirish, biror badiiy asrni tahlilga tortish maqsadida amalga oshiriladigan o‘qishlaridir;

8)**ekstensiv o‘qish** ham ta’limiy o‘qishning bir turi. U lotincha *extensivus* so‘zidan olingan bo‘lib – kengaytirilgan, yoyilgan ma’nolarini anglatadi. Bunday o‘qish ma’lum yo‘nalishdagi hajman katta matnlarning umumiy mazmunini ilg‘ab olish maqsadida amalga oshiriladi. O‘qirmanning diqqati matnning shakliga emas, mazmuniga qaratiladi, ya’ni sintez analizdan ustuvorlik qiladi. Ekstensiv o‘qishda mazmunning mohiyatiga chuqur kirib uni o‘zlashtirib olish emas, balki uni umumiy tarzda ilg‘ab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘qish turi oliy filologik ta’limda talabalarning mustaqil o‘qishlari va

auditoriyada domlasi bilan birgalikda muhokama qilishlari uchun tavsiya etiladi. Unda ma'lum maqsad asosida o'qilgan asarlarning muhokamasi, u bilan bog'liq yozma ishlar uyushtirish va hk. bir qator mantiqiy faoliyat nazarda tutiladi<sup>63</sup>.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlariga katta ahamiyat beriladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlarini tashkil etishdan **maqsad** o'quvchida o'qish malakasini takomillashtirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, o'zini qiziqtirgan mavzularga oid kitoblarni tanlay biladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qigan kitobini to'g'ri baholay oladigan ongli, faol kitobxon tarbiyalashga, o'quvchi shaxsida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarishga xizmat qilishdir. Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy **vazifalari** o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yuritishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish, o'quvchilarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirishdan iboratdir. Sinfdan tashqari o'qish boshlang'ich adabiy ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, havasini orttiradi.

Boshlang'ich sinflarning adabiy ta'limi samaradorligini ta'minlashda sinfdan tashqari o'qilgan asarlar ustida ishlash uchun 1959 yildan boshlab alohida dars soatlari tashkil etilgan. Bunday darslar 1 – 2-sinflarda haftada bir marta, 3 – 4-sinflarda esa ikki haftada bir marta o'tkazilib kelingan. Amaldagi dasturga ko'ra, bunday darslar 1 – 4-sinflarda 2 haftada bir marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida ham haftadagi oxirgi alifbe darsida sinfdan tashqari o'qilgan asarlar tahliliga alohida vaqt ajratilgan. Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar ustida ishlash uchun o'quv dasturida ham soatlar belgilab qo'yilgan.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlarini amalga oshirishda har bir bolaga individual yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish talab etiladi.

---

63. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: ИКАР, 2009. – 448 с. –С. 347.

O‘quvchilarda kitob ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash omilidir.

Quyida sinflar adabiy ta‘limida o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlari sinfdan o‘qish bilan uzviy bog‘liqlikda uyushtiriladi. Sinfdan o‘qish sinfdan tashqari o‘qish uchun zarur bo‘lgan o‘qish malakalarini shakllantiradi, o‘quvchini o‘qigan asarini tushunishga o‘rgatadi, lug‘atini boyitadi. Kichik o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlari qiziqarli va o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, bolalarning bilimni boyitadi, ularga qiyoslash uchun material beradi. Kichik o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlari ularda mustaqil kitob tanlash va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sinfdan tashqari o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish uchun bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi birinchi sinfnings savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Unga darsning 17 – 20 daqiqasi ajratiladi va u “sinfdan tashqari o‘qish ma‘lumoti” deb yuritiladi.

2. Boshlang‘ich bosqich birinchi sinfnings ikkinchi yarim yilligiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda haftada bir dars sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar ustida ishlashga ajratiladi.

3. Asosiy bosqich esa 2 – 4-sinflarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda kichik kitobxonlarning o‘qish malakalari ma‘lum darajada mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qigan asarlari yuzasidan suhbatlar uyushtiriladi, bilim, ko‘nikma va malakalari baholanadi.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limdagi sinfdan tashqari o‘qish bosqichlarida dastur talablari bilan birga o‘quvchilarning qiziqishlari ham inobatga olinadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o‘qituvchi o‘qib bersa, o‘qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o‘tkazilsa, boshlang‘ich bosqichda butun sinf o‘quvchilari bir xil kitob bilan ta‘minlanadi, barcha o‘quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko‘rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o‘qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, multfilmlardan parchalar ko‘rsatilishi, musiqiy daqiqalar o‘tkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. “Ertaklar bayrami”, “Ifodali o‘qish” tanlovlari o‘tkaziladi. Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o‘quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo‘lgan yaxshi o‘qish



ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlash tamoyillari boshlang'ich adabiy ta'lim metodikasi ilmining vazifalaridan biridir. Kichik o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlari uchun kitoblar tanlash, o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yillik o'quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqish, bulardan ota-onalarni xabardor qilish ham maqsadga muvofiqdir. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi.

2. Asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. O'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.

4. O'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi.

5. Mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir. Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus darslardir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar tahliliga bag'ishlangan darslarda kichik kitobxonlarning qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi, faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi xilma-xil bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi, darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish shuncha oson kechadi.

Boshlang'ich adabiy ta'lim metodikasi ilmida o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qigan asarlari ustida ishlash darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunishi ham talab etiladi:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan asarlar qayd etib boriladi. Kichik kitobxonlar o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigan kitoblari haqida gapirib beradilar, darsda o'zaro fikr almashish muhiti yaratiladi. Bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin.

2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya etish shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatish, sinfda ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitoblardan parchalar o'qib berish, rasmlarini ko'rsatish yoki filmini namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.

3. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari ham mumkin. Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

4. Kichik o'quvchilarga o'qish uchun kitoblar targ'ib qilinganda sinfdan tashqari o'qishga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

5. Sinfdan tashqari o'qish yuzasidan bir qator ommaviy ishlar: adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan sinfdan tashqari o'qish va sinfda o'qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda ham gapirib berishlari mumkin.

O'quvchilarga sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etiladigan asarlarning hajmi haqida adabiyot o'qitish metodikasida turlicha fikrlar bor. L. A. Sheymanning tavsiyasiga ko'ra II – IV sinflar o'quvchilari 5 – 20 (II sinfda 5 – 10, III sinfda 10 – 15, IV sinfda 15 – 20)...<sup>64</sup> bet atrofida o'qishlari mumkin. Muallifning e'tirof etishicha, bular me'yoriy ko'rsatkichlar emas, balki taxminiydir. Umuman, uyda har kuni kamida bir soat mobaynida biror kitobni o'qish inson

---

64. Шейман Л. А. Стимулирование самостоятельного чтения школьников. – Фрунзе: «Мектеп», 1987. –С. 79.

ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksizlik har kuni o'qish orqali ta'minlanadi. Shuningdek, masalaning boshqa qirrasini ham bor: hajmi kattaroq parchalarning dastlabkisida so'z o'rganishga e'tibor ko'proq qaratilsa, keyingilarida takror ishlatilish xususiyatiga ko'ra avvalgi leksika jadal o'zlashadi, notanish so'zlar esa kamayib boradi. Natijada asta-sekin matnlar ham hajman kattalashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini haftada 2 – 3 kun bir soatdan badiiy asar o'qish bilan shug'ullanishga yo'naltirish kifoya qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining sinfda o'qish darslari misolida bolalarni o'qishga yo'naltirishi, badiiy asarlarning mohiyatiga kirish yo'llarini o'rgatishi uning o'qituvchilik burchidir. O'qituvchi metodist S. Matjonovning quyidagi xulosalarini: *“Siz darsliklardan hayot va uning qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan tanishasiz, ularni aql kuchi bilan qabul qilasiz, xotiringizda qayd etasiz. Ammo bu bilim va xulosalar hissiyotingizga zarracha ta'sir ko'rsatmaydi.*

*Badiiy asarni o'qiganda sizdagi bu “loqaydlik” faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodliklarga chulg'anadi – ruhlanasiz, g'azablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki u qalb dardi tufayli yaratilgan, dard esa suhbatdoshni bafarq qoldirmaydi”<sup>65</sup>.*

*“Ilmiy asarlar g'aflat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag'allik va razolatdan xolos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma'rifatli, baxt-saodatli bo'lishi uchun bab-baravar foydali va zarurdir”<sup>66</sup>.*

*“Badiiy asarni o'qish o'zicha hali hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o'qish va o'qiganni qanday tushunishdir. Demak, kitobxonlik – o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir”<sup>67</sup>* tinimsiz ravishda takrorlab ularning ruhiyatiga joylab qo'yishi boshlang'ich adabiy ta'limning maqsadiga erishish garovidir.

Xalqning fikrini uyg'otish, ko'zini ochish, atrof olam, jamiyat va o'zi to'g'risida o'ylab ko'rishdan tashqari, ommani faoliyatga undash,

---

65. Matjon S. Kitob ўқишни биласизми? –Т.:1993. 11-бет.

66. Matjon S. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. (Ўқитувчилар учун методик қўлланма). –Т.: “Ўқитувчи”, 1996. 37-бет.

67. Matjon S. Kitob ўқишни биласизми? – Т.:Ўқитувчи, 1993, 26-бет.

harakatga da'vat etish kabi ijtimoiy-siyosiy funksiyalarning barchasini adabiyot amalga oshirishi mumkin. Hamma zamonlarda ham badiiy asarda ijtimoiy munosabatlar, turmush muammolari, ro'zg'oriy yumushlar ham aks ettirilgan. Negaki, odam ijtimoiy mohiyatga ega va ijtimoiylashgandagina o'zini namoyon eta oladigan yaratq sifatida shunday munosabatlar qurshovida bo'lishga, binobarin, adabiyot ham insonni shunday muammo-munosabatlar og'ushida tasvirlashga mahkum. Har qanday katta-kichik hayotiy muammoga inson ko'ngil holatini anglatish, uning ruhiyati tovlanishlarini tasvirlash vositasi sifatida qaralsa, adabiyotning asl tabiatini anglash mumkin bo'ladi.


Keyingi paytlarda ziyolilar orasida «yoshlar kitob o'qimay qo'ydi» degan fikr hukmronlik qilib qoldi. Buning o'ziga yarasha asoslari ham bor, albatta. Ya'ni bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish asnosida nafaqat mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida, balki fuqarolar ma'naviyatida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustaqil ong, yangicha tafakkur tizimi shakllanib ulgurmay jamiyat ahli ruhiyatida ma'lum bo'shliq yuzaga kelib qoldi. Qolaversa, mamlakatda imloning o'zgarishi ham bu jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Shu sabab millat ma'naviy taraqqiyotida kamida o'n yillarga kechikish sodir bo'ldi. Yana shuni ham tan olish kerakki, kechagi jamiyatda ham hamma kitob o'qiyvermagan. O'qiydigan oilalarda, garchi ular kam bo'lsa-da, hamisha o'qilgan, o'qilyapti, o'qiladi.

Bolalarni ko'rkam asar o'qishga qiziqtirish, badiiy so'zni tuyish, undan ta'sirlanish va zavq ola bilishga yo'naltirish ularning ko'ngillarini injalashtiradi, tabiatini tozalaydi. Ko'pchilik ota-onalar, ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, hatto millat ziyolilari yosh avlodda badiiy kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish va uni yanada rivojlantirish yo'lida qayg'urmoqda.

Badiiy asar qog'oz-kitob ko'rinishida bo'ladimi, elektron shaklda o'qiladimi, bundan qat'i nazar uning beradigan ma'naviy ozuqasi o'zgarmaydi. Ayonki, kichik yoshdagi har qanday bolaning ruhiyatida ertak eshitishga moyillik bor. O'qituvchi sog'lom fikrlaydigan ota-onalarga Eynshteynning: *“Bolangiz yaxshi odam bo'lishini istasangiz kitob o'qib bering. Bolangiz yanada yaxshiroq odam bo'lishini istasangiz, yanada ko'proq kitob o'qib bering”*, - degan iqrorigini etkazishi,

ularning har kuni bolasiga kitob o‘qib berishiga erishishi bolalarda kitobga muhabbat hissini uyg‘otishdagi dastlabki qadami bo‘ladi.

**Boshlang‘ich adabiy ta’limda o‘qishning quyidagi turlari ustuvor ahamiyat kasb etadi:**



**O‘qish turlari**



Yosh avlod ma'naviy takomilini ta'minlashda maktab adabiy ta'limining har bosqichida badiiy asarlarni didaktik tahlilga tortish, kitobdan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, buni metodik jihatidan to'g'ri tashkil eta bilish ta'lim muassasalarida tarbiyachi va o'qituvchilarning, oilada esa ota-onaning burchidir.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

N. Norqobil. Xarita

4-sinf "O'qish kitobi" darsligidan N. Norqobilning "Xarita"<sup>68</sup> hikoyasi o'rin olgan. Darslikda hikoya matni ikkiga bo'lib berilgan. Bundan anglash mumkinki, har ikkala qism alohida-alohida soatlarda o'rganiladi va tahlilga tortiladi. Mazkur hikoya mazmuni bo'yicha darslikda taqdim etilgan savol va topshiriqlar nisbatan diqqatga sazovor. Lekin ular o'quvchilarning matn mohiyatiga chuqur kirib borishlarini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun hikoyadagi o'quvchilar diqqati qaratilishi kerak bo'lgan barcha o'rinlar savol yoki topshiriqqa aylantirilishi, shu asosda ruhiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

68. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sin uchun darslik. /S. Matchonov va bq. – T.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017. – 9–13-b.

bo‘lgan epizodlar haqida o‘quvchilar mulohaza yuritishlari maqsadga muvofiqdir.

Quyida bo‘lajak o‘qituvchilarga asar mazmuni asosida tuzilgan savol va topshiriqlar namunasi taqdim etiladi.

### **I qism mazmuni yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Rasulning “*rasm darsini jini suymas*”ligi bilan xarita chizishi va, ayniqsa, buni juda katta qiziqish bilan amalga oshirishi haqida o‘ylab ko‘ring. Sizningcha, buni qanday tushinish mumkin?

2. Rasulning matematik qobiliyatidan tashqari yana qanday iste’dodi borligini payqadingiz? Buni qanday topganingizni tushuntirib bering. Bu sohada ishlaydigan mutaxassislar qanday nomlanadi? Bilmasangiz lug‘atlardan qarab aniqlang.

3. Rasulning: “*akasi uyda kezlardagina Samadning izmiga bo‘ysun*”ishi sabablarini aniqlashga urinib ko‘ring.

4. Rasulga Samad chizgan xaritadagi: “*egri-bugri chiziqlar bo‘ylab borayotgan chegarachilar, ulardan ham ko‘ra iti ko‘proq ma‘qul bo‘l*”gani sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Nega shunday deb o‘ylaysiz, fikringizni asoslang.

5. Samadni qishlog‘ining xaritasini chizishga undagan tuyg‘ular haqida o‘ylab ko‘ring. Fikringizni asoslab bering.

6. Rasulning “*...ostonaga yaqin joyda xumday boshini oyoqlari ustiga qo‘yib yotgan it*”i bilan xaritadagi chegarachilar itini taqqoslang. Nima deb o‘ylaysiz, ular orasida qanday farq bor, sizningcha? Qarashlaringizni matnga tayangan holda asoslab bering.

7. Muallimning qishloqni “kichik vatan” deganiga qanday qaraysiz? Sizningcha “Katta Vatan” nima? Buni qanday aniqladingiz?

8. Samad bilan Rasul chizgan ikkita Vatan bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?

9. Samadning: “*Vatanni qorovul emas, chegarachi qo‘riqlaydi*”degan gapi mohiyatiga kiring. Chegarachi bilan qorovul o‘rtasida qanday farq bor deb o‘ylaysiz? Nima uchun shunday xulosaga kelganingizni asoslab bering.

10. Rasulning “*ichida o‘zidan qattiq ranji*”gani sababini matndan topib o‘qing. Bu sabab (*bu gap dastlab o‘zining xayoliga kelmagani*)ning mohiyatiga kirishga urinib ko‘ring.

11. Samadning Rasulga qarata: “*O‘zing chizolmaysan, chizganni ko‘rolmaysan*” tarzidagi aybnomasi mohiyatiga kirishga urinib

ko‘ring. “Ko‘rolmaslik” degan tushunchani sharhlab bering. Siz uni qanday tushunasiz?

12. Nima deb o‘ylaysiz, Samad haqmi? Rasul rostdan ham o‘rtog‘ini ko‘rolmadimi yoki bu holatni boshqacharoq ifodalash mumkinmi?

13. Samadning: “*Xarita chizish uchun kalla kerak*” degan gapiga diqqat qiling. Jumladagi “kalla” so‘zi to‘g‘ri ishlatilganmi? “Kalla” bilan “bosh”ning nima farqi bor? O‘ylab ko‘ring.

## **II qism mazmuni yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Rasulni, “*rasm darsini jini suymaydigan*” bolani xarita chizishga undagan kuch nima deb o‘ylaysiz?

2. Samadning xaritasidagi uni bezab turgan, Rasulni xayratga solib, boshini qotirgan jihat nima ekanini toping. Nima deb o‘ylaysiz, nega Rasulning xaritasi Samadnikidek chiqmayapti? Topganingiz sabablarni asoslashga urining: nega shunday deb o‘ylayapsiz?

3. Nima deb o‘ylaysiz, nega Rasulga “*zo‘r kashfiyot bo‘lib tuyulgan ishi akasi tomonidan tez va osongina ilg‘a*”nib qoldi? Sizningcha buni qanday izohlash mumkin? Fikringizni isbotlang.

4. O‘ylab ko‘ringchi, Rasul nega uyalib qoldi? Axir u o‘zi uchun kashfiyot qildi-ku! Buning uchun uyalish kerakmi? Siz nima deysiz?

5. Hikoya matnida: “*Negadir xaritadagi tasvirni aynan ko‘chirgisi kelmadi*” degan fikr bor. Yaxshilab o‘ylab ko‘ringchi, bu jumla sizga nimani anglatyapti?

6. “*Rasulning xaritada Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarini ko‘hna yodgorliklar misolida tasvirlashining sababini ayting*”. Fikringizni asoslashga urinib ko‘ring.

7. Rasulning “*paxta suratini juda chiroyli tushir*”gani sabablarini topishga urinib ko‘ring. Uning “*...tog‘ning suratini chizib, oppoq bulutlar ustiga nur sohib turgan oftobni qo‘ndir*”ganini ham tahlil qiling. Sizningcha, bu nimadan dalolat beradi?

8. “*Daftaringizga O‘zbekistonga chegaradosh davlatlarning nomlarini va ularning poytaxtlarini yozing*”.

9. Samad unitib qoldirgan papkasini olgani qaytib kelganida Rasulning xaritaga mahliyo bo‘lib termulib o‘tirishi, Sizningcha, nimadan dalolat beradi?



10. Siz ham o‘z qishlog‘ingiz, tumaningiz, mahallangiz yoki shahringizning xaritasini chizishga urinib ko‘ring. Tayyor xaritaga tayanib chizsangiz ham mayli. Muhimi – urinib ko‘ring. Chizganingiz xaritangizni o‘qituvchingiz bilan birgalikda sinf xonasiga osib qo‘ying.

“Xarita” hikoyasi shu savollar va topshiriqlar ko‘magida o‘quvchilar tomonidan tahlilga tortiladi. O‘quvchilar Rasulga va Salimga xos bo‘lgan sifatlarni ochish va ularga munosabat bildirish asnosida odamni kashf etadilar, tuyg‘ularni farqlaydilar, o‘zlarini tadqiq qiladilar. Insonga xos bo‘lgan xarakter-xususiyatlarni baholashni o‘rganadilar. Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi. Uy vazifasi sifatida ikkinchi qism mazmuni asosida taqdim etilgan 10-topshiriqni berish mumkin.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Badiiy asar o‘qishning inson kamolotidagi o‘rni va ahamiyati haqida fikrlashing. Qarashlaringizni bir-biringiz bilan o‘rtoqlashing.

2. Oxirgi o‘qigan kitobingiz haqidagi fikr-mulohazalaringizni bo‘lishing. Qarashlaringizni asardan misollar keltirib asoslang.

3. O‘qish turlari haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘ldingiz. Bu bilimlar sizning hayotingizda qanchalik ahamiyatli ekani haqida o‘ylab ko‘ring. Buni asoslang.

4. O‘qishning har bir turiga xos bo‘lgan yetakchi xususiyatlarni ajratib daftaringizga yozing. Ularning o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsating.

5. O‘qish turlarining qaysi birini boshlang‘ich adabiy ta’limda eng samarali deb hisoblaysiz? Nima uchun? Fikringizni asoslang.

6. Qo‘shimcha o‘qish turlarining mazmun-mohiyatiga diqqat qiling. Ularning qaysi biridan boshlang‘ich adabiy ta’limda foydalanish mumkin deb o‘ylaysiz. Fikringizni asoslang.

7. O‘quvchilarning uyda o‘qishlari uchun belgilangan mezonlarga e’tibor qarating. Ular, sizningcha, o‘rinlimi? Yoki alohida taklif-mulohazalaringiz bormi? Bo‘lsa, o‘rtoqlashing.

8. Matndagi: *“Badiiy asarni o‘qiganda sizdagi bu “loqaydlik” faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodliklarga chulg‘anadi – ruhlanasiz, g‘azablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki u qalb dardi tufayli yaratilgan, dard esa suhbatdoshni bafarq*

*goldirmaydi*” degan qarashni tahlilga torting. Unda muallif kimga murojaat qilgan deb o‘ylaysiz? Shu fikrga qo‘shilasizmi yo‘qmi? Fikringizni asoslang.

9. Har bir sinf o‘quvchisining o‘qish tezligiga qo‘yilgan Davlat standart talablarini aniqlang. Bu talablarga har bir o‘quvchi javob berish shart, buni bilasiz. Shundan kelib chiqib boshlang‘ich adabiy ta’limda o‘qishning qaysi turlari eng samarali ekanini aniqlang. Qarashlaringizni asoslang.

10. Har biringiz oxirgi o‘qigan kitobingiz haqida taqriz-insho yozing. Inshoyingizga o‘rtoqlaringizning fikrini oling.

11. Avval N. Norqobilning 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligidan o‘rin olgan “Xarita” hikoyasi matni bilan tanishing. So‘ngra uning mazmuni asosida tuzilgan savol va topshiriqlarga javob bering. Bergan javoblaringiz asosida mazkur asarni o‘rganish bo‘yicha avvalgi mavzularda taqdim etilgan dars ishlanmalari misolida ishlanma tayyorlang.

## **12-mavzu. Boshlang‘ich adabiy ta’limda badiiy asarlarning didaktik tahlili haqida tushuncha**

### **Reja:**

1. Adabiy asarlarni didaktik tahlil etishda o‘qituvchi-o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati
2. Didaktik tahlil usullari
3. Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida badiiy asarni didaktik tahlilga tortish bosqichlari.
4. Badiiy matn tahlili namunasi: M. Yusuf. “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor” she’ri.

**Tayanch so‘zlar:** *tekstual tahlil, timsolli tahlil, muammoli tahlil, matnni tasvirlash.*

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ta’lim tizimida yoshlar, xususan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi – axborotlar oqimi asnosida bilimi, texnika va texnologiyalar ko‘magida intellektual imkoniyatlari, dunyoqarashining nisbatan tez boyib-kengayib borishi umumiy pedagogika va xususiy metodika sohalarida ham ko‘tarilish yuz berishini, o‘qitish mazmuni va metodlariga o‘zgartirishlar kiritilishini

taqozo etmoqda. Shularga bog‘liq holda boshlang‘ich adabiy ta‘lim metodikasini takomillashtirib borish ham davr talabidir. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limida takroriy bayon qilish mashqlarini kamaytirish, ijodiy va o‘qilgan matn yuzasidan o‘z fikrini bayon qilish ko‘nikmasini o‘stiradigan mashqlarni ko‘paytirish, asar qismlari va yaxlit matn ustida ishlanadigan jarayonni kengaytirish, badiiy bitik mazmuni va obrazlari ustida ishlashda o‘quvchilarning mustaqilligini oshirish, matnlarning didaktik tahlilida xilma-xil topshiriq turlarini yaratish, ta‘limda texnika vositalari va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun avval “didaktik tahlil” tushunchasining mohiyatiga kirib olish o‘rinli bo‘ladi. Prof. Q. Yo‘ldoshev o‘ining “Badiiy tahlil asoslari” nomli monografik tadqiqotida asarlar tahlili turlari haqida so‘z yuritarkan, didaktik tahlilga shunday ta‘rif beradi: **“O‘quv (didaktik) tahlili jamoa shaklida amalga oshirilib, badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglash orqali o‘quvchilarda ezgu ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan estetik-pedagogik faoliyatdir”**<sup>69</sup> va o‘quv tahlili belgilab qo‘yilgan vaqt davomida, muayyan joyda, yosh va intellektual darajasi bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida, ularning intellektual imkoniyatlari doirasida, jamoaviy tarzda amalga oshirilishi ko‘zda tutilishini aytadi.

Olim adabiy asarlarni didaktik tahlil etishda o‘qituvchi-o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini quyidagi uch usulda uyushtirilishini ma‘um qiladi:

- a) muallifga ergashib yoki matn doirasidagi tahlil;
- b) badiiy obrazlar asosidagi tahlil;
- v) muammoli o‘quv tahlili.

Monografiyada didaktik tahlilning *birinchi* usulida o‘qituvchi badiiy matnning estetik mohiyatigagina emas, balki uning qurilish tartibiga ham amal qilishi va matn mantig‘ini, uning ichki tartibini aslo o‘zgartirmagan holda asar zimnidagi ma‘noni, badiiy jozibani o‘quvchilar bilan birgalikda kashf eta borishini ta‘kidlaydi. Buni **tekstual tahlil**, ya‘ni asar matniga tayanib tashkil etiladigan tahlil usuli deyish ham mumkinligini va bunday tahlil kyechimida o‘qituvchi yo‘naltiruvchi faoliyat ko‘rsatishini aytadi.

---

69 Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: “Камалак” нашриёти, 2016. 264-б.

*Ikkinchi* yoʻnalish, yaʼni obrazlarga tayanib tahlil qilishda oʻqituvchining eʼtibori asardagi timsollarga qaratilishi va asarning badiiy maʼnosi, jozibasi obrazlar ruhiyatini anglab borish asnosida ochilishini maʼlum qiladi. Bu usuldagi tahlilni muallif *timsolli tahlil* deb atashni maʼqul koʻradi va bu yoʻnalishda amalga oshiriladigan tahlilda oʻquvchilarning ancha faol ishtirok etishlariga imkoniyat tugʻilishini aytadi.

Asarlar didaktik tahlilining *uchinchi* usuli – *muammoli tahlil* haqida monografiyada tahlil asosan oʻquvchilar tomonidan olib borilishi koʻzda tutilishi taʼkidlanadi. Oʻqituvchi tarbiyalanuvchilari oldiga badiiy asar matnidan kelib chiqqan holda badiiy yoki hayotiy muammo qoʻyishini va ularga bu muammoni echish yoʻllarini koʻrsatib, bu kyechimda foydalanish mumkin boʻlgan qoʻshimcha adabiyotlar bilan taʼminlashi kerakligi aytiladi. Asar tahlili jarayonida oʻquvchilar faqat oʻzlari bilgan tushunchalaridangina foydalanib qolmay, bir qator yangi estetik-mantiqiy bilimlarni mustaqil oʻzlashtirib olishga ham majbur boʻlishlari maʼlum qilinadi. Jamoaviy muammoli tahlil kyechimida oʻquvchilarning maʼnaviy olamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan oʻzgarishlar sodir boʻlishi, muammoli tahlil faqat jamoaviy shaklda emas, balki individual yoʻsinda ham amalga oshirilishi mumkinligi, biror asar yuzasidan qoʻyilgan hayotiy-estetik muammoni echish uyga vazifa qilib berilganda, individual muammoli oʻquv tahlili yuzaga kelishi aytiladi.

Bu fikrlarning barchasiga qoʻshilgan holda aytish mumkinki, boshlangʻich adabiy taʼlimda didaktik tahlilning bu muammoli turi oʻquvchilarning yosh xususiyatlari va intellektual imkoniyatlari hisobga olinganda, kutilgan natijani berimsasligi ham mumkin. Shu bois didaktik tahlilning muammoli usuli adabiy taʼlimning yuqori bosqichlari maqsadiga muvofiqdir.

Monografiyadagi didaktik (oʻquv) tahlilda oʻquvchilar adabiy timsollarni oʻz taqdiri va oʻziga xos tabiatiga ega tirik kishilar tarzida qabul qilishlariga erishish kerakligi, shundagina, bu timsollar tuygan tuygʻular tarbiyalanuvchilarga ham yuqishi, taʼsir qilishi, yaʼni tarbiyalashi haqidagi qarashlarga ham qoʻshilish mumkin. Bu qarashlar bevosita boshlangʻich sinflar oʻquvchilariga ham daxldor.

Olimning badiiy asarlar didaktik tahlili mobaynida timsollarning ijobiy va salbiy kabi bir-biriga zid guruhlariga ajratilishiga yoʻl

qo‘ymaslik, har bir badiiy timsolni o‘zi qarama-qarshi tabiatli kishilar nuqtai nazaridan to‘g‘ri baholashga erishish lozimligi haqidagi qarashlari ham diqqatga sazovor. Kichik o‘quvchilarga atrofdagi odamlarni jo‘ngina yaxshi yoki yomonga ajratish mumkin emasligi, har bir kishi tabiatida ijobiy va salbiy sifatlar mavjudligi, mukammallik faqat Yaratganga xosligi badiiy timsollar misolida, xatti-harakatlari, tutumlari tahlili asnosida anglatib boriladi.

Mustaqillik tufayli ta‘lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar – boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha Davlat ta‘lim kogsepsiyasi va standartining yaratilishi, o‘quv dasturlarining davr talablaridan kelib chiqib yangilanishi, oradan o‘n yillar o‘tgach davlat ahamiyatiga molik bu pedagogik hujjatlarning takomillashtirilishi, darsliklarning yangilanganligi sohada ma‘lum taraqqiyot bo‘layotganidan dalolat beradi, albatta. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limida badiiy asarlarni didaktik tahlilga tortishda ham:

- asarlar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirishni bir tizimga solishga urinildi;

- asarlarning g‘oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, syujet chizig‘i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qilishiga, shuningdek, bog‘lanishli nutqining o‘sishiga e‘tibor qaratildi;

- o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti ekani ustuvorlik qila boshladi;

- sinfda o‘qishga o‘quvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish asosida tahlil qilinishiga samarali vositasi sifatida yondasha boshlandi.

Lekin dunyo miqyosidagi taraqqiyotning tezligi tufayli bu usullar bugun boshlang‘ich adabiy ta‘lim oldiga qo‘yilayotgan talablarga to‘liq javob berishga qodir bo‘lmay qoldi. Boshlang‘ich adabiy ta‘limda badiiy asar tahlilining muhim omillardan biri uning o‘quvchilarga hissiy ta‘siridir. Kichik o‘quvchilar muallifning asarda nazarda tutgan yetakchi fikrini tushunibgina qolmay, uni hayajonlantirgan haqiqatlar, voqea-hodisalarni tuyishlari, hayajonlanishlari, badiiy asar o‘qish va uning ustida ishlashdan zavq

ola bilishlari ma'naviyatlarining sog'lomlashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi jarayonidagi badiiy matnlarning didaktik tahlili asnosida o'quvchilarda mustaqil fikr paydo bo'lishi, munosabat uyg'onishi, muallif qayd etgan yoki o'qituvchi nazarda tutgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligidan qat'i nazar, o'z qarashlarini belgilab olishi zarur.

Boshlang'ich adabiy ta'limdagi badiiy asarlar tahlilida asarning estetik qimmati, badiiy go'zalligiga ham alohida e'tibor qaratilishi, shu asnoda o'quvchilarning badiiy savodxonligi ham ta'minlanishi zarur. O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata bilish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qilishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish, badiiy asarni tahlilga tortish asnosida uning mazmuni, undagi yetakchi fikrlar ahamiyatini ham anglab boradilar.

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarini shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligini, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilar badiiy til vositalari – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a va adabiy janr turlari – ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq, tez aytish kabilar bilan ham amaliy ravishda tanishib boradilar. Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi ham shakllanadi.

Ertaklardagi o'xshatishlar, jonlantirish va mubolag'alar o'quvchilarning tafakkur, tasavvur olamini boyitadi, adabiy savodxonligini oshiradi. O'quvchilarni asarlarning didaktik tahlili mobaynida matndagi shu kabi xususiyatlarni topishga yo'naltirish, savol-topshiriqlarga javob berish asnosida ulardan foydalanishga o'rgatish ham og'zaki nutqlarining boyishi, ham adabiy savodxonligining takomillashuviga asos bo'ladi. Masallardagi allegoriyani ochishda ham ko'chma ma'noli so'zlardan ko'p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal

bergani uchun ayrim ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar asarni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Boshlang'ich adabiy ta'lim metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya va pedagogikada belgilab qo'yilgan nazariy qoidalarga tayanishi maqsadga muvofiqdir. Sinfda o'qishni, badiiy matn didaktik tahlilining samarali tashkil etilishi uchun o'qituvchi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o'qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matnni idrok etish va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarni faqat asar matni bilan tanishtirish asosida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki, matn tagzaminidagi tarbiyaviy ta'lim uni tushunish, idrok qilish natijasidagina o'z ta'sirini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab etilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi, uning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Bunga boshlang'ich adabiy ta'limda asarlarning didaktik tahlili asnosida o'quvchilarda adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi badiiy bitikning san'at asari sifatida o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutishi lozim bo'ladi. Badiiy asar syujeti rivojida qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar matn ustida ishlashda uni yaxlit o'qish va idrok etishni talab qiladi. O'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakalarini shakllantirish va rivojlantirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini didaktik tahlil qilish kichik o'quvchilarga muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga mustaqil munosabatini uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishni taqozo qiladi. O'quvchi asar mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, uning didaktik tahlili jarayonida poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma'noni chuqur anglashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida badiiy asarlarni didaktik tahlilga tortish uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

1. Birinchi bosqich (sintez). Bu bosqichda kichik kitobxonlar matnni yaxlit idrok etadilar, asar mazmuni va undagi tasviriy ifoda vositalari bilan tanishadilar.

2. Ikkinchi bosqich (analiz)da tarbiyalanuvchilar asardagi voqealar rivojining izchilligini belgilash, qahramonlar xulq-atvori va tabiatiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini aniqlash (qahramonning mazkur vaziyatda nega shunday qilgani va buning sabablari o'rganiladi), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

3. Uchinchi bosqich (ikkinchi sintez). Bu bosqichda asar qahramonlarining muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni bir-biri bilan taqqoslash va baholash, asardagi yetakchi qarashlarni aniqlash, badiiy asarni hayotni bilish manbai va san'at asari sifatida baholash (qanday ma'lumotlarga ega bo'linadi, asar nimaga o'rgatadi, muallif o'z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan hamda ta'sirli tarzda etkaza oldi va hk.lar)dan iboratdir.

Asarning didaktik tahlili maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil faolligi ortadi. Chunki asarni tahlil qilish asnosida ular ijodiy jarayonni boshlaridan kechiradilar, bir qator noma'lumni kashf etadilar. Boshlang'ich adabiy ta'limda asarni o'qishga kirishishdan oldin kichik o'quvchilarni badiiy matnni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. O'quvchilar matn mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun unda tasvirlangan badiiy hayot bilan haqiqiy hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun mutolaadan oldingi tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi" darsliklarida sinfda o'qish uchun badiiy va ilmiy-ommabop matnlar taqdim etilgan. O'quvchilarni shu turfa mazmundagi matnlar bilan tanishtirish o'qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi. Tayyorgarlik bosqichida yozuvchi yoki shoirning bolalik xotiralari haqida gapirib berish, o'quvchilarning asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilishlari va asar pafosini his etishlari, undagi notanish yoki ko'p ma'noli so'zlar, murakkabroq tarzda obrazli ifodalarni anglab olishlari uchun izohlash ishlari amalga oshiriladi. Agar asar yil fasllari haqida bo'lsa, tabiat qo'yniga sayohat



uyushtirish ham sinfda o‘qishning muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Tayyorgarlik shakllaridan biri bo‘lgan bunday sayohatlardan tabiat tasviriga bag‘ishlangan, ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga, kasbga doir mavzular va tarixiy asarlar o‘rganilganda foydalanish mumkin. Ishlab chiqarish korxonalariga, muzey va boshqa joylarga sayohatlar tashkil etish ham tarixiy voqealarning to‘g‘ri idrok etilishini ta’minlaydi, kattalar mehnati bilan tanishtiradi, o‘quvchida mehnatga muhabbat uyg‘otadi, kasbga yo‘naltiradi va hk. Tarixiy materiallarni o‘rganishdan oldin ham u bilan bog‘liq film namoyish qilinsa, o‘quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi, mazkur tarixiy hodisa haqidagi tasavvurlari tiniqlashadi. O‘qituvchining muallif shoir va yozuvchilar haqidagi asarning yozilish tarixi bilan bog‘liq qisqacha ma’lumotlari ham badiiy bitikning o‘zlashtirilishiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. O‘qituvchi so‘zlab berayotganda ularning portretlari, bolalar uchun yozgan asarlarini namoyish etishi, ular haqidagi hujjatli filmlar bilan tanishtirishi ham o‘quvchilarning muallif ijodiga qiziqishlarini orttiradi. Kichik o‘quvchilar asarlarini o‘rganmoqchi bo‘lgan adiblar haqida ko‘p va xo‘p bilishlari boshlang‘ich adabiy ta’lim samaradorligining garovidir.

Asarni o‘qishga tayyorgarlik jarayoni bevosita o‘quvchilarning mustaqil izlanishlari asosida ham tashkil etilishi mumkin. Sinf dan sinfga ko‘chish bilan o‘quvchilarning yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi bilimlari ham ortib boradi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo‘yilgan talablar ham ko‘payadi. O‘qituvchi endi muallif haqida qisqa ma’lumot berishdan yozuvchi hayoti bilan to‘liqroq tanishtirishga o‘tadi. Bunda u kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarni, ular yozuvchi ijodi bilan qay darajada tanish ekanligi va uning asarlaridan nimalarni o‘qib-o‘zlashtirganligini hisobga oladi. Asarning didaktik tahliliga tayyorgarlik davridan so‘ng 1-bosqich ya’ni o‘quvchilarni asar mazmunini bilan tanishtirish ishlari boshlanadi. Boshlang‘ich adabiy ta’limda badiiy asarni yaxlit idrok etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflar tajribasida asar ustida ishlash shu asar yoki uning bir darsda o‘rganishga mo‘ljallangan parchasini yaxlit o‘qish tarzida amalga oshiriladi. Hikoya, masal, she’rlarning mazmunini to‘g‘ri idrok etish, shuningdek, matnning hissiy ta’sirini oshirish uchun o‘qituvchining ifodali o‘qishi katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini asar matni bilan tanishtirishning ham o'ziga xos bir necha turi mavjud:

1. Matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi (ba'zan asar matni audioapparatlar orqali ham eshittirilishi mumkin). O'quvchilar matn mazmuni bilan tanishtirilgach, o'qituvchi ularga boshlang'ich taassurotlarini aytishni talab qiladigan savol-topshiriqlar bilan murojaat qiladi. Masalan, «Hikoyadagi qaysi qahramon sizga yoqdi? Nimesi bilan ma'qul keldi?», «Qaysi qahramonning qay bir xatti-harakati yoki tutumi sizni hayajonlantirdi?», «Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinda juda xursand bo'ldingiz yoki xafa bo'ldingiz? va hk.lar» kabi. Bu kichkinagina kirish suhbatini asarning o'quvchilarga ta'sir quvvatini bilish, bolalarni asar matnining didaktik tahlilini amalga oshirishga qiziqtirish, darsda ularning mustaqil faoliyatini oshirish maqsadini ko'zda tutadi.

2. Sinfdagi yaxshi o'qiydigan o'quvchilarga o'qitish. Bunda o'qituvchi o'quvchini oldindan matnni o'qish yo'llari bilan tanishtiradi va uning o'qilishini o'zi kuzatadi, xato va kamchiliklarini bartaraf etadi. Shundan so'ng tayyorlangan o'quvchi sinf jamoasiga asarni ifodali qilib o'qib beradi. Umuman olganda, asarning janriy xususiyati hisobga olingan holda u bilan tanishtirishning o'ziga xos usullarini ham belgilab olish lozim.

Boshlang'ich sinflarda kichik o'quvchilarni har qanday matnni to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish ularda asarni didaktik tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birgalikda amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o'zaro bog'liqligi asarni didaktik tahlil qilishga qanday yondashishni ham belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning ikkinchi bosqichi, bevosita asarning didaktik tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo'nalishi matnning aniq mazmuni (voqea-hodisalar va ularning rivojlanishi)ni, qahramonlarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asardagi yetakchi qarashlarni aniqlash, ularni muhokamaga tortish asnosida kichik o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlash hisoblanadi. Badiiy bitiklarni didaktik tahlilga tortishning metodik shartlaridan yana biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodaviy vositalari bilan bog'liq holda o'zlashtirishdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda

amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yoʻnalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida oʻquvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savol va topshiriqlarning xarakterini aniqlab olishga ham yordam beradi.

Asarlarning didaktik tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Tanlab oʻqish. Bunda oʻquvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini ajratib olib oʻqiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bogʻlanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, oʻqilgan matnga oʻz shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat boʻlishi mumkin.

2. Oʻquvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga oʻz soʻzlari bilan javob berishi. Badiiy matn tahlilida oʻquvchilarning bu faoliyati ham ularda oʻqilganlar yuzasidan muhokama yuritish koʻnikmasini oʻstirishga, asar qahramonlarini baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan yetakchi fikrlar oʻrtasidagi bogʻlanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar maʼlum maqsadga yoʻnaltirilgan va muayyan izchillikda boʻlishi, oʻquvchilarni mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga undashi lozim.

3. Oʻquvchilarni savol berishga oʻrgatish. Oʻquvchilarni savol berishga yoʻnaltirish ham matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Oʻquvchilar matnni ongli oʻzlashtira olsalargina, matn yuzasidan savol bera oladilar. Oʻquvchilarni oʻqiganlari va bilganlari orasida anglanmay qolgan oʻrinlar yuzasidan savollar berishga oʻrgatishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Oʻquvchilarni ongli ravishda savol tuzishga oʻrgatish uchun oʻqituvchi matnga oʻzi tuzgan yoki «Oʻqish kitobi»da berilgan savollarni tahlilga tortadi. Savol va topshiriqlar tahlili uchun oʻqituvchi oʻquvchilari oldiga u yoki bu savol qanday maqsadda qoʻyilganini, unda kim yoki nima haqida gap borayotganini, savol koʻproq qaysi soʻzlar bilan boshlanayotganini aniqlashga, savol va topshiriqlarning mohiyatiga kirishga yoʻnaltiruvchi savollarni qoʻyadi hamda matndan foydalangan holda bu savollarga javob berishni oʻrgatadi.

4. Matnni tasvirlash. Matnni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega boʻlib, oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, undan toʻgʻri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan badiiy va hayotiy manzaralarni oʻquvchilar aniq tasavvur qilishlari

uchun qulay imkoniyat yaratadi. Matnni ikki xil tasvirlash mumkin: 1) soʻz bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash. Soʻz bilan tasvirlash oʻziga xos murakkab ish turi boʻlib, unda manzarani soʻz yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. Soʻz bilan tasvirlash, shuningdek, grafik tasvirlash uchun ham oʻquvchi matnni, undagi voqea sodir boʻlgan vaziyatni, qahramonlar tashqi koʻrinishini, xarakterli xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. Soʻz bilan tasvirlashda soʻzlarni aniq tanlash talab qilinadi, bu esa oʻquvchilar nutqini rivojlantirishda foydali vositalardan biri hisoblanadi.

Badiiy matnni tasvirlash ishlaridan oʻqituvchi turli maqsadlarda, chunonchi, reja tuzishga asos sifatida, qayta hikoyalashga tayyorlashda, voqea yuz bergan sharoitni aniqlashda foydalanishi mumkin. Boshlangʻich adabiy taʼlimda tasvirlashdan mustaqil ish sifatida ham foydalanish mumkin: oʻqituvchi matnning maʼlum qismidan oʻquvchilarga juda maʼqul boʻlgan manzarani soʻz bilan yoki grafik tasvirlashni, unga muallif soʻzini tanlashni hamda turli tabiat manzaralarini, qahramonlar tashqi koʻrinishini, voqea sodir boʻlgan joylarni tasvirlashni topshiriq qilib berishi mumkin. Grafik tasvirlash ham ancha murakkab ish turlaridan biri boʻlib undan xos oʻquvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida foydalanish mumkin. Buning uchun oʻquvchilar tasvirlanadigan matndan maʼlum bir qismni ajratib oladilar, uni diqqat bilan oʻqib chiqadilar, mazmunini oʻzlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Bunda oʻquvchilar bilan qanday ranglardan foydalanish, ranglar ifodalaydigan maʼnolar boʻyicha suhbat oʻtkazish maqsadgu muvofiqdir.

Matnni tasvirlashda rasmlar koʻrgazmasini tashkil etish ham adabiy taʼlim maqsadiga muvofiqdir. Har bir rasm muallifi oʻzi chizgan rang tasvir namunasini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflarda grafik tasvirlash ishlarini sinfda bajartirish ham mumkin. Bunda oʻquvchilarning ijodiy yondashuvlariga, erkin faoliyatiga imkon beriladi. Oʻquvchilar asar voqealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qoʻyishlari ham mumkin. Bular asar matnini toʻliq qayta hikoyalash, shuningdek, oʻqilgan matnning rejasini tuzish, uning mazmunini, tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

5. Asar rejasini tuzish ham matn mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini ta'minlashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchi nutqi va tafakkurini tizimlashtirishga ko'maklashadi. O'quvchilar matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lishga va har bir qismning asosini topishga, ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismlari asosida shakllantirishga o'rganadilar. Boshlang'ich adabiy ta'limda reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. Bunday mashqlarga o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni, mazmunning mohiyatini ifodalashini ta'kidlaydi, bolalarning topgan sarlavhalarini tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida badiiy asar matnini didaktik tahlilga tortishda, umuman, badiiy asarlarni o'rganishda o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

M. Yusuf. Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor

Uchinchi sinf «O'qish kitobi»da shoir Muhammad Yusuf qalamiga mansub «Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor» she'ri qisqartirilgan (ikkinchi va beshinchi bandlari tushirib qoldirilgan) holda o'rganish uchun taqdim etilgan<sup>70</sup>. Darslikda yagona topshiriq: «She'rni ifodali o'qing» berilgan halos. Shu bois mazkur she'r tahlilini amalga oshirish uchun o'qituvchi uning mazmuni asosida o'zi savol va topshiriqlar tuzishi kerak bo'ladi.

Avvalo, shuni aytish joizki, hamon mazkur asar o'rganish uchun taqdim etilgan ekan, o'qituvchi uning to'liq matni bilan ishlagani durust. Chunki tushirib qoldirilgan bu ikki bandda yurt bag'rida toshdek qotgan ado bo'lmas armonlarning sabablari o'z aksini topgan. Ularsiz she'rning ta'sir kuchi etarli bo'lmaydi. Bu ikki to'rtlikda hayotning achchiq haqiqati misralarga mohirlik bilan joylangan. Bu hayotiy haqiqatlarni

---

70. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. /M. Umarova, X. Hamroqulova, R. Tojiboyeva. – T.: „O'qituvchi“, 2016. – 73 – 193-b.

uchinchi sinf o'quvchilar bilishga qodir va she'ning didaktik tahlili asnosida ularning shuuridan o'tishi, ma'naviyatiga o'rnashib qolishi kerak bo'lgan bu armonlar, xuddi shoir dilini og'ritganidek, o'quvchilarning ham ko'ngillarini muvozanatdan chiqarishi kerak.

She'ning to'liq matnini o'qituvchi shoirning saylanmasidan<sup>71</sup> olishi mumkin. Muallim she'ning elektron variantini ekranga katta qilib tushirib qo'yishi ham tahlil samaradorligini ta'minlashga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. O'quvchilarga bugungi dars mavzusi va rejasini ma'lum qilgach, o'qituvchi she'ni avval o'zi ifodali qilib o'qib beradi. O'quvchilarning quloqlari she'ning o'qilish ohangiga ko'nikkanidan so'ng ularni ham mutolaaga jalb etib matnni birgalikda, jamoa bo'lib o'qiydilar. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarni she'ni ifodali o'qishga, buning asnosida badiiy so'zni tuyishga yo'naltiradi. She'r o'qib bo'lingach, birgalikda satrma-satir uning didaktik tahlili amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'qituvchiga quyidagi savol va toshiriqlar yordam beradi: «Shoir Muhammad Yusuf haqida nimalar bilasiz? Uning she'ri asosida yaratilgan qo'shiqlarni eshitganmisiz? va hk.» savollari asar tahliliga kiruvchi kalit vazifasini o'taydi. Ularga bilgan o'quvchilar javob berishadi, bilmaganlariga e'tibor qilinmaydi. Chunki bu, shunchaki, o'quvchilarni asar ustida ishlashga yo'naltiruvchi savollar, xolos. So'ngra bevosita matn mazmuni bilan bog'liq: «O'ylab ko'ringchi, armon qanday tuyg'u? «Armon» so'zining ma'nosini bilasizmi? Bandni qayta o'qing. Unda yurtga armon bo'lgan nima bor, sizningcha?» savollari o'rtaga tashlanadi. Ularga o'quvchilardan biri bo'lmasa biri javob beradi. Ushalmay qolgan orzular armonga aylanishini, armon hissini inson hech qachon unutilmasligini, u bir umr odamni tark etmasligini, ko'nglini zimdan og'ritishi mumkinligini o'zlarining saviyalari darajasida ocha oladilar. To'rtinchi satrdagi «shahid o'g'lonlari» yurtning armoni ekanligini ham bolalar ilg'aydilar. Shu erda bolalardan «shahid» so'zining ma'nosini so'rash, agar javob bo'lmasa, bu so'zni o'qituvchining o'zi izohlab bergani tuzuk bo'ladi. Shahid – urushda, din yoki mazhab yo'lida, vatan himoyasi yoki haqiqat yo'lida qurbon bo'lgan, jonini fido qilgan odam ekanini tushuntiradi.

So'ngra «She'ning birinchi bandidagi ikkinchi misrani qayta o'qing: «*Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor*»ni qanday tushundingiz?» Bu savol o'quvchilarni o'ylashga majbur qiladi. Unga

---

71. [muhammadyusuf.uz/sites/default/files/Muhammad%20Yusuf.%20Saylanma.pdf](http://muhammadyusuf.uz/sites/default/files/Muhammad%20Yusuf.%20Saylanma.pdf)

o'qituvchi javob ololmasligi ham mumkin. Chunki u nafaqat uchinchi sinf o'quvchilarini, balki o'qituvchining o'zini ham o'yga toldirishi aniq. Shuning uchun o'qituvchi mazkur darsga tayyorlanish jarayonida o'quvchilariga berajak har bir savoli ustida o'zi o'ylab ko'rishi, ularga javob berishi, shu tariqa she'rning didaktik tahliliga o'zi ham tayyor bo'lishi shart.

Mazkur she'r o'z mazmun-mohiyati bilan kattalarga mo'ljallangan bo'lgani uchun shunday muammoli vaziyatlarda murakkab savollariga o'qituvchining o'zi javob berishiga to'g'ri keladi. She'rning umumiy, xususan, birinchi bandi mazmunidan kelib chiqib qaraladigan bo'lsa, yurt tarixida Fayzulla Xo'jaev, Akmal Ikromov, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari yaqin o'tmishda vatan ozodligi yo'lida shahid ketgan o'g'lonlarning tarixi doston qilinsa, ya'ni aytib berilsa, nafaqat odam, tosh ham yig'lashi mumkin. Yurtning armoni shunday jonkuyar, vatanparvar va millatparvar o'g'lonlarini asrolmaganidan paydo bo'lgan va hk.

O'quvchilarning e'tibori: «Mazkur to'rtlikdan yurt o'tmishidagi shoirning jonini og'ritgan nimalarni angladingiz?» savoli ko'magida yana matnga qaratiladi. O'quvchilar unga javob berishda to'rtinchi misraga singdirilgan tarixiy haqiqatni asos qilib ko'rsatishlari mumkin: «*Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor*».

Shundan so'ng o'qituvchi bahor ayyomlari shom paytida «Oy borgan yoqlarga» ya'ni Kunbotishga termulib bag'ri o'rtangan shoir nomlarini sanagan odamlar: Akmal Ikromov va Fayzulla Xo'jaevlar haqida o'quvchilarning bilganlari so'raladi. Bu savoliga ham, o'qituvchining o'zi javob bersa kerak, xoynahoy. O'zbekning shahid ketgan har ikkala o'g'loni yurt ozodligi, xalq mustaqilligi yo'lida jonlarini fido qilganlarini aytib o'tadi.

Asarning didaktik tahlilini davom ettirib o'qituvchi o'quvchilarining diqqatini uning uchinchi bandiga qaratadi: «*Osmonlaringda ham diydoringga zor, Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor*» va savol beradi: «Yurt diydoriga zor bo'lib termulgan Cho'lponodammi yoki yulduzmi? Bu erda gap Cho'lpon yulduzi haqida ketyaptimi yoki shoir Cho'lpon to'g'risidami?» Agar o'quvchilar gap shoir Cho'lpon haqida ketayotganini anglagan bo'lsalar, javoblarida buni ifodalay bilsalar «O'ylab ko'ringchi, nega gap shoir haqida ketayotgan bo'lsa, muallif uni osmonda deyapti?» savolini o'rta tashlashi mumkin. Ziyrak

o‘quvchilar bu savollarga ham to‘g‘ri javob bera olishlari aniq... (12-topshiriqqa qarang!)

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Badiiy asarlar didaktik tahlilining boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limidagi zarurati haqida o‘ylab ko‘ring. Munosabatingizni asoslang.

2. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limidagi didaktik tahlil tushunchasiga berilgan ta‘rifni tahlilga torting. Undagi yetakchi belgilarni ajratib yozing va mohiyatiga kiring.

3. Professor Q. Yo‘ldoshev tomonidan taqdim etilgan adabiy asarlar didaktik tahlilini tashkil etishning: tekstual, timsolli va muammoli turlariga xos bo‘lgan yetakchi xususiyatlarni ajratib yozing. Ularni tahlilga torting. Munosabat bildiring.

4. Olimning: *“badiiy asarlar didaktik tahlili mobaynida timsollarning ijobiy va salbiy kabi bir-biriga zid guruhlariga ajratilishiga yo‘l qo‘ymaslik”* haqidagi qarashlariga o‘z munosabatingizni bildiring. Qarashlaringizni asoslang.

5. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limida badiiy asarlarni didaktik tahlilga tortishning yetakchi xususiyatlarini ajrating. Ularga munosabat bildiring. Qarashlaringizni asoslang.

6. Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida badiiy asarlarni didaktik tahlilga tortishning uch asosiy bosqichiga xos bo‘lgan jihatlarni ajratib yozing. Ularni tahlilga torting. Xulosalaringizni asoslashga urinib ko‘ring.

7. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini asar matni bilan tanishtirishning o‘ziga xos turlaridagi yetakchi xususiyatlarni ajratib ularni sharhlang. Munosabatingiz hech qachon quruq bo‘lmasin. Ularni hamisha asoslashga o‘rganing.

8. Boshlang‘ich adabiy ta‘limda asarlarning didaktik tahlili jarayonida matn ustida ishlash turlarining xususiyatlarini ajratib oling. Ularni tahlilga torting. Munosabat bildiring. Munosabatingizni asoslang.

9. Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida badiiy matnlar didaktik tahlilini tashkil etishda o‘qituvchi amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishlarni belgilab oling. Ularga o‘z munosabatingizni bildiring.

10. “O‘qish kitobi” darsliklaridagi birorta mavzuning didaktik tahlilini amalga oshiring. Bunda o‘qituvchi sifatidagi faoliyatingizni to‘liq ishga soling.



11. O‘zingiz yaxshi ko‘rgan biror badiiy asarning filologik tahlilini amalga oshiring. Har ikkala tahlil xususiyatlari haqida o‘ylab ko‘ring.

12. Mazkur mavzuga biriktirilgan “**Badiiy matn tahlili namunasi**” nomli maqolaga asos bo‘lgan “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor” she‘rining didaktik ta‘lilini davom ettiring. She‘rning mazmuni yuzasidan mantiqli savol va topshiriqlar tuzing. Ularga o‘zingiz javob bering va javoblaringiz asnosida dars ishlanmasi tayyorlang.

13. “Muhammad Yusuf she‘riyati va Men” mavzusida insho yozing. Yozma ishingizni guruhda birgalikda muhokama qiling.

### **13-mavzu. Boshlang‘ich adabiy ta‘limda nasriy va she‘riy asarlar ustida ishlashdagi o‘ziga xosliklar**

#### **Reja:**

1. O‘qish darslarida badiiy asarni janriy xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish
2. O‘qish darslarida ertaklar matni bilan ishlash
3. Hikoya mazmunini o‘zlashtirish bo‘yicha matn asosidagi ishlar
4. Badiiy matn tahlili namunasi: Halima Xudoyberdievaning “Men seni topgandim...” she‘ri

**Tayanch so‘zlar:** *ertak janri, hikoya janri, masallar ustida ishlash, she‘riy matnlar,*

Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limi o‘qish darslarida badiiy asarlar janriy xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish ilmiy-nazariy jihatdan bo‘lmasa-da, amaliy tomondan turli asarlar misolida amalga oshiriladi. “O‘qish kitobi” darsliklariga, asosan, hikoya, she‘r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat topishmoq va tez aytish kabi janrlardagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop matnlar ham o‘qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning o‘quvchilarga ta‘siri ham har xil bo‘ladi. Masalan, she‘riy asarlar matni ertak va hikoya matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taalluqli

asarlarni matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoqlar predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan **ertak** janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri tilining ta'sirchanligi, o'tkirliги, ma'nodorligi va so'zlashuv tiliga yaqinligidadir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlari bilan qo'shib ketadi. Ertakning o'tkir, maroqli syujeti, voqealar rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyatlar o'quvchilarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik-yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertaklarning qabul qilingan bayon uslubi, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi ularning qiziqarliligiga asos bo'ladi. Ertak qahramonlari, ko'pincha, rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil va ochko'z kishilar timsoli bo'ladi. Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o'quvchilar unda to'g'riлик, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar.

Boshlang'ich adabiy ta'limda ertaklar ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi. Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarning ertak matniga qanchalik monandligiga e'tibor qaratish va buni bolalar ongiga etkazish, ularni yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

O'qish darslarida ertaklar matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag'a singari nazariy tushunchalar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertak o'rganish darslarining qurilishini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish: a) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash; b) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yoddan aytib berishi va hk.

2. Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish.

3. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish, undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish).

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish) va hk.

Boshlang'ich adabiy ta'limda **hikoya** janriga mansub kichik hajmli badiiy asarlarda odamlar hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan ma'lum voqea-hodisalar, hayotning muhim jihatlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoyalarda, odatda biror kishi hayotida bo'lgan bir epizod tasvir ob'ekti qilib olinadi. Hikoyalarning mazmun-mohiyati ertaklardagiga nisbatan hayotiyroqdir. Hikoya mazmunan ham, shaklan ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalari haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Bolalarni hikoya matni bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarning dastlabki bosqichida hikoya ustida ishlashga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoyalar mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savol va topshiriqlar asosida tahlil qilinadi. Savol va topshiriqlardan: hikoya mazmunini tahlil qilish; dalil, mulohaza hamda xulosalarni taqqoslash; voqea-hodisa va xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash hamda umumlashtirish; o'quvchilarni mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga yo'naltirish; o'z ma'naviy kamoloti yo'lida o'zining ishtirokini ta'minlash; ularga kashf etish lazzatini tuydirish va shu asnoda badiiy asarlar o'qishga qiziqish uyg'rotish maqsadida foydalaniladi.

Boshlang'ich adabiy ta'limning o'qish darslarida hikoyalarni o'qishda o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirib berish ham muhim ish turlaridan biri sanaladi. Aks holda, o'quvchilar hikoya mazmunini to'liq o'zlashtirmay qolishlari

mumkin. Bu, o‘z navbatida, matnning didaktik tahlili samaradorligiga ham putr etkizadi. Boshlang‘ich ta‘limning dastlabki bosqichida hikoyalar ustida ishlashda ularning mazmunini tahlil qilish asnosida o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziy o‘rin egallaydi. Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilar uning mazmuni haqida o‘ylashlari, taassurotlarini tiniqlashtirib olishlari, o‘z mulohazalarini aytishga tayyorlanishlari uchun ma‘lum vaqt berish taqozo etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan beriladigan dastlabki savollar hikoya yosh kitobxonlarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri o‘quvchiga qanday ta‘sir etganini aniqlash maqsadida beriladi. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqealarning rivojini ochishga, qahramonlar xarakterini tushunishga, asardagi yetakchi qarashlarni bilib olishga, ular haqida mulohaza yuritib oq va qorani, to‘g‘ri va noto‘g‘rini, halol va haromni farqlashga, o‘z ma‘naviyatining sog‘lomlashuvi jarayonida bevosita ishtirok etishga yo‘naltiradigan savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to‘liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e‘tibordan chetda qolmasligi lozim.

Hikoya janridagi bitiklar o‘z hayotiyliigi bilan o‘ziga xosdir. Unda voqealar tez rivojlanib boradi. Hikoyada inson shaxsi va hayoti bilan bog‘liq lavhalar bayon etiladi. O‘quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. “O‘qish kitobi” darsliklaridan o‘rin olgan hikoyalar mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lishi, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham bir-biridan farqlanishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya matni biror bir davr bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar qahramonlarning ma‘naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘i tomonlari xususida ham muayyan tushunchaga ega bo‘la boradilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi.

Darsliklardan o‘rin olgan hikoyalar tahlili adabiy tur sifatida o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalaridan kelib chiqib ish ko‘rishni taqozo etadi. Undagi har bir so‘z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o‘rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli

yoki ijodiy o‘qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganishga taqdim etilgan hikoyalar syujeti qahramonlarini o‘rganish bo‘yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o‘quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

Hikoya mazmunini o‘zlashtirish bo‘yicha matn asosida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan savollarga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o‘quvchilarning savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnini qismlarga bo‘lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to‘liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish va hk.

Hikoyalarning didaktik tahlilini amalga oshirishda o‘qilayotgan matnning tushunilganlik darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tushunarliklik – yozuvchi yaratgan badiiy olamning o‘ziga xosligi, obrazli tasvirning o‘quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligini nazarda tutadi. Hikoyani o‘rganishda savollarni, odatda, o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qahramonlar shaxsining xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga savol tuzdirish ham foydadan holi bo‘lmaydi. Bu usul kichik o‘quvchilarga juda yoqadi va ularning ish faoliyatini jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog‘lanishni to‘liq esda saqlab qolishda yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limida hajman katta bo‘lgan asarlar ulardan olingan parchalar “O‘qish kitobi” darsliklarida taqdim etiladi va o‘rganiladi. Ayrim hajman kichik bo‘lgan hikoyalargina to‘liq shaklda yoki qisqartirib taqdim etilishi ham mumkin. Lekin hikoya bilan qissadan yoki romandan olingan parchaning shakliy elementlari o‘zaro farqlanadi, ayrim elementlari o‘xshashlik kasb etishi ham mumkin. Yirik epik asarlardan olingan parchalar ham o‘zaro alohida yaxlitlik kasb etishi, bir qismining mazmuni ikkinchisini rad etmasligi, keltirilgan parchalar umumiy yaxlitlikni

kasb etishi maqsadga muvofiqdir. Afsuski, boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi" darsliklarining barchasida ham bu talablarga amal qilingan, deb bo'lmaydi.

Hikoyada ko'pincha bir kichik voqea va uning tafsiloti bayon qilinadi. Tabiiyki, roman yoki qissadan olinib darsliklarga kiritiladigan parchalar ham shunday umumiylik kasb etishi taqozo etiladi. Adabiyotshunoslikda ta'kidlanganidek, syujet asar muallifi o'ylagan niyatining qahramonlar xarakteri, xatti-harakati mantig'iga muvofiq yuzaga keluvchi, o'zaro aloqada, rivojlanishda bo'lgan qirralarini ochishga xizmat qiluvchi voqealar zanjiridir. Muhimi, kichik o'quvchining syujetni shunchaki voqealar bayoni deb tushunmasligidadir. Buning uchun o'qituvchidan asar tahlili ustida ishlanganda o'quvchilarni ana shu aloqadorliklarni, dinamikani ilg'ashga yo'naltira bilish talab qilinadi. Boshqacha aytganda, o'qituvchi asar mazmuni yuzasidan taqdim etadigan savol va topshiriqlari bilan o'quvchilarni uning syujetiga xos bo'lgan voqealar, qahramonlar xarakteri va xatti-harakatidagi oqibatning kelib chiqish sabablarini aniqlashga yo'naltirishi, shundan keyingina hodisani baholashga undashi maqsadga muvofiq bo'ladi<sup>72</sup>.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida **masallar** ustida ishlash ham o'ziga xos didaktik maqsadni nazarda tutadi. Masal – mazmuni axloqiy, satirik va kesatq, kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan, aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa – ibratli xulosa chiqariladi. Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida qaraladi va she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa syujetli asar deya ta'rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asar qahramonlari sifatida tasvirlanadi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik pesani eslatadi.

---

72. Ф.Салаев, Г.Курбониёзов. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент, "Янги асп авлоди", 2010, 202-бет.

Masallar biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo‘la oladi. Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo‘lgan. O‘z ma’nosidan ko‘chirilgan (majoziy) so‘z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan “yashirincha” tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbat berilib, “Ezop tili” deyilgan va adabiyotshunoslikda ham shu ta’bir joriy qilingan. Ezop quldorlik jamiyati sharoitida hukmron doiralarning jirkanch kirdikorlarini ochiqdan-ochiq tanqid qilish ilojini topolmagach, o‘zining satirik asarlarini kinoyaviy til va uslubda yozishga majbur bo‘lgan. Feodal istibdodi sharoitlarida yashab ijod etgan mashhur rus masalchisi I. A. Krilov ham, atoqli o‘zbek masalchisi Gulxaniy ham “Ezop tili”da yozganlar. Fransuz shoiri Lafontenning masallari ham dunyo miqyosida mashhurdir. Alisher Navoiy dostonlarining bir qancha epizodlari, “Sher bilan Durroj”, “Kabutar” singari masallari yaxshi xislatlarni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. O‘zbek adabiyotida Sayido Nasafiy, Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar ham Navoiy an‘analarini davom ettirganlar, bolalarbop ko‘pgina masallar yozganlar.

Hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, gullar haqidagi majoziy asarlarni bolalar qiziqib o‘qiydilar. Mana shu nuqtai nazardan Sayido Nasafiyning “Bahoriyot” (“Hayvonotnoma”) asari ahamiyatlidir. Nasafiyning masallari, axloqiy va tarbiyaviy masalalarga doir fikr hamda qarashlari bolalarning o‘qish va tarbiyasida katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, ularning kitobxonlik doirasini ham kengaytiradi. Mashhur masalnavis Gulxaniyning “Toshbaqa bilan Chayon”, “Maymun bilan Najjor”, “Tuya bilan bo‘taloq” singari masallari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do‘stlik, rostgo‘ylik, qo‘lidan kelmaydigan ishga urinmaslik, erk va mustaqillik kabi g‘oyalar ilgari surilgan.

Ma’lumki, tarbiya ko‘proq ta’limga uyg‘un holda berib boriladi. Bolalarda maktabga kelgan kundan boshlab, bilim olishga havas tuyg‘usi intensiv ravishda shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bu orqali o‘kuvchilar ma’naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayru ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g‘urur, matonat, oqibat, do‘stlik, ezgulik kabi yuksak ijobiy hislar paydo bo‘ladi. Masal janridagi asarlar ham boladagi qo‘pollik, qo‘rslik, yolg‘onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi

illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Bola tarbiyasida masalning o‘rni beqiyosdir. Masaldagi qissadan hissa o‘quvchi matndagi e‘tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o‘qib o‘tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o‘rinlarni, bo‘shliqni to‘ldiradi.

Ba‘zi masallarda yashiringan o‘tkir kinoya, voqealarning tez-tez o‘rin almashinib turishi ularni bir maromda o‘qilishiga xalaqit beradi. Shuning uchun ifodali o‘qishga etarli malaka hosil qilmagan o‘quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim. Masal tahlil qilinayotganda, voqealar rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o‘quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so‘z bilan tasvirlash, ba‘zilariga o‘qituvchi yordamida tavsif berish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo‘lib o‘qish kabilarni ham tavsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Qahramonlarga tavsif berishda ularning xatti-harakati bilan birga, tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o‘qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish ham zarurdir.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limda **she‘riy matnlar** ustida ishlashda asosiy e‘tibor uning ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq ekanligiga qaratiladi. She‘riy nutqni ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me‘yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi. She‘r o‘qilganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga molik. Boshlang‘ich sinflarda she‘r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya‘ni she‘riy asarlar va lirik she‘rlar ham o‘rganiladi. She‘riy hikoya, she‘riy adabiy ertaklarda syujet, ya‘ni voqealar tizimi va rivoji xarakterlidir.

Lirik she‘r “biror hayotiy voqea-hodisa ta‘sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she‘rning xususiyati “kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta‘sirliroq ifodalashda qo‘l keladi”. She‘r o‘qish darslarida asosiy ish turlaidan biri matnni ifodali o‘qish hisoblanadi. O‘quvchi she‘rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o‘qiy oladi. She‘riy hikoyani tahlil qilishda hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo‘llanadigan ish turlaridan foydalanish mumkin. Lirik she‘rni o‘qish



va tahlil qilish esa o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday hollarda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab etilmay qoladi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmay qoladilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz boshlang'ich adabiy ta'limning maqsadiga erishish mumkin emas. She'riy ohangni his qilmaslik, matn so'zlarini to'la tushunib etmaslik she'r yodlashni ham zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'ni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'ni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi she'ni shunday ifodali o'qishi kerakki, o'quvchilar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'ni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'r o'qiganlarida, she'riy satrga rioya qilishlari, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

Boshlang'ich adabiy ta'limda har qanday she'r matni ham savol va topshiriqlar ko'magida didaktik tahlilga toriladi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilish uchun bir-ikkita savol va topshiriqlar berish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, o'quvchilar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonaviy qahramonlar, o'zbek xalqi, yurt himoyasi, qahramonliklar haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga maxsus tayyorlaniladi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlar tahlil qilinib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi ham topshiriladi.

She'riy nutq engil yodlab olinadi, o'quvchida estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop, ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar. Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'ni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'ni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga tinish belgisi bor-yo'qligidan qat'i nazar har bir satr oxirida to'xtam (pauza) qilish, ritmik to'xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirish shart emasligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo'lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

Epik (voqeiy) she'rlar yoki she'riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalashi bilan hikoyaga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so'zlarning qo'llanishi bilan she'riy nutq sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni o'rganishda she'r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalanish mumkin. Epik she'rlarni o'qishga o'quvchilar alohida tayyorlanadilar, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergan davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday she'rlarning mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bunda rasmlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo'lish, har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qahramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik she'rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminatsion nuqtasi, yechimi mavjud bo'ladi. Ular ham savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ham tuzilishi mumkin. Bunday she'rlarni tahlil qilish asar voqealari jarayonida qahramon holatlarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalantirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin. Epik she'rlarning badiiy til vositalari ma'nolarini ochish, ohangdosh so'zlarni aniqlash, band va misralar, bo'g'inlar sonini belgilash, ifodali o'qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari

qo‘llanilsa, boshlang‘ich adabiy ta‘limning maqsadiga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida she‘riy matnlarni o‘rganishga bag‘ishlangan faoliyatning maqsad va vazifasi o‘quvchilardagi badiiy idrokning to‘g‘riligi, teranligini ta‘minlash, ularni poetik mahorat sir-asrorlari bilan tanishtirish bilan birga asarning mohiyatiga kirish, qahramonni his qilishga erishishdan ham iboratdir. Q. Yo‘ldoshevning: *“Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg‘u va hissiyotga yo‘g‘rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Lirikada voqealar tasviri, xarakter mantig‘i emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg‘ular samimiyati muhimdir. Chinakam lirik she‘r tinglovchi yo o‘quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional-axloqiy imkoniyatlarini uyg‘otadi, faoliyatga undaydi. Samimiy lirik so‘z hatto real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta‘sir ko‘rsatishi mumkin ekanligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma‘lum”*, - degani bejiz emas<sup>73</sup>.

Ma‘lumki, she‘rdagi mazmun tuyg‘u bilan qorishiq. O‘qish darslarida nazmiy matnni ifodali o‘qishga, har bir so‘z zimmasiga ortilgan yukka, tuyg‘ular ifodasiga o‘quvchi e‘tiborini qaratadigan savol-topshiriqlar tuzishga katta e‘tibor qaratiladi. O‘quvchining she‘r matnini qayta hikolashiga yo‘l qo‘yilmasligi maqsadga muvofiqdir. Chunki mazmuni aytib berilganda she‘rning ta‘sir kuchi umuman yo‘qoladi.

B. To‘xliiev ham bu borada fikr yuritib: *“Aslida adabiyot o‘qitishning bosh yo‘nalishi ta‘limning turli bosqichlarida o‘quvchilar ongiga badiiy asarning mo‘jizakor ta‘sir kuchini amaliy jihatdan ta‘minlashga qaratilgan”*<sup>74</sup>, -deydi. So‘z o‘quvchining ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatgandagina unda zavq uyg‘otadi, bu bilan so‘z insonni tarbiyalaydi ham. She‘r his-tuyg‘uni junbushga keltirib, faol estetik kechinmalar uchun zamin yaratadi, shaxs dunyoqarashining tarkibiy qismi bo‘lmish e‘tiqodga sayqal beradi, olijanob xatti-harakatlarga otlantiradi.

---

73. Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. доктори ... дисс. – Тошкент: 1997. 235-бет.

74. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси: (Олий ўқув юртлари филология йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма). – Т.: Янги аср авлоди, 2006. 7-б.

M. Mirqosimova: *“She’r orqali shoir olamni go‘yo ichdan yoritishi, narsalar va hodisalar ichiga yashiringan mazmunni ochib berishi, ularning yashirin ichki “qiyofa”sini sezdirishi, ya’ni ma’nolar kashf etishi mumkin”*<sup>75</sup>, deydi. Ta’kidlash joizki, bular ba’zan ochiq, ba’zida esa metaforik yo‘l bilan bayon etiladi. Shoir voqea yoki holatni tasvirlarkan, ayni paytda obrazlar yaratadi, shu orqali turli hissiy kechinmalarga yo‘l ochadi.

S. Ahmedov ham lirik asarlar haqida gapirib: *“Lirika ijodkor qalbi oniy bir tezlikda his etgan sezgining, mavjud muhitga estetik munosabatning mevasidir. Shoir tashqi olamdan olgan taassurotlari natijasida vujudga kelgan fikrini his-tuyg‘ularga o‘rab yana yuzaga chiqaradi, kitobxonda fikr tug‘ilishiga sabab bo‘ladi”*<sup>76</sup>, - deydi. Adabiy mashg‘ulotlar ko‘ngil darslari sifatida shoirning asariga singdirilgan ana shu hislarini o‘qirmanga tuydirish, uni ruhan muvozanatdan chiqarish, o‘zgani tuyish va tuyganlarini so‘z bilan ifodalab bera olishga yo‘naltirishdan iboratdir. Bunday ishlar asar matni yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar ko‘magida amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich adabiy ta’limda she’riy matnlarni maromiga etkazib ifodali o‘qish, ya’ni muallifni tuyib o‘qish va bu mutolaadan huzur ola bilish she’r qay darajada idrok etilganiga baho berishning bosh omilidir. She’rxon she’rni ifodali o‘qiy olmadimi yoki undan ta’sirlanmadimi, demak, nimanidir etarli tushunmagan, obrazli ifodalarni hisobga olmagan bo‘ladi. Bu, o‘z-o‘zidan, she’riy matnning mohiyatiga kirishga ham ma’lum darajada aks ta’sir ko‘rsatadi.

Lirik asarlar ustida ishlash darslarining mas’uliyatli lahzalaridan biri matnni, albatta o‘qituvchi tomonidan yoddan, ifodali o‘qilishi va o‘quvchilarning uni tinglay olishlaridir. Shunda sinfdagi hamma o‘quvchilar bir necha daqiqa she’rdan olingan estetik ta’sir og‘ushida qoladi. Mutolaadan keyingi bir necha soniyalik tin olish o‘quvchiga shunday imkoniyatni beradi.

Shu o‘rinda prof. Q. Yo‘ldoshevning quyidagi ogohlantirishi nihoyatda o‘rinlidir: *“Ko‘pchilik o‘qituvchilar ham, hatto ayrim*

---

75. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. – Т.: “Фан”, 2006. 39-б.

76. Аҳмедов С. Адабиёт дарсларида эпик жанрларни ўрганиш: Адабиёт ўқитувчиларига ёрдам. – Т.: Ўқитувчи, 1986. 8-бет.

*usuliyotchi olimlar ham ifodali o‘qish deganda baland ovoz bilan tinish belgilariga rioya qilib, ko‘tarinki ruhda qiroat qilishni tushunadilar. Holbuki, asl lirik asarlarni aksariyat hollarda bor ovoz bilan o‘qib bo‘lmaydi. Hatto baland, ko‘tarinki, binobarin, nosamimiy ifoda she‘rdagi mayin lirizmni yo‘qqa chiqarishi mumkin. Xullas, ifodali o‘qish – bu ijodkorning holatini tuyib, asarga muhrlangan ruhiy manzaralar bag‘rida turib o‘qiy bilish demakdir”<sup>77</sup>.*

She‘riy matnni ifodali o‘qish badiiy idrokning yuqori cho‘qqisiga etganidan dalolat ekanligini B. To‘xliiev ham: *“She‘riy asarni anglash, undagi muallif ko‘zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib etish, she‘r g‘oyasining mag‘zini chaqish uni uqishdan, yanada aniqrog‘i, ifodali o‘qishdan boshlanadi”<sup>78</sup>*, - tarzida ifodalaydi.

She‘riy asarga, odatda, o‘quvchilar tomonidan beriladigan baho ko‘proq mazmunga, uni qayta hikoyalashga tortib ketadi. Shoir voqelikni badiiy obrazlar orqali tasvirlaganda, o‘z-o‘zidan mazmun shakllanadi. She‘riy asarlar ustida ishlanganda o‘quvchining ham qalbini junbushga keltirgan mazmunga, ham she‘rning yuksak san‘at asari sifatida yozilganiga, ham tasvirga, ham tuyg‘ular ifodasiga diqqati qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xullas, boshlang‘ich adabiy ta‘limda har xil janrdagi badiiy asarlarni o‘rganishda ularning har biriga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarni diqqat markazida tutish, ularni o‘qish va didaktik tahlilga tortishda mana shu jihatlarga ustuvor ahamiyat qaratish mazkur ta‘lim samaradorligi garovidir.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

Lirik turga mansub asarlar ustida ishlashni talabalar shoir Halima Xudoyberdievaning *“Men seni topgandim...”* she‘ri misolida quyidagicha ko‘rishlari mumkin. Asar matni ustida ish boshlashdan avval she‘rning matni yoddan, ifodali o‘qiladi. So‘ngra talabalar quyidagi savol va topshiriqlar ko‘magida asar mohiyatiga kiradilar: 1. Sizningcha, she‘rning bosh qahramoni kim? Qanday odam? Asar

---

77. Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. доктори ... дисс. – Т.: 1997. 235 – 236-бетлар.

78. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси: (Олий ўқув юртлари филология йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма). – Т.: Янги аср авлоди, 2006. 80-б.

qahramoni kimga murojaat qilayotir deb o‘ylaysiz? 2. She’rning dastlabki satridagi birinchi jumla: “*men seni topgandim*”ga diqqat qarating. Nega “topdim” emas “topgandim” fe’li ishlatilgan deb o‘ylaysiz? Ikkala so‘z ham o‘tgan zamonni anglatadi-ku. “topgandim” so‘zining mohiyatida qanday haqiqat, qanday tuyg‘ular yashiringan, sizningcha? Fikringizni matnga tayangan holda asoslang. 3. Ilk misradagi ikkinchi jumla “*ammo yaxshi qol*”dan siz nimani angladingiz? 4. Nima deb o‘ylaysiz, nega she’r qahramoni “xayr” demay “*yaxshi qol*” deyapti, buning zamirida biron haqiqat bormi? 5. Satrdagi “-*gandim*” qo‘shimchasi bilan “*ammo*” zidlov bog‘lovchisi orasida qanday aloqa bo‘lishi mumkin? Siz bundan nimani tushundingiz? 6. Bandning ikkinchi misrasi: “*sen: “yaxshi qol!” – degil, “ko‘rishguncha”mas*”ga e’tibor qiling. Misrada xayrlashuvning ikki turi qo‘llanilgan. Jumladagi “*yaxshi qol!*”, “*ko‘rishguncha*” bilan “xayr” orasida qanday tafovut bor, nazaringizda? Nima deb o‘ylaysiz, nega she’r qahramoni suhbatdoshidan aynan “yaxshi qol” deyishini o‘tinmoqda? 7. Satrdagi “*degil*” so‘ziga diqqat qiling: nega “degin” emas, aynan “*degil*” qo‘llanilgan? Sizningcha, bu nimani anglatadi? 8. “*Bul quyosh hali ko‘p ol bo‘ladir, ol*”ni, sizningcha, qanday tushunish mumkin? Nega “bu” emas “bul” ko‘rsatish olmoshi ishlatilgan deb o‘ylaysiz? Muallif “l” tovushining zimmasiga qanday vazifani yuklagan, nazaringizda? Quyosh ol bo‘lishining qahramonga nima aloqasi bo‘lishi mumkin, Sizningcha? 9. “*Bul oy ham umringa ko‘p qiladir qasd*” misrasini qanday sharhlaysiz? Nega “qiladi” emas “*qiladir*” deyilgan? Sizningcha, “l” va “r” tovushlarining zimmasida qanday yuk bo‘lishi mumkin? 10. Ne sababdan “*bul oy ham*” deyilyapti? Oldin boshqa biror jonzod qahramonning umri-joniga qasd qilganmidi? 11. O‘ylab ko‘ringchi, misralardagi «*bo‘ladir*» va «*qiladir*» so‘zlarida «r» harfining orttirilishi nimadan dalolat beradi? 12. Ikkinchi to‘rtlikdagi «*sen sherik bo‘lmaysan endi g‘amimga*” tarzidagi iqrorning zamirida qanday haqiqat yashiringan deb o‘ylaysiz? 13. To‘rtlikning ikkinchi misrasiga e’tibor qiling: “*darvoqe, hech qachon sherik qilmadim*”ga asoslanib she’r qahramoniga tavsif bering: u qanday odam? 14. Keyingi misra: “*xayr endi, ma’zur tut ortiq-kamimga*” e’tibor qiling. 15. Nima deb o‘ylaysiz, yuqorigi bandda “*yaxshi qol*” degan qahramon endi nega “xayr” deyapti? 16. “*Ma’zur tut*” va “*ortiq-kam*”ni qanday

tushundingiz? 17. Sizningcha, bandning so‘nggi misrasi: “*men seni layliday seva olmadim*”da afsus va o‘kinish bormi yoki oddiy e’tirof ifodalanganmi? Fikringizni matnga tayangan holda asoslang. Qiz yigitni «*layliday seva olma*”ganining boisi nimada deb o‘ylaysiz? 18. O‘ylab ko‘ringchi, qiz bilan yigit bir-biriga kim bo‘lishi mumkin? 19. So‘nggi bandning dastlabki misrasi: “*o‘rtanma bul xato mushkullaridan*”ga diqqat qiling. Yana “*bul*”. Buning vazifasi nimadan iborat, sizningcha? 20. Nazaringizda, xato kimniki? “*Xato mushkullari*” nimalardan iborat bo‘lishi mumkin? Bu xatoning mushkullaridan she‘r qahramoni ko‘proq iztirob chekyaptimi yoki uning suhbatdoshimi? Buni nimalardan angladingiz? Fikringizni asarga tayangan holda asoslab bering. 21. “*Yo, rabbiy, lahzada bor orzular puch*” deyilganda qaysi lahza nazarda tutilayotir deb o‘ylaysiz? Sizningcha, kimning orzulari haqida gap ketayotir? Bu orzular nimalardan iborat ekanligi haqida fikr ayta olasizmi? 22. “*Men ham qaydan bilay ishq yo‘llarida – majnun emas, senga kelarimni duch...*” misralarida insonga xos bo‘lgan qanday tuyg‘ular aks etgan deb o‘ylaysiz? 23. Nima deb o‘ylaysiz, “majnun” bilan “sen”ning orasida qanday tafovut bor?”

Asar matni yuzasidan taqdim etilgan mazkur savol va topshiriqlarga javob berish asnosida talabalar asarning kichik tahlilini amalga oshirdilar. Endi javoblar quyidagi tahlil asosida tekshiriladi.

O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdieva qalamiga mansub “Men seni topgandim...”<sup>79</sup> she‘ri mazmun-mohiyati bilan ko‘ngil bitigi hisoblanadi. Unda baland orzular dunyosida kezman yosh bir qalbning iztiroblari samimiy tasvirlangan. Bu asarning qahramonini barcha she‘rlarga “egalik” qiluvchi qiyofasiz “lirik qahramon” deyish unchalar o‘rinli emas. U hech kimga o‘xshamagan, o‘z qalbi va o‘zgacha tuyg‘ular sohibi. Shuning uchun she‘r qahramonini oddiygina qilib Qiz deb atash mumkin. Unda, avvalo, Qizning yoshlikda bilib-bilmay qilib qo‘ygan xatolaridan chekkan iztirobi, buning ustiga shu xatolar tufayli ikkinchi bir qalbning jabrlanganini his qila turib ko‘nglidan kechayotgan ruhiy qiynoqlari tasvirlangan. Ushbu bitikdagi har bir misra rost. Bor-yo‘g‘i uch banddan iborat bu she‘rning har bir satridan ko‘ngil dardining zardobi sizib turibdi.

---

79. Худойбердиева Х. Садоқат. Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. 99-б.

Bu she'rga adabiyotdan ilmidagi nazariy o'lchovlardan ko'ra ruhiyat mezonlari bilan yondashish ma'qulroq bo'ladi. Unda qahramon tuyg'ulari ifodasi ko'ngil kishisi bo'lgan she'rxonni muvozanatdan chiqaradi, qalbini junbishga keltiradi. Bunday bezovta vaziyatda she'rxon ham samimiy bo'ladi.

Shuni aytish joizki, shu she'r asosida yaratilib, Hilola Hamidova tomonidan ijro etilgan qo'shiq so'zning ta'sir kuchini yanada oshirgan. She'r so'zi bilan kuyi bir-biriga monand qo'shiqqa aylanib, har ikkisi tinglovchi va o'quvchi ko'nglidagi tuyg'ularga hamohang bo'lganda, so'zning ta'sir qudrati yanada ortadi. Ba'zi qo'shiqlar musiqasi yoqimsiz bo'lganidan go'zal so'zning ta'sir kuchi ham yo'qolib ketadi. H. Xudoyberdievaning ushbu she'riga kuy yozgan bastakor so'zni shunchalar nozik his qilgan, unga monand kuyni ko'ngli bilan topganki, qo'shiq samimiy ijrosi bilan tinglovchiga huzur bag'ishlaydi.

She'ning birinchi misrasidayoq qahramonning romantik tuyg'ular egasi ekanligini ko'rish mumkin:

*Men seni topgandim, ammo yaxshi qol,*

*Sen: "Yaxshi qol!" – degil, "Ko'rishguncha" mas.*

*Bul quyosh hali ko'p ol bo'ladir, ol,*

*Bul oy ham umrimga ko'p qiladir qasd.*

Birinchi misradagi "topgandim" so'zi shundan dalolat beradi. Inson "topdim" degan so'zni qidirgan, istagan yoki orzu qilgan narsasiga erishganda qo'llaydi. Demak, Qiz yigit timsolida orzusidagi muhabbatni, ishqida telbavor Majnunni topdim deb o'ylagan. Shu misraning o'zidayoq "ammo" so'zining keltirilishi uning adashgani, muhabbat borasida xatoga yo'l qo'yganini ko'rsatadi. Tiyiqsiz tuyg'ular etovida yurgan, xayolan oq otlik shahzodani kutgan bo'y qiz o'z nazdida orzulariga erishgan edi, lekin u visoldan kutilgan natijani – baxtdan mastlik lazzatini tuyolmadi. Orzulari sarob bo'lib chiqqanini tezda payqadi.

Albatta, she'rda ko'ngildagi muhabbatning topilishi bilan uning sarob ekanini anglash va bu muhabbatdan voz kechgungacha bo'lgan oraliqdagi hayot mashaqqatlari, "yaxshi qol" degan qarorga kelgungacha ruhiyatda ro'y bergan kurash hamda bu jarayondagi qiynoqlar haqida hech so'z deyilmaydi. Oradagi butun boshli hayot "topgandim" va "ammo" so'zlari hamda ular orasidagi vergulga



joylashtirilgandek tasavvur paydo bo‘ladi kishida: “*Men seni topgandim, ammo yaxshi qol*”. Buni ruhi bezovta she‘rxon o‘zi anglab oladi.

Ko‘rinadiki, Qiz – katta jur‘at egasi. Ayollar Allohning itoatkor, taqdir etoviga bo‘ysunuvchan yaratig‘i, degan tasavvur mavjud. Haqiqatdan ham ayollar tabiatan orqasida suyanchig‘i bo‘lishiga moyil xalq. Shoironing qahramoni esa isyonkor. U taqdirga qarshi chiqa olgan, uzul-kesil qarorni qabul qilishga o‘zida kuch topa bilgan ayol. Bunga hamma ayol ham qodir emas. Qiz ertaga hayotida nimalar bo‘lishini, kelajakda uni qanday sinovlar kutayotganini bilmaydi, lekin muhabbatsiz yashashni, aybsiz bir odamni aldashni istamaydi. Qolaversa, nega shunday qilayotganini asoslab ham o‘tirmaydi. Uning asosi she‘rxonga butun matnni o‘qish davomida ayon bo‘ladi.

Bandning ikkinchi misrasida qahramon Jabrlanuvchiga hech qanday umid qoldirmaydi, u bilan abadiy xayrlashishini ma‘lum qiladi: «*Sen: “Yaxshi qol!” – degil, “Ko‘rishguncha”mas*”. Qizning qarori o‘tinch emas, hukm. Lekin bu hukm she‘rda o‘ta yumshoqlik bilan bayon etilgan. Agar bu fikr “yaxshi qol” degin” yoki “yaxshi qol” de” tarzida ifodalanganda edi, talab, buyruq ohangi yuzaga kelgan bo‘lardi. “*Sen “yaxshi qol” degil*” – ya‘ni “n” tovushi o‘rniga “l” tovushining qo‘llanilishi ifodani ancha yumshatgan. Chunki Qiz ko‘ngil og‘rig‘ining hisob-kitobi borligini juda yaxshi biladi. Shuning uchun imkon qadar og‘riqni yumshatishga, ikkinchi bir qalbni ayashga harakat qilingan.

Keyingi ikki misra shoira bilgichligining isbotidir: “*Bul quyosh hali ko‘p ol bo‘ladir, ol, Bul oy ham umrimga ko‘p qiladir qasd*”. Quyoshning “ol bo‘l”ishida Qiz uchun tabiatning jazosi bor. Ma‘lumki, Quyosh o‘z nurlari bilan ba‘zi yaratilarni yayratib-yashnatsa, ba‘zilarini qovjiratib-quritib yuboradi. Bu o‘rinda Qizning o‘z xatti-harakatini ikkinchisiga daxldor sanashi ko‘rinadi. Qolaversa, oy ham quyoshga sherik. U ham jafokor qizning umriga qasd qiladi. Qiz bu isyoni uchun yuqoridan jazolanishini biladi. Ma‘lumki, dardkash inson kechalari bedor bo‘ladi. Bedorlik esa kishini o‘ylashga, o‘z xatti-harakatlarini taftish qilishga majbur qiladi. Bu taftish jarayonida Qiz xatolari uchun o‘zini o‘zi “eb” boradi va bu, pushaymon va hijolatlik, o‘z-o‘zidan uning umrini egovlaydi – joniga

qasd qiladi. Ushbu misralarni o‘qigan kishida qiz mazkur vaziyatda aqlining emas, ko‘nglining etovida ish tutgani uchun tabiat ham uni jazolaydi, jabrlangan bir ko‘ngil uchun undan o‘ch oladi, deganga o‘xshash tasavvur paydo bo‘ladi. Ayni zamonda she‘rxon inson hamisha ham aqlining etovida yura olmasligi, ba‘zan ko‘ngli g‘olib kelib, dil amri bilan ish ko‘rgani sabab jazolanishi haqida o‘yga toladi.

Hayotda shunday vaziyatlar bo‘ladiki, ba‘zan ko‘ngil tilaklarini bosishga inson aqlining kuchi etmay qoladi. Odam aqlida ixtiyorli bo‘lsada, ko‘ngilda beixtiyordir. Ayni vaqtda, ko‘ngil etovida yurgani bois ko‘p turtki eydi, azob tortadi. Odam bu holni tushunolmaydi va adolatsizlik sanaydi. Inson har qanday intilish visol bilan yakun topishini istaydi. Adabiyotshunos Q. Yo‘ldoshevning: “...*har qanday ayriliq ham insonni uchrashuv tomon, visol sari etaklaydi. Biz hayot va inson tuyg‘ularining inja aksi bo‘lmish she‘riyatda ham tasvir nishabi, albatta, shu tomonga burilishiga ko‘nikkanmiz*”<sup>80</sup>, – degan fikri ham shundan dalolat. Lekin qarangki, visol hamisha ham, hammaga ham kutilgan natijani beravermas ekan. Har bir inson o‘zicha betakror yaratilgan kabi uning taqdiri ham, ma‘lum ma‘noda qaytarilmasdir. Hamma ham umumiy mezonlarga tushavermaydi. Alloh insonga hamisha, har qanday muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini unga tanlash imkoniyati bilan taqdir qilarkan. Tanlash esa o‘sha odamning xarakteri va ma‘naviy olamiga bog‘liq bo‘ladi. She‘rning qahramoni ham o‘z taqdir yo‘lini o‘zi tanlaydi.

Bandning so‘nggi misrasida “bu” ko‘rsatish olmoshi “bul” shaklida qo‘llanilgan. Bittagina “l” tovushi Qizning isyoni darajasini bir qadar yumshatib, ikkinchi bir dilni og‘ritgani uchun o‘zi kechayotgan iztirobining balandligini ifodalagan. Misralardagi «bo‘ladir», «qiladir» so‘zlarida oxirgi «r»ning orttirilishi ham ifodani ma‘lum darajada yumshatgan, ham ikkinchi dilning iztirobini engillatishga moyillik bordek tuyuladi. Jazo ko‘lamining kengligini yaxshi anglab turgan isyonkorning xatti-harakati oshiqqa og‘ir botmasligi uchun shunday qilinganday tasavvur paydo bo‘ladi, o‘quvchida. She‘rning bu misralaridagi ifoda “Bu quyosh hali ko‘p ol

---

80. Йўлдошев Қ. Парда ортидаги нафис туйғулар. «Хордиқ» газетаси, 2009 йил 11 июнь.

bo'ladi, ol, Bu oy ham umrimga ko'p qiladi qasd'dan ko'ra ancha yumshoq ekanligi ham ko'rinib turibdi.

She'ning ikkinchi bandida g'amga botgan «aybdor» o'z yog'iga o'zi qovurilayotgani tasvirlangan:

*Sen sherik bo'lmaysan endi g'amimga,  
Darvoqe, hech qachon sherik qilmadim.  
Xayr endi, ma'zur tut ortiq-kamimga,  
Men seni Layliday seva olmadim.*

Qiz dard-iztiroblarini hech kim bilan bo'lisholmaydi, jabrdiyda yigit bilan-ku, inchunun. Chunki u bilan avvallari ham hech narsani o'rtoqlashmagan, na g'amiga, na shodligiga uni sherik qila olgan. Boisi, ular aslida boshqa-boshqa dunyoning odamlari. Qiz yigitni kamsitmaydi, lekin yigit uni hech qachon tushunolmasligini ham yaxshi biladi. U oshig'idan yozg'irmaydi ham. Bu yigitning ham aybi emas. Balki mana shu haqiqat qizning dardini engillashtirar?! Vijdoni oldida o'zini oqlashga asos bo'lar?! Bularning hammasini anglab etgan, faqat kechroq tushungan Qiz oshig'iga bor vaziyatni tushuntirishga harakat qilarkan, hamma-hammasi uchun uni kechirishini so'raydi: "...*ma'zur tut ortiq-kamimga*".

Yigitning aslida kimligiga aqli etib turgan qiz qanday qilib oshig'ini Laylidek seva olsin? Laylidek sevish – oshiq uchun o'zlikdan kechish-ku! She'rda oshiq va uning tabiati haqida hech narsa deyilmagan. Lekin qizning nazarida u Laylidek sevishga munosib emas, tuyg'ulari jo'sh urgan, orzular qanotida uchib yurgan Qiz istagan odam emas. Shundan kelib chiqib, yigitning kimligini taxmin qilish mumkin. Agar u tuyg'ular kishisi bo'lganida shoiraning qaxramoni: uni "Layliday sev"ib qolishi tabiiy ham edi va "Layliday seva olma"ngani uchun hijolat chekishga o'rin qolmasdi. Qolaversa, sevish yoki sevmaslik insonning ixtiyorida emas. Sevish – ko'ngilning ishi. Uni odam aqli bilan boshqarolmaydi. Agar muhabbat ishiga aql aralashsa, u muhabbat emas, hisob-kitobga aylanadi. Demakki, bu tuyg'u rost bo'lmaydi. She'ning qahramoni – Qiz esa yolg'onlarga qodir emas. O'zini ham, o'zgani ham aldagisi yo'q. Shuning uchun mardona voz kechishga o'zida kuch topa olgan. U – boshqacha yashashga buyurilgan odam. Shu bois oshig'idan chinakamiga rozi-rizolik tilamoqda, abadul-abad vidolashmoqda: "*Xayr endi...*".

She'ning uchinchi bandida asar qahramonining yigitga achinayotgani ham yaqqol seziladi:

*O'rtanma bul xato mushkullaridan,  
Yo rabbiy, lahzada bor orzular puch.  
Men ham qaydan bilay ishq yo'llarida –  
Majnun emas, Senga kelarimni duch...*

Har ikkovi tushib qolgan holat xatoning oqibati. Bu xatoda, balki har ikki tarafning ham aybi bordir. Balki, ikkalasi ham bir-birini sevmas. Faqat taqdirlarida shu ko'rgilik borligi uchun yo'liqishgandir. Yo'l qo'yilgan bir xato sabab kishining boshiga olam-olam tashvishlar yog'ilishi mumkin. Oshiq ham fikr kishisi ekanini qiz biladi. Shuning uchun undan qiynalmaslikni o'tinmoqda. O'rtanmaslikning, albatta, iloji yo'q. Ma'nan sog'lom odam taqdiridagi, hayotidagi muammolardan, ayniqsa, bu kabi nomutanosiblikdan, o'ylamay bosib qo'yilgan qadamlardan qiynalmasligi mumkin emas, albatta. “*Yo rabbiy, lahzada bor orzular puch*” misrasi ushbu vaziyatdan Qiz larzaga tushayotganini ko'rsatadi. Bu misradagi “lahza” so'zida “ammo yaxshi qol” degan vidolashuv iborasining aytilgunigacha bo'lgan oraliq nazarda tutilgan. Bu so'zni aytish Qizning o'zini ham qo'rqitib yuborgan. Lekin aytilgan gap, otilgan o'q – hammasi tamom bo'ldi.

Bandning so'nggi ikki misrasida she'r qahramonining armonlari ham o'z aksini topgan. U “*ishq yo'llarida*” o'z Majnuniga duch kelishni istagan, Laylidek sevilishni, sevishni orzu qilgandi. Taqdirlarida bunday burilish bo'lgani uchun, albatta qiz ham aybdor emas, lekin insofli bir odam sifatida u o'zini gunohkor his qilyapti. “*Men ham qaydan bilay ishq yo'llarida – Majnun emas, Senga kelarimni duch...*”. Bu Qizga bir umrlik armon bo'lishi ham mumkin. Kim biladi, endi umrining qolgan qismida u o'z Majnunini balki topar, balki topmas. Balki shu baxtdiru, qahramon buning qadriga etmay, uning baxt ekanligini bilmay kiyasiga qolar?! Buni kelajak ko'rsatadi. Inson oldida nimalar borligini, hayotda uni nimalar kutib turganini bilmaydi.

Islomiy qarash bo'yicha, tikon ham insonga Allohning amri bilan kirarkan. Demak, hammasi Yaratgan tomonidan nazoratda. Fazilatlar uchun rag'bat, gunohlar uchun jazo tayin. She'r qahramonlarining boshiga tushgan bu ko'rguliklar ham ularning taqdirida bo'lgan.

Ulug‘bek Hamdam: *“Nimasini aytay, qodir Egam insonga bir ko‘chadan o‘tishni taqdir qilgan esa, qarshisida son-sanoqsiz boshqa ko‘chalarning darvozalari lang ochiq va u ming urinib shulardan biriga kirmoqchi bo‘lsada, niyatiga etmas ekan”*<sup>81</sup>, – deganida haq edi. Qiz ham, uning sevgisiga sazovor bo‘lmagan yigit ham kelajakda nimalarga mustahiq ekanliklarini boshlariga tushganda ko‘radilar. Bilib-bilmay taqdirlari sari boradilar.

Xullas, shoira Halima Xudoyberdieva bu she‘rida o‘z fikri va qarashiga ega bo‘lgan ko‘ngil kishisining chin tuyg‘ularini uning o‘zidek his qilgan hamda samimiy ifodalay bilgan. Bunga o‘quvchisini ham ishontira olgan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ertak janriga xos bo‘lgan bitiklarning o‘ziga xos xususiyatlarini ajrating. Uni o‘rganishga xos bo‘lgan jihatlarni ajratib yozing.

2. Hikoya janriga xos bo‘lgan yetakchi xususiyatlarni ajratib daftaringizga yozing. Uni ertak janri bilan taqqoslang. Hikoya bilan ertakni o‘rganishdagi yetakchi ish turlarini daftaringizga yozib oling.

3. *“O‘quvchi qalbida o‘qishga intiltiruvchi ichki ehtiyoj hissini shakllantirish uchun adabiyot darslarida zarur sharoit, imkoniyat vujudga keltirilmog‘i lozim”* degan fikrga qanday qaraysiz? Sizningcha, uni qanday tashkil etish mumkin? Bir asar misolida qarashlaringizni dalillang.

4. O‘qituvchingiz bilan kelishgan holda birorta epik asar tahliliga bag‘ishlangan dars tashkil eting.

5. Q. Yo‘ldoshevning she‘rni ifodali o‘qish haqidagi fikrini qayta o‘qing. O‘z qarashlaringizni taftish qiling.

6. Mutaxassis olimlar asarlaridan olingan iqtiboslarni tahlilga torting. Ularga munosabat bildiring.

7. Shoira H. Xudoyberdieva qalamiga mansub *“Men seni topgandim...”* she‘ri tahlili bilan bog‘liq savollarga javob bering.

8. Fikrlaringizni quyidagi asar tahlili qanoatlari bilan solishtiring. Qarashlardagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlang. Har ikkala holatga o‘z munosabatingizni bildiring.

9. H. Xudoyberdievaning *“Begim, sizni tabiat...”* she‘ri mazunidan kelib chiqqan holda *“Ayol va muhabbat”* mavzusida insho

---

81 Улуғбек Ҳамдам. Сабо ва Самандар. Роман. Т.: Муҳаррир, 2009. 73-б.

yozing. Har biringizning ishingizni birgalikda muhokama qiling.

## 14-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda topishmoqlar va tez aytishlarning ahamiyati. Ular ustida ishlash yo'llari

### Reja:

1. O'zbek xalq og'zaki ijodida milliy poetika qonunlari
2. Topishmoqlar idrok, zehnni o'stirishda o'ziga xos tarbiya maktabi
3. Topishmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari
4. Tez aytishlar tuzish va ular ustida ishlash yo'llari
5. Badiiy matn tahlili namunasi

**Tayanch so'zlar:** *Hajm jihatdan qisqa va ixcham, she'riy ko'rinish, nasriy ko'rinish, yaratilish maqsadi, yashiringan narsani topish, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari.*

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini to'g'ri tashkil etish, tarbiyalanuvchilar ma'naviy kamolotini ta'minlashda topishmoqlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuga bag'ishlangan adabiyotlarda qayd etilishicha, topishmoqlar ko'p asrlik xalq donishmandligi durdonalari sifatida inson idroki, kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o'stiruvchi badiiy yaratmaqlardir<sup>82</sup>. Ular quvnoq o'yin, ma'naviy dam olish vositasi bo'libgina qolmay, ajdodlar ruhiy olami, tarixiy o'tmishini bilishda kalit vazifasini ham o'taydi. Topishmoqlarni tarixiy madaniyatning bebaho hujjatlari deyish ham mumkin. Og'zaki adabiyotni, shu jumladan topishmoqlarni ham xalq ko'ngil xushligining mevasi deb qarash unchalar ham to'g'ri bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodining har bir namunasi o'sha millatning aqli, vijdoni, sobit ma'naviy qiyofasi va tarixiy xotirotidir.

Shu ijod namunalaridan biri bo'lmish topishmoqlar qadimda hozirgiga nisbatan o'zgacharoq ahamiyat kasb etgan. Topishmoqlardagi obrazlar ko'p hollarda mifologiyani hayot bilan bog'liqlikda namoyon etgan. Ular ajoyib istioralar, yorqin qiyoslashlar, obrazli ifodalar bilan jilolantirilgan bo'lib xalq ongi va dunyoqarashining o'ziga xosligini tasvirlash yo'sinida ahamiyatli bo'lgan. Shu bilan birga, topishmoqlar folklor asarlari silsilasida ulkan estetik qimmatini bilan xalq ma'naviy dunyosining ifodachisi sifatida

---

82 <http://www.e-adabiyot.uz/kitoblar/qollanmalar/867-uzbek-xalq-ogzaki-ijodi.html?start=8>

bugungi kun adabiy-madaniy hayotining muhim tarmog'i bo'lib qolmoqda.

O'zbek xalq og'zaki ijodida milliy poetika qonunlari va prinsiplari asosida yaratilgan topishmoqlar talaygina. O'zga xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek xalq og'zaki ijodida ham badiiy nutqning qiyoslash, istiora, jonlantirish, sifatlash kabi asosiy ko'rinishlari bir maqsadga — poetik idrok va voqelikni poetik tasvirlashga bo'ysundirilgan. O'zbek xalq topishmoqlarida millatning voqeligi, o'zbekona tabiati o'z aksini topgan. Xalq topishmoqlari og'zaki badiiy ijodning jajji, ixcham namunalari sanaladi. Ularda biror narsa-hodisa yoki voqelikning yashirin jihatlari bilan o'xshash tomonlariga asoslanilgan holda o'rin almashish yoki xususiyatlarni ko'chirib o'tqizish orqali shakllantiriladigan ko'chma ifodalar o'z aksini topadi. Ya'ni topishmoqlar aniq narsa yoki voqelik tushunchasini ongli ravishda yashirishga, sir tutishga asoslanilgan kichik poetik asardir.

Ajdodlar asrlar osha hayotiy muhim hisoblangan sirli, shartli nutqlarni, bilimni yosh avlodga meros sifatida qoldiravergan. Shu ma'noda topishmoqlar ham asta-sekin o'zining dastlabki xususiyatlarini, sodda ko'rinishlarini o'zgartirib, o'zgacha xarakter kasb eta boshlagan. O'zbek miflari va ertaklarida ko'pincha topishmoqlar inson donoligini sinash vositasi bo'lib kelgan, uning yechimi, og'ir damlarda qahramon hayotini saqlab qolgan. Bora-bora topishmoqlar vazifasi o'zgarib, ko'proq so'z o'yinining badiiy shakliga aylana bordi. Ularning ko'ngilxushlik xususiyatlari yetakchi ahamiyat kasb etdi.

Aslini olib qaraganda, topishmoqlar idrok, zehnni o'stirishda o'ziga xos tarbiya maktabi ham bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi jarayonida, o'yinlar asnosida bolalarga topishmoqlar aytish didaktikaga xos bo'lgan asosiy ish turlaridan biridir. Gap shundaki, topishmoq aytuvchi, g'olib sifatida uning javobini topa olmayotgan tinglovchidan arzimas narsalarni emas, balki shaharini talab qilish huquqiga ega. Savol tug'iladi: «Topishmoqning javobi topilmaganda nega aynan shahar so'raladi?» Buning zamirida bolalarning sha'nini, g'ururini uyg'otish, vatanga muhabbat hissini tarbiyalash bilan birga bilimlilikka yo'naltirish maqsadi ham yotadi. Bunday hollarda topishmoqni echa olmagan tomon o'z mag'lubiyatini tan olib «Shahar berdim», ya'ni engildim, deyishi kerak. Musobaqada



engilish va engilganini tan olish bolalarda osonlik bilan kechmaydi. Garchi bu oddiy o‘yin bo‘lsa-da, mag‘lub o‘z shahrini osonlikcha berib qo‘yishni istamaydi. Bu kabi shartlar topuvchini jiddiy o‘ylashga, mantiqiy fikrlashga, topqirlikka, ziyraklikka, vatanni asrashga yo‘naltiradi. Bunday vaziyat zamirida yurtni asrash, unga hiyonat qilmaslik hissi yotadi. Topishmoqlar bolalarga xos bo‘lgan bunday tuyg‘ularning ilg‘anishiga, ularning yuqoriga sizib chiqishiga va ruhiyatda qat‘iylashib qolishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, shakllanib kelayotgan shaxsda bir qator fazilatlar qaror topishiga ko‘maklashadi.

Topishmoqlarning tarbiyaviy-didaktik xususiyatlari yana shundan iboratki, og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan bu janr tarbiyalanuvchilarda xalq ijodiga, obrazli so‘zga muhabbat uyg‘otadi, ularga estetik zavq bag‘ishlab, og‘zaki she‘riyat dunyosiga olib kiradi. So‘z san‘atining o‘ziga xos bu turi o‘sib kelayotgan avlodning ma‘naviy ehtiyojlariga ozuqa bo‘ladi. Topishmoqlar o‘quvchilarni olam go‘zalligini ko‘rishga, xayol va tasavvur qilishga, dunyo quvonchlaridan bahramand bo‘lishga yo‘naltiradi. Ular maqollar, matallar va boshqa obrazli so‘zlar kabi o‘quvchilar nutqini bezaydi, uning ixchamligi, jarangdorligini ta‘minlaydi. Ezgulikka chorlab, inson uchun eng aziz bo‘lgan ona tilga, tug‘ilgan yurtga muhabbat hissini tarbiyalaydi.

Topishmoqlarda ifodalangan fikr va narsa-hodisalar xususiyatlarining kengligi ularning voqelikni o‘ziga xos badiiy shaklda tasvirlashi bilan ham bog‘liqdir. Ular shakllanib kelayotgan shaxsni mantiqiy va mustaqil tafakkur qilishga, muhimni nomuhimdan farqlashga yo‘naltiradi. Shu bilan birga topishmoqlar xalqning ma‘naviy tajribasini saqlash vositalaridan biri hamdir. Shuning uchun ham topishmoqlarning mavzusi g‘oyat rang-barang, mazmuni juda boy. Xalq yaratgan topishmoqlar uning ijtimoiy hayoti va turmushining barcha tomonlarini qamrab oladi. Topishmoqlar o‘z qiziqish doirasiga ko‘ra o‘simliklar va hayvonot dunyosini, o‘zbekka xos bo‘lgan asosiy jihat – dehqonchilik, dehqon mehnati, bog‘dorchilik, polizchilik, uy yumushlari, uy xo‘jaligiga oid ko‘plab narsalarni, xalq urfq-odatlarini va xislatlarini qamrab olgan.

O‘zbek topishmoqlarining saranjomligi, tegrasi to‘g‘risida so‘z yuritib shuni aytish mumkinki, yashash joyidan tashqaridagi voqealar o‘zbeklarga bolalikdan tanish bo‘lgan erlar — tog‘lar, cho‘llar,

vodiylarda bo‘lib o‘tadi. O‘zbek topishmoqlari ajoyib tasvirlari bilan kishini lol qoldiradi. Masalan, «*Bir qozondan qirq tuya suv ichadi*» (chuchvara). Bu topishmoqning javobini topish, nafaqat bolalar, balki katta yoshli tinglovchidan ham anchagina aqliy zo‘riqishni talab qiladi. Uning javobiga monand yagona belgi – qozon. Topishmoqdagi qirq tuya va suv ichish singari xususiyatlar uning javobiga hech qanday turtki yoki yo‘nalish berolmaydi. Topishmoqning javobini topish bilan «shahar berish» orasidagi iztirob, aqliy zo‘riqish mas’ul shaxsni anchagina muvozanatdan chiqaradi. Mag‘lubiyatni tan olish tinglovchiga azob bilan keladi. U topishmoqning javobini topib g‘alaba nashidasini tuyish bilan mag‘lubiyatni tan olish hissi o‘rtasida qiynaladi. Natijada azob va og‘riq bilan «shahar beradi».

O‘zbek topishmoqlari ma’no jihatidan o‘zaro qiyoslansa, ularning ayrimlarida yangi zamon izlarini ham ko‘rish mumkin. Masalan: «*Po‘lat qushim uchdi, ketdi, Bir zum o‘tmay Oyga etdi*» (raketa). Bu topishmoqda uchirilgan «qush»ning po‘latligi va bir zumda oyga etgani uning yechimiga aniq yo‘nalish beradi. Bunday topishmoqlar o‘quvchilarni, garchi oz bo‘lsa-da, o‘ziga xos, ilmiy dunyo bilan tanishtiradi, bilganlaridan amalda foydalanishga undaydi.

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko‘ra maqollarga o‘xshab ketadi. Ba’zan mazmuniga ko‘ra ham yaqinlik seziladi. Ammo ularning yaratilish maqsadida ma’lum darajada tafovut mavjud. Maqol va matallarda axloq-odob, ma’naviy komillik sari yo‘naltirish ustuvorlik qilsa, topishmoqlarda ziyraklikka, topqirlikka, mustaqil va mantiqiy tafakkurga undash yetakchilik qiladi. Janr nomida “top” so‘zi yetakchilik qilishining o‘ziyoq uning maqsadini aks ettiradi. ayni zamonda «o‘yla», «axtar», «solishtir» ma’nolarini ham ifodalaydi. Unga “-ish” so‘z yasovchi qo‘shimchasi qo‘shilganda vazifa aniqlashadi. Fe’lning noaniq shaklini yasovchi “-moq” qo‘shimchasi esa mavhumlik, javobning yashiringanligi va noaniqligiga ishoradir.

Topishmoqlarning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Hajm jihatdan qisqa va ixcham.
2. Shaklan she’riy, nasriy ko‘rinishga ega.
3. Yaratilish maqsadi zamirida yashiringan narsani topish vazifasi mavjud.

4. Mazmunda hayvonot, o‘simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirin tarzda ifodalanadi.

5. Topilishi lozim bo‘lgan narsa, ko‘pincha, bitta, ba‘zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo‘ladi.

6. Topishmoqlarda qo‘llangan asosiy badiiy san‘at istiora (metafora) hisoblanadi va hk.

Topishmoqlarda topilishi lozim bo‘lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi kabi xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi, ammo bu belgilar istiora san‘atidan foydalanilgan holda boshqa jihatlar bilan uyg‘unlashib ketadi. Masalan, «*Qopcha, Qopcha ichida uncha, Uncha ichida ustuncha*» (jiyda). Bu mantda yashiringan narsaning uchta belgisi uchta istiora vositasida berilgan. Demak, uning shakli qopga, ichidagi qismi unga o‘xshaydi. Un o‘rtasida esa ustun bor. Topishmoqni topayotgan odam matnda jiyda haqida gap ketayotganini topsa, fikriy musobaqada enggan bo‘ladi. Lekin bugungi kunda jiyda deb atalmish mevaning o‘zi ham, nomi ham iste‘moldan chiqib ketayotgani nazarda tutilsa, bu topishmoqning javobini topish bugungi yosh avloddan ancha zo‘riqishni talab qiladi va uni topish ham arimahol. Bugungi o‘quvchilarning ko‘pchiligi shahar berishga majbur bo‘ladi.

Ko‘pincha, yashiringan narsaning faqat ko‘rinishi, xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi, lekin hech narsaning nomi qayd etilmaydi. Bunday vaziyatlarda izlovchi shaxs faqat o‘zi bilgan narsalarga xos belgilarni eslab yechimni topishga intiladi: «*Pak-pakana bo‘yi bor, etti qavat to‘ni bor*» (piyoz).

Bundan tashqari, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida shunday topishmoqlar mavjudki, bugungi o‘quvchilarning ko‘pchiligi unda aks etgan belgilar va javobni tasavvur ham qilolmaydilar. Bunday topishmoqlarning faqat badiiy asar sifatida manbaalarda saqlanib qolaverish xavfi ham yo‘q emas. Masalan, «*Og‘zi ola alomat, Ichi qizil qiyomat, Suv sepsam, quruq chiqar, Yo alhazar, salomat*». Bu topishmoqda “alomat”, “qiyomat”, “salomat” so‘zlari asosan qofiya hosil qilish uchun keltirilganini bilish talab etiladi. Endi yashiringan narsaning og‘zi borligiga, bu og‘izning ko‘rinishi ola ekaniga, ichi qizilligiga, uning ichida suv sepiladigan narsa bo‘lishiga diqqat qilinadi. Suv sepilsayu u narsa quruq chiqsa, demak “qizil qiyomat” – olov bo‘lishi mumkin.

Shundan soʻng nimaning ichida olov boʻlishini esga olish kerak boʻladi. Va topishmoq zamiriga berkitilgan narsa tandir ekanini topish ancha aqliy zoʻriqishni talab qiladi. Bu kabi topishmoqlarning javobini topish uchun uning yaratilishida muallifning fikr yuritish yoʻsiniga tayanish kerak boʻladi. Agar har bir topishmoqning zaminida muayyan fikriy kashfiyot yotishi nazarda tutilsa, uni topadigan shaxs ham aynan shu yangilikni boshqa yoʻl bilan kashf qilishi kerak boʻladi. Binobarin, u ham muallif hayot tajribasiga, kuzatish nuqtai nazariga, fikr yuritish yoʻnalishiga ega boʻlishi lozimligi sabab juda murakkab tarzda mulohaza yuritish jarayonini boshidan kechiradi.

Topishmoqlardagi narsa-buyum va hodisalarga xos boʻlgan xususiyatlarning savollar shaklida ifodalanishi baʼzan qarama-qarshi mulohazalarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Masalan, «*Qoʻlsiz, oyoqsiz eshik ochar*» topishmogʻi bilan “*U yoqqa oʻtdim – bildingmi? Bu yoqqa oʻtdim – bildingmi? Oq quvrayning boshini Chertib oʻtdim – bildingmi?*” topishmogʻida tinglovchini hayron qoldiradigan muammolar nazarga tashlanadi. Xususan, javob topuvchini birinchi topishmoqdagi yetakchi xususiyat – qoʻlsizlik, oyoqsizlik holati va shunda ham eshikni ocha olish imkoniyati oʻylantiradi. Ikkinchi topishmoq haqida mulohaza yuritilganda esa: «Nahotki u yogʻimdan bu yogʻimga oʻtgan narsani men sezmasligim mumkin? U narsaga oq quvray – choʻl-dashtda oʻsadigan yovvoyi oʻtning nima aloqasi bor? Yoki nega turtmaydi, urib yiqitmaydi, aynan chertadi?», - degan masalalar artofida fikr yuritish kerak boʻladi. Bu savollarga javob topish uchun topishmoq aytgan odamning fikr yuritish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu ikkinchi topishmoqda yashirilgan narsaga xos boʻlgan xususiyatlarning belgilaridan biri «Oq quvrayni chertib oʻtish» tasviri topishmoq matnida unchalik muhim ahamiyatga ega emas. U shunchaki mattning shaklini tugallashtirish uchun qoʻllanilgan. Qolaversa, shamol oʻsimlikni «chert»maydi. Yoki mayin silab-siypalaydi, yoki tortqilab har kuyga soladi. Asosiy eʼtibor atrofida uyoqdan bu yoqqa oʻtadigan, lekin u oʻtganda ham odam koʻpda eʼtibor bermaydigan narsaga qaratilmogʻi lozim boʻladi. Yaʼni topguvchidan mantiqiy mulohaza yuritish va ziyrak nazar talab qilinadi. Shundagina har ikki topishmoqning javobi shamol ekanini topish mumkin.

Bunday topishmoqlarning javobini topishdagi qiyinchiliklardan biri shundaki, ba'zan ularda bayon etilgan xususiyatlarga tayangan holda yechim yo'nalishini belgilab olish ham qiyin kechadi. Shunday topishmoqlardan yana biri: «*Bir yarim quyon, uch tulki, to'qqiz sigir, besh echki, o'n ikki tuya, o'n yilqi*»dir. Bu topishmoqning yechimini qidirganda odamning xayoli raqamlar va hayvonlarga ketadi. Bu raqamlar bilan hayvonlar orasidagi aloqadorlik haqida o'ylash kerak bo'ladi. Topishmoqning javobi hayvonot olamidani yaxshigina xabardorlikni, maxsus bilimni talab etadi. Aslini olganda, muammoning boshi oylarni aniqlashga borib taqaladi. Buning uchun topishmoqning yechimini izlayotgan shaxsdan mantiqiy mulohaza talab etiladi. Quyoning bir yarim, tulki uch, sigir to'qqiz, echki besh, tuya o'n ikki, yilqining o'n oyda bolalashi borasidagi bilimga asoslaniladi. Chorva bilan shug'ullangan odamgagina bu topishmoqning javobini topish oson kechishi mumkin. Aks holda «shahar berish», ayni zamonda nomlari sanalgan jonivorlarning necha oyda tug'ishini bilib olish mumkin.

Topishmoqlarning paydo bo'lishi haqida folklorshunoslikda aniq daliliy ma'lumotlar yo'q. Ilmiy manbalarda uning qadimiy ekani qayd etiladi. Ammo turkiy so'z, ibora, maqol va matallardan namunalar jamlangan "Devonu lug'otit turk"da ham topishmoq matni uchramasligi e'tirof etilgan. Tadqiqotlarda keltirilishicha unda "tabzug" so'zi topishmoq ma'nosini ifodalashi aytilgan, xolos. Topishmoq hajman, shaklan maqolga o'xshaganligi uchun bu ikki janrning vujudga kelish vaqti ham bir xil bo'lishi kerak, degan taxmin bildirilgan, xolos.

Topishmoqlarning yaratilishida topilishi lozim bo'lgan jihat – narsa-hodisalarning yetakchi xususiyatlari asosiy omil bo'ladi. Ularning yaratilishida topilishi lozim bo'lgan xususiyatlar boshqa narsalarga mengzaladi. Bu xususiyatlarni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Yashirilgan narsaning tashqi qiyofasi – hajmi, shakli, ko'rinishi ustuvorlik qiladi: «*Uzun terak yiqildi, Uchi mening qo'limda. Zag'izg'oni sayradi, Sochi mening qo'limda*».

Mantiqan o'ylab qaralsa, matn mazmunidagi topilishi lozim bo'lgan narsa daraxtdan yasalgan ekani ma'lum bo'ladi – uzun terak yiqitilgan. Yog'ochdan yasalgan narsaning uchi odamning qo'lida.

“Zag‘izg‘oni sayradi” – ma’lum bo‘ladiki, undan ovoz chiqadi, sayraydi. “Sochi mening qo‘limda” deyilganidan ayon bo‘ladiki, sochni eslatuvchi tola uning tarkibiy qismini tashkil etadi. Ma’lum bo‘ladiki, yog‘ochdan yasalgan narsa, o‘ziga xos bo‘yi-basti bor, ovoz chiqaradi, tolasi bor. Fikr kishisi uning torli musiqa asbobi ekanligini topishi mumkin.

2. Topishmoq matnida ranglarning ustuvorligi: “*Ko‘k kosani to‘ntardim*” yoki “*Ko‘k sandig‘im ochildi, ichidan zar sochildi*” topishmoqlarida osmonning ko‘k ragda ekanligi yetakchilik qilmoqda. «Ko‘k» so‘zining o‘ziyoq topishmoqning javobini topuvchiga turtki beradi. Topishmoqlarda osmon jismlari haqidagi ma’lumot ham berkitilgan bo‘ladi. Bundan tashqari, “*Qora uyda ming chiroq, uyni yoritmas*” (tun va osmondagi yulduzlar), “*Qora tuyam qochyapti, qumolog‘in sochyapti*” (qora bulut va do‘l) topishmoqlaridagi qora rang tasvirida o‘z-o‘zidan tun nazarda tutilayotgani anglashiladi.

3. Topilishi lozim bo‘lgan narsaning tuzilishi, tarkibi yuzasidan ma’lumot beriladi: “*Bu tolning o‘n ikki shoxi bor. Har shoxida to‘rttadan uya bor, Har uyada ettitadan tuxum bor. Har tuxumning yarmi qoradir, ko‘rsang, Yarmi oppoqdir topgan bo‘lsang*” (yil, o‘n ikki oy, hafta, kun, kecha va kunduz). Yoki “*Tom ustida bir palak, Unda o‘n ikki handalak, O‘n birini esa bo‘lar, Birini emay, bo‘lar halak*” (yil, o‘n ikki oy, bir oy ro‘za).

4. Topilishi kerak bo‘lgan narsaning bajaradigan vazifasi ta’riflanadi: “*Lip etadi kirib ketadi, Chiqazolmay esing ketadi*” (tikan).

5. Hayotdagi asosiy belgisi harakat misolida bayon etiladi: “*Kunga qarab tolmaydi, Kundan ko‘zin olmaydi*” (kungaboqar).

6. Yashiringan narsaning qiyofasi, alohida belgisi ta’kidlanadi: “*Ustidagi ko‘ylagi, Xuddi qog‘ozga o‘xshar. To‘g‘rasang, jahli chiqib, Ko‘zingni darrov yoshlar*” (piyoz).

7. Narsa-hodisaning bir nechta belgisi topilishi kerak bo‘lgan ikkinchi manbaaga ko‘chiriladi: “*Er ostida oltin qoziq*” topishmog‘ida sabzining shaklan qoziqqa o‘xshashi, uning rangi oltinni eslatishi va er ostida o‘sishi uyg‘un tarzda qayd etilgan.

8. Inkori ma’nosi yetakchilik qiladi: “*Xo‘ppa semiz, Tuki yo‘q. Terisi qalin, Tuki yo‘q*” yoki “*Qoni bor, Joni yo‘q*” (tarvuz) singari.

Topishmoqlar mazmunan xalq hayotining hamma sohalarini egallaganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Maishiy hayotdagi, ijtimoiy muhitdagi munosabatlar ham topishmoqlarda o‘z ifodasini topgan. Ko‘rpa, qulf, qozondan tortib qozi, sudxo‘rlarning kirdikorlarigacha topishmoqlarda aks etganligi xalq aqliy zakovatining namunasidir. Xalq topishmoqlarini mukammal o‘rgangan Zubayda Husainova topishmoqlar matnini tizimlashtirishda ularni yirik ikki guruhga ajratadi: “An’anaviy topishmoqlar” va “Yangi topishmoqlar”<sup>83</sup>. Birinchi guruhda osmon, er, suv, tabiat hodisalari, yil fasli va mavsum, odam, uning a’zolari va xislatlarini aks ettiruvchi topishmoqlar jamlangan. Yangi topishmoqlarda esa elektrotexnika, radiotexnika, maktab va o‘quv qurollari haqidagi ma’lumotlar bilan bog‘liq zamonaviy topishmoqlar to‘plangan. Ma’lum bo‘ladiki, topishmoqlarda aks etmagan mavzuning o‘zi yo‘q. Topishmoqlar shaklan nasriy va she’riy bo‘lishi ham mumkin. “*Daraxt ustida langar*” (anjir), “*Soy ichida saksonboy*” (burga), “*Tog‘ ustida o‘rmon bor*” (soch) kabilarni nasriy topishmoqlar sirasiga kiritish mumkin.

*“Uzun-uzun o‘z keldi,  
Uzun bo‘yli qiz keldi.  
Qoshi qaltirab keldi,  
Ko‘zi yaltirab keldi”* (yomg‘ir)

yoki

*“Uzun-uzun iz ketdi,  
Uzun bo‘yli qiz ketdi.  
Toshga tegdi taq etdi,  
Sirg‘alari yarq etdi”* (suv)

kabi topishmoqlarni she’riy topishmoqlar deya atash mumkin.

Ma’lumki, hayotda inson bilan munosabatda bo‘lgan har bir narsa-predmet juda ko‘p xususiyatlarga ega. Ularning rangi, ko‘rinishi, vazifasi, vazni ham turlicha. Shuning uchun har bir narsa haqida bir nechta topishmoq to‘qish mumkin. Ayni paytda bir narsa haqidagi topishmoqda ifodalangan belgilar boshqa narsalarda ham mavjud bo‘lishi va ularning javobi ham bir xil bo‘lmasligi mumkin. Masalan, oddiy tomchi haqidagi topishmoqlarning to‘plamlarda

---

83 З. Хусайнова. Топишмоқлар. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

o‘ndan ortiq namunasini uchratish mumkin: *“Tumshuqsiz chumchuq muz teshar”*, *“Jingila sichqon er qazir”*, *“O‘tmas pichoq er kavlar”* va hk. bu topishmoqlarning hammasida bir tomchi suv xususida fikr yuritiladi. Suv haqida esa topishmoqlarning yigirmaga yaqin variantlarini uchratish mumkin.

Ba‘zan bir narsaning xususiyatlari birma-bir sanab o‘tiladiki, bundan jumboqning yechimini osongina topish mumkin: *“Ko‘l emas, daryo emas, Ichida muzlaydi suv. Jazirama yozda ham, Issiq o‘tkazmaydi ul. Usti boshi temirdan, Shundan joyi to‘ridan”* (muzlatgich). Bunday topishmoqlarni narsa haqida to‘qilgan kichik hikoya deyish ham mumkin. Chunki ta‘rifda har bir belgi va xususiyat erinmay bayon etiladi.

Bundan tashqari, yuqorida qayd etilganidek, bitta topishmoqning bir nechta javobi bo‘lishi ham mumkin. Masalan, *“Uzun terak, ichi g‘ovak”*. Bu topishmoqqa qamish, mo‘ri, miltiq javoblarini berish xato bo‘lmaydi. Yoki: *“Tepdim, tepdim, terakka chiqdim”*ning javobi narvon va egarlangan otga chiqish bilan izohlanadi. Xalq orasida yashab kelayotgan topishmoqlar bir jumboqli va ko‘p jumboqli bo‘lishi ham mumkin. Yuqorida misol qilib keltirilgan suv, jiyda, shamol, tanbur haqidagi topishmoqlar bir jumboqli hisoblanadi. She‘riy misralar soni bu o‘rinda alohida ahamiyat kasb etmaydi. Olti misradan iborat topishmoqning javobi muzlatgich edi. Ammo shunday topishmoqlar ham borki, ularga javob berish uchun ikki va undan ortiq narsalarni eslashga to‘g‘ri keladi: *«Tog‘da talaymonni ko‘rdim, Suvda sulaymonni ko‘rdim. Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim, Yumalab yotgan toshni ko‘rdim»*. Bu topishmoqdagi to‘rt misrada to‘rt xil narsa yashiringan. Birinchisida bo‘ri, ikkinchisida baliq, uchinchisida sumalak, to‘rtinchisida toshbaqa tasvirlangan. Z. Husainova ba‘zi zamonaviy topishmoqlarda arifmetik raqamlar sonini topish talab qilinishini ham yozadi va quyidagi nasriy topishmoqni misol tariqasida keltiradi: *“Bir to‘da g‘oz uchib borar ekan. Bir g‘oz ro‘baro‘ kelib: “Ey yuz g‘oz, sog‘-salomat bormisiz”, - debdi. Shunda ulardan biri aytibdi: “Biz yuz g‘oz emasmiz, yana bir miqdori g‘oz bo‘lsa, yana bizning yarmimiz miqdori va yarmimizning yarmi bo‘lsa, u vaqtda sen qo‘shilsang, yuz g‘oz bo‘lamiz”, - debdi. Havodagi g‘ozlar qancha edi?»* Javobi: 36, ya‘ni  $(36+36+18+9+1=100)$ .



Topishmoqlarda bir qator odamlarning ismlari ham uchraydiki, bu odamlar qachonlardir yashagan bo'lishlari, lekin vaqt o'tishi bilan shaxs sifatida asta-asta xalq xotirasidan o'chib, nomi topishmoqlar mazmunida saqlanib qolgan bo'lishi ham mumkin: *“Sariboy akam ichkari, Soqollari tashqari”* (sabzi, makkajo'xori). Shuningdek, *“Tokchama-tokcha, Samatjon boyvachcha”* (sichqon), *“Osmoni resmon, Mulla Abdurahmon – beustixon”* (bit).

Topishmoqlarda tazod (qarshilantirish) san'ati namunalaridan ham foydalanilgan: *“Osh ichida tosh, Tosh ichida osh”* (sumalak, toshbaqa, yong'oq). Bu matnda hatto qofiya san'atining murakkab turi tarsi' (misralardagi hamma so'zlarning qofiyalanib kelishi) ham o'rin olgan.

Badiiy adabiyotdagi jonlantirish (tashxis) san'ati topishmoqlarning asosiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi: *“Qoraboy otdan tushdi, Bolalari yugurishdi”* (qozon, tovoq, kosa). *“Ikki singil, Og'ir – engil”* (tarozi). Topishmoqlarda ba'zan jonlantirishning gapirtirish (intoq) usuli ham uchraydi: *«Zuv» etdi bildingmi, Zuvillab ketdi bildingmi? Ko'lankasi kumushdan, Kulib ketdi bildingmi?»* (miltiq, o'qi). Bunday misollar xalq topishmoqlarining haqiqiy so'z san'ati namunasi ekanini qayta-qayta dalillaydigan omillardir.

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan topishmoqlarni nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarini, ba'zan xato kattalarni ham mustaqil va mantiqiy mulohaza yuritishga, izlanishga, qiyoslashga, ziyoratlik va topqirlikka chorlovchi fazilatlariga ega yaratilgan deyish mumkin. O'z xususiyatlari bilan topishmoqlar boshlang'ich sinf tarbiyalanuvchilarining ma'naviy kamolotiga ma'lum hissasini qo'shadi.

**Tez aytishlar tuzish va ular ustida ishlash yo'llari.** Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'ziga xos ahamiyatga molik bo'lgan adabiy janrlardan biri tez aytishlardir. Tez aytishlar har bir xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lib ularning shakllanishida ayrim nutq tovushlarining ko'p qaytarilishi yoki tovushlarning so'z va iboralar tarkibida talaffuzini qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishi asos bo'ladi. Ayniqsa, bu iboralar tez aytilayotgan paytda, aytuvchi maxsus tartib borilgan murakkab tovushlarni talaffuz qila olmasdan adashib ketishi tinglovchilarning beozor kulgusiga sabab bo'ladi.

O‘zbek tilida bu iboralarning “tez aytish” deb nomlanishi zamirida mana shu ko‘ngilochar xislat berkitilgan bo‘lishi ham mumkin.

Tez aytishlarda ijrochi yanglishib ketishi mumkin bo‘lgan qofiyadosh so‘zlardan tuzilgan jumlar qo‘llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular o‘rniga amal qilingan holda tez talaffuz qilinadi. Masalan, “*Besh mis barkash, besh mis barkashning ichida besh ming mis barkash*”. Tez aytishlar aytilganda har bir tovush o‘z o‘rnida to‘g‘ri, ravon va aniq talaffuz etilishi shart. Tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon yoki kishi engilgan hisoblanadi. O‘tmishda katta yoshdagi odamlar o‘tirishlarda, to‘ylarda tez aytish musobaqalarini o‘tkazishib madaniy hordiq chiqrganlar, zavq olganlar. Keyinchalik, bu janr, asosan, bolalar adabiyoti repertuariga aylangan. Tez aytishlar bolalar, ayniqsa, boshlang‘ich sinflar tarbiyalanuvchilarining tez fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, so‘z boyligini oshirishga va nutqining ravon hamda ifodali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ko‘pchilik turkiy tillarda tez aytishlar o‘zbeklardagidan farqli o‘laroq talaffuz qilinayotganda yanglishib ketish holatini asosiy xususiyat darajasiga ko‘targan holda nomlangan. Masalan qirg‘izchada “jañyltmash”, qozoq va qoraqalpoq tillarida “jañyltpash”, turk tilida “yaniltmaç”, turkmanchada “yangiltmach”, ozarbayjonchada “yangiltmach” va hk.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida tez aytishlar qadim zamonlardan beri mavjud. Professor Hodi Zarif tuzgan «O‘zbek folklori» xrestomatiyasida tez aytishlarga ham folklor namunasi sifatida alohida to‘xtalib o‘tilgan. O‘zbek tez aytishlari dunyo miqyosida ham o‘rganilib 2005 yil fransuz tilshunosi professor Rémy Dor o‘zbek va qoraqalpoq tez aytishlaridan namunalarni fransuz tiliga tarjima qilib izohlar bilan nashr ettirgan. Ko‘rinadiki, tez aytishlar folklor sifatida alohida tadqiqot manbai ham bo‘lishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda tez aytishlar bolalar folkloriga nisbatan kechroq qo‘shilgani, ular avval o‘zbek tilida ham “tutal”, “chalg‘ituv”, “chalish”, “adashish” atamaları bilan mashhur bo‘lgani ta’kidlanadi. “Tez aytish” atamasi uning maqsadi gumanitarlashganidan so‘ng, ya’ni bolalar nutqining sog‘lomlashuvi maqsadiga xizmat qila boshlaganidan keyin qabul qilingan va asosan bolalar folkloriga o‘tgan. Qadimgi qoidalariga binoan tez aytishlarni bir nafas olish bilan

bir necha marta takrorlash talab qilingan. Ya'ni tez aytishni bir nafas oralig'ida kim adashmay, qancha ko'p marta takrorlasa, o'sha g'olib sanalgan. Qadimgi tez aytishlarda talaffuz qilish oson bo'lmagan so'zlar soni ko'p bo'lgan. Shuning uchun ular avvallari kattalar folkloriga mansub bo'lgan. Yosh bolalar bunday talablarga javob bera olmaganlar. Hozirgi kunda tez aytishlar bolalarning qaysi tovushni to'g'ri talaffuz etishga qiynalishidan kelib chiqib maxsus tanlanadi. Masalan, "r", "l", "s", "sh", "ch" tovushlarini aniq aytishga yo'naltirilgan tez aytishlardan maxsus logopedik mashqlar tarzida ko'proq foydalaniladi.

Bugungi kunda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar nutqidagi noqisliklarni bartaraf etish ilmiy-nazariy asoslarga ega bo'lgan fan asosida alohida ta'lim darajasiga ham ko'tarilgan. Bu bilan ta'limdan tashqari jarayonda maxsus mutaxassislar – logopedlar shug'ullanadilar. Nutqida kamchiligi bor bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlar bolalar nutqidagi g'ayritabiiylik va mavjud noqisliklarning darajasi bilan bevosita bog'liq. Bunday holatlarda mutaxassisning yordamiga qancha erta murojaat qilinsa, bu kamchilikni shuncha tez va to'kis bartaraf qilishga erishish mumkin.

Kichik yoshdagi bolalarning ona tilini mukammal egallashlari va nutqining ma'lum qoidalarga muvofiq shakllanishi hamda rivojlanishi mazkur yoshdga xos bo'lgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bola nutqida tabiiy me'yordan orqada qolinayotganlik sezilsa, u yanada dolzarblik kasb etadi. Bu kamchilikni vaqtida bartaraf etmaslik bolalarning boshlang'ich, hatto yuqori sinflardagi aqliy va psixologik taraqqiyotiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish jarayonini imkon qadar qiziqarliroq tashkil etish uchun logopedlar asosan xalq og'zaki ijodi namunalarning kichik-kichik janrlariga – tezaytishlar, topishmoqlar, ertak va bolalar uchun yaratilgan jajji she'rlardan foydalanadilar. Bolalar nutqidagi etishmovchiliklarni bartaraf etishda foydalaniladigan bunday ishlar:

- ularning nutqidagi urg'uli va urg'usiz, uzun va qisqa bo'g'inlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- bog'lanishli nutqini takomillashtiradi;
- so'z boyligini oshiradi;

- nutqning intonatsion jihatini shakllantiradi;
- eshitib qabul qilish imkoniyatlarini kuchaytiradi;
- tez fikrlashga yo‘naltiradi;
- ziyraklikni oshiradi.

Logopedlarning o‘z faoliyatida samaradorlikka erishish uchun tez aytishlardan unumli va oqilona foydalanishlari bolalarning tovushlarni to‘g‘ri eshitish va to‘g‘ri talaffuz qilishining g‘ayriixtiyoriy ravishda shakllanishida yaxshi samara beradi. Bolalarning ona tilini chuqur o‘zlashtirishlarida tezaytishlardan o‘yin sifatida foydalanishlari avvaldan ma‘lum. Hozirda bu logopedlarning ilmiy asoslangan maxsus ish uslubiga aylangan.

Rus pedagoglari V. A. Suxomlinskiy, A. P. Usovalar folklorning kichik-kichik namunalari bo‘lgan tez aytishlardan bolalar nutqini rivojlantirishda foydalanish yo‘llarini alohida tadqiqot shaklida o‘rganganlar. Psixologlar L. S. Vigotskiy, A. N. Leontev, B. M. Teplova, S. L. Rubinshteynlar ham o‘z tadqiqotlarida bolalar nutqini rivojlantirishda folklordan, xususan tez aytishlardan foydalanish katta samara berishini aytib o‘tganlar. Bundan tashqari, tez aytishlar bolalar nutqidagi ifodalilikni ta‘minlashini ham alohida ta‘kidlaganlar.

Bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda tez aytishlar qiziqarli va zavqli bo‘lgani holda istalgan natijaga tezroq erishish garovi hamdir. Bolalarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish maqsadida tez aytishlardan foydalanilganda individual, ayni zamonda bir necha bola bilan musobaqa shaklida tashkil etish yanada ko‘proq samara beradi. O‘qish darslarida tez aytishlarni bir nafasda kim ko‘p va adashmay aytib berish musobaqasi jarayonida o‘quvchilarning qiziqishi ortishi, bu jarayonning ta‘limiy faoliyatdan ko‘ra o‘yin shaklini olishi ularning fikrlashi, diqqati va xotirasining kuchayishida ko‘proq samara beradi.

Kattalarning tez aytishlarida o‘ziga xos shirin kulgili vaziyatlar ham aks etishi mumkin: *“Bir Musa puch pistapurush bo‘lgan ekan. O‘sha Musa puch pistapurushning oltmish qop puch pistasi bor ekan. Oltmish qop puch pistasi bo‘lsa ham o‘sha Musa puch pistapurush, oltmish qop puch pistasi bo‘lmasa ham o‘sha Musa puch pistapurush ekan”*. Bu tez aytishni qoidasiga binoan ikki yoki uch marta takrorlash uchun aytuvchi anchagina zo‘riqishi tayin. Ya‘ni bir nafas oralig‘ida

uni bir necha marta adashmay, hech bir soʻz yoki tovushni adashtirmay aytish oson emas. Bu nafaqat bolalar, hatto kattalarni ham shoshirib qoʻyadigan tez aytish.

Aytish mumkinki, xalq ogʻzaki ijodiga xos boʻlgan topishmoqlar ham, tez aytishlar ham bugungi kunda adabiy janrga aylanib boʻldi. Bir qator bolalar shoirlari ijodida topishmoqlarni ham, tez aytishlarni ham uchratish mumkin. Kichik yoshdagi oʻqirmanlar uchun yozilgan kitoblarda, boshlangʻich sinflarning «Oʻqish kitobi» darsliklarida, oʻquv va metodik qoʻllanmalarda ham ijodkorlar tomonidan tuzilgan tez aytishlar koʻplab uchraydi.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

Boshlangʻich sinflar tarbiyalanuvchilarini mustaqil, mantiqli fikrlashga, erkin faoliyatga yoʻnaltirishda foydalanish mumkin boʻlgan didaktik oʻyinlar zamiriga topishmoqlarni ham joylashtirish boshlangʻich adabiy taʼlim samaradorligini ikki baroban oshiradi. Bunday didaktik oʻyinlardan birini «**Gʻanijon qishloqda**» deb nomlash mumkin. Bu oʻyin darsida kichkinagina shaharlik bola va har xil uy hayvonlari hamda qushlarning haykalchalari jihoz vazifasini oʻtaydi. Oʻqituvchi kichkina oʻgʻil bolaning haykalchasini qoʻlga olib, u haqdagi hikoyasini boshlaydi: *«Kichkina Gʻanijon qishloqqa, buvisinikiga borishni anchadan beri orzu qilib yurarkan. Onasiga doim «Buvimnikiga boraylik» deb xarxasha qilarkan. Oyisi maktabdan taʼtilga chiqqanda olib borishni vaʼda qilgan ekan. Yozgi taʼtil boshlanganda, bir kuni kechki payt Gʻanijon oyisi bilan birga buvisinikiga kelishibdi. Kech kelishgani va charchab qolgani uchun Gʻanijon hech qanday hayvon yoki qushlarni koʻrolmabdi va yotib uxlab qolibdi. Gʻanijon ertalab uygʻonsa...»* tarbiyachi hikoyasini davom ettirib bolalarga topishmoqlar ayta boshlaydi: *«Boshi taroq, Dumi oʻroq» (Xoʻroz) yurganmish hovlida. )Gʻanijon uni darrov tanibdi. Qani, oʻylab koʻringlarchi, sizlar ham topa olarmikinsiz?»*. Oʻqituvchi: *«Men Gʻanijon hovlida, uyning ichida koʻrgan barcha narsalarini topishmoq shaklida aytaman, siz topishga urinib koʻring, xoʻpmi?»*, deya navbatdagi topishmoqlarini aytadi: *«Jonlidan jonsiz doʻraydi, Jonsizdan jonli doʻraydi» (Tovuq, tuxum, joʻja); «Pishirsa osh boʻlur, Pishirma qush boʻlur» (Tuxum); «Emaklagan toshni koʻrdim, Toshdan chiqqan boshni koʻrdim» (Toshbaqa); «Toʻrt*

*oyoqli, Temir tuyoqli” (Ot); “Quyvon emas, Uzun quloq, Ot emas, To’rtta tuyoq” (Eshak); “Yamog’i boru Yirtig’i yo’q” (Ola sigir); “Kichkintoygina bo’yi bor, Aylantirgan to’ni bor” (Quy); “Soqoli bor, Mo’ylovi yo’q” (Echki); “Soyada yotar, Mingta qo’y boqar” (It); “Mo’ylovi bor, Soqoli yo’q” (Mushuk); “Bir kulrang buzog’im bor, Bozorga olib borsam, Topilmaydi xaridor” (Sichqon)<sup>84</sup> va hk.»*

O’quvchilar topolmagan topishmoqlarni o’qituvchi asosiy obrazga xos bo’lgan xususiyatlarni ajratib ko’rsatish bilan yordam berishi mumkin, lekin zinhor-bazinhor topishmoqlarning javobini o’zi aytmasligi, «katta-katta shaharlar berishsa ham» ko’nmasligi, o’quvchilarni uyda ota-onasi, aka-opalari bilan birgalishb topishini uy vazifasi sifatida topshirishi kerak bo’ladi. Ma’lumki, bolalarning xotirasi kuchli. Ular topishmoqlarning matnini eslab qolishlari aniq. Qolaversa, topishmoq topish bolalarning eng qiziqarli mashg’uloti.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Topishmoqlarning maqollarga o’xshash va farqli jihatlarini aniqlang va unga o’zingiz bilgan topishmoqlar misolida namunalar keltiring.

2. Topishmoqlarning janr xususiyatlarini sanang va izohlang. Boshlang’ich sinflarning «O’qish kitobi» darsliklaridan o’rin olgan topishmoqlarni janr xususiyatlariga ko’ra ajrating.

3. Topishmoqlarning hayot bilan munosabati, ularning inson ma’naviy kamolotidagi o’rni va rolini aniqlang. Ularning boshlang’ich sinflar tarbiyalanuvchilari shaxsini shakllantirishdagi tarbiyaviy ahamiyatini toping.

4. Topishmoqlarga xos bo’lgan badiiy tasvir vositalarini aniqlang. Ularni ajratib daftaringizga yozib oling. Ularni tahlilga torting. Munosabat bildiring.

5.1 – 4-sinflarning «O’qish kitobi» darsliklaridan o’rin olgan barcha topishmoqlarni tahlilga torting. Ularning yetakchi xususiyatlariga e’tibor qiling. Topishmoqlarning mantig’ini aniqlang.

6. Istalgan sinf «O’qish kitobi» darsligidagi topishmoqlar ustida ishlash yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlang.

7. Boshlang’ich sinflar o’quvchilariga yosh va mazmun jihatidan mos keladigan topishmoqlarni sinflar misolida ajrating. Daftaringizga

---

84 [ziyouz.uz](http://ziyouz.uz) › Ўзбек халқ оғзаки ижоди

yozib oling. Sinflar kesimida ular bilan ishlash namunasini tayyorlang.

8. Tavsiya etilgan tez aytishlarni mashq qiling. 1 – 4-sinflarning «O‘qish kiobi» darsliklaridagi tez aytishlarni to‘plang va ularni mashq qiling.

9. Boshlang‘ich sinf tarbiyalanuvchilari nutqida uchraydigan kamchiliklarga tayangan holda tez aytishlar tuzing.

10. Tez aytishlarning badiiy va tarbiyaviy xususiyatlarini ajratib ko‘rsating. Ularning boshlang‘ich adabiy ta‘limdagi ahamiyatini ochib bering.

11. Kattalar uchun tez aytishlar tuzing. Tuzganingiz tez aytishlarni bolalar uchun tuzilgan tez aytishlar bilan taqqoslang. O‘xshash va farqli jihatlarini ajratib ko‘rsating.

12. Har ikki yo‘nalishda tuzilgan tez aytishlarning yetakchi xususiyatlarini tahlilga torting. Ularning foydali tomonlarini ochib bering.

13. Ulug‘bek Hamdam qalamiga mansub «Sabo va Samandar» romaniga taqriz-insho yozing.

## 15-mavzu. Adabiy ta'limning dastlabki bo'g'inida tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish amaliyoti

### Reja:

1. Boshlang'ich ta'limning I, II sinflaridagi san'at asarlarini o'rganish darslari
2. O'quvchilarning tasavvur ko'nikmalarini shakllantirish
3. O'quvchilarni tasviriy san'at namunalari bilan ishlashga yo'naltirish.
4. Badiiy matn tahlili namunasi: "Uch og'ayni botirlar" ertagi

**Tayanch so'zlar:** *asarning muallifi haqida ma'lumot, asarning mavzusi, syujet, asardagi yetakchi g'oya, asar syujeti, tasavvur etilgan ob'ekt, voqea, badiiy uslub, ijodkorning san'at bo'yicha ilmi va iste'dodi, etyud, eskizlar, asar taqdiri.*

Maktabdagi barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda, xususan, boshlang'ich adabiy ta'limda ham o'z maqsadidan kelib chiqqan holda birinchi sinfdan boshlab tasviriy san'at asarlariga murojaat qilinadi. Chunki O'zR Xalq ta'limi vazirligining 2018 – 2019 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasida tasviriy san'at darslariga boshlang'ich ta'limning 1-sinfidan boshlab haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan<sup>85</sup>. Demak, o'quvchilar ta'limning dastlabki sinfidan boshlab mo'yqalam san'ati namunalarini "Tasviriy san'at" darsliklaridan o'rin olgan bilimlar asosida o'rganadilar. Boshlang'ich adabiy ta'lim amaliyotida adabiy-badiiy asarlar qanday o'qib tahlilga tortilsa, mo'yqalam mahsuli bo'lgan suratlarni ham xuddi shunday o'qish va tushunish, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki badiiy matnda ham, mo'yqalam asarida ham mavzu, syujet, g'oya, badiiy uslub, obrazlar, timsollar bo'lib, har ikki yo'nalishdagi asarlarda tasvirlangan voqeaning davri, qahramonlari o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Ammo, shuni afsus bilan tan olish kerakki, bironta o'qituvchi, nafaqat boshlang'ich sinflar, balki yuqori sinflar muallimlari ham, san'at asarlarining yaratilishi, undagi mavzu, syujet, g'oya, badiiylik haqida jo'yali ma'lumot bera olmaydi. Chunki milliy oliy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilar bunga – tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatilmaydi. Shu boisdan tasviriy san'at namunalaridan

---

85 <http://www.uzedu.uz/Xtv/IndexBatafsil/67?ID1=541>



nechta darsda, qaysi sinfda foydalanilishidan qat'iy nazar, mohiyatiga kirilmay, tahlilga tortilmay qoldirib ketilaveriladi. Sababi, o'qituvchilar o'zlari bilmagan narsani o'quvchilariga o'rgata olmaydilar.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi jarayonida har xil syujetli rasmlar mazmuni asosida og'zaki hikoya tuzish, insho yozish bilan bog'liq ishlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish maqsadida tashkil etiladi, albatta. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga oliy maktabda bu haqda tasviriy san'at darslarini tashkil etish maqsadida ma'lum bilimlar, qisqacha bo'lsada, beriladi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun mo'yqalam san'ati janrlarini tahlilga tortishda o'qituvchi asosiy e'tiborni asardagi yetakchi g'oyaga, rassomning badiiy uslubiga qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ammo adabiy ta'limning dastlabki bosqichida tasviriy san'at asarlarini tahlilga tortishda albatta ma'lum bir tizim va tartib bo'lishi kerak. Shunga ko'ra san'at asarlarini tahlil etishda:

1. Asarning muallifi haqida ma'lumot beriladi.
2. Asarning mavzusi uning syujeti, obrazlari va yetakchi qarashlarga qanchalik mos kelishi bo'yicha suhbatlashiladi.
3. Asardagi yetakchi g'oya – rassom o'zi tasvirlagan syujet asosida qanday masalani, muammoni ko'tarib chiqqanligi aniqlanadi.
4. Asar syujeti – bunda tasavvur etilgan ob'ekt, voqea, undagi narsa-buyumlar, manzara, odamlar, hayvonot dunyosi va bq.lar haqida to'g'ri, ilmiy ma'lumot beriladi.
5. Asar yaratilishidagi badiiylik, badiiy uslub, ijodkorning san'at bo'yicha ilmi va iste'dodi, malakasi haqida tushuncha beriladi.
6. Asarning yaratilishidagi rassomning tadqiqot-kashfiyotlari, material to'plashi, umumlashtirishi, qoralama, etyud eskizlar haqida ma'lumot beriladi.
7. Asar taqdiri – ya'ni asarning bugungi kundagi ahvoli, saqlayotgan o'rni, uning qaysi ko'rgazmalarda namoyish etilgani va hk.lar haqida ma'lumot beriladi<sup>86</sup>.

Tasviriy san'at namunalari tahlili ustida ishlanganda o'ta diqqatli bo'lish, undagi birorta ham detal yoki predmetni nazardan

---

86. Орипов Б. Н. Тасвирий санъат ва уни ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2004. 123 – 124-б.

qochirmaslik, bunda adabiy ta'limdagi badiiy asarlar tahlilida birorta so'z yoki iboraning matn mazmunini aniqlash va anglashga o'z ta'sirini qanchalik ko'rsatishi mumkinligi bilan bog'liq qarashlarga tayanish taqozo etiladi. Agar rasmdagi shunday detallarning kamligi yoki ularni tushunish qiyin kechayotgani yoxud nazardan qochirilish holati yuz bersa, tomoshabinni buni payqashga yo'natilish taqozo etiladi. Lekin dastlabki taassurotlarga tayanib butun suratni baholashda ehtiyot bo'lish lozim. So'ngra uni o'qiyotgan odamning butun diqqat-e'tiborini shu predmetni ko'rishga, uning to'liq xarakteristikasini berishga, uning umumiy tasvirdagi o'рни va ahamiyatiga qaratish kerak bo'ladi. Bunday diqqat-e'tibor badiiy asarlar tahlili jarayonida ham taqozo etiladi. Hamonki rassom predmetni aynan shunday tasvirlabdimi, demak bunga shunday mantiqiy asosi bo'lgan. Suratxon ham vaziyatga rassomning nazari bilan qarashni o'rganishi talab qilinadi.

Ko'rinadiki, tasviriy san'at namunalarini o'qishda, eng avvalo, undagi hech bir detalni nazardan qochirmaslik, har birini nomlash va alohida ajratib tahlilga tortish zarur bo'ladi. Shundan so'nggina uni kuzatish, sifatini aniqlash va xarakteristika berish ishlari boshlanadi. Suratdagi detallarni aniqlashda rang, yorug'lik va uning tasvirdagi roliga ham e'tibor beriladi. Ba'zan tasviriy san'at namunalaridagi qahramonlarni asarning yetakchi g'oyasi bilan aloqadorligini belgilashda shuning o'zi, ya'ni ko'zga yaqqol tashlanib turgan detallar etarli bo'lishi ham mumkin. Ammo, ko'pincha, uchinchi faktorni: qahramonlar va pedmetlarning o'zaro qanchalik uyg'unlikda joylashganligi kompozitsiyasini jalb etishga to'g'ri keladi<sup>87</sup>.

Tasviriy san'at namunalarining izchil tahlilini amalga oshirish uchun o'qituvchining o'zi rasm ishlash yo'llaridan ma'lum darajada xabardor bo'lishi, mo'yqalam asarlarini yaxshi tushunishi va uni boshqalarga ham tushuntirib bera olishni bilishi taqozo etiladi. Afsuski, maktablarda malakali rassom-pedagoglarning etishmasligi oqibatida san'at asarlari tahlil etilmay qolib ketyapti. Tahlil etilsa ham noto'g'ri, yoki chala holda amalga oshirilyapti.

Xullas, nafaqat boshlang'ich sinflarda, xatto ta'limning yuqori bosqichida ham san'at asarining tahlil qilib o'rganilmasligi mo'yqalam san'ati namunalarini xalq orasiga olib kirishda qiyinchilik

---

87. <https://infourok.ru> > Начальные классы

tug'dirmoqda. Badiiy kitoblarku bir navi, ammo hozirgacha o'zbek xonadonlarida san'at asarlari juda kam ko'rinadi. Ular san'at asarlarini olmaydilar ham. Buning asosiy sababi millatning bu boradagi bilimsizligi, maktablarda san'at asarlarining yaxshi o'rgatilmashligidir.

Ta'lim-tarbiya amaliyotidan ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning tayanch bosqichi boshlang'ich sinflar davri bo'lib, unda bolalar intensiv ravishda shakllanadilar. Bu davrda bola jismoniy, aqliy, ma'naviy jihatdan g'oyat tez rivojlanadi. Boshlang'ich ta'lim davrida bolalar barcha bilimlar zaminini o'zlashtiradilar va hamma fanlar bo'yicha boshlang'ich ma'lumotga ega bo'ladilar. Ular moddiy olamni ko'rish, kuzatishni, ulardan olgan taassurotlarini taftish qilishni, xulosalar chiqarish, munosabat bildirishni o'zlashtirib oladilar. Bu ko'nikmalar boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan o'quv fanlari asosida amalga oshiriladi. Bundan anglash mumkinki, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklangan va bu yoshdagi bolalarning intellektual imkoniyati mazkur «yuk»ni ko'tara oladi. Chunki ularning yoshiga xos bo'lgan hayotni, odam va olam sirlarini bilishga bo'lgan qiziqish, ichki motiv shuni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan tasviriy san'at o'quv fani ham bolalarning ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Maktab tasviriy san'ati mashg'ulotlari o'quvchilarga tabiat va jamiyat qonunlarini, ularning shakli, tuzilishi, rangi, o'zaro bog'liqligi haqida dastlabki tushunchalarni beradi. Bu o'quvchilarni juda yoshligidan materialistik dunyoqarashlarini shakllantiradi, rivojlantiradi. Ma'lumki, maktabdagi biror fan tabiat va uning elementlarini o'quvchiga shakli, tuzilishi, rangi va mazmuni jihatidan batafsil o'rgatmaydi. Buni faqat tasviriy san'at o'quv fani amalga oshiradi.

Yosh psixologiyasi ilmidan ma'lumki, bolalar 5 – 6 yoshdan boshlab tasviriy san'atning ma'lum qirralari, uning ta'limiy va tarbiyaviy sir-asrorlarini o'zlashtira boradi. Birinchi sinfdanoq o'quvchilarga tasviriy san'at darslarida oddiy chiziq nimadan iboratligi va uni qanday chizish kerakligi, shakl nimaligi va uning qanday tasvirlanishi, shaklni naturadan olib, daftar yuzasiga qanday tushirilishi, barg, o'simlik, daraxtlar, qush va hayvonlar, ularning tuzilishi va ranglari haqida dastlabki ilmiy ma'lumotlar beriladi. Bu

darslarda o'quvchilar predmetlarni har xil rakurslarda ko'rishni, narsalar shaklidagi o'xshashlik va farqlar, ularning shakllanishi va rivojlanishi, ranglari, ranglardagi o'xshashliklar kabi xususiyatlarini, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishini bilib oladilar. Bu jarayon I sinfdan boshlanib IV sinfgacha takomillashib, rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinflardagi tasviriy san'at dasturi narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, tematik kompozitsiyalar ustida ishlash, badiiy-amaliy san'at, haykaltaroshlik, san'at asarlarini idrok etish kabi turlarini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinflardagi tasviriy san'at darslarining asosiy vazifasi narsalar rasmini qalamda va bo'yoqda ishlash malakasini oshirishdan iborat bo'ladi. Dasturda rangtasvir, qalamtasvir (grafika), haykaltaroshlik, me'morchilik, amaliy va dizayndan iborat olti yo'nalishda bilim berish va ko'nikmalar shakllantirish ko'zda tutilgan. Bu yo'nalishlarning o'quv-tarbiyaviy vazifalari: san'atshunoslik asoslari (faoliyatidan), tasviriy faoliyat (naturaga qarab rasm chizish va tasavvurlar asosida rasm ishlashdan), kompozitsiya faoliyati (mavzuli va bezakli kompozitsiya)dan iboratdir. Bu vazifalarning bajarilishi rangtasvir, qalamtasvir (grafik), xaykaltaroshlik mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi.

Boshlang'ich ta'limning I, II sinflaridagi san'at asarlarini o'rganish darslarida rasm chizish asnosida bir necha san'at asarlari o'ziga xos talabda tahlil qilinadi. III sinfda san'atda rang, rang turlari, sovuq va issiq ranglar va san'atda turmush voqealarining tasvirlanishi singari bir qator mavzular o'rganiladi. Bu mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchilarning yoshi, bilimi, saviyasiga mos keladigan san'at asarlarini tanlaydi. Unda atoqli rassomlarning manzara, portret, turmush janrida yaratilgan asarlari tahlil qilinadi. Tasviriy san'at namunalari o'qish jarayonida tabiatda rang, ularning turlanishi, mizoji, san'at asarlari yaratilishida tutgan o'rni, shuningdek san'at asarlarining janrlarga, turlarga bo'linishi va turmush janrida yaratilgan asarlarning tuzilishi, unda ranglarning ishlatilishi va hk.lar haqida ma'lumotlar beriladi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini maqsadga muvofiq tshkil etishda o'quvchilarning tasviriy san'at darslarida olgan mana shu bilimlariga tayanish o'rinli bo'ladi. Suratlar asosida o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga, san'at asarlarining mohiyatiga kirishga, tasvirlangan qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini kashf etishga

yo'naltirish ularning og'zaki nutqini rivojlantirish bilan birga ma'lum darajada ham aqlan, ham ruhan zo'riqtiradigan jarayon hamdir. Bu o'z-o'zidan, o'qituvchidan ham, o'quvchilardan ham ma'lum tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun o'quvchilarda etarli darajada so'z zahirasini ta'minlash, mustaqil mulohaza yuritish va fikrlarini mantiqiy bog'lay olish hamda izchillikda bayon etish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi taqozo etiladi.

Rangli suratlarni o'qish uchun esa o'quvchilarga ranglar va ularning vazifalari haqida ham ma'lumot berilishlari taqozo etiladi. O'quvchi rasm ustida mulohaza yuritar ekan, unda aks ettirilgan lahzani tasvirda qanday ifodalangan bo'lsa, shundayligicha qabul qiladi va ko'rganlarini so'z bilan bayon etadi. Bu o'quvchining rasm asosidagi hikoyasini ma'lum darajada chegaralaydi. O'quvchilar tasvir bayonida makon, zamon va vaqt birligiga aniqlik kiritadilar va bu, ayni zamonda, ularning mustaqil fikrlash, qarashlarini asoslash jarayonini engillashtiradi. Rasmlar asosida tuziladigan kichik-kichik hikoyalarda holat chegarasining buzilmasligi bola tafakkurida mazkur lahza qay tarzda namoyon bo'layotganini aniq ko'rsatib, uning shaxsiy olami, ma'naviy qiyofasini ochib berishga xizmat qiladi. Rasm asosida kichik hikoyalar yaratish jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlashi va tasavvur ko'nikmalarini shakllantirish, uni rivojlantirish quyidagi uch bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

1)tasvirlangan holatga qadar bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqida bildirilgan mantiqiy fikrlar va mulohazalar;

2)rasmdagi holat va unga munosabat;

3)tasvirning davomi haqida bolalarning tasvvuri va mustaqil bayoni.

Bu o'quvchilarning mushohada doirasi va va dunyoqarashini, tasvvurini kengaytiradi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda suratlar ustida ishlashning ikki turidan foydalaniladi: rasmlarni ular haqidagi suhbatlar asosida tomosha qilish; suratlar materiallari asosida o'quvchilarni kichik-kichik hikoyalar yaratishga undash. Bu ish turlarining birinchisida kichik o'quvchilarning dialogik nutqi ortsa, ikkinchisida ularning monologik nutqi takomillashadi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilariga xos bo'lgan bu faoliyatlarning har ikkisi ham o'quvchilardan mustaqil tafakkur va faoliyatdagi erkinlikni talab qiladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar suratlarni tomosha qilishni xush ko'radilar va ular haqida jonli hamda qiziqarli hikoya qiladilar. Bu borada o'quvchilarning suratda ko'rganlarini, tasavvurlarini boshqalar bilan bo'lishish istagi kuchli bo'ladi. O'quvchilar bu jarayonda suratlarga nisbatan betakror qiziqishlarini namoyish etadilar. Suratlar ularga ko'rganlari yoki o'zlari bevosita ishtirok etgan voqea-hodisalarni eslatadi, tasavvurlarini muvozanatdan chiqaradi. O'qituvchining bu qiziqishlardan ularni kuzatishga o'rgatishda, mustaqil mulohaza yuritishda, fikrlarini so'z bilan ifodalashga yo'naltirishda, nazarlarini ziyraklashtirish va diqqatlarini biror detalga qaratishda oqilona foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning rasm asosidagi hikoyalarida fikr ifodalashning izchilligi, fikrlar, xulosalarning aniqligi va mukammalligi tom ma'noda o'quvchining suratni qanchalik to'g'ri qabul qilganiga, uning mazmunini nechog'li chuqur anglaganiga, surat mazmuni va undagi timsollar hamda detallarning qanchalik aniq, emotsional his qilganiga bog'liqdir.

Rasmlar ustida ishlaganda o'quvchilarni: uning haqiqiy tasviriy san'at namunasi ekanligi darajasiga; dastlabki suhbat namunasini tashkil eta olishga; rasmda tasvirlangan hayot lavhasi bilan real hayot o'rtasidagi mutanosiblikni hisobga olishga; asar qahramonlarining ruhiy holatiga, ko'zlarida, turish-turmishida ifodalangan ma'noga e'tibor qilishga; ranglar tasnifiga; ranglarning ramziy ifodalariga diqqat qaratishga; tasvirdagi holatni tayanch nuqta hisoblab oldingi holat bilan keyingi harakatlar rejasini tuzishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich adabiy ta'lim o'qish darslarini samarali tashkil etish maqsadida o'quvchilarni tasviriy san'at namunalari bilan ishlashga yo'naltirishda quyidagilar nazarda tutiladi:

- o'quvchilarning tasviriy san'at namunalari bilan ishlashdagi savodxonligini oshirish;
- tasvirda aks ettirilgan mavzuni tahlil qilish va uni mustahkamlash;
- ko'rganlari asosida og'zaki matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish;
- mustaqil mushohada yuritish ko'nikmasini shakllantirish;

- rasmning janri, mazmuni haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- musavvir yoki fotograf maqsadini aniqlash;
- asarga shaxsiy munosabatini bildirish.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limni maqsadiga muvofiq tashkil etishda o‘quvchilarni tasviriy san‘at namunalarini o‘qishga o‘rgatish ishlari shu asosda tashkil etilsa, ularni keng ko‘lamda mulohaza yuritishga o‘rgatish, rasmdagi har bir detalning o‘rni va ahamiyatini kashf etish, suratdagi muhim va ikkinchi darajali detallarni ajratish imkoniyatlarini orttirish mumkin bo‘ladi. Suratlar o‘quvchilarning nafaqat og‘zaki va yozma nutqini, balki mustaqil tafakkurini rivojlantirish, tasavvurini tiniqlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, saviyasini ko‘tarish, balki ularning estetik didini shakllantirish, ijodkorligini orttirish, nazarlarini ziyraklashtirishga ham yo‘naltiradi.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limning dastlabki bosqichida o‘quvchilarni tasviriy san‘at namunalarini o‘qishga o‘rgatishda suratlardan foydalanish namunasini ayrim asarlar misolida quyidagicha amalga oshirish mumkin. Masalan, «**Yangi qiz**»<sup>88</sup> surati bo‘yicha quyidagi savol va topshiriqlar bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi: «Suratda siz qanday hodisaning guvohi bo‘lib turibsiz? Ikkinchi sinfga yangi kelgan qizaloqni tasvirlab bering (uning kiyimi, turishi, yuz tuzilishi, ko‘zlarida aks etgan ifodalalar, sochi va hk.). Sinf rahbari yangi qizga nimalarni tushuntiryapti deb o‘ylaysiz? Sinfdagi o‘quvchilar yangi qizni qanday qabul qilishyapti (o‘qituvchi kichik suratxonlarini tasvirdagi har bir o‘quvchi qarashlarida ifodalangan tuyg‘uni ilg‘ashga yo‘naltiradi)? Yangi qizaloqdan o‘quvchilar nimalarni so‘rashi mumkin, sizningcha? Siz sinfimizga yangi qiz kelsa, undan nimalarni so‘rgan bo‘lardingiz? Nima deb o‘ylaysiz, qizcha qaerga o‘tirishi mumkin, sizningcha? Suratga diqqat bilan qarangchi, Qizchani kim yoniga chaqiryapti? Sinf xonasidagi jihozlarga diqqat qiling: ular nimasi bilan sizning sinfingizga o‘xshaydi? Diqqat bilan qarangchi, suratda sizning sinfimizda yo‘q bo‘lgan biror nimalar aks etganmi? O‘qituvchining stolidagi jihozlarga diqqat qiling: sizningcha, hozir qaysi dars bo‘ladi? O‘quvchilarning partalari ustiga diqqat qiling: u erda nimalarni ko‘ryapsiz? Yangi Qizni sinfdagi bolalar qanday qabul qilayotganiga

---

88. <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola>

e'tibor bering: kim qanday munosabatda bo'lyapti? Bularni siz nimadan angladingiz? Nima deb o'ylaysiz, yangi qiz uyiga qaytganda onasiga nimalar haqida gapirib berishi mumkin?» va hk. Bu bevosita dialogik suhbat bo'lib, o'quvchilar o'qituvchining savollariga faqat va faqat suratdagi tasvirga asoslangan holda javob berishlari maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini uning maqsadiga muvofiq tarzda tashkil etishda mazkur surat bilan ishlashning ikkinchi varianti o'quvchilarni bevosita ko'rib turganlari asosida kichik hikoya tuzishga yo'naltirishdir. Bunda o'quvchilar tasvirda aks etib turgan holatni o'z nigohlari, tasavvurlari asosida o'z so'zlari bilan og'zaki hikoya qilib beradilar. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning diqqatini xar bir detalga yo'naltirib turishdan iborat bo'ladi.

Lekin o'quvchilarni bunday hikoya tuzishga yo'naltirishdan oldin o'qituvchi ularga biror boshqa rasm asosida o'zi hikoya tuzib, namuna sifatida ko'rsatib bershi kerak bo'ladi. Masalan, «**Shar uchib ketdi**»<sup>89</sup> surati asosida quyidagicha hikoya tuzib ko'rsatadi: «*Lolaga dadasi katta qizil shar olib beribdi. Lola sharni olib dadasi bilan ko'chaga chiqibdi. Yo'lda ketishayotganda qattiq shamol boshlanibdi. Shamol barglarni har tomonga uchirib o'ynayotgan ekan. Shamol Lolaning shari bilan ham o'ynay boshlabdi. Uning sochlari va ko'yagini ham torqilabdi. Lola sochini tuzatmoqchi bo'lgan ekan, qo'lidan shari uchib osmonga ko'trilib ketibdi. Lola bundan juda xafa bo'libdi va yig'lab yuboribdi*» va hk. O'quvchilarning «Yangi qiz» surati haqidagi hikoyalari ham o'zlarining bilimi, dunyoqarashi va nazari doirasida bo'ladi, albatta. Bunday ishlarni amalga oshirishda o'quvchilar bevosita mustaqil mulohaza yuritadilar, tasavvurlarini ishga soladilar, munosib so'zlar qidiradilar, fikrlarini izchillikda bayon etishga odatlanadilar, voqea-hodisalarga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu asnoda ularning dunyoqarashi, tasavvuri, mustaqil va mantiqli fikrlash ko'nikmasi rivojlana boradi.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi amaliyotida suratlar ustida shlashning yozma shaklidan ham foydalanish masadga muvofiq bo'ladi. Xuddi shu "Yangi qiz" surati asosida bolalarni tasviriy insho yozishga ham yo'naltirish mumkin. Bu ish turi boshlang'ich sinflarning yuqori bosqichida, ya'ni 3 yoki 4-sinflarda amalga

---

89. [bipbap.ru/pictures/kartinki-detskie-foto.html](http://bipbap.ru/pictures/kartinki-detskie-foto.html); [childpictures.ru/html](http://childpictures.ru/html).



oshiriladi. Bunday insholarni tashkil etishning amaliy tavsiyalari haqida keyingi fasllardan birida soʻz yuritiladi.

Bundan tashqari oʻquvchilarni tabiat tasviri aks etgan suratlar ustida ishlashga, masalan, «**Yakka tut**» surati tahliliga ham yoʻnaltirish mumkin<sup>90</sup>. «Yakka tut» surati tasvirini oʻquvchilarning muhokamasiga qoʻyishdan avval u ajratib olinadi va ekranda namoyish etiladi. Oʻqituvchi va oʻquvchilarning birinchi ishi suratni yaxshilab kuzatishdan iborat boʻladi. Soʻng oʻqituvchi tarbiyalanuvchilariga savollar bilan murojaat qiladi: «Yaxshilab qarangchi, suratda qaysi fasl aks etgan? Buni siz nimalardan payqadingiz? Atrofdagi oʻt-oʻlanlar bormi? Ular qanday rangda? Ular nima uchun shunday rangda? Atrofdagi butalar qanday buta boʻlishi mumkin? Oʻrtadagi katta daraxt, sizningcha nima? Uning tanasi qanday? Nega daraxtning barglari yoʻq? Daraxt tanasining turishidan uning qanday daraxt ekanini aytib bera olasizmi? Osmonga diqqat qiling: uning rangi qanday? Nima deb oʻylaysiz, nega osmonda qushlar yoʻq? Uzoq-uzoqlarda nimalarni koʻryapsiz? Ufqning rangi qanday?» va hk. Oʻquvchilar bu savollarga koʻrib turganlari tasvirga tayangan holda oʻz nuqtai nazarlaridan kelib chiqib javob beradilar. Muhimi, oʻqituvchi suratdagi xech bir detalni nazaridan chetda qoldirmasligi, ularning suratdagi vazifasiga oʻquvchilarning diqqatini qaratishi joiz.

Soʻngra, istalgan oʻquvchilardan surat asosida hikoya tuzishni soʻrash mumkin. Oʻquvchilar hozirgi dialog asnosida suratni «oʻqiydi»lar va hikoya tuzadilar. Mana shu kichik oʻquvchilarni tasviriy sanʼat namunalari oʻqishga yoʻnaltirishning dastlabki bosqichi boʻladi. Tasviriy sanʼat namunalari ustida ishlashni shu tariqa tashkil etish va sinflar yuqorilab borgani sari suratlar mazmunining murakkablashgan shakllaridan foydalanish boshlangʻich adabiy taʼlimning maqadiga muvofiq boʻladi. Bundan tashqari, oʻquvchilarni badiiy asarlar ustida mustaqil ishlashga yoʻnaltirish ishlarini multfilmlar, bolalarga bagʻishlangan badiiy filmlar, tabiat qoʻyniga sayohatlar, qish oʻyinlari, maktabgacha taʼlim muassasalarida uyushtiriladigan har xil bayramlar, bolalarning tugʻilgan kunlarini tashkil etish ishlari misolida ham amalga oshirish mumkin. Bu borada

---

90. <https://kun.uz/news/2017/12/13/fotoreportaz-surhondare-viloati-manzaralari-kunuz>

o‘qituvchining bilimdonligi, tajribasi, xullas, kompetentligi katta ahamiyat kasb etadi.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

“Uch og‘ayni botirlar” ertagi<sup>91</sup>

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari – hali ertaklar dunyosidan uzulib ulgurmagan xayolparast bolakaylarning dastlabki bosqich adabiy ta‘limida ertaklar bilan tanishishi ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. “Uch og‘ayni botirlar” ertagini o‘qishga kirishishdan oldin o‘qituvchi keyingi dars “Ertak darsi” bo‘lishini, unda o‘quvchilar o‘zlari ertak to‘qishlarini, «Uch og‘ayni botirlar» ertagini o‘zi o‘qib berishi, o‘quvchilar uning matni ustida ishlash jarayonida bo‘lajak ertak darsiga material yig‘ib borishlari lozimligini aytadi. Bu o‘quvchilarni hayajonlantirishi tabiiy. Chunki ertak yaratish mas‘uliyatli ish va o‘quvchi buni ich-ichidan his qilib turadi. Bundan tashqari, o‘qituvchining ogohlantirishi ularni ertak yaratish haqida o‘ylab yurishday faoliyat atrofiga birlashtiradi.

«Ertak darsi»ning boshida o‘qituvchi asar matnini zarur ohangga solib, ifodali o‘qib beradi. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limida o‘rganiladigan asar matnini o‘quvchilarga o‘qitirish metodik jihatidan to‘g‘ri tadbir emas. Hatto o‘qituvchining o‘zi ham ertakni ifodali o‘qishga alohida tayyorgarlik ko‘rishi shart. Ertak o‘qilish yo‘sini bilan ham tinglovchilarni rom etib olsa, dars muvaffaqiyatli chiqishi aniq.

O‘qituvchi “Uch og‘ayni botirlar”ning mukammal nusxasini topib, o‘quvchilarning bu ertak haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlariga erishgani ma‘qul. Ertakni o‘qish uchun darsning 28 – 30 daqiqasi sarflanadi. Qolgan vaqt matn mazmuni yuzasidan o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ko‘magida asarni tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

O‘qituvchi ertak mazmuni yuzasidan quyidagicha savol-topshiriqlar tuzgani foydali bo‘ladi: “Ertakning “Uch og‘ayni botirlar” deb atalishining sabablari haqida fikringizni ayting” topshirig‘i yuzasidan o‘quvchilar hech qiynalmay fikr bildiradilar. Lekin “Otaning o‘g‘illariga aytgan: *“Birinchiidan, sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – quvvatli bo‘ldingiz. Ikkinchiidan, yarog‘ bilan tanishtirdim*

---

91. “ЎЗБЕК ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИ”

– *yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stirdim – botir bo‘ldingiz*”,- tarzidagi so‘zlariga e‘tibor qiling. Bu so‘zlarning yigitlar tabiatiga xos xususiyatlarni belgilashdagi o‘rni haqida mulohaza yuriting” tarzidagi ikkinchi topshiriq o‘rtaga tashlanganda o‘quvchilar o‘ylanishi, o‘zlarini bir oz zo‘riqtirishi kerak bo‘ladi. Bu topshiriq ularni yigitlar tabiatiga xos bo‘lgan baquvvatlilik, yarog‘ ishlatishga ustalik, botirlik, topqirlik, zukkolik, sinchkovlik kabi sifatlar ularning qaysi ishlarida ko‘ringanini matndan qidirishga yo‘naltiradi. O‘quvchilar botirlarning sher, ajdar va o‘g‘rilar bilan to‘qnashuvdagi qahramonliklari tasvirlangan lavhalarga murojaat qiladilar. Topshiriqni bajarish mobaynida ular botirlarning shaxsi bilan bog‘liq jihatlarni kashf qiladilar.

O‘qituvchi muntazam ravishda o‘quvchilardan fikrlarini matnga tayangan holda bayon etishni, aytganlarini asardan misollar keltirib asoslashni talab qilishi bolalarni ijodiy fikrlashga, xulosalarini asoslashga yo‘naltiradi. Tarbiyalanuvchilar otaning: “Sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – quvvatli bo‘ldingiz” degan gapi zamirida qanday haqiqat borligi, sog‘lom, baquvvat bo‘lib o‘sishning garovi nimada ekanligi, bunda otaning vazifasi nimalardan iboratligi haqida ham o‘ylab ko‘rsinlar. Buning uchun o‘qituvchi shu tasvirni savolga aylantirib, ota tarbiyasidagi: “Qo‘rqitmay o‘stirdim – botir bo‘ldingiz” tarzidagi jihatda nimalar nazarda tutilganiga, “qo‘rqitmay o‘stirish”ning ma‘nosini chaqishga, buning qanday amalga oshirilishiga o‘quvchilar e‘tiborini qaratgani ma‘qul. O‘quvchilar bu ibora zamiridagi ma‘noni qanday tushunadilar? Bular – ertak zamiriga singdirilgan milliy tarbiyaning asoslari. O‘qituvchi buni e‘tbirdan chetda qoldirishi mumkin emas. Qadimda jasurlik, yarog‘ ishlata bilish, ot minish ham yigit kishining fazilatlaridan hisoblangan.

Ikkinchi darsda asar tahlilini davom ettirib, o‘quvchilar otaning: “*To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang – xijolatga qolmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz*” tarzidagi nasihatiga o‘z munosabatlarini bildiradilar. Otaning har bir gapini o‘zlaricha tahlil qiladilar. To‘g‘ri, o‘quvchilarning bu nasihat mazmuni borasida fikrlari sodda, o‘z bilganlari doirasida bo‘ladi, albatta. Fikrlar o‘qituvchi yoki boshqa kattalarning qarashlariga nisbatan jo‘nroq bo‘lishi tabiiy. Lekin muhimi – o‘quvchida fikrning, o‘z qarashining shakllanib borishidir. Uning o‘qituvchi tomonidan

to'ldirilishi, tuzatilishi metodik jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi fikr kishisini rag'batlantirish, yangi qo'shimcha savollar bilan uning ichidagi gaplarini «chiqarib» olish, bir-birlarining fikrini takrorlarsiz to'ldirishga o'rgatish, xato ketgan o'rinlarini o'zlariga topdirish, kamchiliklarini o'zlari anglab, o'zlari tuzatishlariga imkon yaratishdan iborat. O'quvchilar otaning aytganlari mohiyatiga kirishlari, to'g'rilik mahsuli bo'lgan xotirjamlikning, maqtanchoqlik tufayli hijolatga qolishning, dangasalik oqibatida baxtsiz bo'lishning nima ekani haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun bu tushunchalar mazmuni haqida: “To'g'rilik deganda nimani tushunasiz?”, “Hijolatga qolish» degani sizningcha nimani anglatadi?”, “Dangasalik nimalarda ko'rinadi?”, “Siz baxtsizlikni qanday tushunasiz?” kabi qo'shimcha savollar bilan o'ylab ko'rishga yo'naltiriladi. Shu tariqa tushunchalarning, ular yordamida ertakning mohiyatiga kira borib o'quvchilar o'zlarining tarbiyalanishi jarayonida bevosita ishtirok etadilar. Ya'ni o'qituvchisining ko'magi, yo'naltirishlari asnosida o'zlarini o'zlari tarbiyalaydilar.

Og'a-inilarning o'z sarguzashtlarini bir-birlariga ham darrov aytib bermaganliklari ularga xos yana qanday fazilatning belgisi ekanini o'quvchilar o'zlari kashf etsinlar, maqtanchoqlik yot bo'lgan botirlarning og'ir-bosiqqligi, kamtarligiga munosabat bildirsinlar. Bu sifatlarning yigitlarda shakllanishi manbai haqida o'ylab ko'rsinlar. Botirlarga xos bo'lgan bu fazilatlar o'quvchilarning havasini qo'zg'ashi tabiiy. Ayniqsa, bolalik paytida u yaxshilarga, kuchlilarga havas qiladi. Bu – fazilat. O'quvchilarda bunday fazilatlarni shakllantirish boshlang'ich adabiy ta'limning vazifasidir. Buning uchun matn yuzasidan o'quvchilar e'tiborini shunday tuyg'ularni qo'zg'otadigan, ruhiyatini muvozanatdan chiqaradigan savol-topshiriqlar berib borilsa, kifoya. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchidan ortiqcha narsa talab qilinayotgani yo'q. Qahramonlarga xos bo'lgan ijobiy sifatlarni payqash, o'quvchilarida ularga havas uyg'otib, ularning fazilat ekanini ko'ngillariga joylash bolalar ma'naviyatida, albatta, ijobiy iz qoldiradi.

“Kenja botir sarguzashtlariga e'tibor bering. Uning o'g'rilarni o'z holiga qo'yib ketib qolmaganiga qanday qaraysiz?” savol-topshirig'i sinfdagi har bir o'quvchidan mustaqil mulohazani talab qiladi. Sirtan

qaraganda o‘zgalarni muhokama qilish juda osonday tuyuladi. Lekin o‘sha o‘zgalar o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish, o‘zini ularning o‘rnida tasavvur qilish talab qilinganda ba‘zan “tillar boylanib qolishi” ham bor gap. O‘quvchilarni vaziyatga shunday yondashishga undash ham ularni ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi. Javob bergan o‘quvchilarning fikri diqqat bilan eshitiladi, zarur bo‘lganda qo‘shimcha savollar bilan qarashlarga aniqlik kiritiladi.

“Kenja botirning tadbirkorligi, topqirligi, jasurligi bilan ertak boshida ota tomonidan aytilgan gaplar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz?” savoli berilganda, unga aniqlik kiritish maqsadida “Kenja botirning tadbirkorligi uning qaysi ishida ko‘rinadi?”, “Uning topqirligini qaysi xatti-harakatlarida ko‘rish mumkin?” “Kenja botir otasining o‘sha nasihatidan keyin birdaniga jasur bo‘lib qoldimi?” singari qo‘shimcha savollardan ham foydalanish mumkin. Shu tariqa o‘quvchilar e‘tibori Kenja botirning qaysi fazilati uning qaysi amalida ko‘rinishiga, jasurligini namoyish etgan ishlari tasviriga qaratiladi. Bu kabi faoliyati bilan ular adabiy qahramonlarni o‘zlari uchun qayta kashf etadilar. Bu kashfiyotlari ma‘naviyatlarining kamol topishiga xizmat qiladi.

O‘rdaga kelgan botirlarning ziyofat paytida dasturxonga qo‘yilgan go‘sht, shinni, non taxlami to‘g‘risidagi fikrlariga ham o‘quvchilarning diqqati qaratiladi. Yigitlar tabiatidagi bilgichlikning omillari haqida o‘ylab ko‘rishga undalgan o‘quvchilar mulohaza yuritib, o‘z fikrlarini o‘rtaga tashlaydilar.

“*Qizlar yo‘qotgan tillalariga gavhar qo‘shib oldilar,*”- degan iborani qanday tushundingiz?” savoli o‘quvchilarni asar matnida ilgari surilgan g‘oyalar haqida mulohaza yuritishga undaydi. O‘quvchilar “qizlar yo‘qotgan tillalar” deyilganda nima nazarda tutilgan-u “qo‘shib olingan gavhar” deyilganda nima ko‘zlangani haqida mulohaza yuritadilar. O‘z qarashlarini asardan kelib chiqib bayon qiladilar. Bu kabi savol va topshiriqlar 4-sinf o‘quvchilariga xos bo‘lgan ko‘p o‘ylab o‘tirmay gapirib yuboraverish yoki o‘rtoqlarining fikrini takrorlash kabi odatlarini ular tabiatidan chiqarishga ko‘maklashadi. Javoblarda o‘quvchilarning o‘z xulosasi, qarashlari ifodalanadi. Berilgan savol va topshiriqlarga kimningdir aqli etar, kimnikidir etmas. Muhimi, sinfdagi barcha bolalarning bular haqida o‘ylashi, izlanishidir.

Asar mazmuni yuzasidan taqdim etilgan: “Kenja botir hikoyasidagi to‘tiga e’tibor qiling. Va’daga vafo qilish uchun otanasi, aka-ukalari va yaqinlari, eng muhimi, o‘z ozodligidan kechib kelgan to‘tining olijanobligiga ko‘rsatilgan oqibatga munosabat bildiring” topshirig‘ini bajarishga tutingan o‘quvchilar to‘ti, podshoh va vazir shaxsini tahlilga tortadilar. O‘qituvchi vaziyatga qarab ularning har bir xatti-harakatini alohida savolga aylantirishi ham mumkin. Shunda o‘quvchilar ularning xatti-harakatiga munosabat bildiradilar, baholaydilar. To‘ti qaytib kelmasligi ham mumkin edi-ku! Lekin u mardlik qilib sadoqatini namoyish etdi, buning ustiga yoshartiruvchi meva ham olib keldi. O‘quvchilar bunday olijanoblikning nima uchun o‘limga mahkum etilgani, podshoh nima sababdan to‘tining emas, vazirning gapiga ishongani haqida mulohaza yuritadilar. Bolalar podshohning o‘z fikri yo‘qligi, vazir mevaning bittasini podshohga edirib, ikkinchisini o‘zi eganda hammasi yaxshilik bilan tugashi mumkinligini, to‘tining o‘limini istagani vazir o‘zining ham boshini egani haqida fikrlashadilar. Bu bilan yomonlik, albatta, jazolanishini, haqiqat ma’lum vaqt egilsada, lekin sinmasligini o‘quvchilar anglab etishlariga imkon yaratish o‘qituvchining asosiy yumushi bo‘lishi kerak.

“Ertakdagi va hikoyadagi shohlarni bir-biriga solishtiring” topshirig‘i o‘quvchilarni ikkala podshohning tabiatidagi xislatlarni aniqlashga, ertak va hikoya matniga qayta-qayta murojaat qilishga undaydi. Chunki Kenja botirning hikoyaga singdirgan maqsadini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu hodisa ustida ishlanayotganda o‘qituvchi qo‘shimcha savollar bilan yo‘nalish berib yuborishi ham muhim. Hikoyadagi to‘ti va podshoh timsollariga xos sifatlar: va’daga vafo va shoshqaloqlik bilan tadbir ko‘rish haqida o‘quvchilarda bolalarcha sodda xulosalar chiqariladi. Ertakdagi va hikoyadagi shohlarni taqqoslash asnosida o‘quvchilar ularning har ikkisiga o‘ylamay ish ko‘rish, yaqinlarni ayamaslik, shafqatsizlik, qahri qattiqlik kabi sifatlar xosligini aniqlaydilar.

“Og‘a-ini botirlarning saroydan ketish to‘g‘risidagi qaroriga o‘z munosabatingizni bildiring” topshirig‘i ham o‘quvchilarni o‘ylantirishi tabiiy. Ularning ko‘pchiligidan kutilgan javob chiqmasligi ham oddiy hol. Lekin bu vaziyatga o‘quvchilarning munosabati keyingi soatda bo‘ladigan ertak darsining samarasini

ta'minlaydi. Kenja botirning nohaq jabrdan dili og'rigani, endi akakalar u erda ortiq qololmasliklarini his etgani uchun ketishga, tabiatlariga singdirilgan tarbiyaga muvofiq yashashga intilishlarini o'quvchilar bola ko'ngillari bilan his qiladilar. Ular tuyganlarini so'z bilan ifodalab berolmasliklari ham mumkin. Lekin adabiy ta'lim uchun o'quvchida tuyg'u uyg'otishning o'zi ham katta yutuq.

Suhbat so'nggida "Ertak tahlilidan so'ng ko'nglingizda qanday tuyg'ular paydo bo'ldi? Ularni sharhlashga urinib ko'ring" topshirig'i o'quvchilarning asarni o'qishdan olgan dastlabki va tahlildan keyingi ikkilamchi, asosiy taassurotlarini farqlab, tasavvurlarini tiniqlashtirib olishga ko'maklashadi.

Uy vazifasi sifatida ertakdagi: "Kenja botir podshohga qarab bir hikoya aytdi..." jumlasidan keyingi hikoyani o'quvchilar ertakdagi voqealar rivojiga moslashtirib yangidan yaratishlari mumkin. Bu – o'quvchilarning imkoniyati doirasida bajariladigan topshiriq. Yoki ertakdagi istalgan qahramon timsoli o'rniga o'zini qo'yib yangi .rtak yaratish taklifi ham o'quvchilarni ruhlantiradi. O'g'il bolalarning ko'pchiligi o'zlarini kenja botir o'rnida tasavvur qilishlari va ertaklarini shu asosga qurishlari mumkin. Ma'lum qismi ikala katta akalar o'rnida o'zlarini tasvirlashlari ham mumkin. Har qanday holatda ham o'quvchilarga: «Nega o'zingni aynan shu timsolga o'xshatib ertak yaratding?» savolini berish shart. Shunda o'quvchilarning o'zlarini o'zlari o'z imkoniyatlari darajasida baholashi namoyon bo'ladi.

Yangi yaratilgan ertaklar muhokamasiga bag'ishlangan darsda o'quvchilar tomonidan yaratilgan ertaklar eshitilib, ularning yutuq va kamchiliklari tahlilga tortiladi. Baholanadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. o'ylab ko'ringchi, boshlang'ich sinflarda tasviriy sanat darslari bo'lgani holda o'qish darslarida suratlar ustida bu tarzda ishlash to'g'rimi yo'qmi? Nega shunday deb o'ylaysiz? Qarashlaringizni asoslang.

2. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar amalga oshiradigan ishlar bilan boshlang'ich adabiy ta'limda suratlar ustida ishlash jarayoniga diqqat qiling. Qaysi biri o'quvchiga nima berishi haqida o'ylab ko'ring. Fikrlaringizni asoslang.

3. Mavzudagi o'qituvchilarning bilimsizligi haqidagi fikrlarni topib qayta o'qing. Siz bu gaplarga qo'shilasizmi yoki yo'qmi? Nima uchun? Xulosalaringizni asoslang.

4. Nima deb o'ylaysiz, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish kerakmi yoki yo'qmi? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz? Fikringizni dalillang.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish ishlarini yana qanday yo'llar bilan takomillashtirish mumkin? Bu haqda biror taklif va mulohaza ayta olasizmi? Fikrlaringizni isbotlashga urinib ko'ring.

6. Mavzuda taqdim etilgan suratlar ustida ishlash jarayoniga yana qanday qo'shimcha savol va topshiriqlar kiritish mumkin, sizningcha.

7. Mavzuga ilova qilingan maqoladagi ertak matni yuzasidan taqdim etilgan savol va topshiriqlarga o'zingiz javob bering. Fikrlaringizni asoslang.

8. Ertakni maqolada taklif etilgan o'rnidan davom ettirib ikkinchi yakunini yarating. Yaratig'ingizni kursdoshlar birgalikda muhokamaga torting.

9. L. Bo'rixon qalamiga mansub «Jaziramadagi odamlar» romaniga taqriz-insho yozing. Ijodingiz maxsulini domlangiz bilan birgalikda darsda muhokama qiling.



## 16-mavzu. Adabiy ta'limning dastlabki bosqichida insho va uning turlari. Insholarni baholash me'zonlari

### Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari
2. Boshlang'ich sinflar o'quvchilariga insho yozishni o'rgatishda eng samarali vositalar
3. Insho tekshirilganda baholash talablari.

**Tayanch so'zlar:** *epigrafning mavzuga va insho matniga mosligi, reja bandlari orasida mantiqiy bog'lanish mavjudligi, insho reja asosida yozilmagan bo'lsa, material qanchalik izchil bayon etilgani, mavzuning yoritilishida mantiq borligi, insho kompozitsiyasining butunligi.*

Ma'lumki, odam hamisha o'zining og'zaki va yozma nutqi takomili bilan qiziqib kelgan. Aynan nutqiy imkoniyatlari orqali inson o'z ichki olamini, tuyg'ularini to'kis namoyon etadi. Adabiyot esa inson nutqining injaliklarini, badiiyligini, tozaligi takomilini ta'minlaydi. Odamning nutqi uning saviyasi, bilimlilik darajasi, fikrlash jarayoni va o'ziga xos jihatlari tizimini namoyish etadi.

Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi adabiy ta'lim amaliyotida o'quvchilarning ijodiy nutqiy faoliyatini tizimga solish uchun har xil metod va usullardan foydalanishi mumkin. O'qish darslarida nutq o'stirishning asosiy yo'nalishlaridan biri matnning o'quv tahlili bo'lib, u har xil nutqiy vaziyatlarni hosil qilish, dialogik muloqot uchun vaziyat yaratish, adabiy mavzularda monologik nutq turlaridan foydalanishga o'rgatish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar nutqining rivojlanganligini tekshirish mezonlari faol leksika, terminologiya, tasviriy ifodalarga egalik, nutqni mazmunli, ma'lumotlarga boy qilish, chiqishlarni mantiqiy aniqlik va xulosalarning mustaqilligi bilan boyitish va hk.lar bilan belgilanadi. Kichik o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqi darajasi bugungi kunda nafaqat metodik yoki pedagogik, balki jamiyat miqyosidagi ijtimoiy muammolardan biri bo'lib turibdi.


Kommunikativ muloqot ishtirokchilarining ko'pchiligi o'z fikrini aniq va ravon ifodalashga, fikrlarini ma'lum bir tizimda bayon etish

qobiliyatiga, ifoda izchilligiga ega emaslar. Buni nafaqat boshlang'ich, balki ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, barcha o'quv fanlari tizimida kuzatish mumkin. Ta'lim amaliyotida, asosan adabiy ta'limda fikr ifodalashning nozik tomonlari, uning rang-barangligi va emotsionalligiga erishishga e'tibor qaratiladi. Nutq ifodalashda bunday ko'nikmalarni egallash va og'zaki nutqni takomillashtirish suhbat, muhokama, qayta hikoyalash, dialoglar, ma'ruzalar asnosida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki nutqi bilan bog'liq holda ularning yozma nutqini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. U kommunikativ jarayonda bevosita ishtirok etmaydi. Agar og'zaki nutqda jumla yoki so'zlarning to'liq ifodalanmasligi, ayrim qo'shimchalarning tushirib qoldirilishi, almashinishi singari holatlar yuz berishi mumkin bo'lsa, yozma nutqda fikr ifodalashda mantiqiy izchillik, so'z va iboralarning tizimliliigi taqozo etiladi. O'quvchi yozma nutqini takomillashtirishning keng tarqalgan usuli turfa janrlarda va har xil adabiy mavzularda insholar, esselar, bayonlar yozdirishga undashdir. O'quvchilarning boshqa turdagi mustaqil ishlari, yozma shaklda bajariladigan uy vazifalari ham yozma nutqining rivojlanishiga ko'maklashadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida insholar erkin mavzular (asosiy materialning olinajak manbasi, janri, hajmi, bajarish joyi va usuliga, qo'shimcha topshiriqlari mavjudligiga ko'ra)da, maqsadiga ko'ra ta'limiy hamda nazorat shaklida tashkil etiladi. Dastlabki – alifbegacha va alifbe (taxminan, 12 – 13 hafta), hali bolalar o'qishni ham, yozishni ham to'la bilmaydigan davrda, ularga o'z kuzatishlari, hayotidagi har xil voqea-hodisalar (mashg'ulotlar, o'yinlar, qiziqishlar, mavsumiy mehnat) bo'yicha og'zaki insho, rasmlar asosida hikoya tuzish bo'yicha amaliy mashqlarni bajartirish samarali natijalar beradi. O'quvchilar tomonidan tuzilgan bu hikoyalar ularning birinchi insholari sanaladi.

## Boshlang'ich sinf o'qish darslarida inshoning quyidagi turlarini yozdirish maqsadga muvofiqdir



O'quv yilining ilk kunlaridan o'qituvchilar bolalarga tabiatni kuzatish va shu asosda tabiat taqvimini yuritishni o'rgatadilar. Bu kuzatishlarning o'zi ham quyidagi savollarga javob beruvchi hikoya – og'zaki insho uchun mavzu bo'lishi mumkin: “Bugun ob-havo qanday? Osmon qanday ko'rinishda? Havo bulut bo'lganda osmon qanday ko'rinishda bo'ladi? Nega shunday bo'lishini bilasizmi? Quyoshning qizdirishi nimalarga va nimasi bilan foydali deb o'ylaysiz? Oy nurining sabzavot va mevalarga foydali jihati bormi? Agar bor bo'lsa, buni nmalarda ko'rish mumkin? Shamol foydali hodisami yoki zararlami? Kuchli shamol yaxshimi, yomonmi? Shamol nimasi bilan yaxshi-yu, nimasi bilan yomon, sizningcha? Yomg'ir yog'yaptimi? Kun issiqmi yoki sovuq? Sizga qanday ob-havo yoqadi? Nima uchun?” va bq. Kelasi safargacha o'quvchilar ob-havoni kuzatib borishga odatlanadilar va kecha qanday edi, bugun qanaqa ekanligini aytib beradilar.

O'quvchilar bir-birini to'ldirib, alohida-alohida aytilgan gaplarni o'qituvchi yordamida o'zaro bog'lab, mantiqiy izchillikda hikoya tuzadilar. Bu hikoyalar hech qanday munosabatsiz, aniq vaziyat yoki holat tasviridan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari tomonidan tuzilgan hikoyalar, taxminan, quyidagicha shaklda bo'lishi

mumkin: “Bugun ob-havo yaxshi. Osmon ko‘m-ko‘k. Quyosh charaqlab turibdi. Kuchsiz shamol esyapti. Yomg‘ir yoqqani yo‘q. Kun issiq”. Yoki: “Bugun ob-havo yomon. Osmonda qora bulutlar, quyosh ko‘rinmaydi. Yomg‘ir yog‘yapti. Sovuq” va hk.

Insho 1-sinfda kichik og‘zaki axborot yoki oddiy hikoyadan boshlanib, sinflar yuqorilab borgani sari o‘quvchini o‘z fikrini ifodalashga o‘rgatadigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan, aqlini peshlab dunyoqarashini kengaytiradigan, tafakkurini tiniqlashtiradigan, nazarini ziyraklashtiradigan ta‘lim-tarbiyaiy ahamiyatga ega bo‘lgan ish turiga aylanib boradi. Insho bola shaxsini shakllantirishda g‘oyat samarali vosita bo‘lib, his-hayajon uyg‘otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko‘rgan-kechirganlari va o‘zlashtirganlarini baholashga, voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-natija bog‘lanishini topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Insho o‘quvchini o‘z fikrini tartibga solishga yo‘naltiradi.

Insho yozish yoki og‘zaki hikoya qilish darsda ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Inshoning darsdagi umumlashtiruvchilik roli bog‘lanishli nutq sohasidagi ko‘nikmalarni egallash me‘yoriga qarab ortib boradi. Insho yozish uchun 2-sinfda, odatda, bir dars, ammo zarur bo‘lib qolsa, ikkinchi darsdan 15 – 20 daqiqa, 3 – 4-sinflarda bir yoki bir yarim dars ayrim vaqtlarda 2 darsgacha ajratiladi.

O‘quvchilarni insho yozishga yo‘naltirish bugungi kunda ham umumta‘lim maktablari o‘qituvchilari oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda yozdiriladigan insholarning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan insholardir. Rasmlar va tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insholar maktablarda tez-tez o‘tkaziladi, chunki rasmlar bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

Rasmlarni tomosha qilish kabi sayohatlarga chiqish ham bolalar sezgisiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hayotning bola tajribasida hali uchramagan qirralari ochiladi. Rasm o‘quvchilarga tanish bo‘lgan hodisalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insholar o‘quvchilar tasavvurini, hayotot dunyosini boyitadi, nazarini ziyraklashtiradi. O‘quvchilar tabiatda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishini va nimalarning guvohi bo‘lganini o‘zlaricha bayon qiladilar.

Bunday inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va qiziqishiga, inshoda ilgari surish ko'zda tutilgan yetakchi fikrga ham bog'liq. Insho bolalarning voqea-hodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini oshiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoyalar tuzadilar hamda yozadilar, bu kabi ishlar ularning mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, faolligini oshiradi.

Kuzda bolalar bilan bog', xiyobon, dalalarga sayohatlar uyushtiriladi va barglarning to'kilishi (xazonrezgi) hodisasi kuzatiladi. Bu sayohatdan olingan turfa rangdagi barglar, qaysi daraxtning bargi qanday rangda bo'lishi, qarag'ay, chinor daraxtlarining g'uddalari va boshqa taassurotlar asosida dars o'tiladi. O'quvchilar o'qituvchining savollariga ko'ra sayohat chog'ida ko'rganlari haqida so'zlab beradilar. O'qituvchi o'quvchilarning javobini diqqat bilan kuzatib, so'zlarning ma'noga mos holda to'g'ri qo'llanilishi, gaplarning qurilishiga e'tibor qaratadi va bolalar nutqiga zaruriy tuzatishlar hamda to'ldirishlar kiritib boradi.

Suhbat, taxminan, quyidagi savollar ko'magida amalga oshiriladi: "Aying-chi, hozir yilning qaysi fasli kirib keldi? Ob-havo yozda qanday bo'lgan edi, eslay olasizmi? Yozda daraxtlarning bargi qanaqa rangda edi? Hozir, kuzda qanday rangda? Nega shunday ekani haqida o'ylab ko'ring-chi? Yana nimalarni ko'rdingiz? Kuzgi barglar ustida yurganingizda qanday ovozni eshitdingiz? Kuzda daraxt barglarining to'kilishi qanday ataladi? To'kilgan barglarni nimaga o'xshatish mumkin, sizningcha?" va hk.

O'quvchilar qushlarning uchib ketishini, hasharotlarning g'oyib bo'lishini ham kuzatadilar va bu hodisalar ham hikoyaga – og'zaki inshoga mavzu va material bo'lib xizmat qiladi.

Tabiatni kuzatish va tabiat taqvimini yuritish qishda ham davom ettiriladi. Bolalar qor yog'ishini, sovuqning boshlanishini, izg'irinni, ariq va hovuzlardagi suvning muzlashini kuzatadilar. Bu davrda og'zaki insho uchun quyidagi mavzular tanlanishi mumkin: "Birinchi qor", "Ariqlar muzladi", "Izg'irin", "Qishki o'yinlar" "Biz Qorbobo yasadik", "Tepalikdan uchamiz", "Archa", "Qanaqa sovg'alar oldik?", "Qorboboga xat" va boshqalar.

Bahorda bolalar qor va muzlarning erishini, daraxtlarning kurtak chiqarishini, boychechak va boshqa gullarning ochilishini, ekilgan urug‘larning ko‘karishini kuzatadilar. Bahorgi insho uchun mavzular juda ko‘p: “Bahor elchisi”, “Birinchi chechak”, “Kurtaklar”, “Urug‘ unib chiqdi”, “Qaldirg‘ochlar qaytib keldi”, “Dalada ishlar boshlandi” va hokazo.

Uy hayvonlarini kuzatish ham o‘quvchilarga “Mushukcham”, “Olapar”, “Mening qo‘zichog‘im” mavzularida hikoyalar tuzish imkonini beradi. Mehnat haqidagi mavzular esa katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi: “Onam(otam)ga yordamlashdim”, “Uy ishlari tartibi”, “Men mushuk (it, qo‘y) boqaman”, “Ukam (singlim)ni o‘ynataman”, “Tomorqada ishladik”, “Gul o‘tqazdim bog‘imga”, “Sinfda navbatchiman” va hk.

Bunday mavzulardagi ijodiy ishlar bolalarning atrof-muhitni kuzatishlari, ijodiy ishni o‘z hayotlari bilan bog‘liq hodisalar asosida amalga oshirishlariga imkon beradi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun borliqdagi o‘zgaruvchan va cheksiz hayotga nisbatan rasmlarda ixcham tarzda tasvirlangan turg‘un hayot haqida hikoya qilish osonroq tuyuladi. Rasmda hayotning bir lazasigina tasvirlanadi, uning mazmuni chegaralangan bo‘ladi. Bolalar rasmni diqqat bilan kuzatib, unda tasvirlangan narsalarnigina hikoya qilib beradilar.

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilariga insho yozishni o‘rgatishda eng samarali vosita bolalarga tanish voqelik aks etgan rasmlar sanaladi. Bunday rasmlar hamisha bolalar diqqatini tortadi, ularga yoqadi. Bitta rasm yoki ikki-uch qismdan iborat rasm asosida hikoya tuzishda bolalar rasmni mustaqil tomosha qilishib, uning mazmunini o‘qituvchining savollarisiz aytib berishlari ham mumkin. Bir o‘quvchining hikoyasini eshitgach, o‘qituvchi savol beradi: “Kim qo‘shimcha qilmoqchi?” Hikoyadagi kamchiliklar aniqlangach, savollar bilan uni to‘ldirishga kirishiladi. O‘qituvchi yordamida mantiqiy izchillik va fikrlar ketma-ketligi hamda bog‘liqligiga erishiladi. Dastlab nima haqida, keyin nimalar to‘g‘rida to‘xtalish, qanday tugatish kerakligi belgilanadi. Hikoya uchun zarur so‘z va iboralar tanlanadi. Oxir-oqibatda, bog‘lanishli matn – og‘zaki hikoya-insho yaratiladi. O‘quvchilar nutqining to‘g‘ri shakllanishi uchun hikoya bir necha marta takrorlantiriladi.

Ta'limning alifbegacha va alifbe davrida shakllangan og'zaki hikoyalar qish boshlariga kelib, asta-sekinlik bilan yozma bayonga aylana boradi.

Dastlabki paytlarda og'zaki va yozma insholar orasida katta farqlar ko'zga tashlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga og'zaki hikoya tuzishni mashq qildirar ekan, ularning nutqini o'stirishda o'z fikrlarini atroflicha isbotlay olishlariga erishishni maqsad qilib olishi lozim. Hikoyani yozma shaklda tuzish uchun hali bolalarning ko'nikmalari sust bo'ladi, shuning uchun bolalarga rasm bo'yicha asosiy fikrlarni ifodalovchi uch-to'rtta gapdan qisqa sharhlar yozish topshirig'i bilan chegaralanish kifoya qiladi. Og'zaki insho har doim ham yozuv bilan tugayvermaydi. Biroq yozma insho oldidan og'zaki tayyorgarlik ko'rish lozim bo'ladi.

Yozma insho sari qo'yilgan birinchi qadamdan o'qituvchi o'quvchilarning inshoni to'g'ri, imloviy xatolarsiz yozishlariga e'tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, o'quvchilarni yozma insho yozishga yo'naltirishda asosiy jihat mantiqli savollar qo'ya bilishdan iboratdir. Tabiat taqvimida ustida ishlash, ekskursiya, o'yinlar, ishlar yoki rasm asosida hikoya tuzish ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'qituvchi bolalarni ushbu hikoyalarni yozma shaklda ifodalashga o'rgatib boradi. Bu davr insho yozishni o'rganishda juda mas'uliyatli hisoblanadi. Chunki o'quvchilar nafaqat o'z fikrlarini to'g'ri va aniq ifoda etishlari, shu bilan birga, ularni imloviy xatolarsiz yozishlariga ham erishish talab etiladi.

Masalan, "Qorbo'ron" mavzusida insho yozishni misol qilib keltirish mumkin. Bu insho III chorakning boshida – yanvarning oxiri va fevralning boshlarida yozilishi maqsadga muvofiqdir.

Qorbo'ron o'yinidan so'ng bolalar o'z taassurotlarini o'qish darslarida aytib beradilar. O'qituvchi quyidagi savollar yordamida ularning hikoyalarni tizimlashtiradi: "Qachon qorbo'ron o'ynadingiz? Qaerda o'ynadingiz? Ob-havo qanday edi? Qor qanday edi? Qancha bola qorbo'ron o'ynadi? Sizni necha marta qor bilan urishdi? O'zingiz necha marta nishonga urdingiz? Kimlarga qor otdingiz? Qor kimga tegdi? Og'ridimi? Qorbo'ron o'ynaganda nimalarni his qildingiz? Qorning ovozi eshitdingizmi? U qanday ekan?" va bq.

O'qituvchi o'quvchilarning bog'lanishli hikoya-insho tuzishlariga erisharkan, ular nutqining to'g'riligini ham kuzatib boradi. Biroq

o'quvchilarning hikoyasini cho'zish shart emas, buning uchun 5 – 6 daqiqa kifoya qiladi. Chunki hali oldinda yozma ish turibdi. O'qituvchi asta-sekin bolalarni yozma inshoga tayyorlab boradi. Hikoya-insho sarlavhasi qisqa va ma'noli bo'lishi lozim. Bolalar “Qor parchalari”, “Qorbo'ron”, “Qishki o'yinlar”, “Qish zavqi” va hk. nomlarni aytadilar. O'qituvchi “Qorbo'ron” yoki “Qish zavqi” sarlavhalarining yoziladigan inshoga, hikoya mazmuniga boshqalaridan ko'ra ko'proq mos kelishini asoslab beradi. Sarlavha va savollar xattaxtaga yoziladi.

Bolalar har bir savolga uni takrorlab, javob uchun lozim bo'lgan so'zini qo'shib, bitta gap bilan javob beradilar. Bu to'ldiruvchi so'zlarni o'qituvchi savollarning to'g'risiga yozib qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarni navbati bilan xattaxtaga chiqaradi va ularga faqat bitta savolni o'qib, unga bitta gap bilan javob berishni taklif qiladi. So'ng savollarni ichdan o'qib, javoblarni ovoz chiqarib berishni topshiradi. Nihoyat bir-ikki o'quvchi savollarga javob tarzida hosil bo'lgan barcha gaplarni o'zaro bog'lab, bog'lanishli matn, ya'ni hikoya-inshoni aytib beradilar. O'quvchilar yozgan gaplarini shu tariqa tekshirishib, barcha savollarga javob yozishadi.

Yozma ish bajarilib, yozilgan insholar tekshirib bo'lingach, o'qituvchi ikki-uch o'quvchidan insho sarlavhasi va o'z inshosini o'qib berishni so'raydi. Shunisi muhimki, bolalar alohida-alohida so'zlar va gaplarni emas, balki haqiqiy kichik insho yozganlarini anglab etishlari kerak, ya'ni ularga buni ishora qilib qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan inshoga tayyorlanish va uni tekshirishga ajratilgan vaqt bir muncha qisqarib boradi. Imloviy tahlil birdaniga xattaxtada yozilgan savollardagi barcha so'zlar bo'yicha o'tkaziladi; tekshirish alohida savollar bo'yicha emas, balki insho to'lig'icha yozib bo'linganidan so'ng tashkil etiladi. Bunday ish bolalarni o'zi yozadigan har bir so'z, har bir harfga diqqat bilan munosabatda bo'lishga majbur qiladi. U nafaqat imlosi o'ziga ma'lum so'zlarni, balki hali notanish bo'lgan so'zlarning yozilishiga ham diqqat qila boshlaydi. Bunday insholar yozishda o'quvchilar gaplar chegarasini his qilishni o'rganishadi, ularni nuqta bilan bir-biridan ajratadilar, har bir yangi gapning birinchi so'zini bosh harf bilan boshlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.



O‘quvchilar bu ishni to‘la o‘zlashtirib, unga ko‘nikma hosil qilganlaridan so‘ng insholarni bir muncha murakkablashtirish mumkin, ya‘ni shunday savollar tuzish lozimki, o‘quvchilar javob berishda faqat savolda ishlatilgan so‘zlardan foydalanmay, o‘z lug‘at boyligidagi so‘zlarni ham qo‘llasinlar. Bunga misol qilib, “Qush uyasi” qismli surati ustida ishlashni tavsiya etish mumkin<sup>92</sup>. Mazkur rasm asosida o‘quvchilar hikoya-insho yaratishlari uchun ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Bolalar qayoqqa ketishayotgan edi?
2. Yo‘lda ular nimani ko‘rib qolishdi?
3. Nima deb o‘ylaysiz, polapon qanday qilib uyasidan tushib ketgan bo‘lishi mumkin?
4. Erda yotgan polaponni ko‘rganda bolalar nimalarni his qilgan deb o‘ylaysiz?
5. Sizing ko‘nglingizdan nima kechdi?
6. Javohir (suratdagi bola) nima qildi?
7. Siz nima qilgan bo‘lardingiz?

Bu savollarning barchasiga hamma bolalar birday javob bera olmasliklari mumkin, albatta. Lekin javob berishga qodir bolalarning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalarning og‘zaki insho-hikoyasi, taxminan quyidagi tarzda bo‘lishi, hikoya-inshoning sarlavhasi esa: «Polaponni qutqarish» tarzida bo‘lishi mumkin:

«Kenglikda chillak o‘ynash uchun ketayotgan bolalar katta bir daraxt tagida erda yotgan polaponni ko‘rib qolishdi. U uyasidan tushib ketgan ekan. Polaponning qorni ochgan va ovqat qidirib uyasining chetiga kelib qolganini bilmay qolgan. Shunda yiqilib tushgan. Bolalarning kattasi Javohir polaponni darrov qo‘liga oldi va daraxtga chiqib, uni uyasiga solib qo‘ydi. Uning bu ishidan hammamiz xursand bo‘ldik».

Albatta, o‘quvchilarning insho-hikoyasi bu kabi izchil va keng qamrovli bo‘lmasligi mumkin. Lekin ularni fikrlarini shunday izchilikda ifodalashga yo‘naltirish va savollarga keng qamrovli javoblar berishga undash boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining vazifasi hisoblanadi. Xatolardan ogohlantirish va yozilganlarni tekshirish yuqorida ko‘rsatilgandek o‘tkaziladi.

---

92 Абдуллаева Қ ва бошқ. Ўқиш китоби (2-синф учун дарслик). -Т.: Ўқитувчи, 2010. –117-б.

O‘quv yilining oxiriga kelib, I sinf o‘quvchilari o‘qituvchi tomonidan, ba‘zan o‘zi tanlagan mavzu yoki devoriy suratlardan biri bo‘yicha umumiy holda, yoki kichik rasmlar bo‘yicha alohida inshoni mustaqil, og‘zaki tayyorgarliksiz yozishga yo‘naltiriladi. Bolalar bunday ish turini juda yaxshi ko‘radilar. Bu ularga mustaqil fikrlash imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili va o‘qish darslarida inshoga ham, gap ustida ishlashga ham birdek ahamiyat beriladi. Shuning uchun o‘quvchilarning o‘z shaxsiy fikrlarini sharhlab bera olishlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda og‘zaki ishning ham, yozma ishning ham o‘rni baravardir. II sinf o‘quvchilari ma‘lum darajada yozish bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lishadi, shu sababli og‘zaki va yozma ishlar o‘quv yilining birinchi haftasidanoq boshlanadi.

Ona tili va o‘qish ta‘limida II sinfda insho yozishni o‘rganish bo‘yicha quyidagi ish turlari ko‘rib chiqiladi:

– atrofdagi olam, tabiat hodisalari, mehnat va o‘yinlar haqida og‘zaki hikoyalar tuzish;

– tabiat taqvimini bo‘yicha tabiat hodisalarini kuzatish asosida qisqa yozuvlar;

– rasm yoki qismli rasmlar asosida, biron bir hodisa yuzasidan, jamoaviy tarzda tuzilgan reja va tayyorlangan lug‘at asosida og‘zaki hamda yozma insholar yaratish.

II sinf o‘quvchilari ham xuddi I sinf tarbiyalanuvchilari kabi rasm va qismli rasmlar asosida insho yozadilar. Shunday qilib, II sinfda o‘quvchilar yozadigan insholarning mazmuni darsda o‘rganiladigan mavsumiy mavzularga: atrofdagi olam va tabiatni, mehnat va o‘yinlarni, narsalar va tabiat hodisalarini aks ettiradigan mavzularga qo‘shimcha ravishda odamni tavsiflashga ham bog‘liq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu yo‘nalishda tabiatni kuzatish ishlari – tabiat taqvimini to‘ldirish, tabiat qo‘yniga sayohat davom etadi.

Tabiatni o‘rganish mavzulari bilan ayrim insho mavzularini bog‘lash lozim. Kuzatishlar, odatda, yozib boriladi. Kuzda bolalar maktab er maydonidagi yoki tomorqadagi yig‘im-terim ishlarida qatnashishganidan so‘ng ularga quyidagi mavzularda insho yozishni topshirish mumkin: “Mo‘l hosil”, “Polizda”, “Tomorqani qishga

hozirlash”, “Ekin uchun foydali va zararli jonzotlar”, “Dalalarda hosil mo‘l”, “Hasharga bordik” va hk.

Sabzavotlar mavzusidagi inshoni quyidagi savollar asosida yozish mumkin: «Sabzavotlar qaerda etishtiriladi? Polizda qanday sabzavotlar o‘sadi? Sabzavotlar qanday yig‘ishtiriladi? Polizda hosil qanday? Siz qaysi sabzavotlarni yaxshi ko‘rasiz? Sizga bu sabzavotlarning nimasi yoqadi? Qaysi sabzavot nimasi bilan foydali ekanligi haqida biror narsa bilasizmi? Sabzavotlar bilan mevalarning farqi nimada?» va bq.

O‘quvchilar “Ekin uchun foydali va zararli jonzotlar” mavzusidagi inshoni quyidagi savollar asosida yozishlari mumkin: “Poliz uchun qaysi jonzotlar foydali? Ular nimasi bilan foydali sanaladi? Qaysi jonzotlar poliz uchun zararli? Ular polizga qanday zarar keltiradi? Sizning ularga munosabatingiz qanday: rahmingiz keladimi, yomon ko‘rasizmi, qo‘rqasizmi yoki yaxshi ko‘rasizmi?» va hk.

Bolalar qishda mahalliy hayvonlar hayoti bilan tanishadilar va shu asosda tasviriy insho yozadilar. Ular inshoda tasvirlanayotgan hayvonning tashqi ko‘rinishi, tana qismlari, nima bilan oziqlanishi, qanday himoyalanihini yoritadilar.

Bundan tashqari, o‘quvchilar keng nishonlanadigan bayramlar va taqvimning qizil kunlari bilan bog‘liq quyidagi mavzularda ham tasviriy, hikoya insho yozishlari maqsadga muvofiq: “Eng ulug‘ bayram”, “Ona tilimiz bayrami”, “Bosh qomusimiz”, “Vatan himoyachilari”, “Onajonlar bayrami”, “Navro‘zi olam”, “Xotira va qadrlash kuni” va boshqalar. Insho uchun o‘quvchilarda mavjud “bilimlar ombori”ga mos keladigan mavzular tanlanishi kerak bo‘ladi.

Choraklik yoki yarim yillik baholar uchun yoziladigan nazorat insholariga mavzu tanlar ekan, o‘qituvchi o‘quvchilarga belgilangan insholar uchun qanday materiallar zarurligini avvaldan aniqlab olishi va ularni zarur materiallar bilan ta‘minlashi kerak bo‘ladi. Bu kabi materiallarga o‘quvchilarni kuzatishlar olib borishga undash, ko‘rsatish, hikoya qilib berish, o‘qish uchun tavsiya qilish orqali ega qilish mumkin.

O‘quvchilarning o‘zida ham berilgan mavzular bo‘yicha anchagina material bo‘lishi mumkin. Bu kabi hollarda insho mazmunini chegaralash yaxshi samara beradi, masalan, “Qish”

mavzusi juda keng bo‘lib, uni yozish II sinf o‘quvchisi uchun qiyinchilik tug‘dirishi aniq. Buning oldini olish maqsadida insho mavzusini konkretlashtirish talab qilinadi, ya’ni “Qish” mavzusini quyidagidek bir necha mavzularga ajratish mumkin: “Qish kirib keldi”, “Birinchi qor”, “Qishki o‘yinlar”, “Yangi yil bayrami” va boshqalar.

Insho yozishda o‘quvchilarning o‘zlaridagi materiallarni izchillik bilan, qat’iy ketma-ketlikda joylashtirish, ya’ni inshoda dastlab nima haqida yozish, uni qanday davom ettirish va tugatish bo‘yicha ko‘nikmalar shakllantirish hamda ularni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shunda o‘quvchining inshosidagi fikrlar ketma-ketligi uni o‘qigan har bir kishiga aniq va ravshan bo‘lishiga erishiladi.

II sinfda o‘quv yilining boshida insho yozishga o‘rgatish metodikasi I sinfdagiday bo‘ladi. O‘quv yilining keyingi davrlarida u to‘xtovsiz ravishda o‘zgarib boradi: o‘quvchilar ko‘proq mustaqil ishlashga o‘rgatib boriladi. O‘qituvchi shu taxlit ikki-uch marta insho yozdirganidan keyin, o‘quvchilarni faqat savolni qisman takrorlaydigan javob gaplarni emas, balki o‘quvchi tomonidan mustaqil tanlanadigan javoblar talab qiladigan gaplarni tuzishga asoslangan mavzularga o‘tishi mumkin. Shu tariqa o‘quvchilar nafaqat insho yozishni, balki taassurot va sharh yozishni ham o‘rganadilar. Ikkinchi chorakning boshida ish bir muncha murakkablashtiriladi: o‘qituvchi savollarni shunday tuzishi kerak bo‘ladiki, o‘quvchilarga bitta savolga ikki-uchta, hatto undan ham ko‘p gap bilan javob yozishga to‘g‘ri kelsin.

Ikkinchi yarim yillikda o‘quvchilar savol bilan emas, balki kichik sarlavhalar bilan ifodalangan reja bo‘yicha insho yozishni boshlaydilar. Insho yozishga bunday o‘tish o‘qish darslaridagi xuddi shunday ishlardan biri – reja asosida so‘zlab berish bilan bog‘liq holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. O‘qilgan hikoya bo‘yicha reja tuzishda o‘qituvchi o‘quvchilardan dastlab hikoyaning har bir qismiga kichik sarlavha qo‘yishni so‘raydi. Bu yo‘l bilan o‘quvchilarda hikoyaning qismlariga mos kichik sarlavha topish va reja tuzish ko‘nikmasi shakllantira boriladi. Shuningdek, o‘qituvchi taassurot-insho yozishga tayyorgarlik jarayonida ham shunday yo‘l tutishi kutilgan natijani beradi. Bunda quyidagi yordamcha savollardan

foydalanish mumkin: «Hikoyaning birinchi qism bo'yicha nimalarni gapirmoqchisiz? Uni qanday nomlashni o'yladingiz? Ikkinchi qismi bo'yicha nimalarni gapirish mumkin? Unga qanday sarlavha qo'ysa bo'ladi?» va bq.

Misol uchun, dalaga qilingan sayrdan so'ng yoziladigan "Dalada" mavzusidagi insho uchun quyidagicha reja tuzish mumkin:

1. Dalaga yo'l.
2. Dalada.
3. Uyga qaytish.

II sinfda ham bolalar o'z hikoya-insholarini yozishga kirishishlaridan oldin ular ishlatishlari mumkin bo'lgan so'zlarni diqqat bilan imloviy tahlil qilish lozim. So'zlarning imlosi ustida ishlash bolalarning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi ma'qul bo'ladi.

Inshoni o'qituvchiga topshirishdan oldin o'z ishlarini yana bir marta tekshirib olishlariga o'rgatish bolalarda mas'uliyatlilik va o'z ishlari uchun javobgarlik hissini tarbiyalaydi.

Bir o'quv yilida bir necha marta (asosan, ikkinchi yarim yillikda) o'quvchilarga sinfda va uyda mustaqil insho yozish topshiriqlari beriladi. Bunday insholar o'quvchilarning alohida tanlagan yoki barchasi uchun umumiy bo'lgan rasm asosida bo'lishi ham mumkin. Bu insholar og'zaki tayyorgarliksiz yozilishiga etibor qaratish kerak.

Insho ustida ishlash o'quvchilarni tanlangan mavzu ustida fikrlarini rivojlantirishga o'rgatadi, ularning shaxsiy qarashlari va qiziqishlarini shakllantiradi, o'quvchilarga o'zlarini xavotirga solgan yoki to'lqinlantirgan narsalarni aytish imkonini beradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarni adabiyot bilan tanishtiradi, ularni o'z shaxsiyati, bilimi va dunyoqarashini namoyish etishga yo'naltiradi.

Bugungi o'quvchilar ertaga qaysi kasb egalari bo'lishidan qat'i nazar, birinchi navbatda, madaniyatli, ma'naviy barkamol kishilar bo'lishlari lozim. Bugungi kunda madaniyatli kishi erkin va savodli yoza bilishi hamda gapira olishi shart. Shaxsni o'z fikr va tuyg'ularini xoh og'zaki, xoh yozma ravishda ifodalash malakasisiz rivojlantirish mumkin emas. Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishning dastlabki shartidir.

Hozir ko‘pchilik maktablarda aksariyat o‘quvchilar insho yozishni xohlamaydilar, chunki “ular qiyin”, eng asosiysi, “kelajakda ulardan naf yo‘q” degan aqidaga asoslanishadi. Bir qaraganda, oliy o‘quv yurtlariga kirish testlar asosida tashkil qilingan jamiyatda bu mantiqqa zid emasdek tuyuladi, biroq insho dunyo miqyosida muloqotning zamonaviy davrida o‘quvchilarning hayotda eng ko‘p talab etiladigan faoliyat turlaridan biri deb tan olinadi. Chunki sayt tuzish, chatlar yordamida tarmoqda muloqot qilish – bularning hammasi matnlarning mantiqiy va kompozitsion jihatdan tugallikka ega bo‘lgan mustaqil ravishda tuzilgan inshoning aynan o‘zidir.

Shuni esda tutish lozimki, har qanday xizmat qog‘ozi bo‘lgan hujjatlar: hisobot, ma’lumotnoma, tavsiyanoma, qayd – bularning hammasi inshoning o‘ziga xos bir turi sanaladi va kishining ish sohasidagi muvaffaqiyati uning shu sohadagi matnlarni yozish mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi aynan shu narsalarni o‘quvchilar ongiga to‘g‘ri etkaza olsa, ular original matnlarni savodxonlik va ishonch bilan yozish ko‘nikmasiyu malakasiga ega bo‘ladilar.

Prof. A. Zunnunov “Adabiyot o‘qitish metodikasi” kitobida yuqori sinflar o‘quvchilari inshosida uchraydigan tipik xatolar sifatida quyidagilarni sanaydi:

1. Insho temasining tub mohiyatini anglatuvchi masalalarga qaraganda ikkinchi darajali masalalarga ko‘proq ahamiyat qaratadilar.

2. Yozuvchining o‘ziga xos uslubini, badiiy mahoratini emas, balki asarlarini sanab o‘tib, mazmunini qisqacha bayon etadilar.

3. Qahramon obrazi analizida yozuvchi oldinga surgan asosiy g‘oya haqida fikr yuritmaydilar.

4. Asarni analiz qilishda, obrazlarga xarakteristika berishda mustaqil fikr bildirmaydilar.

5. Insho temasini tuzilgan reja asosida izchillikda yoritmaydilar<sup>93</sup>.

Bundan shunday fikr kelib chiqadiki, yozilajak insho mavzusining tub mohiyatini anglash, yozuvchi ilgari surgan g‘oya haqida fikr yuritish, timsollarga xarakteristika berishda muallifda mustaqil fikrning mavjudligi, fikr ifodalashdagi izchillik, asardagi mavzuga doir muhimni nomuhimdan farqlash bilan bog‘liq jihatlar o‘quvchi inshosini baholashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni, adabiy ta’limdagi insholarni baholashda inshoning tili, imlo

---

93 Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. –133-бет.

me'yorlari va ishora (punktatsion) xatolaridan ko'ra undagi mazmun, bildirilgan fikrning ahamiyatlilik darajasi, ijodkorlik, o'quvchi dadil aytgan munosabatlar va ularning dalillanishining birinchi planga chiqishi maqsadga muvofiqdir. Insho yozishda yo'l qo'yiladigan bu tipik xatolar boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida amalga oshiriladigan insholarga ham ma'lum darajada daxldor. Boshlang'ich sinflarning yuqori bosqichida o'quvchilar yozgan insholarga mana shu talablarning minimal me'yorida kelib chiqib yondashish mumkin.

Rossiya Federatsiyasi umumta'lim muassasalarida insho va bayonga hamon ikkita baho qo'yiladi: birinchisiga, ishning mazmuni va nutqning shakllanganligi (adabiy mahorati); ikkinchisiga orfografik, punktatsion va nutq normalari (grammatik savodxonligi)ga qanchalik amal qilangani asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham (maktablar o'n yillik tizimga o'tishi munosabati bilan) maktabni bitiruv imtihonlari yoki oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imtihonlarida yoziladigan insholarni tekshirishga abituriyentlarning ham ona tilidan, ham adabiyotdan bilimliligi, savodliligi darajasi, tafakkurining mustaqilligi, mavzuning yoritilishi singari bir qator talablar bilan yondashiladi. Yozilgan insholarga qo'yiladigan (ham ona tili, ham adabiyot bo'yicha) talablar umumlashtiriladi. Ya'ni xatolari ham, mazmuni ham inobatga olinadi va ikkita baho qo'yiladi.

Lekin umumiy o'rta ta'lim tizimining har bosqichida ona tili darslarida o'quvchilarning yozma savodxonligini o'stirish maqsadida tashkil etiladigan diktant, bayon va insholarni baholashda ularning darslarda o'rgangan grammatik bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi – orfografik, punktatsion va nutq normalariga qanchalik amal qilinganligi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarida bajarilgan didaktik topshiriqlar ko'magida savodxonlikka erishgan o'quvchi adabiyot darslarida, boshlang'ich sinflar o'qish darslarida yozilgan insholarida bu kabi xatoliklarga yo'l qo'ymaydi, ya'ni o'quvchi ona tili darslarida o'zlashtirgan bilimlariga tabiiy ravishda amal qiladi.

Shu ma'noda, adabiyot va o'qish darslarida tarbiyalanuvchilarning ma'naviy sog'lomligi, tafakkur mustaqilligi, fikr izchilligi va shaxsiy munosabatini shakllantirish maqsadida

tashkil etiladigan insholar tekshirilganda inshoga bitta baho qo'yiladi va bunda quyidagi jihatlar muhim omil hisoblanadi:

1. O'quvchi fikrining mustaqilligiga, o'ziga xosligiga, uning kompozitsion va nutqiy yaxlitligiga alohida e'tibor qaratiladi. Original qarashlarning mavjudligi va o'rinli misollar keltirilganligi bahoning oshirilishiga asos bo'ladi.

2. Agar inshoning hajmi yuqori sinflarda belgilangan me'yordan bir yoki ikki barobar ortiq bo'lsa ham, hajmning ko'pligi inshoni yuqori baholashga asos bo'lolmaydi.

3. Agar mavzu mazmunan ochilmagan bo'lsa, garchi boshqa jihatlardan ish juda yaxshi yozilgan bo'lsa ham, baho qoniqarli bo'lmaydi.

Bundan tashqari, adabiyot va o'qish darslarida tashkil etilgan insholarni tekshirish va baholashda quyidagilar ham inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir:

- 1) yozilgan ishning mavzuga mos kelish-kelmasligi;
- 2) epigrafning mavzuga va insho matniga mosligi;
- 3) reja bandlari orasida mantiqiy bog'lanish mavjudligi;
- 4) insho reja asosida yozilmagan bo'lsa, material qanchalik izchil bayon etilgani;
- 5) mavzuning yoritilishida mantiq borligi;
- 6) insho kompozitsiyasining butunligi;
- 7) inshoning qismlari hajm jihatidan to'g'ri shakllantirilgani;
- 8) insho matnida ko'chirmalar borligiga. Agar bor bo'lsa ularning o'rinli ishlatilgani;
- 9) dalillar keltirishda xatoliklarga yo'l qo'yilmagani;
- 10) fikr chalkashliklari yo'qligi;
- 11) inshoning mazmunan mavzu va asosiy fikrga qanchalik mosligi;
- 12) mavzuning ochilganligik darajasi;
- 13) dalillarning qo'llanilganligi va asosliligi;
- 14) fikr bayonining izchilligi;
- 15) xulosalarning asosliligi;
- 16) munosabatning mustaqilligi.

Insholarni tekshirish va baholashga qo'yilgan bu me'zonlar asosan yuqori sinf o'quvchilarining ishlariga daxldor. Lekin ularga



ijodiy yondashgan holda boshlang'ich sinflar o'quvchilarining insholarini baholash mumkin.

Ona tili darslarida o'quvchilarning savodxonligini oshirish maqsadida tashkil etiladigan insholar qancha ko'p yozdirilsa, adabiyot va o'qish darslarida uyushtiriladigan insholarda fikr izchilligi, uslub ravonligi, xulosalarning mustaqilligi va asosiligi, shaxsiy munosabatning mavjudligi, ishning o'qishligini ta'minlashda shuncha muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Bu kabi insholarni baholashda yuqorida sanalgan talablarning mavjudlik darajasidan kelib chiqib ish tutiladi. Ularning deyarli barchasi aks etgan ishlarga «5»; nisbatan kamroq talablar amalga oshirilgan ishlarga «4»; deyarli qamrab olinmagan insholarga esa «3» baho qo'yiladi. Lekin zinhor-bazinhor yomon baho qo'yilmaydi – baholash masalasi ochiq qoldiriladi.

Shunday qilib, insho yozish zamonaviy maktabning dolzarb muammolaridan biridir va bu ko'nikma o'quvchi kelajakda qaysi soha – xoh fan, xoh texnika yoki san'at bo'lsin, madaniyatli shaxs, ma'naviyati sog'lom mutaxassis sifatida shakllanishi garovidir.

### Adabiyot va o'qish darslarida tashkil etilgan insholarni tekshirish va baholashda quyidagi talablar maqsadga muvofiqdir:



### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

#### **“Susambil” ertagini o‘rganish**

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilarni “Susambil” ertagi matni bilan tanishtirishga birinchi darsning 21 – 22 daqiqasi sarflanadi. Qolgan ikkinchi soat to‘lig‘icha asarning tahliliga bag‘ishlanadi. Ertak matni ustida ishlaganda o‘qituvchi ertakdagi jonivorlar obrazining mohiyatini, Susambil adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurtning timsoli ekanligini, asarning tili, undagi ramzlar va badiiy ifoda xususiyatlarini ochishga e‘tibor qaratishi lozim bo‘ladi.

Asar bilan tanishtirishda ba‘zi o‘qituvchilar badiiy asar matnini navbat bilan o‘quvchilarga o‘qitadilar. Bu bilan o‘zlaricha sinfdagi hamma o‘quvchilarni mashg‘ulotga jalb etgandek bo‘ladilar. Asar matni bilan birinchi marta tanishayotgan o‘quvchi uning qaerini qanday o‘qishni, qaysi o‘rniga ko‘proq e‘tibor berishni bilmaydi, shu sabab bir xil ohangda o‘qiyveradi. Qolaversa, o‘quvchilarning o‘qish tezligi, saviyasi, ifoda usuli ham har xil. Notanish matnni sinfdagi o‘quvchilarga terma holda o‘qitish o‘rganilajak asarning badiiy tarovatini, ta’sir kuchini yo‘qqa chiqarib, o‘quvchilarning qiziqishini susaytirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘zlashtirilayotgan badiiy matnni maxsus tayyorgarlikdan so‘ng o‘zi o‘qib bergani metodik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

O‘qish jarayonida o‘quvchilardan o‘z darsliklaridan matnni kuzatib borishlari talab qilinishi lozim. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ko‘zlarini tez o‘qishga, quloqlarini uqib, ifodali o‘qishga o‘rgatadi. Mutolaa davomida o‘quvchilarning ruhiyatiga o‘rnashib qolishi lozim deb topilgan so‘z va iboralar, badiiy asarning tiliga xos bo‘lgan betakror jihatlarni belgilab borishni so‘rash maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchi asar matni bilan ishlaganda, mana shu belgilangan o‘rinlarga e‘tibor qaratadi. Belgilangan so‘z yoki ibora diqqat bilan o‘qib o‘tilsa, o‘quvchining shuurida chizgi qoldiradi. O‘z vaqtida nazarga tushgan bu chizgi ma’naviy kamolot uchun ahamiyatli bo‘lishi tabiiy.

Matn o‘qib bo‘lingach, ushbu asarni o‘rganishni taqqoslash metodi asosida tashkil etish mumkin. Bunda ertakdagi timsollar

taqqoslanadi. Avval o'quvchilarning diqqati eshakning taqdirini tubdan o'zgartirib yuborgan sababni aniqlashga qaratiladi: "Eslab ko'ringchi, eshakning taqdirini keskin o'zgartirib yuborgan narsa nima?" O'quvchilar eshak taqdirining tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan omillarni matndan izlay boshlaydilar. Eshakning hech qizg'anmay, o'z emishidan ho'kizga berishi taqdirining keskin o'zgarishiga sabab bo'lgani, shu ishi uchun egasi tomonidan jazolanishiga o'quvchilar munosabat bildirsinar. Bu jarayonda o'quvchilar ularning har ikkisi: inson va eshakka xos bo'lgan fe'l-atvorni taqqoslaydilar. Taqqoslash asnosida ikki timsol tabiatiga xos bo'lgan yaxshi va yomon sifatlar ochilib, ularga o'quvchilar tomonidan munosabat bildiriladi. "Eshakning shuncha qiyinchiliklarga qaramay ho'kizdan nolimaganini qanday tushuntirish mumkin? Bu uning xarakteridagi fazilatmi yoki kamchilikmi?" degan savol ham o'quvchilarning tafakkurini charxlaydi. Kimdir buni yutuq deb hisoblar, kimdir kamchilik deb biladi. Muhimi, har bir o'quvchi nega shunday deb o'ylaganini asoslashi kerak.

Fikrlar yakunidan so'ng taqqoslash ob'ekti safiga xo'roz ham qo'shiladi, ho'kiz, eshak, xo'rozning hayoti qiyoslanadi, ularga odamlarning munosabati haqida fikrlashiladi. So'ng o'quvchilarning diqqati hayvonlarning uydan qochishiga, odamlardan bezishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlashga qaratiladi. O'quvchilarning oldiga "Odamlarning hayvonlarga shunday munosabatda bo'lishiga asos bo'ladigan sabablarni toping. Nega odamlar shunday qilishadi?" tarzida masala qo'yilsa va bolalar bunga munosabat bildirsalar dars samarali bo'ladi.

"Eshak, xo'roz, ho'kiz-ku odamlarning o'zlariga adolatsiz munosabatidan bezib, Susambilni izlab yo'lga chiqishibdi. Kalamush va arilarni qochqinlar to'dasiga qo'shgan omil haqida fikr yuriting" topshirig'i o'quvchilarni matnga qayta murojaat qilishga majbur qiladi. Bu jarayonda yana taqqoslash ishlari amalga oshiriladi. Kalamushlar bilan arilarni Susambilga ketishga majbur qilgan asoslarni jiddiy izlagan o'quvchi matndan topadi. Chunki bu sabablar ertakda alohida ko'rsatilgan. Faqat bu sababni o'quvchi kitobdan o'qib bermay, o'z so'zlari bilan ifodalab berishiga erishish kerak bo'ladi. Shundan so'ng o'quvchilar hayvonlarning birlashishiga yana qanday sabablar borligini o'ylab ko'rsinar. Bu savolga matnda tayyor

javob yo‘q. O‘quvchilar mustaqil mulohaza yuritib, asar mazmunidan xulosa chiqarib o‘z fikrini aytishi kerak.

“Susambil yurti aslida bormi yoxud ahillik, bir-birini tushunishga, o‘rni kelsa, kechirishga, zarur bo‘lsa, yordam berishga tayyorlik tuyg‘usi har qanday joyni o‘shandoq baxtlar vodiysiga aylantiradimi?” degan masala o‘quvchilarning ruhiyatini muvozanatdan chiqarishi tabiiy. Ertakda ko‘tarilgan ahillik, samimiylik, o‘zaro oqibat, bir-birini tushunish, ayash, zarur bo‘lganda ko‘maklashish, kechirimli bo‘lish kabi insoniy sifatlar haqida gap ketganda, o‘qituvchi nasihatgo‘ylik qilmagani ma‘qul. Shunday sifatlarga ega bo‘lgan kishilargina Susambilday ozod va obod mamlakatda hayot kechirishga munosib ekanliklari haqidagi xulosani savolga javob berish asnosida o‘quvchilarning o‘zlari chiqarishlari kerak. Mana shu haqiqat har qanday ma‘ruza-yu nasihatlardan ko‘ra samaraliroq natija beradi.

Bundan tashqari, o‘qituvchi vaqtiga qarab o‘quvchilarini mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan: “Ertakda ayb qilganni kechirish, og‘ir kunda sabr-toqatli bo‘lishga undash singari fikrlar qaysi o‘rinlarda ko‘zga tashlanadi? Maqtanchoq bo‘rilarga xos jihatlarni ko‘rsating. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagi otaning bolalariga nasihatida aytilgan qaysi illat bilan bo‘rilarning kerilishlari o‘rtasida bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz? Aslida bo‘rilarga qaraganda ancha ojiz bo‘lgan jonivorlarning qudrati nimada ekanligini tushuntiring. “Azroil”, “go‘rkov”, “so‘fi”, “eshon” timsollarini taqqoslang. Har bir jonivorga tavsif bering va ularni ertakda tasvirlangan odamlar bilan solishtiring. Qay biri sizga ma‘qulroq? Nima uchun?” singari savol-topshiriqlarni o‘rtaga tashlashi o‘quvchilarning asar mohiyatini chuqurroq anglashlariga ko‘maklashadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarini insonga xos fazilat va illatlar ustida o‘ylab ko‘rishga yo‘naltirishi lozim. “Inson tabiatidagi qaysi f‘el-atvor va tuyg‘ularni fazilat deb, yaxshi sifatlar deb ataymiz-u qaysilarini kamchilik, illat, yomon sifatlar deb bilamiz? Nega bu sifatlarning biri yaxshi-yu ikkinchisi yomon? Buni bizga kim belgilab bergan? Bu sifatlarning qaysi birini egallaganimiz ma‘qul va buni kim baholaydi? Bu borada kattalarning jazolashi yoxud maqtashi kifoyami yoki fazilatli yoinki illatli bo‘lishning boshqa oqibatlari ham bormi?” singari savollarni alohida qog‘ozga yozib hammaga tarqatish, keyingi darsda shu haqda suhbatlashishlarini ma‘lum qilib uyda kattalar bilan

birgalikda o‘ylashib ko‘rishni tavsiya etish tmaqsadga muvofiq bo‘ladi. Shular haqida o‘ylab ko‘rgan, bu haqda ota-onasi, bobo-buvisi bilan maslahatlashgan bola loqaydlik illatidan yiroq bo‘ladi.

Ikkinchi darsning oxirida uy vazifasi sifatida o‘quvchilarga ertakning “Susambilga kelib ko‘p rohatlanib qolishibdi...” degan joyidan boshlab ikkinchi, uchinchi tugashini to‘qib kelishni ham topshirish mumkin. Bu o‘quvchilar uchun yoqimli mashg‘ulot bo‘libgina qolmay, ularning xayolparastlik, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarining o‘shishiga ham ko‘maklashadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Qo‘shimcha adabiyotlardan insholarning turlari haqida ma‘lumot to‘plang. Topildiqlaringiz bilan bir-biringizning materialingizni to‘ldiring.

2. Insho bilan ijod mahsuli (badiiy bitiklar) mustaqil ish sirasiga kiradi. Ularning bundan boshqa yana qanday o‘xshash jihatlari bor, nazaringizda?

3. Har ikki mustaqil ish turining farqli jihatlari nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?

4. Quyi sinflarning har biriga xos bo‘lgan insho turlari va ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini aniqlang. Bularning sabablarini ochishga urinib ko‘ring.

5. Nega aynan shu sinflarda insholarning aynan shunday shakli amalga oshirilishi lozimligini pedagogik va psixologik asoslarini topishga urinib ko‘ring.

6. Insholarga yomon baho qo‘yib bo‘lmasligi sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Qarashlaringizni asoslang.

7. “Susambil” ertagining tahliliga diqqat qiling. Tahlildagi yetakchi qarashlarni ajrating.

8. Ertak tahlilining boshqa variantlarini yaratishga urinib ko‘ring. Unda o‘z qarashlaringiz va o‘z falsafangizni aks ettiring.

9. “Onamga badiha” mavzusida esse yozing. Yaratig‘ingizni hamkurslaringiz bilan o‘rtoqlashing.

## 17-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarni asar qahramonlarini baholashga o'rgatish

### Reja:

1. Tanqidiy tafakkur tushunchasi.
2. O'quvchilarni adabiy asarlar qahramonini baholashga yo'naltirish.
3. Badiiy matn tahlili namunasi: "Oygul bilan Baxtiyor" ertagini o'rgatish yo'llari

**Tayanch so'zlar:** *tanqidiy hamda estetik tafakkur, badiiy his-tuyg'ular, badiiy asarni idrok etish, obrazli tafakkur, timsollar, ma'naviy tarbiyalash, o'qishga ijobiy munosabat uyg'otish, badiiy asar namunalari.*

Badiiy asar tahlili ustida ishlash jarayonida qahramonlarni baholash uchun o'quvchilarning tanqidiy tafakkuri ishga tushadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi ostida insonning mustaqil fikrlash tarzi yotadi va uning asosini turfa axborotlar tashkil etadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi zamirida qo'yilgan masalaga ishonchli dalillar yordamida mustaqil ravishda yondashuv nazarda tutiladi. Mazkur pedagogik hodisaning o'ziga xos jihati shundan iboratki, unda o'quvchilar ta'lim jarayonidagi faoliyatlarini o'zlari aniq, ob'ektiv maqsaddan kelib chiqqan holda mustaqil tarzda loyihalashtiradilar, xatti-harakati, fikrlari to'kislashib borishi asnosida rivojlanishlarining darajasini ham namoyish etadilar. Ayni zamonda zarur yakuniy natijaga ham muvaffaq bo'ladilar.

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatadigan darslar an'anaviy darslardan nisbatan farqlanadi. Bunday darslarda o'quvchilar o'qituvchining aytganlarini bajaradigan ob'ktlikdan dars jarayonida faol va mustaqil harakatlanuvchi sub'yektlarga aylanadilar. Ular oldilariga qo'yilgan murakkab masalalar, savollar, topshiriqlar ustida o'ylanadilar, izlanadilar, qayta-qayta badiiy matnga murojaat qiladilar, bir-birlari bilan fikr almashadilar, badiiy asar va undagi obrazlarni har xil rakurslarda tahlilga tortadilar. Bu jarayonda, o'z-o'zidan o'quvchida badiiy matnga nisbatan ijodiy munosabat shakllanadi. Chunki asarning mohiyatiga kirilgani sari u anglanadi, anglangani sari ruhiyatda ma'lum tuyg'ular paydo bo'ladi. Ruhiyatda qahramonlarga nisbatan muhabbat yoki nafrat, achinish yoxud

g'azablanish hissi, ularga ko'maklashish, dardlarini bo'lishish istagi paydo bo'ladi. O'quvchi ko'nglida badiiy matn muhokamasi asnosida paydo bo'lgan bunday tuyg'ular uni matnning mohiyatiga chuqurroq kirishga, oqibatlarining sabablarini yaxshiroq o'rganishga, qahramonning shaxsi, xatti-harakatlarini taftish qilishga undaydi. Shu asnoda badiiy asar qahramonlariga munosabat bildiriladi va baholanadi. Boshlang'ich adabiy ta'lim uchun asar yoki undagi timsollarga nima uchun shunday baho berilganligini asoslab berish o'ta muhimdir. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi kuzatuvchi, muvofiqlashtiruvchi, yo'naltiruvchi va umumlashtiruvchi mavqeni egallaydi.

O'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o'rgatuvchi o'qish darslarining turli tiplari va ko'rinishlari mavjud. Darsning alohida usullari maktab amaliyotida namoyon bo'ladi. Bunday darslar o'qituvchilarning amaliy faoliyatida alohida o'rin egallaydi. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tasniflashga o'rgatadigan darslar o'z maqsadiga ko'ra o'quvchilarning tanqidiy hamda estetik tafakkurlari, badiiy his-tuyg'ulari, badiiy asarni idrok etish ko'nikmalari, obrazli tafakkurini o'stirish, ular ongini timsollar yordamida boyitish, axloqiy, estetik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy tarbiyalash, o'qishga ijobiy munosabat uyg'otish, badiiy asar va san'at namunalari bilan muntazam muloqot qilishga ehtiyoj hosil qilish, badiiy asarlarni mustaqil tahlil qilish, ularni baholay olish, qiziqarli badiiy asarlarni mustaqil izlab topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiiy asarlarning qahramonlarini munosib baholashda muayyan nazariy bilimlarga ham ehtiyoj seziladi. Bu boshlang'ich adabiy ta'limning yuqori bosqichida, to'rtinchi sinflarning ham kuchlilarida yoki maxsus gumanitar yo'nalishdagi xususiy sinflarda amalga oshiriladi. Chunki bunday faoliyatga kirishgan o'quvchi ilmiy mantiqqa tayangan holda ish olib borishi taqozo etiladi. Badiiy asar qahramonlari shaxsini baholashda o'quvchilarning psixologik, pedagogik, mantiqiy, falsafiy bilimlari integrasiyalashadi va berilgan bahoning har jihatdan munosib va asosli bo'lishiga imkon yaratiladi.

“O'qish kitobi” darsliklaridan o'rin olgan badiiy matnlardagi timsollar shaxsi bilan bog'liq ma'lumotlar o'quvchga u yoki bu darajada asar qahramonini baholashga yordam beradi. Bunday

darslarda o'qituvchining muallif shaxsi, turmush tarzi, asarning yaratilish tarixi, tarixiy shaxs hayoti bilan bog'liq darsliklarga kiritilmagan axborotlari katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar asarlarning mualliflari shaxsi haqida qancha ko'p ma'lumotga ega bo'lsalar, uning shaxsi bilan qanchalik yaqindan tanishsalar u yaratgan obrazlarni ham imkon qadar mukammalroq his qiladilar. Muallifning insonni anglash yo'lidagi izlanishlari, kashfiyotlarini yozgan asarlari zamiridan qidirish ertangi o'qituvchi shaxsini to'kislik sari etaklaydi. O'zida shunday sifatlarni shakllantirib ulgurgan bugungi talaba ertangi amaliyotida darsdan darsga o'quvchilarini ham adabiy qahramonlarni munosib baholashga o'rgatib boradi.

Masalan, mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor: *“Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo'lsa, men halollik bilan jasoratni birinchi modda qilib qo'yar erdim, chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli ekaniga bog'liqdir”*<sup>94</sup>, - degan ekan. Ulug' yozuvchining shu bahosiga shaxsiyati va ijodi bilan to'g'ri keladigan adibga nisbatan o'quvchida hurmat hissi paydo bo'ladi. Shu tuyg'u asari o'rganilayotgan yozuvchining qahramonlarini baholashda o'quvchiga qo'l kelishi mumkin.

Taniqli adabiyotshunos olim Q. Yo'ldoshevning Ch. Aytmatov qalamiga mansub «Asrga tatigulik kun» romani haqidagi quyidagicha fikrlari: *«...yozuvchining shaxsiyatidagi asl tuyg'ular manqurt Jo'lomon fojiasini, uning turli davrlardagi qiyofadoshlari bo'lmish: revizor, mayor Tansiqboev, leytenant Tansiqboev, Sobitjon singari kimsalarning ma'naviy-ruhiy qashshoqligi hamda bu ma'naviy g'ariblikning buzg'unchi qudratini butun ko'lami bilan ko'rsatish imkonini beradi. Asarda bir qator timsollar tasviri orqali kechagi kuniga bog'lanmagan odam ertangi kunini o'ylay olmasligi, u faqat buguni bilangina yashashga mahkum ekani ko'rsatilgan. O'tmish va kelajakdan uzilganlik, ya'ni ma'naviy tomirlarning qirqilishi odamni yovuzliklardan tutib turuvchi axloqiy to'siqning yo'qotilganini bildiradi. Bunday kimsada o'z manfaatidan yuksak qadriyat, muqaddas tushuncha bo'lmaydi.*

*Zamonaviy manqurt Sobitjon o'z milliy tomiridan uzilgani, o'ziga*

---

94Абдулла Қаҳҳор. Адабиёт атомдан кучли. –Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 83-бет.



yot qadriyatlarini esa o'zlashtirolmagani uchun ham bu ochunda omonat yashaydi, u kechagi kunni bilmagani va qadrlamaganidek, ertangi kuni haqida ham o'ylashga qodir emas. Faqat bugunidan iboratligi uchun ham u, Edilboy daroz aytmoqchi, "...o'zi o'ziniki bo'lmay qol"gan kimsaga aylangan.

...Oldin eri, so'ng o'g'lidan ham ajralgan bo'lsada, odamiyligi, g'ururi, azaliy udumlarga hurmatini saqlab qola bilgan Nayman onaning shaxsiyatidagi butunlik asarda ishonarli ko'rsatilgan. Romanda onaning ruhiy holatidagi ichki dinamikaning evolyusion bosqichlari ulkan mahorat bilan tasvirlanadi. Chunonchi, afsona boshlarida ona tuyg'ulari "Sayyoh savdogarlar ...Sario'zakda uchragan yosh manqurt haqida gap ochib Nayman onaning o'rtangan yuragini battar o'rtab, yarasiga tuz sepishganini ...payqashmagan edi. Ona qandaydir falokatni sezib, yuragi orqasiga tortib ketdi. O'sha manqurt mening o'g'lim bo'lib chiqsaya, degan hadik borgan sari kuchayib, uning aqlu hushini, bugun vujudini tobora chuqurroq, tobora kuchliroq chirmab ola boshladi. O'sha manqurti izlab topib, o'z ko'zi bilan ko'rib, uning ...o'g'li emasligiga ishonch hosil qilmaguncha ko'ngli tinchimasligiga ko'zi etgan edi" tarzida berilgan. Ushbu ifodalardagi nozik nuqtalar e'tibordan qochirilmasa, onaning yuragini o'rtagan alamlar miqyosi ilg'ab olinadi. Bu tasvirda odam ruhiyati, sezimlari g'oyat o'zgaruvchan ekani aks etgan. Unda o'g'lining yo qahramonlarcha halok bo'lgani, yoki yov o'qidan o'lib, o'ligi dalada qolgani, yoxud manqurt holiga tushirilgan bo'lishi mumkinligiday uch ehtimolning birortasini ham o'yiga keltirishdan qo'rqayotgan, ayni vaqtda bor haqiqatni bilmaguncha tinchiy olmaydigan sho'rlik ona holati tengsiz mahorat bilan aks ettirilgan"<sup>95</sup>, - talabalarning asar qahramonlarini baholashda o'z fikrlarining shakllanishiga ko'maklashadi.

Taniqli yozuvchi Sayim Ishoqning «Ko'klam adog'ida kuz» romanining bosh qahramoni Sarimcoq polvon shaxsi bilan bog'liq quyidagi fikrlar talabalarning asar qahramoniga munosabati shakllanishiga ma'lum darajada ko'maklashishi mumkin: «Sarimsoq polvon diniy ilmdan ham yaxshigina xabardor shaxs. U o'n ikki yoshidan boshlab namoz o'qigan, gurkirab ko'pkari chopib yurgan

---

95. Йўлдошев Қ. Чингиз Айтматов ижодида манқуртлик рухий-эстетик тушунча сифатида. // «Шарқ юлдузи» 2015 йил 6-сон. 42-бет.

davrlarida ham, qamoqlarda sarson-sargardon, xor bo'lib yurgan damlarida ham e'tiqodiga dog' tushurmagan, o'zining haq taolo oldidagi farziga hiyonat qilmagan. Butun umri davomida ta'qiqlangan ishlarning biron-tasiga qo'l urmabdi. Tarbiyasiga, ruhiyatiga o'rnashib ketgan intizomiga qarshi bormagan. Hatto o'zi istamagani holda jon-dili bilan sevib qolgani Urqiyaga munosabatda ham tuyg'ularini e'tiqodidan baland qo'ymaslikka bor kuchi bilan harakat qildi. Balki shu sabab hayot mashaqqatlarini qoqinmay-so'qinmay engib o'tib piri badavlat yoshga etgandir, farzandlari kamolini ko'rish nasib etgandir»<sup>96</sup>.

Yoki Alisher Navoiy asarlarini o'rganishda uning "Mahbub ul-qulub"da yozgan: "...kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan, ...zamonning rang singari guno-gunligidan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bila... yurdim. ...turli yo'llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim; katta-kichikning suhbatida bo'ldim; goh xorlik va qiyinchiliklar vayronasida nola qildim; goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qildim. ...ba'zan ilm-fan madrasalarida quyi saflardan joy oldim va olimlar majlisida ilm nuridan ko'nglimni yoritdim; goh pastkash va baxil kishilar qo'lida xo'rlandim va razil-nokaslar oldida e'tiborsiz bo'ldim. ...goho axiylar xizmatidan va ular suhbatidan bahramand bo'ldim hamda o'z so'zimni ularga yoqimli topdim. ...har yo'lda yurdim; olamda bo'lmish har nav odam bilan ko'rishdim; yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o'tkazdim; yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrini totib ko'rdim. Baxil va pastkashlarning zaxmini, saxovatli kishilarning malhamini ko'nglim darhol sezadigan bo'lib qoldi... Shu jihatdan hamsuhbatlarni va do'st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko'rindiki, toki ular ham har toifaning xislati haqida bilimlari va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lg'ay. Ular ham munosib kishilarning xizmatig'a bel bog'lab, nomunosib odamlar suhbatidan, azob-uqubatlaridan o'zini tortish lozimigini bilgaylar va maxfiy sirlarini har kimga so'zlamagaylar, shayton sifat odamlarning hiylanayranglariga aldanib qolmagaylar...

---

96. Хусанбоева Қ. Ёзкечувлик йўлбарс. // "Шарқ юлдузи" журналі, 2016 йил 10-сон. 162-бет.

*Umid shulki, bu asarga o‘quvchilar diqqat-e’tibor bilan nazar solib, har qaysilari o‘z fahmi-idroklariga yarasha dillarini obod va yozuvchi ruhini ham duo bila shod etgaylar*”<sup>97</sup>, - singari fikrlari ham talabalarning adib va uning asarlari qahramonlari borasidagi o‘z qarashlarining shakllanishida qo‘l kelishi mumkin. Talabalar buyuk shoirning bu e’tirofi, o‘z hayotidan chiqargan saboqlari ekanini tushunsalar, ular Navoiy timsolida bundan besh asr avval yashab o‘tgan tarixiy shaxsnining o‘z ota-bobolari singari bir inson bo‘lganini his qiladilar. Asarlaridagi qahramonlari shaxsidan uni qidiradilar, o‘xshash jihatlari topilganda ruhiyatlari ko‘tariladi. Bu, o‘z navbatida talabalarning ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan bir qatorda, badiiy asarlarga ishlangan illyustrasiyalar, ularning mazmuni asosida suratga olingan kinofilmlar, mutaxassislar tomonidan yozilgan maqolalar ham talabalarning asar qahramonlarini munosib baholashlariga ma’lum darajada ko‘maklashadi. Kitobxonda asar qahramonlariga ishlangan suratlarni “o‘qish” ko‘nikmasining shakllanganligi ham timsollarni baholashda qo‘l keladi. Kinofilmlarda yaratilgan obrazlar ham, mutaxassislarning timsollarga bergan baholari ham talabada o‘zgalarni munosib baholay bilish ko‘nikmasini shakllantirib boradi.

Boshlang‘ich adabiy ta’limda kichik o‘quvchilarni adabiy asarlar qahramonini baholashga yo‘naltirishni X. To‘xtaboevning 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligiga kiritilgan “Xatosini tushungan bola” hikoyasi misolida quyidagicha ko‘rish mumkin<sup>98</sup>. Har doimgidek, o‘qituvchining asosiy ish turi matn mazmuni asosida savol va topshiriqlar tuzishdan iborat. Faqat bu safar butun diqqat-e’tibor shaxsga – asar qahramonlari tabiatini aniqlash, undagi ijobiy yoki salbiy sifatlarni farqlash va ularni baholashga qaratiladi. Darslikda hikoya mazmuni yuzasidan: “*Qosimjonning manmanlikka berilishi sababini izohlang. O‘qituvchi unga nima uchun tanbeh berdi? Qosimjinni manmanligi uchun o‘rtoqlari qanday jazolashdi? Hikoyaning «Xatosini tushungan bola» deb nomlanishini izohlang*” tarzidagi to‘rtta savol va topshiriq taqdim etilgan. Lekin ular bilan

---

97. Алишер Навоий. Маҳбубул-қулуб. –Т.: “Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1983. 13–14-б.

98. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sin uchun darslik. /S. Matchonov va bq. – Т.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. 113–117-b.

ishlaganda asar qahramonlarini to'liq anglash, ularni munosib baholash mumkin emas.

Shuning uchun o'qituvchi belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda mazkur hikoya qahramonlarini anglashga yo'naltiradigan savol va topshiriqlarni o'zi quyidagi yo'nalishda tuzishi talab qilinadi:

1. Qosimjonning kayfiyatiga xos bo'lgan sifatlarni toping. Hikoyada tasvirlangan tabiat go'zalliklari tasvirini matndan topib qayta o'qing. Har ikki holatni taqqoslang. Tabiatdagi go'zallik bilan Qosimjon tabiatidagi tushkunlik bir-biriga mos tushadimi? Nega?

2. Barcha sinfdoshlari bilan arazlashib qolish yaxshimi yomonmi? Nima uchun?

3. Qosimjonning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'ring: she'ringiz respublika miqyosidagi gazetada bosilib chiqadigan bo'lsa, o'zingizni qanday tutgan bo'lardingiz? Shoshilmasdan o'ylab ko'rib javob bering.

4. Devoriy gazetaga she'r so'ragan Muhabbat bilan Qosimjon orasidagi suhbatni qayta o'qing. Nima deb o'ylaysiz, Qosimjonning rostdan ham devoriy gazetaga she'r yozib berishga vaqti yo'qmi? Yoki bu erda boshqa gap bormi? O'ylab ko'rib javob bering.

5. Qosimjonni zo'r shoir deb bilasizmi? Nega? Nima deb o'ylaysiz, u nega devoriy gazetaga she'r yozib bermadi?

6. Qosimjonning barcha darslarda she'r mashq qilib o'tirishi to'g'rimi yoki noto'g'rimi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.

7. Tarix o'qituvchisining: *“Sen manman bo'lib ketyapsan”* degan gapi maqtovmi yoki tanqidmi? Buni qanday angladingiz? Manmanlik, Sizingcha, fazilatmi yoki illatmi? Odamga xos bo'lgan bu sifat qanday vaziyatlarda namoyon bo'ladi?

8. Qosimjonning devoriy gazetada bosilib chiqqan surati tasvirini qayta o'qing. Uni tahlilga torting. “Yosh shoir”ning yuzi, bo'yni, burni tasviri, Sizingcha, nimadan dalolat beradi?

9. Suratini ko'rgan Qosimjonning achchiqlangani, ancha mahalgacha tili so'zga kelmay duduqlanib qolganligi sabablari haqida o'ylab ko'ring. Uning o'rnida Siz bo'lsangiz nima qilardingiz? Shoshmasdan, yaxshilab o'ylab ko'rib javob bering.

10. Qosimjonning Muhabbatni urmoqchi bo'lganiga qanday qaraysiz? Qosimjonning o'rnida bo'lsangiz, Siz nima qilgan bo'lardingiz?

11. O‘ylab ko‘ringchi, Muhabbat Qosimjonning karikaturasini chizib to‘g‘ri ish qildimi? Har qanday holatda ham qarashlaringizni asoslab bering.

12. Sinf majlisidan qochib qolgan Qosimjonga: *“Albatta, sen qayoqda-yu, ular qayoqda”* deya dalda bergan Tohirga baho bering. Tohirga baho berishda hikoyadagi: *“Tohir do‘stining ortidan soyadek ergashib borarkan, eng og‘ir paytda uni yolg‘izlatib qo‘ymaganidan mamnun edi”* degan fikrga ham diqqat qiling. Sizningcha, u qanday bola? Fikringizni asoslang.

13. Qosimjonning sinf majlisidan qochib qolishiga o‘z munosabatingizni bildiring. U qochmay majlisda qatnashganda nimalar bo‘lishi mumkinligini tasavvur qiling. Vaziyatga munosabat bildiring.

14. Qosimjonning: *“butun sinfni, o‘rtoqlarini, undan keyin o‘qituvchisini ham aldab, ularning yuziga oyoq bosganiga yuragining allaqaeri achishib turgan bo‘lsa-da: «Barcha shoirlar ham qiyinchilik bilan shoir bo‘lishgan. Men ham hozir qiynalyapman. Keyinchalik hammasi ham uyalib qoladi»* deya o‘zini ovutganiga diqqat qiling. Uning yuragi achishib turishi nimadan dalolat beradi, Siznincha? Uning o‘zini oqlab aytgan gaplari to‘g‘rilikmi yoki yuragining achishib turganimi? Xulosangizni asoslang.

15. Qosimjonning o‘qituvchisi tanbeh berganda: *“boshini quyi solgancha jim turishi”*, *“ko‘zlarida yiltirab yosh tomchilari ko‘ringani”*, lekin o‘rtoqlaridan kechirim so‘ramaganini, Sizningcha, qanday tushunish mumkin? Mazkur holatdan kelib chiqib Qosimjonning xarakterini aniqlang.

16. Sinfdagi Tohirdan boshqa barcha bolalarning Qosimjon bilan gaplashmay qo‘yganiga qanday qaraysiz? Shunday vaziyatda siz kim tarafda bo‘lardingiz? Nima uchun?

17. Muhabbatning Qosimjon bilan Tohirni tug‘ilgan kuniga taklif qilmaganiga o‘z munosabatingizni bildiring. Fikringizni asoslang.

18. Tohirning *“aytilmagan joyga bor”*ish haqidagi andishasiga munosabat bildiring. Uning andishasida mantiq bormi yo‘qmi? Fikringizni asoslang.

19. Sinf rahbarining: *“...xatosini tushunib, kechirim so‘ragan kishini hamma hurmat qiladi”* degan gapidan Qosimjonning chiqargan xulosasi to‘g‘rimi? Siz Qosimjoni hurmat qilyapsizmi yoki unga

achinyapsizmi yohud uni yomon ko'ryapsizmi? Munosabatingizni asoslang.

20. Hikoya qahramonlarining barchasiga xos bo'lgan fazilatlar va illatlarni aniqlang. Barchasini ajratib daftaringizga yozing.

21. Hikoyadagi qaysi obraz, Sizningcha, eng yaxshi bola timsoli? Nama uchun shunday xulosaga kelganingizni asoslab bering.

Shu savollarga javob berish, topshiriqlarni bajarish asnosida boshlang'ich sinf o'quvchilari odamlarga xos bo'lgan yaxshi va yomon sifatlar hamisha uning faoliyatida nazarga tashlanib turishini, faqat xatti-harakatlarni mana shunday muhokama qilgan odamgina ularni ko'ra bilishini, atrofdagilar ham shunga qarab ularga munosabatda bo'lishini ilg'aydilar. O'quvchilar adabiy qahramonlarni baholash asnosida atrofidagi odamlarni anglaydilar va ularni baholaydilar, ayni zamonda, o'zlarini ham kashf etib, tarbiyalab boradilar.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

“Oygul bilan Baxtiyor” ertagini o'rgatish yo'llari

Umumta'lim maktablari adabiy ta'limida Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonini o'rganish ham o'quvillarda har xil janrdagi badiiy matnlar ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

O'qituvchi adabiy ta'limni, u o'qitishning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish, ularni o'z qarashlariga ega bo'lgan, ma'naviy komillik sari yuz tutgan insonlar qilib tarbiyalash maqsadiga erishishiga yo'naltirishga xizmat ko'rsatadigan mas'ul shaxsdir. Shunday maqsad yo'lida ish boshlagan muallim avval «Oygul bilan Baxtiyor» ertagining to'liq matni bilan o'quvchilarini tanishtiradi, shundan so'ng o'quvchilar bilan birgalikda asar tahliliga kirishadi. O'qituvchi bu ikki darsni bir kunga ko'chirib, ketma-ket tashkil etishga erishsa, yanada maqsadga muvofiqroq bo'ladi.

Mazkur ertakning o'z o'qilish ohangi bor. Asarning o'qilish ohangi va ifodaliligi darsning yarim muvaffaqiyati sanaladi. O'qituvchi ifodali o'qishining o'zi bilan o'quvchilar ko'nglini bezovta qilib, ularning e'tiborini o'ziga qaratib olishi mumkin. Butun diqqat-e'tibori matnga qaratilgan o'quvchi boshqa narsalarga chalg'amaydi. U bor vujudi bilan yoqimli ohangda o'qilayotgan ertakni tinglaydi.

O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda o‘z darsliklaridan ertak matnini o‘qib borsalar, yana ham yaxshi bo‘ladi. Bunda ular quloqlari ko‘magida asarning o‘qilish ohangini, ko‘zlari orqali esa tez o‘qish mashqini oladilar.

Ayni zamonda, o‘qituvchi o‘qish davomida ertak qahramonlarining ruhiyati, fe‘l-atvori ifodalangan, ularning tabiati tasvirlangan lavhalarni, shoirning so‘zni o‘ynatib yuborgan o‘rinlarini o‘quvchilarga belgilatib borishi ham mumkin. Bu bilan asar matni ustida ish boshlanganda, avvalo, e‘tibor qaratilgan o‘rinlarni matndan qidirishga sarflanadigan vaqtdan yutiladi, qolaversa, ajratib qo‘yilgan so‘z, insonlarga xos bo‘lgan baland sifatlar, chinakam fazilatlar o‘quvchining diqqat markazida turadi, u ruhan munosabat bildirishga tayyorlana boradi. O‘quvchilar tomonidan e‘tibor qilingan, munosabat bildirilgan sifatlar ularning shaxsiyatida albatta iz qoldiradi.

Doston o‘qib chiqilganidan so‘ng matn ustidagi ish “Shoir ertakning birinchi bo‘limini bolalik xotiralariga bag‘ishlagani sababi nimada bo‘lishi mumkin? Asardagi: *“Buvimning har qissasi, Har bir qilgan hissasi Fikrimni tortar edi, Havasim ortar edi”* misralarida ko‘zda tutilgan mazmun haqida o‘ylab ko‘ring. Bo‘lajak shoirga buvisining qaysi ishlari bu qadar kuchli ta’sir ko‘rsatganini ayting. Ertakdagi:

*Tinglar edim betinim  
Uzun tunlar yotib jim.  
Seza olardim kuchin,  
Ko‘pi - yolg‘on, ko‘pi – chin*

satrlariga e‘tibor bering. Gap nima haqda ketayotganligini anglating va shoirning shunday deyotganligi sababini tushuntiring” kabi savol-topshiriqlarni o‘rtaga tashlashdan boshlanadi. Mazkur savol-topshiriqlar ustida ishlanayotganda asarning birinchi bandini qayta o‘qib berish ham mumkin.

“Oygul bilan Baxtiyor” – adabiy ertak. Uning birinchi bandidagi tasvirlar esa ertak haqidagi hikoya. Lekin ular, ayni vaqtda, asl haqiqat ifodalari ham. Unda tirik inson va uning bolalik tuyg‘ulari, hayotidagi eng go‘zal davr aks etgan. Shoirning dostonida ifodalangan holati ertakni tinglayotgan bolaning hozirgi kayfiyati bilan deyarli hamohang. Asarda aytilayotgan ertaklarning deyarli barchasi

o‘quvchilarga ham tanish. Shuning uchun ertakning bu bandi ko‘p o‘qilmasdanoq, o‘quvchilarning xotirasiga mixlanib qolishi aniq.

Bo‘lajak shoirga buvisining aytgan ertaklari va ulardan chiqarib olgan hissalarini qanday ta’sir qilgani, eshitganlarida fikrini tortgan, havasini orttirgan narsalar uning taqdirida qanday rol o‘ynaganini savol tariqasida o‘quvchilarga eslatib o‘tgan ma’qul. Buvisining ertaklarini tinglayotgan yosh shoir ularning “ko‘pi – yolg‘on, ko‘pi chin” ekanini biladi. Mana shu yolg‘onu chinlarning ta’sir kuchi qanchalar baland ekanini ham his qiladi. So‘zni his qilish, undan ta’sirlanish inson taqdiri uchun qanchalik ahamiyatli ekani o‘qituvchi tomonidan aytilgan ikki og‘iz gap orqali o‘quvchilarning “qulog‘iga tushib qolgani” foydadan holi bo‘lmaydi.

Ba’zi savollar mazmunini o‘quvchi to‘la anglamay qolishi mumkin. Shunda o‘qituvchi ularni soddalashtirgani ma’qul. Toki, savol yoki topshiriqda ko‘tarilgan muammo o‘quvchiga etib borsin. Savolga javob berish, topshiriqni bajarish uchun o‘quvchi matnning qaeriga qarashi, nimalarni eslashi lozimligini tasavvur qila olsin. Shunda uning javoblari asosli, salmoqli bo‘ladi. Fikri qat’iylashadi. Bunda bolaning matni o‘qituvchisi bilan birga ichdan o‘qib borgani, ustozi ta’kidlagan joylariga belgi qo‘yib borgani qo‘l keladi.

O‘qituvchi ertakdan “*Bosh ko‘tardik, zulmdan Bo‘lmoqchi edik ozod. Lekin bu gal bo‘lmadi, Ammo tilak o‘lmadi*” misralarini o‘qib beradi va “Darxonning iqrori zamirida qanday ma’noni angladingiz? Darxon o‘ldi-ku, tilakning o‘lmagani nimani anglatadi?” savolini o‘rtaga tashlaydi. Qul Darxonning xon bilan to‘qnashuvi sahnasi, uning xonga munosabati sabablarini o‘quvchilar matnga tayangan holda o‘zlari tahlil qilganlari ma’qul. Shunda ular qo‘zg‘olonchilarning tilagi – zulmdan ozod bo‘lish ekanini, zulm, xorlik, qashshoqlik bir kun shunday yakunlanishi aniqligini o‘zlari anglab etadilar.

“*Xon qovog‘ini uydi, Bulutlar yomg‘ir quydi*” tasviri zamiridagi badiiy ma’noni topishga yo‘naltirilgan o‘quvchilar matnning shu o‘rniga murojaat qiladilar. Xonning qovog‘ini uyishi bilan osmonning yomg‘irli holati o‘rtasidagi o‘xshashlikni ularning biri bo‘lmasa biri topadi. O‘qituvchi bu holat shoirning mahorati ekanini bildirib qo‘ygani ma’qul.



Ozodlik sari Darxondek mard, dovyurak odamlar yo‘l boshlaydilar. Shunday odamning farzandi bo‘lmish Oygulning taqdirga tan berib, xon saroyida yashab qolishi mumkinmidi? Dovyurak kishilarning do‘stlari ham ko‘p bo‘ladi. “Qora kun”da, g‘amda insonlar bir-birlariga juda tez yaqinlashadilar, g‘am kishilarni birlashtiradi. O‘quvchilar ertakdagi:

*Qaldirg‘och qoshlaridan*

*To‘yib qarashlaridan*

*Hayot sochilar edi,*

*Gullar ochilar edi*

tarzidagi misralar kim haqda ekanini va nima uchun shunday ifodalanganligini o‘ylab ko‘ring” topshirig‘ini bajarish uchun matndan shu o‘rinni topgan o‘quvchilar uning Oygul haqida ekanini darrov anglaydilar. Uning shunday qarashi, bu qarashlardan “hayot sochilishi, gullar ochilishi” sababini ham o‘zlaricha topishga urinsinlar. O‘quvchilar bu bilan o‘z ma’naviy kamolotlarini tezlashtirishda ishtirok etadilar.

Susambilga ketmoqchi bo‘lgan jambilliklarga “Oygul nazar tashladi, Shunday bir so‘z boshladi:

*“Zolim xon quchdi o‘lim,*

*Endi sizga yo‘q zulm.*

*El, osoyish yasharsiz,*

*Va bekoyish yasharsiz.*

*Susambilni qo‘yinglar,*

*Va Jambilni suyinglar.*

*Siznikidir tuprog‘i,*

*Sizniki toshu tog‘i.*

*Xon bo‘lmasa Jambilda,*

*Qayg‘u ham bo‘lmas dilda.*

*Mana bu ota Tarlon*

*Hammangizga bosh bo‘lur.*

*Sizlar uchun berur jon,*

*Har erda yo‘ldosh bo‘lur”.*

Bu gaplari bilan Oygul vatandoshlariga yurt, uning tuprog‘i, toshigacha azizligi, o‘zgalarning Susambilidan o‘zlarining Jambili yuqori turishini ta’kidlaydi. Bu hayotiy haqiqatni o‘quvchilar ham anglashlari maqsadga muvofiqdir. Chunki asl farzand kambag‘al

yurtni tashlab qochmaydi, balki qo‘lidan kelganicha uni farovon qilishga intiladi.

O‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan: “Siz o‘qigan “Susambil” ertagi bilan “Oygul bilan Baxtiyor” doston-ertakdagi Susambil yurti orasida yaqinlik bormi?” savoli o‘quvchilarni o‘tgan darslarda olgan bilimlarini faollashtirishga xizmat qiladi. Bu o‘z navbatida ularni ta’limning taqqoslash, qiyoslash metodlarida ishlashga o‘rgatadi.

Asarlar matni mazmuni yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlarning har birida matn mohiyatidagi o‘quvchi diqqatini tortishi, uning ko‘ngliga o‘rnashib qolishi kerak bo‘lgan lavhalar, fikrlar bo‘lishi zarur. Asarning badiiy jihatidan go‘zal chiqqan o‘rinlari savol-topshiriqlarda, albatta, o‘z aksini topishi, ularning har biriga badiiy, axloqiy, ijtimoiy, ma’naviy yuk qo‘yilishi, ularning har biri o‘quvchini asar matnini shunchaki takrorlashga emas, bulki u haqda o‘ylash, mulohaza yuritish va tasavvur qilishga yo‘naltiradigan tarzda bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi, ertak matni ustida ishni davom ettirib o‘quvchilariga quyidagi savol-topshiriqlar bilan murojaat qilishi mumkin: “O‘ylab ko‘ringlarchi, ertakdagi: “*Qora kunda qul Tarlon Qizga qayg‘udosh keldi, G‘amiga yo‘ldosh keldi*” satrlarida “qora kun” birikmasi nimani ifodalayapti?”; “O‘tinchi chol: “*hovliqib, bo‘lib xushhol Qaqqayib turib qoldi*”. Nega shunday ekanini tushuntiring”; “*U yo‘q edi o‘zida, Bir sandiq suv yuzida Lopillab kelar edi, To‘lqinda elar edi. Olmayin ikki ko‘zin Echina solib darhol, Sandiq ketidan o‘zin Daryoga tashladi chol*” tasviriga tayanib cholning qanday odam ekanligi haqida fikr ayting”; “*Oxirida qiz turib, Erga qadar bukilib, Ularga ta‘zim qildi, Cholga qarab egildi*” misralarida xonlarga bo‘yin egmagan qizning podachiga ehtirom ko‘rsatishini qanday tushundingiz?”; “Oygulning tabiatini anglashga yordam beradigan quyidagi satrlar: “*Ikki katta halqalik Gavhar topuvdi unda. Qadrini bilgan edi, Ehtiyot qilgan edi*” misralarida nima haqida gap ketayotir deb o‘ylaysiz? Oygul ulardan qanday foydalandi? Bu, sizningcha, nimadan dalolat beradi?”; “Eslashga urinib ko‘ringchi, Susambil mamlakati, uning o‘ta obodligi haqida yana qaysi ertakda o‘qigansiz? Susambil degan mamlakat borligiga ishonasizmi yoki har qanday ozod va obod yurti Susambil deb atasharmikin?”; “Oygul bilan Baxtiyorning tabiatiga xos

xususiyatlarni sanang va o'xshash tomonlarini ko'rsating". Bu savol va topshiriqlar o'quvchilarga ertak mazmunini chuqurroq anglash imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, badiiy asarlar mohiyatiga shu tariqa kirib borgan o'quvchilar keyinchalik badiiy asarlarni shunchaki o'qimaydigan, unda tagma'no izlaydigan bo'lishadi.

Alohida ta'kidlash joizki, berilgan savol-topshiriqlarga sinfdagi hamma o'quvchilarning bir xil javob berishlari shart emas. Ma'lumki, har bir o'quvchi o'z imkoniyati darajasida bilim o'zlashtiradi. O'quvchidan imkoniyatidan ortiqcha narsani talab qilish uni ta'lim olishdan bezdirib qo'yadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Yuqorida mutaxassislar tomonidan asar qahramonlari shaxsiga berilgan tavsiflarga diqqat qiling. Ularga o'z munosabatingizni bildiring.

2. Istalgan badiiy asarning qahramonlariga o'zingiz tavsifnoma yozing. Qahramonlar tabiatidagi hislatlarni munosib baholashga urinib ko'ring.

3. Badiiy asarlardan biridagi ikki qarama-qarshi tmsolni bir-biri bilan taqqoslab qiyosiy xarakteritika yozing. Ular tabiatiga xos bo'lgan ijobiy va salbiy hislatlarning sabablari va manbalari haqida xolis mulohaza yuriting.

4. Badiiy asarlarning qahramonlarini baholashda ularga qanday yondashgan ma'qul, sizningcha? Nima uchun?

5. Badiiy asarlarning qahramonlariga xos bo'lgan "ijobiy" va "salbiy" singari tushunchalarga o'z munosabatingizni bildiring. Ularga shunday yondashish mumkinmi? Nima uchun?

6. "Xatosini tushungan bola" hikoyasi mazmuni yuzasidan taqdim etilgan savol va topshiriqlar ustida ishleng. Har biriga o'z munosabatingizni bildiring. Siz ham o'z fikringizni asoslang.

7. Hikoya matni asosida odamlarning xatti-harakatlaridan ularga xos bo'lgan yaxshi va yomon sifatlarning sabablari haqida o'ylab ko'ring. Hamisha yaxshi bo'lish, Sizningcha osonmi yoki qiyinmi? Qarashlaringizni asoslang.

8. Taqdim etilgan "Oygul bilan Baxtiyor" adabiy ertakning birinchi bandini yod oling. Uning engil yodlanishi sabablari haqida

o‘ylab ko‘ring.

9. “Men suygan suyukli” yoki “Do‘stim va muhabbat” mavzularidan birida (yoki o‘zingiz istagan biror mavzuda) esse yozing. Unda shaxsni tavsiflashga urg‘u bering. Qahramoningiz fe‘lixo‘yidagi xususiyatlarni tahlilga torting.

## 18-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda uy vazifalari berishga qo'yiladigan talablar va uni tashkil etish yo'llari

### Reja:

1. O'quvchilarning uyda ishlashlarini tashkil etish
2. Bugungi maktab amaliyotida uy vazifalari
3. Uy vazifalariga qo'yiladigan didaktik va metodik talablar
4. Uyda o'qish uchun beriladigan topshiriqlar

**Tayanch so'zlar:** *pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik asoslar, uy vazifalari, o'quvchilar shaxsiyati, ziyraklik va erkinlik, tarkib topish, mehnatsevarlik, batartiblik, aniqlik va qat'iyatlilik.*

O'quvchi ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqillikning darajasi uy vazifalarini bajarishda ham namoyon bo'ladi. Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmaslik kerakligidir. Aks holda, o'quv materialini ko'r-ko'rona eslab qolish holati yuz beradi. Uy vazifalari o'quvchining sinfdagi faoliyatidan shunisi bilan farq qiladiki, unda barcha topshiriqlar o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil ravishda bajariladi. Ta'limning bu turidan darsda shakllangan ko'nikmalarni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadida foydalaniladi. Afsuski, ta'lim amaliyotida o'quvchilarning uy vazifalarini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish bilan etarli darajada shug'ullanilmayapti. Har darsda o'quvchilarga uy vazifalari topshiriladi, lekin ularni qanday bajarish mumkinligi nisbatan kengroq o'rgatilmaydi.

O'quvchilarning uyda ishlashlarini tashkil eta bilmaslik bolalarning bilim olishiga, o'z kamolotini ta'minlash yo'lida bevosita ishtirok etishiga halaqit bermoqda. O'qituvchilarning yangilangan pedagogik tafakkur talablariga moslashishi juda sekin kechyapti. Tarbiyalovchilar qolipga tushib qolgan o'qitish usullaridan voz kecha olmayaptilar. Gap shundaki, mamlakatni buyuk kelajak sari etaklash ham, uni tubanlik qa'riga tortish ham o'sib kelayotgan avlodning, millatning qo'lida. Millatning saviyasi ko'tarilmasa, mamlakat rivojlangan davlatlar safiga chiqolmaydi. O'qituvchi ko'tarilmasa, millat ko'tarila olmaydi. Millatni ma'nan ham, aqlan ham ko'taradigan o'qituvchi bo'ladi. O'qituvchining shaxsi, dunyoqarashi,

saviyasi, bilim darajasi, millat va mamlakatning taqdirini belgilaydi.

Milliy tarbiyashunoslikda barcha o'quv fanlari bilan birga maktab adabiy ta'limi, xususan, boshlang'ich adabiy ta'limda ham o'quvchilarning uy ishlarini to'g'ri tashkil etish o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarning uy vazifalarini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llari bilan ilmda ham, amaliyotda ham etarli darajada shug'ullanilmayapti. Uy vazifalarini tashkil etishning pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik asoslari ishlanmagan. Shu bois pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari ta'limida ham uy vazifalarini tashkil etish borasida talabalarga etarli darajada bilim berilmaydi. O'qituvchilar uchun bu borada ilmiy asoslangan nazariy-metodik, amaliy tavsiyalar yo'q.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'quvchiga bo'lgan talabchanlik bolani kamolot sari etaklashning qat'iy mezonlari asosida uni o'z-o'zini rivojlantirishga undashi kerak. Bolani tarbiyalash, o'qitish emas, uni kattalar ko'magida o'zini o'zi tarbiyalaydigan, bilimlarni o'zi izlanib o'zlashtiradigan vaziyatga solish lozim. O'quvchilariga imkon qadar ko'p va chuqur bilim bera oladigan o'qituvchi bugun yaxshi o'qituvchi emas. Istiqloq davri milliy tarbiyashunosligida sinfdagi har bir o'quvchini o'z-o'zini tarbiyalashi va bilimlarni o'zlashtirishi yo'lida faol, tinimsiz ishlata oladigan, ularni mustaqil va mantiqli fikr sohibi bo'lishini ta'minlaydigan, o'quvchi shaxsida o'z qarashlarini asoslay oladigan hamda himoya qila biladigan, o'zni kelganda g'oyalari uchun kurashishga qodir insonni tarbiyalashni biladigan ustoz yaxshi o'qituvchi hisoblanadi.

Bilimlarni o'zlashtirishda bolalar mehnatiga, bu yo'lda ularning erkinligiga e'tibor qilmaslik maktab va o'qituvchining eng katta xatosidir. O'quvchini mehnat qilishga majbur etish, unga mehnat qilib bilim olishdan zavqlanish mumkinligini, mehnatning ehtiyojga aylanishi uni har qanday qaramlikdan qutqarishini anglatish tarbiyashunoslik maqsadining asosidir. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari jarayonida o'quvchilar mehnati haqida qayg'urganda uning qaysi turi besamar ketmasligi, qay yoshdagi bola qanday qiyinchiliklarni engib o'ta olishi mumkinligini, mehnatning qanaqasi osonu qaysisi azobli ekanini aniqlab olmoq o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Shu ma'noda, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylab

berilgan uy vazifalari kattagina ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. O'quvchining ichki qiziqishlarini qondirishni ko'zlab berilgan uy vazifalari uning darsda olgan bilimlari, ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatlarini mustahkamlash hamda takomillashtirishga yordam beradi. Bilimlarning sifatini oshirishga asos bo'ladi. To'g'ri berilgan uy vazifalari o'sib kelayotgan avlodni bilim olish jarayonida imkon qadar mustaqil ishlashga, erkin faoliyatga, bilimni chuqurlashtirishga o'rgatadi.

Bundan tashqari, pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik asoslarga tayanib berilgan uy vazifalari o'quvchilar shaxsiyatida ziyraklik va erkinlik tarkib topishiga ko'maklashadi. Ularda mehnatsevarlik, batartiblik, aniqlik va qat'iyatlilikni rivojlantirishga asos bo'ladi. O'quvchining o'z xatti-harakatlarida aniqlikka erishishiga ko'maklashadi. Faoliyatida duch kelgan qiyinchiliklarni engib o'ta olish, boshlagan ishini oxiriga etkazish hamda o'z xatti-harakatini nazorat qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Uy vazifalari ularni to'g'ri tashkil qila bilgandagina o'quvchilarning ma'naviy shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aks holda ular salbiy natijalarni ham keltirib chiqaradi. Agar uy vazifalari o'quvchilarga metodik jihatidan puxta o'ylanmay berilsa, ular o'quvchilarni qalbakilikka, topshiriqlarni yuzaki bajarishga o'rgatadi, o'qishga va o'quvchining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Puxta o'ylanmay berilgan uy vazifalari o'quvchilarni yolg'onga o'rgatadi, ular bola uchun ortiqcha, samarasiz mehnat bo'ladi.

O'quvchi uy vazifasiga keyingi darsda o'qituvchi nimani so'rashi mumkinligidan kelib chiqib yondashadi. Ko'pchilik o'quvchilar og'zaki uy vazifalarini tayyorlashda berilgan matnni bir (nari borsa ikki) marta o'qiydilar. Ba'zilar hatto o'qimaydilar ham. Darslikda matn qanday berilgan bo'lsa, shunday qayta hikoya qiladilar. Darsga tayyorlikning o'lchovi matnni qayta hikoyalashdan iborat bo'ladi. O'qilgan matn ustida mulohaza yuritilmay matn mazmunini eslab qolishgagina tirishiladi. Uy vazifalarini og'zaki so'rashning faqat o'quvchi xotirasiga tayanib javob berishni talab etiladigan tarzda tashkil qilinishi natijasida vazifa so'rash o'qituvchi bilan bitta o'quvchi orasidagi alohida suhbatga aylanib qolib, sinfdagi boshqa o'quvchilar unda ishtirok etmaydilar.

O'qituvchining uy vazifasini so'rashda o'rganilgan material mazmunini qayta tiklashga yo'naltirilgan savollari ta'sirida o'quvchilar aqliy faoliyati muayyan qolipda shakllanib qolishi mumkin. O'qituvchi savollarni asar mazmuniga tayanib, undan uzoqlashmagan holda, matnni qayta takrorlashga yo'naltirib tuzsa, o'quvchilar ham o'z javoblarini asardagi tayyor dalillar ustiga quradi. Bunday so'rovlar o'quvchini o'quv materialini yodlab olishga, fikrlarni kitob tili bilan so'zma-so'z bayon etishga o'rgatib qo'yyadi.

Ko'pincha, o'qilgan asarlar yuzasidan uyga beriladigan vazifalar bir-biridan farq qilmaydi va ular o'quvchilarning uy vazifalarini bajarishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Uyga topshiriq berishdan oldin, hamisha, avval, uning uchun asosiy bo'lgan didaktik talablar ishlab chiqilishi kerak. Har bir topshiriq o'quvchi uchun tushunarli va uning mustaqil ravishda bajarish imkoniyatlari doirasida bo'lishiga harakat qilinishi lozim. Uy vazifalarini bajarishga o'quvchi sinfda o'qituvchi tomonidan alohida tayyorlanadi, manbalar ko'rsatiladi, lozim bo'lganda ishlash uchun yo'nalish beriladi. Sinfda uy vazifasini olgan o'quvchining topshiriqni bajarishga qiziqishi va ehtiyoji, uni mustaqil ravishda bajarish yo'llari haqida tushunchasi bo'lishi lozim.

Bugungi maktab amaliyotida uy vazifalari sinfdagi o'quvchilarning ko'pchiligiga moslashtirilgan holda, umumiy tarzda beriladi. Uyga topshiriqlar berishda o'quvchilarga xos bo'lgan xususiy jihatlar, alohida o'quvchilarning ishlash imkoniyatlari inobatga olinmaydi. Bu o'z-o'zidan uy vazifasini bajarishda salbiy natija beradi. O'qituvchi tomonidan bir soatga mo'ljallab berilgan uy vazifasini o'quvchilarning ayrimlari 30 – 40 daqiqada, ba'zilari bir soatda, bir qismi esa 1,5 soatda bajaradi. Bugungi o'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlari – kimning tez ishlashi-yu kimning sekin ishlashi, birovning o'ta shiddatli fikrlashi-yu qay bir o'quvchi tafakkuri jarayonining sustroq ekanini inobatga olmaydi. Uy vazifasini tekshirish asnosida uning qanday bajarilganiga – ishning puxtaligi, mavzuning anglanganlik darajasiga e'tibor qilmaydi. Bajarilgan ishning saviyasi, mohiyatiga kirib o'tirmaydi. "Bajarildimi - bajarildi" qabilida ish tutadi. Aslida uyga beriladigan topshiriqlarni ham, sinfda bajariladigan ishlarni ham har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish lozim. Toki, birining qobiliyati o'rtachalarning qurboni



bo'lmasin, ikkinchisining qo'ldan kelmaydigan ishni bajarolmay g'ururi, sha'ni yaralanmasin. Hammaga bir xil vazifa berib, uning bajarilishini barchadan birday talab qilish, uni bajara olmagan o'quvchilarni "ikki"lar bilan jazolash bugungi milliy pedagogikaning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.

O'qituvchi, ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar uy vazifalari o'quvchilarning ruhan rivojlanishi va o'qishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun ularning qat'iy me'yorini bilishi, uyda ishlash uchun topshiriqlar berishni va ularni nazorat qilishni metodik jihatidan oqilona tashkil qila olishi lozim. Ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchilarning shaxsi, tabiati, intellektual imkoniyatlari, oilaviy sharoitiga e'tibor bermaydilar, ularning mustaqil mehnatini tashkil qilish metodikasidan bexabarlar va beriladigan uy vazifalarini yoki haddan oshirib yuboradilar yoki juda jo'nlashtirib qo'yadilar. Buning natijasida o'quvchilar noto'g'ri ishlaydilar. Ba'zida uyga sinfda ishlanmagan, o'qituvchi tomonidan ifodali o'qilmagan badiiy matnlar yodlashga topshiriladi.

Odatda, maktabda uy vazifalari shoshilib, ko'pincha qo'ng'iroqdan keyin beriladi. Uy vazifasini fikri tarqalganda, shovqin ichida, tanaffus boshlanganda olgan kichik o'quvchilarning ko'pchiligi nafaqat uni qanday bajarishni bilmaydi, balki ba'zida uyga nima berilganini to'liq tasavvur ham qilolmaydilar. Bu hol uy vazifalarining qoniqarsiz bajarilishiga olib keladi yoki talab qilingan ish u yoqda qolib, butunlay boshqacha bajariladi yoxud ko'chiriladi. Uy vazifalari barcha o'quvchilar diqqati bir joyga jamlanganda berilishi maqsadga muvofiqdir. Berilayotgan uy ishlari o'qituvchi tomonidan aniq shakllantiriladi, darstaxtaga qisqa tarzda yoziladi. Uy vazifalarining kundalikka yoki daftarga yozdirilsa, uni bajarishda chalkashliklarga yo'l qo'yilmaydi. Uy vazifasi, asosan, sinfda o'tilgan mavzu doirasida bo'ladi va o'tilgan mavzu barcha o'quvchilar tomonidan etarli darajada o'zlashtirilgandan so'ng beriladi. Uy ishlarida sinfda o'tilgan mavzu mutlaqo takrorlanmaydi. Uy vazifalari darsning boshida, o'rtasida, oxirida ham berilishi mumkin. Faqat o'quvchilarning diqqati chalg'imasdan avval berilsa, bas.

Uy vazifalarini tekshirishni darsda ko'tarilgan asosiy savolning yalpi muhokamasi tarzida shakllantirish barcha o'quvchilarni darsda o'rgangan bilimlarini mustaqil ravishda guruhlashga, undan muhimini

ajratishga, o'qituvchining talablariga mos keladigan dalillar topishga o'rgata boradi. Ularning oldida mustaqil mulohaza yuritishni talab qiladigan yangi savollar qo'yiladi. O'quvchilar dalillar keltirish uchun nafaqat faktlar izlashga, balki ularni o'z so'zlari bilan etkazishga ham harakat qiladilar. Bu holat ham ta'limiy, ham tarbiyaviy jihatidan o'ta muhim hisoblanadi. O'quvchilar fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalagan joyda tafakkur faoliyati mustaqilligi tarbiyalanmasligi mumkin emas.

Agar darslarda uy vazifalarini so'rash darsning ijodiy qismiga aylantirilsa, ya'ni o'quvchining hodisa tahlili va u bilan bog'liq faktlarni umumlashtirishga bo'lgan qiziqishlari, imkoniyatlari hisobga olinsa, uy vazifasini so'rash jarayonining samaradorligi ham sezilarli darajada ortadi. Uy vazifasini so'rash jarayonida o'quvchilar ko'pincha u yoki bu hodisani bayon qiladilar, lekin unga baho bermaydilar. Bu shundan dalolat beradiki, o'qituvchi ulardan shunday bahoni, munosabatni hech qachon talab qilmagan. Sababi, buni o'qituvchining o'zi ham bilmaydi. O'quvchilarda voqea-hodisani baholash, unga o'z munosabatini bildirish ko'nikmasi shakllantirilmagan. Uy vazifalarini so'rash paytida o'quvchiga mustaqil mulohaza yuritish talab qilinadigan savollar berilishi uning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Berilgan savollarga o'quvchilar yaxshi tanlangan dalillar orqali javob berishga erishsa, bunday savollar ularning o'zlariga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda biror bo'lim yoki rukn yakunlangach o'tkaziladigan takrorlash darslari ham uy vazifasini so'rashdan o'rganilgan o'quv materiallarini umumlashtirishning nisbatan yuqoriligi bilan farq qiladi. Bunday sharoitda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish uchun o'qituvchi savol va topshiriqlarni oddiy darslardagiga nisbatan murakkabroq tarzda qo'yadi. O'quvchilarning javoblari va izlanishlari ham shunga yarasha bo'ladi. O'qituvchi qanchalik bilimdon, saviyasi ne qadar baland bo'lsa, tarbiyalagan o'quvchilarini ham o'zining darajasida yuqorilatib boraveradi. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'qituvchining shaxsiy tajribasi, o'quvchilarga ziyraklik va e'tibor bilan munosabatda bo'lishi, o'z ishiga ijodiy yondashuvi, shu bilan birga, boshqa o'quv fanlari bo'yicha uyga berilgan vazifalar hajmini inobatga olishi o'quvchilarning uy ishlarini to'g'ri tashkil qilishga

yordam beradi.

O'qituvchi boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarga beriladigan uy vazifalariga qo'yiladigan **didaktik va metodik talablar** haqida to'liq bilimga ega bo'lishi shart. O'qish darslari amaliyotida o'qituvchi o'zidagi eng yaxshi fazilatlarni o'quvchilarga o'tkazadigan, ular bilan birgalikda o'zligida ham tasavvur va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradigan, dars jarayonidagi har qanday faoliyatda birgalikda ishtirok etadigan, mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga yo'naltiradigan katta yoshli do'st bo'lishi lozim. O'qituvchilik faoliyati ifodali o'qish, rasm chizish, musiqa tinglash, badiiy ijod singari tuyg'u va axloq shakllantirish bilan bog'liq ishlarni, bilim, texnika vositalari, har xil metodik o'yinlarni ham qamrab oladi. Bu ishlarning hech biri vaqt o'tkazish yoki biror ishdan dam olish manbai bo'lmasligi kerak. Darsga ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakli sifatida urg'u bergan holda o'qituvchi o'quvchilarning uy vazifalarini shunday tashkil etishi kerakki, ular boshlang'ich adabiy ta'limning har bosqichida tom ma'noda tarbiyaviy, ta'limiy, ijodiy masalalarni hal etishga qaratilsin. Buning uchun, eng avvalo, o'qituvchidan sinfda bajariladigan ishlarni ham, uy vazifalarini ham o'quvchi mustaqilligining ortishi bilan hamohang tarzda tashkil qila bilish talab etiladi. O'quvchi tafakkuri va faoliyatidagi mustaqillikning darajasi uy vazifalarini bajarishda ham yorqin namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda uyga vazifa berilayotganda, avval, o'quvchining diqqati tortiladi, fikri uyg'otiladi. So'ng topshiriq yuzasidan voqea yoki hodisaning sabablarini aniqlash, uni tushuntirish, xulosalar chiqarish va fikrlarini asoslash lozimligi alohida ta'kidlanadi. O'quvchining oldiga o'ylashga, tahlil qilishga, munosabat bildirishga, o'z xulosasini chiqarib uni misollar bilan asoslashga, ijodiy faoliyatga yo'naltiradigan uy vazifalari: "Asardagi shu ... vaziyatni qanday tushundingiz? Nega bunday bo'lgani sabablarini aniqlang. Qarashlaringizni asoslang"; "Mazkur ... holatga sizning munosabatingiz qanaqa? Fikringizni isbotlaydigan dalillar keltiring"; "Shu epizod (yoki hodisa) ... asarga nima maqsadda kiritilganini aniqlang. Nega shunday deb o'ylashingizni tushuntirib bering"; "Qahramonning ... xatti-harakatlariga o'z munosabatingizni bildiring. Mazkur oqibatning sabablari haqida o'ylab ko'ring";

“Qahramon faoliyatiga berilgan rag‘bat (yoki jazo) ... ning sabablari haqida mulohaza yuriting. Nega shunday bo‘lganini izohlashga urinib ko‘ring”; “U yoki bu qahramon (Toshbaqa bilan chayon) ruhiyatidagi, shaxsiyatidagi o‘xshashlik va farqli jihatlarni topib yozib keling”; “Ular ... ning orasidagi do‘stlik mustahkam bo‘lib chiqmagani sabablarini aniqlang. Topganlaringizning asoslang?”; “Shiroqning bu gaplari zamirida uning qanday xohish-istaklari jamlangan deb o‘ylaysiz? Voqeaning bunday yakun topshi sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Xulosalaringizni yozib keling?”; “Ertakning ikkinchi yakunini yarating”; “... yo‘nalishda she‘r yozishga urinib ko‘ring”; “Asardagi birorta epizodning suratini chizing” va hk. savol topshiriqlar shaklida bo‘lishi mumkin.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limda uy vazifalarini so‘rash jarayonida ham o‘qituvchilar o‘quvchini o‘ylashga undovchi, shaxsiy munosabat bildirishni talab qiluvchi qo‘shimcha savollarni qo‘llamas ekan, tarbiyalanuvchilar o‘zlarida tashabbuskorlik, onglilik, topqirlik kabi sifatlarni shakllantirishga imkon beruvchi, mustaqil tafakkurni namoyish etuvchi tajribaga ega bo‘lolmaydilar. Hamisha ham o‘quvchi uy vazifasi sifatida oldiga qo‘yilgan masalani ijobiy hal qilavermaydi. Bu uning nafaqat imkoniyatlari, balki mazkur topshiriqqa bo‘lgan qiziqishi bilan ham bog‘liq. Agar odamda bilishga ehtiyoj bo‘lsa, u hamma narsani qiziqish bilan o‘rganadi. Gap bilim olishning ichki ehtiyojga aylanishida. Ehtiyoj insonda har qanday qobiliyat shakllanishining zaruriy sharti hisoblanadi. Ta‘limda bilishga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘otish o‘qituvchining vazifalaridan biridir. Ma‘lumki, ta‘lim jarayonida o‘quvchining ijodiy ishlashga, bilishga bo‘lgan ehtiyoji uning oldiga nisbatan murakkab savollar qo‘yilganda paydo bo‘ladi. Qolaversa, uyga berilgan topshiriq o‘quvchini qiziqtirib qolganda, uni bajarishdan moddiy yoki ma‘naviy manfaatdorlik anglashilgandagina sidqidildan, va albatta, ijobiy hal etiladi. Chunki har qanday manfaatdorlik odamni izlantiradi, hodisaning mohiyatini tushunishga va tushuntirishga undaydi. Bu insonga xos bo‘lgan tabiiy xususiyat.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limda o‘rganilgan mavzular bo‘yicha aniq va zarur ma‘lumotlarga ega bo‘lganda o‘quvchining muhokamaga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Shu qiziqish uy vazifasini bajarish jarayonida yuz bergan qiyinchiliklarni bartaraf etishga, uning ehtiyojini

qondirishga asos bo'ladi. Uy vazifasini bajarish asnosida qiziqishi qondirilgan o'quvchi g'alaba nashidasini tuyadi. Bu qoniqish hissi, topshiriqning bajarilishidan tuyilgan lazzat nafaqat o'quv materialini o'zlashtirishdagi bir tomonlamalikni hal etishga ko'maklashadi, balki o'quvchi bilimni boyitadi, unda shaxslik sifatlari shakllanishiga asos bo'ladi. Bunday faoliyatni tashkil etadigan uy ishlari o'quvchida mustaqil umumlashmalar qilishni talab etadigan qiyin topshiriqlarni uddalash qobiliyatini tarbiyalaydi va har qanday hodisada sababni ko'rishga va fikri, qarashlarini erkin bayon etishga, xulosalarini asoslashga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida murakkab umumlashmalar qilishni talab qiladigan uy vazifasini olgan o'quvchini o'qituvchi aytilajak fikrlarning rejasini tuzib olishga, berilajak javobda muhimni nomuhimdan ajrata olishga o'rgatishi kerak. Ba'zan o'zlashtirilgan materialning muhim jihatlari qanday mezonlar asosida belgilanishini ham so'rash mumkin. Shunda uy vazifasining samarasi kutilgandan ham ziyoda bo'lishi tayin. Darslarga o'ziga qattiq ishongan holda, har qanday vaziyatga tayyor tarzda kelgan o'quvchida qat'iyat, o'ziga ishonch hissi shakllanib boradi. Bular juda yoqimli tuyg'ular. Shu tuyg'ular uning bilim olishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Uy ishi sifatida o'qituvchisi tomonidan o'rganilgan mavzu mazmunidan muhim jihatlarni ajratish vazifasini olgan o'quvchi uyda topshiriq bilan yuzma-yuz yolg'iz qoladi. Yo'nalish to'g'ri berilgan bo'lsa, topshiriq ham to'g'ri bajariladi. Buning uchun o'quvchi quyidagi ishlarni qiladi:

- avval fikr predmetini aniqlaydi;
- matnni muhim va ikkinchi darajali mantiqiy bo'laklarga ajratadi;
- kalit so'z va tushunchalarni topadi;
- matnning qisqa mohiyatini ifodalash uchun tayanch nuqtalarni belgilab oladi va shularga asoslanib uning muhim jihatlarini ajratadi.

Fikrlarining kichik rejasini tuzadi. Shu reja asosida qarashlarini og'zaki yoki yozma ravishda bayon etishga tayyorlanadi. Bunday topshiriqni bergan o'qituvchidan o'quvchini shunday yo'nalishga solib qo'yish ham talab qilinadi. Boshlang'ich adabiy ta'limda darslarning samarali tashkil etilishi uy vazifalari hajmini nisbatan toraytirishi ham mumkin. Lekin bu uyga beriladigan vazifalaridan voz

kechish degani emas. O'quvchiga uy vazifalari bermaslik uncha to'g'ri emas. Ma'lumki, kichik o'quvchilarning xotirasi va bilimlarni o'zlashtirish darajasi har xil. Birida eshitib o'zlashtirish qobiliyati kuchli bo'lsa, ikkinchisida ko'rganini eslab qolish imkoniyati katta. O'quvchilarning ma'lum qismi o'qituvchi bayonidan so'ng o'quv materialini kitobdan o'zi o'qishga va uning asosiy o'rinlarini ko'z bilan xotirasiga o'rnashtirib olishga ehtiyoj sezadilar.

Qolaversa, o'quvchi o'quv materialini darsda yaxshigina o'zlashtirib olgan bo'lsa ham, uyda uni bir marta qarab chiqishi foydadan xoli emas. Faqat uy vazifasi sifatida matnni qayta o'qishnigina emas, balki kuzatish ishlarini, har xil ijodiy ishlarni bajarishni topshirish lozim. Aks holda bu ixtiyorsiz ravishda o'quv materialini mexanik tarzda eslab qolishga olib keladi. Adabiy ta'limning barcha bosqichida o'quvchilarning uy vazifalariga qo'yiladigan didaktik talablar bir-biridan katta farq qilmaydi. Adabiy ta'lim jarayonining har bosqichida uyga beriladigan topshiriqlar:

- o'quvchi tomonidan o'zlashtiriluvchanligi;
- uning maqsadi, vazifalari va bajarilish tartibining aniqligi;
- uyga beriladigan topshiriqning yangi va avvalgi darslarda o'tilgan mavzular bilan bog'liqligi;
- sinfda amalga oshirillgan ishlarni aynan takrorlamasligi;
- avval o'rganilgan mavzuning to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi qismi bo'lishi;
- topshiriqlarning belgilangan vaqt oralig'ida bajarilish imkoniyati va hk. talablarga javob berishi kerak.

O'qituvchining mahorati uy vazifalari uchun ta'limning har bosqichida, ma'lum vaziyat va holatga munosib topshiriqlar tanlay bilishida ko'rinadi. Adabiy ta'limning har bosqichida o'quvchilar uy vazifalarini tashkil etishning ma'lum shakllari mavjud:

1. Uy vazifalarini ma'lum reja saosida amalga oshirish yo'llari;
2. Uyda o'qish uchun beriladigan topshiriqlar;
3. Asar matni ustida ishlash uchun beriladigan vazifalar;
4. Yod olish uchun beriladigan uy ishlari;
5. Suratlar bilan ishlash bo'yicha topshiriqlar;
6. Savol va topshiriqlar bilan ishlash vazifalari;
7. Kalit so'zlar bilan ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar;
8. O'quvchilarning uy insholari bilan bog'liq ishlar.

Mazkur yoʻnalishda taqdim etilgan uy vazifalari oʻqituvchiga oʻquvchilarning uyda ishlashlarini tashkil etishda, ularni maʼlum bir tizimda boshqarishga, va nazoratni toʻgʻri yoʻlga qoʻyishga koʻmaklashadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish darslarida olgan uy vazifalarini bajarish ishlarini **rejalashtirib olishga** oʻrgatish ham ularning tafakkur va faoliyat mustaqilligini taʼminlashda oʻziga yarasha ahamiyat kasb etadi. Oʻqituvchilar nazarida bu maʼlum darajada murakkab fikriy faoliyat boʻlgani uchun ham oʻquvchilarga nisbatan sodda reja tuzishni taklif qiladilar. Hatto, shuning oʻzi ham ularni oʻzgalarning tayyor fikrlarini takrorlashdan chekintiradi, mustaqil ravishda fikr aytishga yoʻnaltiradi. Uy vazifalarini maʼlum reja asosida bajarish oʻquvchini oʻquv materialiga ongli va tizimli ravishda yondashishga oʻrgatadi. Yaxshi tuzilgan reja oʻquvchi faoliyatini tartibga soladi, zarur materialni ajratib olishga oʻrgatadi, muhim jihatlarni ochishga va toʻgʻri xulosalar chiqarishga undaydi. Oʻz fikrini muayyan tizimda bayon etishga yoʻnaltiradi.

Reja bilan ishlashga oʻrgatishdan maqsad oʻquvchini topshiriqni yaxshiroq bajarish, vaqtdan unumli foydalanishga oʻrgatish va ishida tartib boʻlishiga erishishdan iborat. Mana shu jihatlari – ishni rejalashtirish tamoyili oʻquvchining “men”iga, tabiatiga singishiga, bu yumush bolaning maktab hayotidagi asosiy ishlaridan biri boʻlishiga erishish kerakligini taqozo etadi.

Shuni ham alohida taʼkidlash joizki, boshlangʻich sinflar oʻqituvchilarining koʻpchiligi hali oʻquvchilarga dars maqsadi va rejasini bayon etishga odatlanganlaricha yoʻq. Oʻrganiladigan mavzu rejasining darsda oʻqituvchi tomonidan bayon etilishi oʻquvchi diqqatini mavzuning muhim oʻrinlariga tortadi, unda mana shu muhim narsani oʻzlashtirib olishga ehtiyoj uygʻotadi. Shu tariqa tashkil etilgan darsda oʻqituvchi javob beradigan oʻquvchini ham berilajak javobini rejalashtirib olishga, undagi muhim jihatlari va xulosalarni ajrata bilishga yoʻnaltiradi. Afsuski, koʻpchilik oʻquvchilar yozma ishlarga ham, matn yuzasidan ham reja tuzishni bilishmaydi. Oʻquvchilarning reja tuzishni bilmasligi oʻqituvchining aybi.

Boshlangʻich adabiy taʼlimda oʻquvchining asar mutolaasi davomida kichik-kichik soʻz va iboralar misolida uning eʼtiborli

o‘rinlarini matndan belgilab borishi o‘z faoliyatini rejalashtirib olishiga asos bo‘lishi mumkin. Asar o‘qib bo‘lingach, shu belgilar asosida reja tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan tushuntirib qo‘yiladi. Shu tarzda tuzilgan reja o‘quvchiga asar matni ustida ishlash uchun keyingi, uydagi faoliyatini tashkil etishda ham ko‘maklashadi. Bundan tashqari, sinfda o‘qituvchi savollariga javob berishda, insholar yozishda, asar qahramonlarini baholash bilan bog‘liq yozma va og‘zaki ishlarda, qahramon shaxsi yoki biror haqiqatni asoslashda misollar keltirishda ham yordam beradi. Tarkibiy reja yaxlit asarni ma‘lum bo‘laklarga bo‘lib, ularga mazmunan va mantiqan mos sarlavhalar qo‘yib, qismlar bo‘yicha ma‘lum maqsadlar asosida alohida rejalar tuzib ishlashni nazarda tutadi.

Boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitobi” darsliklarida badiiy asar ustida ishlash uchun o‘quvchilarga matn asosida reja tuzish va o‘qilganlarini reja asosida qayta hikoyalash ko‘p taklif qilinadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarda reja tuzish ko‘nikmalari shakllanishiga e‘tibor qaratishi, ular asar qismlarining mantiqiy aloqasini qanday o‘zlashtirganliklarini aniqlab borishi kerak. Odatda, boshlang‘ich adabiy ta‘limda o‘qituvchilar topshiriqning ikkinchi qismiga, reja asosida asar matnini qayta hikoyalatishga ko‘proq urg‘u beradilar. Shuning uchun o‘quvchilar yuqori sinfga borganda ham insho yozish uchun reja tuzishga qiynaladilar. Reja tuzishni o‘rgatishdan maqsad o‘quvchining tasavvuri va tafakkurini uyg‘otish, uni muhimni nomuhimdan ajratishga, bilganlarini tizimga solishga o‘rgatishdir. Ma‘lum reja asosida asar matnini qayta hikoyalash, ayniqsa, yuqori sinflarda, hatto, u ijodiy xarakterda bo‘lsa ham, o‘quvchining ma‘naviyatiga aks ta‘sir ko‘rsatadi. U boshlang‘ich sinflarning dastlabki bosqichi (1-, 2-sinflar)da o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishi mumkin. Lekin uning keyingi bosqichlari (3-, 4-sinflar)da ham samarasiz ish turi hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari ongini faollashtiradigan, mustaqil faoliyatini tizimga soladigan rejalashirish ishlari nafaqat asar matnining chuqur va batartib o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi, balki ularda har qanday badiiy asarni mustaqil muhokama qilishga qodir kitobxonni ham tarbiyalaydi. Qolaversa, o‘quvchilar tuzgan reja o‘quv materialini ular tomonidan chuqur va mustahkam



o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi va bilimlar nisbatan ongli o'rganilishiga erishiladi. Bilimlarning ongli o'zlashtirilishi darsda o'quvchining faol ishtirok etishiga mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi. O'quv materialini bo'yicha reja tuzish jarayoni o'quvchilarda mantiqiy mulohaza yuritish ko'nikmasini ham shakllantiradi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarga reja tuzishni o'rgatishda o'qituvchi quyidagicha yo'nalishni taklif qilishi mumkin:

a) berilgan matnni ikki marta to'liq o'qib chiqish;

b) birinchi o'qishda matndagi asosiy fikrlarni aniqlash, o'qish jarayonida zarur raqamlar va yangi so'zlarni belgilab qo'yish;

v) ikkinchi o'qish jarayonida materialni ma'noli bo'laklarga bo'lish va ularning har birini nomlash.

“O'qish kitobi” darsligidan o'rin olgan matnlardagi asosiy fikrlar anglashilgandan keyingina uning rejasini tuzishga kirishiladi. Bunday faoliyat boshlang'ich sinflarning dastlabki bosqichidan ta'lim amaliyotiga singdirilishi kerak. Reja tuzish a'lochi o'quvchilardan ham, sust o'zlashtiruvchi bolalardan ham birday talab qilinishi zarur. Aks holda yuqori sinflarda murakkab masalalar bilan to'qnashilganda, mustaqil xulosa chiqarish kerak bo'lganda ko'pchilik o'quvchilar rejalashtirishga qiynalib qoladilar.

To'g'ri, o'qilgan asar yuzasidan asosiy fikrni ilg'ab olish va uni mantiqiy qismlarga ajrata bilish, ayniqsa boshlang'ich sinflarda hamisha ham oson amalga oshavermaydi. Shuning uchun reja bandlarini shakllantirishda o'quvchilar ko'proq kitobiy tilga tayanadilar, fikr ifodalashlarida ham kitobga qaramlik sezilib qoladi. Bunday kamchiliklar hamisha o'qituvchining e'tiborida bo'lib, o'quvchiga eslatib turilsa, ular tezda bartaraf etiladi. O'qituvchining o'quvchida tabiatan mavjud bo'lgan faoliyatini rejalashtirish, uni bajarish, natijalarni tekshirishining maktabda ham davom ettirilishi uning tafakkuri va faoliyat mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi.

O'qish darslarida yoki uyda mustaqil bajarish uchun berilgan topshiriqni rejalashtirish o'z-o'zidan uning predmetini, maqsadini bilishni talab etadi, shu bilan birga bunday vazifalarni bajarish uchun ma'lum tajriba ham talab qilinadi. Boshlang'ich sinflar hayotidagi bunday ishlarni mustaqil ravishda rejalashtirishga birdaniga kirishib bo'lmasligi, tushunarli. Bunga o'quvchilarning maktab hayotida

o'quv yo'nalishida u yoki bu darajada malakaga ega bo'lganlaridan keyin kirishiladi. Hatto o'quvchilarga harakat rejasi taqdim etilganda ham uning ma'lum qismlarini muhokamaga qo'yish va bolalar faoliyatining ongliligiga ishonish kerak. O'quvchilar faolligi asta-sekinlik bilan oshirib borilib, ular katta muammolarni rejalashtirishga o'rgatiladi. Asarning, undagi alohida hodisa yoki vaziyatning, qahramon tavsifnomasining to'kis bo'lishini ta'minlaydi.

**Uyda o'qish uchun beriladigan topshiriqlar** o'quvchilarga maktab hayotining hamma bosqichida beriladi. Ma'lumki, darslik o'quvchi uchun zarur va asosiy didaktik qo'llanma hisoblanadi. Quyi sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarning o'qishi, ularning badiiy asar yoki asar haqidagi maqolalar ustida ishlashini tashkil etish uchun o'qituvchi ta'limning quyi bosqichlaridagi shunday faoliyat bilan bog'liq uy vazifalariga ko'proq e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Bunday topshiriqlar darslikdagi adabiy matn mazmunini uyda, mustaqil ravishda o'zlashtirib olishga, badiiy so'z mohiyatiga kirishga ko'maklashadi.

Darslik bilan ishlash bo'yicha uy vazifalarining taxminiy me'yorlari boshlang'ich sinflarda 10–15 daqiqani tashkil etadi. Faqat bunday topshiriqlar sinf, vaziyat va alohida o'quvchilar uchun mos bo'lishi, har bir o'quvchining intellektual imkoniyatlari doirasida berilishi, shu bilan birga topshiriqlarning bir xilligi hamda bir birini takrorlashidan qochish kerak bo'ladi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda darslik bilan ishlash bo'yicha beriladigan uy vazifalari savollarga javob berish, matnning ma'lum bo'limi rejasini tuzish, o'qilgan matn yuzasidan engil savol-topshiriqlar tuzish, o'qituvchining savollari, sinfda taqdim etilgan reja asosida matndan materiallar ajratish va hk. shakllarda bo'lishi mumkin. Uyga beriladigan topshiriqlarning barchasi boshlang'ich adabiy ta'limning bosh maqsadi asosida tashkil etilishi lozim.

O'quvchilarning uyda o'qishlari uchun beriladigan topshiriqlar, birinchi navbatda, dasturdagi o'quv materiallarini o'quvchilar chuqurroq, kengroq o'zlashtirishlarini nazarda tutadi. O'quv yilining oxirida o'quvchilarga yozda o'qish uchun topshiriq berilayotganda keyingi sinf dasturi doirasiga kiradigan, u yoki bu adibning ijod yo'lini, uslubini aniqroq bilishga imkon beradigan asarlar tavsiya etiladi. Ular shunchaki sinfdan tashqari o'qish uchun material

emasligi, topshiriqning o'z nazariy, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati borligi, bu faoliyatning amaliy ahamiyati nimalardan iborat ekani o'quvchilarga etkaziladi. Bunday paytlarda o'quvchilar quyi sinfda o'rgangan asarlari ham qamrab olinishi mumkin. O'quvchining avval o'qigan asarlarini oradan ma'lum vaqt o'tgach qayta o'qiganda olgan taassurotlari avvalgilari bilan taqqoslanib, ular haqida ham alohida suhbatlashish mumkin. Bu ham kichik o'quvchining ma'naviy kamolotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday asarlar bo'yicha o'quvchilarning umumiy tarzda asar mavzusi, undagi yetakchi fikrlarni bilishi, asar qahramonlariga tavsif bera olishi maqsadga muvofiqdir.

Uyda o'qish uchun beriladigan asarlar boshlang'ich ta'limning 3 – 4-sinf o'quvchilari uchun bir yilda, taxminan 12 – 14ta kitobni tashkil qiladi. Bunday asarlar sirasiga darslikda parcha berilgan bitiklarni ham kiritish mumkin. O'qituvchi taxminan bir oyda ikki marta sinfdan tashqari o'qilgan asarlar ustida ishlash uchun vaqt ajratadi. Bunday darslarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida mustaqil o'qigan asarlarini tahlil qiladilar, munosabat bildiradilar va asarlar haqidagi fikrlarini uning matniga tayanib asoslaydilar. Boshlang'ich adabiy ta'limda bunday darslarga ota-onalarni ham taklif qilish katta samara beradi. O'qituvchi sinfdan tashqari o'qish uchun darslikda parcha berilgan asarlarni to'liq o'qishni tavsiya etishi, ayrim qo'shimcha asarlardan boblar o'qib o'quvchilarni qiziqtirib olishi va shu asnoda ularni uyda o'qishga berishi mumkin.

Boshlang'ich adabiy ta'limda **aniq asar matni ustida ishlash** uchun beriladigan uy vazifalari qahramonlarning fe'lu atvorini, xatti-harakatini, asardagi yetakchi qarashlarni kashf etishga yo'naltirishni nazarda tutadi. Ma'lumki, insonga Alloh tomonidan singdirilgan xarakter-xususiyatni zo'rlik bilan o'zgartirish mumkin emas. Odamlar tomonidan yaratilgan qoidalar, tartiblar, qonunlar insonning tabiiy xususiyatlariga mos tushsagina ular tarbiyalanuvchiga "yuqishi" mumkin. Shundoq ekan, o'quvchini maktabning tartib-qoidalariga emas, ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchiga moslashtirish kerak. Ya'ni, darslar, uy vazifalari ta'limning har bosqichida har bir o'quvchi qobiliyati, iqtidori, qiziqish va imkoniyatlariga asoslangan holda, imkon qadar individuallashtirilgan tarzda amalga oshirilishi lozim.

O'quvchining intensiv rivojlanishini nazarda tutgan holda unga

adabiy ta'limning barcha bosqichida, har darsda uyda ishlash uchun topshiriqlar berilishi, bola uyda har kuni sinfdagidek ishlashi kerak. Uy ishlarining qiyinlarini osonlari bilan va aksincha, almashtirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Tinimsiz qiyin topshiriqlarni berish o'quvchilarni zo'riqtirgani singari, uzluksiz oson vazifalar ham ularni uy ishlariga engil qarashga o'rgatib qo'yadi. Uy vazifalarini bajarish uchun ajratiladigan vaqt ta'limning har bosqichida o'quvchining yoshi, ruhiy va jismoniy xususiyatlari hamda imkoniyatlariga asoslangan holda aniqlanadi.

Uyga beriladigan topshiriqlarning umumiy hajmi, turli shakllarda, barcha o'quv fanlari misolida umumiy tarzda: boshlang'ich sinflarning quyi bosqichlarida taxminan yarim soatgacha, yuqori bosqichlarida 40 – 45 daqiqa bo'lmog'i nazarda tutiladi. Bunday vaqt oralig'iga mo'ljallangan uy ishlari boshqa o'quv fanlari bo'yicha og'zaki bajariladigan ishlar, o'qish uchun topshiriqlar hamda yozma ishlar bilan almashtirib turiladi.

Adabiy ta'limning boshlang'ich bosqichida o'qilgan asarlar yuzasidan beriladigan uy vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) sinfda o'tilgan mavzuni uyda qayta o'qish;
- 2) asar rejasini tuzish va reja asosida matnni qayta ijodiy hikoyalash;
- 3) asar yuzasidan mustaqil mulohaza yuritib mantiqli savollar tuzish va ularga javob berish;
- 4) sinfdan tashqari o'qiladigan asarlar ustida ishlash uchun topshiriqlar berish;
- 5) o'rganilgan asar mazmuni yuzasidan mustaqil ishlar berish;
- 6) asardagi izohtalab va tushunarsiz so'zlar ustida lug'at bilan ishlash;
- 7) asardagi yetakchi qarashlar tahliliga bag'ishlangan yozma va og'zaki insholar tashkil etish;
- 8) matnni bo'laklarga ajratish va ularning mazmuniga mos sarlavha topish;
- 9) asar matni qismlari bo'yicha sarlavhalar tavsiya etib, mavjud matnni shu sarlavhalarga mos tarzda bo'laklarga bo'lishni talab qilish;
- 10) har bir bo'lakning rejasini tuzish va shu reja asosida gapirishga tayyorlanish;
- 11) mazkur asar mazmuniga mos ertak, topishmoq, she'r, tush

va hikoyalar to‘qish;

12) asar matni yuzasidan tayyorlangan suratlar ustida ishlash;

13) matn yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar bo‘yicha og‘zaki va yozma ishlar berish va hk.

Bunday topshiriqlarni sinfda va uyda almashtirib bajarish ham o‘quvchining tafakkuri hamda faoliyati mustaqilligini ta‘minlaydi. Ma‘naviyatini boyitadi. Boshlang‘ich adabiy ta‘limda uyga yozma ishlar berilgan kunlarda og‘zaki topshiriq yoki o‘qish uchun vazifalar berilmaydi.

O‘qish darslarida uyga vazifalar berishda o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularning boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha yuklamalari bilan ham hisoblashish talab qilinadi. Boshlang‘ich adabiy ta‘limda sinfdagi badiiy so‘zga qiziqishi va iqtidori bor o‘quvchilarga ularning qiziqishlarini qondiradigan, ehtiyojlarini to‘yintiradigan topshiriqlarni ko‘proq berish mumkin. Qolganlarga dastur talablari asosida bilim berish va DTS talablari doirasida bilimlarini nazorat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limda o‘quvchilarga **yod olish uchun** beriladigan uy vazifalarining nomi va soni dasturda va darsliklarda aniq ko‘rsatilgan. Pedagogika ilmida bir darsda yod olish uchun beriladigan uy vazifalari 1-sinfda to‘rt dan sakkiz qatorgacha; 2-sinfda sakkizdan o‘ntagacha; 3 – 4-sinflarda 16 satrgacha atrofida bo‘lishi tavsiya etilgan. Biror asarning to‘liq matni yoki asardan parcha yod olishni uy vazifasi sifatida topshirishdan avval uning mazmuni o‘quvchilar tomonidan yaxshilab tushunib olinishiga erishilishi shart. Asarni yod olishdan oldin u darsda sharhlab o‘rganilishi, she‘r matni o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi talab qilinadi. She‘rning yoddan, ifodali o‘qilishi darajasi uning qanchalik anglashilganligini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich adabiy ta‘lim Davlat standarti talabi bo‘yicha yod olinishi lozim bo‘lgan asarlarni barcha o‘quvchilar yodlashlari shart. Lekin dasturda ham o‘quvchilar yodlashlari uchun ma‘lum miqdorda qo‘shimcha o‘quv materiallari taqdim etilgan. Ularni yod bilish darsliklardagi she‘rlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ustida ishlashni osonlashtiradi. Dasturda va darslikda yod olish talab qilingan barcha she‘riy asarlarni o‘quvchilarning hammasidan birday talab qilish ham unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu o‘rinda o‘quvchilarning xohish-istak va

imkoniyatlarini inobatga olish kerak bo'лади. Yodlab kelgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Yodlamaganlar esa nazoratga olinmaydi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarga **suratlar bilan ishlash** bo'yicha beriladigan uy vazifalari ham o'ziga yarasha ahamiyatga molik didaktik ish turlaridan biridir. Boshlang'ich sinflarda asar matni yuzasidan chizilgan suratlar ustida ishlash topshirig'i ko'proq uchraydi. Bunday suratlar o'quvchilarga asar qahramonlarini tiniqroq tasavvur qilishga ko'maklashadi. Lekin bugungi ta'lim amaliyotida, o'qish darslarida rasmlar ustida ishlash juda no'noqlik bilan tashkil etilgan. O'qituvchilar, rasmlar bilan ishlagan taqdirda ham, ulardagi yuzaki jihatlarni ochishni talab qiladilar, xolos.

Asar matni yuzasidan ishlangan suratlarni tahlilga tortish o'quvchilar ma'naviy kamolotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Suratlar bilan ishlash bo'yicha berilgan uy vazifalarida ranglarning o'rni, ularning surat uchun umumiy ahamiyati, o'zaro mutanosibligi, nega aynan shu rangning qo'llanilganligi, suratda yoritilgan narsalarning o'rni, ularning umumiy tasvirga ta'siri bilan bog'liq vazifalar topshiriladi. Sinflar yuqorilab borgan sari suratlar ustida ishlash bilan bog'lab beriladigan uy vazifalarida rasmdagi shaxslarning yuz ifodasi, yuzidagi, ko'zlaridagi, turishi yoki holatidagi ifodalar tahliliga, har birini tasvirlashda qo'llangan ranglarga o'quvchilarning e'tibori tortiladi.

Bu o'quvchida rangni his qilish, undan ta'sirlanish, tasvirni, ranglardagi musiqiylikni o'qish mahoratini shakllantiradi. Uy vazifasini bajarishda suratda ifodalangan har bir predmetni ajratish, uning rasmdagi vazifasini izohlash, rasmda tasvirlangan hodisaning boshi yoki oxirini o'ylab topish, hikoyalab berish kabi topshiriqlar hikoya bayonida fikrdan fikrga o'rinsiz sakrab ketmaslik ko'nikmasini shakllantiradi. Olamni, odamni ranglar ko'magida baholashga o'rgatadi. Qahramonning ko'zlari, yuz ifodasi, holati tahlili o'quvchini suvrat va siyratni farqlashga odatlantiradi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda asarlar matni yuzasidan taqdim etilgan **savol-topshiriqlar bilan ishlash** bo'yicha beriladigan uy ishlari ham o'z mazmun-mohiyati bilan diqqatga sazovordir. Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" darsliklarida taqdim etilgan

adabiy matnlar ustida ishlash uchun ma'lum savol-topshiriqlar berilgan. Boshlang'ich maktabning 3 – 4-sinflarida o'quvchilarga uy vazifasi sifatida asar matni yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlarning soni to'rttadan oshmasligi kerakligi ma'lum. Darsliklarda taqdim etilgan ayrim savol-topshiriqlar tavsiflashni talab qilsa, ba'zilar umumlashtiruvchi xarakter kasb etadi. Ayrim savollar avval o'zlashtirilgan bilimlarni eslashga ehtiyoj uyg'otsa, boshqasi har tomonlama o'ylashni va tahlilni talab qiladi. Yana bir xil savol uchun darslikdagi ma'lumotning o'zi kifoya qilsa, o'zgasiga javob berish uchun yordamchi manbalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Boshlang'ich siflar o'qituvchisi adabiy materiallar bo'yicha uyga beriladigan savol yoki topshiriqlarni mavzuga moslagan tarzda o'zi shakllantiradi. Shuning o'zi tarbiyalanuvchining aqliy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. O'qituvchi o'quvchini materialni shunchaki qayta bayon qilmay, qarashlarini ma'lum tayanch fikr atrofida umumlashtirishga, undan javob uchun zarurini ajratib olishga, fikrini qolipga tushgan siyqa iboralarda emas, o'z so'zlari bilan bayon qilishga undaydi. Bu o'quvchidan ma'lum hodisa sabablarini tushuntirish, fikrlarini qat'iy ilmiy-mantiqiy asoslarga qurish, voqealarni xolis baholash va kuzatganlarini umumlashtirishni talab qiladi. Uy vazifalarini so'rash bilan bog'liq bunday vaziyatlarda qo'shimcha savollar juda qo'l keladi. Qo'shimcha savollarning kuchi shundaki, ular avval o'rganilgan bilimlarga tayanganidan o'quvchilar ishini engillashtiradi. Bu o'rinda avval o'zlashtirilganlarni takrorlash emas, balki o'rganilgan bilimdan yangi yo'nalishda foydalaniladi. Bu o'quvchilarni yangilik qidirishga, noma'lumni aniqlashga yo'naltiradi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarning matndagi **kalit so'zlar bilan ishlashi** bilan bog'liq uy vazifalarining berilishi ham diqqatga sazovor didaktik ish turidir. Asar matni bilan ishlash topshiriqlari sirasiga kalit so'zlar bilan ishlash vazifasi ham kiradi. O'qituvchi bunday topshiriqlardan uy ishi sifatida ham, dars jarayonida ham foydalanishi mumkin. Bunday topshiriqlarning asosiy xususiyati matndagi kalit so'zlarni ajratib olib, ularning ma'nosi va asarning umumiy mazmunidagi o'rnini aniqlashdan iboratdir. Kalit so'zlar bilan ishlash bo'yicha uy vazifasi biror qahramon timsolida, biror epizod yoki hodisa misolida ham bo'lishi mumkin. Masalan,

asar qahramoni shaxsini ochishga qaratilgan kalit soʻzlar ustida ishlash uchun oʻquvchi matndan qahramonga xos boʻlgan asosiy soʻzlarni ajratib oladi. Ularning mohiyatiga kiradi, maʼnosini aniqlaydi. Asar qahramoni xarakteridagi qaysi jihatlarni qamrab olganini aniqlaydi. Soʻngra bu soʻzlarning qahramon shaxsi, feʼl-atvorini ochishdagi oʻrni, ahamiyatini belgilaydi. Ularning qoʻllanilishiga oʻz munosabatini bildiradi, fikrini asoslaydi. Shu asnoda qahramonning shaxsiga baho beradi. Oʻz maʼnaviyati shakllanishida oʻzi ishtirok etadi.

Kalit soʻzlar bilan ishlashlaydigan uy vazifalarini berishda asardagi peyzaj ham juda qoʻl keladi. Mavzu atrof olam bilan aloqada oʻrganiladi. Oʻquvchi tabiat hodisalarini kuzatadi, koʻrganlarini badiiy ifodalashga urinadi va hk. Qoʻllangan soʻz va iboralardan mavzu uchun muhimlari ajratiladi. Bunday mustaqil izlanishlar oʻquvchining dunyoqarashini kengaytiradi, peyzaj tasviridagi badiiylik va aniqlikni kashf ettiradi. Matnni oʻzlashtirish emotsional, ongli tarzda amalga oshadi. Ular oʻquvchini koʻra bilishga, ilgʻay olishga, anglaganlarini soʻz bilan ifodalashga oʻrgatadi.

Oʻqituvchilar asarlardagi peyzaj tasviriga koʻpincha eʼtibor qilmaydilar. Tabiatdagi goʻzallikni koʻra bilish, koʻrganlarini soʻz bilan ifodalash mahorati har bir adibda oʻziga xos tarzda shakllangan. Buni oʻquvchi kichikligidan farqlashi va anglashi uchun uni tasvir mohiyatiga kirishga undaydigan uy vazifalari berilishi kerak. Asar matni ustida ishlash bilan bogʻliq bunday uy ishlari ham oʻquvchilarning maʼnaviy kamolotini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻquvchilarga **insholar yozishni** uy vazifasi sifatida topshirish boshlangʻich sinflarning yuqori bosqichida tashkil etiladi. Boshlangʻich sinflar adabiy taʼlimida uyga insho yoki bayon yozishga berilsa, oʻsha kuni oʻquvchi boshqa oʻquv fanlari boʻyicha oshiqcha yuklamalardan halos etilishi kerak. Chunki insho va bayon yozish aqliy zoʻriqish va ancha vaqtni talab qiladi. Taʼlimning yuqori bosqichlarida ham oʻquv fanlari muallimlari bir-birlari bilan doimiy aloqa bogʻlab turishlari, uy vazifalarini berishda bir-birlari bilan kelishishlari oʻquvchining uyga berilgan topshiriqlarni tayyorlashdagi vaqtini nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, maktabda dars jadvallari ham shundoq tuzilishi kerakki, uy vazifalari bir kunda



3 – 4tadan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Sinflar yuqorilab borgani sari uy vazifalarining soni oshmay mazmuni chuqurlashadi. Talab doirasi kengayadi. Bundan tashqari rasmlar, kuzatishlar asosida ham insholar yozdirish mumkin. Bunday uy vazifalari ham 30 – 35 daqiqali ishlar bo‘lishi kerak.

Albatta, boshlang‘ich adabiy ta’limda o‘quvchilarga berilgan uy vazifalarini hammadan birday va qat’iy talab qilish shart emas. Lekin mas’uliyatli ota-onalar (albatta ularning farzandlari ham asta-sekinlik bilan oiladagi muhit asnosida shunday mas’uliyatli shaxs bo‘lib shakllana boradilar) uyda bolalari bilan ishlashga harakat qiladilar. Uy vazifalarini bajarib kelgan bolalarni albatta rag‘batlantirish, ularni yuqori baholab borish taqozo etiladi. Bu rag‘bat va yuqori baholar boshqa bolalarni ham befarq qoldirmaydi. Ular ham asta-sekinlik bilan uyga berilgan topshiriqlarni bajarishga o‘zlarida moyillik sezishlari mumkin. Bu ishlar o‘qituvchining kompetentlilik darajasini namoyish etish bilan birga bolalarning ma’naviy kamolotiga ham o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ayni zamonda, ota-onalarning oiladagi tarbiyaviy ishlari samaradorligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Butun adabiy ta’lim mazmunan asoslangan: *“O‘quvchi ma’naviy kamolotining asosi bo‘lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqillik”* degan tushunchaning mohiyatiga kiring. Shu vaqtgacha o‘rganganlaringizga asoslanib bu g‘oyani tahlilga torting. Qarashlaringizni asoslang.

2. Matndagi: *“O‘quvchilariga imkon qadar ko‘p va chuqur bilim bera oladigan o‘qituvchi bugun yaxshi o‘qituvchi emas”* degan fikrga o‘z munosabatingizni bildiring. Fikringizni asoslang.

3. Yuqorida qayd etilgan: *“Istiqlol davri milliy tarbiyashunosligida sinfdagi har bir o‘quvchini o‘z-o‘zini tarbiyalashi va bilimlarni o‘zlashtirishi yo‘lida faol, tinimsiz ishlata oladigan, ularni mustaqil va mantiqli fikr sohibi bo‘lishini ta’minlaydigan, o‘quvchi shaxsida o‘z qarashlarini asoslay oladigan hamda himoya qila biladigan, o‘rni kelganda g‘oyalari uchun kurashishga qodir insonni tarbiyalashni biladigan ustoz yaxshi o‘qituvchi hisoblanadi”* tarzidagi qarashga nima deysiz? Qo‘shilsangiz ham, qo‘shilmasangiz ham qarashlaringizni asoslang.

4. Matnda shunday fikr bor: *“Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmaslik kerakligidir”*. Siz buni qanday tushunasiz? Butun maktab hayotingizda ham, oʻrta maxsus taʼlimi davrida ham, hatto oliy taʼlimdagi faoliyatingizda ham uy vazifalarini bajarishingiz shunday qarashga asoslanganmi, yoʻqmi? Fikringizni dalillang. Qolaversa, nima deb oʻylaysiz, bunday uy vazifalarini qanday tashkil etish mumkin? Shu haqda ham oʻylab koʻring.

5. Mavzu mazmunidan uy vazifasining zimmasiga ortiladigan masʼuliyat bilan bogʻliq fikrlarni alohida koʻchirib yozing. Ularning mohiyatiga kiring, tahlilga torting, munosabat bildiring.

6. Oʻquvchilarning uy vazifalarini qanday tashkil etish borasidagi jamiki fikrlarni alohida koʻchirib yozing. Ularni oʻrganing va tahlilga torting. Munosabatingizni oʻrtoqlashing.

7. Uy vazifasini soʻrash bilan bogʻliq quyidagi fikrga diqqat qiling: *“Har safar, uy vazifasini soʻrashda oʻquvchilarning oldiga taqqoslash va umumlashtirishga undash uchun qoʻyilgan savollar ularning aqlini zoʻriqtiradi”*. Sizningcha, kichik oʻquvchini *“taqqoslash va umumlashtirishga undash”*ga yoʻnaltiradigan savol va topshiriqlar qanday boʻladi? Qarashlaringizni biror badiiy asar misolida dalillang.

8. Uy vazifasini soʻrash bilan bogʻliq jamiki fikrlarni ajrating. Ularni izohlang. Munosabat bildiring.

9. *“Oʻqituvchi qanchalik bilimdon, saviyasi ne qadar baland boʻlsa, tarbiyalagan oʻquvchilarini ham oʻzining darajasida yuqorilatib boraveradi”* tarzidagi hukm-xulosaga diqqat qiling. Mamlakatning, millatning ertasi sizning shaxsingiz, mahoratingiz bilan ne qadar bogʻliq ekani haqida oʻylab koʻring. Qanoatlaringizni ovoz chiqarib eʼtirof qiling, agar bunga jurʼatingiz etmas, adabiyot daftaringizga yozib qoʻying. Amaliy faoliyatingizda kerak boʻladi.

10. Oʻquvchilarga uy vazifalari berish borasida oʻqituvchilarga xos boʻlgan umumiy illatlarni ajrating. Ularni bartaraf qilish yoʻllarini tavsiya eting. Mazkur fojea-muammoni birgalikda muhokamaga torting.

11. Oʻquvchida siz oʻqituvchi sifatida shakllantirishingiz lozim boʻlgan *“shaxslik sifatlar”* haqida oʻylab koʻring. Ularni nomma-nom sanang va qayd eting. Sanalgan fazilatlarining oʻz *“men”*ingizda

qanchalik mavjudligi haqida o'qituvchilik mas'uliyati bilan fikr yuriting.

12. O'quvchilarga uyda o'qish uchun beriladigan vazifalarning alohida xususiyatlarini ajrating va muhokamaga torting. Muhim va nomuhimlarini belgilang. Munosabat bildiring.

13. Adabiy ta'limning boshlang'ich bosqichida o'qilgan asarlar yuzasidan berilgan uy vazifalarining qaysi biridan yuqori sinflarda ham foydalanish mumkin deb o'ylaysiz? Fikringizni nimlar bilan asoslaysiz?

14. Suratlar bilan ishlash borasidagi uy vazifalariga qo'yiladigan talablarga diqqat qiling. O'quvchilarga bunday topshiriqlar berish uchun o'zingiz suratlarni o'qish borasida ma'lum bilimga ega bo'lishingiz kerakligini ta'kidlash shartmasdir!? O'qituvchingizga metodika darslarida suratlar bilan ishlash mashg'ulotlarini taklif qiling. Birgalikda o'zingizda tasviriy san'at namunalarini o'qish ko'nikmasini shakllantirib boring.

15. Istalgan mavzuda uy inshosi yozing. O'rtoqlaringizning inshosini bir o'qituvchi sifatida tekshiring. Xulosalaringizni, xato va kamchiliklarni muhokama qiling.

## **19-mavzu. Boshlang'ich adabiy ta'limda ko'rsatmalilik. Texnik vositalar va internet ma'lumotlaridan foydalanish**

### **Reja:**

1. Ko'rsatmalilik vositalarning turlari
2. Axborot tarmoqlaridan foydalanish imkoniyatlari.
3. Darsni loyihalashtirishda dasturiy mahsulotlardan foydalanish.
4. Badiiy matn tahlili namunasi: Abdulla Avloniy qalamiga mansub "Aqlli qarg'a" ertagi.

**Tayanch so'zlar:** *jonli mushohada, tevarak-atrof, narsa va hodisalar, idrok etish, ko'rsatmalilik, tamoyil, idrok etish, nazariy bilim, amaliyot bilan bog'lash.*

Insonga xos bo'lgan bilish hissining birinchi pog'onasi – jonli mushohada, ya'ni tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni idrok etishdir. Ko'rsatmalilik tamoyili idrok etishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Bu tamoyil o'rganilayotgan hodisalarga qiziqishni oshiradi, bilimlarni puxtaroq egallanishiga yordam beradi. Ibn Sinoning qayd qilishicha, inson o'zining o'quv mashg'ulotlari boshlanishida narsaning tashqi xossalarni o'rganadi, uning aslini va tasvirini ko'rib o'zicha bevosita bilimlarni hosil qilishi mumkin. Har qanday narsaning ta'rifi uning mavjudligini isbotlash vositasida bilinadi, ya'ni narsa va hodisalar qaysidir bir fan aniqlaydigan xususiyatlardan iborat bo'ladi<sup>99</sup>. Bu qanoat o'qitishdagi ko'rsatmalilik tamoyilining faqat bir jihatini yoritadi. Insonda mavjud narsalar yoki ularning tasvirlarini idrok etish orqali ob'ektiv voqelik to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi va shu asnodan ularni to'g'ri ta'riflash imkoniyati tug'iladi.

Olimning ta'limotlaridan inson narsa va hodisalar, ularning xususiyatlarini ko'rish (vizual), eshitish (audial), tatib ko'rish, hidlash, sezish (taktil) orqali qabul qilishi, ularning asosiy qismini, ya'ni to'qson foyizdan ortig'ini ko'rish va eshitish orqali o'zlashtirishi ma'lum. Narsa va hodisalarni idrok etish tashqi sezgi organlari orqali amalga oshadi va ushlab ko'rish bilan ham ro'y beradi. Ushlab ko'rish sezilgan narsaning issiqligi, sovuqligi, namligi, quruqligi, qattiqligi,

---

<sup>99</sup> Ибн Сино Абу Али. Избранные произведения, Т. I. – Душанбе: Ирфон, 1980. 97 – 98-бетлар.

yumshoqligi, og'irligi, engilligi, shakli va hokazolarini bilish imkonini beradi. Teri va mushaklar esa sezgi quolidir. Nervlar ana shu hisni mushaklar va teriga etkazadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, internet orqali o'zlashtiriladigan o'quv materiallari ham ko'rish va eshitish orqali o'zlashtiriladi. Ma'lum bo'ladiki, internet materiallari nisbatan o'zlashtiriluvchan ahamiyat kasb etadi.

Yan Amos Komenskiy ham «Buyuk didaktika» asarida ifodalagan «oltin qoida»sida o'quvchilar sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, xususan: ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerakligini ta'kidlagan. Birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni, iloji boricha, bir necha sezgilar yordamida idrok etish lozimligini aytgan. Bu qoidaning uch asos bor.

Birinchi, avval sezmagani narsasi haqida kishida bilim ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'qitish narsalar haqida quruq mulohaza yuritishdan emas, balki narsalarni bevosita kuzatishdan boshlanishi kerak.

Ikkinchi, bilimning to'g'ri va aniqligi ham faqat sezgilarning guvohligiga bog'liq. Demak, bilim sezgilarga qanchalik ko'proq tayansa, u shunchalik ishonchli bo'ladi. Bolalarga haqiqiy va mustahkam ilm berish uchun, umuman, hamma narsa bevosita kuzatish va sezgilar asosida o'qitilishi kerak.

Uchinchi, sezgilar – xotiraning eng ishonchli vositasi. Agar kishi tuyani bir ko'rgan bo'lsa, biror marta qand egan bo'lsa, Rimga bir marta borib, uni diqqat bilan tomosha qilgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa, bularning hammasi xotiracida mustahkam qoladi va hech qachon esidan chiqib ketmaydi.

Olim bu mulohazalarini mustahkamlash uchun Plavtning quyidagi fikriga tayanadi: «Eshitganini aytib beradigan o'nta kishidan o'z ko'zi bilan ko'rgan bitta guvoh afzal»<sup>100</sup>.

Ya. A. Komenskiy xulosasi bo'yicha o'quvchini boshqalarning narsalar haqidagi kuzatishlari va guvohliklarini emas, balki o'sha narsalarning o'zini bilishga va tadqiq etishga o'rgatish zarur. Maktab amaliyotida ham darsda o'rganiladigan hodisaning eng muhim

---

100 Коменский Я. А. Буюк дидактика. –Т: Ўқитувчи, 1975. 174–175-бетлар.

tomonlarini aniq ifodalaydigan, ana shu belgilarni avval ajratishda, keyin guruhlashda, umumlashtirishda o'quvchilarga xalaqit beradigan ortiqcha elementlardan xoli ko'rsatmali qo'llanmalardan, shuningdek, obrazli tasvirlarga uyg'unlashgan holda, ya'ni o'quvchilarning fikrlashini muayyandan mavhuma oson yo'naltiradigan qilib ishlangan ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanish g'oyat samarali tadbirdir.

Boshlang'ich sinflarda ob'ektlarning o'zini namoyish etish yoki ular bilan bevosita tabiatda tanishish, darslarda narsalarning o'zidan iborat tarqatma materiallarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Rasmi ko'rsatmali qo'llanmalar: manzara tasvirlari, diapozitiv va diafilmlarning samarasi kamroq bo'lsa-da, ular orqali ham u yoki bu narsalar to'g'risida qaysidir darajada yaxlit tasavvur hosil qilish mumkin. Aralash ko'rsatmali vositalar to'plami ham o'quv jihozlarning muhim elementi hisoblanadi. Ular darc vaqtida turli ko'rsatmali vaziyatlarni yaratish, tez o'zgartirish va birlashtirishda yordam beradi. Buning uchun rasmi materiallardan foydalaniladi yoki doskaga bo'r bilan rasmlari, chizmalari chiziladi va har xil yozuvlar bajariladi.

Mazkur vositalar jumlasiga magnitli taxta va flanelegraflar ham kiradi. Ularning didaktik imkoniyatlari bir xil. Ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda beqiyos katta ahamiyatga molikdir, ammo o'quv jarayonida audio-vizual qo'llanmalar, ahyon-ahyonda boshqa ko'rsatmali vositalardan ham foydalanish zarur. Buning quyidagi turli variantlari bor:

1. Dasturdagi ashyolarni qayta ishlash mavzu bo'yicha kirish darsida o'quv filmini namoyish etish va keyingi darslarda kino – kolsovkalar, kinofragmentlar, diapozitivlar, diafilmlar va jadvallarni qo'llash.

2. Mavzuning xususiy masalalarini diapozitivlar, diafilmlar, jadvallar, namoyish kilinadigan tajribalar, kinofragmentlar va kinokolsovkalardan foydalanib ishlab chiqish. Mazkur mavzu bo'yicha umumlashtirish darsida o'quv filmlarini ko'rsatish.

3. Darsda o'qituvchining tushuntirishi bilan birgalikda diafilmlar, diapozitivlar, kinofragmentlarni va darsning oxirida o'quv filmini namoyish etish.

4. O'quvchilarning tasavvurini kengaytirish, ularda shakllanadigan tushunchalar mazmuni to'liqligini ta'minlash uchun ekran qo'llanmalarining bitta seriyasidan foydalanib o'quv materialini ishlab chiqish va ularning boshqa to'plamini qo'llab, bilimlarni mustahkamlash.

Ko'rsatmali vositalarning turli didaktik vazifalari va imkoniyatlarini nazarda tutib ularni kompleks holda qo'llash talab qilinadi. Shu taqdirdagina darsning bilish bilan bog'liq vazifasini hal qilish eng yuqori bosqichga ko'tarilishi mumkin. Shu bilan birga, o'rganilayotgan hodisaning turli jihatlarini yoritish lozim bo'lgandagina har xil ko'rsatmali qurollardan foydalanish o'zini oqlaydi. Chunki mazkur jihatlarining har birini ko'rsatmalilikning ma'lum turi yordamida ishonarli tarzda va to'la yoritish mumkin. Ko'rsatmali vositalarni tanlashda ularning imkoniyatlarini har bir o'quv predmetining o'ziga xos xususiyati va har qaysi darsning mazmuni bilan taqqoslash zarur.

Ko'rsatmali qo'llanmalar o'quvchilarga ko'rsatmalilikning quyidagi har xil turlaridan foydalangan holda taqdim etiladi:

1. Tabiiy ko'rsatmalilik – o'quvchilarni mavjud ob'ektlar, o'simliklar, hayvonlar, minerallar va hk.lar bilan tanishtirishni taqozo etadi. Tabiiy ko'rsatmalilikni sinfda ham, ekskursiyalar paytida ham namoyish etish mumkin.

2. Hajmli ko'rsatmalilik – mavjud olam hajmining aks etishidir. Bu fotosuratlar, rasmlar, diafilm va diapozitivlardan iborat bo'ladi.

3. Ovozli ko'rsatmalilik – tovush obrazlarini ifodalash uchun ovozli vositalardan foydalanish. Gramplastinkalar va magnitafon yozuvlarini eshitish, ovozli kino va hk.

4. Simvolik va grafik ko'rsatmalilik – xaritalar, rejalar, sxemalar, chizmalar va diagrammalar. Ular mavjud voqelikni shartli umumlashgan simvolik ko'rinishda aks ettirishi sababli fikrlashni rivojlantiradi.

Maktabda birinchi sinfdan o'ninchi sinfgacha ko'rsatmalilikning ana shu barcha turlaridan foydalaniladi, lekin, tabiiyki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yoshini hisobga olib, ularga bevosita kuzatishlarni, shu asosda fikrlash va faoliyat olib borishni topshirish, yuqori sinflarda o'quvchilarning mustaqil va mantiqli fikrlashi

rivojlanishiga ko‘ra simvolik va grafik kuzatishlarni ko‘proq qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ko‘rsatmalilik o‘quvchilar o‘rganiladigan u yoki bu narsalar to‘g‘risida muayyan tasavvurga ega bo‘lmagan paytda juda zarur. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, ko‘rsatmali qo‘llanmalarni namoyish etishga tayyorlanmaslik yoki ularni noto‘g‘ri tanlash faqat zarar keltiradi.

Ta‘lim tizimidagi zamonaviy ko‘rsatmalilikda axborot texnologiyalaridan foydalanish yil sayin rivojlanib borayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta‘lim jarayonini sifat va mazmun jihatidan yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qilayotgani ma‘lum. Ta‘lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish davr talabi. Jumladan, texnologiya, kompyuter, multimedia, internet, yagona axborot muhiti va shunga o‘xshash axborot-kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish dunyo tarbiyashunosligida o‘z samarasini bermoqda.

Bugungi kunga kelib milliy tarbiya tizimida ham intertet o‘qituvchi hayoti va faoliyatining bir qimiga aylanib bormoqda. Chunki u yangi ma‘lumotlar olishning eng qulay va ko‘nikilgan manbaiga aylandi.

Milliy tarbiyashunoslikda ham pedagoglarning ma‘lum qismi darslarida axborot tarmoqlaridan olgan materiallaridan foydalanishadi. Internetning cheksiz-chegarasiz imkoniyatlari darsga tayyorlanish uchun o‘quv materiallarini qidirishni osonlashtirdi. O‘qituvchilar o‘quv materialini internet orqali elektron variantda topishning afzalliklarini bilishadi. Sababi ular bu bilan:

- bilimlarini mustaqil ravishda orttirib boradilar;
- masofadan o‘qish orqali malakalarni oshirib boradilar;
- darslarni tayyorlash va tashkil etish bo‘yicha o‘quv materiallarini topadilar;
- mutasaddi idoralarning zaruriy hujjatlarini topadilar;
- pedagogik yangiliklar haqida ma‘lumotlar oladilar;
- eng yangi pedagogik topilmalarga ega bo‘ladilar;
- o‘z metodik ishlanmalarini hamkasblari bilan o‘rtoqlashadilar;
- o‘zining maqola, reja va dars ishlanmalarini chop etadilar;
- boshqa hududlardagi hamkasblari bilan ma‘lumot almashadilar;



- internet-do'konlardan metodik adabiyotlarni sotib oladilar va hk.

Bulardan tashqari, o'z faoliyatlarida internet darslar tashkil qilishda ham foydalanadilar:

- o'quvchilarni sinfda va sinfdan tashqari o'qishini tashkil etadilar;

- o'quvchilarning internetdan to'g'ri foydalanishlariga ko'maklashadilar;

- tarbiyalanuvchilarining jamoa bo'lib ishlashlarini tashkil etadilar;

- o'quvchilarning ma'lumot olish imkoniyatlarini oshiradilar.

Internet-resurslarning dunyo tarbiyashunosligida zamonaviy darslarni tashkil etishdagi imkoniyatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- o'qituvchi uzoq yillar o'rganib qolgani an'anaviy o'qitish bo'yicha bilimlarini yangilab, internet orqali o'zining metodik bilimlar omborini boyitib boradi;

- boshqa hamkasblarining tajribalarini, ularning tavsiyalari va dars ishlanmalarini o'rganadi;

- o'zining dars rejasi, ishlanmalari, maqola va yangi g'oyalarini chop ettiradi.

Bularning barchasi o'qituvchining kasbiy faoliyatini sifatli amalga oshirishga imkon beradi. Buning uchun o'qituvchilarning quyidagilarni amalga oshirishi masadga muvofiqdir:

- o'quvchilarga yuklanadigan topshiriqlar hajmini aniqlab olish;

- o'z an'anaviy o'qitish usullari bilan birga zamonaviy internet materiallaridan foydalanish;

- internet orqali hamkasblar darslarini kuzatish, zarurat tug'ilsa, ularning tajribalaridan o'z amaliyotida foydalanish.

Bundan tashqari, nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilar ham sinfda yoki kutubxonada internet orqali zarur o'quv materiallarini topishi, topgan materiallarini o'rtoqlari bilan bo'lishishi, bilimlarini, uy vazifalarini o'qituvchisiga internet orqali topirishlari ham mumkin. O'qituvchi va o'quvchilarning internet orqali doimiy muloqoti bu faoliyat samaradorligini ham ta'minlaydi.

Internetdan izlash tizimi o'quvchilarga har xil yo'nalishdagi multimedia-ma'lumotlarini tanlash imkoniyati bilan taqdim etadi. O'quvchilar har xil ma'lumotnoma (spravochnik)lar, qomus (ensiklopediya)lar va o'quv materiallariga kirish, eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Internet imkoniyatlari bugungi kunda shunchalar kattaki, u har xil masalaning uyda yoki maktabda, o'tirgan joyidan qimirlamay yechimini topish imkoniyatini yaratadi. Ma'lumotlar omboriga kutubxonalar, fonotekalar, filmotekalar orqali kiriladi. Bu shakldagi qidirish serverlari bilan ishlash aynan nimani qidirish kerakligini aniq bilganda qulay va oson kechadi.

Internet tarmog'ida materiallarning turfa multimedialari mavjud. O'quvchilar mavjud materiallar orasida muhimini va zarurini tanlab olishlari qiyin kechadi. Shu bois qidiruv serverlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq deb topilgan. Ularda ham har xil mavzularga yo'naltiruvchi bunday serverlar foydalanuvchilarning talablariga binoan zarur manbani qidirishga kirishadi.

O'qituvchilarning darslarida internet texnologiyalaridan foydalanishi darslarni ham, o'quv fanini ham belgilab qo'yilgan vaqt meyoridan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Sababi o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi dars tugashi bilan to'xtab qolmaydi. Bola qiziqdimi, demak izlanadi.

Maktab va oliy o'quv yurtlari kutubxonalarining internetga ulanishi o'quvchi va talabalarning qidirish, to'plash, ma'lumotlarni qayta ishlash ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. O'z navbatida, ta'lim maqsadi va DTS talablariga muvofiq vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda.

Zamonaviy maktabning vazifasi o'quvchi shaxsining muvaffaqiyatli taraqqiyotini ta'minlash, uning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy fazilatlarini oshirishi o'quvchining dunyo miqyosidagi ma'lumotlar olamida teng huquqli foydalanuvchi sifatida shakllana borishi garovidir.

Maktab va oliy o'quv yurtlari ta'lim-tarbiya jarayonida internet texnologiyalari, telekommunikatsion vositalardan tizimli foydalanilishi, xodimlarning innovatsion vositalar ko'magida ish yuritishi darslarning maqsadi, o'quv rejasi, dars shakllari va

metodlaridan o'quvchilarni o'qitishda qanchalik qo'l kelayotganini kuzatish imkonini ham bermoqda.

Masalan, boshlang'ich ta'lim texnologiya darslarida ham o'quvchilarni elektron pochtdan qanday foydalanish, qidirish ishlarini qanday amalga oshirish, zarur ma'lumotlarni internet orqali qanday qilib tez topish, uy vazifalari uchun zarur bilim va ma'lumotlarni topish yo'llari o'rgatilmoqda.

O'qituvchi dars rejasini noan'anaviy, nisbatan qiziqarli tarzda tuzish va shu asosda darsni tashkil etish uchun u internet orqali ko'rgazma materiallar (suratlar, jadvallar, fotosuratlar)dan, multimediya materiallaridan foydalanadi. Har xil tanlovlar, ko'rgazmalar, grantlarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dunyo miqyosida maktablar internet-texnologiyalarining yangi bosqichiga, ya'ni o'quv rejalarida alternativ ta'lim elementlarini qo'llashga o'tib bormoqdalar. Bu bilan ba'zi o'quv muammolarini hal qilishga erishmoqchilar.

Bu nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilarga ham o'quv maqsadlarini amalga oshirishni, dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini orttirish va shaxsini to'g'ri shakllantirishga imkoniyat yaratishi nazarda tutilgan. O'quvchilar har xil saytlardan o'zlariga qulay sharoitlarda ta'lim olishlari mumkin. Bunda asosiy mas'uliyat bolalarga yordam berish va ularni yo'naltirish vazifasi ota-onalarga yuklatiladi.

Yangi, zamonaviy informatsion texnologiyalar orqali o'quvchilar bilimlarni istagan joylarida olishlari mumkin. Ma'lum mutaxassislik bo'yicha bilimlarni, dunyoqarashini kengaytirish va mlakalarini oshirishda zarur bo'ladigan ma'lumotlarni uyda o'tirgan holda dunyo miqyosidagi kutubxonalaridan olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarda dunyo bo'ylab tengdoshlari bilan muloqot imkoniyatlari paydo bo'ladi. Ular boshqa o'qituvchilar, dunyo miqyosidagi olimlar, mutaxassislardan o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. O'quvchilar internet-bilimlarni kompyuterlashtirilgan sinflarda o'tirib mustaqil ravishda olishlari mumkin.

Internet-texnologiyalar bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashdan tashqari bolalarning ma'lumotlar bilan to'yinish

muammosini ham keltirib chiqaryapti. Bundan tashqari, o'quvchilar ayrim nokompetent saytlardan yolg'on ma'lumotlarni ham olyaptilar.

O'quvchilar internet ma'lumotlar oqimiga kirib tayyor ma'lumotlarni olish bilan birga mavjud mavzu bo'yicha o'z nuqtai nazariga ham ega bo'lishlari kerak. O'quvchi bu masalani mustaqil ravishda hal qilolmaydi. Bu degani, o'quvchini ma'lumotlar oqimida yolg'iz qoldirish mumkin emas.

Bundan tashqari, internet-texnologiyalarni bolalarni o'qitish ishlariga olib kirishning ijobiy tomonlarini qayd etgan holda shuni ham aytish joizki, ular har qanday ma'lumotga tekin kirish imkoniyatiga ega bo'lgandan keyin o'zgalarning ishlarini o'zlashtirib olib, oddiygina fikrlash yoki munosabat bildirish, mulohaza yuritishdan voz kechmoqdalar. Aniq aytiladigan bo'lsa, o'quvchilar tayyor insholarni ko'chirib olib ularni o'zlarining mustaqil ijodiy ishlari sifatida taqdim etmoqdalar. Bunday salbiy hislatlar shakllanishining oldini olish uchun o'qituvchi yordamiga ehtiyoj sezilmoqda.

Qisqa qilib aytganda, milliy maktabni zamonaviy informatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars o'tish boshlang'ich sinflar o'qituvchilari va o'quvchilari uchun ham oddiy ta'lim jarayoniga aylanib bormoqda. Lekin internetdan oqilona foydalanish uchun avval bolalarning saviyasiga ishlash, ma'naviyatini sog'lom shakllantirish, ruhiyatini tozartirish taqozo etiladi.

Bugun internet butun ijtimoiy hayotni qamrab olmoqda. Internetdan foydalanuvchilar va informatsion sahifalarning soni kundan kunga ortib bormoqda. Internet, eng avvalo, ma'lumotlar tarmog'i. Juda katta ma'lumotlar hajmi internetni ma'lumotlar qidirishda tengsiz tarmoqqa, manbaga aylantirib qo'ymoqda. Bu tarmoqdan nafaqat o'qituvchi, o'quvchilar ham foydalanib o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olmoqdalar. Bugungi talabalar bilim va ma'lumotlarni kitoblardan emas, osongina, uyda o'tirib internetdan qidirmoqdalar. Bugun o'quvchilar ham internet resurslaridan unumli foydalanishga ehtiyoj sezmoqdalar. Ota-onalar ham, maktab ham o'quvchilarning veb-imkoniyatlardan samarali foydalanishlariga e'tibor qilishlari, masalan, yo'nalishli onlayn konferensiyalarda qatnashishlari, o'z saytlarini tuzish ishlarida foydalanishlarini nazorat

qilishlari, ularni foydali ishlarga yo'naltirishlari maqsadga muvofiqdir.

Mutaxassislar farzandlarini internetdan foydalanishni ta'qiqlagan ota-onalarni ham ayblamoqdalar. Bu, o'z navbatida, bolalarga tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishga, tengdoshlaridan ortda qolishga, ota-onalarga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishiga olib kelishini ta'kidlamodalar.

Axborot texnologiyasi faqatgina ta'lim tizimiga kirib kelmasdan shu sohaning barcha bo'g'inlarini boshqarish, tashkil qilish, axborot resurslari bilan ta'minlash, ish yuritish hujjatlarini tezlik bilan topish, moliyaviy tizimini yo'lga qo'yish kabi muhim ishlarni amalga oshirishda xizmat qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim tizimiga kirib kelishi – ta'lim tizimida ham sifat o'zgarishi omili bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda, ta'lim tizimining har bosqichini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kundalik hayotda media-texnologiyalarning o'rnini tobora kengayib bormoqda. Katta hajmdagi yangi axborotlar, reklamalar, televidenie ko'rsatuvlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, kompyuterlar va ulardan foydalanish talabalarning ta'lim-tarbiyasi, ularning atrofdagi voqea-hodisalar to'g'risidagi tasavvurlari, tafakkuri hamda idrokiga katta ta'sir etmoqda.

Ilgari talabalar istalgan mavzuga oid axborotlarni: darslik, ma'lumotnoma adabiyotlar, o'qituvchi beradigan saboqlar, darsni konspektlashtirish vositasida egallagan bo'lsalar, bugungi kunga kelib, asosan elektron darsliklar, internet orqali o'zlashtirmoqdalar. Shu sababli ham o'qituvchi zamonaviy voqelikka to'g'ri yondashgan holda ta'lim jarayoniga axborot uzatishning yangi metodlarini olib kirishi zarur.

Katta hajmdagi axborotlarni har bir talaba qisqa vaqt mobaynida o'zlashtirishi, ongida shakllantirishi va amaliy faoliyatida foydalana olishni bilishi zarur. Zamonaviy texnika vositalaridan foydalanilgan darslarda har bir talaba o'zini erkin his etib, faol ishtirok etishi, darsga qiziqish bilan yondashib, ijodiy fikrlashi, o'z mehnati samarasini ko'rib, uni baholay olishi zarur. Oliy maktab domlasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, dars o'tishga

tayyorgarlik ko‘rishda bu jiddiy ta’lim dasturiga oid dars materiali ekanligini unutmasligi zarur.

Darsni loyihalashtirishda o‘qituvchi turli dasturiy mahsulotlardan foydalanadi. Dars jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishda tayyor dasturiy mahsulotlar (ensiklopediya, lug‘atlar, ta’limiy dasturlar va hk.lar) dan foydalanishda kompyuterning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Kompyuter texnologiyasi vositasida dars o‘tish barcha fanlardan laboratoriya mashg‘ulotlarini, amaliy mashg‘ulotlarni, yangi mavzularni ko‘rgazmali tushuntirish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘tilgan darslarning materiallarini talaba mustaqil qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

Axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanishning afzalligi: ta’limni individuallashtirish; talabalarning mustaqil ishlarini mujassamlashtirish; darsda amalga oshirilgan topshiriqlar hajmining oshishi; internetdan foydalanilganda axborot oqimi doirasining kengayishi natijasida o‘zlashtirishda faollik, darsda motivatsiyaning kuchayishi ko‘rish mumkin.

Darslarni axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanib tashkil etishda o‘qituvchi o‘z mehnatining ko‘p qismini kompyuterga yuklashi mumkin bo‘ladi. Bu bilan darsni yanada qiziqarli, rang-barang qilib, mazmunan boyitadi. O‘qituvchi o‘quvchining bilimini o‘z vaqtida xolisona baholab boradi, ularga noan’anaviy saboq berish usullarini topishga ijodiy yondashadi. Bu o‘qituvchining kasbiy jihatdan rivojlanishiga ham asos bo‘ladi.

O‘quvchining bilimini qisqa vaqt mobaynida aniqlab, uni to‘g‘ri yo‘naltirishida o‘qituvchi oldida qulay imkoniyat yaratiladi. Bundan tashqari, o‘quvchi olishi kerak bo‘lgan axborotni hali davr talabiga mos vaqtida, o‘z dolzarbligini yo‘qotmasdanoq olish imkoniyati mavjudligi va topshiriqning murakkablik darajasini to‘g‘ri baholash sharoiti yaratiladi.

O‘quvchilar kompyuterda masalalarni echish, jadval va grafik yechimlarni tuzish, chizmalar chizish, bog‘lanishli matnlar yaratish, rasmlar chizish kabi ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilar ijodiy tafakkuri rivojlanishiga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday bo‘lsada, o‘z kasbining mahoratli sohibi bo‘lgan o‘qituvchi tomonidan o‘zining chuqur bilimi, katta tajribasiga

tayangan holda, axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanib o'tkazgan dars mashg'ulotlari, talabalar ko'z oldida namoyish etilgan media-mahsulotlari, ko'rgazmali materiallari asosida yanada qiziqarli bo'lib, oson o'zlashtiriladi va ularda mustaqil fikrlash hamda o'z ustida ishlash malakalarini mustahkamlaydi.

Oliy maktab ta'limi jarayonida axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni o'zlashtirib olgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z amaliy faoliyatlarining samaradorligini ta'minlashda ham internet ma'lumotlariga murojaat qiladilar. Masalan, boshlang'ich adabiy ta'limni samarali tashkil etish maqsadida internet orqali mavzugu daxldor syujetli rasmlar, ilmiy-ommabop lavhalar, badiiy asarlarning mazmuni va qahramonlariga ishlangan suratlar, o'zi uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumotlarni topib foydalanishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, o'quvchilarini ham internet ma'lumotlaridan foydalanishga yo'naltiradilar. Boshlang'ich adabiy ta'limning bunday zamonaviy tarzda tashkil etilishi o'quvchilarning ham diqqatini tortadi, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Faqat buning uchun o'qituvchi ham, o'quvchi ham ingliz va rus tillarini bilishi taqozo etiladi. Sababi hozirda o'zbek tilida istalgan ma'lumotni internetdan topish imkoniyati kam.

E'tibor qilinsa, mazkur darslikda ham bir qator ma'lumotlar internet orqali olinganini, talabalarga yo'nalish berishda, tavsiyalar berishda internet orqali ma'lumotlar tavsiya etilganini payqash mumkin. Bu ham, o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etishda internet materiallaridan foydalanishga yo'naltirishdir. Masalan, boshlang'ich adabiy ta'limda syujetli rasmlardan foydalanilganda tavsiya etilgan internet manbaalarini ochib tavsiya etilgan suratlarni ekranda namoyish etish va bevosita uning tahlilini amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ko'rgazmalilikning zamonaviy usullari bilan birga an'anaviy tamoyillaridan ham o'rni bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayni zamonda, o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalariga oqilona yondashishini nazorat qilish ham o'qituvchining bugun paydo bo'lgan yangi vazifasidir.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

Amaldagi birinchi sinf “O‘qish kitobi” darsligida Abdulla Avloniy qalamiga mansub “Aqlli qarg‘a” nomli ertagi o‘rganish uchun taqdim etilgan<sup>101</sup>: *“Yoz fasli jaziramasida hamma yoqda suvlar quribdi. Bechora qarg‘a suv yo‘qligidan chanqab, juda qiynalibdi. Har tarafdin suv axtarar ekan, birovning oldida turgan ko‘zani ko‘rib qolibdi. Ko‘zaning yoniga kelib qarasa, ichida suv bor ekan. Lekin bo‘ynini suqib ichay desa, bo‘yi etmabdi. Shunda u tumshug‘i bilan toshlarni yig‘ib, ko‘zaning ichiga tashlay boshlabdi. Birozdan so‘ng ko‘zaning ichidagi suv ustiga chiqibdi. Aqlli qarg‘a suvdan ichib, tashnalik balosidan qutulib, uchib ketibdi”*. Bu hikoyani o‘rganishni birinchi sinf o‘quvchilarga qiziqarliroq o‘tish uchun kompyuterdan qarg‘alarning har xil holatdagi suratlarini topib ekranda namoyish etiladi. Rus tilidagi “Vikipediya”dan qarg‘alarning tashqi ko‘rinishi, oziqlanishi (hatto bolalarga qarg‘aning ovozi ham eshittirish mumkin), yashash tarzi haqida ilmiy ma‘lumotlar beriladi<sup>102</sup>. Qarg‘aning aqlliligini hayotiy haqiqatlar misolida ham o‘quvchilarga ma‘lumotlar beriladi. O‘quvchilar qarg‘a haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lganlaridan so‘ng yuqoridagi matn o‘qib eshittiriladi. Darslikda mazkur matn mazmuni yuzasidan: “Qarg‘a jaziramada nega qiynalibdi?” va “Sarlavha nega «Aqlli qarg‘a» deb nomlangan?” tarzidagi ikkita savol berilgan xolos. Bu bilan o‘quvchilar matnning mohiyatiga ham kirolmaydilar, Abdulla Avloniy nazarda tutgan sifatlarni ham farqlay olmaydilar. Hikoya matni bilan tanishtirgan o‘qituvchining o‘zi savol va topshiriqlar tuzishga majbur bo‘ladi.

1. Yaxshilab o‘ylab ko‘ringchi, yoz fasli jaziramasida suvlar nega va qanday qilib quriydi?

2. Qarg‘alar haqida hozir eshitganlaringiz ilmiy ma‘lumotlarni eslang. Ular O‘zbekistonda asosan qaysi faslda yashashadi?

3. Qarg‘aning aqlliligini nimada ko‘rdingiz?

4. Qarg‘aning bo‘yni suvga etmagani sababini uning rasmiga qarab asoslab bering.

5. O‘ylab ko‘ringchi, ko‘zachaga qarg‘a tashlangan tosh bilan suv ko‘tariladimi? Istantangiz buni amalda tekshirib ko‘ring.

---

101. O‘qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. /Muallif-tuzuvchilar: T. G‘afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. — T.: «Sharq», 2017. 53 – 54-betlar.

102. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Борон>



6. Ko‘zaga tosh tashlanganda suv qanday qilib ko‘tariladi, deb o‘ylaysiz?

7. O‘ylab ko‘ring, qarg‘a ko‘zachadagi suvni ichish uchun yana qanday aqlli xatti-harakatlar qilishi mumkin edi?

8. Qissadan hissa chiqarishga urinib ko‘ring. Ertakchi bobo bu ertagi bilan sizga nimalarni tushuntirmoqchi bo‘lyapti deb o‘ylaysiz?

9. Asarga siz qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz? Nima uchun ertakni shunday nomlaganingizni asoslab bering.

10. Shu aqlli qarg‘a bilan o‘zingiz yangi ertak to‘qing.

Shu tariqa savol va topshiriqlar ustida ishlanib, internet materiallaridan oqilona foydalanilib o‘tilgan dars birinchi sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini boyitadi, bilimni orttiradi, saviyasini ko‘taradi, mustaqil va mantiqli mulohaza yuritishga o‘rgatadi. Aks holda badiiy matnlar o‘qilgan joyida qolib ketaveradi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Darslikda taqdim etilgan barcha internet sahifalariga kiring. Mazkur sahifalardan mavzuga doir materiallardan foydalanishga urinib ko‘ring.

2. Internet sahifalaridan boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limini samarali tashkil etishga yordam beradigan sahifalarni qidirib toping. Topgan ma‘lumotlaringiz va yangiliklaringizni bir-biringiz bilan o‘rtoqlashing.

3. Internet orqali Xurshid Davronning “kh-davron.uz/”saytiga kiring. Uning “youtube”dagi va “facebook”dagi sahifalariga ham kiring. U erdan bolalar adabiyoti bilan bog‘liq materiallarni qidirib toping va ko‘chirib oling. Topgan materialingizni darslarda o‘rganganlaringiz asosida tahlilga torting.

4. Internet orqali rus tilidagi “Vikipediya”dan qarg‘a haqidagi ilmiy ma‘lumotlarni qidirib toping. Qarg‘aning aqlliligini namoyish etuvchi ma‘lumotlarni axtaring.

5. Siz ham o‘quvchilarga berilgan savol va topshiriqlarga javob beriga urinib ko‘ring. Matndagi barcha gaplar haqiqat deb o‘ylaysizmi?

6. “Internet” mening taqdirimda” mavzusida kichik esse yozing.

## 20-mavzu. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish yo'llari

### Reja:

1. Boshlang'ich adabiy ta'limda og'zaki va yozma nutqni o'stirish usullari.
2. O'quvchilar nutqining rivojlanishi quyidagi ko'nikmalari
3. Qayta hikoyalashning o'ziga xos talablari
4. Badiiy matn tahlili namunasi: Jajji she'rlar tilsimi

**Tayanch so'zlar:** *savod o'rgatish, nutq o'stirish, o'qish va nutq o'stirish, grammatika va nutq o'stirish, to'g'ri yozish va nutq o'stirish*

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish bu bosqichning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, nutq har qanday aqliy faoliyat va muloqotning asosi hamdir. O'quvchilarning taqqoslash, tasniflash, tahlillash, mustaqil va mantiqli mulohaza yuritish, tizimlash hamda umumlashtirish, xulosalar chiqarish singari aqliy faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalari nutq orqali shakllanadi. Ayni vaqtda, o'quvchining og'zaki va yozma nutqiy faoliyatida ham namoyon bo'ladi. O'quvchining aqliy rivojlanganlik darajasi og'zaki va yozma nutqidagi mantiqiy tiniqlik, qarashlarning dalillanganligi va obrazlilikida ham ko'rinadi. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarning bog'lanishli nutqi, ya'ni matn yaratishdagi muvaffaqiyatlari boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishdagi imkoniyatini ham oshiradi. Bundan tashqari, o'qish ko'nikmalarining to'laqonli shakllanishini va imlo savodxonligi ortishiga ham ijobiy ta'sir kshrsatadi.

Nutqni o'stirish o'qish va imlo savodxonligi, to'g'ri yozish qoidalarini o'zlashtirish jarayonining shakllaridan biridir. So'zdan ibora, jumla va bog'lanishli matn yaratishda to'g'ri hamda o'rinli foydalanish qoidalari ustida ishlash, bexato va savodli yozish, asosan, boshlang'ich sinflar ona tili darslarining vazifasi hisoblanadi. Ona tili ta'limi dasturi asosiy bandlarining nomi (savod o'rgatish va nutq o'stirish; o'qish va nutq o'stirish; grammatika va nutq o'stirish, to'g'ri yozish va nutq o'stirish) ham nutq o'stirishning boshlang'ich ta'lim amaliyotida qanchalar ahamiyatli va zarur ekanini ko'rsatadi. Lekin

boshlang'ich adabiy ta'lim amaliyoti ham nutq o'stirish ishlariga bevosida daxldordir.

Nutq ichki fikr va qarashlarni ifodalash ehtiyojidan paydo bo'ladi. Nutq jumalarni to'g'ri tuzishga o'rgatish, ya'ni so'zlarni qoldirmay, ma'lum izchillikda, bir-biri bilan to'g'ri bog'lash va talaffuz qilish so'ngra uni yozma shaklda ifodalash demakdir. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini shakllantirishda ularga nazariy ma'lumotlar berish ham maqsadga muvofiqdir. Ya'ni bilim va ko'nikmalar anglangandagina yaxshi o'zlashtirilishi, nutq faoliyatida kutilgan samarani berishi mumkin.

O'quvchilar boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichidan boshlab har xil mashqlarni bajarish asnosida mavzu bo'yicha gapirish, asosiy masalani ochish, fikrini to'g'ri ifodalash va bog'lanishli nutq nima ekani bilan tanishib boradilar. O'quvchilarga qayta hikoya, tahlil, tavsif va muhokama nima ekanini anglashga ko'maklashiladi. Ularda predmetni tasniflash bilan biror surat yoki kuzatishlarini tasniflash orasidagi tafovutni farqlash ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zi ko'rgan-bilganlari va kuzatganlarini tasniflash bilan surat va kuzatishlari haqida hikoya qilish bir-biridan nimasi bilan farqlanishini, batafsil yoki tanlab hikoya qilish nima ekani, didaktik tahlil, og'zaki va yozma inshoning farqi, bayon va insho nima ekanini o'quvchilar boshlang'ich sinflar davridan farqlab borishlari kerak. Bularning barchasini kichik o'quvchilar amalda bajarish asnosida o'zlashtirib boradilar.

Maktab hayotining dastlabki kunlaridan boshlab o'quvchilar qayta hikoyalashga o'z qiziqishlarini namoyon etadilar. Ularning qayta hikoyalashlari va tasvirlashlari dars jarayonini jonlantiradi, tasavvurlari, muloqoti va tashabbuskorligini oshiradi. O'qituvchi savodga o'rgatishning dastlabki kunlaridan boshlab nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga ishlaydi. Shu tariqa kichik o'quvchilarning nutqiy faoliyati – ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan faol kashf etish jarayonini til birliklari yordamida amalga oshirish va har xil vaziyatlardagi o'zaro muloqotda aytilganlarni qabul qilishdan iboratdir.

A. A. Leontev: *«Odam tom ma'noda muloqotga kirishish uchun bir qator ko'nikmalarni: muloqot sharoitida tez va to'g'ri yo'nalishni belgilab olish; o'z nutqini to'g'ri shakllantirish; nutq mazmunining*

*o‘zaro o‘xshash (adekvat) usullarini topish; muloqotni ushlab turish va davomlilikini ta‘minlash kabilarni o‘zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir. Agar muloqot talablarining biror qismi buzilsa, so‘zlovchi undan kutilgan natijaga erisholmay qoladi, ya‘ni suhbat samarasiz bo‘ladi»<sup>103</sup> deya ogohlantiradi.*

Metodik adabiyotlarda o‘quvchilar nutqining rivojlanishi quyidagi ko‘nikmalarning shakllanishi bilan bog‘liqligi ta‘kidlanadi:

1) muloqot vaziyatiga moslashish va o‘zining bu jarayondagi vazifalarini aniqlab olish;

2) muloqot mazmunini rejalashtirish;

3) o‘z fikrini shakllantirish va o‘zgalarni tushunishni bilish;

4) o‘zi va hamsuhbatining nutqini nazorat qilish, uning suhbatdoshga ta‘siri va tushinilishini ta‘minlash.

Boshqa bir adabiyotlarda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma ravishda fikr ifodalashi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar:

1) muloqot vaziyatida mo‘ljalni to‘g‘ri olish, ya‘ni onglilik ko‘nikmasi – muloqot yo‘nalishi, ya‘ni fikr qanday vaziyatlarda, kimga yo‘naltirilgani, nima maqsadda aytilgani (biror yangilikni ma‘lum qilishmi, munosabat bildirish uchunmi, biror narsani tushuntirish uchunmi, suhbatdoshga ta‘sir ko‘rsatish uchunmi)ni bilish;

2) aytilajak fikrlarining mazmunini rejalashtirish ko‘nikmasi – ularning mavzusi va asosiy g‘oyasini, suhbat yo‘sinidagi kichik mavzuchalarni, ularning ketma-ketligini belgilab olish;

3) tuzilgan rejani amalga oshira bilish ko‘nikmasi – har bir fikrni tizimga solgan holda mavzu ko‘tarish va asosiy fikrni ifodalash; bunda adabiy til me‘yorlariga amal qilish; so‘z, so‘z shakllari, iboralar, ohangi va tuzilishiga amal qilish; suhbatdoshning muloqot imkoniyatlarini, shartlarini inobatga olish; suhbat matnining asosiy mazmuni va mohiyatini nazardan qochirmaslik; jumladan jumlagi fikrlar izchilligini ta‘minlash, jumllararo va matn qismlarining aloqadorligini ta‘minlash; nutq madaniyati qoidalariga amal qilish;

4) muloqot vaziyatida aytilganlarni nazorat qilish ko‘nikmasi – gaplarning suhbat mavzusiga aloqadorligini ta‘minlash, asosiy fikr va ifodaning izchilligi, nutq masalalari bo‘yicha qo‘llaniladigan jihatlar,

---

103. Леонтьев А. А. Психолингвистические проблемы массовой коммуникации. – Москва: Педагогика, 1974. – С. 33.

nutq madaniyatiga rioya qilish, nutqning etik xususiyatlarini nazorat qilish; vaziyat taqozosiga qarab nutqiga o'zgartirishlar kiritish;

5) aytilganlarni qabul qilish (eshitish va o'qish) ko'nikmasi – o'zining kommunikativ imkoniyatlarini anglash; sarlavha, muloqotning boshlanishi va boshqa tashqi belgilardan (kitobdagi suratlar, so'zlovchining imo-ishoralari va qarashlari)dan axborotning umumiy mazmuni, mavzusi, maqsadi va davomini tasavvur qilish; so'zlarning ma'nosini tushunish, har bir so'zga ortilgan yukni, tuzilish va ohangni his qilish; alohida dalillarni, ma'lumotlarni, kichik mavzularni ajratish, ularga asoslanib matnning umumiy mazmunini anglash, muhim va nomuhim ma'lumotlarning darajasini, ma'lum va yangi bilimlarni, muhim jihatlarni belgilash; muallif yoki so'zlovchi fikrlarining yo'nalishini, uning asosiy mazmunini tushunish va mohiyatiga kirish; muloqot jarayoni (kitob va suhbat)da axloqiy mezonlarga amal qilish; matnni anglash darajasini, uning mazmuniga qanchalik chuqur kira olayotganini, muallifning pozitsiyasi va munosabatini his qilish; ma'lumotlarni tushunish usullari (matnga qayta murojaat qilish, notanish so'zlarning ma'nosini aniqlash, savollar qo'yish)dan foydalana bilish va hk.

Ko'rinadiki, kichik yoshdagi o'quvchilarning nutqini takomillashtirish ustida ishlash nafaqat fikrni(og'zaki va yozma shaklda) ifodalash, balki ularni qabul qilishni ham nazarda tutadi. O'quvchilarga maxsus kommunikativ mashqlarni bajartirish ham nutq faoliyatini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. Ya'ni o'quvchi ma'lumotni shunchaki qabul qilmasin yoki o'qituvchining topshirig'i bilan qayta hikoyalamasin. Bunday mashqlar nutq faolligi ta'minlashga yo'naltiradigan, fikr aytishga talablar qo'yadigan vaziyatlarni yaratishga xizmat qilishi lozimligi ham nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida sanalgan ko'nikmalarning har birining shakllanishi ma'lum mashqlarni, nazariy ma'lumotlarni talab qiladi. Boshlang'ich adabiy ta'limda kichik yoshdagi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish ustida ishlash mashqlari quyidagicha bo'lishi mumkin. O'quvchilar:

– o'zlari tuzgan matndagi muloqot vaziyatlari va ko'tarilgan masalalarni taqqoslashi;

- sarlavhasi va matnning boshlanish qismidan uning mazmuni va xarakterini anglagan holda matnga sarlavhalar topishi;
- asar matni yuzasidan fikr ifodalashga tayyorlanib reja tuzishi;
- matndagi soʻz, ibora va jumalarning qismlari asosida berilgan topshiriqlar ustida ishlashi;
- bir qator soʻzlar koʻmagida soʻz birikmalari va jumalar tuzishi;
- har xil nutqiy birikmalar yaratishi;
- maʼlum kuzatishlardan keyin belgilangan yoʻnalish boʻyicha matnni qayta yaratishi;
- maʼlum maqsad asosida asarni tahlil va taqriz qilishi;
- matnni uning tahlilidan soʻng qayta yaratishi;
- matnning mavjud boʻlaklari yoki qoʻshimcha qismlar koʻmagida yangi matn yaratishi;
- qayta hikoya qilishda tilni his qilishi, soʻzga eʼtiborli boʻlishi maqsadga muvofiqdir.

Ayni bir xil nutq koʻnikmalarini har xil nutq materiallari asosida nafaqat boshlangʻich adabiy taʼlimning, balki umuman oʻqitish ishlarining birinchi kunlaridanoq barcha oʻquv fanlari misolida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu har xil mavzulardagi, asosiy fikr xarakteri, yozilish uslubi, janri, tuzilishi, hajmi, oʻquvchilarning mustaqilligi, ogʻzaki va yozma shakllardagi bilimdonligi, har xil oʻqish turlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, oʻquvchilar nutqi bilan bogʻliq masalalar haqida gapirilarkan, oʻqituvchi uning asosiy toʻrt shakli: gapirish, eshitish, oʻqish va yozish kabilar nazarda tutilishini bilishi lozim. Boshlangʻich adabiy taʼlimda oʻquvchilarni shu toʻrt shaklning har birini oʻzlashtirishlariga erishish maqsadga muvofiqdir.

Real hayotda odam oʻz nutqini maʼlum shart-sharoitda kimgadir yoʻnaltiradi. Bu har qanday ruhan sogʻlom odam uchun tabiiy hol. Shuning uchun dars jarayonida ham bolalarning nutqiy muloqotga kirishish ehtiyojining tabiiy shart-sharoitlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy faoliyatda oʻquvchi oʻz fikri va tuygʻularini ifodalashga yoʻnaltiriladi yoki oʻzgalarning fikri qabul qilinadi. Maʼlum boʻladiki: *fikr* nutq faoliyatining predmeti; *til* bu faoliyatning vositasi; *nutq* esa bu jarayonda qoʻllaniladigan usuldir. Nutq faoliyatining mahsuloti bir jumla, agar fikr davom ettirilsa matn boʻladi. Maʼlumotlarni qabul

qilish asnosida esa xulosa kelib chiqadi. Xulosa nutq faoliyatining soʻnggi natijasi, javob reaksiyasi boʻladi, aks holda suhbatdoshning fikri tushunilmagan hisoblanadi.

Oʻquvchilarning nutqini oʻstirish ustida ishlaganda, dastlab ularni aytadigan fikrining asosiy mazmunini, uning boshlanishi, asosiy qismi va yakunini anglab-belgilab olishga oʻrgatish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday matn, ayni zamonda bolalar uchun yaratilgan matnlarda ham oʻz tuzilishiga koʻra murakkab oʻrinlari boʻlishi mumkin. Bunday vaziyatlarda matnning mavzusini (yetakchi fikrni) ochish uchun avval matnni maʼnoli boʻlaklarga ajratish maqsadga muvofiq boʻladi. Ayni zamonda, matnning qismlari bir-biri bilan uzviy bogʻliqlikda boʻlishi, mazmunan asosiy fikrga va mavzuga boʻysunishi lozimligi oʻquvchilarga anglattirilishi lozim.

Kichik oʻquvchilarning eshitgan matnlarini qaytadan yaratishlarida oʻz xatti-harakatini detallashtirish, uni mazmunli boʻlaklarga ajratishga oʻrgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Qayta hikoya qilishning sifati koʻp jihatdan xatti-harakatlarni nomlashda til birliklarini tanlash bilan bogʻliq boʻladi. Qayta hikoyalashda koʻpincha oʻtgan zamon feʼlidan foydalaniladi.

Qayta hikoyalash asar qahramoni bilan bogʻliq hodisalar, u nimalarni his qilgani, nimalarni yashab oʻtkazgani, u ishtirok etgan voqealar bayonidan iborat boʻladi. Voqea-hodisalar rivoji vaqt birligiga amal qilingan holda, izchillikda davom etadi. Qayta hikoyaning izchilligi «avval, keyin, soʻngra, shunda, shundan keyin, yana, birinchi, keyingi» kabi soʻzlar orqali taʼmin etiladi. Biror matnni qayta hikoya qilishning asosiy xususiyati voqea-hodisalarning boshdan oxir rivojlanib borishini maʼlum qilishdan iboratdir. Qayta hikoyalarda feʼllar juda koʻp qoʻllaniladi va aynash shu fellar nutq boyligining darajasini, harakatlar izchilligini namoyish etadi.

Oʻquvchilarning qayta hikoyalashlari uchun matn tanlaganda ham oʻqituvchi mazmun asosida aynan qanday masalalarga urgʻu berishni, qanday jumlar tuzish, qanday soʻzlarni tanlash toʻgʻri boʻlishi haqida oʻziga hisob bergan holda ish yuritishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlangʻich adabiy taʼlimda oʻquvchilarning qayta hikoyalashi maktabdagi barcha gumanitar va texnik oʻquv fanlarini birlashtiradigan muhim ish turlaridan biridir. Odatda qayta hikoyalash deganda oʻqilgan matnni oʻz soʻzlari bilan qayta aytib berish

tushuniladi. Aslida, o‘quvchining qayta hikoyalashi uning matn mohiyatiga kirishi, uni tushunishi bilan bog‘liq. O‘quvchining qayta hikoyalashi mexanik tarzda amalga oshishi yoki matnni, ayrim xatboshi yoki jummalarni shunchaki yodlab olishi xotira hisobidan amalga oshiriladi. Ya’ni mavzu tushunilmaydi, o‘zlashtirilmaydi.

O‘quvchilar ham, ota-onalar ham, hatto o‘qituvchilar ham qayta hikoyalashning o‘ziga xos talablari borligini va ular nimalardan iborat ekanini bilib qo‘yishlari masadga muvofiqdir:

- qayta hikoyalash oddiy hayotiy nutq. Hech qanday yodlash yoki takrorlash emas;
- qayta hikoyalashda matndan olingan obrazli ifodalar, badiiy leksika va har xil konstruksiyalardan foydalaniladi;
- izchillikka, ifoda mantig‘iga, sabab va oqibatning mohiyatiga kirgan holda tashkil etiladi;
- matnning tugalligiga erishish, bu jarayonda dalillar, asosiy jihatlarni, ayniqsa, u ilmiy matnlar bo‘lsa, o‘tkazib yubormaslik kerak bo‘ladi.

Qayta hikoyalashda o‘quvchi nutqining monotonligi bu jarayonning eng katta kamchiligidir. Ayniqsa, badiiy matnlarning qayta hikoyasida emotsionallik ustuvor bo‘lishi lozim. Bunday paytlarda ifodali o‘qish va matnni rollarga bo‘lib gapirib berish yaxshi yordam beradi. O‘quvchilar matnni qayta hikoyalashni o‘zlashtirishlari uchun avval uning ustida ishlashni o‘rganishlari kerak. Ya’ni, asardagi muhimni ajratishlari va yozib olishlari (yoki o‘qituvchi xattaxtaga yozib borishi), matnni didaktik tahlilga tortishlari, tilining boyligiga diqqat qaratishlari lozim.

Bu jarayonda ota-onalar ham bevosita ishtirok etishlari, farzandlari bilan imkon qadar ko‘proq suhbatlashishlari, ko‘chada yoki maktabda qanday hodisalar yuz berganini, nimalarni ko‘rgani, ko‘rganlari multfilm yoki kino haqida suhbatlashishlari, munosabatlarini so‘rashlari, fikrlarini asoslashni talab qilishlari, ko‘rganlarini batafsil gapirib berishni so‘rashlari maqsadga muvofiqdir. Ota-onalar bolalarini albatta juda qiziqish bilan eshitishlari, xayratlarini namoyish etishlari o‘rinli bo‘ladi.

O‘qituvchi yoki ota-onalar bolaga doimiy ravishda o‘z bolaligida yuz bergan xotiralarini, hayotidagi muhim lavhalarni gapirib berishlari ham bolalarda qayta hikoyalash ko‘nikmasining shakllanishi va



rivojlanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu jarayonda o'quvchi yoki ota-onaning hikoyasi dialogik emas, monologik tus olishi zarur. Bola og'zaki bog'lanishli matnlarni qancha ko'p eshitsa qayta hikoyalashning mohiyatiga shuncha tushinib boradi.

Qayta hikoyalash ko'nikmasini shakllantirishda o'quvchida xotiraning qaysi turi yaxshi rivojlanganligini aniqlab olish ham maqsadga muvofiqdir. Ba'zi bolalar o'qilgan matn yaxshi eslab qoladilar, ayrimlarning esa ko'rgan narsasi xotirasida yaxshi saqlanib qoladi. Kimda vizual xotira kuchli bo'lsa suratlar ustida ishlash, audial imkoniyatlari yuqori bo'lgan bolalarga ko'proq o'qib berish yoki badiiy matnlarning audioyozuvlarini eshittirish yaxshi samara beradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar hamisha ham asarning mantig'ini anglayvermaydilar, asosiy o'rinlarini mustaqil ravishda ilg'ay olmaydilar. Ularni qayta hikoyalashga tayyorlash uchun, avval savollar yordamida bu jarayonga yo'naltirish kerak bo'ladi. Dastlab savollar mayda-mayda, har bir voqeaga daxldor tarzda taqdim etiladi. Asta-sekinlik bilan savollar umumlashma xarakter kasb eta boshlaydi. Ya'ni bitta savolga bir nechta jumla bilan javob qaytarish, butun boshli xatboshini qayta hikoyalash talab etiladi. Bundan tashqari, bolalarning o'zlarini ham savollar berishga yo'naltirish lozim. Bu bolalarni yetakchi o'rinlarni, asardagi asosiy g'oyani ilg'ash va ajratib olishga o'rgatadi.

O'quvchilarning qayta hikoyalashi nazarda tutilgan asar bilan dastlabki tanishuv bosqichida uni ma'noli bo'laklarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Avval birinchi xatboshi o'qiladi va unda nima ifodalangani bilan bog'liq savol beriladi hamda o'quvchilardan javoblar olinadi. Shu tariqa matnning har bir xatboshisi o'qilib mazmuni gapirib beriladi. O'qish oxirida ajratilgan yetakchi o'rinlar asosida matnning rejasi tuziladi. Bu kichik reja yozib olinadi yoki o'qituvchi tomonidan xattaxtada aks ettiriladi. O'quvchilar esa matni shu reja asosida qayta hikoyalab beradilar. Boshlang'ich sinflarning dastlabki bosqichida shu tarzda qayta hikoyalashga o'rgangan o'quvchi asta-sekin asardagi yetakchi epizodlarni farqlashga o'rganadi va qayta hikoyalash uchun zarur bo'lgan o'rinlaridan foydalanib asarni qayta hikoyalab beradi.

Boshlang'ich adabiy o'qish amaliyotida qayta hikoyalashning taassurotlarni umumlashtirish va birgalikda qayta hikoyalashda

rezyume tuzish, maqsad va asosiy g'oyani aniqlash, olgan taassurotlarini aytib berish va yakun yasash muhim sanaladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar qayta hikoyalashining *batafsil qayta hikoyalash* shaklida o'z so'zlari bilan qayta hikoyalash, vaziyatni, asar qahramonlari va davrni o'zgartirib qayta hikoyalash singari shakllari ham mavjud. Boshlang'ich adabiy ta'limda batafsil qayta hikoyalashni tashkil etishda:

1) o'quvchini uning boshqa turlaridan farqini anglatish;

2) matnning tahliliy hikoyasida asar tili, tayanch so'zlari ustida ishlash;

3) matnni ifodali qayta hikoyalash maqsadida uni ifodali o'qishni mashq qildirish (ikki marta);

4) qayta hikoyalashni mantiqiy va kompozitsion bo'laklarga ajratish;

5) matnning rejasini tuzish;

6) lavhalarni qayta hikoyalashda dastlabki qayta hikoyalashning kamchiliklarini muhokamaga tortish;

7) matn mazmunidagi voqeani o'quvchi hayotidagi anologik hodisalar bilan, ya'ni boshqalar tomonidan yozilgan hodisalar bilan boshdan kechirilgan voqealarni o'zaro bog'lash.

Boshlang'ich adabiy ta'limdagi *tanlab qayta hikoyalash* quyidagilardan iborat bo'ladi:

– asardagi biror epizodni savollar yoki o'qituvchining topshirig'i bo'yicha qayta hikoyalash;

– rasm yoki illyustratsiya asosida qayta hikoyalash;

– berilgan mavzu bo'yicha parchalarni qayta hikoyalash.

Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi:

1) o'qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi;

2) hikoyadan faqat bir lavhani aytib beradi;

3) hikoya mazmunini faqat bir syujet yo'nalishida so'zlab beradi.

O'quvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darslarida keng qo'llaniladigan:

1) hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash;

2) hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash;

3) tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish singari usullar yordam beradi.

O'quvchi tanlab hikoya qilishda ham, batafsil hikoya qilganda ham o'qilgan matnni tahlilga tortadi. Badiiy matn tahlili bolalar tafakkurini, nutqidagi mustaqillikni o'stiradi va o'qilgan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi. O'qilgan hikoyaga rasm chizishda o'quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan o'qilgan asarning mazmuniga mos birini tanlaydi yoki o'zi rasm chizadi. Agar o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o'zi chizmoqchi bo'lgan rasmni og'zaki tasvirlab beradi, ya'ni so'z bilan chizadi. O'qilgan hikoyani davom ettirish usuli maktab tajribasida keng qo'llaniladi. Bu usul hikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo'llaniladi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda badiiy matnlarni qayta hikoyalashda *ijodiy qayta hikoyalash* ham muhim ahamiyatga molik. Unda quyidagi ish turlari amalga oshiriladi:

- hikoyachining shaxsini o'zgartirib qayta hikoyalash;
- matnga qo'shimchalar kiritib yoki ijodiy o'zgarishlar bilan qayta hikoyalash;
- qahramonlarning birortasi nomidan qayta hikoyalash;
- so'zlab turib rasmini chizish;
- matnning ekranlashtirilishini tasavvur qilgan holatida qayta hikoyalash;
- matn mazmunini sahnalashtirish va hk.

Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savollari o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida obrazlar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etgan timsollar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab etadilar. O'qituvchining savollari asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qaerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishiga hamda o'zaro bog'liqligini yoritishga yo'naltirilishi lozim. O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savollari yordamida qayta aytib berishida: ayrim lavhalar o'zaro bog'lanadi, bir-biriga taqqoslanadi,

ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosalar chiqariladi. Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari timsollar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba‘zan noto‘g‘ri yoki yuzaki anglashlari natijasida asar mazmunining mohiyatiga kira olmasliklari mumkin. Shuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o‘ylashga majbur etadigan, timsollarning xatti-harakati, voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o‘zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim. O‘quvchi asar qahramonlarining xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shu darajada mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Boshlang‘ich adabiy ta‘limda o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirishda badiiy bitiklar didaktik tahlilining eng kichik shakli – fikr ifodalashga o‘qishning dastlabki kunlaridan boshlab kirishadilar. O‘qituvchining savollariga javob berish asnosida o‘quvchilar hodisaning sabab-oqibatlarini tushuntirib berishi, bu jarayonda fikr ifodalashi kichik didaktik tahlilni anglatadi. Tahlilning bu turi ham nutqning har qanday turi singari o‘z tartibiga ega. Bu borada ma‘lum tamoyillarga, qoidalarga asoslangan bilimlar fikr aytish va fikrni qabul qilish jarayonini engillashtiradi, ongliligini ta‘minlaydi. Mazkur jarayon: qandaydir fikrni ifodalash, so‘ngra u asoslash, keyin xulosa chiqarish tizimida amalga oshadi.

Shu tariqa boshlang‘ich sinflar adabiy o‘qishi jarayonida o‘quvchilar nutq turlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar, mashqlarni bajarish asnosida nutqning og‘zaki va yozma shakllarini yaratish hamda qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar, har xil shakldagi matnlarni yaratishni o‘rganadilar.

Boshlang‘ich adabiy ta‘lim amaliyotida o‘quvchilarning og‘zaki nutqi ularning yozma nutqi shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. L. S. Vigotskiy yozma nutqni: «Nutq bu monolog. O‘quvchining oq qog‘oz bilan, tasavvuridagi suhbatdosh tarzida tillashishi, ayni zamonda, og‘zaki nutqning har qanday shaklida o‘z-o‘zidan, tashqi ta’sirlarsiz suhbatlashishi holatidir»<sup>104</sup>, tarzida ta’riflaydi.

---

104. Выготский Л. С. Мышление и речь. Избранные психологические исследования. – Москва: Просвещение, 1956. – С. 264

Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida shakllantiriladigan yozma nutq namunalaridan biri *bayonda* matn chuqur tahlilga tortilgan holda qayta hikoyalanaadi, ayni zamonda, ma'lumotlar tanlash, ularni tizimga solish, til birliklaridan to'g'ri, aniq va ifodali foydalana bilish taqozo etiladi.

Bayon yozishga tayyorlanish jarayonida matn tahlil qilinar ekan bir yo'la ikki vazifa amalga oshiriladi. Avvalo, o'quvchilarni matnning uni qayta bayon etishda qo'l keladigan detallarini anglagan holda, tanlangan ma'lumotlarni, til birliklari va aytilgan fikrlarni bir-biriga bog'lagan holda eshitishga o'rgatadi. Bayon yozishga tayyorlanayotgan matnning tahlili o'zgarar tomonidan yaratilgan asarni ongli ravishda qabul qilish asosida o'z matnini yaratishga zamin tayyorlaydi. Ya'ni, bayon yozish o'quvchilarni insho yozishga tayyorlaydi. Milliy boshlang'ich ta'lim amaliyotida bayon eshitilgan matnni yozma ravishda bayon etishnigina nazarda tutadi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda shakllantiriladigan yozma nutq ko'nikmalari orasida uning ikki turi alohida ahamiyat kasb etadi: matnni yozma ravishda qayta hikoyalash (bayon) va o'z mustaqil ijod mahsulini yaratish (insho). Bu ikki tur ham kompleks xarakterdagi mashqlar sirasiga kiradi. Chunki ularning har ikkalasini bajarish asnosida nutq ko'nikmalarining barcha turi shakllanishi va rivojlanishi yuz beradi. Ya'ni muloqot vaziyatida orientir olishdan boshlab o'z nutqini nazorat qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlardan o'tiladi.

Nutq ko'nikmalarini uyg'un (kompleks) shakllantirishda bir xil o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'naltirish bayon va inshoni birlashtiradi, ularni hamisha yonma-yon qo'llashga asos bo'ladi. Ta'limiy muammolarni o'qitishning bu ikki turi ko'magida hal qilishning ham o'ziga xos yo'llari mavjud. Bayon tayyor matnga tayangan holda nutq o'stirishni nazarda tutsa, insho o'z matnini yaratish mashqlari orqali nutq o'stirishga ko'maklashadi.

Insho ham o'quvchilarni yozma nutqini rivojlantirishga yo'naltiradi. Nutq o'stirishga yo'naltirilgan bunday amaliy mashqlar ikki xil ish turini qamrab oladi: nutq faoliyatini takomillashtirish va nutq ko'nikmalarining barchasini yaxlit shakllanishiga ko'maklashish.

Insholarni tashkil etishda nutqiy amaliyotda tayaniladigan barcha talablarga imkon qadar rioya qilish kerak bo'ldi. Ma'lum nutq materialini yaratishga kirishishdan oldin muloqot vaziyatini yaratib

olish, unda o'quvchilarning ishtirok etishiga erishish haqida qayg'urish o'rinli bo'ladi. Bunday tayyorgarlik darslarida o'quvchilarda huddi hayotdagidek fikr almashish muloqotiga kirishish ehtiyojiga mos tabiiy sharoit vujudga kelishi kerak. Bu fikr almashish jarayoni kuzatishlar, taassurotlar almashish tarzida bo'lishi lozim. Bunday suhbatlarda o'qituvchining vazifasi savol berish va javobga chaqirish emas, balki teng huquqli suhbatdoshga, o'quvchilarning fikri bilan qiziqadigan hamkorga aylanishdan iborat bo'ladi. Inshoga tayyorlanish bir necha bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Dastlabki tayyorlov bosqichining maqsadi keyingi bosqichlarga zamin tayyorlashdan iborat. Unda zarur bilimlar, taassurotlarni to'plash tashkil etiladi, til birliklaridan foydalanish yo'llari o'rgatiladi.

2. Nutqiy vaziyat yaratish va bevosita inshoga tayyorlanish bosqichi. Bu bosqichda emotsional tayyorgarlik, ishlashga moyillik va unda faol qatnashishga qiziqish ta'minlanadi.

3. Insho yozish jarayoni. Bu bosqichda o'quvchilar aynan yozma nutq masalalarini hal etishga diqqatlarini jamlashi, xatolar qilishdan qo'rqish hissini orqaga tashlashlari lozim bo'ladi.

Shu tariqa nutq vaziyati, u nutqning qaysi turiga daxldor bo'lishidan qat'i nazar, o'qituvchi tomonidan uning barcha turlarini hisobga olingan holda belgilanishini taqozo etadi. Nutqning shakli (yozma yoki og'zaki), faoliyati (ta'riflash, qayta hikoyalash va muhokama), mazmuni, janri singari har xil yo'sinda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

#### Jajji she'rlar tilsimi

O'zbek adabiyotining bolalarga bag'ishlangan qismi ancha oqsayotgani bugun hech kimga sir emas. Negadir, adabiyotshunoslik ham bu borada ancha passiv. Ko'pchilik mutaxassislarning diqqat-e'tibori kattalarga bag'ishlangan asarlar tahlili va bir qator "izm"lar muhokamasiga qaratilgani holda, bolalar adabiyoti vakillari X. To'xtaboev, T. Adashboev, A. Obidjon kabi oz sonli ijodkorlar faoliyati tadqiqi, sohadagi yutuq va kamchiliklar, uning kelajak avlod tarbiyasidagi o'rni va roli so'zshunoslar nazaridan chetda qolayotir. Bu, o'z navbatida, boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi", yuqori bosqichning dastlabki sinflari "Adabiyot" darsliklarining mazmunan

sayozlashuviga, bunday darsliklar bilan ishlayotgan o‘quvchilarning ma‘nan bir joyda deysinib qolishlariga, bolalari kelajagi uchun qayg‘urayotgan ota-onalarning e‘tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Ma‘lumki, bolalarga bag‘ishlab asar yozish – o‘ziga yarasha murakkab ish. Buning uchun ijodkor, o‘zi necha yoshda bo‘lishidan qat‘i nazar, qalban bola bo‘lishi, hamma narsaga bolalarcha nazar bilan qaray olishi, eng muhimi, ko‘rgan-bilganlari, aytishni istaganlarini bolalarning badiga urmaydigan, ularni qiziqтира oladigan, e‘tiborini tortadigan tarzda ifodalay bilishi lozim. Bolalar adiblari o‘quvchilariga shunchaki bola deb emas, o‘zining kichraytirilgan “men”i, olam va odam sirlarini bilishga intilayotgan, shakllanib kelayotgan Shaxs, kichkinagina fikr kishisi deb qarashi, yozganlarida tarbiya yoki nasihatni ustuvor qo‘ymay, maqsadini satrlar qatiga berkita bilishi shart. Aks holda uning bitiklari bolalar qalbidan ham, adabiyot olamidan ham o‘rin ololmaydi. Shunday iqtidorga ega bo‘lgan bolalar shoirlaridan biri Nurulloh Ostondir.

N. Oston ijodi, asosan kichik hajmdagi ash‘orlardan iborat. Ularning ma‘lum qismi topishmoqsimon she‘rlar bo‘lsa, bir qismida hayvonlar, har xil sabzavot va mevalarning xususiyatlari, foydali jihatlari ifodalab berilgan. Shoir Allohning har bir yaratig‘iga bolaning nazari bilan qaraydi, ularni sodda, tushunarli tilda ta‘riflaydi. Masalan, shoir qalamiga mansub “Chuchmomoga xat” she‘rini olaylik:

*Tugab qoldi siyohim,  
Endi qaydan olaman?  
Sheriklardan siyohrang  
Darrov izlab qolaman.  
Topolmasdan qalamda  
So‘ng yozaman xushnoma:  
-Menga jindek berib tur,  
Siyohingdan Chuchmoma!*

Sarlavhasining o‘zi bilan she‘rxon ko‘nglini “qitiqlaydigan” bu satrlar maktab o‘quvchisi tilidan bitilgan. Ma‘lumki, bugungi o‘quvchilar siyoh ishlatishmaydi. Ular matn mohiyatiga kirishlari uchun, avval siyoh haqida tasavvurga ega bo‘lishlari kerak. Shundagina siyoh bilan chuchmomo o‘rtasidagi mutanosiblikni, matnda aks etgan hayotiy haqiqatni anglab etadilar.

She'r, kichkinagina bo'lishiga qaramay o'z o'quvchisini o'ylashga, izlanishga undaydi. Muallifning maqsadi ham shu – o'quvchisini fikrlashga undash, dunyoqarashini kengaytirish, bilimni oshirish. U siyohning o'ziga xos jihatlari, chuchmomaning botanik xususiyatlari va ranglar haqidagi bilimlarni chuchmomoga yozilgan ikki misra xat: “-Menga jindek berib tur, Siyohingdan Chuchmoma!”ga joylay bilgan. Shoir o'quvchisidan o'qishni talab qilayotgani yo'q, bilim olishning zarurligi haqida nasihat ham so'qayotgani yo'q. Ota-ona, tarbiyachi yoki o'qituvchi kichik she'rxonni matnning mohiyatiga kirishga yo'naltirsa, bo'ldi, bola uning zamiriga berkitilgan bilimni o'zi qiziqib izlayveradi. Bu Alloh tomonidan har bir bolaning tiynatiga singdirilgan tabiiy xususiyat – olam va odam sirlarini bilishga bo'lgan intilishdir. Ayni zamonda bu ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi hamdir.

Shoir Nurulloh Ostoning bir qator she'rlaridan boshlang'ich adabiy ta'limda chiston-topishmoq sifatida foydalanish mumkin. Uning qalamiga mansub: “Kungaboqar”, “Qo'zichoq”, “Qovog'ari”, “Metroda”, “Burun”, “Soatga”, “Tuya”, “Achchiq qalampirga”, “Samovarda”, “Taxtamushuk” kabi she'rlar shular jumlasidandir. Muallif qalamiga mansub quyidagi satrlar nimaning tilidan aytilayotganini anglash uchun she'rxon, avval uning mazmuniga diqqat qaratishi, so'zlovchiga – “Men”ga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlashi kerak bo'ladi:

*Qarang buncha yam-yashil,  
Qizg'aldoqrang dalalar.  
Bunda buncha ko'p ekan,  
Menga o'xshash barralar.  
Dikirlatib chopaman,  
To'rt oyog'im-yo'rg'amni.  
Yo'qolmasin deb cho'pon  
Taqib qo'ydi sirg'amni.*

She'rdagi “Men”ga xos bo'lgan dastlabki xususiyat – barralik; ikkinchisi – to'rt oyoqlilik; uchinchisi – dikirlab chopish; to'rtinchisi – yo'qolib qolishi mumkinligi; beshinchisi – sirg'asi borligi; oltinchisi – uning egasi cho'pon ekani. Kattalar bolalarni she'rga qiziqtirish uchun, avval uni ifodali qilib o'qib berishi, so'ng gap nima haqda ketayotganini aniqlash maqsadida qo'zichoqqa xos bo'lgan



xususiyatlarni sanab berishi yoki o‘zlariga toptirishi (bu bolalarning yoshi va bilgichligi bilan bog‘liq, albatta) kerak bo‘ladi. Shu jihatlarning hammasini matndan bolalarga toptirib darstaxtaga yozib borish va oxirida umumlashtirib bu jihatlarni nimaga tegishli ekanini aniqlashni kichik she‘rxonlardan talab qilish bilan o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ham dars yoki mashg‘ulotning samaradorligini ta‘minlaydi, ham tarbiyalanuvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga undaydi, ham fikrlash orqali bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi.

She‘rning dastlabki ikki misrasi: “*Qarang buncha yam-yashil, Qizg‘aldoqrang dalalar*” da, bir qaraganda qarama-qarshi fikr ifodalangandek tuyuladi. Lekin diqqat qilinsa, muallif fikr ifodalashda qo‘zichoqning ko‘zqarashini nazarda tutgani ma‘lum bo‘ladi. Uzoqdan qaralganda dalalar qo‘zichoqqa ham qizg‘aldoq bilan qoplangan bo‘lib ko‘rinadi. Lekin shoir yaqindan qaragan kichkinagina qo‘zichoq ularni pastdan, o‘z bo‘yi darajasida ko‘rishini va qo‘zichoq uchun muhim bo‘lgan narsa – yam-yashillikni e‘tibordan chetda qoldirmagan. Shoir N. Oston qalamiga mansub chiston-topishmoqlardan dars va mashg‘ulotlarda shu tariqa foydalanish mumkin.

Qalamkash N. Oston o‘zining hayvonlar, meva va sabzavotlar tilidan aytgan bir qator she‘rlarida kichik o‘quvchisiga ularning xususiyatlari haqida bilim beradi. Masalan: “*Hap senimi, dedimu, Cho‘chitmoqchi edimu, Qazib sahro qumini Tashlab qochdi dumini!*” satrlari kaltakesakning o‘ziga xos jihatini; “*Suv ichmaydi haftalab, Hech qilmaydi naf talab. Bir qondirsa chanqoqni, Eyaverar yantoqni!*” misralari tuyaning xususiy fazilatini; “*To‘ldiradi samoni, Turnalarning karvoni*” baytida turnalarning jihatlarini ochib beradi. Kattalarning kichik she‘rxonlarni bu kabi bitiklar bilan tanishtirganda ular e‘tiborini hayvonlar, o‘simlik va sabzavotlarga xos bo‘lgan mana shunday alohida xususiyatlariga qaratishi bilim berishning qiziqarli va tabiiy yo‘lidir. Bu yo‘sinda o‘zlashtirilgan bilimlar bir umrga bolaning ruhiyatida o‘rnashib qoladi.

N. Oston tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan she‘rlarining ko‘pchiligida tarbiya haqida yalang‘och fikr aytmaydi. Nabiralari xarakteriga singdirishni istagan barcha sifat, fazilatlarni satrlar zamiriga berkitib qo‘yadiki, she‘rni o‘qigan yoki eshitgan kichik she‘rxon ko‘nglida shu jihatlarga moyillik paydo bo‘ladi. Masalan,

“Tuyaning bo‘talog‘i” she‘rida el orasidagi “Tuya hammomni orzu qilgan ekan” iborasida ilgari surilgan qarash, ya‘ni tuyaning orzusi amalga oshgani oddiy hol tarzida bayon etilgan:

*Bo‘talog‘im arzanda,  
Hammomni qilmas kanda.  
Yozmi-qishmi to‘rt fasl,  
Borib turar muttasil.  
Kim yuvinsa yo‘l ochiq,  
Tayyor sovun va sochiq!*

Aslida, tuyaning qishin-yozin muttasil hammomni kanda qilmasligini nafaqat kichik she‘rxon, hatto kattalar ham aqliga sig‘dirolmaydi. Lekin bolalarning shuuriga, ruhiyatiga singdirilishi kerak bo‘lgan bir haqiqat bor: tuyaki tinimsiz hammomga qatnab, tanasining tozaligiga e‘tibor berar ekan, bolalar uchun bu – tanani toza saqlash eng katta ehtiyojga aylanishi, bu tozalik zamirida sog‘lom, baquvvat bo‘lib o‘shidek ehtiyoj yotishiga ishora bor. Bolalarga toza yurish haqida kattalar tinimsiz ravishda eslatib turadilar, talab qiladilar, nasihatlar beradilar. Bolalar bunday talablar va nasihatlardan «to‘yib» ketishgan. Shoir mana shu haqiqatni ilg‘agani holda nasihat bermay, aql o‘rgatmay tozalikka ishora qilayotir. Bo‘taloqning muttasil hammomga tushib turishi ularning labiga mayin tabassum chaqiradi va kattalarning talablarida jon bor ekanini bo‘taloq misolida angelaydilar. Hamma gap kattalar – ota-onalar, tarbiyachi va o‘qituvchilarning mahoratiga bog‘liq.

Yoki shoir qalamiga mansub «Betoqat» she‘rini olaylik:

*Jamalaksoch tantiq qiz,  
Janjali bir sandiq qiz.  
Doim yurar o‘pkalab,  
Yuvmas tishni cho‘tkalab.  
Och qolsa yo‘q toqati,  
Murabbodir ovqati!*

She‘rda muallif jamalaksoch qiz fe‘lidagi illatlarni sanash bilan boshqalarni bunday kamchiliklardan himoya qilishga urinadi. Shoir aytilgan sifatlarning birortasini illat deb atamagan, qizchani yomon qiz ham demagan. O‘quvchisini tarbiyalashga, unga nasihat so‘qishga urg‘u bermagan. Qizaloqqa xos sifatlarning oqibatini kashf etishni bolalarning o‘zlariga havola qilgan. Tantiqlik, janjalkashlik, hamisha

qovoq solib, kimlardandir arazlab, o'pkalab yurish, tish yuvmaslik, toqatsizlik va shirinlikni ko'p eyish yaxshi sifatlar emasligini bolalarning o'zlari ham juda yaxshi bilishadi: buni kattalar aytaverib me'dalariga tegib ketgan. Muallif bu yo'ldan bormoqchi emas. Faqat kattalar she'r matni ustida ishlaganda qizaloqqa xos bo'lgan bu fe'l-atvorning oqibati nimalarga olib kelishi mumkinligi haqidagi savolni o'rtaga tashlashi muallif maqsadining amalga oshishiga imkon yaratadi: kichik she'rxonni har bir sifatning oqibati haqida o'ylashga, mulohaza yuritib, munosabat bildirishga undash kerak xolos. Shoirning kattalardan talabi shu.

Shoir Nurulloh Oston o'zbekning bolasini jahon bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirishda ham katta ishlar qilgan. Shoirning ayrim tarjimalari shu qadar tugal chiqqanki, agar muallif ularning tarjima ekanini aytmasa, o'quvchi asliyat deb bilishi aniq. Masalan, Drogan Lukich qalamiga mansub "Yomg'ir yog'ar" she'ridagi quyidagi satrlarni olaylik:

*Bulutlarga osmon tor,  
Hech qaerga sig'maydi.  
Janjallashadi avval,  
Keyin birga yig'laydi.*

Tarjimon bulutlarning yomg'ir yog'ishidan oldingi holati va yomg'ir yog'ishini shunchalar inja tasvirlaganki, bu parchadan nafaqat yosh she'rxon, balki katta yoshli o'quvchi ham so'zning ta'sir kuchiga tan beradi, ko'ngli muvozanatdan chiqadi, huzurlanadi. O'quvchining shu lazzati mukammal bo'lishi uchun unga: "Bulutlar nima uchun janjallashadi, sizningcha? She'r matniga tayanib javob bering. Ularning hech qaerga sig'masligini Siz qanday tasavvur qilasiz? Shuncha katta osmon bulutlarga qanday qilib torlik qilishi mumkin? Shu haqda o'ylab ko'ringchi! Bulutlarning janjallashishini qanday tasavvur qilasiz? Buni nmalarda ko'rish yoki eshitish mumkin? Bulutlar qanday qilib yig'laydi? Buni siz qanday tasavvur qilasiz?" va hk. Savol va topshiriqlar bilan murojaat qilish kifoya. Qolganini bolalarning o'zlari aniqlab olaveradilar.

Xullas, bolalar shoiri Nurulloh Ostoning ijod namunalari bolalar bog'chalari tarbiyachilari, boshlang'ich maktab o'qituvchilari, pedagogik oliy o'quv yurtlarida shu ikki yo'nalish bo'yicha tahsil

olayotgan talabalar uchun yaxshigina bilim manbai, o‘quv materiali bo‘lishi aniq.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Boshlang‘ich adabiy ta‘limda yetakchilik qiladigan nutq turlarini ajrating. Har birining asosiy xususiyatlarini tahlilga torting.

2. Nutqning og‘zaki turi boshlang‘ich adabiy ta‘limning qaysi bosqichida, qay shaklda amalga oshirilishini aniqlang va buning sabablarini topishga urinib ko‘ring.

3. Badiiy matn tahlili jarayonida nutqning qaysi turlaridan foydalaniladi deb o‘ylaysiz? Bu ish turlaring qaysi biri, sizningcha, og‘zaki nutq samaradorligini ta‘minlashda yetakchilik qiladi? Fikringizni asoslang.

4. Boshlang‘ich adabiy ta‘limda yozma nutqning qaysi shakllari yetakchilik qiladi? Nega shunday deb o‘ylashingizni asoslab bering.

5. Nosir Fozilovning to‘rtinchi sinf “O‘qish kitobi” darligidan o‘rin olgan “Ko‘kyol” hikoyasini nutqning og‘zaki shaklidan foydalangan holda tahlilga torting.

6. Uchinchi sinf adabiy ta‘limi uchun mo‘ljallangan S. Anorboev qalamiga mansub “Bahs” hikoyasi matnini yozma nutq shakllaridan biri ko‘magida tahlilga tortirng. Yozma nutq shaklini o‘zingiz belgilang.

7. O‘quvchilar nutqini rivojlantirish uchun zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni alohida ajrating va daftaringizga ko‘chirib oling. Ularning har birini ta‘lim amaliyotida qanday shakllantirish mumkinligini misollar bilan tushuntirib bering.

8. Qayta hikoyalashning talablarini ajratib yozib oling. Ularni o‘z so‘zlaringiz bilan misollar asosida tavsiflab bering.

9. Batafsil hikoya qilishga xos bo‘lgan xususiyatlarni bir asar misolida ko‘rsatib bering.

10. Qayta hikoyalashning batafsil, tanlama va ijodiy turlari orasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlang. Afzalliklarni ko‘rsatib bering.

11. Shoir Nurilloh Oston ijodidan boshqa asarlarini ajratib olib tahlilga torting. Uning mazmuni yuzasidan savol va topshiriqlar tuzing.

12. “Alisher Navoiy ijodida ilohiy va insoniy ishq tavsifi” mavzusida insho yozing. Yozganlaringizni birgalikda o‘qib muhokama qiling.

## 21-mavzu. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida mustaqil ishlar va ularni tashkil etish yo'llari

### Reja:

1. Ta'limda o'quvchilarning bilimlarni mustaqil tashkillashtirish.
2. O'quvchilarning kitob bilan mustaqil ishlashlarini yo'lga qo'yish.
3. Mustaqil ishlarni rejalashtirish
4. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida mustaqil ish turlari.
5. Badiiy matn tahlili namunasi: «Qizil shapkacha» ertagi ustida ishlash

**Tayanch so'zlar:** *analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, ijodiy mustaqil ishlar, mustaqil faoliyatga yo'naltirilgan (variativ) mustaqil ishlar.*

Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida shaxslik sifatlarini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, sog'lom ma'naviyatni tarbiyalash va faoliyatdagi mustaqilligini ta'minlashni mustaqil ishlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Rivojlantiruvchi ta'limda mustaqil ishlar o'quvchilarning bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishlari maqsadida tashkil etiladigan asosiy ish turlaridan biridir. O'quvchilar o'zlari mustaqil bajaradigan ishlarning mohiyatiga kirish, uni hal etish, tushunish uchun har xil aqliy operatsiyalarni (analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarish) amalga oshirishni bilishi kerak. O'quvchi maktabga kelganda bu ko'nikmalardan bexabar bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar ta'limning dastlabki bosqichidan boshlab har xil yo'nalishdagi o'quv topshiriqlarini bajarish, bu jarayonda yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan birga mustaqil faoliyat ko'nikmalarini ham ma'lum darajada egallab boradilar.

Mustaqil ishlarning ayrim turlari yuqoridagi ko'nikmalarning barchasidan birgalikda foydalanishni talab qiladi. O'quvchilarning mustaqil faoliyatida bu ko'nikmalarni talab qiluvchi jihatlar qancha ko'p bo'lsa, ular faoliyatidagi mustaqillik darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Mustaqillik darajasi har xil bo'lgan ishlarni aralash holda taqdim etish dars mashg'ulotlarini tashkil etishni osonlashtiradi, muvaffaqiyatlar muhitini shakllantiradi va o'quvchilarni olg'a intilishga undaydi. Har xil qiyinlikdagi mustaqil ishlar o'quvchilarni turfa usullardan faol foydalanishga yo'naltiradi. To'g'ri tashkil etilgan, qiyinlik darajasi har xil bo'lgan ishlar jarayonida har bir bola

o'z imkoniyati darajasidagi ish bilan shug'ullanadi va bu, o'z navbatida, o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini ham ushlab turadi.

O'quvchining mustaqil faoliyati ma'lum natijalarni berganda, hatto bo'sh o'zlashtiradigan bolalarda ham o'ziga ishonch hissi shakllanadi, ular yangi topshiriq oldida qo'rquv hissidan qutula boradilar, asta-sekin ma'lum qiyinlik kasb etadigan ishlar bilan ham shug'ullanishga intiladilar. Bu o'z navbatida, ularda bilim olishga ijobiy motivatsiyani vujudga keltiradi.

Didaktik maqsadiga ko'ra bir-biridan farqlanadigan mustaqil ishlar o'quvchini: yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash; yangi bilimlarni qabul qilishga; ularni kengaytirishga; yangi ma'lumotlarni mustahkamlashga; ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ta'limiy mustaqil ishlarning maqsadi yangi tushunchalarni o'quvchining ongiga etkazish, uning asosiy xususiyatlarini kashf etish, avval o'zlashtirilganlari bilan aloqasini ochishdan iboratdir. Bunday ish turlari bilimni mustahkamlashning dastlabki bosqichida, ya'ni yangi mavzu o'tilganidan keyin o'quvchilarning bu bilimlarini mustahkamlash maqsadida tashkil etilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ishlarning dastlabki mashqlari avval bir xil yo'nalishda, bitta masalani hal qilishga qaratilgan va bitta ko'nikmani talab qiladigan, engil topshiriqlarni qamrab olgani tuzuk. Asta-sekinlik bilan mantiqiy va mustaqil tafakkurni talab qiladigan, o'rganilgan bilimlardan kompleks foydalanishga yo'naltiradigan mustaqil ishlarni bajarishga o'tiladi. Bunday ish turlari o'quv materialining qanchalar chuqur va ongli o'zlashtirilganini namoyish etadi. Rivojlantiruvchi mustaqil ishlar uy vazifasi sifatida ham taqdim etilishi mumkin. Masalan, boshlang'ich adabiy ta'limda biror mavzuda kichik ma'ruza tayyorlash, biror mavzuning taqdimotni tashkil etish, hikoya, she'r, ertak, topishmoq va tez aytishlar yaratish singari mustaqil ishlarni uyda bajarish uchun o'quvchiga topshiriqning darajasiga qarab ma'lum muddat (3 – 4 kun, bir hafta) beriladi.

Mustaqil ishlar sirasida nazorat ishlari ham alohida o'rin tutadi. Nazorat ishlarini belgilangan talablar asosida tashkil etish va o'tkazish ta'lim tizimining shartli qismidir. Uni bajarish sinfda, o'qituvchining ko'magisiz, har bir o'quvchidan mustaqil tafakkur va mustaqil faoliyatni talab qiladi. Nazorat ishlari biror bo'lim yakunlanganda,

choraklar oxirida qabul qilinadi. Nazorat ishlarini bajarishda o'quvchilar butun bo'lim yoki chorak davomida o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanadilar, ko'nikmalarni ishga soladilar, o'zlarini ham aqlan, ham ruhan zo'riqtiradilar. Nazorat shaklidagi mustaqil ishlar o'quvchilarning ma'lum davr oralig'ida o'zlashtirgan bilimlari va ko'nikmalarini nazorat qilish ikonini beradi.

O'quvchilarning kitob bilan mustaqil ishlashlari ham mazkur ish turlaridan biri hisoblanadi. Avval boshda kitob bilan ishlash o'qituvchi rahbarligida dars jarayonida amalga oshiriladi. Asta-sekinlik bilan uyda kitob ustida ishlash borasida mustaqil ishlar topshiriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kitob o'qishlari bilan bog'liq mustaqil ishlardan ham keng foydalaniladi.

Mustaqil ishlar tashkil etish shakliga ko'ra yalpi (butun sinf bilan birgalikda), guruhlarda ishlash va individual tarzda bo'ladi. Mustaqil ishlarning yalpi va guruhlarda ishlash shakli o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadiga xizmat qiladi. O'quvchilarning hamkorlikda ish olib borishlari, ularning o'quv faoliyatini tashkil etish shakli sifatida, ma'lum o'quv maqsadiga erishishda har bir o'quvchining o'z imkoniyati darajasidagi vazifani bajarishi va umumiy harakatlarini birlashtirishlariga sharoit yaratadi. Bunday ish sharoitida o'quvchilar muloqotga, bir-birlarini eshitishda sabrli bo'lishga, bir-biriga yordam berishga o'rganadilar. Bilimlarning ongli va to'liq o'zlashtirilishiga, ko'nikmalarning esa yaxshi mustahkamlanishiga sharoit yaratiladi.

Mustaqil ishlar darsning turli bosqichlarida o'tkazilishi mumkin. Bu o'qituvchidan darsning har bosqichini chuqur o'ylab, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini: yoshi, individual imkoniyatlari, bilimlari hajmi va ko'nikmalari darajasi, faoliyatdagi mustaqilligi, o'quv materialining xususiyatlari singari jihatlarni inobatga olishni taqozo qiladi.

Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar yaxlitlikda va tizimli ravishda tashkil etilgandagina o'quvchi ijodiy tashabbuskorligini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi, mustaqil o'qishga yo'naltiradi, ta'lim jarayonini faollashtiradi va uning samaradorligiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda tashkil etiladigan mustaqil ishlarda bolalarni kitob bilan ongli suhbatga yo'naltirish va bunga erishish

adabiy o'qishning asosiy vazifalaridan biridir. Zamonaviy metodika ilmida o'quvchining asar haqida o'qishdan oldingi, o'qish jarayonida va o'qib bo'lingandan keyingi taassurotlari va mulohazalari muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarning adabiy o'qish darslari o'quvchi shaxsida o'qish mustaqilligini ta'minlash, nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qilgan asarni ongli qabul qilish va o'qiganlari asosida o'z qarashlariga ega bo'lish hissini shakllantirishga qaratilgan.

O'quv materialini mustaqil ravishda o'zlashtirish ijodkorlikni rivojlantirishning dastlabki bosqichi sanaladi, kichik o'quvchining intellektual taraqqiyotini namoyon etadi. O'quvchilar faoliyatida mustaqillikning ortishi nisbatan qiyin kechadigan jarayondir. O'qituvchining tadqiqotchiligi, mustaqil ishlarni tashkil etishdagi tajribasi, bu ishlarning tizimli olib borilishi ularning sifati, pishiqligi, bilimlarning ortishi, tafakkurning taraqqiyoti, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflar adabiy o'qishida badiiy matnlar ustida ishlash – bu asarning elementar tahlili. Asar ustida ishlashning eng jo'n shakli ham nafaqat matnni qabul qilish va undagi voqealar rivojini aniqlash, balki, matnning badiiyligidagi o'ziga xosliklarni his qilishni ham o'rgatadi.

Asardagi g'oyaviy-badiiy qadriyatlarni o'zlashtirish uchun uni shunday tahlilga tortish kerakki, o'quvchilar nafaqat uning tahlilida faol ishtirok etishlari, balki, mustaqil munosabatlarini ham bildirishlari lozim. Mustaqil ishlarning bunday xarakteri o'quv materialining didaktik mazmunini va o'quvchi rivojlanishini ham anglatadi.

Mustaqil ishlar haqida gapirilganda, ko'pincha, asarni qayta hikoyalash, uning mazmuni asosida reja tuzish, og'zaki insho va asrlardagi epizodlarning suratini chizish tushuniladi. Bular zamirida ham o'quvchilarning qayta hikoyalashning batafsil, tanlama, qisqa shakllaridagi ishtiroki amalga oshadi. Batafsil qayta hikoya asosan o'quvchining xotirasi hisobidan amalga oshadi. Qisqartirib va tanlab qayta hikoyalashda esa o'quvchi eng muhim o'rinlarni ajratib olishi, asosiy syujet chizig'ini kuzatishi va muallif qarashlarini anglashi ustuvorlik qiladi. O'quvchilarning reja tuzishlari yoki o'qituvchining



savollariga javob berishlari asnosida ham ularning u yoki bu darajadagi mustaqil faoliyati amalga oshadi.

Shularga asoslanib aytish mumkinki, ta'limda qo'llaniladigan har bir ish turida o'quvchilarning u yoki bu darajadagi mustaqil faoliyati amalga oshadi. Shunga asoslanib o'quvchilarning mustaqil ishlarini ikki turga ajratish mumkin: birinchisi takrorlashga yo'naltirilgan mustaqil ishlar, ya'ni bunda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini xotirlaydi va mustahkamlaydi. Bunda shu yo'nalishda tuzilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi.

Ikkinchi tipdagi mustaqil ishlar ham bilimlarni xotirlashga qaratiladi, lekin ijodkorlik belgilarini namoyon etish ustuvorlik qiladi. Bu ish turiga matnni ma'noli bo'laklarga ajratish, ularning har biri bo'yicha reja tuzish, ya'ni o'quv materialini qayta ishlash asnosida mohiyatiga kirish, voqealar rivoji haqida o'ylash ishlari amalga oshiriladi.

Ijodiy xarakterdagi ishlarda o'quvchilarning mustaqilligi katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni yangi yo'nalishdagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlar bajariladi, yangi vaziyatlar tahlil qilinadi. Bu ma'lum darajada izlanuvchi xarakter kasb etadi. Izlanuvchi xarakterdagi mustaqil ishlardan 4-sinflarda bimalol foydalanish mumkin. Boshlang'ich ta'limning bu bosqichida o'quvchilar har xil adabiy janrlar va nazariy bilimlarga ega bo'ladilar. Shu bois ularda yangi-yangi janrdagi va turfa mualliflarning asarlarini taqqoslash ishlarini tashkil etish mumkin. Bu tarzdagi mustaqil ishlar murakkab, albatta, lekin o'quvchilarni bunday faoliyatga tayyorlab borish 2-sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchi adabiy savodxonligining ortishi o'zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashida, yangi materialdan mustaqil ravishda foydalanishida ko'rinishi mumkin. Ammo bunday jamoa tartibida ishlash barcha o'quvchilarga birdek tushunarli bo'lmasligi ham mumkin. Bu badiiy matnlar ustida ishlashning ayrim qiyinchiliklaridan biri sanaladi. Bu muammoni har xil kartochkalardan foydalangan holda ham tashkil etish mumkin. Ular kuchli o'quvchilarga alohida, o'rtacha va bo'sh o'zlashtiridigan bolalarning o'zlariga xos tarzda tuziladi. Masalan, kuchli o'quvchilarga mo'ljallangan kartochkalarga: «Quyidagi maqollarni ikki guruhga ajrating» topshirig'i beriladi va bir nechta maqol yozib qo'yiladi.

Kartochkalarining ikkinchi (kuchsizroq o'quvchilarga mo'ljallangan) variantida xuddi shu topshiriq sal jo'nlashtirilgan holda taqdim etiladi. Masalan, «maqollarni kuchlilarga va dangasalarga tegishli bo'laklarga ajrating» tarzida va hk. Bundan tashqari, o'qish darslarida o'rganilgan badiiy matnlar mazmuni yuzasidan ham shu tarzda kartochkalar tuzish mumkin. Bunday topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar matnni diqqat bilan o'qiydilar, savollarga to'g'ri javob topish ularni matnga yana qayta murojaat qilishga o'rgatadi, mantiqiy tafakkurlarini o'stiradi, va albatta, faoliyatdagi mustaqilligini oshiradi.

Bu kabi mustaqil ishlarni rejalashtirganda o'qituvchi savollarni didaktik maqsadsiz, mexanik ravishda javob beradigan tarzda tuzmasligi kerak. Eng muhimi shuki, ta'lim bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklarni nazarda tutmasa, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishida ham taraqqiyot amalga oshmaydi. Mustaqil ravishda o'zlashtirilgan bilimlar chuqurligi, pishiqligi va ishonchliligi bilan ajralib turadi.

Mustaqil ishlar ta'limning shunday turiki, unda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'quv topshirig'ini o'z faolligi va kuchini sarflagan holda mustaqil bajaradilar. Bu jarayonda o'qituvchining yordami butunlay rad etiladi degan qarash ham mavjud. Dars jarayonida shunday vaziyatlar bo'ladiki, o'quvchi o'qituvchining yo'naltiruvchi yordamiga ehtiyoj sezadi. Ustoz topshiriqning bajarilishida bevosita ishtirok etmaydi. Lekin yo'naltirish ishlarini amalga oshiradi.

Mustaqil ishlar, hamisha, u yoki bu darajada bajariladi, chunki unga o'quvchi o'z imkoniyatlari doirasida yondashadi. Qanday bajarilgan taqdirda ham ularning qadr-qimmatini hamkorlikda bajarilgan ishlardan yuqoriroq bo'lishi aniq. Mustaqil ishlar natijasida nafaqat bilimlarning darajasi, balki o'quvchining mustaqilligi, faoliyatining individual uslubi, ijodkorligi va nostandart yondashuvlari ham namoyon bo'ladi. Mustaqil ishlarning quyidagi to'rt tipi mavjud:

- 1) ma'lum namuna bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlar;
- 2) ijodiy mustaqil ishlar;
- 3) mustaqil faoliyatga yo'naltirilgan (variativ) mustaqil ishlar;
- 4) yangicha yondashuv talab qilinadigan (konstruktiv) mustaqil ishlar.

Namuna bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlarda biror masalaning yechimi rejasini tuzishda, hikoya, ertak, she'rlar to'qishda taqdim etilgan namunalar asosida ishlash jarayoni tushuniladi. Ijodiy mustaqil ishlardan yangi mavzuni mustahkamlash, masalalar qo'yish, yangi mavzuni tushuntirish asnosida ham foydalanish mumkin. Mustaqil faoliyatga yo'naltiruvchi mustaqil ishlardan har xil muammolarni hal etish, ba'zi hodisalarning sabablarini aniqlashda qo'llash mumkin.

Shakllanib kelayotgan har bir shaxs mustaqil tarzda bilim o'zlashtirish, ko'nikmalar shakllantirish va ularni amalda qo'llashni bilishi lozim. Shu ma'noda o'quvchilarning mustaqil faoliyatida:

1) o'quvchilarni mustaqil faoliyatning to'g'ri va ratsional usullariga o'rgatish kerak;

2) bu yo'nalishda o'quvchining yuki imkoniyatlaridan oshib ketmasligini nazorat qilish kerak;

3) darslarda vaqtdan maksimal darajada unumli foydalanishga erishish kerak.

Mustaqil ishlar bir vaqtning o'zida ikki yoki uch sinf bilan ishlanadigan oz komplektli maktablarda, ayniqsa, juda zarur hamda katta ahamiyatga ega. Mustaqil ish uchun tanlangan matnning hajmi kichik o'quvchilar saviyasiga mos bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida mustaqil ishning quyidagi turlaridan ham keng foydalaniladi:

1. Asarni ichda o'qish. Birinchi sinfdan bu mashqni topshirishdan oldin ayrim so'zlarni kesma harflar bilan tuzdirish va uni o'qishni mashq qildirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab ichda o'qib, ayrim timsollarning gaplarini topish, uni o'qish va o'z so'zi bilan gapirib berish, matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

2. O'qilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish. Bu ish turi bolalarni diqqat-e'tibor bilan o'qishga o'rgatadi; bu oz komplektli maktablarda foydalanish dars tartibini belgilashga ham yordam beradi. Faoliyatning bu turi asta-sekin murakkablashtirib boriladi: avval o'quvchilar matnga oid savollarga javob berish bilan uning mazmunini o'zlashtiradilar, keyin asarning asosiy g'oyasini

bilib oladilar, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishlarini tushunadilar.

3. O'qilgan asar mazmunini anglash uchun o'qituvchi topshirig'ini bajarish. Bu yo'nalishdagi topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) o'qing va matnda ilgari surilgan asosiy fikrni aniqlang;

b) o'qing va qahramonlar xatti-harakatidagi to'g'ri yoki noto'g'ri jihatlarni ajrating va hk.

4. O'qilgan matn rejasini tuzishga tayyorlanish va reja tuzish. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1) o'qilgan matnga oid rasm chizish;

2) rasmga matndagi so'zlar yoki o'z so'zi bilan sarlavha qo'yish.

O'qish darslarida amalga oshiriladigan mustaqil ishlarni bajarishga o'quvchilar tayyorlanadi, albatta. O'quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashda topshiriqning maqsadi qisqa va aniq tushuntiriladi. Mustaqil ishning qanday bajarilganligini hisobga olish o'quvchilarning tayyorlik darajasini aniqlashda va keyingi bosqichlarda mustaqil mashqni to'g'ri tashkil qilish uchun material tanlashda o'qituvchiga yordam beradi.

Shakllanayotgan shaxs ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan tafakkurdagi mustaqillik o'quvchining murakkab mavzular yechimiga o'ziga xos tarzda yondasha bilishi, qo'yilgan masalalarni to'g'ri va mustaqil ravishda hal etishi, fikrlarini o'z so'zi hamda uslubi bilan bayon etishi, bir masala bo'yicha boshqa o'quvchilarning fikri yoki munosabatidan farq qiluvchi nuqtai nazarga egaligi, boshqalar tomonidan aytilgan mulohazalarga tanqidiy munosabat tarzida namoyon bo'ladi. Sanalgan xususiyatlar ko'rsatadiki, fikrning mustaqilligi bu o'quvchilarning o'zgarib turuvchi vaziyatlarda murakkab masalalarni hal eta bilish qobiliyatidir. Ayrim o'quvchilarda mustaqil umumlashmalar qilishni talab qiladigan murakkab masalalar yechimida ishtirok etishga doimiy tayyorlik kuzatiladi. Ulardagi bunday qobiliyat barcha darslarda bir xil ko'rinishda kuzatiladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ayrim darslarda tarbiyalangan tafakkur faoliyatining mustaqilligi boshqa o'quv fanlarida ham namoyon bo'ladi. O'qituvchi darsni tashkil etishda o'quvchi tafakkurini ijodiy ishlarga yo'naltiruvchi tamoyillarga amal qilsagina, mustaqil fikr yuzaga chiqadi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'quvchilarning mustaqil ishlari uy inshosi, bayon, referat va taqrizlar, adabiy qahramonlarga tavsifnoma va annotatsiyalar yozish, maktublar bitish, kundaliklar yuritish, ma'ruza matnini tayyorlash, tezislar tuzish, konspekt olish, uy vazifalarini bajarish, adabiy kechalar tashkil etish, ekskursiyalar uyushtirish, mustaqil va sinfdan tashqari o'qish, ayni zamonda ijodiy ishlar (badiiy asarlar yaratish) shaklida ham namoyon bo'ladi.

Masalan, mustaqil o'qish darslari uchun dasturda ma'lum soat ajratilgan bo'lib, bunda o'rganish uchun tavsiya etilgan asar bilan o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda tanishadilar. Undagi muhim va nomuhimni, ikkinchi, uchinchi darajali jihatlarini o'zlari ajratadilar. Asarning muhokamasi esa o'qituvchi bilan birgalikda amalga oshiriladi. O'quvchilar mustaqil o'qish asnosida o'zlari kashf etgan haqiqatlarini o'qituvchilari bilan hamkorlikda tahlilga tortadilar. Bunda o'qituvchining roli faqat tashkilotchilikdan iborat bo'ladi.

Erkin mavzularda insholar yozish, uy insholari ham o'qituvchining bevosita ishtirokisiz bajariladi. Bunda o'quvchilar qo'yilgan maqsad sari ongli, mustaqil ravishda harakat qiladilar, o'z kuchlari, aqliy imkoniyati va bilimini u yoki bu shaklda ifodalaydilar. Ishning mustaqil ravishda yozilishida o'quvchining faoliyatiga hech kim aralashmaydi, xatti-harakatlari yo'nalishi va imkoniyatlari darajasini ham uning o'zi aniqlaydi. Oldiga qo'yilgan masalani ham o'zi mustaqil hal qiladi. Bu jarayonda amalga oshgan faoliyatni vujudga keltiruvchi fikrlar mustaqil sanaladi. Unga hech kim yo'l-yo'riq ham ko'rsatmaydi, yordam ham bermaydi.

Ta'lim mazmuni va metodlarining xilma-xilligi, boyligi tafakkurning chinakam mustaqilligini ta'minlaydi, rivojlantiradi. Erkin mavzulardagi mustaqil ishlar o'quvchilar tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi. Ular bolada biror shaxslik sifatlarining shakllanishiga, albatta, ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning mustaqil ish turlari va ularning xususiyatlari borasida prof. S. Matjonovning alohida tadqiqoti mavjud<sup>105</sup>.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning eng sinalgan usullari evristik suhbat, seminar darslar, mantiqiy topshiriqlar, yangi mavzuni o'rganishda muammoli vaziyatlar va bilimlarni tekshirish sanaladi.

---

105. Matjonov S. Maktabda adabiyetdan mustaqil ishlar. – T.: Ўқитувчи, 1996. 208 б.

Bundan adabiy ta'limdagi barcha tadbirlar faqat o'quvchining mustaqil fikrlashigagina qaratilishi kerak, degan biryoqlama xulosa chiqmasligi zarur. Ta'lim amaliyotida o'qitish borasidagi barcha muammolarni faqat bir o'zi hal qila oladigan metod yo'q. Bu mustaqil ishlarga ham bevosita daxldordir.

Darsning mazmuni, pedagogik topshiriqlar mustaqil ishlarning xarakteri va tarkibini belgilashi lozim. O'qituvchi o'quvchilar oldiga mantiqiy topshiriq qo'yar ekan, uning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun zarur shart-sharoitni ham yaratishi kerak. Buning birinchi sharti dalillarning etarliligi, vazifaning aniq ifodalanganligidir. O'qituvchi ishni bajarish yuzasidan dars so'ngida 3 – 4 daqiqali yo'naltiruvchi suhbat o'tkazishi lozim. O'quvchilar mustaqil ishlayotganda nimaning ustida, qanday ish yuritishni aniq bilishlari kerak. Bunday topshiriqlar darsning boshida ham, oxirida ham, dars jarayonida ham berilishi mumkin.

Boshlang'ich adabiy ta'limda mustaqil-ijodiy yozma ishlar muhokamasidan keyin ularning yaxshi chiqmay qolgan o'rinlarini qayta ishlash, undan yangi ish yaratishga undash mumkin emas. Ma'lum ishni bajarishni uddalay olmagan bo'lsa-da, yo'l qo'ygan xatolari va uning sabablarini anglagan o'quvchi endilikda o'zini keyingi ishni nisbatan yuqori darajada bajara olishga qodir his qiladi. Biroq o'quvchiga muhokama qilib ko'rishga vaqt berish va shu jarayonda keyingi asar ustida ishlashga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi. Agar o'quvchining o'zi talab qilsa, unga ishni qayta yozish imkoniyatini berish mumkin. Bunday ijodiy ishlar, erkin mavzulardagi insholar samaradorligi shundaki, o'quvchi badiiy asar bilan mustaqil ishlashga ko'nikib boradi. O'qituvchining aytganlari yoki kitobda bitilganlarga bog'lanib qolmay, bilimining tabiiy va zaruriy chuqurlashuviga erishadi. O'quvchilarda tafakkur va faoliyat mustaqilligi mustahkamlanadi.

Boshlang'ich adabiy o'qish jarayonida mustaqil yozma ishlarni tahlil qilish bilan asar tahlilini uyg'unlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayonda asardagi o'quvchining nazaridan chetda qolgan yoki u noto'g'ri talqin qilgan jihatlarga ham e'tibor qaratiladi. O'quvchilar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlardagi muhokama bilan badiiy asar tahlili uyg'unlashib ketishi boshlang'ich adabiy ta'lim maqsadining amalga oshishiga o'ziga yarasha ijobiy

ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng yoqimli narsa – kattalarning ular bilan o'ynashi. Odatda, o'zbek oilalarida kattalar bolalar bilan o'ynamaydilar. Ularning "jiddiyroq" ishlari ko'p. Aslida, bolalarga o'rgatish, ularni o'qitish emas, aynan ular bilan birgalikda o'ynash, ularga o'xshab xayolparastlik qilish, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar to'qish, har xil hodisalar o'ylab topish jarayonida ishtirok etish ularning ma'naviy shakllanishida ko'proq foyda keltiradi. Bolalarning aqliy rivojlanishini, yuksak orzular qilishga va ularni amalga oshirishga qodir bo'lishini istagan har qanday ota-ona yoki o'qituvchi ularning ijodga oshno bo'lishini ta'minlashi kerak. Ijodkorlik mustaqil fikrlashga o'rgatish asosidir.

Bolalar ijodida mantiqning etarli darajada emasligini tushunish mumkin. Chunki maqsad ular ijodida chuqur mantiq yoki yuksak ma'no bo'lishiga erishish emas. Ular keyinroq, ta'lim-tarbiyaning yuqoriroq bosqichlarida paydo bo'ladi. Dastlabki paytlarda muhimi – ijod jarayoni. Maktabgacha va boshlang'ich sinflar yoshidagi bolalar ijodiy ishlarni jon-dili bilan bajaradilar va bundan zavq oladilar. Shu zavqni qayta tuyish ehtiyoji uni rivojlanish sari etaklaydi. Tarbiyaning mana shu xili bola tabiiy taraqqiyoti bilan hamohang kechadi. Bu haqda yuqorida batafsil fikr yuritigan. Bu jarayonda bolalar tasavvurini, xayolparastligini rag'batlantirish va ularning ijodiga imkoniyat yaratib berish kerak. Bola uchun qiziqarli bo'lgan har qanday faoliyat – foydali. Bola nimani xohlasa, nimaga qiziqsa, shuni qilib ko'rishi kerak. Odatda, yosh bolalar o'z imkoniyatlari doirasidan tashqaridagi ishlar bilan shug'ullanishni xush ko'radilar. Bu ular uchun o'sish, rivojlanishning yagona yo'lidir. Bolalar shuning uchun ham kattalarning ishlariga ko'p aralashadilar, qo'llaridan kelmaydigan narsalarni qilishga chiranadilar. Bu ularning tabiatidagi rivojlanish, o'sish sari tabiiy intilishidir.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodning ma'naviy kamoloti, dunyoqarashi kengayishi, bilimlarni chuqur o'zlashtirishida turli mavzularda, har xil qiyinchilikdagi mustaqil ishlarni to'g'ri va maqsadga muvofiq tarzda tashkil eta bilish ham muallimning asosiy vazifalaridan biridir.

### **Badiiy matn tahlili namunasi:**

«Qizil shapkacha» ertagi ustida ishlash

Boshlang'ich sinflar o'qish mashg'ulotlarida kichik yoshdagi bolalarni mustaqil faoliyatga yo'naltirishni fransuz bolalar yozuvchisi Sharl Perro qalamiga mansub «Qizil shapkacha» ertagi matni<sup>106</sup> yoki multfilmi<sup>107</sup> ko'magida quyidagicha davom ettirish mumkin. «Qizil shapkacha» ertagini o'rganishda ta'limning **evristik metodi** qo'l keladi. Mazur metodning ham asosiy didaktik quroli savollardir. Lekin bu metodga xos bo'lgan savollar biror yangilikni kashf etishga qaratilganligi bilan diqqatga sazovor. Mazkur ertak misolida bolalar bevosita Qizil shapkachaning shaxsini, unga xos bo'lgan fe'l-atvorni kashf etadilar.

Ertak matni bilan tanishgan bolalarga dastlab: «Nima deb o'ylaysiz, nega hamma qizaloqqa Qizil shapkacha deb murojaat qiladi?» degan oddiygina, ertakning matnini takrorlashga qaratilgan savol bilan murojaat qilinadi. Tabiiyki, bolalarning xotirasi kuchli, ular: «*Buvisi nevarasining tug'ilgan kuni munosabati bilan qizchaga bitta qizil shapkacha sovg'a qiladi. O'shandan beri qizcha qayoqqa borsa, shu chiroyli, yangi qizil shapkachasini kiyib borardi. Shuning uchun hamma uni Qizil shapkacha deb chaqiradi*», tarzidagi javobni berishadi. Bolalarni o'ylashga yo'naltirilgan navbatdagi: «Qizil shapkachaning o'rmonda to'xtab Bo'ri bilan gaplashish xavfli ekanini bilmasligi sababi haqida o'ylab ko'ring. Sizningcha, bu nimadan dalolat beradi?» savoli – bolalarni asar matniga yondashishda o'zgachalikni talab qiladi.

Ertak matniga diqqat bilan qaralsa, unda hech qanday yetakchi g'oya ham, tinglovchilarning ma'naviyatiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadigan ijobiy jihat ham, mantiq ham (balki bu tarjima jarayonida tushirib qoldirilgandir) yo'q. Bolalar Qizil shapkachani «befarosat» deyisholmaydi, albatta, lekin o'rmon chekkasida yashaydigan, o'rmondagi yovvoyi hayvonlar haqida hech narsa bilmaydigan qizaloq haqida yaxshi gap ayta olmasliklari ham aniq. Asar qahramoniga xos bo'lgan bilimsizlik mana shu savolga javob berish asnosida ma'lum bo'ladi.

«O'ylab ko'ringchi, nega bo'ri yaqin yo'ldan o'zi yurib Qizil

---

106. [ertaklar.uz](http://ertaklar.uz) «Bosh\_sahifa»Жаҳон халқлари эртаклари

107. <https://www.youtube.com/watch?v=w0cA6v-udCI>



shapkachani uzoq yo‘ldan borishga undadi?» savoli ko‘magida bolalar bo‘ri ayyorlik qilganini, qizaloqni laqillatganini payqaydilar va o‘z fikrlarini aytadilar. Bo‘ri qo‘zichoqni aldashi mumkindir, lekin uning insonni, aql sohibi bo‘lgan yaratqni alday olishi mumkinligi aqliy mezonlarga sig‘maydi. O‘qituvchi tomonidan beriladigan bunday mantiqli savollar tarbiyalanuvchilarni shu kabi haqiqatlarni o‘zlari kashf etishlariga yo‘naltirganligi bilan ham diqqatga sazovordir. «Qizil shapkacha bo‘rining gapiga kirib uzoq yo‘ldan ketgani sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. U aqli qizmi, laqmami yoki qo‘rqoqmi? Buni qanday aniqladingiz?» savollari bolalarni o‘ylantiradi. Asar qahramonining qilib turgan ishi aqli odamning qilmishi emasligini bolalar juda yaxshi tushunishadi. Har holda, mazkur savoldan keyin ularda bu qarashning kurtaklari paydo bo‘ladi. Lekin hali uni birdaniga «u laqma, o‘ylamasdan ish qiladi» yoki «qo‘rqoq, shuning uchun bo‘ri aytgan yo‘ldan ketdi» yoxud «uning o‘z fikri yo‘q, kim nima desa shuni qilib ketaveradi» deyishga jur‘at qilisholmaydi. Chunki ko‘ngillarida unga nisbatan achinish hissi bor. Qizchaning o‘zlari singari kichkinaligi, «yo‘lma-yo‘l to‘xtab, gullar terib, guldasta yasa»shi bolalarda o‘ziga nisbatan ijobiy munosabat uyg‘otgan. Shu bois birdaniga unga nisbatan salbiy fikr aytolmaydilar. Qolavrsa, qizaloq bo‘ridan qo‘rqqani ham yo‘q. Bolalar bu savolga qanday javob berishlari dars asnosida ma‘lum bo‘ladi.

«Qizil shapkachaning Bo‘ri yoniga borib yotib olishi Sizga yoqdimi yo‘qmi? Nega?» tarzidagi savolga hamma bolalar «yoqmadim» deb javob berishlari aniq. Chunki bunday vaziyatda aqli bor bola hech qachon bo‘rining yoniga borib yotmaydi va bugungi bolalarning aqlliligidan ko‘z yumib ham bo‘lmaydi. To‘g‘ri, «qizaloq uning bo‘ri ekanligini bilmadi», degan fikr kelishi mumkin. Lekin ertak matnida: «*Qizil shapkacha Bo‘rining xunuk ovozi eshitib, avval qo‘rqibdi*» degan jumla bor. Shu jumlaning o‘zi qizaloqni ziyrakroq bo‘lishi kerakligini ta‘kidlaydi. Chunki ko‘ngildan kechgan ilk tuyg‘u rost va odamzod buni ilg‘ashi va hamisha unga ergashishi kerakligini bilgani ma‘qul. Ko‘ngil insondagi Allohning mulki. Undagi hislarga ergashgan odam yomon bo‘lolmaydi.

Lekin, afsuski, ertakda voqea-hodisalar bu asosga tayanib rivojlanmaydi. Bu ertak bilan bugungi bolalarni hayratga solib bo‘lmaydi. Voqealar rivojidan kelib chiqib kichik o‘quvchilarga

quyidagi savol bilan murojaat qilishga majbur bo'ladi, kishi: «Buvisining to'shagida yotgan bo'ri bilan Qizil Shapkacha o'rtasidagi suhbat asosida qizaloqqa baho bering. U aqlli qizmi yoki esi yo'q qizmi? Buni qanday bildingiz?» O'quvchilarning bu savolga qanday javob berishlarini vaziyat ko'rsatadi, albatta, lekin jun bosgan qo'llar, odamnikiga o'xshamagan og'iz, katta-katta oyoqlar, ko'zlar va tishlarni ko'ra turib bo'riga «buvijon» deb murojaat qilishning o'zi o'quvchining g'ashini keltiradi. Ertak qahramonining bu tutumi bolalarni hayratga solmasligi, hatto, ba'zilarining g'ashini keltirishi ham mumkindir, balki. Faqat ular buni hozircha ifodalab bera olmasliklari aniq. Lekin o'qituvchining vazifasi o'quvchilarni badiiy asarlardagi, hatto ertaklarda bo'lsa ham, to'g'ri bilan noto'g'rini, hatto badiiy yolg'onda ham qandaydir mantiq bo'lishi lozimligini anglatib borishdan iboratdir.

Ma'lumki, o'zbek xalq ertaklarida ham, adabiy ertaklarda ham pand-nasihat, yaxshilikka, to'g'rilikka, halollikka, mardlikka va hk. ijobiy hislarga yo'naltirish ustuvorlik qiladi. Dunyo miqyosiga chiqqan, juda ko'p tillarga tarjima qilingan «Qizil shapkacha» ertagidan o'zbek bolalari bunchalar laqma, ahmoq va fikrsiz bo'lmaslikni, agar shunday bo'lsa, ayyor, aqlli yaratilqlar qurboni bo'lib ketish mumkinligini anglab olarlar, degan umid bor. Mazkur ertak zamirida odam qancha sodda bo'lsa, beg'ubor bo'lsa uni Xudoning o'zi asraydi, degan g'oya bo'lishi ham mumkin. Agar shunday bo'lganda, odamga xos bo'lgan aqllilik, ziyraklik, fikr qilish va hk. fazilatlar ijobiy hislat sifatida baholanmagan bo'lardi. Alloh insonga yuqtirgan bu sifatlar unga bekorga berilmagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'ylab fikr aytishga undovchi keyingi savol-topshiriqlar: «Bo'rining Qizil shapkacha va uning buvisini eb qo'yganiga ishonasizmi? Nima uchun?; O'tinchilar Bo'rining qornini yorganiga va u erdan Qizil shapkacha bilan buvisining eson-omon chiqqaniga ishonasizmi? Nima uchun? Sizningcha, ertak qahramonlaridan qaysi biri aqlli? Buni siz nimalarda ko'rdingiz? Mazkur ertak mazmuni asosida o'zingiz yangi ertak yarata olasizmi? Bir urinib ko'ringchi!»ga ham o'quvchilar o'z bilganlaricha javob beradilar. Albatta, Qizil shapkacha va buvisining bo'ri qornidan eson-omon chiqqanlari ijobiy hol. Ertaklarda bu o'rinli. Mazkur lavha o'quvchilarning ko'ngillarini yorishtiradi. Chunki ular tabiatan

hamisha yaxshilikning, ayniqsa, ertaklar yaxshilik bilan tugashining tarafdori. Lekin aqllilik, ziyraklik va fikr yuritish masalasida ularning xulosasi hech ham Qizil shapkacha tomonda bo'lmasa kerak, yana kim biladi...

Yangi ertak yaratish masalasini o'quvchilarga uyda, ota-onalari ko'magida bajarishni topshirish mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilarning o'qituvchisidan olgan bu topshirig'i, ularning nazarida, boshqa har qanday aqlli odamning qarashlaridan balandroq. Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'qituvchisi bergan topshiriqni bajarishi shart. Shu ma'noda ular ertasi kuni yangi ertak bilan kelishlari, ishonsa bo'ladigan haqiqat. Shunday bo'lgan taqdirda o'quvchilarning ertagini diqqat bilan eshitish, «tushunmagan» o'rinlariga aniqlik kiritib olish, boshqa o'quvchilarni yangi ertakni diqqat bilan eshitishga jalb etish, kam deganda ma'naviy ozuqa beradi kichik ertakchiga. Uni bunday tuyg'ulardan mahrum qilmaslik, o'qituvchining burchidir.

«Ertakdagi biror epizodning suratini chizishga urinib ko'ring. Chizgan rasmingizni gapirib bering» tarzidagi topshiriqni sinfdagi xos o'quvchilar bajarishsa kerak. Lekin ular qanday chizishlaridan qat'i nazar, o'qituvchi o'quvchisining mehnati mahsulini rag'batlantirish bilan birga uni sharhlab berishni ham talab qilishi shart. O'quvchi o'zi chizgan suratining har bir detalini izohlashga urinib ko'rsin. Nima uchun shu detalni suratiga kiritganini asoslab bersin. Suratida nimalar aks etganini o'qituvchisi va o'rtoqlariga tushuntirib berish, har ikkalasi uni diqqat bilan tinglayotgani bolaga zavq beradi. Uning ko'nglini ko'taradi. Shu tariqa, avvalo, shaxs shakllanishi yo'lidagi taraqqiyotning samaradorligi ta'minlanadi. Qolaversa, iqtidori bor o'quvchini tasviriy san'at namunalarini o'qishga yo'naltirishdek ma'rifiy ish amalga oshadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Mustaqil ishlarning kundalik yuritish, maktublar bitish singari turlarining o'ziga xos jihatlarini internet yoki qo'shimcha adabiyotlardan toping. Topgan ma'lumotingizni kursdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

2. Mustaqil ishlarning har biriga munosib ta'rif toping. Ta'rifning manbasini ko'rsatishni unutmang.

3. Taniqli metodist S. Matjonovning mustaqil ishlarga bag‘ishlangan qarashlarini alohida o‘rganib chiqing. Tahlilga torting. Munosabat bildiring. Qarashlaringizni asoslang.

4. Mustaqil o‘qish va sinfdan tashqari o‘qish singari mustaqil ish turlarini farqlang. Xulosalaringizni asoslang.

5. Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi” darsliklaridan o‘rin olgan badiiy asarlar mazmuni yuzasidan kuchli, o‘rtacha va zaif o‘quvchilarga mo‘ljallangan kartochkalar tuzing. Guruhda ularni muhokama qiling. Yutuq va kamchiliklarini aniqlang. Bir-biringizning ishingizga munosabat bildiring. Fikringizni asoslang.

6. Darsliklardagi badiiy asarlar misolida mustaqil ishlarning turli namunalarini tayyorlang. Birgalikda tahlilga tortib kamchiliklarini bartaraf qiling.

7. O‘z ijodingiz namunalari bilan (ijod bilan shug‘ullanadiganlar, albatta) o‘rtoqlashing. Ijod namunalarini tahlilga torting.

8. “Derazamdagi manzara” mavzusida esse yozing. Har biringiz o‘z ishingizni o‘rtoqlaringiz muhokamasiga qo‘ying.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Asosiy adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.-T.:2019-yil 29-aprel, PF-5712-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari. Toshkent. 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi “Bolajon” tayanch dasturi, Toshkent. 2010.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 1992. - 46 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T., 1997. - B. 20-29.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». \Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1997. -B. 31-60.
8. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti. – T.: Yangiyo‘l poligraf service, 2010. – 42-46 b.
9. Uzviylashtirilgan o‘quv dasturi. – T.: Yangiyo‘l poligraf service, 2010. – 46-68 b.
10. O‘zbek pedagogikasi tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. /A. Zunnunov tahriri ostida. - T.: O‘qituvchi, 1997. -272 b

### **II. Qo‘shimcha adabiyotlar.**

1. Quronov M. Milliy tarbiya yo‘riqnomasi. G‘arb va Sharq tarbiyaviy tajribalari namunalari tahlili //J. Xalq ta’limi. 1993. -№ 8. -B. 6-10.
2. G‘ulomov A. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. -T.: O‘qituvchi.1987.
3. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: Sharq, 2017. – 127 b.
4. G‘afforova T., Nurillayeva.Sh., Mirzahakimova.Z. O‘qish kitobi (2-sinf uchun darslik). – T.: Sharq, 2018. – 176 b.
5. Umarova.M., Hamraqulova.X., Tojiboyeva.R. O‘qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2016. – 217 b.
6. Matchonov.S., Shojalilov.A., G‘ulomova.X., Dolimov.Z. O‘qish kitobi (4-sinf uchun darslik). – T.: Yangi yo‘l poligraf servis, 2017. – 216 b.

7. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari. –T.: Sharq, 2013. – 126 b.
8. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
9. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1990. -184 bet.
10. G'oziev E., Ikromov J. Mustaqil fikrlashning komillikka ta'siri //J. Xalq ta'limi. -2001. -№ 4. -B. 31-38.
11. G'oziev E. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - T.: O'qituvchi, 2003. - 336 b.
12. Hayot uchun saboqlar. BMT Bolalar jamg'armasi. O'zbekiston, 2003. - 154 bet.
13. Husanboyeva.Q. Tahlil - adabiyotni anglash yo'li. Toshkent. "Muharrir" nashriyoti. 2013.-432 bet.
14. Husanboyeva.Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2009.-368 bet.
15. Husanboyeva Q.Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.f.dok.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T:.-2006. 262 b.
16. Husanboyeva Q. Literature as a factor for development of morality and independent thinking.-T.: Tamaddun.2016.-298 b.

**Qunduzxon HUSANBOEVA, Faxriddin SHODIEV,  
Mutallib HAZRATQULOV**

**BOSHLANG‘ICH SANFLARDA  
ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI**

**Oliy o‘quv yurtlarining pedagogika fakultetlari  
(boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari) talabalari uchun  
d a r s l i k**

Қоғоз бичими 60x84<sub>1/16</sub>. Шартли босма табағи 25,0.  
Адади 100 нусха. Буюртма № 10/14.

“Ф.Насимов” ХК ускуналарида чоп этилди.  
Самарқанд ш., Муаззамхон к., 53.